

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**ABDULLAEV A.J, QAYIMOVA Z.A, BOLTAEV
SH.SH, NARZIEVA D.M**

PUL VA BANKLAR

O'quv qo'llanma

Bilim sohasi: 200000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta`lim sohasi: 230000 – Iqtisod
Ta`lim yo`nalishi: 5230100 – Iqtisodiyot (kasb ta`limi)
– Iqtisodiyot (iqtisodiy nazariya)
– Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar)

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2021**

UDK 336.71(075.8)

65.262.1я7

P 92

Pul va banklar [Matn] : o'quv qo'llanma / Abdulloyev A.J. [va boshq.] .-
Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durдона nashriyoti, 2021. -360 b.

КБК 65.262.1я7

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy ta'limning 5230100 - "Pul va banklar" bakalavriat yo'nalishi uchun tasdiqlangan namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilgan "Pul va banklar" o'quv fanining namunaviy dasturiga asosan tayyorlangan. Mazkur fan 1-moduli «Pul va banklar»ning asosiy masalalari qisqa va tushunarli tilda bayon etilgan, o'zining mazmuni va mohiyati jihatidan hozirgi zamonning talabiga to'laligicha javob beradi. Barcha keltirilgan ma'lumotlar talabalarlarga bozor iqtisodiyoti sharoitida zamonaviy pul, kredit va pul-kredit munosabatlarini va rivojlanish yo'nalishlarini o'rgatishni nazariy jihatdan chuqurroq anglash imkonini beradi.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining iqtisodiyot yo'nalishida o'qiyotgan bakalavrlariga va mazkur fanni o'qitadigan professor-o'qituvchilariga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

N.N.Asqarov, Qishloq xo'jaligi va oziq ovqat sohasi iqtisodiyoti
ITI ilmiy kotibi, i.f.n., kat.i.x.

F.M.Raxmatullaeva, BuxDU Iqtisodiyot kafedrasida dotsenti, i.f.n.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 1-martdagi 110-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

Ro'yxatga olish raqami 110-306.

ISBN 978-9943-7082-8-0

Абдуллоев А.Ж., Каймиова З.А, Болтаев Ш.Ш., Нарзиева Д.М. «Деньги и банки» учебное пособие - Б.: «», 2021. - 360 с.

Данное учебное пособие составлено с учетом требований государственных образовательных стандартов Республики Узбекистан и подготовлено на основе стандартной программы учебного предмета “Деньги и банки” утвержденным для направления бакалавриата высшего образования 5230100 – “Экономика” (по отраслям и сферам). 1-модуль субъекта представлен в кратком и понятном языке, его содержание и сущность полностью соответствует современным требованиям. Вся предоставленная информация позволяет студентам и мастерам получить более глубокое теоретическое понимание внешнеэкономической деятельности и управления конкуренцией.

Учебник предназначен для бакалавров, мастеров, обучающихся в области экономики, а также для учебных сотрудников высших учебных заведений.

Рецензенты: кандидат экономических наук, профессор Н.Н. Аскарров
Кандидат экономических наук, доцент Ф.М. Рахматуллаева

Abdulloev A.J, Kaimova Z.A, Boltaev Sh.Sh., Narzieva D.M. "Money and Banks" Study Guide - B. : "", 2021. - 360 p.

This textbook is compiled taking into account the requirements of the state educational standards of the Republic of Uzbekistan and is prepared on the basis of the standard curriculum of the subject "Foreign economic activity and competition management" approved for the direction of the Bachelor of higher education 5233300 - «Agribusiness and investment activity». 1-Module of the subject "Foreign Economic Activity" is presented in a concise and understandable language, its content and essence fully meets modern requirements. All the information provided allows students and masters to gain a deeper theoretical understanding of foreign economic activity and competition management.

The textbook is intended for bachelors, masters studying in the field of Economics and for the teaching staff of higher educational institutions.

Reviewers: candidate of Economic Sciences, professor N.N. Askarov
candidate of Economic Sciences, docent F.M. Rakhmatullaeva

MUNDARIJA

Kirish	18
1-modul. Pulning paydo bo`lishi, zarurligi va funktsiyalar.....	20
1.1. Fanning predmeti va vazifalari. Pulning paydo bo`lish sabablari.....	20
1.2. Pul shakllari va turlarining evolyutsiyasi.....	25
1.3. Pulning funktsiyalari.	27
1.4. Kredit pullari va ularning turlari	32
2-modul. Pul nazariyalari.....	40
2.1. Pulning metallilik nazariyasi.....	40
2.2. Pulning nominallik nazariyasi.....	43
2.3. Pulning miqdoriylik nazariyasi.	44
2.4. Zamonaviy monetarizm nazariyasi.	46
3-modul. Pul aylanmasi va uning tarkibi.	51
3.1. “Pul aylanmasi” tushunchasining mazmuni va pul aylanmasining tarkibiy tuzilishi	51
3.2. Naqd pul aylanmasi va uni tashkil qilish printsiplari. Naqd pullarni muomalaga chiqarish va muomaladan olish tartibi.....	54
3.3. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari.	60
3.4. Umumiy to`lov aylanmasi” tushunchasi va uning tarkibi. To`lov aylanmasining tarkibi.	64
4- modul. Pul muomalasini tashkil qilish va pul massasi	66
4.1. Pul muomalasini tashkil qilish asoslari.....	66
4.2. Pul muomalasi qonunlari va ulardan kelib chiqadigan talablar. Pul massasi va uni tavsiflovchi ko`rsatkichlar.....	70
4.3. Pullarga bo`lgan talab va pullar taklifi. Pul muomalasi tushunchasi. Pul muomalasi qonunlaridan kelib chiqadigan talablar.	74
4.4. Muomala uchun zarur bo`lgan pul miqdorini aniqlash uslublari. I. Fisherning “almashuv tenglamasi”.	77
4.5. K. Marksning muomala uchun zarur bo`lgan pul miqdorini aniqlash formulasi.	79
4.6. Pul muomalasi qonunlarining buzilishi hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini.....	80
5-modul. Pul tizimlari, tushunchasi, shakllari va elementlari	85
5.1. “Pul tizimi” tushunchasining mazmuni. Pul tizimining shakllari.	86

5.2. Pul tizimining elementlari.	89
5.3. O`zbekiston Respublikasining pul tizimi.	90
5.4. Pul multiplikatori va pulni sug`urtalash.	95
6- modul. Inflyatsiya va uning turlari. pulning barqarorligini ta`minlash yo`llari	97
6.1. Inflyatsiya tushunchasi va turlari	97
6.2. Inflyatsiyaga ta`sir qiluvchi omillar	101
6.3. Inflyatsiyani yuzaga keltiruvchi sabablar.	108
6.4. Inflyatsiyaga qarshi kurash va pulning barqarorligini ta`minlash yo`llari.....	113
6.5. Inflyatsiyaning makroiqtisodiy o`shish sur`atlariga ta`siri.	119
6.5. Pul massasining o`shishini jilovlashga qaratilgan monetar siyosatni amalga oshirish.....	130
7- modul. Pul islohotlari	137
7.1. Pul islohotlarini amalga oshirishning zarurligi. Pul islohotlarini amalga oshirish shart-sharoitlari.	137
7.2. Pul islohotlarini amalga oshirish usullari.....	140
7.3. Denominatsiya va uni amalga oshirish tartibi. Nullifikatsiya va uni amalga oshirish tartibi.	141
7.4. O`zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan pul islohotlari va ularning o`ziga xos xususiyatlari.....	142
8-modul. Kreditning zarurligi, mohiyati va funksiyalari.	145
8.1. Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida.....	145
8.2. Kreditning mohiyati. Kreditning funksiyalari.....	151
8.3. Kreditning printsiplari. Kreditning zarurligini belgilovchi omillar.....	154
8.4. Kapitalning doiraviy aylanishi va aylanishi.....	158
8.5. Aholining kreditga bo`lgan talabining paydo bo`lishi. Davlatning kredit resurslariga bo`lgan talabining paydo bo`lishi. Kreditning shakllari.	160
8.6. Kredit qonunlarining zarurligi va ob`ektivligi.	163
8.7. Kreditning xarakterli va xususiyatli belgilari.....	165
9-modul. Kredit munosabatlarning rivojlanish bosqichlari.....	170
9.1. Kredit munosabatlarning yuzaga kelish sabablari. Kredit munosabatlarning rivojlanish bosqichlari.	170
9.2. Sudxo`rlik kreditining yuzaga kelishi. Tijorat krediti va bank kreditining paydo bo`lishi.	174

9.3. Kredit munosabatlarining yuzaga kelish sabablari va shart-sharoitlari.....	177
10-modul. Kredit turlari va shakllari	179
10.1. Kreditning turlari. Kreditning shakllari. Kreditning tarmoq yo`nalishiga ko`ra turlari.....	179
10.2. Kreditning ta`minlanganligiga ko`ra turlari. Kreditning muddatiga ko`ra turlari. Kreditning to`lovliligiga ko`ra turlari....	191
10.3. Kreditning shakllari.....	193
11-modul. Kreditning bahosi va unga ta`sir qiluvchi omillar	194
11.1. Kreditning bahosi tushunchasi. Oddiy foizlar va ularni hisoblash tartibi. Murakkab foizlar va ularni hisoblash tartibi.	194
11.2. Ssuda kapitallari bozori va uning segmentlari.	199
11.3. Kapital bozorida o`rta va o`zoq muddatli kreditlar bahosining shakllanishi.	201
11.4. Kreditning bahosiga ta`sir qiluvchi omillar.	203
11.5. Markaziy bankning hisob (diskont) stavkasi. Markaziy bankning lombard stavkasi.....	206
12-modul. Banklarning kelib chiqishi va bank tizimi	209
12.1. Banklarning paydo bo`lishiga sabab bo`lgan tarixiy shart-sharoitlar.	209
12.2. Banklarning turlari va ular faoliyatining o`ziga xos xususiyatlari. Bank tizimi va uning elementlari.	212
12.3. O`zbekiston Respublikasining bank tizimi.	214
12.4. Markaziy banklarning yuzaga kelish sabablari va shart-sharoitlari.	218
13-modul. Markaziy bank va uning funksiyalari	222
13.1. Markaziy bankning tashkiliy tuzilishi.....	222
13.2. Markaziy bank faoliyatining maqsadi va vazifalari.....	224
13.3. Markaziy bankning funktsiyalari: emission funktsiya; “banklarning banki” funktsiyasi.....	226
14-modul. Markaziy bankning aktiv va passiv operatsiyalari ...	231
14.1. Markaziy bankning aktiv operatsiyalari.....	232
14.2. Markaziy bankning passiv operatsiyalari.....	236
15-modul. Markaziy bankning mustaqilligi.....	243
15.1. Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligi va uni baholash tartibi. Markaziy bankning siyosiy mustaqilligi va uni baholash tartibi.....	243

15.2. Markaziy banklarning mustaqillik shkalasi. AQSH Federal zaxira tizimining mustaqillik darajasi.	244
15.3. Evropa Markaziy bankining mustaqillik darajasi. YAponiya Markaziy bankining mustaqillik darajasi. O`tish iqtisodiyoti mamlakatlari Markaziy banklarining mustaqillik darajasi.	248
15.4. O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mustaqillik darajasi.	255
16-modul. Tijorat banklari va ularning funksiyalari.....	259
16.1. Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish asoslari. Tijorat banklarining tashqiliy tuzilishi.	259
16.2. Tijorat banklarining funktsiyalari. Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.	264
16.3. Tijorat banklari faoliyatini litsenziyalash. Tijorat banklarining tashqiliy tuzilishi.	269
16.4. Jamiyatda vaqtinchalik bo`sh pul mablag`larining yuzaga kelishi. Pul mablag`larini tijorat banklarida to`planishi.	273
17-modul. Tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalari..	276
17.1. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari va ularni amalga oshirish asoslari.	276
17.2. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari. Tijorat banklari passivlarining barqarorligi.....	280
17.3. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari.....	283
17.4. Banklarning qimmatli qog`ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalari.....	287
18-modul. Nobank kredit tashkilotlari va ularning turlari	293
18.1. Nobank kredit tashkilotlari va ularning zarurligi. Nobank kredit tashkilotlarining aktiv va passiv operatsiyalari.	293
18.2. Nobank kredit tashkilotlarining resurs bazasini shakllanishi.	297
18.3. Nobank kredit tashkilotlarining aktiv operatsiyalari.....	298
18.4. Nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish tizimi.	299
19-mavzu. Kredit tizimi va uning barqarorligiga ta`sir qiluvchi omillar.....	301
19.1. Kredit tizimining mazmuni va tarkibi. Kredit tizimining elementlari. Kredit tizimining turlari.	301
19.2. Kredit tizimining barqarorligiga ta`sir qiluvchi omillar. “Kredit tizimi” tushunchasining mazmuni. Kredit tizimining tarkibi. Kredit tizimining elementlari.....	306

19.3. Kreditlashni tashkil qilish printsiplari. Kredit tizimining turlari: markazlashgan kredit tizimi; bozor kredit tizimi; o`tish davri kredit tizimi.....	308
19.3. Kredit tizimining holatini tavsiflovchi ko`rsatkichlar. Kredit tizimining barqarorligiga ta`sir etuvchi omillar.....	311
20-modul. Xalqaro valyuta munosabatlari va ularni tartibga solish masalalari	319
20.1. Xalqaro valyuta munosabatlari va ularni yuzaga kelish asoslari. Milliy valyuta tizimi va uning elementlari.....	319
20.2. Jahon valyuta tizimi va uning elementlari. Valyuta munosabatlarini tartibga solish tizimi.....	322
20.3. Valyuta munosabatlari tushunchasining mazmuni.	327
20.4. Valyuta kursi rejimlari.	329
21-modul. Xalqaro moliya institutlari va ularning turlari	342
21.1. Xalqaro moliya institutlarining zarurligi va turlari.....	342
21.2. Mintaqaviy rivojlanish banklari.....	345
21.3. Jahon banki guruhiga kiruvchi tashkilotlar: tashkil topishi, maqsadi, boshqaruv tizimi, resurslari va aktiv operatsiyalari. Mintaqaviy rivojlanish banklari.....	347
21.4. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki.....	348
O`z-o`zini sinash testlari.....	351
Mavzuga oid adabiyotlar, jurnallar va internet tarmog`idan olingan tarqatma materiallar.....	359

СОДЕРЖАНИЕ

Введение	18
1-модуль. Возникновение, необходимость и функции денег..	20
1.1. Предмет и функции науки. Причины появления денег	20
1.2. Эволюция форм денег и видов. Сущность денег и формы их проявления.	25
1.3. Функции денег. Эволюционное значение форм	27
1.4. Кредитные деньги и их формы	32
2-модуль. Теории денег	40
2.1. Металлическая теория денег	40
2.2. Номинативная теория денег.	43
2.3. Количественная теория денег.	44
2.4. Теория современного монетаризма.	46
3-модуль. Денежный оборот и его состав.	51
3.1. Содержанием понятия оборота является структурная структура и структура денег. Денежный оборот	51
3.2. Наличный оборот и составляют его отпечатки. Порядок выдачи и изъятия наличных денег из обращения находится в обращении.	54
3.3. Расчетные формы-безналичные.	60
3.4. Понятие "общий оборот по оплате" и его состав. Структура выплат оборачиваемость.	64
4- модуль. Организация и массовое денежное обращение денег	66
4.1. Основы денежного обращения составляют.	66
4.2. Требования, вытекающие из них, являются законами денежного обращения и. Масса денег и показатели, которые ее характеризуют.	70
4.3. Запросите предложение о деньгах и деньгах. Содержание и назначение законов денежного обращения. Требования, вытекающие из законов денежного обращения.	74
4.4. Методы определения суммы денег, которая необходима для лечения. "Уравнение обмена "Фишера.	77
4.5. Формула К. Маркса для определения суммы денег, необходимой для лечения.	79
5-модуль. Денежная система: понятие, формы и элементы ..	85

5.1. Содержание понятия "денежная система". Формы денежной системы.....	86
5.2. Элементы денежной системы.	89
5.3. Элементы денежной системы Республики Узбекистан.	90
5.4. Денежный мультипликатор и страхование денег.....	95
6- модуль. Инфляция и ее виды. способы обеспечения стабильности денег	97
6.1. Содержание понятия "инфляция" и виды инфляции. Социально-экономические последствия инфляции	97
6.2. Борьба с инфляцией и пути обеспечения стабильности денег.....	101
6.3. Причины, провоцирующие инфляцию. Виды инфляции.	108
6.4. Влияние инфляции на макроэкономические темпы роста. Влияние инфляции на инвестиционные процессы.....	113
6.5. Осуществление монетарной политики, направленной на сдерживание роста денежной массы.....	119
7- модуль. Денежная реформа	137
7.1. Необходимость проведения денежной реформы. Условия проведения денежной реформы.....	137
7.2. Деноминация и порядок ее осуществления. Обнуление и порядок его проведения.....	140
7.3. Денежные реформы в Республике Узбекистан и их специфика.....	141
8-модуль. Необходимость, сущность и функции кредита. ...	145
8.1. Кредит как экономическая категория.	145
8.2. Сущность кредита. Функции кредита.....	151
8.3. Принципы кредитования. Факторы, определяющие необходимость кредита.	154
8.4. Круговой оборот и оборачиваемость капитала.....	158
8.5. Возникновение спроса населения на кредит. Возникновение спроса государства на кредитные ресурсы.	160
8.6. Необходимость и объективность кредитных законов.	163
8.7. Характерные и характерные признаки кредита.....	165
9-модуль. Этапы развития кредитных отношений.	170
9.1. Причины возникновения кредитных отношений. Этапы развития кредитных отношений.	170
9.2. Возникновение ростовщического кредита. Возникновение коммерческого кредита и банковского кредита.	174

9.3. Причины и условия возникновения кредитных отношений. Этапы развития кредитных отношений.	177
10-модуль. Виды и формы кредита	179
10.1. Виды кредита. Формы кредита. Виды кредита по отраслевой направленности.	179
10.2. Виды кредита по обеспеченности. Виды по сроку кредита. Виды по кредитоспособности.	191
10.3. Формы кредита.	193
11-модуль. Оценка кредита и факторы, влияющие на него	194
11.1. Понятие оценки кредита. Простые проценты и порядок их начисления. Сложные проценты и порядок их начисления. ...	194
11.2. Рынок ссудного капитала и его сегменты.	199
11.3. Формирование цены среднесрочных и долгосрочных кредитов на рынке капитала.....	201
11.4. Факторы, влияющие на цену кредита.	203
11.5. Учетная (дисконтная) ставка Центрального банка. Ломбардная ставка Центрального банка.	206
12-модуль. Происхождение банков и банковская система...	209
12.1. Исторические предпосылки, послужившие причиной возникновения банков.....	209
12.2. Банковская система и ее элементы.	212
12.3. Банковская система Республики Узбекистан.....	214
12.4. Причины и условия возникновения центральных банков.....	218
13-модуль. Центральный банк и его функции.....	222
13.1. Организационная структура Центрального банка.....	222
13.2. Цели деятельности Центрального банка.	224
13.3. Функции центрального банка.	226
14-модуль. Активные и пассивные операции центрального банка	231
14.1. Активные операции Центрального банка.....	232
14.2. Пассивные операции Центрального банка.	236
15-модуль. Независимость центрального банка.....	243
15.1. Экономическая независимость Центрального банка и порядок ее оценки. Политическая независимость Центрального банка и порядок ее оценки.	243
15.2. Шкала независимости центральных банков. Степень независимости Федеральной резервной системы США.	244

15.3. Степень независимости Европейского центрального банка. Степень независимости Центрального Банка Японии. Степень независимости центральных банков стран переходной экономики.	248
15.4. Степень независимости Центрального банка Республики Узбекистан.	255
16-модуль. Коммерческие банки и их функции	259
16.1. Основы организации деятельности коммерческих банков. Организационная структура коммерческих банков.	259
16.2. Функции коммерческих банков. Экономические и правовые основы организации деятельности коммерческих банков.	264
16.3. Лицензирование деятельности коммерческих банков. Организационная структура коммерческих банков.	269
16.4. Виды депозитных счетов банков. Формирование активов коммерческих банков.	273
17-модуль. Активные и пассивные операции коммерческих банков	276
17.1. Активные операции коммерческих банков и основания их осуществления.	276
17.2. Пассивные операции коммерческих банков. Устойчивость пассивов коммерческих банков.	280
17.3. Содержание и категоризация активных операций коммерческих банков. Кредитные операции коммерческих банков.	283
17.4. Инвестиционные операции банков с ценными бумагами.	287
18-модуль. Небанковские кредитные организации и их виды	293
18.1. Небанковские кредитные организации и их необходимость. Активные и пассивные операции небанковских кредитных организаций.	293
18.2. Формирование ресурсной базы небанковских кредитных организаций.	297
18.3. Активные операции небанковских кредитных организаций.	298
18.4. Система регулирования деятельности небанковских кредитных организаций.	299

19-модуль. Кредитная система и факторы, влияющие на ее устойчивость	301
19.1. Содержание и структура кредитной системы. Элементы кредитной системы. Виды кредитных систем.....	301
19.2. Принципы организации кредитования. Виды кредитных систем: централизованная кредитная система; рыночная кредитная система; переходная кредитная система.	306
19.3. Показатели, характеризующие состояние кредитной системы. Факторы, влияющие на устойчивость кредитной системы.	308
20-модуль. Международные валютные отношения и вопросы их регулирования	319
20.1. Международные валютные отношения и основания их возникновения. Национальная валютная система и ее элементы.	319
20.2. Мировая валютная система и ее элементы.....	322
20.3. Содержание понятия валютные отношения.....	327
20.4. Режимы валютного курса.	329
21-модуль. Международные финансовые институты и их виды.....	342
21.1. Необходимость и виды международных финансовых институтов.	342
21.2. Региональные банки развития.....	345
21.3. Организации, входящие в Группу Всемирного банка: организация, назначение, система управления, ресурсы и операции с активами. Региональные банки развития.	347
21.4. Европейский банк реконструкции и развития.	348
Тесты.....	351
Список литературы	359

CONTENTS

Introduction	18
1-module. Emergence, necessity and functions of money	20
1.1. Subject and tasks of science. Reasons for the emergence of money	20
1.2. Evolution of money forms and types. The essence of money and its manifestations.....	25
1.3. Functions of money. The evolution of value forms. A simple or random form of value	27
1.4. Loans and their types.....	32
2-module. Money theories	40
2.1. Metallurgy theory of money.....	40
2.2. Nominal theory of money.	43
2.3. Quantitative theory of money.	44
2.4. The theory of modern monetarism.....	46
3-module. Cash flow and its structure.	51
3.1. The content of the concept of "money circulation" and the structure of money circulation	51
3.2. Cash flow and principles of its organization. Procedure for issuing and withdrawing cash.	54
3.3. Cashless payment system and its elements.....	60
3.4. Cashless payment forms.....	64
4- module. Organization of money transfer and money	66
4.1. Basics of the organization of money circulation	66
4.2. Money circulation laws and requirements arising from them. Money supply and its indicators.	70
4.3. Demand for money and supply of money. The content and purpose of the laws of money circulation. Requirements arising from the laws of money circulation.	74
4.4. Methods of determining the amount of money required for the transaction. I. Fisher's "exchange equation".	77
4.5. K. Marx's formula for determining the amount of money required for a transaction.....	79
5-module. Money system: concept, forms and elements	85
5.1. The content of the concept of "monetary system". Forms of the monetary system.....	86

5.2. Elements of the monetary system. Formation and development of the monetary system of the Republic of Uzbekistan.	89
5.3. Principles of organization of the monetary system.....	90
5.4. Forms of the monetary system: bimetallism; monometallism; paper and credit money system	95
6- module. Inflation and its types. ways to ensure money sustainability	97
6.1. The content of the concept of "inflation" and types of inflation. Socio-economic consequences of inflation.....	97
6.2. Ways to fight inflation and ensure the stability of money	101
6.3. Causes of inflation. Types of inflation.....	108
6.4. The impact of inflation on macroeconomic growth rates. The impact of inflation on investment processes.	113
6.5. Implement monetary policy aimed at curbing the growth of money supply.....	119
7- module. Monetary reform.....	137
7.1. The need for monetary reform. Conditions for the implementation of monetary reforms.....	137
7.2. Denomination and the order of its implementation. Nullification and the procedure for its implementation.....	140
7.3. Monetary reforms in the Republic of Uzbekistan and their peculiarities.....	141
8-module. Necessity, nature and functions of credit.....	145
8.1. Credit as an economic category.	145
8.2. The essence of the loan. Functions of credit.....	151
8.3. Principles of credit. Factors determining the need for credit..	154
8.4. Circular turnover and turnover of capital.....	158
8.5. Emergence of population demand for credit. The emergence of the state's demand for credit resources.....	160
8.6. Necessity and objectivity of credit legislation.	163
8.7. Characteristics and features of the loan	165
9-module. Stages of development of credit relations.	170
9.1. Reasons for the emergence of credit relations. Stages of development of credit relations.	170
9.2. Occurrence of usury credit. The emergence of commercial credit and bank credit.....	174
9.3. Causes and conditions of credit relations. Stages of development of credit relations.	177

10-module. Types and forms of credit	179
10.1. Types of credit. Forms of credit. Types of credit by industry.....	179
10.2. Types of credit according to collateral. Types of loans by term. Types of loans according to repayment.	191
10.3. Forms of credit.	193
11-module. Price of credit and factors affecting it	194
11.1. The concept of loan cost. Simple interest rates and the order of their calculation. Complex interest rates and the order of their calculation.....	194
11.2. Debt capital market and its segments.....	199
11.3. Price formation of medium and long-term loans in the capital market.	201
11.4. Factors influencing the price of the loan.....	203
11.5. Central bank discount rate. Central bank pawn rate.	206
12-module. The origin of banks and the banking system	209
12.1. The historical conditions that led to the emergence of banks.....	209
12.2. Banking system of the Republic of Uzbekistan.....	212
12.3. Banking system and its elements.	214
12.4. Reasons and conditions for the emergence of central banks	218
13-module. Central bank and its functions	222
13.1. Organizational structure of the Central Bank.	222
13.2. Objectives of the Central Bank.	224
13.3. Functions of the central bank.	226
14-module. Active and liability operations of the central bank .	231
14.1. Active operations of the central bank.	232
14.2. Passive operations of the Central Bank.	236
15-module. Independence of the central bank.	243
15.1. Economic independence of the central bank and the procedure for its assessment. Political independence of the central bank and the procedure for its assessment.....	243
15.2. Scale of independence of central banks. The degree of independence of the U.S. Federal Reserve System.	244
15.3. Degree of independence of the European Central Bank. Degree of independence of the Central Bank of Japan. The degree of independence of the Central Banks of countries with economies in transition.	248

15.4. Degree of independence of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan.	255
16-module. Commercial banks and their functions.....	259
16.1. Basics of organizing the activities of commercial banks. Organizational structure of commercial banks.	259
16.2. Functions of commercial banks. Economic and legal bases of the organization of activity of commercial banks.	264
16.3. Licensing of commercial banks. Organizational structure of commercial banks.	269
16.4. Types of bank deposit accounts. Formation of assets of commercial banks.	273
17-module. Active and passive operations of commercial banks	276
17.1. Active operations of commercial banks and bases of their implementation.	276
17.2. Passive operations of commercial banks. Stability of liabilities of commercial banks.....	280
17.3. Content and classification of active operations of commercial banks. Credit operations of commercial banks.	283
17.4. Investment operations of banks with securities	287
18-module. Nobank credit organizations and their types	293
18.1. Nonbank credit institutions and their necessity. Active and passive operations of non-bank credit institutions.....	293
18.2. Formation of the resource base of non-bank credit institutions.	297
18.3. Active operations of non-bank credit institutions.....	298
18.4. The system of regulation of the activities of non-bank credit institutions.	299
19-mavzu. Credit system and factors affecting its sustainability	301
19.1. The content and structure of the credit system. Elements of the credit system. Types of credit systems.....	301
19.2. Principles of lending organization. Types of credit system: centralized credit system; market credit system; transition period credit system.	306
19.3. Indicators characterizing the state of the credit system. Factors affecting the stability of the credit system.	308
20-module. International currency relations and their regulation	319

20.1. International monetary relations and the basis of their formation. National currency system and its elements.	319
20.2. The world monetary system and its elements.	322
20.3. The content of the concept of currency relations.	327
20.4. Exchange rate regimes.	329
21-module. International financial institutions and their types.	342
21.1. Necessity and types of international financial institutions. ..	342
21.2. Regional Development Banks.	345
21.3. Organizations belonging to the World Bank Group: establishment, purpose, management system, resources and active operations. Regional Development Banks.	347
21.4. European Bank for Reconstruction and Development.	348
Tests	351
References	359

KIRISH

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 20 aprelda imzolangan “Oliy ta`lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarorda “Har bir oliy ta`lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta`lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o`rnatish, o`quv jarayoniga xalqaro ta`lim standartlariga asoslangan ilg`or pedagogik texnologiyalar, o`quv dasturlari va o`quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o`quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o`tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta`lim muassasalaridan yuqori malakali o`qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta`lim muassasalari magistrant, yosh o`qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o`tashlarini, professor-o`qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish”¹ vazifalari alohida ta`kidlangan.

Shu sababli talabalar bilimini oshirish maqsadida kafedra o`qituvchilari tomonidan “Pul va banklar” fanidan ham nazariy, ham amaliy mashg`ulotlarni o`z ichiga olgan o`quv qo`llanma yaratildi. Ushbu qo`llanma “Pul, kredit va banklar” kursining o`quv dasturi asosida yaratilgan bo`lib, Davlat ta`lim standarti talablariga javob beradi. Ushbu nashr talabalarga pul, kredit, banklar nazariyasining hozirgi holati to`g`risida tushunchalarni shakllantirish, zamonaviy pul, kredit, to`lov, bank tizimlari va ularning elementlarini yaratish va ishlash jarayonlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Qo`llanma oliy o`quv yurtlari talabalari, o`qituvchilar, shuningdek moliya va kredit organlari tadqiqotchilari va mutaxassislari uchun mo`ljallangan.

¹O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta`lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 2909-sonli Qarori. “Xalq so`zi” gazetasi, 2017 yil 21 aprel’.

1-MODUL. PULNING PAYDO BO`LISHI, ZARURLIGI VA FUNKTSIYALAR

1. Fanning predmeti va vazifalari. Pulning paydo bo`lish sabablari.

2. Pul shakllari va turlarining evolyutsiyasi. Pulning mohiyati va uning namoyon bo`lish shakllari.

3. Pulning funksiyalari. Qiymat shakllarining evolyutsiyasi. Qiymatning oddiy yoki tasodifiy shakli.

4. Kredit pullari va ularning turlari

1.1. Fanning predmeti va vazifalari. Pulning paydo bo`lish sabablari

Fanning maqsadi – talabalarga pulning zarurligi, mohiyati, pul nazariyalari va pul aylanmasi, kredit va kredit munosabatlari, banklar va bank tizimi, valyutalarning xalqaro miqyosdagi harakatini tashkil qilish bo`yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlar berishdan iborat.

Fanning vazifasi - pulning kelib chiqishi va zarurligi, pulning mohiyati va pul muomalasi qonunlari, pul aylanmasi va pul tizimi, kreditning mohiyati va printsiplari, kreditning shakllari va turlari, bank tizimining mohiyati, xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilish va tartibga solish asoslari xususidagi nazariy va amaliy bilimlarni o`rgatishdan iborat.

Pul maxsulot, tovarlarni ishlab chiqarish va xaridorlarga kerakli vaqt, miqdor va sifatda ma`lum shartlarda ayirboshlashni tashkil etish va boshqarish maqsadida vujudga keldi va xizmat qilmoqda.

Fanning predmeti, pulning paydo bo`lish sabablari, pul shakllari va turlarining evolyutsiyasi, uning mohiyati va uning namoyon bo`lish shakllari, funksiyalari, Qiymat shakllarining evolyutsiyasi, Qiymatning shakllari, boshqa iqtisodiy kategoriyalardan ajralib turuvchi o`ziga hos xususiyatlari hamda kredit pullari va ularning turlarini chuqurroq o`rgatadi.

Pulning paydo bo`lish sabablari.

Tarixiy kategoriya sifatida pulning paydo bo`lishi va rivojlanish jarayonining boshlanishi miloddan avvalgi 7-8 ming yillarga to`g`ri

keladi. Keyinchalik, pulning tabiati ularning bajarish funksiyalarining shakli, turlari va usullarida o'zgargan.

Ma'lumki, pul tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashning uzoq vaqt rivojlanishi natijasida vujudga keldi. Pul paydo bo'lishining ob'ektiv zaruriyati tovar ayirboshlash ehtiyojlari bilan vujudga kelgan hamda ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Pul paydo bo'lishi mehnat taqsimoti bilan bog'liq. Birinchi yirik mehnat taqsimoti, ya'ni chorvachilikdan dehqonchilikni ajralib chiqishi va shu munosabat bilan tovar xo'jaligining rivojlanishi tufayli mahsulot qiymatining ifodasi bo'lmish pulni keltirib chiqardi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi, tovar turlarining ko'payishi almashuv jarayonining yanada rivojlanishini taqozo qildi. Almashuv jarayonida tovar egalari o'zaro muloqotda bo'lib, tovarning egasi o'z mahsulotini (mulkini) baholagan. Shu baholash jarayoni biror o'lchov birligi bo'lishini taqozo qilgan. Tovar muomilasining ekvivalent rivojlanish jarayonida umumiy ekvivalent shaklini har xil tovarlar o'ynagan. Har bir jamoa o'z tovarini ekvivalent sifatida o'rtaga qo'ygan. Lekin jamiyat taraqqiyoti shu tovarlar ichidan pulni tovarlarning tovari deb e'tirof etgan.

Pulning iste'mol qiymati shuki, u o'z funksiyasini bajarib iqtisodiyot mushkulini oson qiladi (vositachi sifatida). Pulning qiymati (qadr qiymati) deganda pul birligining xarid qilish qobiliyati, ya'ni unga qancha tovar va xizmatlar xarid etish mumkinligi tushuniladi.

Pulni qiymati metal pulni zabt etish yoki qog'oz pulni bosib chiqarish xarajatlarini bildirmaydi. Bu xarajatlar pul qiymati emas, balki pulni muomilaga kiritish sarflaridir. Pulni qiymati narxga bog'liq, narxlar ko'tarilib, ketsa, uni qiymati (qadri) pasayadi va aksincha.

Umuman pul insoniyat kashfiyotlari ichida eng oddiy, eng tushunarli hamda eng murakkabi bo'lib hisoblanadi. Insoniyatning butun yutuqlari ham, fojialari ham pul bilan bog'liqdir. Inson faoliyatini eng muhim xarakterga keltiruvchi kuchlardan biri pul bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Taniqli davlat arboblardan biri ta`kidlaganidek, «Davlatning salohiyati uning harbiylari yoki zambaraklarining qudrati bilan emas, balki milliy valyutaning mustahkamligi bilan belgilanadi. Bunga shuni qo`shimcha qilish mumkinki, korxonaning mavqei unda necha kishini ishlashi, ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori bilan emas, balki uning moliyaviy barqarorligi bilan belgilanadi».

Yaxshi ishlayotgan pul tizimi jamiyatning barcha imkoniyatlaridan to`liq foydalanish imkoniyatini beradi, aksincha yomon ishlayotgan pul tizimi pul muomilasini izdan chiqarib ishlab chiqarish darajasidagi keskin pasayishlar, iqtisoddagi bandlikka va bahoga, pulni sotib olish qobiliyatini pasayishiga salbiy ta`sir ko`rsatadi.


Tarixiy manbalarga ko`ra birinchi qog`oz pullar XII – asrda Xitoyda chiqarilgan. Shuning bilan birga 700 yillarda kumush tangalar chiqarilgunga qadar Buxoro davlatida qog`ozdan pul sifatida foydalangan. Umuman tarixda birinchi tangalar VII – asrda kichik Osiyodagi Lidiya mamlakatida zabt etilgan. K.Marks, A.Smit va D.Rekrdolarning tadqiqotlariga tayangan hoda pulni vujudga kelish jaryonini qiymatning quyidagi shakllari bilan bog`laydi:

1. Qiymatni oddiy yoki tasodifiy shakli.

Bu tovar ishlab chiqarishning dastlabki davriga to`g`ri kelib tovarlar pulsiz bir-biriga bevosita ayirboshlangan. Bunda mahsulot ayirboshlash uchun ishlab chiqarilmagan, lekin uni ortiqchasi tasodifiy shaklda ayirboshlangan. Tasodifiy ayirboshlash mehnat mahsulotining tovarga aylanganligini ifodalaydi. Ayirboshlash natijasida tovar mahsuloti o`ziga teng qiymatli ekvivalent mahsulotga ayirboshlanadi. Ayirboshlash jarayonida iste`molni qondirish birinchi darajali masala, tovarlar qiymatini taqqoslash esa ikkinchi darajali masala sifatida qaralgan. Masalan, 1 bolta = 20 kg don.

Qiymatning to`la yoki kengaygan shakli

Tovar ayirboshlash rivojlanishi bilan tasodifiy qiymat shaklidan to`la yoki kengaytirilgan shakliga o`tilgan. Bunday ayirboshlashda bir tovarga qarama-qarshi faqat bitta tovar emas, balki bir nechta tovarlar ishtirok etadi. Masalan, Sudanliklarda

10 Qop tuz 

Bunda o`z qiymatini boshqa tovarga ayirboshlanayotgan tuz nisbiy qiymat shaklida, qolganlari, ya`ni qo`y, echki va buqa esa qiymatni o`zida ifoda etuvchi material bo`lib xizmat qiladi va ularning qiymati ekvivalent qiymat shaklida turadi.

Qiymatning umumiy (ekvivalent) shakli

Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan ayirboshlanadigan mahsulotlar soni ham ortib boradi va ayirboshlashda murakkab holat vujudga keladi. Biror bir tovar sohibi ushbu tovarni o`zining iste`moliga zarur bo`lgan boshqa bir tovarga ayirboshlanishi uchun avvalom bor o`zining tovariga ehtiyoji bo`lgan boshqa bir iste`molchini topmog`i kerak bo`ladi, ayirboshlash murakkablashib uning rivojlanishiga to`sqinlik qiladi. Asta-sekin tovarlar orasida hamma tovarlarga ayirboshlana oladigan va hamma tovarlar qiymatini o`zida ifoda eta oladigan maxsus tovar ajralib chiqadi. Tovarlar dunyosidan chiqqan maxsus tovar qolgan barcha mahsulotlar uchun umumiy ekvivalentga aylanadi.

Masalan:

1 qop bug`doy

10 kg choy

10 kg qaxva

0.5 tonna temir

2 untsiya (35.6 gramm) oltin

10 bosh qo`y

Bunda umumiy ekvivalent vazifasini 10 bosh qo`y bajargan.

Qiymatning pul shakli

Mahsulot ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonining tobora rivojlanib borishi hududlar, mamlakatlar o`rtasida savdo-sotiqni, tovar ayirboshlashning zaruriyatini yuzaga keltiradi. Turli mamlakatlarda turli tovarlar umumiy ekvivalent hisoblangangaligi bu jaryonning taraqqiy etishiga to`sqinlik qiladi.

Natijada butun tovarlar dunyosidan shunday tovarlar ajralib chiqadiki, u barcha hudud va mamlakatlarda umumiy ekvivalent sifatida qo`llanila boshladi. Bu vazifani dastlab qimmatbaho metallar mis va kumush, keyinchalik oltin bajaradigan bo`ldi.

Oxir oqibatda oddiy tovar ko`rinishidagi umumiy ekvivalent o`rniga pul shaklidagi umumiy ekvivalent, ya`ni pul maydonga chiqdi.

Masalan:

1 qop bug`doy	}	2 unksiya (35.6
10ta qo`y		
10 kg choy		
gramm) oltin		
40 kg qaxva		
0.5 tonna ko`mir		

Bunda oltin oddiy tovar emas, balki pul ko`rinishini oladi.

Umuman pul o`z taraqqiyyotida 4 bosqich va 4 shaklga ega bo`lgan:

1. Tovar shaklida - “qo`yma” asrimizdan oldingi VII – asrgacha

2. Tanga pullar – “tanga” asrimizdan oldingi VII-XIX - asrlar

3. qog`oz pullar – “banknot” XIX-XX asrlar

4. Elektron pullar – “kartochka” XX – asr o`rtalaridan

Shuni ta`kidlash lozimki uzoq yillar davomida qimmatli metallar pul vazifasini bajargan va uning asosiy sabablari bo`lib:

1. Ularni qiymati yuqori, hajmi kichik.

2. Ular bo`linuvchan, ular bo`linganda sifatini yo`qotmaydi.

3. Ularning yaxshi saqlanishi (masalan, ko`mganda ham).

4. Ularni olib yurish qulay

5. Bir og`irlikdagi oltin bir-biridan deyarli farq qilmaydi (bir turdagi mo`yna bir-biridan nimasi bilandir farq qilinadi) va boshqalar.

Ayrim manbalarga ko`ra (“Ekonomicheskaya teoriya” pod.red.V.I.Vilyapina, Dobryanina A.I. Moskva. 2001 y str.141-166) dastlabki qog`oz pullar XII-asrda Xitoyda, 1571 yilda Fransiyada, 1690 yilda AQSH da, XVIII- asrda Ekaterini II-davrida Rossiyada paydo bo`lgan. Qog`oz pullar muomilasini tashkil etishda Djon Lo (Fransiya 1710-1720 yillar), Dubasov I.I (1897-1987 yillar Rossiya) kabi ayrim shaxslar faoliyatini qayd etish lozim. Djon Lo duelda qatnashgani uchun London turmasidan qochib Gollandiyada, keyin Italiyada yashab ancha

boylik ortirgan va 1710 yilda Fransiya davlat byudjeti daromadini oshirish bo'yicha hukumatga qog'oz pullar chiqarish bo'yicha taklif bilan chiqqan. O'sha paytda Fransiya Moliya Vaziri bo'lgan Djon Lo 1720 yilda pulni qadrsizlangani tufayli Fransiyani tark etadi. 1716-1720 yillardagi qog'oz pullar bo'yicha Djon Loni "Mashenniki proroka" deyilsada, u Yevropa xalqiga qog'oz pullarni ajoyib imkoniyatlaridan voqif etdi.

1.2. Pul shakllari va turlarining evolyutsiyasi.

Pulning mohiyati va uning namoyon bo'lish shakllari

Pul evolyutsiyasi globallashuv jarayonida soha, ijtimoiy mehnat taqsimoti, tovar ishlab chiqarishining paydo bo'lishi va rivojlanishi, milliy va jahon bozorlarining shakllanishi, kredit munosabatlari va bank tizimining rivojlanishi, davlatning mustahkamlanishi, uning iqtisodiy rolining kuchayishi, bank ishidagi ilmiy-texnika inqilobi natijasida ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlaridagi sifat o'zgarishlari bilan bog'liq. Pul o'zining evolyutsiyasi jarayonida metall (oltin, kumush, mis), qog'oz, kredit pullar shaklida ishlatilib kelgan. Qiymatni o'zida ifodalashiga ko'ra pullar ikki turga bo'linadi:

- haqiqiy pullar;
- haqiqiy pul izdoshlari - qiymat belgilari.

Haqiqiy pullar nominal qiymatini o'zida ifodalovchi, real qiymatga ega bo'lgan metall pullar bo'lib, ular har xil shakllarda chiqarilgan va keyinchalik amaliyotda qulay bo'lgan aylana (shu shaklda metall yemirilishi kam bo'ladi) shaklda chiqarilgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, birinchi tangalar bundan 26 asr oldin Lidiya va Xitoyda, XII asrlarda hozirgi Markaziy Osiyo davlatlarida, IX-X asrlarda Kiev Rusida zarb qilingan. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida tangalar, asosan, oltindan zarb qilingan, keyinchalik, oltin va boshqa qimmatbaho metallarni qazib chiqarish qiyinlashuvi, ishlab chiqarishning rivojlanishi va to'lov, muomala vositasiga bo'lgan ehtiyojning oshishi natijasida muomalaga qiymat belgilarini kiritish zarur bo'lib qoldi. Oltin va kumush muomaladan yo'qola bordi.

Qog'oz pullar

Qog'oz pullar. Qog'oz pullarning paydo bo'lishi pulning nominal qiymatini real puldan ajratish bo'yicha uzoq jarayonning natijasi edi. Bu pul muomalasi vositasi sifatida pul ishlashining vaqtinchalik xususiyati bilan bog'liq.

Pulning bu turi haqiqiy pullarning vakili bo'lib, pulning muomala funksiyasi rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan.

Qog'oz pullar yuzaga kelishining quyidagi bosqichlarini keltirish mumkin.

1-bosqich – tangalarning uzoq vaqt muomalada bo'lishi, qo'ldan-qo'lga o'tishi natijasida yemirilishi;

2-bosqich – tangadagi metall tarkibining buzilishi. Davlat tomonidan ongli ravishda davlat xazinasiga tushumni oshirish maqsadida tangalar metall (oltin, kumush) miqdorining kamaytirilishi;

Bu bosqichda tanga tarkibining buzilishiga oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallarni qazib chiqarish qiyinligi, ular zaxiralarining kamligi ham sabab bo'lgan.

3-bosqich – davlat tomonidan emission daromad olish maqsadida xazina biletlarining chiqarilishi.

Birinchi qog'oz pullar XII asrda Xitoyda chiqarilgan, deb ko'rsatiladi. Lekin tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, 700 yillarda kumush tangalar chiqarilgunga qadar, Buxoro davlatida qog'oz materiallardan pul sifatida foydalanilgan ekan.

Qog'oz pullar Amerika va Yevropada XVII- XVIII asrlarda, Rossiyada 1769 yilda chiqarilgan.

Qog'oz pullar deb, hukumat tomonidan byudjet taqchilligini qoplash uchun chiqarilgan, metall pullarga almashtirilmaydigan, lekin davlat tomonidan ma'lum kurs o'rnatilgan pul belgilariga aytiladi.

To'la oltin va kumushdan bo'lmagan tangalar muomalada pul sifatida ishlatilsa-da, ularning nominal miqdori real miqdoridan farq qilgan. Shunday bo'lsa ham, bu tangalar ma'lum miqdordagi metallni ifodalagan. Qog'oz pullar bo'lsa, muomalaga chiqarilgan vaqtda va keyin ham uzoq yillar davomida ma'lum bir miqdordagi oltinni o'zida ifoda qilgan. Ammo biror davlatning pulida metallning zarrasi ham bo'lmagan, ya'ni ular qiymatni belgilab bergan, xolos.

Qog'oz pullarning emitenti davlat xazinasini yoki emission bank hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida muomalaga pul belgilarini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki chiqaradi. Qog'oz

pullarning tabiati ularning inflyatsiyaga moyilligini ko`rsatadi. Qog'oz pullarni muomalaga chiqarishda pul muomalasi qonuni talablarini e`tiborga olish kerak. Lekin amaliyotda har doim ham shu talablar e`tiborga olinavermaydi. Pul muomalaga tovar aylanmasi ehtiyojini qoplash uchungina chiqarilishi kerak. Haqiqatda pul yuqoridagidan tashqari, byudjet taqchilligini, davlatning boshqa xarajatlarini qoplash uchun ham chiqariladi, ya`ni emissiya miqdori tovar aylanmasi bilan cheklanmasdan davlatning moliyaviy resurslarga bo`lgan talablariga ham bog`liq bo`ladi. Bu, albatta, muomaladagi pul massasining o`zgarib turishiga, aksariyat hollarda uning muomalaga keragidan ortiqcha chiqib ketishiga olib keladi. Natijada pulning barqarorligiga putur yetadi, uning qadri tushadi, xalqning davlatga bo`lgan ishonchi pasayadi, to`lov balansining barqarorligi yo`qoladi, (passiv qoldiq hajmi ortadi) milliy valyuta kursi tushadi va h. k.

1.3. Pulning funksiyalari.

Iqtisodiy adabiyotlarda pulning funksiyalari xususida 2 ilmiy maktab olimlarining qarashlari mavjud:

1. Yevropa maktabi.

2. Amerika maktabi.

Yevropa maktabi pulning 5 funksiyasi xususida xulosaga kelgan:

1. Qiymat o`lchovi funksiyasi. Pullar tovarlar va boshqa tovarlarning narxlarini belgilash orqali ularning qiymati va foydaliligini (foydalanish qiymatini) ifodalash uchun ishlatiladi. Narx tovar qiymati va foydaliligini pul ifodasi sifatida ishlaydi. Tovar narxi o`rtacha qiymatga teng, ammo talab va taklifga qarab u o`zgarib turadi va ushbu qiymatdan yuqori yoki past bo`lishi mumkin. Barcha tovarlar va xizmtalar qiymati umumiy ekvivalent bo`lgan pulda o`lchanadi. Pulning o`zi hech qanday narxga ega emas. Ular sotib olish qobiliyatiga ega, bu ularning ma`lum miqdordagi tovarlar va xizmatlarga almashtirish qobiliyati sifatida tushuniladi.

Qog'oz pul Moliya vazirligi tomonidan muomalaga chiqariladi. Masalan: AQSHda 1 dollardan 10 dollargacha bo`lgan kupyuralar AQSH G'aznachiligi tomonidan muomalaga chiqariladi. AQSHda Moliya vazirligi yo`q. Bu vazifani AQSH G'aznachiligi bajaradi.

Angliyada tangalar Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqariladi. Kredit pullar bu banknotalar bo`lib, Markaziy banklar tomonidan muomalaga chiqariladi. O`zbekistonda muomaladagi barcha pul birliklari banknotalar hisoblanadi va ular O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki aktivlari bilan ta`minlanadi.

Qiymatni o`lchash funksiyasi narxlar shkalasi asosida amalga oshiriladi. Bu har xil narxdagi tovarlar narxlarini taqqoslash uchun kerak. Narxlar shkalasi bu pulning texnik funksiyasidir, u yordamida qiymatni o`lchash funksiyasini bajariladi.

1. Muomala vositasi funksiyasining vazifasi pulni mahsulotni (xizmatni) naqd pulga sotib olish yoki sotishda tovar ayirboshlash jarayoniga xizmat qilish uchun ishlatilishini anglatadi. Pul mahsulotni (xizmatni) naqd pulga sotib olish yoki sotishda tovar aylanishi jarayonida (T - D - T) vositachi vazifasini bajaradi. Binobarin, hisoblanadigan (aqlan xayol qilingan) pullar tomonidan amalga oshiriladigan qiymat o`lchovi funksiyasidan farqli o`laroq, muomala vositasi vazifasini real pullar bajaradi. Pulni muomala vositasi sifatida ishlatishning asosiy sharti uning ommaviy tan olinishi hisoblanadi. **Muomala vositasi** ning vazifasi naqd pul bo`lib, u qonuniy to`lov vositasi hisoblanadi, ya'ni kirish uchun qonun bilan majburiy ma'lum bir davlat hududi. Ba'zi mamlakatlarda yuqori inflyatsiya sharoitida ayirboshlash vositasi vazifasini chet el valyutasi bajaradi.

Muomala vositasi funksiyasining xususiyati shundaki, u amalga oshirilganda tovarlar va pullarning parallel (qarshi) harakati sodir bo`ladi. Sotuvchi o`z mahsulotini naqd ekvivalentiga almashtiradi. Demak, tovar aylanishi uchun zarur bo`lgan pul miqdori birinchi navbatda sotilgan tovarlarning narxi va ularning miqdori bilan belgilanadi, ya'ni sotilgan tovarlar narxlari yig`indisi. Pul birligi bir nechta tovar operatsiyalariga xizmat qilganligi sababli, muomala uchun zarur bo`lgan pul miqdori ham uning muomalalari soniga bog`liq, ya'ni pul muomalasi tezligi (PAT). Binobarin, pulga ehtiyoj (PE) tovar narxlari (TNY) yig`indisi pul aylanish tezligiga bo`linib aniqlanadi.

$$PE = TNY/PAT \quad (1)$$

2. To`lov vositasi funksiyasi Bunda tovarlar to`lov muddati kechiktirilib sotiladi. Shuningdek, kredit va moliya munosabatlaridagi to`lovlar ham pulning to`lov vositasi funksiyasiga kiradi. Masalan: kredit olgan mijoz bankka kreditning asosiy qarz summasi va

foizlarini qaytaradi. Bundan tashqari korxonalar soliq to'lovlarini amalga oshiradi, turli xildagi jarimalar to'lovlarini to'laydilar.

3. Jamg'arish funksiyasi. Bu pulning jamlangan boylik shakliga kirib o'z egasi uchun kerak bo'lganda xarid etish vositasi bo'lib xizmat qila olshidir. Pul qog'oz yoki tanga bo'lgani uchun boylik emas, balki o'zida mehnatni mujassamlashtirgani, unga hamma narsani xarid etish yoki uni jamlab saqlash mumkin bo'lgani uchun boylik hisoblanadi. Pul boylik jamgarishning eng qulay usulidir, chunki pulda likvidlik bor, ya'ni pul hamma yerda unga belgilangan nominalga (masalan 500 so'm) qarab to'lov uchun qabul qilinadi. Pul boshqa likvidlik vositalariga nisbatan (yer, bino, aksiya, obligasiya, sertifikat) barqaror vosita hisoblanadi, uning qadri inflyatsiya bo'lmasa barqaror saqlanadi, boshqa likvidlarni esa narxi-qadri o'zgarib turadi. Pulni sifati va soni mavjud. Pulni sifati cheksiz bo'lishi, ya'ni pulga zarur bo'lgan vaqtda xohlagan tovarga aylantirish imkoniyati mavjud, soni cheklangan bo'lishi mumkin, chunki unga cheklangan miqdorda tovar sotib olish mumkin.

Pulni qimmatbaho, noyob buyumlarga, san'at asarlariga, uy-joy, yer, mashina, asbob-uskuna, aksiya, obligasiya va boshqalar shaklida ham jamg'arish mumkin. Adabiyotlarda pul xazina to'plash vazifasini xam bajarishi mumkinligi qayd etiladi. Uni faqat o'zining real qiymatiga ega bo'lgan pullar (qimmatbaho metallar) bajara oladi.

Qog'oz pullar asosan **muomila va to'lov** vazifasini bajaradi.

Aholining qo'lida turgan har qanday pul to ishlatilgunga qadar jamg'arish vositasi funksiyasini bajaradi. Korxonalarining joriy hisob raqamlaridagi pul mablag'lari ham to ishlatilgunga qadar jamg'arish vositasi funksiyasini bajaradi. Jamg'arish vositasi funksiyasining alohida holati xazinalarni shakllantirish vositasi vazifasi bo'lgan.

Jamg'arish funksiyasining vazifalari (tanga, quyma):

- xazinalar pul muomalasini avtomatik ravishda o'z-o'zidan tartibga soluvchi vazifasini bajargan;

- xazinalar banknotalar muomalasining barqarorligini ta'minlaydi.

Zamonaviy oltin xazinalari pulning inflyatsion pasayishidan sug'urta sifatida foydalaniladi. Rasmiy oltin zaxiralari xalqaro likvid aktiv sifatida xizmat qiladi, uni jahon bozorida tovarlarni sotib olish yoki xalqaro qarzni to'lash uchun zarur bo'lgan valyutani olish uchun sotish mumkin. Hozirgi bosqichda xazinalardagi oltinni milliy yoki

jahon bozorida to`g`ridan-to`g`ri sotib olish yoki to`lash vositasi sifatida ishlatish mumkin emas.

4. Jahon puli funksiyasi. Jahon puli funksiyasi jahon bozorlarida kotirovka qilinadigan ya`ni oldi-sotdi qilinadigan valyutalar bajaradi. Masalan: o`zbek so`mi bu vazifani bajarmaydi. Xalqaro hisob-kitob banki ma`lumotlariga ko`ra, xalqaro valyuta bozorlarida konversion operatsiyalarning 90% ortiq qismi 5ta valyutada amalga oshirilmoqda (www.bis.org). Bu valyutalar xalqaro rezerv valyutasi maqomiga ega. Bu maqomni Xalqaro Vlayuta Fondi beradi. Jahon pul funksiyasi ularni xalqaro munosabatlarga xizmat ko`rsatishda ishlatadi.

Jahon pullari hozirda ikkita funksiyani bajaradi:

- xalqaro to`lov vositalari;
- xalqaro zaxira ob`yekti.

Xalqaro to`lov vositasi funksiyasida dunyo pullari to`lov balansini to`lash, xalqaro kreditlarni berish va to`lash, jahon bozorida tovar va xizmatlar uchun naqd pulsiz to`lovlar orqali to`lash uchun ishlatiladi. Jahon pullari alohida davlatlarning, xalqaro moliya institutlarining, shuningdek, tijorat banklarining valyuta zaxiralarini shakllantirishda xalqaro zaxira fondlari funksiyasini bajaradi.

Mamlakatlar o`rtasida metall pullarning erkin harakati sharoitida jahon pullari vazifasini birinchi bo`lib kumush va oltin amalga oshirgan. Xalqaro munosabatlarga xizmat ko`rsatish uchun milliy tangalar ingotlarga aylantirilib, quyma shaklida ular jahon bozoriga chiqdi va u yerdan qayta zarb qilinganidan keyin ichki pul muomalasiga qaytishdi. Asosiy funksiya universal to`lov vositasi bo`lib, unda pul to`lov balansini qoplash uchun ishlatilgan, ya`ni, xalqaro talablar va mamlakat majburiyatlari o`rtasidagi haqiqiy bog`liqlikni anglatadi. To`lov balansi oltin eksporti va importi hisobiga tenglashtirildi. Oltin umumiy sotib olish vositasi sifatida faqat tashqi savdo rivojlanishining dastlabki bosqichlarida ishlatilgan. XIV asrda allaqachon tashqi iqtisodiy hisob-kitoblarda veksellardan keng foydalaniladi. Kredit va xalqaro bank aloqalarining rivojlanishi bilan oltin faqat o`ta og`ir vaziyatlarda, masalan, tabiiy ofatlar, hosil yetishmovchiligi va hokazolarda universal sotib olish agenti vazifasini bajardi.

Boylikning mutlaqo ijtimoiy moddiylashuvi sifatida oltin boylikni bir mamlakatdan boshqasiga o`tkazish vositasi bo`lib xizmat

qilganida ishlagan. Rasmiy oltin zaxiralari ijtimoiy boylikni moddiylashtirish vazifasini ham bajargan. Hozirgi bosqichda oltin xalqaro pul aktivi bo`lib xizmat qilsa ham, jahon pullari funksiyasini bajarmaydi. Jahon pullari funksiyasini quyidagilar amalga oshiradilar:

- yetakchi milliy valyutalar va avvalambor zaxira (asosiy) valyutalar (AQSH dollari);

- xalqaro va mintaqaviy pul birliklari - xalqaro moliya institutlari chiqaradigan millatlararo valyutalar (yevro, Markaziy banklar boshchiligidagi Yevropa Markaziy banklari tizimi tomonidan chiqarilgan).

Xulosa qilib aytganda, pulning barcha funksiyalari bir-biri bilan uzviy bog`liq va ular bir-birini to`ldiradi. Pulning funksiyalarining aynan shunday uzviy bog`liqligi va bir-birini to`ldirishi pul muomalasining barqarorligi va samarasini ta`minlashga sharoit yaratadi.

Bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida pulning ahamiyatining oshishi shundaki, jamiyatimizda mavjud yuridik va jismoniy shaxslar faoliyati hamda ularning natijasi daromadi pul bilan bog`liq. Shuning uchun ham, pul barcha iqtisodiy rivojlanish jarayonida odamlarni o`ziga jalb qilib kelgan. Avstraliyalik iqtisodchi olim K. Mengerning fikricha, Arastu va Aflotundan boshlab XX asrning boshigacha pul to`g`risida jahonda besh-olti mingdan ortiq maxsus ishlar chop qilingan. Agar biz, hozirgi kunda pul to`g`risida yozilgan va chop qilingan adabiyotlar soni bir necha marta oshib ketgan desak mubolag`a bo`lmasa kerak. Tadqiqotlar shunchalik ko`p bo`lishiga qaramasdan, pul va uning xususiyatlari, har bir tizimda ishlatilishi, roli, iqtisodiyotga ta`siri, nega alohida olingan individumlar qo`lida pulning ko`payishi, ular boyligining ko`payishiga olib keladiyu, jamiyat miqyosida muomaladagi pul massasining ko`payishi jamiyat boyligi ortib borishiga salbiy ta`sir ko`rsatadi, degan savollarga hali to`liq javob berilgan emas.

Pulning ahamiyati ko`p qirrali.

- Pul yalpi ichki mahsulotni (YAIM) yaratish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlarida ishtirok etib, ijtimoiy kapitalning aylanishiga vositachilik qiladi.

- Pul makroiqtisodiy muvozanatning muhim omilidir. Milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli muvozanatli o`shishiga erishish pulga talab va taklifni muvozanatlashtirmasdan imkonsizdir. Bu iqtisodiy

o`lish sifatini oshirish, uning yuqori va barqaror sur`atlarini saqlab qolish uchun zaruriy shart bo`lib xizmat qiladi.

- Pul tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida muhim omil hisoblanadi.

- Iqtisodiyotni pul bilan tartibga solish uchun pul kredit bilan birga ishlatilishi mumkin. Milliy pul birligining ichki va tashqi barqarorligi milliy iqtisodiyotdagi ichki va tashqi makroiqtisodiy muvozanatning eng muhim shartidir. Shu sababli, milliy valyutaning barqarorligini ta`minlash aksariyat mamlakatlarda pul-kredit siyosatining maqsadi hisoblanadi.

- Pullar tovar narxlarini belgilash, tovarlarni sotishdan tushadigan mablag`larni ularni ishlab chiqarish xarajatlari bilan taqqoslash uchun ishlatiladi.

- Pullar mamlakatdagi hisob-kitoblarni baholash uchun zarur bo`lib, ularsiz statistik va buxgalteriya hisobini yuritish, korxonalarining moliyaviy-xo`jalik faoliyatini nazorat qilish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo`llarini belgilash mumkin emas.

Iqtisodiy globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotlarning tashqi omillarga bog`liqligida hamda tashqi iqtisodiy aloqalarda pulning o`rni ayniqsa katta. Jahon pullari jahon moliyaviy oqimlarini to`plash va qayta taqsimlash jarayonlarida vositachilik qiladi, kapitalning bir mamlakatdan ikkinchisiga o`tishiga, mamlakatlar o`rtasidagi tovarlar va xizmatlarning harakatiga xizmat qiladi.

Jahon bozorining milliy iqtisodiyotga ta`sir etish vositalaridan biri bu milliy valyuta kursidir. Uning darajasi tashqi savdoga, milliy mahsulotlarning jahon bozoridagi raqobatdoshligiga, kapital eksporti va importiga, pul muomalasi holatiga, inflyatsiya darajasiga, butun ishlab chiqarish jarayoniga sezilarli ta`sir ko`rsatadi.

1.4. Kredit pullari va ularning turlari

Ishlab chiqarish va tovar aylanmasining rivojlanishi, metall pullarning yetishmasligi kredit munosabatlarining rivojlanishiga olib keladi. Tovar va to`lov aylanmasining ehtiyojini qoplash maqsadida muomalaga oltin, kumush tangalar bilan bir qatorda kredit vositalari: chek, veksel, banknotalar chiqarilgan.

Kredit pullar deb kredit munosabatlar asosida yuzaga keluvchi, to`lov vositasini bajaruvchi qiymat belgilariga aytiladi.

Kredit pullar o`zining mustaqil qiymatiga ega emas, chunki ularni yaratish uchun abstrakt zaruriy mehnat sarflanmaydi. Kredit pullar qog'oz pullardan farq qilib, ular bir vaqtning o`zida qiymatni ifodalaydi va u kredit hujjat bo`lib, kreditor va qarz oluvchi o`rtasidagi iqtisodiy munosabatni aks ettiradi. Kredit pullarning asosiy turlaridan biri vekseldir.

Veksel – bu qarzdorning (oddiy veksel) yoki kreditorning (o`tkazma veksel - tratta) ko`rsatilgan summani, ko`rsatilgan vaqtda va joyda to`lash to`g`risidagi yozma majburiyati hisoblanadi.

Banknota – kredit pullarning yetakchi vakillaridan bo`lib, Markaziy bank tomonidan, veksellarni hisobga olish yo`li bilan chiqariladi.

O`tmishda banknota muddatsiz majburiyat bo`lib, xoxlagan vaqtda uni bankka topshirib, o`rniga unda ko`rsatilgan summaga oltin yoki kumush olish mumkin bo`lgan.

Hozirgi zamon banknotalari oltinga almashilmaydi. Lekin ular quyidagi yo`llar bilan pul muomalasiga kelib tushadi:

– xo`jaliklarni bank tomonidan kreditlash orqali berilgan kreditlarning bir qismi muomalaga kirib keladi;

– davlatni kreditlash, ya`ni banknotalar davlatning qarz majburiyati sifatida muomalaga chiqadi;

– aktiv to`lov balansiga ega bo`lgan davlatlarda rasmiy valyuta zaxiralarining o`sishi orqali va boshqalar;

Oltinni demonetizatsiya qilish jarayonining sabablari:

1. Erkin raqobat, ya`ni kapitalizm davrida eng katta rivojlanishga erishgan oltin muomalasi tizimining nomuvofiqligi, iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichida tovar ishlab chiqarish ehtiyojlari.

2. Kredit va kredit munosabatlarini rivojlantirish.

3. Davlatning iqtisodiy rolini kuchaytirish.

4. Tovar-pul munosabatlarining oltin ishlab chiqarish hajmining ko`payishi bilan taqqoslaganda jadal rivojlanishi tufayli pulga bo`lgan ehtiyojning tezroq o`sishi.

5. Oltin pullardan foydalanishning yuqori narxi.

Banknotlar - bu bankning, hozirda markaziy bankning majburiyatini ifodalovchi naqd pul mablag`lari.

Talab bo'yicha bank hisobvaraqlaridagi mablag'lar (depozit pul) - bu banklar tomonidan naqdsiz shaklda chiqarilgan kredit pullari. Banknotalar singari, ular banklarning majburiyatlari.

Depozit pulni yaratishning ikkita asosiy usuli mavjud:

1) banklar tomonidan naqd pulsiz kreditlar berish, ya'ni qarz oluvchining hisob raqamidagi kredit miqdori. Shu bilan birga, muomalada pul miqdori ko'payishini ko'rsatadi;

2) banklar tomonidan depozitlar uchun naqd pul mablag'lari qabul qilinishi. Muomaladagi pul miqdori o'zgarmaydi: omonatchi banknotalarni depozitga "almashtiradi" (muomaladagi banknotalar soni kamayadi, shu bilan birga depozit pullari ko'payadi).

Kredit va qog'oz pullarning farqlari:

1) birinchidan, ular nafaqat kredit belgilari, balki kredit belgilari ham bo'lgan kredit xususiyatiga ega. Qog'oz pullarning kredit xarakteri shundaki, bank operatsiyalari kredit pullari asosida vujudga keladi, bu banklarning majburiyatlari bo'lib hisoblanadi;

2) ikkinchidan, ular emitent tomonidan qog'ozlardan farq qiladi. Qog'oz pullarni chiqaruvchisi G'aznachilik (Moliya vazirligi) bo'lgan, kredit pullari esa banklar tomonidan chiqarilgan;

3) uchinchidan, ular xavfsizlik jihatidan farq qiladi. Qog'oz pullar hech narsa bilan ta'minlanmaydi, kredit pullar esa emitent banklarning aktivlari bilan ta'minlanadi;

4) to'rtinchidan, qog'oz va kredit pullarning muomalasi bir xil emas. Agar qog'oz pullar o'z-o'zidan beqaror bo'lsa, unda kredit pullar barqaror bo'lishi yoki eskirishi mumkin.

Kredit pullari to'rtta kanal orqali beriladi:

1. fermer xo'jaligiga qarz berish;
2. davlatga qarz berish;
3. qimmatli qog'ozlarni sotib olish;
4. chet el valyutasini sotib olish.

Kredit pullariga naqd pullar (banknotalar) va naqd pulsiz (naqdsiz pullar), shuningdek talab bo'yicha bank depozitlaridagi mablag'lar (depozit pullari) kiradi. Ba'zi manbalarda to'lov aylanmasidagi naqd pulni almashtiradigan veksellar, cheklar va bank kartalari pul degan noto'g'ri tushunchalar mavjud. Biroq, ushbu to'lov vositalari pulning umumiy muomalasi va yuqori likvidlik kabi xususiyatlariga ega emas, shuning uchun ular pulga tegishli emas.

Bank kartalari (kredit va debet) - elektron to'lov vositasi bo'lib hisoblanadi va elektron pul deb ataladigan turga kiradi.

Elektron pul - bu elektron shakldagi pul, uni tasarruf etish maxsus elektron moslama yordamida amalga oshiriladi, ammo bu qurilma hamma joyda mavjud emas, bu ularni universal muomala xususiyatlaridan mahrum qiladi. Ushbu holatlar bilan bog'liq holda, veksellar, cheklar, bank kartalari muomalaning kredit vositalari deb nomlanadi. Muomaladagi kredit vositalariga pulning barcha xususiyatlariga ega bo'lmagan qiymatning kredit belgilari sifatida ta'rif berish mumkin. Pul bo'lmasdan, kredit vositalari osonlikcha yo'qotish xavfi bo'lmagan pulga aylanishi mumkin. Shuning uchun ular pul surrogatlari yoki yarim pullar deb nomlanadi. Kvaziy pullarga shuningdek muddatli va jamg'arma depozitlari, chet el valyutasidagi depozitlar, depozit sertifikatlari va ba'zan qisqa muddatli davlat qimmatli qog'ozlari kiradi. Jadval 1.1da Pul va kvaziy pullar shakllari va turlari berilgan.

1.1-jadval - Pul va kvaziy pul shakllari, turlari hamda ularga tavsif

Pul shakli va kvaziy pul	Pul va kvaziy pul turlari
Haqiqiy pul	Metall pul. Oltin va kumushdan yasalgan qutilar. Oltin va kumush tangalar.
Qog'oz va kredit pullar	Qog'oz pullar (G'aznachilik biletlari). Kredit pullari: banknotalar (naqd pul). Hisobvarag'idagi talab qilib olinadigan mablag'lar
Kvazi pullar	Kvazi pul muomalasi, kredit vositalari: veksellar; cheklar; bank kartalari. CHet el valyutasida muddatli depozitlar, jamg'armalar. Depozit sertifikatlari. Qisqa muddatli davlat qimmatli qog'ozlari.

Kripto-valyutalar

Zamonaviy amaliyotda so'nggi o'n yil ichida kvazi pullarning maxsus keng tarqalgan virtual pullar - "kriptovalyutalar" deb

nomlangan turi yuzaga keldi. Ko`pincha, kripto valyutasi to`lov vositalarining maxsus turi sifatida ishlatiladi va shuning uchun pul bilan bog`liq. Kripto valyutasi nomoddiy va aslida bu shunchaki raqamli valyutaning kodi (turi) bo`lib, uning chiqarilishi va hisobga olinishi kriptografik usullarga asoslangan va hech qanday tartibga solinmagan. Rasmiy ravishda u mahsulot yoki xizmatga almashtirilishi mumkin bo`lgan o`ziga xos bonus vazifasini bajaradi.

Kripto-valyutaning emissiyasi - bu kompyuter operatsiyalari bloklari zanjirini yaratish uchun hisoblash mashinalari quvvatidan foydalanish jarayondir. Har bir blok yaratilishning to`g`riligi va murakkabligi uchun ma`lum mezonlarga javob berishi kerak, ular uchun xejirlash algoritmlari qo`llaniladi. Shuning uchun kripto-valyutalarning boshlang`ich qiymati iste`mol qilinadigan elektr energiyasining narxidir.

Kripto-valyutalarning ikkilamchi qiymati ularga bo`lgan talab bilan belgilanadi. Bu uch xil bo`lishi mumkin:

1) spekulyativ investor (kripto valyutasini yuqori narxda sotish umidida sotib olish);

2) tovarlarni sotib olish (kripto valyutasi uchun);

3) kripto valyutasini boshqa hisob raqamiga komissiyasiz o`tkazish (yoki 0,1% dan kam). Kripto-valyutalarning yakuniy yoki yakuniy emissiyasi ham narx belgilashda muhim rol o`ynaydi.

Kripto-valyutalarning eng mashhurlari bitkoinlardir. Bitkoin emissiyasining hajmi 21 million koinlarning umumiy soni bilan cheklangan. Tranzaksiyalarni qayta ishlash va emissiya bank vositachiligisiz tarmoqning sa`y-harakatlari bilan noma`lum holda, jamoaviy ravishda amalga oshiriladi.

To`lovning maxsus shakli sifatida kripto valyutasi bugungi kunda misli ko`rilmagan mashhurlik va tarqatishga ega bo`ldi.

Kripto-valyuta bozorining faollashishi ularning dollarga nisbatan qiymatining tez sur`atlarda o`shishiga olib keldi. Rossiyada, bitkoinlarni bir necha o`nlab kompaniyalar, asosan oziq-ovqat tarmoqlari qabul qiladilar: Masalan: Kill Fish fastfud barlari va Subway metro restoranlari, shuningdek "Raketa" soat fabrikasi. Rossiya Banki ularni tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) yoki naqd pulga va chet el valyutasiga almashtirishni hali qo`llab-quvvatlamaydi.

Mamlakat rivojlanishining asosiy vositalaridan biri pul bo`lib, bozor iqtisodiyotiga o`tish va unda faoliyat yuritishda uning o`rni va ahamiyati yanada oshib boradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul unga yuklatilgan vazifalarni bajargandagina u iqtisodiyotni barqaror ushlab turishga va taraqqiy ettirishga xizmat qiladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoev tomonidan bugungi kundagi islohotlarning «Yo`l xaritasi» sifatida 2017 yil 2 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni bilan qabul qilingan «2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi»da belgilab berilgan iqtisodiyotni rivojlantirish, erkinlashtirish va tartibga solishning tamomila yangi ustuvor yo`nalishlari bo`lib xizmat qilmoqda. Harakatlar strategiyasining uchinchi yo`nalishida belgilanganidek, bugun bank tizimi oldida mamlakat taraqqiyoti uchun dolzarb masalalar, jumladan, valyuta siyosati va bozorini xalqaro talab hamda andozalar asosida erkinlashtirish, milliy valyuta barqarorligini mustahkamlash, unga erishishda pul-kredit siyosati instrumentlarining rolini kengaytirish, bank tizimini bugungi kun talabidan kelib chiqib isloh qilish, uning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ko`rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini oshirish va turini ko`paytirish kabi vazifalar turibdi.

Birinchi navbatda so`mning xarid quvvatini oshirish uchun iste`mol bozorini kerakli mollar bilan to`ldirish, aholini ehtiyojlarini qondiradigan va xorijdan keltiriladigan mollar bilan raqobat qila oladigan o`z mahsulotimizni ishlab chiqarishga zo`r berish zarur bo`ladi.

Ikkinchidan, yangi yilda valyuta zaxiralarini ko`paytirish choralarini ko`rishimiz lozim. Buning uchun respublikamizning eksport imkoniyatlarini kengaytirish, korxonalarining eksport qilinadigan mahsulot ishlab chiqarish, jahon bozoridan mustahkam joy olish jarayonlarini chuqurlashtirish lozim. Eksport qilinadigan mollarni butun choralar bilan ko`paytirish va shu hisobdan valyuta tushumini oshirish uchun o`zimizga bog`liq bo`lgan hamma ishimizni qilishimiz kerak.

Uchinchidan, yoqilg`i-energiya manbalarini, ko`pgina uskuna va oziq-ovqat mahsulotlarini chetdan sotib olishni kamaytirish, ularni o`zimizda ishlab chiqarilgan mahsulot bilan almashtirish, tashqi savdo balansini mustahkamlashning muhim jihatidir. Bu jarayon energiya

manbalari va asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini chetdan sotib olishni eng kam zarur miqdorga qadar kamaytirishga olib borishi lozim.

To`rtinchidan, kapital bozorining barcha vositalaridan foydalangan holda O`zbekistonning qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirgan holda, aholi mablag'larining, shuningdek korxonalarining vaqtincha erkin mablag'larini jalb etish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarimizni tubdan qayta ko`rib chiqishimiz zarur. Belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, almashuv kursini barqarorlashtirish, milliy valyutani mustahkamlashda o`z samarasini ko`rsatishi lozim.

Milliy valyutamizni mustahkamlash va uning erkin muomiladagi quvvatini oshirish **ikkinchi ustivor** vazifa – pul qadrsizlanishining keskin ravishda kamaytirish bilan bevosita bog'liqdir.

Pulning barqarorligi deganda **pulning sotib olish** qiymatining **o`zgarmasligi va valyuta doimiyli**gi tushuniladi. Shunga asosan uni sotib olish qobiliyati unga to`g'ri keladigan tovar va xizmatlarning **miqdori** bilan, pulga bo`lgan talab va taklifni muvozanati bilan, davlat byudjeti taqchilligining holati bilan, inflyatsiyaga qarshi ko`riladigan choralarga ko`p jihatdan bog'liq.

Pulning yana bir xususiyati bu uning yuqori likvidlik darajasidir. Pul eng likvid aktivdir, chunki u egasi tomonidan barcha majburiyatlarni oddiy o`tkazma yoki hisobvaraqlarga yozish orqali to`lash uchun foydalanishi mumkin.

Naqd pullar (tangalar, xazina yozuvlari, banknotalar) mutlaq likvidlikka ega va naqd pulsiz (likvidlik bo'yicha bank hisobvaraqlaridagi mablag'lar) likvidligi pastroq.

Pul – bu maxsus tovar, umumiy ekvivalent bo`lib, abstrakt mehnat xarajatlarini o`zida aks ettiradi va tovar xo`jaligidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi.

Bu ta`rif pulni quyidagi xususiyatlarini o`zida ifodalaydi:

1. Pulning boshqa tovarlardan ajralib turuvchi maxsus tovarligi.

2. Pul – bu umumiy ekvivalent – yagona tovar bo`lib qolgan tovarlar qiymatini o`zida ifoda qilishi.

3. Pulning ekvivalent sifatida tovarni yaratishga ketgan mehnat va boshqa xarajatlarni o`zida ifoda qilishi.

4. Pulning har bir iqtisodiy tizimda, tovar ishlab chiqarishda kishilar o`rtasidagi yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifoda qilishi va boshqalar (pulda ifodalanuvchi xususiy mehnat ijtimoiy mehnat sifatida namoyon bo`lishi).

Pulni jamg`arish jarayonida odamlar ijtimoiy munosabatlarining moddiylashgan shakli bo`lgan umumiy ekvivalent sifatida yuzaga chiqdi.

Zamonaviy pulning mohiyati uchta xususiyatning birligida ifodalanadi:

- 1) to`g`ridan-to`g`ri almashinish xususiyati;
- 2) konvertatsiya xususiyati;
- 3) umum qabul qilingan.

Pulda ushbu xususiyatlar birligining mavjudligi pul bilan naqd pulsiz to`lov vositalarining (veksellar, cheklar, bank kartalari) bir – biridan farqidir.

Nazoat uchun savollar

1. Fanning predmeti va vazifalarini ayting? Pulning paydo bo`lish sabablarini yoritib bering?

2. Pul shakllari va turlarining evolyutsiyasi hamda pulning mohiyati va uning namoyon bo`lish shakllarini tushuntirib bering?

3. Pulning funktsiyalarini yoritib bering? “Pul, kredit va banklar” fanining predmeti va vazifalarini aytib bering?

4. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan o`zaro aloqadorligini yoritib? Qiymat shakllarining evolyutsiyalarini hamda uningoddiy yoki tasodifiy shaklini yoritib bering?

5. Pulning boshqa iqtisodiy kategoriyalardan ajralib turuvchi o`ziga hos xususiyatlarini ochib bering?.

6. Kredit pullari va ularning turlarini keltiring va ularga tavsif bering?

2-MODUL. PUL NAZARIYALARI

- 1. Pulning metallilik nazariyasi.**
- 2. Pulning nominallik nazariyasi.**
- 3. Pulning miqdoriylik nazariyasi.**
- 4. Zamonaviy monetarizm nazariyasi.**

2.1. Pulning metallilik nazariyasi

Pulning metallilik nazariyasi bu turli davlatlarda turli tadqiqotchilar tomonidan aytilgan ilmiy qarashlarning jamlanmasi bo`lib, ular pul sifatida faqat oltin va kumushni ko`rdilar va ular jamiyat boyligining manbai deb hisobladilar. Pul va uning sotib olish quvvati orasidagi munosabat pul nazariyalarining markaziy masalalaridan biri bo`lib kelgan. Xullas, iqtisodchilarning pulning mohiyati, uning funksiyalari va pul muomalasiga bo`lgan qarashlari pul nazariyalarini keltirib chiqardi. Ilk tarixiy pul nazariyalari sifatida nominallik va metallik nazariyalarni keltirish mumkin. Kapitalizm taraqqiyoti bilan birga bu nazariyalar ham o`zgarib yangi, miqdoriy nazariyaning paydo bo`lishiga asos bo`ldi.

Pul nazariyalari - pul tabiati va pulning ishlab chiqarishni shakllantirishga ta`siri haqidagi nazariyalardir. Bu nazariyalar kapitalistik ishlab chiqarish usuligacha bo`lgan davrda vujudga keldi. Kapitalistik ishlab chiqarish usuli davrida, pul-tovar munosabatlari xo`jalik sohasining hamma tarmoqlarini qamrab olgan davrdagina pul nazariyasi keng tarqaldi. Pulning metallilik nazariyasi XVI asrda fransuz olimi Nikolo Orezme tomonidan nazariya sifatida shakllantirildi. Keyinchalik angliyalik iqtisodchi olimlar U.Stefford, T.Men, P.Nors, CHayld, Fransiyada A.Monkreten, Germaniyada U.YUst; Italiyada G.Skaruffi, F.Galiyani tomonidan rivojlantirildi.

Pulning metallilik nazariyasi merkantilizm g`oyalariga asoslanadi.

Merkantilizm – dunyo tarixidagi birinchi iqtisodiy maktab hisoblanadi. Merkantilistlar 2 yirik guruhga bo`linadi:

1. Ilk merkantilistlar.
2. So`nggi merkantilistlar.

Ilk merkantilistlar - aktiv pul balansi degan g'oyani ilgari suradilar. Ularning fikriga ko'ra oltin va kumush o'z tabiatiga ko'ra pul hisoblanadi. Har bir jamiyatning boyligi uning oltin va kumush zaxiralari bilan belgilanadi. Aktiv pul balansi - deganda oltin va kumushning har doim mamlakatga kirib kelish miqdori ularni mamlakatdan chiqib ketish miqdoridan katta bo'lishi tushiniladi. Ilk merkantilistlar davlat proteksionizm siyosatini qo'llash shart deb hisoblaydilar. Ular aytadiki, davlat mamlakatdan oltin va kumush pullarni chiqib ketishini to'sqinlik qilishi zarur.

So'nggi merkantilistlar pulning asosiy funktsiyasi bu jamg'arish funktsiyasi deb hisoblaydilar. XVI asrning ikkinchi yarimidan XVII asr oxiriga qadar Yevropada so'nggi merkantilistlarning qarashlari hukmron g'oyaga aylandi. So'nggi merkantilistlarning eng taniqli vakili Tomas Men hisoblanadi. T.Men ilk merkantilistlardan farqli ravishda pulning muhimligi jamiyat boyligining manbai ekanligida emas balki mamlakat ichidagi tovarlar va pullarning harakatiga ta'siridadir degan xulosaga keldi.

T.Men birinchi bo'lib metallilik nazariyasiga yangilik kiritdi. Ushbu yangilik quyidagilardan iborat:

1. Mamlakat savdo balansi ijobiy saldogga ega bo'lganda tovarlarni import qilish mumkin.

2. Agar mamlakat uchun foydali bo'lsa, oltin va kumushni xalqaro savdoni rivojlantirish uchun ishlatish mumkin.

Tomas Men aytadiki pul savdoni yaratadi, savdo esa pulni ko'paytiradi. Tomas Men birinchi bo'lib umumiy savdo balansi degan tushunchani kiritgan.

So'nggi merkantilistlar umumiy savdo balansi g'oyasini ilgari surdilar. Bungacha xususiy savdo balanslari mavjud edi. Ular mamlakatning alohida olingan bitta mamlakat bilan savdo munosabatlarini aks ettirar edi.

Merkantilistlar oltin va kumush tangalarni yemirilib ketishini tan olmaganlar. Lekin amaliyot ko'rsatadiki oltin va kumush tangalar ishqalanish xususiyatiga ega. Ushbu tangalar vaqt o'tishi bilan o'z vaznining bir qismini yo'qotadi, natijada ayirboshlash munosabatlarida notenglik holati yuzaga keladi. VIII asrga kelib metall tangalarning yemirilishi isbotlandi. Shuningdek, birinchi jahon urushi ta'sirida Yevropada oltin standarti bekor bo'ldi.

Dastlab merkantilistlar Adam Smit va Jorj Styuard tomonidan qattiq tanqidga uchradi. Ushbu olimlarning fikriga ko`ra pul jamiyatning boyligi emas, balki shartli hisob birligidir. Pullar baho masshtabi sifatida ayirboshlash munosabatlarini ifoda etadi. Taniqli iqtisodchi olimlar P.Samuelson , J.Key metall pullar muomalasini inkor etganlar.

2. Oltin quyma standarti

2 - Jahon urushidan keyin, 20-yillarda ba`zi mamlakatlarda oltin quyma standarti joriy qilindi. Bu standartning oltin tanga standartdan asosiy farqi shunda ediki, muomaladagi banknotalar 12-12,5 kg. atrofidagi oltin quymalarga almashtirilardi. 12,5 kg. lik quymaga banknotani almashtirish uchun Angliyada 1700 ft. st., Frantsiyada 215 ming fr. talab qilinar edi. Bu bilan oltin muomaladan xalqaro aylanmaga chiqarildi. Ichki aylanmada esa bunday imkoniyatga faqatgina yirik firmalar va puldorlar ega bo`lib qoldilar, xolos.

3. Oltin deviz standarti

Oltin quyma standartga kirmagan mamlakatlarda banknotalarni bevosita oltinga almashtirish tiklanmadi. Bu mamlakatlar o`z kredit pullarini oltin quyma standartga kiruvchi mamlakatlarning devizlariga (ya`ni valyutalariga) almashtirishni mo`ljallangan edilar. Bu bir mamlakat valyutasining ikkinchi davlat valyutasiga bog`liqligini keltirib chiqarar edi. Pul tizimining bu ko`rinishi oltin deviz standarti nomini oldi.

1929-33 yillardagi jahon krizisidan keyin barcha mamlakatlarda oltin deviz standartning ba`zi elementlarini oltin dollar standart o`zida olib qoldi. Bu standartning o`ziga xos xususiyati shunda ediki, birinchidan, bu standartdan foydalanish huquqi faqatgina chet el emission banklari uchungina saqlab qolingani edi, ikkinchidan, bu standartda faqatgina AQSH dollarigina oltin bilan aloqasini saqlab qolgan edi, xolos. 1971 yil dekabr oyidan boshlab dollarning oltin pariteti bekor qilinishi bilan oltin standartning barcha ko`rinishlari o`z kuchini yo`qotdi.

Oltin standarti barbod bo`lishi va iqtisodiyotni davlat ishtirokida boshqarilishiga o`tilishi bilan metall pul nazariyasi boshqa nazariya bilan almashtiriladi. Neometalizmoimining asosiy kamchiligi shundaki, ular iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarilishi bilan oltinga almashtirilmaydigan kredit pullar orasida ichki bog`liqlikni e`tiborga olmadilar.

2.2. Pulning nominallik nazariyasi.

Pulning nominallilik nazariyasining asoschilari bo`lib Angliyalik ruhoniy va faylasuf J.Berkli va Angliyalik iqtisodchi J.Styuard hisoblanadi. Ular bu nazariyaning etakchisi. Bu nazariyani rivojlantirishga eng katta hissa qo`shgan olim G.Knapp. 1905- yilda Knappning pulning davlat nazariyasi nomli kitobi nashrdan chiqdi. Pulning nominallilik nazariyasi XVIII asrda paydo bo`lgan. Ushbu nazariya namoyondalari pulning tovar xususiyatini inkor etdilar. Ular aytadiki pul qiymat va iste`mol qiymatiga ega emas. Pulning qiymati unga qo`yilgan nominali bilan belgilanadi. Ular metall pullar yemirilish xususiyatiga ega ekanligini ta`kidlashdi va qog`oz pullar to`lov vositasi sifatida moslashuvchan va qulay, ayirboshlash vositasi ekanligini etirof etishdi.

Knapp pulning nominallilik nazariyasini rivojlantirar ekan quyidagi xulosaga keldi.

- Pulni davlat yaratadi;
- Pulning asosiy funksiyasi bu to`lov vositasi funksiyasidir;
- Davlat pulga xarid qobiliyatini beradi;
- Pulning xarid qobiliyati davlatning qonun hujjatlari bilan belgilanadi;

Keyns pulning nominallilik nazariyasi tarafdori bo`lgan. Keyns aytadiki qog`oz pullarning oltin tangalarni muomaladan siqib chiqarishi Knappning buyuk g`alabasidir.

Pulning mohiyati 3 shaklda namoyon bo`ladi.

1. Pul barcha tovarlar qiymatini o`zida ifoda etuvchi umumiy ekvivalentdir.

2. Pul mustaqil almashinuv xususiyatiga ega. Pul tovarlarsiz ham erkin harakatlana oladi. (talabalarga stipendiya, oylik maoshlar, soliqlar, bankdan kredit olish)

3. Pul buyumlashgan mehnatning tashqi o`lchovi.

Buyumlashgan mehnatning ichki o`lchovi mehnat asosida o`lchanadi.

Nominalistlar baho masshtabi deganda milliy pulning oltin asosiga aytiladi.

Nominalistlar oltin almashmaydigan qog'oz pullar muomalasini afzal ekanligini etirof etadilar. Hozir dunyoda hech bir valyuta oltin asosiga ega emas. Hozirgi davrda muomlagacha chiqarilayotgan naqd pullar Markaziy bankning aktivlari bilan ta'minlanadi.

2.3. Pulning miqdoriylik nazariyasi.

Pulning miqdoriylik nazariyasining mohiyati shundaki muomalada pul miqdorining oshishi tovarlar bahosining va pulning qiymatini o'zgarishiga sabab bo'luvchi asosiy omildir.

XVI asrda Yevropalik mustamlakachilar va birinchi navbatda ispanlar Amerikadagi ko'plab oltin va kumush konlarini topdilar. Natijada Amerikadan Yevropaga juda katta miqdorda oltin va kumush oqib keldi. Bu esa G'arbiy Yevropada tovarlar bahosining keskin oshishiga sabab bo'ldi. Shu bog'liqlikni birinchi bo'lib fransuz faylasufi Jan Boden aniqladi.

J.Bodenga qadar tovar bahosining oshishi metall tangalarni yemirilishi bilan izohlanar edi. Pulning miqdoriylik nazariyasi XVII-XVIII asrlarda Angliyada J.Lokk va D.YUm; Fransiyada Monteske rivojlantirdi. Ular bu nazariyani qog'oz pullarga nisbatan qo'llashning mumkinligini asoslab berishdi.

Klassik iqtisodchi D.Rekardo pulning miqdoriylik nazariyasini tarafdori. Rekardo qiymatning mehnat nazariyasini yaratgan. Ushbu nazariyaga ko'ra metal pullarning qiymati ularni ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnat xarajatlari bilan belgilangan. Ammo keyinchalik Rekardo o'zining ushbu qoidasiga qarshi chiqdi. U yozadiki ayrim davlatlarda pulning qiymati muomaladagi pul miqdoriga bog'liq ravishda o'zgaradi.

Karl Marks pulning miqdoriylik nazariyasini ayovsiz tanqid qildi. Marksning fikriga ko'ra miqdoriylik nazariyasining eng kata xatosi shundaki, ular pulning mohiyatini faqatgina pulning muomala vositasi bilan tushuntiradilar. Ular pulning qiymat o'lchov funksiyasini tan olmaydilar. Karl Marksning fikricha pulning miqdoriylik nazariyasining ikkinchi xatosi pullar va tovarlar muomala jarayoniga qadar bahoga va qiymatga ega bo'lmaydilar deganlaridadir.

Marksning fikriga ko`ra muomalaga kirishgunga qadar pullar qiymatga tovarlar esa bahoga ega bo`ladi. Pullar qiymati va tovarlarning bahosiga bog`liq ravishda tovarlarning bahosi shakllanadi.

Pulning miqdoriylik nazariyasi namoyondalari bilan K.Marks o`rtasidagi munozara quyidagida namoyon bo`ladi.

Marks aytadiki: tovarlar bahosining oshishi muomaladagi pul miqdorining ko`payishiga olib keladi. Pulning miqdoriylik nazariyasining namoyondalari aytadiki: muomaladagi pul miqdorining ko`pligi tovarlar bahosining oshishiga olib keladi. XX asrda pulning miqdoriylik nazariyasi hukmron nazariyaga aylandi. XX asrda miqdoriylik nazariyasining 2 xil ko`rinishi paydo bo`ldi.

1. Transaksion (I.Fisher yaratdi)

2. Kembridj

1911-yilda Irving Fisherning mashhur “Pulning xarid kuchi nomli” asari nashrdan chiqdi. Ushbu asarda Fisherning almashuv tenglamasi o`z ifodasini topdi.

$$MV=PQ$$

M-muomaladagi pul massasi

V- pulning aylanish tezligi

P –tovarlarning o`rtacha bahosi

Q –ishlab chiqarilgan tovarlar miqdori

$$P=MV/Q$$

Fisherning xulosasiga ko`ra tovarning bahosi muomaladagi pul miqdoriga va pulning aylanish tezligiga to`g`ri proporsional. Bunda Q va V o`zgarmasdir. Bu ikkala komponent o`zgarmas bo`lganligi sababli shunday xulosa kelib chiqadi. Tovarlar bahosining o`zgarishi muomaladagi pullarning o`zgarishiga bog`liq.

Kembridj variantini Alfred Marshal yaratdi. Ushbu nazariyani Pigu rivojlantirdi. Fisherdan farqli o`laroq Marshal va Pigu tahlilni mikroiqtsodiy darajada amalga oshirdi. Ular asosiy e`tiborini xo`jalik sub`ektlarining kassa qoldiqlarini o`zgarishiga qaratdilar.

$$M =KPY$$

K-pulning aylanish tezligi ammo bu tezlik xo`jalik yurituvchi sub`yektlarning pul shaklidagi nominal daromadiga

qarab o`rganiladi. Fisherda pulning aylanishi tovarlar aylanishiga qarab belgilanadi. Kembridj variantidan shunday xulosa chiqadi: muomaladagi pul miqdori pulning aylanish tezligiga teskari proporsional. Pulning aylanish tezligi real kassa qoldiqlarining miqdori va ularning hisobidan qilingan xarajatlar nisbatiga bog`liq bo`lganligi sababli muomaladagi pul miqdorining o`zgarishi pul shaklidagi nominal daromadning o`zgarishiga bog`liq.

Kembridj variantida kassa qoldiqlarini shakllantirishning ikki xil varianti keltiriladi:

-pulning qulay to`lov vositasi.

-ko`zda tutilmagan holatlar munosabati bilan nominal daromadning bir qismini pulda saqlash.

2.4. Zamonaviy monetarizm nazariyasi.

AQSHning Chikago Universiteti professori Xalqaro Nobel mukofoti sohibi Fridmen XX asrning 70-yillarida yaratdi. II jahon urushidan keyin AQSHda J.M.Keynsning pul kredit konsepsiyasining qabul qilinishi AQSH iqtisodiyotini 1960-yillarga qadar inqirozsiz rivojlantirish imkonini berdi.

60- yillarga kelib Keynsning konsepsiyasi AQSHda ishlamay qoldi. Ya`ni past va barqaror foiz stavkalari sharoitida ishsizlik darajasi oshib ketdi. Inflyatsiyaning yillik darajasi 10 % ga yetdi.

Maydonga M.Fridmen chiqdi. U aytadiki: AQSHdagi hozirgi inqiroz holati pullar taklifining keskin ko`payganligi bilan bog`liq. Shuning uchun pul massasining o`sish sur`atlarini nazorat ostiga olishimiz kerak. U taklif qildi. Pul massasining o`sishi 3-5 % darajasida bo`lishi kerak. Agar pul massasining yillik o`sish massasi 3 % dan ortiq bo`lsa, bu pul massasining o`sish suratini sekinlashishiga olib keldi. Agar pul massasining yillik o`sishi 5 % dan yuqori bo`lsa mamlakatda inflyatsiya kuchayadi. Fridmen ushbu taklifini amaliyotda qabul qilinishi AQSHda inflyatsiya yillik darajasini bir yil ichida 10 % dan 5 % ga tushirish imkonini berdi.

1978 - yillarda AQSH kongresi AQSH federal zaxira tizimiga M2 yoki M3 agregatlarini nazorat qilish vazifasini yukladi.

Hozirgi kunda AQSH markaziy banki M3, O`zbekiston M2 pul agregatini nazorat qiladi.

Fridmen Markaziy bankning pullar taklifini tartibga solish imkoniyatiga qattiq ishonadi. U aytadiki, mamlakat bank tizimidagi ortiqcha pullarni Markaziy bankning ochiq bozor siyosati orqali olib qo`yish mumkin. Fridmen tijorat banklarining kredit ekspansiyasini jilovlash kerak degan g`oyani ilgari surgan. Uning fikricha banklar iqtisodiyotni haddan tashqari ko`p miqdorda kreditlab yuborishi mumkin, shu sababli Fridmen tijorat banklarining depozitlariga 100 % li majburiy zaxira qo`llash taklifini bergan.

Shunday qilib, klassik miqdoriy nazariya uchun uchta qoida: 1) sabablilik (narxlar pullarning massasiga bog`liq bo`ladi); 2) mutanosiblik (narxlar pullar miqdoriga mutanosib ravishda o`zgaradi) 3) universallik (pullar miqdorining o`zgarishi hamma tovarlarning narxlariga bir xilda ta`sir qiladi) xos bo`lgan. Pullar shakllarining rivojlanishiga qarab pullar massasi turli xildagi miqdordan iborat bo`ladi va nafaqat naqd pullarni, shu bilan birga turli shakllardagi bank omonatlarini ham o`z ichiga oladi. Narxlari turli tusda oshib boradigan tovarlarning har xil guruhlari ham pul massasining ko`payishiga turlicha munosabatda bo`ladi. Shuning uchun pullarning miqdoriy nazariyasining shundan keyingi rivojlanishi unga ekonometrik tahlil apparati va narxlar bo`yicha mikroiqtisodiy elementlarining qo`shilishi bilan bog`liq. Siyosiy iqtisod matematik maktabining yirik vakili, Xalqaro iqtisodiy jamiyat asoschilaridan biri va uning birinchi prezidenti (1931-1933) Irving Fisher (1867-1947) pullarning miqdoriy nazariyasini zamonaviylashtirishga katta hissa qo`shdi. U «Pullarning xarid qilish kuchi. Uning belgilanishi kredit, foizlar va tanazzullarga munosabati» asarida (1911) pullar massasi bilan tovarlar narxlari darajasi o`rtasidagi bog`liqlikni formallashtirishga harakat qilgan. Tovarlar uchun to`langan pullar soni va sotilgan tovarlar narxlari summasi teng bo`lgani uchun buni I.Fisher tarozi bilan o`xshatmoqchi bo`ladi. Matematik shaklda ayirboshlash tenglamasini quyidagi formula shaklida tasavvur etish mumkin:

$M V = \dot{a}PQ$, bunda: \dot{a} – (Expenditure) – pul muomalasining umumiy hajmi, ya`ni mazkur jamiyatda shu yil davomida tovarlarni sotib olish uchun sarflanadigan pullar summasi; M (Money) – ushbu jamiyatda yil davomida muomalada yurgan pullarning o`rtacha

miqdori; (Velocity) – ne`matlarga ayirboshlashdagi pullar aylanishlarining o`rtacha soni; P – (Price) – ushbu jamiyatda sotib olinadigan har qanday alohida tovarning o`rtacha sotish narxi; Q – (Quantity) – tovarlarning jami xarid qilingan soni. Fisher formulasi oltin tangali standart sharoitida to`g`ri bo`lmaydi, chunki u pullarning ichki qiymatini hisobga olmaydi. Biroq oltinga almashtirilmaydigan qog`oz pullar muomala qiladigan sharoitda u muayyan mazmun kasb etadi. Bunday sharoitda pul massasining o`zgarishi, garchi I.Fisher tovarlar narxlarining mutloq elastikligini nazarda tutib, narx mexanizmini ma`lum ma`noda ideallashtirsa-da, lekin tovarlar narxleri darajasiga ta`sir ko`rsatadi. Boshqa neoklassiklar kabi Fisher ham mukammal raqobatchilikka asoslanadi va o`z xulosalarini monopoliyalar hukmronlik qiladigan va narxlar oldingi elastikligini jiddiy yo`qotgan jamiyatga tegishli deb biladi. Ko`pgina hozirgi iqtisodchilar ayirboshlash tenglamasini bir xillik, ya`ni $MV=PQ$ sifatida tavsiflashadi. Gap shundaki, bu tenglama D – T ayirboshlash harakatini tovarlarning jami massasiga daxldor deb ifodalashga urinadi, ya`ni tovarlar sotib olingan pullar summasi sotib olingan tovarlar narxleri summasiga teng (bir xil). Bu tovarlar uchun ayirboshlash formulasi narxlarining umumiy (mutloq) darajasini izohlash uchun xizmat qila olmaydi. Miqdoriy nazariya tarafdorlarining faraz qilishicha, ayirboshlash formulasi mutloq kattalikni EQo ni izohlaydi (ayni bir vaqtda talab va taklif mexanizmi undan nisbiy tebranishlarni izohlaydi). I.Fisher va uning izdoshlari shunday nuqtai nazarga amal qilishgan. Ular pullarning aylanish tezligi (V) va ishlab chiqarish darajasi (Q) muomalada yurgan pullar miqdoriga (M) va narxlar darajasiga (P) bog`liq bo`lmasligini asoslashga urinishgan. Ular pullarning aylanishi tezligi avvalo demografik (aholining zichligi va hokazo) va texnik (transport vositalarining soni, sifati va hokazo) parametrlarga bog`liq bo`ladi, deb faraz qilishgan. Ishlab chiqarish darajasi esa asosan mehnat bozorida yuzaga kelayotgan shart-sharoitlar bilan belgilanib, narxlar darajasi va muomalada yurgan pullar soniga bog`liq bo`lmaydi. Shubhasiz, bozor xo`jaligi hukmronlik qiladigan sharoitda bunday qoidalar yaqqol noreal tus kasb etadi. Pulning Djon Meynar Keyns nazariyasi Iqtisodiyotni davlat tomonidan tanazzulga qarshi kredit-pul vositalari yordamida tartibga solish xususida ikkita bir-biriga zid keladigan yondashuv mavjud. Ularning biri neoklassik doktrina bilan

bog'liq. An'anaviy neoklassik yo'nalish stixiyali bozor mexanizmini ideallashtirgan. U to'liq bandlikka asoslanadi va pul massasining o'sishi narxlarning o'sishida ifodalanadi, deb faraz qiladi. Natijada pul birligining xarid qilish kuchi pasaydi va pullarning o'sishi aylanish girdobida qolib ketdi. Shunday qilib, narxlarning yangi, birmuncha yuqori darajasida pullar zaxirasining oldingi qiymati yana qayta tiklandi. Bunday rivojlanish modeli amalda kapitalizmga tanazzullar va ishsizlikni istisno qildi. Neoklassiklarning yondashuvi kapitalistik voqelikka zid keldi va bu hol 1929-1933 yillardagi «buyuk depressiya» jarayonida alohida namoyon bo'ldi. Ahvolni tuzatish ishi J.M.Keynsning zimmasiga tushdi. U «Bandlik, foiz va pullarning umumiy nazariyasi» asarida (1936) pullarning aylanishdan chiqib ketishi sabablarini aniqlashga urinadi, chunki, uning fikricha, buning natijasida yalpi to'lovga qobiliyatli talab hajmi qisqaradiki, bu ishlab chiqarish rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. J.M.Keynsning fikricha, pullarning chiqib ketishining bosh sabablari «uchta fundamental psixologik omillar»: iste'molga moyillik, likvidlilikni afzal ko'rish va kapital aktivlardan keladigan bo'lg'usi daromad taxmini bilan bog'liq. Pullarga yalpi talab quyidagi formula bilan belgilanadi: $M = M1 + M2 = L1(Y) + L2(r)$, bunda: $M1$ – transaktsion talab; $M2$ – spekulyativ talab; Y – milliy daromad; r – foiz normasi; $L1$, $L2$ – likvidlilik funksiyalari. Neoklassiklar va Keyns pullar takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir qiladi, deb hisoblashadi. Biroq neoklassiklar bunday ta'sirni narxlar orqali, Keyns esa – foiz normasi orqali ko'rsatadi. Keynsning fikricha, foiz normasi investitsiyalarga ta'sir ko'rsatadi, investitsiyalar esa milliy daromad o'sishining muhim omili hisoblanadi. Keynsning kapitalizmning o'zini o'zi tartibga soladigan tizim sifatidagi tanqidi qayishqoq pullarni – neoklassik nazariyaning asosiy barqarorlashtiruvchi omilini to'xtatib qo'yish yo'li bilan erishiladi. Keyns shu maqsadda barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarni ish haqining o'zgarish koeffitsientlarida ifodalaydi. Lekin narx omilidan abstraksiyalashtirish, o'z mohiyatiga ko'ra, ayniqsa ikkinchi jahon urushidan keyin keskinlashgan inflyatsiya muammosini istisno etdi. Bu keynschilikning keskin tanqidga uchrashini oldindan belgilab berdi va pullarning neoklassik nazariyasi vujudga kelishining muhim sharti bo'ldi. Hozirgi monetarizm nazariyasi Keynsning bevosita davlat investitsiyalarining roliga va kon'yunkturani tartibga solishning byudjet uslublariga ortiqcha baho berib yuborgan tavsiyalarining

qo`llanib bo`linmasligi inflyatsiya fenomenini «sof pullik asosda» izohlashga urinishlarning paydo bo`lishiga olib keldi. Bunday yondashuv Milton Fridmen (1912 yilda tug`ilgan) boshchiligidagi hozirgi monetaristlar asarlarida amalga oshirildi. 60-70-yillarda uning «Kapitalizm va erkinlik», «Qo`shma Shtatlarning monetar tarixi. 1867- 1970» (A.Shvarts bilan birgalikda), «Pozitiv iqtisodiy fan ocherklari», «Dollar va defitsit», «Pul nazariyasidagi **kontrrevolyutsiya**» va boshqa asarlari chop etiladi. 1976 yilda M.Fridmenga Nobel mukofoti berildi. Monetaristlar pullarning miqdoriy nazariyasining yangicha talqinini taklif etishdi. M.Fridmen statistik tahlil asosida quyidagicha formulani taklif qildi: $MV = Py$, bunda: M – pul massasi; V – daromadning aylanish tezligi; P – narxlar darajasi; y – real daromad normasi (oqimi). Pullarni monetaristlar takror ishlab chiqarishning hal qiluvchi omilli sifatida ko`rib chiqishadi, shuning uchun davlatning pul-kredit sohasini noto`g`ri tartibga solishi, ularning fikricha, iqtisodiy tanazzulni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday tanazzulning oldini olish uchun, birinchidan, pul massasining o`sishi sur`atlarini yiliga 3-4% gacha pasaytirish zarur (bu AQSH milliy daromadining o`rtacha o`sish sur`atlariga to`g`ri keladi). Shunisi xarakterliki, bunday sur`atlar iqtisodiy kon`yunkturaning joriy holatidan qat`i nazar tavsiya etiladi, chunki, monetaristlarning fikricha, qabul qilingan qarorlarning ta`siri jiddiy kechikadi va ularning boshlang`ich maqsadiga putur etkazadi. Ikkinchidan, davlatning iqtisodiy funktsiyalarini cheklash: davlat sektori miqdorlarini kamaytirish, davlat xarajatlarini, shu jumladan, ijtimoiy ehtiyojlarga xarajatlarni qisqartirish kerak (bu yirik biznesning manfaatlariga ob`ektiv xizmat qiladi). 1969-1970-yillarda va 70-yillarning ikkinchi yarmida AQSH, Angliya, GFR, Yaponiyada va boshqa ayrim mamlakatlarda monetaristik tavsiyalarni amalda qo`llanishga urinishlar bo`ldi. Hisobga olish stavkasi jiddiy oshirildi (17-20% gacha), ilgari natsionalizatsiya qilingan korxonalarining qisman qaytadan xususiylashtirilishi va shu kabi tadbirlar amalga oshirildi. Biroq inflyatsiya bilan kurashda erishilgan shubhasiz yutuqlarga qaramasdan kapitalizmning rivojlanishidagi tanazzulli pasayishlarning to`liq oldini olib bo`lmadi – 1980-1982-yillardagi tanazzul shundan yaqqol dalolat berdi. Bir qator mamlakatlarda ushbu tanazzul urushdan keyingi davrdagi nafaqat eng uzoq davom etgan, shu bilan birga eng teran tanazzul bo`ldi. Monetaristik chora-tadbirlar,

shubhasiz, mehnatkashlar real daromadlarining harakatiga ham salbiy ta`sir ko`rsatdi. Shunday qilib, hozirgi monetarizm qo`yilgan vazifani to`liq hal qila olmadi. Bu shuning uchun yuz berdiki, monetarizm kapitalistik ishlab chiqarishning tub muammolaridan, avvalo va asosan kredit-pul muomalasi sohasidan ajratib abstraklashtirildi

Nazorat uchun savollar

1. Pulning metallilik nazariyasini yoritib bering?.
2. Pulning nominallik nazariyasini nimadan iborat?.
3. Pulning miqdoriylik nazariyasini ochib bering?.
4. Zamonaviy monetarizm nazariyasi nimaga asoslanadi?.

3-MODUL. PUL AYLANMASI VA UNING TARKIBI.

3.1. “Pul aylanmasi” tushunchasining mazmuni va pul aylanmasining tarkibiy tuzilishi.

3.2. Naqd pul aylanmasi va uni tashkil qilish printsiplari. Naqd pullarni muomalaga chiqarish va muomaladan olish tartibi.

3.3. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari. “Pul aylanmasi” tushunchasining mazmuni.

3.4. Umumiy to`lov aylanmasi” tushunchasi va uning tarkibi. To`lov aylanmasining tarkibi.

3.1. “Pul aylanmasi” tushunchasining mazmuni va pul aylanmasining tarkibiy tuzilishi

Pul aylanmasi - bu ma`lum bir davr uchun naqd va naqdsiz shaklda barcha to`lovlarning yig`indisi. Muomala va to`lov vositasi vazifasini bajaruvchi to`lov aylanmasiga naqd va naqdsiz operatsiyalarda pul mablag`lari harakati, shuningdek boshqa to`lov vositalarining harakati: cheklar, veksellar, depozit sertifikatlar, ya`ni pul vazifalarini bajarishga qodir muomaladagi pul vositalari kiradi.

Amalda pul aylanmasi to`lov aylanmasining bir qismidir, shu jumladan pul muomalasi, bu naqd pul va aylanmasi bo`lib, u ko`plab operatsiyalarda o`zgarishsiz qatnashadi, aksincha pul birligining naqd

pulsiz muomalada bank hisobvarag'idagi yozuvlar ko`rinishidagi harakatidan farq qiladi.

To`lov aylanmasining ikkinchi qismi pul aylanmasi deb ataladi, bu erda pul to`lov vositasi sifatida ishlaydi, shu jumladan naqd va naqd pulsiz pul harakati shaklida qatnashadi.

Mamlakat pul muomalasini aks ettiruvchi mamlakat pul aylanmasi quyidagi muomaladan iborat:

- Markaziy bank va tijorat banklari;
- tijorat banklari;
- tijorat banklari va ularning mijozlari (korxonalar, tashkilotlar, aholi);
- korxonalar va tashkilotlar, ular va aholi o`rtasida;
- jismoniy shaxslar;
- banklar va turli moliya institutlari, shuningdek, jismoniy shaxslar o`rtasida.

Mamlakatimizda elektron pullar muomalasini, jumladan, elektron pullarni chiqarish, foydalanish va ularni qoplash bo`yicha amalga oshiriladigan faoliyatning huquqiy asosini yaratish maqsadida O`zbekiston Respublikasining "To`lovlar va to`lov tizimlari to`g`risida"gi Qonunida belgilangan normalar asosida "**O`zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarning chiqarilishi va muomalada bo`lishi qoidalari**" ishlab chiqilib, Adliya vazirligida 2020 yil 29 aprelda 3231-son bilan davlat ro`yxatidan o`tkazildi.

Mazkur hujjat jahon tajribasiga tayangan holda, elektron pullar tizimi faoliyatini tashkil etish, elektron pullar muomalasi, elektron pullar tizimida risklarni boshqarish hamda tizimda xavfsizlikni ta`minlash maqsadida ishlab chiqildi.

Milliy to`lov tizimining asosiy funktsiyalari quyidagicha tavsiflanadi:

- to`lov operatsiyalari ishtirokchilarining qarz majburiyatlarini to`lash va hisobga olish;
- to`lov tizimi sub`ektlari o`rtasida pul o`tkazmalarini o`tkazish bo`yicha munosabatlarni tashkil etish yagona qoidalar va standartlar bilan tartibga solinadi.

Milliy to`lov tizimini yaratish pul va to`lov aylanmasining quyidagi asosiy vazifalarini hal qilishni nazarda tutadi:

- doimiylik;
- xavfsizlik;

- samaradorlik;
- adolat.

Naqd pul aylanmasi

Pul aylanmasi – bu pullarning naqd va naqdsiz shakldagi uzluksiz harakatlarning yig'indisidir. **I.SHakerning** ta'rif berishicha pul aylanmasi bu pullarning naqd va naqd bo'lmagan shakllardagi doiraviy aylanish jarayoni bo'lib, bunda pullar muomala vositasi va to'lov funksiyasini bajaradi. Pulning bir qo'ldan ikkinchi qo'lga o'tishini Shaker doiraviy aylanish deb atadi. Pullarning bir sub'ektdan ikkinchi sub'ektga o'tishi. Pulning doiraviy aylanishi takrorlanishi pulning aylanishi deyiladi. Pul aylanmasidan tashqari to'lov aylanmasi degan tushuncha mavjud. To'lov aylanmasi pul aylanmasiga qaraganda keng tushuncha. To'lov aylanmasi-bu pul shaklidagi mablag'larning va pul bozori instrumentlarning vositasida amalga oshirilgan to'lovlarning yig'indisidir.

Pul bozori instrumentlariga quydagilar kiradi :

- **Obligatsiyalar** – o'z egasiga qat'iy belgilangan foiz ko'rinishida daromad keltiruvchi qimmatli qog'oz.

- **Davlatning xazina majburiyatlari.**

- **Depozit sertifikatlar** –bu tijorat banklari tomonidan korxonalar ixtiyoridagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larni jalb qilish maqsadida chiqariladigan qimmatli qog'oz.

- **Jamg'arma sertifikatlari** –bu jismoniy shaxslar ixtiyoridagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larni banklarga jalb qilish maqsadida chiqariladigan qimmatli qog'oz.

- **Tijorat veksellari** – tijorat veksellari tovarlar kreditga sotilganda yoziladi. Vekselni mol yetkazib beruvchi to'ldiradi. Sotib oluvchi esa vekselga mas'ul shaxsning imzosi va muhr qo'yadi. Ana shundan keyin veksel sotib oluvchining mol yetkazib beruvchi oldidagi qarz majburiyatini tasdiqlovchi hujjatga aylanadi. Tijorat vekseli pulning to'lov vositasi funksiyasini bajaradi. Vekselni indassament orqali boshqa shaxslarga uzatish mumkin. Indassament-vekselni boshqa shaxsga uzatish huquqini beruvchi maxsus yozuv. Vekselni boshqa shaxsga uzatgan shaxs indossant deyiladi. Vekselni qabul qilib olgan shaxs indossat deyiladi.

- **Cheklar**– unda ko'rsatilgan summani to'lash to'g'risidagi topshiriqdir. Amaliyotda pullik cheklar va hisob kitob cheklari

qo'llaniladi. Fredirik Mishkenning fikriga ko'ra cheklarning jiddiy kamchiligi ularni chiqarish bilan bog'liq xarajatlarning katta ekanligidir. AQSH da har yili chekni muomalaga chiqarish uchun 40 mlrd.\$ xarajat qilinadi.

- **Bank aktseptlari** – aktsept so'zi lotincha so'z bo'lib qabul qilmoq degan manoni anglatadi. Bank aktsepti deganda bank tomonidan tijorat vekseli va chek bo'yicha to'lovning kafolatlanishi tushuniladi.

To'lov aylanmasining mutlaq asosiy 75-80% ini pul aylanmasi tashkil qiladi. Chunki pul eng yuqori likvidli aktiv hisoblanadi.

Pul aylanmasi 2 yirik qismdan iborat:

1. Naqdsiz pul aylanmasi
2. Naqd pul aylanmasi

Naqdsiz pul aylanmasi – bu pul mablag'larining to'lovchining bankidagi hisob raqamidan oluvchining hisob raqamiga ko'chirish shaklidagi harakatlarining yig'indisidir.

Sobiq Ittifoq o'rnida tashkil topgan davlatlar o'zaro talab va majburiyatlarini *voz kechish* deb nomlanuvchi naqdsiz pul aylanmasi mavjud.

3.2. Naqd pul aylanmasi va uni tashkil qilish printsiplari. Naqd pullarni muomalaga chiqarish va muomaladan olish tartibi.

Naqd pul aylanmasi bu pullarning naqd ko'rinishidagi harakatlarining yig'indisidir.

Naqd pul aylanmasi – bu naqd pullarning doiraviy aylanishining doimiy ravishda takrorlanishidir.

Naqd pul aylanmasi bu pul mablag'larining naqd ko'rinishidagi aylanmasidir. Taraqqiy etgan mamlakatlarda naqdsiz pul aylanmalarini yuksak darajada rivojlanganligi, naqd pullarga bo'lgan talabni keskin pasayishiga olib keldi. AQSH va YAponiyada plastik kartochkalarga asoslangan to'lovlar rivojlangan. Evropada plastik kartochkalar va pullik cheklarga asoslangan to'lovlar rivojlangan.

Naqd pullar aylanishining amal qilishiga doir quyidagicha asosiy tamoyillar ajratib ko'rsatiladi:

- 1) moliya muassasalari-emitentlarning mavjudligi;

2) bozor qatnashchilarining mablag'larni sarflash yuzasidan iqtisodiy erkinligi;

3) ta'sis etilgan milliy pul birligining amal qilishi;

4) nazorat qiluvchi organlar oldida tushumlar va xarajatlar hajmlari uchun hisobotchilikni amalga oshirish mumkinligi;

5) pul mablag'lariga egalik qilishning legitimligi.

To'lovlar ma'lum ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Xalqaro amaliyotda pullik to'lovlarni amalga oshirishning 2 xil ketma-ketligi mavjud:

1. **Kalendar** ketma-ketlik.

2. **Maqsadli** ketma-ketlik.

Kalendar ketma – ketlikda qaysi qarzdorlik oldin paydo bo'lgan bo'lsa, o'sha to'lanadi. Bu ketma-ketlik taraqqiy etgan mamlakatlarda qo'llaniladi.

Maqsadli ketma-ketlikda to'lovlar oldindan belgilangan maqsadlarga qarab to'lanadi. Bu ketma-ketlik rivojlanayotgan davlatlarda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida qo'llaniladi.

Har qanday pullik to'lovlar pul aylanmasida ishtirok etuvchi subektlarining joriy hisob raqamlaridagi pul mablag'lari hisobiga to'lanadi. Joriy hisob raqamlar AQSH bank amaliyotida tranzaksion depozit hisob raqamlari, Germaniyada jiro hisob raqamlari, Rossiyada "depoziti do vostrebovanie" deyiladi. Fransiyada joriy hisob raqami deyiladi, O'zbekistonda talab qilib olinadigan depozit hisob raqamlari deyiladi.

Naqd pul aylanmasi muomalaga 2 kanal orqali chiqadi:

1) **Markaziy Bankning zaxira vakillik tizimi orqali (Tijorat banklarining buyurtmalari asosida)**. Tijorat banklarida naqd pulga bo'lgan qo'shimcha talab yuzaga kelganda ular bu talabni qondirish uchun markaziy bankga naqd pul olish uchun buyurtma beradilar. Markaziy Bank buyurtma qilingan naqd pulni emissiya qiladi va uni inkassatsiya xizmati orqali tijorat banklariga yetkazadi. Emissiya qilingan summaga Markaziy Bank balansining passiv qismidagi "Majburiyatlar moddasi" ko'payadi. Tijorat banking Markaziy Bankning balansida ochilgan "Vostro" vakillik hisob raqamining qoldig'i ana shu summaga kamayadi.

2) **Davlat byudjeti xarajatlarini moliyalashtrishda**. Markaziy Banklarning tuman va shahar filiallari bo'lmaydi, shu sababli ular davlat byudjetining kassa ijrosini amalga oshirish maqsadida tijorat

banklarining xizmatlaridan foydalanishga majbur bo`ladilar. Moliya vazirligi byudjet tashkilotlari xarajatlarini naqd pulsiz shaklda moliyalashtirib beradi. Moliyalashtirilgan summaning naqd pul ta`minoti Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Markaziy Bank inkassatsiya xizmati orqali naqd pulni tijorat banklariga yetkazib beradi. Yetkazib berilgan naqd pulning naqd pulsiz ekvivalenti tijorat bankining hisob raqamidan yechib oladi.

Pul aylanmasining tarkibi quyidagi qismlardan tashkil topadi:

1. Markaziy Bank va tijorat banklari o`rtasidagi naqd pul aylanmasi.

2. Tijorat banklari o`rtasidagi naqd pul aylanmasi

3. Banklar va ularning mijozlari o`rtasidagi naqd pul aylanmasi (barcha naqd pul ko`rinishidagi pullarini tijorat banklariga topshirishlari shart. Tijorat banklari o`z mijozlariga naqd puldagi xarajatlarini moliyalashtirish uchun naqd pullar beradi: (Ish haqi, mukofot, mehnat ta`tili pullari va boshqalar.)

4. Tashkilotlar bilan tashkilotalar o`rtasidagi naqd pul aylanmasi

5. Tashkilotlar va ularning xodimlari o`rtasidagi naqd pul aylanmasi

6. Fuqarolar o`rtasidagi naqd pul aylanmasi.

Hozirgi davrda AQSH, Germaniya, Fransiya, Kanada va Braziliyada muomaladagi naqd pul tendensiyasi kuzatilmoqda. Lekin bu davlatlarda naqd pullarning muomladagi pul massasining salmog`i yuqori emas.

Kanada – 3.6%

Braziliya – 3.8%

AQSH - 4.9%

Fransiya – 8.5%

Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko`rsatkichning salmog`i ancha yuqoridir. Masalan, Rossiyada bu ko`rsatkich 29% ni, O`zbekistonda esa 48 % ni tashkil etadi. Naqd pul aylanmasi bir qator kamchiliklarga ega:

- Naqd pullarni emissiya qilish tashish va saqlash katta xarajatni talab etadi. Markaziy banklar emissiya xarajatini kamaytirish uchun kupyuralarning nominalini yiriklashtirishga majbur bo`ladilar.

- Naqd pullarni olib yurish xavflidir.

- Naqd pullar bilan hisob kitob qilish soliq to'lashdan qochish imkonini beradi.

- Naqd pul aylanmasi terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq

- Naqd pullar va inflyatsiya o'rtasida bevosita aloqadorlik mavjud.

Naqd pul aylanmasini tashkil qilish quyidagi printsiplar asosida amalga oshiriladi:

1. Naqd pul aylanmasini tashkil qilish va tartibga solishni me'yoriy huquqiy asoslarining mavjudligi. Masalan, Markaziy bankning kassa operatsiyalarini amalga oshirish to'g'risidagi yo'riqnomasi muhim me'yoriy hujjat bo'lib hisoblanadi.

2. Barcha korxonalar va tashkilotlar o'zlarining naqd puldagi mablag'larini tijorat banklarida saqlashlari shart.

3. Korxonalar va tashkilotlarga kassada kichik miqdorda naqd pul saqlab turishga ruxsat etiladi. Buning uchun ularning kassasiga tijorat banklari tomonidan limit belgilanadi. Bu limit ko'zda tutilmagan xarajatlar uchun ajratiladi.

4. Naqd pullardan maqsadli foydalanish printsiplari

Banklardan korxonalar naqd pullarni pul cheklari orqali oladi. Pul chekida nima maqsadda naqd pul olinayotganligi ko'rsatiladi. Naqd pullarning darajasiga baho berish uchun xalqaro amaliyotda iqtisodiyotda naqd pullarning yetarliligi degan ko'rsatkich qo'llaniladi. $M_0/YAIM \cdot 100\%$

M_0 – Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilgan jami naqd pullar

2019-yilning 1-yanvar holatiga

Germaniyada – 8.9%

Rossiyada – 10.9%

Kanadada – 3.6%

Taraqqiy etgan mamlakatlarda bu ko'rsatkichning darajasi past. Buning bir qancha sabablari bor. Ulardan asosiylari ikkita:

1. Iqtisodiyotni kichik salmoqqa ega ekanligi.

Plastik kartochkalar mo'ljallanishiga ko'ra ikkiga bo'linadi:


- Shaxsiy kartochkalar – bu kartochkalar banklar tomonidan jismoniy shaxsga beriladi.

- Koorporativ kartochkalar - bu yuridik shaxslarga beriladi. Bu kartochkadan korxonaning xodimlari foydalanishi mumkin.

Plastik kartochkalar ishlash rejimiga ko`ra 2 ga bo`linadi:

1. Of – line
2. On – line

Pul aylanmasi tarkibi¹



Plastik kartochkalarining to`lovni amalga oshirish xususiyatiga ko`ra:

1. Debetli kartalar-bu kartalar faqat plastik karta hisob raqamidagi pul mablag`lari doirasida to`lovlarni amalga oshirish imkonini beradi.

2. Kreditli kartalar-plastik hisob raqamdagi pul tugaganini keyin ham tijorat banking krediti hisobiga to`lovni amalga oshirish imkonini beradi.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi pul aylanmasining tarkibiga bevosita ta`sir ko`rsatadi. Masalan, taraqqiy etgan mamlakatlarda iqtisodiyotning pul mablag`lari bilan ta`minlanganlik darajasi yuqori bo`lganligi sababli, tovar pul munosabatlarida to`lovsizlik muammosi mavjud emas.

$$MK = \frac{M2}{YAIM}$$

¹Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar/ SH.Z. Abdullaeva . – 2000. :28 bet

MK = monetazitsiya koefitsienti

M2 = pul agregati

Taraqqiy etgan mamlakatlarda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining rivojlanganligi naqd pullarga boʻlgan talabning kamayishiga olib keldi. Bu esa pul aylanmasi tarkibida naqdsiz yuqori va barqaror darajada saqlash imkonini beradi.

TBS-KST-MKTS

PM = $\frac{\quad}{\quad}$

PAT

PM = pul massasi

MKTS = muddati kelgan toʻlovlar summasi

TBS = tovarlar bahosi summasi

KST = kreditga sotilgan tavorlar summasi

PAT = Pul aylanmasi tarkibi

Naqd pulsiz pul aylanishi – banklarda pul mablagʻlarini toʻlovchilar va oluvchilarning hisobvaraqlari boʻyicha yozuvlar yordamida yoki oʻzaro talablarni hisobga olish yoʻli bilan amalga oshiriladigan pul aylanishidir.

Naqdsiz pul aylanmasi quyidagi printsiplar asosida tashkil etiladi:

1. Naqdsiz pul aylanmasining meʼyoriy huquqiy asoslarining mavjudligi. Oʻzbekistonda naqdsiz pul aylanmasining qonunchilik asoslari boʻlib quyidagilar hisoblanadi:

-Oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi

-Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy banki toʻgʻrisidagi qonuni

-Oʻzbekiston Respublikasining banklar va bank faoliyati toʻgʻrisidagi qonuni

2. Naqd pulsiz hisob kitoblarni asosan banklarda ochilgan hisob raqamlar orqali oʻtkazilishi.

Mijozlar hisob raqam ochishda banklarni erkin tanlash huquqiga ega. Barcha naqdsiz toʻlovlar toʻlovchining joriy hisob raqamidagi pul mablagʻlari hisobidan amalga oshiriladi.

Amaliyotda bir tijorat bankining mijozi ikkinchi bir tijorat bankining mijozi foydasiga naqd pulsiz toʻlovni amalga oshiradi. Bir bankdan 2-bankka oʻtayotgan toʻlovlar banklarning Nostro vakillik raqamlari orqali oʻtadi. Banklarning 2 turdagi nostro vakillik hisob raqamlari mavjud:

1. Vertikal vakillik hisob raqami

2. Gorizontal vakillik hisob raqami

Odatda har bir tijorat banki milliy valyutada bitta vertikal bitta gorizontal vakillik hisob raqamiga ega bo`ladi.

Vertikal vakillik hisob raqami Markaziy bankning balansida ochiladi. Gorizontal vakillik hisob raqami mamlakatning boshqa tijorat bankida ochiladi. O`zbekiston Respublikasida tijorat banklari milliy valyutada faqat bitta nostro vakillik hisob raqamga ega. Bu hisob raqam O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining balansida ochilgan. Aniqrog`i Markaziy bankning Toshkent shahar bosh boshqarmasida ochilgan.

To`lovchining va to`lovchining bankini likvidli bo`lishi. To`lovchining va to`lovchining bankini likvidli bo`lishi deganda ularni o`z majburiyatlarini pul mablag`lari bilan o`z vaqtida va to`liq to`lay olish qobiliyatiga aytiladi. Xalqaro ta`mirlash va taraqqiyot banki ekspertlari korxonalarining likvidligini baholash uchun quyidagi ko`rsatkichlarni taklif qilishgan:

Joriy likvidlik koeffitsienti – (Jlk)

JA-joriy aktivlar

JP-joriy passivlar

$$Jlk=JA/JP$$

Jahon banki ekspertlarining bu koeffitsientining eng past normativ darajasini 1.25 qilib belgilangan.

3.3. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari.

Iqtisodiy kontragentlar o`rtasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

1) inkasso operatsiyalari vositasidagi hisob-kitoblar;

2) akkreditivlar yordamidagi hisob-kitoblar;

3) bo`nak to`lovlari shaklidagi hisob-kitoblar;

4) ochilgan hisobvaraqa bo`yicha amalga oshiriladigan hisob-kitoblar;

5) veksellar va cheklar shaklida amalga oshiriladigan hisob-kitoblar.

To`lovni amalga oshirish uchun to`lovchining roziligi bo`lishi kerak. Ammo qonunchilikda ayrim hollarda to`lovchidan so`ramay

uning pulidan olib qo'yishga ruxsat etilgan. Misol uchun soliq inspeksiyasi tomonidan qo'yilgan Inkasso topshiriqnomalar, sudlarning qarori bilan qo'yilgan ijro varaqalari to'lovni to'lovchining rozilgisiz amalga oshiriladi:

To'lovlarning muddatliligi;

Naqdsiz hisob kitoblarni to'g'ri amalga oshirilganligi ustida o'tkaziladigan nazoratning mavjudligi;

Naqd pulsiz hisob kitoblarda ishtirok etuvchi tomonlarning mulkiy javobgarligining mavjudligi;


Xalqaro bank amaliyotida naqd pulsiz hisob kitoblarning 4 shaklidan foydalanadi.

1. To'lov topshiriqnomalari

2. Cheklar

3. Hujjatlashtirilgan akkreditivlar

4. Inkasso



1-rasm. To'lov topshiriqnomalari orqali naqd pulsiz hisob kitoblarni amalga oshirish tartibi¹

1-to'lovlarning oldi-sotdi shartnomasini tuzish. 2-tovarlarni jo'natish. 3- tovarlar bilan bog'liq hujjatlarni sotib oluvchiga jo'natish. 4-sotib oluvchi o'z bankiga to'lov topshiriqnomasini yozadi. 5-sotib oluvchining banki to'lov topshirig'iga asosan to'lovni amalga oshiradi. To'lov summasini sotib oluvchi joriy hisob raqamidan olinib, mol etkazib beruvchining vostro hisob raqamiga o'tkaziladi. 6-sotib oluvchining banki mol etkazib beruvchining bankini 5-operatsiya

¹Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar/ SH.Z. Abdullaeva . – 2000.:31 bet

bajarilganligi to'g'risida yozma ravishda xabardor qiladi. 7-mol etkazib beruvchining banki to'lov summasini mol etkazib beruvchining joriy hisob raqamiga o'tkazadi. 8-mol etkazib beruvchining joriy hisob raqamidan ko'chirma. To'lov topshiriqnomalariga xos bo'lgan asosiy avzallik bu tovarlarning sifatini nazorat qilishning mumkinligidir. Bu shakl quyidagi kamchiliklarga ega:

1. To'lov kafolatlanmagan


2. To'lov topshiriqnomalarida tovarlar summasining ma'lum qismini oldindan to'lab qo'yish qo'llaniladi. Bunda sifatsiz tovarlar yetkazib berish va tovarlarni vaqtida yetkazib bermaslik riski yuzaga keladi. Yevropa davlatlarida va AQSHda naqd pulsiz hisob kitoblarda tijorat banklarining kafolarlaridan foydalaniladi. Tijorat banki beradigan kafolatning 2 turi mavjud:

1. Mijozning to'lov majburiyatlari bo'yicha beriladigan kafolat

2. Yetkazib beriladigan tovarlarning sifati bo'yicha beriladigan bank kafolati

Taraqqiy etgan mamlakatlarda yuridik shaxslar o'rtasidagi hisob kitoblarda hisob kitob cheklari keng qo'llaniladi. Ushbu cheklar orqali hisob kitoblar quyidagicha amalga oshiriladi:

Cheklar orqali hisob kitoblar



2-rasm. Cheklar orqali hisob-kitoblar¹

¹Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar/ SH.Z. Abdullaeva . – 2000.: 36 bet

1-tovarlarni oldi sotdi shartnomasini tuzish. 2-sotib oluvchi o`z bankiga chek yozish uchun yozma ko`rsatma beradi. 3-sotib oluvchining banki chekni yozadi. 4-sotib oluvchining banki sotib oluvchiga uzatadi. 5-mol etkazib beruvchi tovarlarni jo`natadi. 6-mol etkazib beruvchi tovarlar bilan bog`liq hujjatlarni jo`natadi. 7-sotib oluvchi mol etkazib beruvchiga chekni uzatadi. 8-mol etkazib beruvchi chekni o`z bankiga uzatadi. 9-mol etkazib beruvchining banki chekni tekshiradi va qabul qilib oladi. 10-mol etkazib beruvchining banki sotib oluvchining bankiga to`lov uchun jo`natadi. 11-sotib oluvchining banki chekni to`lab beradi. Agar sotib oluvchining joriy hisob raqamida pul mablag`lari bo`lmasa chek qaytariladi. Chunki chek summasi taraqqiy etgan davlatlarda depozit qilinmaydi. Yevropa taraqqiyot va tiklash banki eksperti N. Akamatsuning tadqiqotlari ko`rsatdiki, Yevropa va AQSHda cheklar bo`yicha to`lovsizlik muammosining mavjud emasligi tijorat banklari kreditlari hisobidan cheklarning to`lanayotganligi bilan izohlanadi. Hisob kitob cheklarining asosiy kamchiligi to`lovning kafolatlanmaganligidir. Hisob kitob cheklarining afzalligi – tovarlarning sotilishini tezlashtiradi.

Hujjatlashtirilgan akkreditivning 5 ta asosiy shakli mavjud:

1. Chaqirib olinadigan akkreditivlar – bu akkreditiv uni ochgan bank tomonidan istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin.

2. Chaqirib olinmaydigan akkreditivlar – bu akkreditivlar bekor qilinib bo`lmaydi


3. Tasdiqlanadigan akkreditivlar - bu akkreditivlar 3-bank tomonidan tasdiqlanadi. Odatda kichik banklar tomonidan katta summaga ochilgan akkreditivlarni yirik banklar tan olmaydi. SHunda ular bu akkreditivni 3-bank tasdiqlashini talab qiladi.

4. Tasdiqlanmaydigan akkreditiv

5. Ta`minlangan akkreditivlar- bu shaklda O`zbekistonda keng qo`llaniladi. Bunda akkreditiv summasi mijozning joriy hisob raqamidan olinib, alohida schyotda deponent qilinadi.

Hozirgi vaqtda dunyo amaliyotida chaqirib olinmaydigan akkreditivlar keng qo`llaniladi.

1-to`lovlarni oldi sotdi qilish shartnomasini imzolash. 2-sotib oluvchi o`z bankiga akkreditiv ochish to`g`risida ariza beradi. 3-akkreditivni ochish, sotib oluvchining banki mol etkazib beruvchining bankiga akkreditiv telegrammasini jo`natadi.



3-rasm. Chaqirib olinmaydigan akkreditiv¹

Bu akkreditivning ochilganligini bildiradi. Mana shu vaqtdan boshlab sotib oluvchining banki to`lov yuzasidan kafilga aylanadi. 4-mol yetkazib beruvchining banki mol yetkazib beruvchini akkreditiv ochganligi haqida xabardor qiladi. 5-mol yetkazib beruvchi tovarlarni jo`natadi. 6-mol yetkazib beruvchi tovarlar bilan bog`liq hujjatlarni o`zining bankiga uzatadi. 7- mol yetkazib beruvchining banki hujjatlarni tekshiradiva qabul qilib oladi. 8-mol etkazib beruvchi banki tovar hujjatlarini sotib oluvchining bankiga to`lov uchun jo`natadi. 9-sotib oluvchining banki akkreditiv bo`yicha to`lovni amalga oshiradi. 10-sotib oluvchining banki sotib oluvchiga tovar hujjatlarini beradi. 11-sotib oluvchi banki mol yetkazib beruvchi bankini to`lov amalga oshirilganligi to`g`risida yozma ravishda xabardor qiladi. 12-mol yetkazib beruvchi banki to`lov summasini mol yetkazib beruvchining joriy hisob raqamiga o`tkazadi. 13-mol yetkazib beruvchining joriy hisob raqamidan ko`chirma.

3.4. Umumiy to`lov aylanmasi” tushunchasi va uning tarkibi. To`lov aylanmasining tarkibi.

Pul-to`lov aylanishi pul aylanishining bir qismi bo`lib, unda pullar qanday shaklda taqdim etilganidan qat`i nazar to`lov vositasi sifatida faoliyat yuritadi. Boshqacha aytganda, bunday holda iqtisodiy

¹Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar/ SH.Z. Abdullaeva . – 2000.: 41 bet

sub`ektlar o`rtasida naqd pullik va naqd pulsiz shaklda ayirboshlash vositasi sifatida amal qiladigan pul mablag`lari ko`rib chiqiladi.

Pul mablag`lari harakatining har biri bo`yicha muqobil harakat ham amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, pullarning aylanishi ko`p yo`nalishli bo`ladi va xo`jalik faoliyati sub`ektlarini qamrab oladi.

To`lov aylanishi ushbu mamlakatda amal qiladigan to`lov vositalarining uzluksiz harakat qilish jarayonidir. Boshqacha aytganda, pul aylanishi deganda to`lov vositalarining shaklidan qat`i nazar bunday barcha vositalarning majmui tushuniladi. Bevosita pul mablag`larining harakati va cheklar, depozit sertifikatlar va veksellarning ko`chib yurishi shunga kiradi. Pul aylanishi to`lov aylanishining bir qismidir.

Pul aylanishi naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi pul belgilarining uzluksiz harakat qilish jarayonidir.

O`z navbatida pul aylanishi to`lov vositalari muomalasining ikki shakliga: pul muomalasi (yoki naqd pullar aylanishi) va pul-to`lov aylanishiga bo`linadi.

Pul muomalasi pul aylanishining naqd pul mablag`lari muomalasi, pul belgilarining bir yuridik yoki jismoniy shaxslardan boshqa shaxslarga doimiy tarzda o`tib yurishi bilan bog`liq qismidir. Boshqacha aytganda, bu iqtisodiy sub`ektlar o`rtasidagi muomalada qatnashadigan bevosita naqd pul massasidir. SHu tufayli pul muomalasini ba`zan naqd pullarning aylanishi deb ham atashadi.

Pul-to`lov aylanishi pul aylanishining bir qismi bo`lib, unda pullar qanday shaklda taqdim etilganidan qat`i nazar to`lov vositasi sifatida faoliyat yuritadi. Boshqacha aytganda, bunday holda iqtisodiy sub`ektlar o`rtasida naqd pullik va naqd pulsiz shaklda ayirboshlash vositasi sifatida amal qiladigan pul mablag`lari ko`rib chiqiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Pul aylanmasi” tushunchasining mazmuni va pul aylanmasining tarkibiy tuzilishini yoritib bering?.

2. Naqd pul aylanmasi, uni tashkil qilish printsiplari va naqd pullarni muomalaga chiqarish va muomaladan olish tartibini yoritib bering?.

3. Naqdsiz pul aylanmasi, uni tashkil qilish printsiplari, hamda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi va uning elementlarini tushuntirib bering?

4. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllarini va ularga tavsif bering?

5. "Umumiy to'lov aylanmasi" tushunchasi va uning tarkibi hamda to'lov aylanmasining tarkibini yoritib bering?

4- MODUL. PUL MUOMALASINI TASHKIL QILISH VA PUL MASSASI

1. Pul muomalasini tashkil qilish asoslari.

2. Pul muomalasi qonunlari va ulardan kelib chiqadigan talablar. Pul massasi va uni tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

3. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash uslublari. I. Fisherning "almashuv tenglamasi".

4.1. Pul muomalasini tashkil qilish asoslari.

Pul muomlasini tashkil etishni amalga oshiruvchi, tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi yagona organ, davlatning zaxira va emission muassasasi - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tashkil etildi, xalqaro standartlar talablariga to'liq javob beradigan O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi.

Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 18 martdagi «Bank tizimini takomillashtirish, pul- kredit munosabatlarini barqarorlashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi 146-sonli Qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida, Markaziy bankning oltin-valyuta zaxiralarini shakllantirish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni amalga oshirish qoidalari tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1994 yilning 16 iyundagi «O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida»gi Farmoni asosida 1994 yil 1 iyulidan boshlab o'z milliy valyutamiz «so'm» muomalaga kiritilishi O'zbekiston iqtisodiy

rivojlanishida sifat jihatdan yangi davr - mustaqil pul-kredit siyosati yuritilish, xususan, pul maomlasini tashkil etish va muvofiqlashtirish davrining boshlanishi edi.

Shuningdek, pul muomlasini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirishda hozirgi kun amaliyotida O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti va hukumat rahbarlarini diqqat e`tiborida bo`lgan. Xususan, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 1992 yil 24 iyuldagi №346 sonli “Respublikada kassa muomalalarini tartibga solishning kechiktirib bo`lmaydigan chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2002 yil 5 avgustdagi №280 sonli “Pul mablag`larining bankdan tashqari muomalasini yanada qisqartirish chora tadbirlari to`g`risida”gi qarori shular jumlasidandir.

Shuning bilan birga, tovarlarni nakd pulsiz tartibda sotish ustidan monitoringni tashkil etishda savdo tarmoqlari orqali tovarlarni sotish, pul birligini xarid quvvatini oshirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2002 yil 26 noyabrdagi 407-son qarori bilan tasdiqlangan ulgurji va chakana savdo faoliyatini amalga oshirish tartibi to`g`risidagi nizom bilan tartibga solina boshlandi. Chakana savdo tashkilotlari tomonidan tovarlarni naqd pulsiz xisob-kitoblar bo`yicha sotish o`tgan oydagi oylik tovar aylanmasi umumiy xajmining 10 foizi doirasida amalga oshirila boshlash mexanizmi joriy eildi.

O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimovning 2005 yil 15 apreldagi №57 sonli “Naqd pul muomalasini takomillashtirish va bankdan tashqari aylamani qisqartirish borasidagi qo`shimcha chora tadbirlar to`g`risida”gi qarori talablaridan ko`rishimiz mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 apreldagi «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 56-sonli qarori hamda mazkur qaror bilan tasdiqlangan «2005-2007 yillarda bank tizimiin isloh qilish va rivojlantirish Dasturi»da asosan pul muomlasini tashkil etish va muvofiqlashtirishni muhim xuquqiy asoslarini yaratishda o`z aksini topdi. Shuning bilan birga, O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimovning 2005 yil 5 avgustdagi №147 sonli “Banklardagi depozit hisob varaqlardan naqd pul to`lovlarini uzluksiz ta`minlash kafolatlari to`g`risida”gi qarorlar chiqarildi.

Yuqoridagi O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimovning №147 sonli qaroriga asosan O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki zimmasiga kechiktirib bo`lmaydigan chora-tadbirlar ishlab chiqish vazifasi yuklatildi va 2005 yil 29 avgustda O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining №18/1 sonli va adliya Vazirligini №1518 son “O`zbekiston Respublikasida banklar tomonidan pul muomlasiga doir ishlarni tashkil etish to`g`risida”gi Nizom ishlab chiqildi.

O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2006 yil 14 iyuldagi 16/7 sonli “Bank kassalaridagi naqd pul qoldiqlariga limitlar belgilash va ularga rioya etilishini nazorat qilish tartibi to`g`risida”gi Nizomi va 2008 yil 10 martdagi №300-V sonli “Naqd pul tushumi kelib tushishini xranometrajini o`tkazish tartibi to`g`risida”gi Nizomlar ishlab chiqildi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozni yuzaga kelishi, mustaqil mamlakatlarda pul birliklarini moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun davlatlar zimmasiga qo`shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqishni majbur qildi. Xususan, O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov 2008 yil 27 martda №822 sonli “Naqd pul mablag`larini jalb qilish va unga bo`lgan extiyojni ta`minlash borasidagi qo`shimcha chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarorini ishlab chiqdi.

Shundan so`ng, O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2013 yil 26 apreldagi 9/1-sonli qaroriga asosan “O`zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to`g`risidagi” Nizomlar ishlab chiqilib, mamlakatimizda naqd pulsiz hisob kitob tizimini takomillashtirish mexanizmlari ishlab chiqildi.

1994 yil 1 yanvardan boshlab Hukumatimizning 1993 yil 30 dekabrda «Naqd pul muomalasini mustahkamlash chora-tadbirlari to`g`risida» 613-sonli qarori, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Pul muomalasini mustahkamlash va so`m-kuponning xarid quvvatini oshirish bo`yicha kechiktirib bo`lmaydigan chora-tadbirlar to`g`risida»gi qaroriga muvofiq chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2001 yil 22 iyundagi №264 sonli “Naqd pul muomalasini mustahkamlash va tijorat banklarining mas`uliyatini oshirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi qaroriga asosan Markaziy bank pul muomlasini

tashkil etish va samarali mexanizmlarini keng joriy etish orqali bu jarayonni muvofiqlashtirib borish mustahkamlandi. Chunki tijorat banklari zimmasiga nizom talablarini bajarmagan tijorat banklari mas'ul shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik xattoki ishdan ozod etishgacha javobgarlik belgilandi.

Pul muomalasi barqarorligini ta'minlash va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishni samarali tashkil etish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 11 iyuldagi «Muomaladagi naqd pullarni kamaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida» 356-sonli Qaroriga ko'ra Markaziy bank va tijorat banklari tomonidan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, naqd pullarni ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalarni to'lashga, shuningdek, xizmat safari xarajatlari uchungina berilishi belgilandi hamda 1994 yilning 1 avgustidan mehnatga haq to'lash uchun ajratiladigan mablag'lar davlat yo'li bilan tartibga solinishi joriy etildi.

Milliy valyuta muomalaga kiritilgan dastlabki oylardan boshlab respublikada naqd pul emissiyasini qisqartirish va uning muomalada bo'lishini tezlashtirish asosida pul muomalasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi. Shu maqsadda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining «Naqd pul muomalasini tezlashtirish chora-tadbirlar to'g'risida» 1994 yil 28 oktyabrdagi 526-sonli Qarorida ushbu vazifalarga oid dasturiy chora-tadbirlar belgilanib amalga oshirildi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining «Naqd pul mablag'lari emissiyasini qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida» 1996 yil 2 iyuldagi 230-sonli Qarori respublikada naqd pul emissiyasi darajasini pasaytirish, respublika mintaqalarida pul muomalasini yaxshilash uchun rahbarlar va mansabdor shaxslarning javobgarligini oshirish maqsadida qabul qilindi. Ushbu qaror bilan «Respublika mintaqalarida pul mablag'lari emissiyasi darajasini pasaytirish prognozlari va kassa rejalari bajarilishi uchun rahbarlar va mansabdor shaxslarning javobgarligini oshirish va ularni rag'batlantirish tartibi to'g'risida Nizom» tasdiqlandi.

2004 yil 24 sentyabrda 445-son bilan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori doirasida yagona umumrespublika proessing

markazi tashkil etildi. U savdo tashkiloti yoki xizmatlar sohasiga yoxud plastik kartochka egasiga qaysi bank orqali xizmat ko`rsatilayotganidan qat`iy nazar, bank operatsiyalarini barcha savdo shoxobchalarida yagona rejimda olib borish imkonini beradi. Ayni paytda, Yagona umumrespublika processing markazi so`m plastik kartochkalarini muomalaga chiqaruvchi 25 ta tijorat bankni birlashtiradi. Markazda “UZKART” so`m plastik kartochkalari bo`yicha naqd pulsiz hisob-kitoblar banklararo to`lov tizimi tashkil etilgan.

4.2.Pul muomalasi qonunlari va ulardan kelib chiqadigan talablar. Pul massasi va uni tavsiflovchi ko`rsatkichlar.

Pul muomlasini tashkil qilish va tartibga solish bir nechta omillarga asoslanadi:

1. Ana shunday muhim omillardan biri pul-tovar munosabatlarining mavjudligi hisoblanadi.

2. Yana bir omil pul mablag`larining tovarsiz harakatlanishi hisoblanadi.

3. Pul muomlasining meyoriy huquqiy asoslarining mavjudligi.

4. Pul muomlasini tashkil qiluvchi va tartibga soluvchi institutlarning mavjudligidir. Odatda pul muomlasini Markaziy bank tomonidan tashkil qilinadi va tartibga solinadi. Lekin pul muomnalasini tashkil qilishda bank tizimining 2-chi pog`onasida turuvchi tijorat banklari rol o`ynaydi.

Pul massasi- yuridik va jismoniy shaxslarga hamda davlatga tegishli bo`lgan naqd va naqdsiz ko`rinishdagi pul mablag`larining yig`indisidir.

Pul multiplikatori – muomaladagi pul massasini qay darajada o`sb yoki kamayib borayotganini ko`rsatadi.

$$PM = \frac{M2}{\text{Pul bazasi}}$$

PM – pul multiplikatori

Pul bazasiga quyidagilar kiradi:

1. Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilgan naqd pullar

2. Tijorat banklari tomonidan Markaziy bank foydasiga qilingan majburiy zaxira ajratmalari.

Markaziy banklar tijorat banklari jalb qilgan resurslarning bir qismini majburiy tartibda olib qo`yadi. O`zbekistonda tijorat

banklarining majburiy zaxira ajratmalari summasini Markaziy bank ularning balansidan olib qo`yadi. AQSHda va Evropada majburiy zaxira ajratmalari summasi tijorat banklarining balansida qoladi.

Pul agregatlari, ularga tavsifnoma va pulni tartibga solish amaliyoti va unga ta`sir qiluvchi omillar.

Pul muomalasi qonuni

Qiymat qonuni va uning muomala doirasida yuzaga chiqish shakli – pul muomalasi qonuni tovar-pul munosabati mavjud bo`lgan barcha ijtimoiy tuzumlarga xosdir. Qiymat shakllari va pul muomalasi taraqqiyot yo`lini tahlil qilayotib, K. Marks pul muomalasining qonunini ochdi. Bu qonunga asosan muomala vositasi funksiyasini amalga oshirish uchun kerak bo`lgan pul miqdori aniqlanadi.

Metallik pul muomalasida muomaladagi pul miqdori stixiyali tarzda, pullarning xazina funksiyasi yordamida tartibga solib turilgan. Agar pulga ehtiyoj kamaysa, ortiqcha pullar (oltin tanga) muomaladan xazinaga oqib o`tishi kuzatilgan yoki aksincha. Shunday qilib, muomaladagi pul miqdori kerakli darajada ushlab turilgan. Keyinchalik, muomalaga banknotalar chiqarilishi va ularning metallar (oltin yoki kumush)ga erkin almashinishi ham muomalada pulning ortiqcha miqdori bo`lishini inkor etadi. Agar muomalada oltinga almashinmaydigan banknotalar yoki qog`oz pullar (xazina biletlari) amal qilsa, u holda naqd pul muomalasi pul muomalasi qonuniga asosan amalga oshadi.

Qog`oz pullar miqdori muomala uchun kerak bo`lgan oltin pullarning nazariy miqdoriga teng bo`lganda pul muomalasida hech qanday salbiy jarayonlar yuz bermaydi. Yuqorida ko`rsatilgan talab pulning barqarorligini ta`minlaydi, shuningdek, pul muomalasi mavjud bo`lgan barcha ijtimoiy tuzumlarda o`z kuchiga ega.

Pul muomalasi qonuni muomaladagi tovarlar massasi, ularning narx darajasi va pul muomalasi tezligi orasidagi iqtisodiy aloqadorlikni aks ettiradi. Bu qonunga asosan muomala uchun zarur bo`lgan pul miqdorini quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$\begin{array}{ccccccc}
 \text{Realizatsiya} & & \text{Kreditga sotilgan} & & \text{Majburiyatlar} & & \text{Bir-birini} \\
 \text{qilinadigan} & & \text{tovarlar narxi} & & \text{bo'yicha to'lovlar} & & \text{qoplaydigan} \\
 \text{tovarlar narxi} & - & \text{summasi} & + & \text{summasi} & - & \text{to'lovlar summasi.} \\
 \text{summasi} & & \text{нархи суммаси} & & & &
 \end{array}$$

Pulning muomala va to'lov vositasi sifatida o`rtacha aylanish tezligi.

SHunday qilib, muomala uchun zarur boʻlgan pul miqdoriga ishlab chiqarish rivoji va shart-sharoitlariga bogʻliq boʻlgan turli xil omillar taʼsir koʻrsatadi. Muomala uchun zarur boʻlgan pul miqdoriga taʼsir koʻrsatuvchi asosiy omil – bu tovarlar va xizmatlar bahosi hisoblanadi. Pul miqdori tovarlar va xizmatlar bahosiga toʻgʻri proporsional, yaʼni tovarlar va xizmatlar bahosining oshishi muomalaga koʻp pul chiqarishni talab qiladi. Pul miqdoriga taʼsir qiluvchi ikkinchi omil – bu pulning aylanish tezligi hisoblanadi. Bu omil pul miqdoriga teskari taʼsir koʻrsatadi. Odatda, pul qanchalik tez aylansa, muomala uchun zarur boʻlgan pul miqdori shuncha kam talab qilinadi va aksincha.

Muomala uchun zarur boʻlgan pul miqdorini kamaytirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish muhimdir. Bular: isteʼmol kreditni rivojlantirish; kreditga qanchalik koʻp tovar sotilsa, shuncha kam miqdorda pul muomalada kerak boʻladi;

– naqd pulsiz hisob - kitoblarning rivojlanishi;

– pullarning muomala tezligini oshirishga erishish va boshqalar.

Har bir jamiyat pul muomalasi qonuni talablarini hisobga olgan holda ish yuritishi zarur. Chunki pul muomalasi qonunining buzilishi pul barqarorligiga putur yetkazadi. Bu holda muomalaga chiqarilgan pul miqdori muomaladagi tovarlar bahosidan oshib ketishi, yaʼni inflyatsiya boʻlishiga yoki pul tanqisligiga (yetishmovchiligiga) olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pul muomalasini ushlab turish shart-sharoitlari va qonuniyatlari ikki omilning oʻzaro taʼsiri bilan, yaʼni xoʻjalikning pulga boʻlgan ehtiyoji va amalda pullarning muomalaga borib tushishi bilan belgilanadi. Amaliyotda koʻproq uchraydigan hol bu aylanmada xoʻjalikka kerak boʻlganidan koʻproq pulning boʻlishidir. Bu, albatta, pulning qadrsizlanishiga – pul birligi xarid qobiliyatining tushishiga olib keladi.

Pul agregatlari – bu pul massasini muqobil oʻlchash imkoniyatini beruvchi koʻrsatkichlardir. Xalqaro amaliyotda quyidagi pul agregatlaridan keng foydalaniladi:

1. M0 – bu agregatni hisoblash uchun Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilgan yaʼni emissiya qilingan barcha naqd pullar summasidan banklar va korxonalarining kassasidagi naqd pullarning qoldigʻi ayirib tashlanadi. Tarqqiy etgan mamlakatlar bank amaliyotida M0 hisobga olinmaydi.

2. $M1 = M0 + \text{talab qilib olinadigan depozitlar} + \text{yo`l cheklari}$.
Ayrim mamlakatlarda kredit kartalari ham $M1$ tarkibiga kiritiladi.

3. $M2 = M1 + \text{muddatli depozitlar} + \text{jamg'arma depozitlar}$. $M2$ hisoblashda summasi uncha katta bo`lmagan muddatli va jamg'arma depozitlar olinadi.

4. $M3 = M2 + \text{yirik summadagi muddatli depozitlar} + \text{deposit sertifikatlari} + \text{jamg'arma sertifikati}$.

$M4$ (L- AQSHda) = $M3 + \text{davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari} + \text{korporativ obligatsiya} + \text{jamg'arma obligatsiyalar} + \text{bank aktseptlari} + \text{pul bozori o`zaro fondlari paylari}$.

Taniqli olim F.Mishkenning fikriga ko`ra Markaziy bank pul agregatlarining qisqa muddatli davriy orqalidagi o`shishini e`tiborga olmasligi lozim, chunki pul agregatlarining qisqa davrda o`shishi mavsumiy omillar ta`sisirida bo`ladi. Shuning uchun pul massasining yillik o`shish sur`atlarini nazorat qilish lozim. Pul muomalasining muhim ko`rsatkichi pul massasi hisoblanadi. Pul massasi xo`jalik aylanmasidagi naqd pullik hisob-kitoblarni aholi, korxonalar, davlat muassasalariga tegishli xarid va to`lov vositalarining yalpi hajmini o`zida ifodalaydi.

Pul muomalasining belgilangan muddat va belgilangan davri uchun miqdoriy o`zgarishlarini bilish uchun, shuningdek, pul massasi hajmi va o`shish sur`atlarini tartibga solish bo`yicha tadbirlarni ishlab chiqarish uchun turli xil ko`rsatkichlar (pul agregatlari) dan foydalaniladi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarning moliya statistikasida pul massasini aniqlashda quyidagi asosiy pul agregatlari to`plamidan (guruhidan) foydalaniladi:

M-1 agregati – muomaladagi naqd pullar (banknotalar, tangalar) va joriy bank schyotlaridagi mablag'larni o`z ichiga oladi;

M-2 agregati – M-1 agregati va tijorat banklaridagi muddatli va jamg'arma qo`yilmalaridan (to`rt yilgacha) tarkib topgan;

M-3 agregati – o`z ichiga M-2 agregati va ixtisoslashgan kredit muassasalaridagi jamg'arma qo`yilmalarini kiritgan;

M-4 agregati – M-3 agregati hamda yillik tijoriy banklarining depozitli sertifikatlaridan iborat.

AQSH da pul massasini aniqlash uchun 4 ta pul agregati, Yaponiya va Germaniyada – 3 ta, Angliya va Fransiyada – ikkita pul agregatidan foydalaniladi.

Pul massasi tarkibi va dinamikasini tahlil qilish Markaziy bank tomonidan to'g'ri pul-kredit siyosati olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rossiya Federatsiyada muomaladagi jami pul massasi hisob-kitobi uchun quyidagi pul agregatlari qo'llaniladi.

M-O agregati – naqd pullar;

M-1 agregati – M-O agregati va hisob-kitob, joriy va boshqa schyotlar (maxsus schyotlar, kapital qo'yilmalar schyotlari, akkreditiv va chek schyotlari, mahalliy byudjet schyotlari, byudjet, kasaba, uyush-malari, jamoat va boshqa tashkilotlarning schyotlari, davlat sug'urta mablag'lari, uzoq muddatga kreditlash fondi) dagi mablag'lar ti-jorat banklariga qo'yilmalar va jamg'arma banklaridagi talab qilib olinadigan depozitlarning yig'indisiga teng;

M-2 agregati – M-1 agregati va jamg'arma banklaridagi muddatli qo'yilmalardan iborat;

M-3 agregati – M-2 agregati hamda depozitli sertifikatlar va davlat zayom obligatsiyalari yig'indisidan iborat.

Pul massasi tarkibini uning harakatiga qarab ikkiga bo'lish mumkin, ya'ni pul massasining aktiv qismi – bu pul mablag'larining xo'jalik faoliyatidagi turli xil shakldagi hisob-kitoblarni olib borish bilan bog'liq qismi va ikkinchisi passiv qism – jamg'ar-madagi pullar va hisob raqamlardagi qoldiqlar hisoblanadi.

Pul massasi naqd pullardan tashqari muddatli hisob raqamdagi mablag' va jamg'armalarni, depozit sertifikatlari, investitsion fondlarning aktsiyalarini o'z ichiga oladi. Pul massasining yuqoridagi elementlari «kvazi» - “qariyb pullar” deb ham yuritiladi. Kvazi - pullar likvid aktivlar bo'lib, ular tez orada pulga aylanishi mumkin.

4.3. Pullarga bo'lgan talab va pullar taklifi. Pul muomalasi tushunchasi. Pul muomalasi qonunlaridan kelib chiqadigan talablar.

Davlatning pul aylanishiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Pul aylanishi tuzilmasi turli belgilar bo'yicha belgilanadi:

1) unda pullarning faoliyat yuritishi shakliga qarab. Ushbu belgiga qarab naqd pulsiz va naqd pullik pul aylanishini ajratish mumkin, chunki barcha pul belgilari u yoki boshqa shaklga ega bo'ladi;

2) ushbu pul aylanishi xizmat ko`rsatadigan munosabatlar tusiga qarab. Bu erda pul-hisob-kitob aylanishi, pul-kredit aylanishi, pul-moliya aylanishi ajratib ko`rsatiladi;

3) pul mablag`larining harakati yuz beradigan sub`ektlarga qarab. Ushbu tasnif bo`yicha quyidagilar ajratib ko`rsatiladi: pul mablag`larining yuridik shaxslar o`rtasida banklararo, banklarda aylanishi, yuridik va jismoniy shaxslar o`rtasidagi aylanish va, nihoyat, pul mablag`larining faqat jismoniy shaxslar o`rtasidagi aylanishi.

SHunga tegishlicha, iqtisodiyotda qo`llaniladigan pul aylanishi hajmiga ta`sir qiladigan omillarning muayyan guruhini ham ajratish mumkin. Barcha omillarni siyosiy, iqtisodiy va texnik omillarga ajratish mumkin. Tabiiyki, pul aylanishi tuzilmasini shakllantirishning iqtisodiy omillari asosiy ahamiyatga va bevosita ta`sir kuchiga ega bo`ladi. Bunday omillarga iqtisodiyotda ishlatiladigan pullar turlari, pul muomalasi tezligi, tovar aylanishi miqdori va shu kabilar kiradi. Binobarin, mavjud pul aylanishi miqdorlarini vujudga keladigan ehtiyojlarga muvofiq o`zgartirishga yoki pul aylanishining mavjud hajmlarini tovar aylanishining real ehtiyojlariga muvofiqlashtirishga faqat iqtisodiy uslublar vositasida pul aylanishi hajmiga ta`sir ko`rsatadigan ushbu omillar orqali ta`sir qilish mumkin.

Iqtisodiyotda faoliyat yuritadigan, faqat hukumatning ehtiyojlari bilan bog`liq bo`lgan va iqtisodiyotning ehtiyojlaridan mustaqil pul mablag`lari miqdoridagi o`zgarishlar siyosiy omillar hisoblanadi.

Texnik omillar pul aylanishi tuzilishi va hajmiga faqat bilvosita ta`sir ko`rsatadi, lekin shunga qaramasdan, ularni hisobga olish zarur. Bunday omillarga u yoki boshqa hisob-kitobni o`tkazish uchun talab etiladigan vaqtni kamaytirish yoki hisob-kitobning o`zini amalga oshirishga imkon beradigan hisob-kitoblarning texnik vositalari kiradi. Masalan, bank plastik kartalariga xizmat ko`rsatuvchi texnik vositalarning keng ommalashganligi aholi o`rtasida ushbu to`lov vositasining ommalashuviga va, binobarin, naqd pulsiz pul mablag`larining qo`llanilishining oshishiga olib keladi. Naqd pulsiz pul mablag`lari qo`llanilishi chastotasining ko`payishi pul muomalasining umumiy tarkibida naqd pullarning kamayishiga va davlatning pul aylanishini tartibga solish asosiy uslublarining o`zgarishiga olib keladi.

Pul muomalasi – bu pullarning mamlakatning ichki iqtisodiy aylanishi, tashqi iqtisodiy aloqalar tizimidagi, tovarlar va xizmatlarning sotilishiga, shuningdek, uy xo'jaligidagi tovarsiz to'lovlarga xizmat ko'rsatadigan naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi harakatidir. Tovar ishlab chiqarish pul muomalasining ob'ektiv negizi bo'lib, undagi tovar olami tovarlarning ikki turiga: tovarlarning o'ziga va tovar-pullarga bo'linadi. Naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi pullar yordamida tovarlar, shuningdek, ssuda va fiktiv kapitallarning muomalasi jarayoni amalga oshiriladi.

Shunday qilib, pul muomalasi jarayonlaridan pul aylanishi tushunchasini ajratib olish mumkin.

Pul aylanishi - naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi pul belgilarining uzluksiz harakat jarayonidir. Qiymatning o'zidan ajralganlik hozirgi pul aylanishining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Boshqacha aytganda, hozirgi pul aylanishi metall pullar muomalasi sharoitidagi kabi qiymatli emas, chunki pul belgisining qiymati nominaldan ancha kam va uning ahamiyati bo'lmasligi mumkin.

Pul aylanishi pul mablag'lari harakatining muayyan yo'llaridan tarkib topadi:

1. Mablag'larning markaziy bank bilan tijorat banklari o'rtasidagi harakati. Bunday harakat pul mablag'lari emissiyasi jarayonlari va tijorat banklari mablag'larining O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zaxiralash fondiga ko'chirilishi bilan bog'liq. Tijorat banklarining kreditlash jarayonlari munosabati bilan pul mablag'larining ko'chirilishini ham shunga kiritish mumkin;

2. Pul mablag'larining tijorat banklari o'rtasidagi harakati. Bu holda ushbu banklarning mijozlariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq pul ko'chirishlar yoki tijorat banklarining o'zaro kreditlashlari nazarda tutiladi;

3. Firmalar va tashkilotlar o'rtasidagi harakat. Pul mablag'larining ushbu iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi harakati tovarlar aylanishi va bunday tovarlar aylanishidagi, shuningdek, o'zaro talablarni hisobga olishdagi haq to'lash jarayonlari bilan bog'liq;

4. Banklar, firmalar va tashkilotlar o'rtasidagi harakat. Pul mablag'larining ushbu sub'ektlar o'rtasidagi harakati asosan kreditlash va qarz majburiyatlarini hisobga olish operatsiyalari, shuningdek, pul mablag'larini saqlash va ko'chirishga doir operatsiyalar bilan bog'liq;

5. Banklar va aholi o`rtasidagi harakat. Pul mablag`lari iste`molchilik kreditini berish va pul mablag`larining aholining daromadlarini saqlash va ko`paytirish maqsadlaridagi harakatiga doir faol jarayon sababli ko`chiriladi;

6. Firmalar, tashkilotlar va aholi o`rtasidagi harakat. Pullar harakatining bu yo`li mablag`larning tovar aylanishi operatsiyalariga haq to`lash va uy xo`jaliklarining xodimlar mehnatiga haq to`lashi munosabati bilan ko`chib yurishidan iborat bo`ladi;

7. Banklar va moliya institutlari o`rtasidagi harakat. Pul mablag`larining ushbu iqtisodiy munosabatlar sub`ektlari o`rtasidagi harakati o`zaro kreditlash operatsiyalari va iqtisodiy foyda olishga yoki uchinchi sub`ektlarning muayyan operatsiyalarini rasmiylashtirishga yordam beruvchi boshqa moliyaviy harakatlar doirasida amalga oshiriladi;

8. Moliya institutlari va aholi o`rtasidagi harakat. Pul mablag`larining bu holdagi harakati aholining, odatda, o`z daromadlarini ko`paytirish maqsadida muayyan moliya operatsiyalarini bajarishi bilan bog`liq;

9. Jismoniy shaxslar o`rtasidagi harakat. Pul mablag`lari harakatining bu yo`li eng sezilmaydigan, lekin pul mablag`larining qayta taqsimlanishi tizimidagi eng muhim yo`llardan biri hisoblanadi, chunki u mablag`larning aholi o`rtasida ko`chib yurishidan iborat. Odatda, bunday ko`chib yurishning maqsadi maishiy masalalarni hal etish va o`z oilasi a`zolari farovonligining muayyan darajasini tutib turishdir.

4.4. Muomala uchun zarur bo`lgan pul miqdorini aniqlash uslublari. I. Fisherning "almashuv tenglamasi".

Siyosiy iqtisod matematik maktabining yirik vakili, Xalqaro iqtisodiy jamiyat asoschilaridan biri va uning birinchi prezidenti (1931-1933) **Irving Fisher** (1867-1947) pullarning miqdoriy nazariyasini zamonaviylashtirishga katta hissa qo`shdi. U «Pullarning xarid qilish kuchi. Uning belgilanishi va kredit, foizlar va tanazzullarga munosabati» asarida (1911) pullar massasi bilan tovarlar narxlari darajasi o`rtasidagi bog`liqlikni formallashtirishga harakat qilgan. Tovarlar uchun to`langan pullar soni va sotilgan tovarlar narxlari summasi teng bo`lgani uchun buni I. Fisher tarozi bilan o`xshatmoqchi bo`ladi.

Matematik shaklda ayirboshlash tenglamasini quyidagi formula shaklida tasavvur etish mumkin:

$$M V = \sum PQ,$$

bunda: \sum – (Expenditure) – pul muomalasining umumiy hajmi, ya`ni mazkur jamiyatda shu yil davomida tovarlarni sotib olish uchun sarflanadigan pullar summasi; M (Money) – ushbu jamiyatda yil davomida muomalada yurgan pullarning o`rtacha miqdori;

$$V = \frac{\sum PQ}{M}$$

(Velocity) – ne`matlarga ayirboshlashdagi pullar aylanishlarining o`rtacha soni; P – (Price) – ushbu jamiyatda sotib olinadigan har qanday alohida tovarning o`rtacha sotish narxi; Q – (Quantity) – tovarlarning jami xarid qilingan soni.

Fisher formulasi oltin tangali standart sharoitida to`g`ri bo`lmaydi, chunki u pullarning ichki qiymatini hisobga olmaydi. Biroq oltinga almashtirilmaydigan qog`oz pullar muomala qiladigan sharoitda u muayyan mazmun kasb etadi. Bunday sharoitda pul massasining o`zgarishi, garchi I.Fisher tovarlar narxlarining mutloq elastikligini nazarda tutib, narx mexanizmini ma`lum ma`noda ideallashtirsa-da, lekin tovarlar narxlari darajasiga ta`sir ko`rsatadi. Boshqa neoklassiklar kabi Fisher ham mukammal raqobatchilikka asoslanadi va o`z xulosalarini monopoliyalar hukmronlik qiladigan va narxlar oldingi elastikligini jiddiy yo`qotgan jamiyatga tegishli deb biladi.

Ko`pgina hozirgi iqtisodchilar ayirboshlash tenglamasini bir xillik, ya`ni $MV=PQ$ sifatida tavsiflashadi. Gap shundaki, bu tenglama D – T ayirboshlash harakatini tovarlarning jami massasiga daxldor deb ifodalashga urinadi, ya`ni tovarlar sotib olingan pullar summasi sotib olingan tovarlar narxlari summasiga teng (bir xil). Bu tavitologiyadir va shuning uchun ayirboshlash formulasi narxlarning umumiy (mutloq) darajasini izohlash uchun xizmat qila olmaydi.

Miqdoriy nazariya tarafdorlarining faraz qilishicha, ayirboshlash formulasi mutloq kattalikni EQ_0 ni izohlaydi (ayni bir vaqtda talab va taklif mexanizmi undan nisbiy tebranishlarni izohlaydi).

I.Fisher va uning izdoshlari shunday nuqtai nazarga amal qilishgan. Ular pullarning aylanish tezligi (V) va ishlab chiqarish darajasi (Q) muomalada yurgan pullar miqdoriga (M) va narxlar darajasiga (P) bog`liq bo`lmasligini asoslashga urinishgan. Ular

pullarning aylanishi tezligi avvalo demografik (aholining zichligi va hokazo) va texnik (transport vositalarining soni va sifati va hokazo) parametrlarga bog'liq bo'ladi, deb faraz qilishgan. Ishlab chiqarish darajasi esa asosan mehnat bozorida yuzaga kelayotgan shart-sharoitlar bilan belgilanib, narxlar darajasi va muomalada yurgan pullar soniga bog'liq bo'lmaydi. Shubhasiz, bozor xo'jaligi hukmronlik qiladigan sharoitda bunday qoidalar yaqqol noreal tus kasb etadi.

4.5. K.Marksning muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash formulasi.

Qiymat qonuni va uning muomala doirasida yuzaga chiqish shakli - pul muomalasi qonuni tovar-pul munosabati mavjud bulgan barcha ijtimoiy formatsiyalarga xosdir. Qiymat shakllari va pul muomalasi taraqqiyot yo'lini tahlil qilayotib, K.Marks pul muomalasining qonunini ochdi. Bu qonunga asosan momala vositasi funksiyasini amalga oshirish uchun kerak bo'lgan pul miqdori aniqlanadi. Metallik pul muomalasida muomaladagi pul miqdori stixiyali tarzda, pullarning xazina funksiyasi yordamida tartibga solib turilgan: agar pulga ehtiyoj kamaysa, ortiqcha pullar (oltin tanga) muomaladan xazinaga oqib o'tishi kuzatilgan va aksincha. Shunday qilib, muomaladagi pul miqdori kerakli darajada ushlab turilgan. Keyinchalik muomalaga banknotalar chiqarilishi va ularning metallar (oltin yoki kumush)ga erkin almashinishi muomalada pulning ortiqcha miqdori bo'lishini inkor etadi.

Agar muomalada oltinga almashinmaydigan banknotalar yoki qog'oz har (xazina biletleri) amal qilsa, u xolda naqd pul muomalasi pul muomalasi qonuniga asosan amalga oshadi.

Qog'oz pullar miqdori muomala uchun kerak bo'lgan oltin pullarning miqdoriga teng bo'lganda pul muomalasida hech qanday salbiy jarayonlar yuz bermaydi. Yuqorida ko'rsatilgan talab pulning barqarorligini ta'minlaydi, shuningdek pul muomalasi mavjud bo'lgan barcha ijtimoiy formatsiyalarda o'z kuchiga ega.

Pul muomalasi qonuni muomaladagi tovarlar massasi, ularning narxi va pul muomalasi tezligi orasidagi iqtisodiy aloqadorlikni aks ettiradi.

Shunday qilib, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdoriga ishlab chiqarish rivoji va shart-sharoitlariga bog'liq bo'lgan turli xil omillar ta'sir ko'rsatadi. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdoriga

ta`sir ko`rsatuvchi asosiy omil - bu tovarlar va xizmatlar bahosi hisoblanadi. Pul miqdori tovarlar va xizmatlar bahosiga to`g`ri proporsional, ya`ni tovarlar va xizmatlar bahosining oshishi muomalaga ko`p pul chiqarishni talab qiladi. Pul miqdoriga ta`sir qiluvchi ikkinchi omil - bu pulning aylanish tezligi hisoblanadi. Bu omil pul miqdoriga teskari ta`sir ko`rsatadi. Odatda pul qanchalik tez aylansa, muomala uchun zarur bo`lgan pul miqdori shuncha kam talab qilinadi va aksincha.

Muomala uchun zarur bo`lgan pul miqdorini boshqarishda shu muhim omillarga alohida e`tibor berilishi zarur. Muomala uchun zarur bo`lgan pul miqdorini kamaytirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish muhimdir.

Bular:

- iste`mol kreditni rivojlantirish; kreditga qanchalik ko`p tovar sotilsa, shuncha kam miqdorda pul muomalada kerak bo`ladi;
- naqd pulsiz xisob - kitoblarning rivojlanishi;
- pullarning muomala tezligini oshirishga erishish va boshqalar.

Har bir jamiyat pul muomalasi qonuni talablarini xisobga olgan xolda ish yuritishi zarur. Chunki pul muomalasi qonunining buzilishi pul barqarorligiga putur yetkazadi. Bu holda muomalaga chiqarilgan pul miqdori muomaladagi tovarlar bahosidan oshib ketishi, ya`ni inflyatsiya bo`lishiga, yoki pul ocharchiligiga (yetishmovchiligiga) olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pul muomalasini ushlab turish shart-sharoitlari va qonuniyatlari ikki omilning o`zaro ta`siri bilan, ya`ni:

Xo`jalikning pulga bo`lgan ehtiyoji va amadda pullarning muomalaga borib tushishi bilan belgilanadi. Amaliyotda ko`prok uchraydigan hol bu oborotda xo`jalikka kerak bo`lganidan ko`proq pulning bo`lishidir. Bu albatta, pulning qadsizlanishiga - pul biriligining xarid qobiliyatining tushushiga olib keladi.

4.6. Pul muomalasi qonunlarining buzilishi hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.

Iqtisodiyotda faoliyat yuritadigan, faqat hukumatning ehtiyojlari bilan bog`liq bo`lgan va iqtisodiyotning ehtiyojlaridan mustaqil pul mablag`lari miqdoridagi o`zgarishlar siyosiy omillar hisoblanadi.

Texnik omillar pul aylanishi tuzilishi va hajmiga faqat bilvosita ta`sir ko`rsatadi, lekin shunga qaramasdan, ularni hisobga olish zarur. Bunday omillarga u yoki boshqa hisob-kitobni o`tkazish uchun talab

etiladigan vaqtni kamaytirish yoki hisob-kitobning o'zini amalga oshirishga imkon beradigan hisob-kitoblarning texnik vositalari kiradi. Masalan, bank plastik kartalariga xizmat ko'rsatuvchi texnik vositalarning keng ommalashganligi aholi o'rtasida ushbu to'lov vositasining ommalashuviga va, binobarin, naqd pulsiz pul mablag'larining qo'llanilishining oshishiga olib keladi. Naqd pulsiz pul mablag'lari qo'llanilishi chastotasining ko'payishi pul muomalasining umumiy tarkibida naqd pullarning kamayishiga va davlatning pul aylanishini tartibga solish asosiy uslublarining o'zgarishiga olib keladi.

Pul muomalasining tezligi pul aylanishining muhim tavsifnomasi hisoblanadi. Bu shu bilan bog'liqki, muayyan vaqt davomida (masalan, yil davomida) har bir pul birligi aylanishining soni qanchalik ko'p bo'lsa, iqtisodiyotning normal faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan pul mablag'larining miqdori shunchalik kam bo'ladi. Amalda pul massasi muomalasining tezligi daromad muomalasining tezligini ko'rsatadi.

Oxirgi yillarda inflyatsiya tez-tez uchrab turadigan jarayon bo'lib sifati ham o'zgarib bormoqda. Buning sababi shundaki, hozirgi kunlardagi inflyatsiya: birinchidan, uzluksiz baholarning oshishiga; ikkinchidan pul muomalasi qonunining buzilishi natijasida umumxo'jalik mexanizmining ishdan chiqishiga olib keladi. XX asr inflyatsiyasining asosiy sababi tovar kamyobligina bo'lib qolmasdan, ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarishda krizislar mavjudligi bilan ifodalanadi. Hozirgi davr inflyatsiyasi birinchidan, pul talabining tovar taklifidan oshishi natijasida pul muomalasi qonunining buzilishi; ikkinchidan, - ishlab chiqarishga **ketadigan xarajatlar salmog'ining** o'sishi natijasida **tovarlar** bahosining oshishi va shu sababli pul massasining ortib borishi bilan ifodalanadi.

Inflyatsiyaning asosiy sababi - bu xalq xo'jaligining turli sohalari o'rtasida vujudga kelgan nomutanosiblikdir. Bu avvalambor jamg'arma va iste'mol o'rtasidagi talab va taklif, davlatning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muomaladagi pul massasi va xo'jaliklarning naqd pulga bo'lgan talabi o'rtasidagi nomutannosibliklardan iboratdir. Pul muomalasining muhim ko'rsatkichlaridan biri bu pul massasi - naqd va naqd pulsiz pullarning umumiy hajmi. Pul muomalasini nazorat qilish mamlakat iqtisodiy siyosatining eng muhim tarkibiy qismidir, chunki zamonaviy

jamiyatda pul nafaqat to'lov vositasidan ko'ra ancha muhim rol o'ynaydi, bu mamlakatdagi iqtisodiy faoliyat darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

Pul o'tkazmalari

Elektron pul mablag'lari (EPM) deb avval majburiyatli shaxsga (elektron pul o'tkazmalari operatoriga) taqdim etilgan mablag'lar tushunilishi kerak, bu haqda ma'lumotlar bank hisob raqamini ochmasdan yoziladi.

EPMni elektron to'lov vositalari (ETV) orqali amalga oshirish mumkin, bu pul o'tkazmalari operatori mijoziga maxsus texnologiyalar va axborot tashuvchilaridan foydalangan holda pul o'tkazish uchun buyurtmalar tuzish, tasdiqlash va uzatish imkoniyatini beradigan usul.

ETV tufayli EPM naqd va naqd pulsiz mablag'larga aylanadi va aksincha. Elektron pulni o'tkazish uchun ular operatorga jismoniy shaxslar tomonidan naqd va naqdsiz shaklda, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - faqat bank hisobvarag'idan foydalangan holda taqdim etiladi. EPM tarjimasi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar o'rtasida taqiqlanadi. U bir vaqtning o'zida bir nechta yoki bir nechta operatorlar orqali to'lovchining elektron pul balansidagi mablag'larni hisobdan chiqarish va qabul qiluvchining balansini ko'paytirish orqali amalga oshirilishi mumkin, ammo elektron to'lov vositalaridan foydalanishning oflayn rejimiga ham ruxsat beriladi. Bunday holda, elektron pulni oluvchi har kuni amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida ma'lumotni hisobga olish uchun elektron pul operatoriga uzatishi shart.

Elektron pul operatori mijozga elektron pul qoldig'ini ko'paytirish uchun qarz berishga haqli emas. U mablag 'qoldig'iga foizlarni hisoblay olmaydi yoki mijozga biron bir haq to'lay olmaydi.

Elektron pul mablag'larining qoldig'ini mijoz - jismoniy shaxs, agar qonuniylashtirish va jinoyatlardan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanmagan bo'lsa, to'lay olmaydi. Ushbu mablag'larni faqat uning bank hisob raqamiga o'tkazish mumkin. Agar mijoz aniqlansa, u 100 ming so'mdan oshmaydigan elektron pul qoldig'ini yoki naqd xorijiy valyutadagi unga teng keladigan miqdorni olish huquqiga ega.

Mijoz - yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorning elektron pul mablag'lari (yoki uning bir qismi) qoldig'i faqat uning buyrug'i bilan uning bank hisob raqamiga o'tkazilishi yoki o'tkazilishi mumkin.

Har bir mamlakat amaliyotida elektron pul uchun majburiy ravishda garovga olish ko'zda tutilgan.

Pul mablag'larini bank hisobvaraqlari orqali o'tkazmasdan, ularni ochmasdan amalga oshirish mumkin. Birinchi holda, pul o'tkazmalari amalga oshiriladi. To'lovchilarning bank hisobvarag'idagi mablag'larni hisobdan chiqarish va mablag' oluvchilarning EPM qoldig'ini oshirish orqali. Ikkinchisida - to'lovlarni amalga oshiruvchi - jismoniy shaxsning buyrug'i bilan naqd pulni qabul qilish (berish) orqali bank hisobvaraqlarini ochmasdan, natijada pul mablag'larini oluvchining EPM balansida o'sish (pasayish) va to'lovchining EPM balansida teskari o'zgarish bo'ladi.

Bank kartalari yordamida to'lovlar

Elektron pul o'tkazmalari tizimida bank kartalari yordamida hisob-kitoblar alohida o'rin tutadi. Banklar tomonidan chiqarilgan bank (plastik) kartalari hisob-kitobning qulay shakli hisoblanadi.

Bank kartasi - bu bank hisobvarag'i egasining shaxsini tasdiqlovchi va tovar va xizmatlarni naqd pul ishlatmasdan sotib olish yoki naqd pul olish huquqini beruvchi shaxsiy pul hujjati. Bank kartalari dunyosidagi barcha xilma-xillik bilan ularni ma'lumotlarni yozish usuli bo'yicha tasniflash mumkin: magnit chiziq va mikroprotssessor bilan. Magnit chizikli kartada maxsus ma'lumotlar kodlangan shaklda yoziladi: karta raqami, amal qilish muddati, egasining familiyasi, ismi va otasining ismi, maxsus kod (PIN-kod) qo'llaniladi. Bunday kartalar ko'pgina to'lov tizimlarining asosini tashkil etadi.

Keyinchalik ishonchli va ko'p funksional bo'lgan smart-kartalar moliyaviy hisob-kitoblarda tobora keng tarqalmoqda.

Mikroprotssessor kartasini yaratish yo'lidagi navbatdagi qadam "elektron hamyon" larning paydo bo'lishi bo'lib, ular ma'lum pul qiymatini o'z ichiga olgan o'rnatilgan mikroprotssessorga ega plastik kartalardir. Shuningdek, kredit va debet bank kartalari mavjud.

Kredit bank kartasi uning egasiga emitent tomonidan taqdim etilgan kredit liniyasi miqdorida va emitent tomonidan tovar va

xizmatlar uchun to'lovlarni to'lash va (yoki) naqd pul olish uchun belgilangan xarajatlar chegarasi doirasida operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beradi.

Debet yoki to'lov kartasi egasiga tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni to'lash yoki naqd pul olish uchun emitent tomonidan belgilangan kredit (xarajatlar) chegarasi doirasida hisobvarag'idagi mablag'larni tasarruf etish huquqini beradi. Kredit tashkilotlari (banklar) plastik kartalar bilan ishlashda emissiya va ekvayring kabi faoliyatni amalga oshiradilar.

Emissiya faoliyati plastik kartalarni chiqarish va ular to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini yuritishdan iborat.

Ekvaynerlik faoliyati bank kartalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarini bilan hisob-kitob qilish hamda naqd pul olish orqali amalga oshiriladi ushbu kredit tashkilotining mijozi bo'lmagan karta egalari.

Bank kartasidan foydalangan holda to'lovlarni amalga oshirish uchun siz maxsus bank hisob raqamini ochishingiz kerak. Hisob-kitoblarni amalga oshirishda bank-emitent elektron kartochkalar asosida hisobvaraqa-fakturani karta egasiga taqdim etadi va debet karta bilan avtomatik ravishda joriy hisobvarag'idan talab qilinadigan summani hisobdan chiqaradi va kredit karta bilan bank egasiga kredit beradi yoki to'lovni oladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning foydali shakli bu korporativ bank kartasi bo'lib, uning egasiga yuridik shaxs hisobvarag'ida operatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradi. Bunday kartaning egasi, qoida tariqasida, tashkilotning hisobvarag'ida operatsiyalarni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan xodimidir.

Korporativ bank kartalari ikki xil: hisob-kitob korporativ va kredit.

Hisob-kitob korporativ kartasi uning egasiga, yuridik shaxs tomonidan vakolat berilgan, mijoz bilan tuzilgan bitim shartlariga muvofiq, yuridik shaxsning hisob raqamidagi mablag'larni sarflash chegarasi doirasida tasarruf etishiga imkon beradi.

Korporativ kredit karta yuridik shaxs tomonidan vakolat berilgan egasiga, ruxsat berilgan bitimlar ro'yxatiga binoan, mijoz bilan tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq emitent tomonidan taqdim etilgan kredit liniyasi miqdorida va emitent tomonidan belgilangan

xarajatlar chegarasi doirasida operatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradi.

Korporativ bank kartasini olish uchun tashkilot emitent bankda hisob raqamini ochishi va bank kartasi yordamida hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitoblarni nazarda tutadigan shartnoma tuzishi kerak.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan to'lov tizimini isloh qilish mamlakat uchun yangi bo'lgan to'lov shakllari va usullaridan foydalanishni kengaytirishni o'z ichiga oladi.

Nazorat uchun savollar

1. Pul muomalasini tashkil qilish asoslarini yoritib bering?
2. Pul muomalasi qonunlari va ulardan kelib chiqadigan talablar hamda pul massasi va uni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tushuntirib bering?
3. Pullarga bo'lgan talab va pullar taklifini, pul muomalasi tushunchasini, pul muomalasi qonunlaridan kelib chiqadigan talablar tushuntirib bering?.
4. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash uslublarini, I.Fisherning "almashuv tenglamasi"ni tushuntiring?.
5. K.Marksning muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash formulasini yoritib bering?
6. Pul muomalasi qonunlarining buzilishi hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini tushuntirib bering?

5-MODUL. PUL TIZIMLARI, TUSHUNCHASI, SHAKLLARI VA ELEMENTLARI

1. "Pul tizimi" tushunchasining mazmuni. Pul tizimining shakllari.
2. Pul tizimining elementlari.
3. O'zbekiston Respublikasi pul tizimi elementlari
4. Pul multiplikatori va pulni sug'urtalash

5.1. “Pul tizimi” tushunchasining mazmuni. Pul tizimining shakllari.

Pul tizimi - bu mamlakatda pul muomalasini tashkil etishning milliy qonunchilikda mustahkamlangan shakli.

Pul tizimining asosiy elementlari:

- valyuta nomi va narxlar shkalasi;
- banknot turlari;
- banknotlarni muomalaga chiqarish mexanizmi va xavfsizligini ta'minlash tartibi;
- muomaladagi pul massasining tarkibi;
- pulni tartibga solish mexanizmi.

Pul birligining nomi va narxlar miqyosi pul tizimining elementi sifatida tarixiy rivojlandi.

Banknotlarning turlari asosan banknotalar va bo'sh pullardir.

Emissiya mexanizmi deganda pulni muomalaga chiqarish va uni muomaladan chiqarish tartibi tushuniladi. Banknotlarning xavfsizligini ta'minlash tartibi mamlakatlar qonunchiligi bilan belgilanadi.

Muomaladagi pul muomalasining tuzilishi belgilanadi, bu naqd va naqd pulsiz pul muomalasi o'rtasidagi, yoki banknotlarning umumiy miqdoridagi yoki banknotlarning umumiy sonidagi alohida banknotalar o'rtasidagi nisbatdir.

Pulni tartibga solish mexanizmi bu pul muomalasi va milliy valyutaning barqarorligini qo'llab-quvvatlash uchun pulni tartibga solishning turli xil vositalaridir.

Evolyutsiya jarayonida pul tizimlarining uch turi rivojlandi:

1. Bimetallizm;
2. Monometallizm;
3. Qog'oz-kredit muomalasi tizimlari.

Bimetallizm

Bimetallizm - pul tizimida umumiy ekvivalent rolini metall (ko'pincha oltin va kumush) bajargan, bu tizimda ikkala metallardan ham tangalarning erkin muomalaga chiqarilishi va ularning cheksiz almashishiga amal qilingan. Parallel valyuta tizimida ikki metall qiymati stixiyali, metallning bozor bahosiga munosib tarzda belgilangan. Bu pul tizimida davlat metallar orasidagi mutanosiblikni

oʻrnatib qoʻygan. Oltin va kumush tangalarning chiqarilishi va ularning aholi tomonidan qabul qilinishi ana shu mutanosiblikka muvofiq amalga oshirilgan.

Bimetallizm XVI-XVII asrlarda keng tarqalgan boʻlib Gʻarbiy Yevropaning qator mamlakatlariga esa XIX asrgacha yetib kelgan. 1865 yili Fratsiya, Belgiya, Shveytsariya va Italiya mamlakatlari bimetallizmni xalqaro sulh - Lotin tanga Ittifoqi yordamida saqlab qolishga urinishgan. Tuzilgan konvensiyada ikkala metallardan ham 5 frank va undan yuqori qiymatli tangalarni chiqarish, oltin va kumush oʻrtasida 1:15,5 qiymat mutanosibligini oʻrnatish shartlari koʻzda tutilgan.

Biroq, bimetallik pul tizimining qoʻllanilishi rivojlangan kapitalistik xoʻjalik ehtiyojlariga mos kelmasdi, chunki qiymat oʻlchovi sifatida bir vaqtning oʻzida ikki metall - oltin va kumushning qoʻllanilishi pulning ushbu funksiyasi tabiatiga toʻgʻri kelmagan. Umumiy qiymat oʻlchovi boʻlib faqat birgina tovar xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari ikki metall orasidagi davlat tomonidan oʻrnatiladigan nisbat ularning bozor narxiga toʻgʻri kelmas edi. XIX asr oxirida kumush ishlab chiqarishning arzonlashishi va uning qadrini yoʻkotishi natijasida oltin tangalar muomaladan xazinaga keta boshladi. Bunda Kopernik-Greshemning qonuni yuzaga chiqqan, yaʼni yomon pullar muomaladan yaxshilarini chiqarib tashlagan. Kapitalizm taraqqiyoti mustahkam pul, yagona umumiy ekvivalent boʻlishni talab qildi, shuning uchun bimetallizm oʻz oʻrnini monometallizmga boʻshatib berdi.

Metall pul belgilarining muomalasi tizimida bimetallizm davri va monometallizm davri farqlanadi. Bunday holda bimetallizm iqtisodiy jarayonlarda ikkita asl metallarning bir vaqtda foydalanishi bilan tavsiflanadi, monometallizm esa umumiy ekvivalent sifatida bir metallga oʻtishni anglatadi. Bunda bimetallizm holatida quyidagicha xillar ajratib koʻrsatiladi:

1) parallel valyuta tizimi – oltin bilan kumush oʻrtasidagi oʻzaro nisbat bozorda stixiyali ravishda belgilanadi;

2) qoʻshaloq valyuta tizimi – ikki metall oʻrtasidagi oʻzaro nisbat davlat tomonidan ushbu metallarga boʻlgan talabga, shuningdek, ushbu davlatdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatga qarab belgilanadi;

3) nuqsonli valyuta tizimi – metallar iqtisodiy tizimda mavjud boʻladiyu, lekin teng huquqlarga ega boʻlmaydi. Odatda, davlat

kumush valyutaning zarb qilinishi va foydalanishiga cheklashlar kiritadi.

Faqat bir metallning amal qilishi tizimi sifatidagi monometallizm ham ayrim o`zgarishlar yuz berdi:

1) oltin tangali standart – to`laqonli oltin valyutaning amal qilishi, unda tovarlarning qiymati ham ushbu valyuta bilan hisoblanadi;

2) oltin yombili standart – oltin muomalada bulmaydi, lekin unga katta miqdordagi (yombi miqdorida) almashinish amalga oshiriladi;

3) oltin valyutali (oltin devizli) standart – pullarning almashinishi faqat oltin yombili standartli mamlakatlarning valyutalariga amalga oshiriladi.

Monometalizm - bu pul tizimida yagona metall (oltin yoki kumush) umumiy ekvivalent va pul muomalasining asosi bo`lib xizmat qiladi. Amal qilayotgan tanga va boshqa qiymat belgilari qimmatbaxo metallar almashiniladi.

Kumush monometalizmi Rossiyada 1843-1852 yillarda, Gollandiyada 1847-1875 yy. da mavjud bulgan.

Chor Rossiyada kumush monometalizmi tizimi 1839-1843 yillarda o`tkazilgan pul islohoti natijasida qabul qilingan. Pul birligi kumush rubli bo`lgan. Keyinchalik muomalaga kredit biletleri ham chiqarilgan, ular kumush tanga bilan teng muomalada qatnashgan va erkin tarzda metallga almashtirilgan. Lekin bu islohot so`nayotgan krepostnoylik tizimi davlat byudjeti va tashqi savdo balansi taqchiligi sharoitida pul muomalasini uzoqroq muddatga tartibga sola olmagan. 1853-1856 yillardagi Krim urushi ko`p miqdorda qo`shimcha kredit pullar emissiyasini talab qildi va natijada ular qog`oz pulga aylanib qoldi.

Ilk bor oltin monometalizmi (standart) pul tizimi sifatida Buyuk Britaniyada XVIII asr oxirida qaror topgan va qonun bilan 1816 yilda tasdiqlangan. Ko`pchilik boshqa davlatlarda u XIX asrning oxirlarida joriy qilingan: germaniyada - 1871-1873 yilda, Shvetsiya, Norvegiya, Daniyada - 1873 yilda, Frantsiyada - 1876-1878 yilda, Avstriyada - 1892 yilda, Rossiyada Yaponiyada - 1897 yilda, AQSHda - 1900 yilda.

Oltin tanga standarti kapitalizmning erkin raqobatiga juda mos kelgan, ishlab chiqarish, kredit tizimi, jahon savdo kapitali kelib chiqishining rivojlanishiga yordam bergan.

5.2. Pul tizimining elementlari.

Pul tizimining elementlari xususida iqtisodchi olimlar o`rtasida munozarali fikrlar mavjud. Taniqli iqtisodchi olim O.I.Lavrushinni fikriga ko`ra pul tizimini boshqarish printsiipi, emissiya mexanizmi va kassa instrumentlari ham asosiy elementlar sifatida e`tiyorof etadi. Beloglazava baho masshtabini ham kiritadi.

Beloglazova pul tizimiga 5 ta elementni kiritadi:

1. Pul birligi
2. Baho masshtabi
3. Pul aylanmasi
4. Pul massasi
5. emmissiya mexanizmi

SHuningdek, Miller, Xesus de Sota kabi mashhur iqtisodchi olimlarning pul tizimining elementlari xususida o`z qarashlari mavjud:

Ko`pchilik iqtisodchi olimlar tomonidan e`tirof etilgan pul tizimining elementlariga quyidagilar kiradi:

1. Pul birligi
2. Pul aylanmasining tarkibi
3. Pul aylanmasini tashkil qilish va tartibga solish
4. Pul massasi va uning tarkibi
5. Milliy valyutaning pariteti
6. Milliy valyutaning kursi
7. Pul tizimini tashkil qiluvchi va tartibga soluvchi organ

1. O`zbekiston Respublikasining zamonaviy pul tizimi milliy valuta so`m muomalaga kiritilgandan keyin shakllandi. Yangi pulni eski valuta birligiga almashtirish "denominatsiya" deb ataladi.

O`zbekiton pul tizimi quyidagi elementlardan tashkil topadi:

1. Milliy valuta so`m;
2. Pul aylanmasi naqd va naqdsiz pul aylanmasidan iborat;
3. Respublikamizda pul aylanmasini tashkil etish va tartibga solish MB tomonidan nazorat qilionadi. O`zbekiston respublikasi MB to`g`risidagi qonunga muvofiq MB pul massasining o`shishini nazorat qiladi.

4. Pul massasini miqdoriy o`lchashda M0, M1, M2 pul agregatlaridan foydalaniladi;

5. So`mning valuta pariteti AQSH \$ ga nisbatan aniqlanadi;

6. Milliy valuta so`mning valuta kursi respublika valuta birjasida AQSH \$ ga nisbatan aniqlanadi. 2003-yil 8-oktyabrda

O`zbekiston hukumati xalqaro valuta fondi nizomining VIII-moddasi bo`yicha majburiyatlarini qabul qildi. Natijada milliy valutamizning almashuv kursi unifikatsiya qilindi.

7. MB pul tizimini tartibga soluvchi rasmiy davlat organi hisoblanadi.

5.3. O`zbekiston Respublikasining pul tizimi.

O`zbekiston Respublikasining zamonaviy pul tizimi 1994-yil 1-iyulda milliy valyuta muomalaga kiritilgandan so`ng shakllandi. Chunki milliy valyuta har qanday mamlakat pul tizimining asosiy elementi hisoblanadi. Kurs Respublika valyuta birjasida aniqlanadi. O`zbekiston Respublikasining valyutani tartibga solish to`g`risida qonuniga ko`ra so`mning kurs rejimi erkin suzish rejimidir, ya`ni so`mning nominal almashuv kursini AQSH dollariga bo`lgan talab va taklifga qarab aniqlanishini bildiradi. O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki to`g`risidagi qonunning 23-moddasiga muvofiq hamda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-fevralidagi 63-sonli qaroriga muvofiq O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul massasining o`shishini nazorat qiladi. Bunda M2 pul agregati nazorat obekti sifatida olingan. O`zbekistonda Markaziy bank pul tizimini tartibga soluvchi rasmiy organ hisoblanadi. O`zbekistonda pul tizimi to`g`risidagi maxsus qonun 1993-yilda bekor qilingan, shu sababli hozirgi kunda pul tizimining me`yoriy huquqiy asoslari bo`lib, quyidagi qonunchilik hujjatlari hisoblanadi.

1. O`zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi
2. O`zbekiston Respublikasining Markaziy banki to`g`risidagi qonun
3. O`zbekiston Respublikasining banklar va bank faoliyati to`g`risidagi qonun
4. O`zbekiston Respublikasining valyutani tartibga solish to`g`risidagi qonuni(1-marta bu qonun 1993-yil 7-mayda qabul qilingan, 2003-yil 11-dekabrda esa Valyutani tartibga solish to`g`risidagi qonun yangi tahrirda qabul qilindi)

So`ngi yillarda milliy valutaning qadrsizlanish suratini ya`ni devalvatsiya su`rati yuqori ekanligi kuzatilmoqda. 2003-yilda so`mning AQSH dollariga nisbatan qadrsizlanish su`rati 11% foizni tashkil etdi. Xalqaro valuta fondining ekspertlari xulosasiga ko`ra milliy valutaning yillik qadrsizlanish su`ratini 10% ga etishi salbiy

chegaraviy darajada hisoblandi. Milliy valutaning real almashinuv kursining oshishi mamlakat eksportini qimmatlashishiga sabab bo`ladi. SHu sababli respublikamiz so`mning asosiy tashqi savdo hamkorlarimiz bo`lgan Rossiya, Xitoy, Qozog`iston, va Ukraina valutalariga nisbatan real almashinuv kursining oshib ketishiga yo`l qo`ymaslik muhim kasb etadi.

O`zbekiston respublikasi pul tizimida naqd pul aylanmasini tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodchi olimlarning naqd pul aylanmasiga bag`ishlangan tadqiqotlari shuni ko`rsatadiki respublika naqd pul aylanmasi bilan iqtisodiy faollik o`rtasida uzviy aloqadorlik mavjud.

Naqd pullarga bo`lgan talabni qisqartirish maqsadida respublikada plastic kartochkalar muomalasini rivojlantirishga ustuvor yo`nalish deb qaralmoqda. Muomaladagi milliy pul birliklarining barchasi banknotalar hisoblanadi. O`z Res moliya vazirligi pul emissiyasi sohasida hech qanday vakolatga ega emas. «Milliy valyuta – milliy iftixor, davlat mustaqilligi-ning ramzi, suveren davlatga xos belgidir. Bu respublikaga tegishli umumiy boylik va mulkdir»¹

Har bir jamiyatda pulga yuklatilgan vazifalarning samarali bajarilishi iqtisodiy va ijtimoiy o`shishni rag`batlantiradi, pul qadrining tushishi esa tartibsizlikka, jamiyat rivojlanishida bosh-qa to`qinliklar bo`lishiga olib kelishi mumkin. Pulning barqarorligi deganda, pulning sotib olish qiymati-ning o`zgarmasligi va valyuta doimiyligi tushuniladi. Pulning sotib olish qobiliyati shu pul birligiga to`g`ri keluv-chi tovar va xizmatlar miqdori bilan ifodalanadi. Binobarin, pulning sotib olish qobiliyatini ifodalovchi «ko`rsatkich» tovarlar va xizmatlar bahosi hisoblanadi. Agar tovar va xizmatlar bahosi bar-qaror bo`lsa, pulning sotib olish qobiliyati ham barqaror bo`ladi. Agar pul o`zgarmagan sharoitda tovarlar bahosi oshadigan bo`lsa, bu hol pulning sotib olish qobiliyati tushganini ko`rsatadi va aksincha, tovar va xizmatlar bahosining tushishi pulning sotib olish qobiliyatini oshganligidan dalolat beradi.

Demak, pulning qadri tovarlar va xizmatlar bahosiga teskari proporsional – narx pasaysa, pul qadri oshadi yoki narx ohsa pulning qadri tushadi. Pul tovar bo`lganligi uchun ham unga talab va taklif ta`sir qiladi. Pul taklifi muomalaga chiqarilgan turli shakldagi pullar-ning yig`indisi bo`lib, u talabdan ortiq yoki kam bo`lishi

mumkin. Muomalaga chiqarilgan pul miqdori pulning aylanish tezligiga qarab ham o`zgarib turishi mumkin.

Pulga bo`lgan talab mamlakat pul aylanmasi asosida aniqlanadi. Pul talabi korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, aholi, davlat tashkilotlari olib boradigan naqd pullik va naqd pulsiz aylanma uchun zarur pul miqdori asosida aniqlanadi. Pulga bo`lgan ehtiyoj xo`jalik sub`ektlari - ishlab chiqaruvchilar va iste`molchilar o`rta-sida bo`ladigan pullik jarayonlarning ko`lamiga va tezligiga bog`liq. Pulni qo`llash yo`li bilan bajariladigan jarayonlarning ko`lami qancha keng bo`lsa, pulga bo`ladigan talab shuncha ko`p bo`ladi. Agar pul bilan bog`liq operatsiyalar tez bajarilsa, pulga bo`lgan talab shuncha kam bo`ladi demak, muomalaga kam pul chiqarish kerak bo`ladi.

Pulga bo`lgan taklif va talabning tengligi pul muvozanatini bildiradi. Pulga bo`lgan taklif, unga bo`lgan talabdan oshmasa pul barqaror deb xulosa qilish mumkin, aksincha bo`lsa, pulning qadri tushib ketadi va puldan qochish jarayoni boshlanadi. Amaliyotda pulni jamg`argandan ko`ra uni tovarlarga aylantirib qo`yish yoki boshqa bir qadrliroq valyutani jamg`arish qulay bo`lib qoladi.

Pulning barqarorligini ta`minlashning asosiy yo`nalishlari-dan yana biri byudjet taqchilligining bo`lmasligidir. Davlat byudje-ti xarajatlarining daromadlaridan oshib ketishi natijasida yuzaga keladigan byudjet taqchilligi muomalaga tovarlar bilan ta`min-langani pullar chiqarish hisobidan qoplanadi. Bu tadbir muomalada ta`minlangan pulning ko`payishiga, oqibatda pul qadrining tushib ketishiga olib keladi. SHuning uchun har bir mamlakat pul taqchil-ligi bo`lmasligiga yoki uning salmog`i sezilarsiz bo`lishiga erishishi kerak. Pulning barqarorligini ta`minlashning yana bir yo`nalishi bu oltin va valyuta zaxiralarining mavjudligi va ularning ko`payishidir. Oltin valyuta zaxiralarining salmog`i qancha ko`p bo`lsa, pul shuncha barqaror bo`lishi mumkin.

Milliy valyutani mustahkamlashning yana bir sharti – inflyatsiya-ga qarshi puxta o`ylangan siyosat yuritishdir. Muomalaga chiqarilgan har bir so`m muayyan miqdordagi tovar va xizmatlar bilan ta`min-langani bo`lishi zarur. Ichki bozorimizni tovarlar bilan to`ldirish, aholiga xizmat ko`rsatishning sifati va turlarini oshirish ham mil-liy valyutaning barqarorligini ta`minlashning asosi hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasida mustaqil pul tizimining joriy qilinishi

Ma'lumki, har bir davlat o'zining pul tizimiga ega bo'ladi. O'zbe-kistonning mustaqil davlat sifatida ajralib chiqishi uning mustaqil pul tizimiga ega bo'lishini taqozo qildi. Mustaqil pul tizimi joriy qilinishining I bosqichi 1993 yildan boshlab «so'm-kupon»larning muomalaga chiqarilishi hisoblanadi. O'zbekiston pul tizimini qurish-ning ikkinchi bosqichi – 1994 yil iyuldan boshlab milliy valyuta–«so'm »ning muomalaga chiqarilishi bo'lib, u O'zbekiston tarixida juda katta ahamiyatga ega.

Har bir davlatning pul tizimi ma'lum elementlardan tashkil topadi va qonun asosida yuqori davlat organlari orqali boshqarib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi pul tizimi elementlari quyidagilar hisoblanadi:

- pul birligining nomi;
- pul birligining turlari - qog'oz va metall pullar;
- ularni muomalaga chiqarish qoidalari;
- pul, kredit, valyuta boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat organlari;
- naqd pulsiz to'lov aylanmasi va kredit pullar (chek, veksel) muomalasini olib borishda davlat tomonidan belgilangan shartlar;
- milliy valyutani chetga olib chiqish va chetdan olib kelish qoi-dalari;
- xalqaro hisob-kitoblarni tashkil qilish asoslari;
- milliy valyutani chet el valyutasiga almashtirish tartibi va davlat tomonidan o'rnatilgan valyuta kursi.

Alohida olingan davlatning pul tizimi o'z xususiyatlariga ega bo'lib, uning elementlari u yoki bu tomonga o'zgarishi mumkin.

Pul tizimi ijtimoiy hayotning ko'zgusi hisoblanadi, desak xato bo'lmasa kerak. SHuning uchun ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni pul tizimini ob'ektiv talablar, ya'ni pul tizimining yagona bo'lishi, pul birligi qiymatining doimiyliigi va pul muomalasining talabga qarab o'zgarib turishi kerakligini qo'yadi.

Sobiq SSSRning davlat sifatida tarqalib ketishi markazlashgan pul tizimining ham tugashiga olib keladi. Natijada ba'zi respublikalar rublni milliy valyutasi sifatida ishlatib turgani holda, o'z pul siyosatini olib bordi. estoniya, Latviya, Litva, Ukraina birinchi bo'lib rubl zonasidan chiqib o'z milliy valyutasini qabul qilishdi. Keyinchalik, Ozarbayjon, Qirg'iziston va Moldaviya respublikalari bu yo'nalishni davom ettirdilar. Rubl tizimida vujudga kelgan

tartibsizliklar, milliy valyutalar va kuponlarning muomalaga chiqarilishi, yagona pul–rubl zonasining tugashiga, uning har xil kursga ega bo`lishiga olib keladi.

1992 yil oxiriga kelib Rossiyada tovarlar bahosining oylik o`shishi 25-30 foizgacha ko`tarildi. Moskva valyuta birjasida rubl-ning nominal qiymati bir dollarga 125 rubldan, 1992 yil dekabrda 485 rublgacha, 1993 yil martda 1 dollar 660 rublgacha tenglashdi. Pul qadrlining tushishi, naqd pul etishmovchiligiga, oxiri esa ish xaqi, nafaqalarni to`lashda qiyinchiliklar bo`lishiga olib keldi. SSSR davridagi oxirgi banklar to`g`risidagi qonunga asosan davlat banki o`rniga Markaziy bank, mustaqil davlatlarda Markaziy (yoki milliy) banklar tashkil qilindi.

Sobiq Sovet ittifoqi davlatlari valyutalari 1993 yil, aprel

Respublikalar Pul birligi va uning kursi

Armaniston Rubl

Ozarbayjon Manat va rubl (1 manat=10 rubl)

Belarussiya Rubl va B. Rubli (1 B. Rubli=10 rubl)

Estoniya Krona (8 kron=1 nemis markasi)

Gruziya Rubl va kupon

Qirg`iziston Som (3 may 1993 yildan)

Latviya Latviya rubli (130 l.r. = AQSH dollari)

Litva Talonlar (505 talon = 1 AQSH dollari)

Moldaviya Rubl va kupon

Rossiya Rubl

Tojikiston Rubl

Turkmaniston Rubl

Ukraina Korbonavets (1 korbonavets=0,3 rubl)

O`zbekiston Rubl va so`m kupon

Rossiya Markaziy banki pul emissiyasi bilan bog`liq bo`lgan operatsiyalarni bajarish huquqini o`z qo`liga oldi. Bundan tashqari, davlat pul belgilarini bosib chiqaruvchi muassasa Rossiyada joylashgan edi. Mustaqil davlatlar Markaziy banklarining pul muomalasini olib borish bo`yicha harakatlari cheklagan edi. Natijada pul taqchilligi yuzaga keldi va u alohida olingan respublikalarda har xil darajada namoyon bo`ldi. Masalan, Rossiya Markaziy banki muomalaga chiqargan pullarda Rossiyaning salmog`i 1991 yil dekabrda 64 foizni tashkil qilgan bo`lsa, 1992 yil iyunga kelib emissiyaning 77 foizi Rossiyani naqd pul bilan ta`minlashga yo`naltirilgan. Qolgan

barcha Respublikalarni naqd pul bilan ta`minlash uchun muomalaga chiqarilgan pullarning faqat 23 foizigacha sarflangan, ya`ni boshqa respublikalar ehtiyojini pul bilan ta`minlash salmog`i tushib ket-gan. Masalan, Belorussiya, Gruzianing salmog`i 3 foizdan 1,5 foizga-cha, Ukraina va Boltiqbo`yi respublikalarining salmog`i yanada ko`p-roq qisqargan. O`zbekistonda ham pul resurslari taqchilligi naqd pulga bo`lgan talabning qondirilmaganligida namoyon bo`lgan. SHu iqtisodiy tanglik sharoitida pul tizimini shakllantirish bo`yicha mustaqil davlatlar oldida ikki muiobil yo`l turardi.

– YAagona pul tizimi zonasi – rubl zonasida qolish va yagona pul siyosatini olib borish;

– O`z milliy valyutasini muomalaga chiqarib, o`z pul tizimiga ega bo`lish va qo`shni mamlakatlar inflyatsiyasidan o`zini himoya qilish.

Pul taqchilligi davom qilayotgan va Rossiya rubllari barqaror bo`lmagan sharoitda pul taqchilligini yo`qotish maqsadida ko`pgina respublikalar, jumladan, O`zbekistonda ham mustaqillikning birinchi yillarida pul tizimini shakllantirish loyihasi tuzildi. YUqorida ta`kidlaganimizdek, muomalaga kupon talonlar chiqarildi va keyincha-lik O`zbekiston o`zining milliy valyutasini muomalaga chiqardi.

O`zbekiston milliy pul tizimining asosiy elementi bo`lmish so`m jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. SHuning uchun pul tizimining asosiy vazifasi milliy pulimizning qadrini mustahkamlashdan ibo-rat. Bu juda mas`uliyatli va oson bo`lmagan vazifa. O`zbekistonning o`z iqtisodiyotini bozor talablariga mos ravishda rivojlantirishga qara-tishi, bozor iqtisodiyotiga o`tishda mamlakatimizning o`ziga xos xusu-siyatlariga ega ekanligi milliy valyutaning barqaror bo`lishini taqozo qiladi.

Hozirgi kunimiz, iqtisodiyotimizning rivojlanishida amalga oshirilayotgan iqtisodiy jarayonlar, katta qurilishlar va moliyalash-tirishlar O`zbekiston iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun to`g`ri yo`l tanlaganini ko`rsatib turibdi. Zero, mustaqil pul tizimiga ega bo`lmasdan iqtisodiy jihatdan mustaqil davlat barpo etish mumkin emas.

5.4. Pul multiplikatori va pulni sug`urtalash

Tijorat banklari rivojlangan kredit tizimi tufayli ma`lum chegaralar doirasida yangi pul ishlab chiqarishga qodir. 1929-1930

yillarda J.M.Keyns pul multiplikatori mavjudligini kashf etdi. Bu vaqtda Qo`shma Shtatlar va Yevropada Buyuk Depressiya deb ataladigan voqea sodir bo`ldi bu inqiroz butun G`arb dunyosini qamrab oldi. Amerikada texnik qayta jihozlash uchun sarmoyalarni jalb qilish masalasi dolzarb bo`lib qoldi, ammo kreditlar kerak emas edi. Keyns M_1 pul massasidagi "talab bo`yicha" tekshiruv hisobvaraqlari o`z-o`zini o`stirishga qodir ekanligini aniqladi; katta miqdordagi naqd pulsiz pul ishlab chiqarish; Keynsning pul multiplikatori davlatning investitsiya salohiyatining kuchli manbasiga aylandi. Ikki pog'onali bank tizimida tijorat banklari pul chiqaradi, shu bilan birga bank multiplikatori mexanizmi erkin zaxira bilan bog`liq - faol bank operatsiyalari, kreditlar berish, qimmatli qog`ozlarni sotib olish va h.k.lar uchun asos bo`lib xizmat qiladigan resurslar to`plami ko`paytiradigan omil mumkin bo`lgan kengayishni aniqlash uchun depozit miqdori. Bank multiplikatori (M) majburiy zaxiralar koeffitsientiga teskari proporsional bo`lgani uchun uning formulasi quyidagi shaklga ega:

$$M = \frac{1}{P}, \text{ (1.6) bu erda, R - zaxira talabi.}$$

Pulni sug`urtalash

Davlatning pul-kredit siyosati o`rtasidagi mavjud bo`lgan yaqin munosabatlar iqtisodiyotni pul bilan tartibga solishga imkon beradi. Avvalo, markaziy banklar muomaladagi pul massasining o`sishi uchun maqsadlarni (maqsadlarni) belgilaydilar va ushbu maqsadlarni belgilash amaliyotining o`zi "pulni maqsadli yo`naltirish" deb nomlandi. Pul massasi o`sishining maqsadlari 1970 yillarda dunyoda inflyatsiya jarayonlarining kuchayishi munosabati bilan qo`llanila boshlandi.

Maqsadlar - pul massasi hajmini o`zgartirishning yuqori va pastki chegaralarini belgilash (to`g`ridan-to`g`ri cheklovlarni joriy etish). Ularning tashkil etilish tartibi boshqacha: tasdiqlangan raqamlar ko`rinishida - Fransiyada, "vilka" shaklida - AQSHda, prognozga ko`ra - Yaponiyada.

Ushbu ko`rsatkichlar, ular harakat qilishi kerak bo`lgan vaqt jihatidan ham farq qiladi. Masalan, Buyuk Britaniyada eng maqbul bo`lgan narsa - pulni nishonga olishning bir yilligi, Italiyada - bir oy, Yaponiyada maqsadli pul agregati kutilayotgan o`sishining prognozlari har chorak boshida e`lon qilinadi.

Nazorat uchun savollar

1. "Pul tizimi" tushunchasining mazmunini, pul tizimining shakllarini yoritib bering?
2. Pul tizimining elementlarini tushuntirib bering?
3. "Pul tizimi" tushunchasining mazmunini, pul tizimini tashkil qilish shart-sharoitlarini va pul tizimini tashkil qilish printsiplarini yoritib bering?
4. Pul tizimining shakllari: bimetallizm; monometallizm; qog'oz va kredit pullari tizimini ochib bering?
5. O'zbekiston Respublikasi pul tizimi elementlarini yoritib bering?
6. O'zbekiston Respublikasi pul tizimining rivojlanish bosqichlarini ochib bering?

6- MODUL. INFLYATSIYA VA UNING TURLARI. PULNING BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

1. Inflyatsiya tushunchasi va turlari.
2. Inflyatsiyaga ta'sir qiluvchi omillar
3. Inflyatsiyani yuzaga keltiruvchi sabablar
4. Inflyatsiyaga qarshi kurash va pulning barqarorligini ta'minlash yo'llari.
5. Inflyatsiyaning makroiqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'siri.
6. Pul massasining o'sishini jilovlashga qaratilgan monetar siyosatni amalga oshirish

6.1. Inflyatsiya tushunchasi va turlari

Inflyatsiya narxlarning umumiy darajasining o'sishini anglatadi. Biroq, ushbu eng keng tarqalgan ta'rifga bir oz aniqlik kiritish kerak. U inflyatsiyaning eng keng tarqalgan ta'siridan birini mohiyati bilan aralashtirib yuboradi.

Gap shundaki, narxlarning o'sishi zamonaviy bozor iqtisodiyoti uchun o'ziga xos inflyatsion belgidir. Inflyatsiya darajasi turli yo'llar bilan o'lchanadi, ammo ko'rsatkichlar har doim narxlarning qanchalik ko'tarilganligini aks ettiradi. Biroq, ma'muriy tizimda yashirin inflyatsion jarayonlar ham "qat'iy" rejali narxlar ostida sodir

bo'lganligi va narxlar oshishi sun'iy ravishda cheklanganligini hech kim inkor etmaydi.

Inflyatsiyaning mohiyatini uni pul muomalasi qonunining buzilishi va birinchi navbatda pul massasi dinamikasi bilan nominal yalpi ichki mahsulot o'rtasidagi ziddiyat bilan bog'lash orqali aniqroq tushunish mumkin. Taniqli iqtisodchi M. Fridman taxminan xuddi shu nuqtai nazarga rioya qilgan. Shu bilan birga, nominal yalpi ichki mahsulotning o'sishiga nisbatan pul massasining o'sish sur'atlari oshib ketishi bilan inflyatsion jarayonlar yuzaga keladi va ko'rib chiqilayotgan ko'rsatkichlarning qarama-qarshi nisbati bilan deflyatsiya. Ikkinchisi kamdan-kam uchraydigan hodisa bo'lsa-da, shunga qaramay, ba'zida, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda uchraydi.

Makroiqtisodiy xarakterga ega bo'lgan va umumiy iqtisodiy sabablarga ko'ra kelib chiqqan va deyarli barcha tovar va xizmatlarga turli darajalarda ta'sir ko'rsatadigan inflyatsiya va deflyatsiyani mahalliy omillar natijasida yuzaga keladigan ayrim mahsulotlar narxlarining o'zgarishini ajratib ko'rsatish kerak.

Inflyatsiya - bu faqat qog'oz pul muomalasiga xos bo'lgan hodisa, bu tovar aylanmasi ehtiyojlari bilan taqqoslaganda muomalaga doirani ortiqcha qog'oz pul bilan to'ldirishini, ularning qadrsizlanishini va natijada tovarlar va xizmatlar narxlarining oshishini anglatadi. Ya'ni, inflyatsiya, avvalambor, tovar taklifining yetarli darajada o'sishi bo'lmagan taqdirda, pul muomalasi kanallarining ortiqcha pul massasi bilan to'lib toshishi natijasida yuzaga keladi. Inflyatsiyaning quyidagi turlari va shakllarini ajratish mumkin

1. Ko'rinish darajasi bo'yicha:

- sudraluvchi inflyatsiya - narxlarning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 5-10 foizni tashkil etganda, narxlarning asta-sekin va uzoq muddatli ko'tarilishida ifodalanadigan inflyatsiya;

- jadal inflyatsiya - narxlarning keskin ko'tarilishi shaklidagi inflyatsiya, ya'ni. qachon narxlarning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 10-50% dan;

- giperinflyatsiya - narxlar o'sish sur'ati juda yuqori bo'lgan inflyatsiya, narxlar yiliga 100 foizdan oshganda.

Vujudga kelish usullari bo'yicha:

- ma'muriy inflyatsiya - narxlarni boshqarish bilan bog'liq inflyatsiya;

- xarajat inflyatsiyasi - ishlab chiqarish omillari narxlarining o'sishida namoyon bo'ladigan inflyatsiya turi, buning natijasida ishlab chiqarish va muomalaga sarflanadigan xarajatlar va ular bilan birga ishlab chiqarilgan mahsulotlar narxi oshadi;

- talab inflyatsiyasi - to'liq foydalanilmagan ishlab chiqarish resurslari sharoitida ishlab chiqarish xarajatlari oshishi bilan ta'minlanadigan narxlarning ko'tarilishida o'zini namoyon qiladigan inflyatsiya;

- import qilingan inflyatsiya - tashqi omillarning ta'siridan kelib chiqadigan inflyatsiya, bu mamlakatga haddan tashqari ko'p miqdordagi chet el valyutasining kirib kelishini va import qilinadigan tovarlar narxlarining o'sishini o'z ichiga olishi mumkin;

- kredit inflyatsiyasi - kreditning haddan tashqari kengayishi natijasida inflyatsiya.

3. Ko'rinish shakllariga ko'ra inflyatsiya bu:

- ochiq - iste'mol tovarlari va ishlab chiqarish resurslari narxlarining ochiq (erkin) o'sishi hisobiga inflyatsiya;

- yashirin - tovarlar yetishmasligidan kelib chiqadigan inflyatsiya turi, hukumatning narxlarni bir xil darajada ushlab turish istagi bilan birga bo'lishi mumkin.

Inflyatsiya shakllari:


Talab inflyatsiyasiga pul taklifining "shishishi" va shuning uchun bozor talablariga tezda javob beradigan yetarlicha elastik bo'lmagan ishlab chiqarish sharoitida ma'lum narx darajasida samarali talab sabab bo'ladi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish quvvatidan yuqori bo'lgan yalpi talab shu bilan narxlarning ko'tarilishiga olib keladi.

Pulning ortiqcha massasini to'plashning dastlabki bosqichida ishlab chiqarish va sotish hajmining oshishi, ishsizlikning pasayishi, narxlar va natijada muvozanat o'rnatilishi rag'batlantiriladi.

Shunday qilib, inflyatsiya hatto minimal miqdorda foydalidir degan xulosaga kelish mumkin, chunki u haddan tashqari ishlab chiqarish inqirozi va bandlikni qisqartirish kafolatini beradi. Keyinchalik, to'liq ish bilan ta'minlash iqtisodiyotning barcha sohalariga taalluqli bo'lganda va ular talabning oshishiga qo'shimcha mahsulot yetkazib berish bilan javob bera olmasa, narxlar ko'tariladi. Keyinchalik, ishlab chiqarishning pasayishi, samaradorligining

pasayishi va inflyatsiyaning kuchayishiga olib keladigan omillar harakat qila boshlaydi. Talab inflyatsiyasini umumiy talab, bandlik va narxlar o`rtasidagi bog`liqlikni kuzatish orqali tushunish mumkin (6.1-rasm).

1-segmentda narxlarning barqarorligi tufayli ishlab chiqarishni ko`payishi hisobiga real va nominal YAMM bir xil darajada o`sadi. 2-segment o`tish davri deb ataladi va resurslarning notekis taqsimlanishini aks ettiradi, ya'ni ba'zi sohalarda chegara tugagan, boshqalarida esa yo`q. Boshqacha qilib aytadigan bo`lsak, defitsit global xarakterga ega emas, faqat ma'lum sektorlarda kuzatiladi. Mahsulotlarga bo`lgan talabning yanada o`shishini ishlab chiqarish hajmining o`shishi bilan qoplash mumkin emas, shuning uchun talab va taklif qonunchiligiga muvofiq narxlarni oshirish kerak P. Bundan tashqari, barchasi ko`proq ishchilar mehnat narxining oshishiga olib keladi, chunki u kam manbaga aylanadi. Natijada, ish haqi va xarajatlar oshib boradi, bu esa narxlarni oshirishning qo`shimcha manbai bo`lib xizmat qiladi. Va nihoyat, 3-segmentda ishlab chiqarish hajmining o`shish zaxiralari butun iqtisodiyotda tugadi, shuning uchun jamiyatning ishlab chiqarish imkoniyatlaridan yuqori bo`lgan yalpi talab narxlar darajasining ancha tez ko`tarilishini keltirib chiqaradi.



6.1-rasm - yalpi talab, bandlik va narxlar o`rtasidagi bog`liqlik

Narxlar inflyatsiyasi odatda ishlab chiqarish xarajatlarining o`shishi, birinchi navbatda ish haqi xarajatlarining o`shishi ta`siri ostida narxlarni ko`tarish nuqtai nazaridan ko`rib chiqiladi. Tovarlarga

yuqori narxlar aholi daromadlarini pasaytiradi va ish haqini indeksatsiya qilish zarur. Uning o`shishi ishlab chiqarish tannarxining oshishiga, foyda kamayishiga va ishlab chiqarish hajmining amaldagi narxlarda o`shishiga olib keladi. Foydani saqlab qolish uchun harakat ishlab chiqaruvchilarni narxlarni oshirishga majbur qiladi. Narxlar inflyatsiyasi faqat shu holatda bo`lishi mumkin, chunki mahsulot birligiga zararlar o`sib boradi va shu munosabat bilan narxlar ko`tariladi.


Shu bilan birga, ish haqi narx elementlarining faqat bittasidir va, qoida tariqasida, xom ashyo, energiya tashuvchilarni sotib olish va transport xizmatlari uchun to`lovlar narxining oshishi sababli tovarlarni ishlab chiqarish narxi ko`tariladi. Butun dunyoda moddiy xarajatlarning o`shishi ishlab chiqarish, xom ashyo va energiya resurslarini tashish narxining ko`tarilishi bilan bog`liq tabiiy jarayondir va bu har doim ishlab chiqarish xarajatlarining o`shishiga ta`sir qiladi. Qarama-qarshi omil - bu mahsulot birligiga sarflanadigan xarajatlarni kamaytiradigan eng yangi texnologiyalardan foydalanish.

Ish haqining ko`tarilishi ishlab chiqarish yo`qotishlarining ko`payishiga va shunga muvofiq narxning ko`tarilishiga yordam beradi, bunda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida o`zaro bog`liq bo`lmagan holda bir vaqtning o`zida o`shish yuz beradi. Haqiqiy hayotda shtat ichida ish haqining o`shishi narxlarning ko`tarilishidan doimo sezilarli darajada orqada qolmoqda va kompensatsiya hech qachon kafolatlanmaydi. Narxlar inflyatsiyasi bilan pul miqdori, uning muomalada bo`lish tezligini hisobga olgan holda, tovarlarni ishlab chiqarish va etkazib berishga monetar bo`lmagan omillarning ta`siridan kelib chiqqan holda ko`tarilgan narx darajasiga "ko`tariladi". Agar pul massasi narxlarning ko`tarilgan darajasiga tezda moslasha olmasa, pul muomalasida muammolar paydo bo`ladi - to`lov vositalarining etishmasligi, to`lovlarni amalga oshirmaslik va undan keyin turg`unlik, ishlab chiqarish to`xtashi, tovar massasining pasayishi.

6.2. Inflyatsiyaga ta`sir qiluvchi omillar

Inflyatsiyani monetar omillar (talab) va monetar bo`lmagan omillar (taklif) o`zaro ta`siri natijasida hisobga olsak, sabablarni aniqlash mumkin.

Talab inflyatsiyasini uchta asosiy pul omillari keltirib chiqaradi (6.2-rasm)



6.2-rasm - Talab inflyatsiyasining asosiy omillari

1. Davlat byudjeti kamomadi. Uni bilvosita, davlat qarzining o`lishi yoki inflyatsiya solig`i orqali moliyalashtirish imkoniyati mavjud. Mamlakatning iqtisodiyotni harbiylashtirishga va davlat bo`linmasi ishini kuchaytirishga samarasiz sarf-xarajatlarning rivojlanishi tufayli tanqislik yanada kuchaymoqda. Byudjet kamomadini qoplash Markaziy bank tomonidan hukumatga birlamchi bozorda muhim davlat qimmatli qog`ozlarini sotib olish yoki hukumatga qarz berish shaklida qarz berish yo`li bilan yuzaga keladi, aslida pulning tovar aylanmasiga bo`lgan ehtiyojdan ortiqcha mablag` chiqarilishini keltirib chiqaradi va shunga muvofiq inflyatsiyani talab qiladi.


2. Ortiqcha kredit berish. Bu banklarning kredit kengayishi tufayli muomaladagi pullarning iqtisodiyot ehtiyojlaridan ortiqcha o`lishi bo`lib, tovar aylanmasiga bo`lgan talabdan ortiqcha to`lov qobiliyatiga ega mablag`lar yaratilishiga olib keladi va shu bilan tovar va xizmatlarga qo`shimcha so`rovlar yaratiladi.

3. Tashqi iqtisodiy omil. Milliy valyuta kursini yoki valyuta zaxiralari hajmini tartibga solish uchun markaziy bank chet el valyutasini sotib oladi.

Narxlar (taklif) inflyatsiyasi monetar bo`lmagan omillar bilan uzviy bog`liqdir (6.3-rasm).

- ishlab chiqarishning pasayishi va mehnat unumdorligining o`lish sur`atlari - iqtisodiy inqiroz va takror ishlab chiqarishning umumiy sharoitlarining yomonlashishi natijasida yuzaga keldi. 1970-

1980 yillarda. bu omil dunyoning sanoati rivojlangan mamlakatlari iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o`ynadi. Qayta qurish davrida O`zbekistonda bu omil odatiy hodisa edi;



6.3-rasm - Taklif inflyatsiyasining asosiy omillari

- xom ashyo narxining ko`tarilishi, yuqori egri soliqlar va yarim tayyor mahsulotlar - mahsulotlar narxiga kiradi, shuningdek, ular tayyor mahsulotlar narxining oshishiga yordam beradi;
 - psixologik omil - ushbu omil tufayli inflyatsion kutishlar ta'sirida narxlar o`zgaradi;
 - ish haqi va aholining boshqa daromadlarining o`sishi, daromadlarning asosiy qismi uchun indeksatsiya qilish paytida mahsuldorlikning o`sishidan yuqori darajada;
 - monopol narxlar - bu omil mahsulotlarning asosiy qismi uchun haddan tashqari oshirilgan monopol narxlar saqlanib qolayotganligini ko`rsatadi;
 - tashqi iqtisodiy omil - tovarlarga jahon narxlarining o`sishi, chet el kapitali oqimi, milliy valyutaning qadrsizlanishi.
- Shunday qilib, xulosa qilish mumkin - inflyatsiya valyuta muomalasi qonuniga rioya qilinmasligini e'lon qiladi, bu esa

to'planish va iste'mol, talab va taklif o'rtasidagi nomutanosibliklarga olib keladi.

Inflyatsiya, bu multifaktorial jarayon bo'lib, muhim bosqichda u ma'lum bir mamlakatning moliyaviy shakllanishidagi maxsus momentning o'ziga xos xususiyatlariga asoslanadi. Iqtisodiyoti zaif rivojlanayotgan mamlakatlarda inflyatsiya jarayoni yuqori valyuta emissiyalarining o'ziga xos ta'siri ostida bo'lib, Markaziy bankning qattiq nazoratiga tushadi va faqat o'sishi mumkin.

Inflyatsiyani keltirib chiqaruvchi omillar xilma-xil bo'lib, ular ham pul, ham pul shaklida bo'lishi mumkin. Odatda, ortiqcha pul massasining paydo bo'lishiga davlat byudjeti kamomadida ifodalanadigan davlat moliyasining tartibsizligi yordam beradi, deb qabul qilingan. Ushbu defitsitning sabablari ko'p qirrali. Bu erda juda katta harbiy xarajatlar va iqtisodiy notinchliklarning roli muhim. Biroq, inflyatsion rivojlanish to'g'ridan-to'g'ri ushbu defitsitga nima sabab bo'lganiga emas, balki uni qoplash usullariga bog'liq. Agar ikkinchisi to'g'ridan-to'g'ri sodir bo'lsa, pul emissiyasi orqali inflyatsiyaning ta'siri aniq.

Agar yetishmovchilik muhim davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish bilan qoplansa, ya'ni hukumat qarzining ko'payishi bo'lsa, barchasi qiyinroq. Ma'lum bo'lishicha, bu holda davlat byudjetining etishmasligi va valyuta ta'minotining kengayishi o'rtasidagi bog'liqlik avtomatik emas, chunki u bozordagi muhim qimmatli qog'ozlar harakati bilan vositachilik qiladi. Davlat qarzlari real jamg'arma va jamg'armalar yordamida joylashtirilishi mumkin va bunday vaziyatda mamlakatdan talabning oshishi uning real tejash va tejash yordamida kamayishi bilan qoplanadi, shuning uchun mamlakatdan talabning o'sishi uning milliy iqtisodiyotning xususiy sektorida va aholi orasida kamayishi bilan qoplanadi.

Inflyatsion vaziyat, hukumat qarzlari Markaziy bank tomonidan banknotlarni chiqarish bilan, banklar esa kreditlarni berish va shu asosda depozit va cheklarni chiqarish yo'li bilan almashtirilganda shakllanadi. Boshqacha qilib aytganda, inflyatsiyaning muhim omili bu haddan tashqari kredit kengayishi (kredit kengayishi) bo'lib, naqd pulsiz shaklda naqd pul chiqarilishiga olib keladi. Davlat qimmatli qog'ozlariga qarshi banknotalarni chiqarish, banklardagi omonatlarning ko'payishi kredit resurslarining bir necha bor kengayishiga olib kelishi mumkin. Ushbu summani bank

hisobvarag'iga kiritishda, ikkinchisi zaxira qismini olib tashlagan holda ushbu summani kreditga taqdim etish imkoniyatiga ega. Birovning qo'lida bo'lganidan so'ng, u oxir-oqibat shunga o'xshash operatsiyani amalga oshiradigan boshqa bankdagi depozitga aylanadi va hokazo.

Zamonaviy dunyoda iqtisodiy muvozanatni boshqarish deyarli mumkin emas. Mamlakat aholisi uzoq vaqtdan beri tovar va xizmatlar yetishmasligi bilan bog'liq muammolarni sezmaydilar, chunki takliflar soni juda ko'p. Ammo pul massasi doimiy ravishda o'sib bormoqda. Mahsulot sifatining oshishi yoki ma'lum bir vaqt ichida resurslarni qazib olishning pasayishi tufayli narxlar ko'tarilishi mumkin. Ayrim tovarlar va xizmatlar narxlarining mavsumiy tebranishlari ham muntazam bo'lib turadi. Ammo narxlarning bunday ko'tarilishi inflyatsiya emas - bu umuman tabiiy o'zgarishlar bo'lib, odatda vaqtinchalik xususiyatga ega.

Muayyan vaqtda iste'molchilarga taqdim etiladigan barcha tovar va xizmatlarning o'z narxi bor. Shu bilan birga, muomalada odamlar kerakli tovarlar va xizmatlarni sotib olishga sarflashlari mumkin bo'lgan ma'lum miqdordagi pul mavjud. Agar ushbu ikki tarkibiy qism teng bo'lsa, mamlakat iqtisodiyoti barqaror. Ammo zamonaviy dunyoda bunday muvozanat uzoq vaqt davomida mavjud emas edi. Vaqt o'tishi bilan odamlar ma'lum tovar va xizmatlarni sotib olishlari uchun kerak bo'lgan pullarning umumiy miqdori iste'molchilar uchun yaxshi tomonga emas, balki o'zgarib boradi. Ushbu hodisaning sababi nima? Inflyatsiyaning asosiy sabablarini ikki guruhga bo'lish mumkin: pul va pul bo'lmagan.

Monetar omillar - muomalaga doirani ortiqcha mablag'lar massasi bilan ortiqcha to'yintirish. Agar hajm oshsa, boshqa parametrlar bir xil darajada qolsa, inflyatsiya darajasi ham oshadi.

Inflyatsiyaning monetar omillariga quyidagilar kiradi.

1. Pulning haddan tashqari emissiyasi - odamlar ko'proq tovar va xizmatlarni sotib olishga qodir, ishlab chiqarish esa aholi ehtiyojlarini qondira olmaydi. Yoki, iqtisodiy nuqtai nazardan, yalpi talab yalpi taklifdan kattaroq bo'ladi;

2. aylanish tezligining oshishi - bu odamlarning barcha mablag'larini yo'qotishdan qo'rqishidan kelib chiqishi mumkin. Aholi puldan xalos bo'lishni boshlaydi va bitimlar sonini ko'paytiradi. Bu milliy valyuta qadrsizlanishiga olib keladi;

3. iqtisodiyotning tsikli rivojlanishi - inflyatsiyani yengib chiqa olmaslik iqtisodiy mexanizm kamchiliklari tufayli vujudga keladi. Markazlashgan iqtisodiyotda deyarli hech qanday teskari aloqa yo`q edi, bunga qodir bo`lgan samarali iqtisodiy dastaklar mavjud emas edi pul va tovar taklifi o`rtasidagi nisbatni tartibga solish; ma`muriy cheklovlarga kelsak, ular etarlicha samarasiz "ishladilar";

4. bankning kredit kengayishi - kredit berish iqtisodiy muvozanatga olib keladigan va narxlar darajasining o`shishiga ta`sir etadigan ancha murakkab mexanizmdir. Ammo hozirgi paytda foizlar bilan kreditlar berish jamiyatning ajralmas qismiga aylandi. Shu sababli, ko`p yillar davomida mamlakatda inflyatsiya mavjud bo`lib, unga ko`pchilik odamlar odatlanib qolgan;

5. muvozanatsiz investitsiyalar - hukumat ko`pincha byudjetni tuzishda hisobga olinmagan investitsiyalarni kiritishi kerak. Bu harbiy sanoat yoki falokatlarni tiklash bo`lishi mumkin;

6. iqtisodiyotni harbiylashtirish - harbiy xarajatlarning ko`payishi pul tizimining kon`yunkturasini vaqtincha jonlantiradi, garchi umuman olganda bu tovar ishlab chiqarish strukturasi deformatsiyasiga olib keladi va inflyatsiya jarayonini tezlashtiradi. Harbiy xarajatlarda harbiy xizmatda bo`lgan yoki iqtisodiyotning harbiy sektorida ishlayotgan shaxslar tomonidan yordamchi samarali talabni yaratish uchun asos bo`lib xizmat qiladi. Buning natijasi, muomalaga haqiqatan ham kirib kelmasligi nuqtai nazaridan valyuta ta`minotining o`shishi;

7. davlat moliyasining inqirozi - bunday pasayish hukumat o`zining ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini kengaytirganda, aslida samarasiz xarajatlarning ko`payishiga olib keladi. Byudjet kamomadini qoplash uchun qo`llaniladigan usullar odatda aylanma valyuta taklifining o`shishiga yordam beradi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar chiqindilarni oldini olishga intiladi va byudjet kamomadini to`lash uchun soliqlardan, shuningdek davlat kreditlaridan foydalanishni afzal ko`rishadi;

8. Soliqlar inflyatsiyaning asosiy sababi deb hisoblanmaydi, garchi ular narxlashga ta`sir qilsa ham. Bilvosita soliqlar ular soliq soladigan mahsulotlar qiymatining bir qismidir va ularning ko`payishi narxlarning ko`tarilishiga olib keladi. Munitsipal qarzlarning inflyatsiyaga ta`siri hukumat majburiyatlari qanday taqsimlanishiga bog`liq. Davlat qimmatli qog`ozlari (ya`ni, obligatsiyalar) bank

vositalarida to'lov vositalarini chiqarish usuli bilan joylashtirilsa, bu inflyatsiya natijalariga olib keladi.

Monetar bo'lmagan omillar asosan ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi nomutanosibliklar yoki qimmat boshqaruv mexanizmi bilan bog'liq.

Ushbu omillarga quyidagilar kiradi:

1. mehnat unumdorligining pasayishi - bu holda mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun ko'proq vaqt talab etiladi. SHu bilan birga, ko'plab xarajatlar o'zgarishsiz qolmoqda (ish haqi, energiya, soliqlar). Ma'lum bo'lishicha, mahsulot tannarxi oshib bormoqda;

2. monopolistik narxlar - monopoliyalar inflyatsiya jarayonlarini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi va bu narxlash jarayoni orqali sodir bo'ladi. Ular narxlarni ikki yo'l bilan oshirmoqdalar:

- kartel shartnomasi - kam sonli etakchi ishlab chiqaruvchilar (ya'ni monopolistlar) o'rtasidagi narxlar strategiyasi bo'yicha aniq yoki yashirin kelishuv;

- narxlarda yetakchilik printsipi - bu tadbirkorlar etakchi kompaniyalar tomonidan belgilanadigan narxlarni boshqarishi, ya'ni. eng yirik ishlab chiqaruvchilar va bu narxlar o'rtacha stavkadan yuqori foyda bilan tavsiflanadi.

3. ishlab chiqarish va muomaladagi xarajatlarning o'sishi - valyuta kursining o'sishi bilan barcha import narxlari ham ko'tariladi. Agar ishlab chiqarishda import qilinadigan xom ashyoni mahalliy xom ashyo bilan almashtirishning iloji bo'lmasa, mahsulot ishlab chiqarish tannarxi oshadi. SHuningdek, yoqilg'i narxining ko'tarilishi va boshqa tegishli xarajatlarning oshishi (sug'urta, soliqlar, ehtiyot qismlar) tufayli narxlar muntazam ravishda oshib boradi. Narxlar elektr energiyasi, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar xizmatlari va boshqa ko'plab narsalarning ko'tarilishi tufayli o'smoqda;

4. jahon tarkibiy inqirozlari - 70-yillarda inflyatsiyaning tashqi mezonlari narxlar tarkibini qayta tuzishda namoyon bo'lgan jahon tarkibiy kataklizmlari edi. 70-yillarda neft sanoatida narxlar qayta ko'rib chiqildi, barcha turdagi xom ashyo narxlari 7 baravarga o'sdi va xom neft narxi 20 martadan oshdi. Bularning barchasi xomashyo importi narxining oshishiga va ichki bozorda narxlarning o'sishiga olib keldi.

Yuqorida sanab o`tilgan sabablarga qo`shimcha ravishda inflyatsiya omillari iqtisodiy xarakterga ega bo`lmasligi mumkin - bu siyosiy beqarorlik (urushlar, inqiloblar, hukumatga bo`lgan ishonchni yo`qotish va boshqalar) natijasida paydo bo`ladigan inflyatsion kutishlar.

6.3. Inflyatsiyani yuzaga keltiruvchi sabablar.

Hozirgi zamon inflyatsiyasi nafaqat tovarlar va xizmatlarga bo`lgan baholarni muntazam o`sishi natijasida pulning sotib olish qobiliyatini pasayishi bilan bir qatorda ishlab chiqarish jarayonidagi nomutanosiblik, pul muomalasi, moliya hamda kredit sohasidagi salbiy omillar bilan tasniflanadi. Inflyatsiyaning yuzaga chiqishining asosiy sabablari bo`lib iqtisodiyot tarmoqlari, jamg`arma va iste`mol, talab va taklif, davlat daromadlari va xarajatlari, xo`jaliklarning pul massasi va unga bo`lgan talabi o`rtasidagi mutanosiblik hamda markaziy bankning kredit ekspansiyasi hisoblanadi. Ushbu ta`kidlab o`tgan omillar o`z mohiyatiga asosan inflyatsiyaga, uning darajasiga turlicha ta`sir etishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda iqtisodchi olimlar inflyatsiyaning yuzaga chiqadigan omillar asosan ikki guruhga: ichki va tashqi omillarga ajratadilar. Biz ushbu omillarning mohiyatini yoritishga xarakat qilamiz.

1. Ichki omillarni mohiyatiga asosan pullik (monetar) va pulsiz omillarga ajratish mumkin. Pullik omillarga davlat moliyasining inqirozi, byudjetning taqchilligini mavjudligi, davlat qarzdorligini ortishi, pul emissiyasi, kredit dastaklarining aylanishini ko`payishi, pul aylanmasining tezligi va boshqalar kiradi. Pulsiz omillarga milliy iqtisodiyot tarmoqlari o`rtasidagi nomutanosiblik, tarmoqlar iqtisodiy rivojlanishdagi bir maromsiz daraja, ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish sohalarida monopoliyaning (oligopoliya) mavjudligi, narx shakllantirishdagi davlat monopoliyasi, markaziy bankning kredit ekspansiya va boshqa omillarni kiritish mumkin;

2. Tashqi omillar o`z mohiyatiga asosan biron aniq davlat rivojlanishiga ta`sir etadigan dunyoda amalga oshayotgan jarayonlarni aks etadi. Ushbu omillarga dunyo mamlakatlarda yuzaga chiqadigan soha inqirozlari hisoblanadigan xom-ashyo, energetika, neft, valyuta inqirozlarni kiritish mumkin. Ushbu omillardan tashqari biron-bir davlatning boshqa davlatlarga nisbatan olib boradigan davlat

miqiyosidagi valyuta siyosatini, yashirin holatda valyuta, oltinni eksportini amalga oshirilishini ham kiritish mumkin.

Iqtisodiy amaliyotda bozor ishtirokchilari uchun nafaqat inflyatsiyani har tomonlama va to'g'ri o'lchash, balki shunga mos ravishda uning oqibatlarini baholash va ularga moslashish muhimdir. Shu nuqtai nazardan, birinchi navbatda, narx dinamikasining tarkibiy xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Bir qator iqtisodchilar ahamiyatsiz inflyatsiya (masalan, tariflarning yillik 3-4 foizga o'sishi), shu bilan valyuta ta'minotining mos ravishda ko'tarilishi ishlab chiqarishni qo'zg'atishi mumkin degan pozitsiyani qo'llab-quvvatlamogda. Bularning barchasi bilan ishlab chiqarishni kengaytirish ahamiyatli bo'ladi, ishlab chiqarishning foydalanilmayotgan sabablari shunchalik ko'p bo'ladi. Aylanma mablag'lar massasining ko'payishi to'lov aylanmasini tezlashtiradi, investitsiya ishlarini faollashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishning o'sishi tovar va valyuta ta'minoti o'rtasida eng yuqori tarif darajasida muvozanatning yangilanishini keltirib chiqaradi. Inflyatsiya (va bu umumiy e'tirof etilgan) mehnat faoliyati motivlarini toraytiradi, chunki bu narxlar daromadlarini normal amalga oshirish imkoniyatlarini buzadi. Inflyatsiya, ayniqsa narxlarning sezilarli o'sishi sharoitida aholining ijtimoiy farqlanishini, daromad oluvchilarning "o'rta" guruhlari o'rtasidagi farqni oshiradi.

Inflyatsiyaning salbiy funksiyasi, shu bilan birga, uning to'planish imkoniyatlarini toraytirishi bilan ham bog'liq. Likvid shaklda tejash qisman tabiiy shaklda (ko'chmas mulkni sotib olish) qabul qilib, kamayib bormogda.

Daromadning ishlatilgan va saqlanmagan ulushlari o'rtasidagi yozishmalar foydalanishga to'g'ri keladi. Qimmatli qog'ozlarni chiqarish ko'pincha ko'zlangan maqsadga erisha olmaydi, chunki, ma'lum bo'lishicha, ular aholidan pulni "bog'lay" olmaydilar.

Inflyatsiya kuch tuzilmalari pozitsiyalarini zaiflashtiradi. Davlat organlarining dolzarb muammolarni hal qilish uchun qo'shimcha mablag 'ajratish orqali olish istagi norozilikning kuchayishiga, daromadlarni ko'paytirish, qo'shimcha imtiyozlar va subsidiyalar olish maqsadida turli ijtimoiy guruhlar tomonidan bosimning kuchayishiga olib keldi.


Hukumat tomonidan rejalashtirilgan va amalga oshiriladigan dasturlar va tadbirlarning ishonchliligi pasayadi. Aholining iste'mol

bozori va ishlab chiqarishdagi sharoitlarning yomonlashuviga munosabati aksariyat hollarda keskin shakllarga ega.

Shunday qilib, inflyatsiya jarayonlarining salbiy oqibatlariga quyidagilar kiradi:

1. Inflyatsiya moliya tizimidagi nomutanosibliklarni yomonlashtirmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlarining spazmodik ko'tarilishi tengsizlikni kuchaytiradi ishlab chiqarishning turli sohalarida foyda hajmi. Bu ba'zi sohalarida ishlab chiqarishni ko'payishiga va aksincha, iqtisodiyotning boshqa sohalarida pasayish va qisqarishga olib keladi. Inflyatsion jarayon uzoq muddatli investitsiyalarni rag'batlantirishni yo'q qiladi va bu takror ishlab chiqarish mexanizmlarida uzilishlarni keltirib chiqaradi va ishsizlikni keltirib chiqaradi. Inflyatsiyaning natijasi - kapitalning ishlab chiqarish sektoridan muomala sohasiga oqimi, chunki u erda kapitallar tez harakat qiladi va inflyatsiya hisobiga hali tushmagan daromadlarni keltirib chiqaradi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlariga nisbatan farqlarning ko'payishi iqtisodiy munosabatlarni buzadi:

1. Inflyatsiya ichki bozor imkoniyatlarini pasaytiradi.



6.4.-rasm - Inflyatsiyaning ichki bozor imkoniyatlariga ta'siri


Ushbu jarayonning aniq natijasi pasayishdir real ish haqi, shuningdek boshqa barcha daromadlar. Haqiqatni siqish samarali talab tovarlarni sotish va sotishni murakkablashtiradi va ortiqcha zaxiralash iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarida ishlab chiqarishga salbiy ta'sir qiladi.

1. Kredit tizimining ishlashi buziladi.



6.5-rasm - Inflyatsiyaning kredit tizimi faoliyatiga ta'siri

Pulning qadrsizlanishi pul to'plash uchun rag'batlantirishni yo'q qiladi, shuning uchun kredit tashkilotlarining resurslari tugaydi. Inflyatsiyaning yuqori sur'atlarida kredit berish foydali emas, chunki qarzni to'lashni buzilgan pul bilan olganda, kreditorlar zarar ko'radilar.



6.6-rasm - Inflyatsiyaning moliya tizimiga ta'siri

3. Iste'mol talabi tarkibini pasaytiradi.

Narxlarning ko'tarilishi, kapitalning ularga bo'lgan ehtiyojidan qat'i nazar, pul shaklidan qimmatbaho tovarlarga uchishini qo'zg'atadi. Aholi qadrsizlanadigan puldan xalos bo'lishga intilib, oltin, ko'chmas mulk, rasm, mo'yna va boshqalarni sotib oladi.

4. Moliya tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi

5. Inflyatsiya mamlakat xarajatlarning o'sishiga sabab bo'ladi. Darhol soliq va boshqa byudjet daromadlarining qadrsizlanishi yuz beradi, buning natijasida davlat qarzi mavzusi qiziydi. Davlat majburiyatlari bo'yicha foizlar amortizatsiya qilingan pul bilan to'langanda, bu yangi kreditlarni joylashtirish jarayonini sekinlashtiradi. Agar indeksatsiya amalga oshirilsa (ya'ni tariflar indeksining o'zgarishiga mutanosib ravishda davlat majburiyatlari bo'yicha to'lovlar hajmini qayta hisoblash) bo'lsa, unda mamlakat qarzdorligini to'lash bo'yicha xarajatlar oshadi.

6. Inflyatsiya xalqaro moliyaviy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Pulning qadrsizlanishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini pasaytiradi, chunki chet eldan tovarlar importi rag'batlantiriladi, bu erda ular nisbatan arzon narxlarda sotib olinadi. Inflyatsiyaning kuchayishi bilan milliy va xorijiy kapital chet elga shoshiladi yanada ishonchli va foydali sarmoyalarni izlash. Natijada, davlatning to'lov balansi yomonlashadi.

7. Inflyatsiya mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish sharoitlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Inflyatsion natija tariflarning oshishi natijasida ish haqi va boshqa daromadlarning o'sish sur'ati deb hisoblanadi. Oxir oqibat, foyda va kapitalni aholining turli guruhleri o'rtasida qayta taqsimlash mavjud. Bu ijtimoiy ziddiyatlarni yanada kuchaytiradi va siyosiy beqarorlikka olib keladi. Qarz oluvchilar (pulning qadrsizlanishi ularning qarzlarning real miqdorini kamaytirganligi sababli) va eksport qiluvchilar inflyatsiya jarayonlari natijasida qulay ahvolda (chunki milliy valyutaning tashqi qadrsizlanishi uning mamlakat ichidagi to'lov qobiliyatining pasayishidan ustundir). Inflyatsiyadan, ayniqsa gallopingdan va giperinflyatsiyadan, avvalambor, aholining doimiy daromadlari bo'lgan qatlamlari (davlat xizmatchilari, nafaqaxo'rlar, talabalar) aziyat chekmoqda va ish haqini tartibga solish va narxlarni ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lgan xususiy firmalar foyda ko'rishadi: qarzlarni qadrsizlanayotgan pul bilan to'lashlari mumkin bo'lgan qarz oluvchilar; monopoliyalar- narxlarni ko'taruvchi inflyatsiya lokomotivlari. Ushbu yo'qotishlar va daromadlar jadval shaklida ko'rsatilishi mumkin (1.2-jadval).

6.1.-jadval - Inflyatsiyaning ta'siri

Yo'qotishlar	Daromadlar (yutuqlar)
1. Belgilangan daromad oluvchi ishchilar	1. Monopoliyalar- narxlarni ko'taruvchi tashabbuskorlar
2. Pensiya, nafaqa va stipendiya oluvchilar,	2. Qarzdorlar, shu jumladan uzoq muddatli kreditlar
3. Belgilangan foiz bilan kredit bergan kreditorlar	3. Davlat - davlat qarzini qaytaruvchi
4. Pulni qo'lida ushlaydiganlar	4. Ko'chmas mulk, chet el valyutasi va boshqa aktivlar egalari.

Shunday qilib, inflyatsiya aholining asosiy qismi real daromadlari va jamg'armalarini qadrsizlantiradi va shu bilan boylar va kambag'allar o'rtasidagi farqni kuchaytiradi, mamlakatda ijtimoiy

keskinlikni keltirib chiqaradi, shuning uchun inflyatsiya soliqlar va majburiy kreditlarning eng yomon turiga o`xshaydi. Va Rossiyada bu xususiylashtirishdan keyin milliy daromadni qayta taqsimlashning eng muhim vositasi. 1992 yilda narxlarni erkinlashtirishdan o`tgan o`n yilliklarda inflyatsiyani bostirilgan, asosan inflyatsiya talab qilingan va ochiq shaklga ega bo`lgan. Tashqi iqtisodiy omillar ham ijobiy bo`lib qolmoqda (jahon bozorida neftning yuqori narxi), bu quyidagilarga imkon beradi:

- Markaziy Bankning oltin-valyuta zaxiralarini saqlash va ko`paytirish;
- qo`shimcha qarz olmasdan davlat qarziga xizmat ko`rsatish;
- tashqi qarzni to`lash va kamaytirish;
- ijtimoiy sohada yanada faol tarkibiy tuzilmalar va islohotlar uchun Barqarorlashtirish jamg`armasini shakllantirish.

6.4. Inflyatsiyaga qarshi kurash va pulning barqarorligini ta`minlash yo`llari.

Inflyatsiyaga qarshi siyosat iqtisodiy siyosat turlaridan biridir. Inflyatsiyaga qarshi siyosat deganda biz tashqi yoki ichki institutsional sub`ektlarning quyidagi chora-tadbirlarini (harakatlarini) tushunamiz: inflyatsiya jarayonlarini prognoz qilish, real inflyatsiya ko`rsatkichlarini hisobga olish, ularni o`shirish jarayonida cheklash, shuningdek eng muhim makroiqtisodiy maqsadlarga erishishga to`sqinlik qiladigan holatlarda ularning o`shirishiga qarshi kurashish.

Inflyatsiyaga qarshi samarali siyosatni tanlash uchun bir qator omillarni hisobga olish muhimdir: uni qo`llash davri va shartlari, amalda amalga oshirish imkoniyati, innovatsion iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy tarkibiy qismlariga ta`siri, samaradorligi va boshqalar. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti inflyatsion xarakterga ega, chunki inflyatsiyaning barcha omillarini (byudjet taqchilligi, monopoliyalar, milliy iqtisodiyotdagi nomutanosibliklar, aholi va tadbirkorlarning inflyatsion kutishlari, tashqi iqtisodiy kanallar orqali inflyatsiyani haddan tashqari ko`tarish va hk) yo`q qilish mumkin emas. SHu sababli, inflyatsiyani butunlay yo`q qilish haqiqatga to`g`ri kelmasligi aniq va ko`pgina davlatlar uni o`rtacha, boshqariladigan va uning halokatli ko`lamini oldini olishni maqsad qilib qo`yishgan. Inflyatsiyaga qarshi siyosat faol bo`lishi mumkin, bu pulning qadrsizlanishini va narxlarning oshishini cheklash uchun

mo`ljallangan va inflyatsiya ta'sirini yumshatishga qaratilgan adaptiv bo`lishi mumkin. Zamonaviy sharoitda rivojlangan mamlakatlar hukumatlari inflyatsiya jarayonlari bilan muvaffaqiyatli kurashishni, ularning me'yorini va boshqarilishini ta'minlashni o`rgandilar.

Masalan, zamonaviy keynschilik dini vakillari faol talabga ta'sir o`tkazish uchun faol fiskal siyosatni - davlat xarajatlari va soliqlarini manevr qilishni nazarda tutadilar. Inflyatsion, ortiqcha talab bilan davlat o`z xarajatlarini cheklaydi va soliqlarni oshiradi. Natijada talab pasayib, inflyatsiya pasaymoqda. Biroq, shu bilan birga, ishlab chiqarishning o`sishi ham cheklangan bo`lib, bu iqtisodiyotdagi turg'unlikka va hatto inqirozli hodisalarga, ishsizlikning kengayishiga olib kelishi mumkin. Keynsiya dasturlarining muqarrar natijasi sifatida davlat byudjeti taqchilligi hech qanday tarzda qo`shimcha pul emissiyasi bilan qoplanmasligi kerak. Keyns nazariyasiga muvofiq (1.14-rasm), ishsizlik darajasi yuqori bo`lgan holda, davlat xarajatlarni ko`paytirish va, avvalambor, dastlabki hukumatning 4 ta investitsiyasini amalga oshirish va xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish orqali umumiy talabni ko`paytirishi kerak. Xuddi shu paytni o`zida, iste'mol, sarmoyalar va davlat xarajatlari, ishlab chiqarish rivojlanib, aholining bandligi va turmush darajasi oshmoqda.

1978 va 1980 yillarda to`liq 1973 va 1975 yildagi amaldagi holatlar to`liq qaytarildi. 1978 yilga iqtisodiyot 1973 va 1974 yildagi shokli taklifdan so`ng deyarli tiklandi, biroq yangi xosil va neft baxosini ikkimarotobaga ortdi (Erondagi siyosiy to`natarish natijasida), yangitdan egri yalpi taklif chap tomonga keskin qo`shildi. YAna 25.6 rasi va 25.4 jadvalga shuni ko`rsatmoqdaki inflyatsiya va ishsizlik keskin ortgan¹.

Iqtisodiyotda yashirin inflyatsiya yuzaga chiqqanda mahsulotlarning narx-navosi hamda aholini daromadlarini o`sishi vaqtincha to`xtatiladi. YAshirin inflyatsiyani vujudga kelishini asosiy sabablaridan biri bu narxlar ustidan ma`muriy nazorat o`rnatishdir. Buning natijasida bozor mexanizmi deformatsiyalanadi. Uning qaysi darajada va o`zgarganligi darajasi va davomiyligi davlat tomonidan olib boriladigan siyosatga hamda tartibga solish shakliga bevosita bog`liq bo`ladi. Ushbu inflyatsiyaning salbiy tomoni shundan iboratki,

¹ Mishkin F. The Economics of Money, Banking and Financial Markets (Global edition 11th Edition)(Деньги, кредит и банки). Pearson. United Kingdom, 2015. 645 бет

inflyatsiya davrida ishsizlik darajasi oshadi, chunki ishlab chiqarish rivojlanmaydi.

Har bir mamlakatda inflyatsiya mavjudligi undagi iqtisodiy holatning yomonlashuviga sabab bo'ladi. Ushbu salbiy holatlar quyidagi yo'nalishlarda yuzaga chiqadi:

1) Ishlab chiqarish xajmi qisqaradi, chunki narx-navolarning doimiy tarzda tebranib turishi ishlab chiqarishni rivojlantirishga bo'lgan istiqbollarga ishonchni yo'qotishga olib keladi;

2) Ishlab chiqarish sohasidagi kapital savdo va vositachilik operatsiyalariga oqib o'tishi kuzatiladi. Chunki savdo va vositachilik sohalarida kapital aylanishi tez amalga oshadi va katta foyda keltiradi. Inflyatsiya yuqori bo'lgan davrda aholi o'rtasida puldan qochish holati kuzatiladi, ya'ni kishilar qo'llaridagi pullardan imkoniyat darajasida tezroq sarflashga harakat qiladilar. Ular pullarga turli tovarlar sotib oladilar. Buning natijasida savdo va vositachilik do'konida tovarlar tez sotiladi;

3) Narx-navoning keskin va notekis o'zgarishi natijasida chayqovchilik kengayadi. Inflyatsiya natijasida tovar tanqisligi (defitsit) yuzaga chiqadi. Ushbu taqchilik narx-navoning keskin ko'tarilishiga olib keladi;

4) Davlat moliya resurslari qadrsizlanadi. Davlat byudjeti daromadlari byudjet xarajatlari amalga oshirilguncha qadar davrda qadrsizlanadi. Byudjet daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi mutanosiblikni saqlash qiyinlashadi va buning natijasida byudjet taqchilligi (defitsiti) yuzaga chiqadi;

5) Mamlakatda kredit operatsiyalari cheklanadi. Chunki inflyatsiya darajasi tufayli yuridik va jismoniy shaxslarga tijorat banklaridan beriladigan kreditlarning foiz darajasini yuqori darajada o'rnatiladi. Ushbu salbiy holat ishonchni pasaytiradi.

Inflyatsiyaning eng asosiy ijtimoiy oqibati bo'lib daromadlar va boyliklarni qayta taqsimlanishi amalga oshishi hisoblanadi. Ushbu qayta taqsimlanishi quyidagi omillar natijasida amalga oshadi:

- mamlakat aholisining daromadlari indeksatsiya qilinmasligi;
- tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan kreditlar baholar indekslarining o'zgarishini hisobga olinmagan holda berilishligi.

Inflyatsiya shart-sharoitlarida mamlakatda ichki mahsulot va milliy daromad quyidagi yo'nalishlarda qayta taqsimlanadi:

1) Milliy iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish sohalari va mamlakat xududlari o'rtasida narx-navoning notekis o'sishi natijasida;

2) Mamlakat aholisi va davlat o'rtasida. Bunda davlat tomonidan muomaladagi ortiqcha pul massasidan qo'shimcha daromad sifatida foydalanadi. Xalqaro amaliyotda bu inflyatsion soliq deb nomlanadi;

3) Mamlakat aholisining sinflari va turli toifalari o'rtasida.

Mahsulotlar va xizmatlarga bo'lgan narx-navoning notekis o'sib ketishi natijasida aholi o'rtasida ijtimoiy toifalarga bo'linishini (boylar, kambag'allar, qashshoqlar), mulkiy holatidagi farqni chuqurlashuviga, jamg'armalar va joriy iste'molning keskin o'zgarishi yuzaga chiqadi. Inflyatsiyaning ijtimoiy salbiy ta'siri eng avvalo qat'iy belgilangan daromadlari oluvchi shaxslar hisoblangan – nafaqaxo'rlar, nogironlar, ko'p farzandli oilalar va davlat xizmatchilari (o'qituvchilar, vrachlar, bog'cha xodimlari va boshqalar) uchun juda og'ir kechadi;

4) Debitorlar va kreditorlar o'rtasida. Ushbu holatda olingan qarzlarni pul qadrsizlanishi natijasida debitorlar daromad oladi va buning aksi, kreditorlar qo'shimcha zarar ko'radi.

Jaxonning iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarida inflyatsiyaga qarshi kurash olib borishda juda katta nazariy va amaliy tajriba to'plangan. Inflyatsiyani butunlay yo'qotish imkoniyati yo'q. Chunki uni yuzaga chiqishiga sabab bo'lgan omillarni (ichki va tashqi, pullik va pulsiz) to'liq yo'qotish mumkin emas. SHuning uchun hozirgi davrda eng asosiy maqsad inflyatsiyaning butunlay yo'qotish emas, balki uni boshqaruvchan qilish va uning salbiy iqtisodiy – ijtimoiy oqibatlarini zaiflashtirish hisoblanadi.

Dunyoning turli mamlakatlarida xukumat tomonidan mavjud iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda inflyatsiyaga qarshi turli antiinflyatsion siyosatni ishlab chiqaradilar va uni amalga oshiradilar. Davlat tomonidan antiinflyatsion siyosatni olib borishda turli chora-tadbirlar hisoblangan byudjet, ijtimoiy, soliq, baho, kredit-moliya, sanoat-investitsiya, tashqi iqtisodiy va emissiyani amalga oshiradilar.

Byudjet siyosati – bu davlatning asosiy iqtisodiy siyosati hisoblanadi va uning asosiy maqsadi mamlakatning aniq belgilangan muddat mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari belgilanadi va amalga oshiriladi. Byudjet siyosati yordamida soliqlar va yig'imlar assoida yig'ilgan davlat moliya

resurslarini umummilliy vazifalarini bajarish uchun qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi. Byudjet siyosatining asosiy tarkibiy qismi bo`lib ijtimoiy siyosat hisoblanadi. Chunki mamlakatdagi ijtimoiy tadbirlarni moliyalashtirish asosan davlat byudjeti tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq siyosati – bu davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vazifalarini bajarishi uchun zarur moliya mablag`larini yig`ish uchun xo`jalik yurituvchi sub`ektlar va mamlakat aholisidan soliqlar, to`lovlar xamda majburiy ajratmalarni belgilash, ularni undirish yuzasidan qonun asosida belgilangan tizimdir.

Baho siyosati – bu mahsulotlar, xizmatlar va to`lovga qobiliyatli talab o`rtasidagi mutanosiblikga erishish hamda uni tartibga solib turish bilan bog`liq siyosatdir.

Kredit-moliya siyosati – bu Markaziy bank tomonidan qayta moliyalashtirish stavkasi, majburiy zahiralar me`yori va ochiq bozordagi operatsiyalar orqali mamlakat bank-kredit tizimini boshqarish hamda tartibga solib turishdan iborat.

Sanoat-investitsiya siyosati – bu yalpi ichki mahsulotning o`shishini ta`minlovchi mamlakat sanoat-texnologik qudratini rivojlantirishga qaratilgan siyosatdan iborat.

Tashqi iqtisodiy faoliyat siyosati – bu davlat tomonidan xorijiy mamlakatlar bo`lib tashqi iqtisodiy faoliyatni boj-tarif dastaklari yordamida tartibga solib turishdan iboratdir.

Emissiya siyosati – bu Markaziy bank tomonidan milliy iqtisodiyotning holatiga asosan muomalaga qog`oz pul chiqarish, ularning aylanishini tartibga solish va muomaladagi ortiqcha pullarni aylanmadan chiqarib turishdan iborat siyosatdir.

Dunyoning har bir mamlakatidan xukumat tomonidan antiinflyatsion siyosati mavjud inflyatsiyani tartibga solishga hamda uni o`shirish sur`atlarini pasaytirishga qaratilgan bo`lishi lozim. Bunday siyosatni olib borishda asosan ikki shakllardan foydalaniladi:

- 1) Pul islohotlarini amalga oshirish;
- 2) Inflyatsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solib turish;

Pul islohotlari – bu mamlakatdagi pul muomalasini tartibga solish va kuchaytirish maqsadida davlat tomonidan mavjud pul tizimini to`liq yoki qisman o`zgartirishlarini amalga oshirishdir. Mamlakatning iqtisodiy rivojlangan holati, pullarning ta`minlanganligi darajasiga asosan pul islohotlarining revalvatsiya, devalvatsiya va

denominatsiya usullaridan foydalaniladi. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlardan Germaniya Federativ Respublikasi, Isroil va boshqalarda revalvatsiya usulidan foydalanildi. Revalvatsiya o'z mohiyatiga asosan milliy pul birligini xorijiy valyutaga nisbatan kursini ko'tarib qo'yishdan iborat. Pul islohotining ikkinchi usuli bo'lib devalvatsiya hisoblanadi. Devalvatsiya o'z mohiyatiga asosan milliy pul birligini xorijiy valyutaga nisbatan tushirib qo'yishdan iborat. Devalvatsiya usulidan asosan iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o'tayotgan mamlakatlarda keng foydalaniladi. Pul islohotining uchinchi usuli bo'lib denominatsiya hisoblanadi. Denominatsiya o'z mohiyatiga asosan milliy pul birligidagi ortiqcha nollarni olib tashlab muomalaga yangi pullarni chiqarishdan iborat. Denominatsiya usulida Rossiya (3 dona nolni olib tashladi) va Turkiya (liradan 6 dona nolni olib tashladi) hukumatlari foydalanishdi.

Inflyatsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solib turish o'z mohiyatiga asosan mamlakatda mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narx-navolarni o'sib borishini cheklash va pul tizimini barqarorlashtirish maqsadida davlat tomonidan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat. Ushbu chora-tadbirlar ikki yo'nalishda olib boriladi:

1)Deinflyatsion siyosat. Ushbu siyosat mamlakatda pulga bo'lgan talabni pul-kredit va moliya mexanizmlari yordamida tartibga solib turiladi. Deinflyatsion siyosat davlat xarajatlarini qisqartirish, kreditlar uchun foiz stavkalarini oshirish, soliq yukini kuchaytirish (soliqlar soni va ularni foiz stavkalarini ko'tarish) va pul massasini cheklashni o'z ichiga oladi. Shuni ta'kidlash lozimki, deinflyatsion siyosat mamlakatdagi iqtisodiy o'sishni sekinlashuviga sabab bo'ladi;

2)Daromadlar siyosati. Ushbu siyosat olib borishda davlat tomonidan mahsulotlar, ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlarga bo'lgan narx-navo va ish haqi ustidan birdaniga nazorat etiladi hamda ularni o'sishini ma'lum chegarasi o'rnatiladi yoki butunlay «muzlatib» qo'yiladi. Daromadlar siyosati o'z mohiyatiga ko'ra qat'iy siyosat hisoblanadi va u aholi o'rtasida norozilikni kelib chiqarishi mumkin. Lekin inflyatsiya bilan kurashishda ayrim mamlakatlarda daromadlar siyosatidan foydalaniladi.


3)Xulosa kilib aytganda, ijtimoiy ishlab chikarish rivojlanishida yuzaga keluvchi disproporsiyalar sababli tovarlar va xizmatlar bahosining umumiy yoki to'xtovsiz o'sishi va natijada pul muomalasi

qonunning buzilishi oqibatda pul birligining qadrsizlanishiga inflyatsiya deb aytiladi.

6.5. Inflyatsiyaning makroiqtisodiy o`sinh sur`atlariga ta`siri.

Inflyatsiya asosan uch yo`nalishda yuzaga chiqadi. Birinchi yo`nalishda mahsulotlar, ishlar va ko`rsatiladigan xizmatlarga bo`lgan narxlarni asossiz ravishda o`sib ketishi tufayli pul qadrsizlana boshlaydi. Buning natijasida milliy valyutaning xarid qilish qobiliyati tushib ketadi. Ikkinchi yo`nalishda, xorijiy valyutalarga nisbatan milliy valyutaning kursi pasayib ketadi. Buning natijasida xo`jalik yurituvchi sub`ektlar va mamlakat aholisi erkin muomaladagi xorijiy valyutalari (AQSH dollari, evro, shveysariya franki va boshqalarni) jamg'ara boshlaydi. Uchinchi yo`nalishda oltinga bo`lgan milliy pul birligida ifodalangan narx ko`tarilib ketadi. Buning natijasida mamlakat aholisi o`rtasida oltinning to`planib qolishi, ya`ni tezavratsiya amalga oshadi.

Inflyatsiyaning yuzaga chiqish shakllari.




6.7.-rasm. Inflyatsiyaning yuzaga chiqish shakllari¹

¹ Чизма муалллиф томонидан ишлаб чиқилган

2018 yilda inflyatsion jarayonlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan makroiqtisodiy sharoitlar o'tgan yillardagi sharoitlardan keskin farqlandi.

Oldingi yillarda byudjetning ob'yektiv ahamiyatdagi xarajatlari (faqat profitsit bilan ijro etish maqsadida) qisqartirilishi yoki zarur darajada shakllantirilmagani hal etilishi lozim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar to'planib qolinishiga va bugungi kunda ularning kechiktirmasdan echilishi zaruriyatini tug'dirmoqda.

2018 yilda byudjet defitsiti YAIMga nisbatan 1,2 foizni tashkil etishi kutilmoqda va bu, o'z navbatida, ko'zda tutilgan barcha xarajatlarning to'liq hajmda amalga oshirilishini anglatadi. Bunday sharoitda byudjet siyosati iqtisodiyotda yalpi talabni oshirish orqali inflyatsiyaga bosimni vujudga keltiradi.



6.8.Rasm. Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

Mazkur yilda ichki bozorda, ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari bozorida raqobat muhitining birmuncha yaxshilanganligi ko'zga tashlandi va bu ma'lum bir mahsulotlarning mavsumiy etishmasligi natijasida yuzaga keladigan narxlar oshishining import hisobiga oldini olish imkonini berdi. Bunda almashuv kursining nisbatan barqarorligi hamda ba'zi yuqori talabga ega tovarlar uchun import bojlarining bekor qilinishi va respublikaning chegara oldi hududlarida savdo faoliyati erkinlashtirilganligi muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan,

2018 yilda shakar, kartoshka, o`simlik yog`i, shaxsiy gigiena va tozalash vositalari hamda maishiy texnika kabi tovarlar narxlari o`tgan yillarga nisbatan barqaror bo`lganligini keltirish mumkin.

SHuningdek, 2018 yilda yuqori investitsion talab yoki qurilish ishlari hajmi ortishi natijasida qurilish mollari narxlari keskin oshishi kuzatildi. 2018 yilning sentyabr` oyida qurilish mollari narxi yillik hisobda 25,8 foizga oshgan bo`lsa, bu ko`rsatkich 2017 yilning shu davrida 8,3 foizni tashkil etgan.

Bundan tashqari, 2018 yilda inflyatsiya darajasining shakllanishida yangi sharoit sifatida davlat tomonidan ma`muriy tartibga solinadigan tovar va xizmatlar narxlarini erkinlashtirish siyosatining boshlanishi inflyatsiyaning joriy holati va o`rta muddatli istiqboldagi kutilmalarga tegishli ta`sirini ko`rsatdi.

Narxlarni erkinlashtirishning dastlabki bosqichida ma`muriy tarzda tartibga solinadigan tovar va xizmatlar narxlarini ularning ishlab chiqarish tannarxidan past bo`lmagan darajada oshirilishi talab etiladi. Bunda narxlar erkinlashtirilishi va raqobat muhiti shakllantirilishi natijasida inflyatsion bosim vaqt o`tishi bilan kamayib boradi. Misol tariqasida 2018 yil sentyabrida amalga oshirilgan birinchi navli bug`doy uni va undan tayyorlanadigan qolipli non (buxanka) narxlari oshirilishini keltirish mumkin.

Markaziy bank pul-kredit siyosati bo`yicha qarorlar qabul qilishda va o`z maqsadlarini belgilashda iste`mol narxlari indeksi bo`yicha hisoblangan inflyatsiya darajasini tahlil va prognoz qilib boradi. Xalqaro amaliyotda inflyatsiyani o`rganishda iste`mol narxlari indeksidan tashqari yalpi ichki mahsulot (YAIM) deflyatoridan ham keng foydalaniladi.

YAIM deflyatori hisoblash metodologiyasi, qamrovi va shakllanish sabablari bo`yicha iste`mol narxlari indeksidan farq qilsada, iqtisodiyot tarmoqlaridagi umumiy narxlar o`zgarishini o`zida aks ettirganligi va kelgusida mazkur omillarning iste`mol narxlari indeksi bo`yicha hisoblanadigan inflyatsiya darajasiga ta`siri yuqoriligini inobatga olib, Markaziy bank YAIM deflyatorini ham muntazam tahlil qilib boradi.

2018 yilda YAIM deflyatori dinamikasida sezilarli o`shish kuzatildi. Xususan, 2017 yilning yakuni bo`yicha YAIM deflyatori inflyatsiya darajasiga yaqin bo`lgan bo`lsa, 2018 yilning 9 oyi yakuni bo`yicha inflyatsiyadan 2 barobarga yuqori bo`ldi.

Mazkur davrda valyuta almashuv kursi deval'vatsiyasi hisobiga tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarda mahsulot va xizmatlar nominal hajmining oshishi YAIM deflyatorining keskin o'sishiga sabab bo'ldi. Jumladan, oldingi chorakka nisbatan tog'-kon sanoati, qurilish, transport va aloqa sektorlarining YAIM deflyatoridagi hissasi 3 barobarga ortdi (2-rasm).



6.9-rasm. Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

2018 yilning 3-choragiga kelib YAIM deflyatori 31,6 foizga teng bo'ldi. Uning pasayishiga asosan deval'vatsiya effektining kamayib borishi va almashuv kursining barqarorligi ta'sir ko'rsatdi.

Deflyatorning YAIMning xarajatlari tarkibi bo'yicha tahlili 2018 yildagi o'sish asosan yalpi qo'yilmalar deflyatori keskin oshishi evaziga shakllanganligini ko'rsatmoqda, bu, o'z navbatida, iqtisodiyotga xorijiy valyutadagi investitsiyalar hajmining ortishi va milliy valyuta almashuv kursining deval'vatsiyasi bilan izohlanadi (2-rasm). Tahlillarga ko'ra, deval'vatsiyaning deflyatorga ta'siri 2019 yil birinchi choragiga qadar kuzatilishi kutilmoqda.


YAkuniy xarajatlari deflyatorlarida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Jumladan, 2018 yil boshidan davlat tashkilotlari xarajatlari deflyatori tez sur'atda ortib borib, sentyabr oxiriga 38 foizgacha ko'tarilishi kuzatildi. Bunga byudjet tashkilotlari oyliklari

indeksatsiyalanishi, davlat sektorida ish o`rinlari ko`payishi va boshqa xarajatlar oshishi asosiy omil bo`ldi.

SHuningdek, ushbu davrda uy xo`jaliklari xarajatlari deflyatori dinamikasi iste`mol narxlarini indeksi o`zgarishiga mos bo`ldi. Qayd etish joizki, davlat tashkilotlari xarajatlari deflyatori oshib borishi kelgusida iste`mol narxlarining oshishiga olib kelishi taxmin qilinmoqda.

Iste`mol narxlarini indeksi

Inflyatsiyani amaliyotda ifodalashda keng qo`llaniladigan ko`rsatkich iste`mol narxlarini indeksi (INI) hisoblanadi. 2018 yildan boshlab O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi iste`mol narxlarini indeksini hisoblashda o`zgarmas vazn usulidan foydalanmoqda. Iste`mol narxlarini indeksi kundalik iste`mol tovar va xizmatlari narxlarini o`zida aks ettirgani sababli inflyatsiyani yaqqolroq namoyon etadi. Mamlakatimizda 2018 yilning birinchi yarim yilligida nisbatan yuqori inflyatsion bosim kuzatildi, bu asosan aprel'-may oylarida yoqilg'i-energetika mahsulotlari narxlarining oshirilishi, o'tgan yilga nisbatan ob-havoning nisbatan qurg'oqchil kelishi va o'tgan yillarda inflyatsiya bazasining pastligi bilan izohlanadi (3-rasm).



6.10-rasm. Manba: Davlat statistika qo`mitasi ma`lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

Bunda so`m almashuv kursining mustahkamlanishi, mintaqadagi davlatlar bilan savdo iqtisodiy aloqalar jadallashishi, shuningdek, import hisobiga bozorlarning ijtimoiy ahamiyatga ega ayrim mahsulotlar bilan to`yinganligi inflyatsiya sur`ati yanada tezlashishining oldini olishga ma`lum darajada xizmat qildi.

Yoz oylarida meva-sabzavot mahsulotlarining sezilarli arzonlashishi hisobiga keyingi oylarda yillik inflyatsiya darajasi pasayib bordi. Agar 2017 yilning iyun'-avgust oylarida meva-sabzavotlar narxlari oshishi inflyatsiyani keltirib chiqaruvchi asosiy omil (drayveri) bo`lib, ularning umumiy inflyatsiyadagi hissasi o`rtacha 5 foiz bandni tashkil etgan bo`lsa, 2018 yilning mos davrida ushbu ko`rsatkich 0,6 foiz bandni tashkil etdi. 2018 yil boshidan nooziq-ovqat tovarlar va xizmatlarning iste`mol narxlari o`shidagi hissasi tobora ko`payib borayotgan bir vaqtda, oziq-ovqat mahsulotlarining hissasi, aksincha, kamaydi.



6.11-rasm. Manba: Davlat statistika qo`mitasi ma`lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

Shunga qaramasdan, 2018 yilning birinchi yarmida oziq-ovqat narxlarining o`shish sur`ati yuqori bo`lib (yillik hisobda 20 foizdan ortiq), bunga asosan ichki bozorda mazkur mahsulotlar taklifining kamayishi ta`sir ko`rsatdi (4-rasm). Noqulay ob-havo sharoiti ta`sirida mahalliy go`sht mahsulotlari va guruchning taklif

hajmi etarli darajada bo`lmaganligi ular narxlarining o`shishiga olib keldi. Ozuqa narxлари oshishi hisobiga chorvachilik xarajatlari ko`payishi go`sht narxiga qo`shimcha bosim ko`rsatayotganligi kuzatilmogda.

Mazkur davrda oziq-ovqat mahsulotlari narxлари shakllanishiga go`sht mahsulotlari narxi oshishi sezilarli ta`sir ko`rsatdi. Xususan, 2018 yilning yanvar'-sentyabr oylarida mol go`shti va qo`y go`shti narxi yillik hisobda mos ravishda 28,8 va 27,3 foizga qimmatlashdi. Ularning umumiy oziq-ovqat mahsulotlari narxлари o`sishdagi oylik hissasi 2017 yilning mos davriga nisbatan 3,1 foiz bandga oshib, o`rtacha 7,6 foiz bandni tashkil etdi. Ichki bozorlarda go`shtning narxi chegaradosh mamlakatlardagi o`rtacha narxlar darajasiga etganligi sababli go`shtning ichki taklifi etishmovchiligi go`sht mahsulotlari va chorva mollarining importi hisobiga qisman qoplana boshlandi. Xususan, 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida go`sht mahsulotlari va chorva mollarining importi 2017 yilning shu davriga nisbatan mos ravishda 81,6 va 43,5 foizga oshdi.

Bundan tashqari, oziq-ovqat mahsulotlari qimmatlashishining yana bir omili ularning faol savdo-sotiq olib borilayotgan qo`shni davlatlar narxлари bilan moslashishi bo`ldi. Xususan, O`zbekiston ichki bozorlarida meva-sabzavotlar narxlarining nisbatan past bo`lganligi sababli, ushbu mahsulotlarga chegaradosh respublikalarda yuqori talab shakllanmogda.

Tashqi savdoni erkinlashtirish sharoitida mahalliy mahsulotlar eksportining (asosan meva-sabzavotlar) sezilarli darajada o`shishi ichki bozorlarda ushbu mahsulotlar narxlarining tashqi narxlarga moslashishiga olib keladi. 2018 yilning yanvar'-sentyabr' oylarida meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 2017 yilning mos davriga nisbatan 47,7 foizga yoki 205 mln. AQSH dollariga oshgan. Mazkur davrda jami oziq-ovqat mahsulotlari eksportida meva-sabzavotlar ulushi 77 foizni tashkil etdi.

SHuningdek, 2018 yilda, oldingi yillardan farqli o`laroq, shakar, kartoshka va o`simlik yog`i narxлари barqaror bo`ldi va inflyatsiyaga deyarli ta`sir ko`rsatmadi. Xususan, 2018 yilning sentyabr' oyida shakar narxi yillik hisobda 5,8 foizga arzonlashgan bo`lsa, 2017 yilning mos oyida uning narxi 29,8 foizga qimmatlashgan edi. Bu ijobiy dinamika ushbu bozorda raqobat muhiti yaxshilangani va jahon bozorlarida shakar narxi pasaygani hisobiga vujudga keldi. Bunda

2018 yilning yanvar'-sentyabr' oylarida shakar import qilish hajmi 2017 yilning mos davriga nisbatan 2,5 foizga oshdi.

2018 yilning III choragida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining yoz mavsumida meva-sabzavotlar sezilarli darajada arzonlashishi hisobiga o'sish sur'atining sekinlashishi mavsumiy omillar ta'sirida bir maromda qayta tiklanmoqda. SHu bilan birga, joriy yilda qishloq xo'jaligida kuzatilgan suv tanqisligi sabzavotlarning kuzgi hosili bozorlarga kirib kelishi hajmida va ularning narxlarida aks etmoqda.

Nooziq-ovqat tovarlari narxlarini dinamikasi o'zgarishi, odatdagidek, oziq-ovqat mahsulotlari narxlariga nisbatan past bo'lib, 2018 yilning mart oyida 19,5 foizgacha tezlashishdan so'ng bosqichma-bosqich pasayib bordi. 2018 yilning yanvar'-sentyabr' oylarida nooziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishida kurilish materiallarining hissasi sezilarli bo'ldi. Bunda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2017 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada oshib, mazkur investitsiyalarning qariyb yarmi qurilish-montaj ishlari uchun sarflanganligi qurilish materiallariga bo'lgan yuqori talabni vujudga keltirdi.

2018 yilning iyul-avgust oylarida nooziq-ovqat tovarlari narxlarining oshishi tezlashishiga ko'mir, propan, engil avtomobillar va kantselyariya mollari narxlarini oshishi ham katta ta'sir ko'rsatdi. Joriy yilning birinchi yarmida inflyatsion bosimning pasayishiga xizmat qilgan import narxlarini, ikkinchi yarim yillikda so'mning almashuv kursi qadrsizlanishi va chegaradosh davlatlardan maishiy texnikani bojsiz olib kirishga joriy qilingan yangi cheklovlar nooziq-ovqat tovarlari narxlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2018 yilning yanvar'-may oylarida xizmat ko'rsatish sohasidagi inflyatsiya, asosan, kommunal xizmatlar tariflarining oshishi sharoitida o'sish tendentsiyasiga ega bo'ldi. Xususan, aprel' oyida xizmatlar inflyatsiyasining birinchi keskin ko'tarilishi, asosan, elektr energiyasi va tarmoqli tabiiy gaz tariflari oshishi hisobiga kuzatildi. May oyida yoqilg'i-energetika mahsulotlari qimmatlashganidan keyin isitish va suv ta'minoti tariflari oshirildi. 2018 yilning iyun'-avgust oylarida yillik xizmatlar inflyatsiyasi dinamikasi sekinlashdi, ammo sentyabr' oyida oliy ta'lim muassasalarida shartnoma asosida o'qish uchun to'lovlarning sezilarli darajada oshirilishidan so'ng u yana tezlashdi.

2018 yilda xizmatlarning umumiy inflyatsiyadagi hissasi oldingi yillarga nisbatan oshayotganligi kuzatilmoqda. Xususan, xizmatlarning inflyatsiyadagi oylik hissasi 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida oʻrtacha 2,5 foiz bandini tashkil etdi, 2017 yilning mos davrida esa ushbu koʻrsatkich 1,9 foiz boʻlgan. Ushbu tendentsiya tartibga solinadigan narxlarning erkinlashtirilishi fonida, birinchi navbatda, yoqilgʻi-energetika va monopol korxonalar narxlari erkinlashtirilishi va bozor narxlari hamda xizmatlar tariflarining bunga mos ravishda toʻgʻrilanishi hisobiga yuz berdi.


Maʼmuriy tartibga solinadigan narxlar

2018 yilning 9 oyida maʼmuriy tartibga solinadigan mahsulot va xizmatlar narxlarini erkinlashtirish jarayoni davom etayotganligi sababli ularning oʻrtacha narxi umumiy inflyatsiyadan farqli oʻlaroq faqatgina oʻsuvchi trendga ega boʻldi. Bunda tartibga solinadigan narxlarning shakllantirilishi diskretsion (noboʻzor, hech qanday qonuniyatga boʻysunmaydi) xususiyatligi hisobiga ularning oʻsishi yuqori tezlikka ega ekanligi va keskin tebranuvchanligi bilan boshqa narxlar oʻzgarishidan farq qiladi.

Xususan, aprel-may oylarida kommunal xizmatlar tariflari, sentyabr oyida birinchi navli un narxi va noyabr oyida elektr energiyasi, tabiiy gaz va benzin narxlari oshirildi hamda sentyabrda qoliqli non narxini erkinlashtirish boʻyicha harakatlar boshlandi. Buning natijasida tartibga solinadigan narxlarning yillik inflyatsiyadagi hissasi 2017 yil dekabriga nisbatan 2 barobarga ortdi (5-rasm).

Taʼkidlab oʻtish joizki, kelgusi 2-3 yil davomida tartibga solinadigan narxlarning erkinlashishi iqtisodiyotda inflyatsion bosimning saqlanib turishiga sabab boʻladi. Kelgusida ularning inflyatsiyadagi hissasi kamayishi davlat ulushi mavjud monopol korxonalarini isloh qilish boʻyicha chora-tadbirlarning samaradorligiga bogʻliq boʻladi. Tartibga solinadigan narxlarning erkinlashtirilishi iqtisodiyotdagi nomutanosibliklarni kamaytirish uchun zarur chora hisoblanadi. Birinchidan, u nisbiy narxlarning toʻgʻrilanishiga imkon yaratadi. Hozirgi vaqtda mahalliy yoqilgʻi-energetika mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning amaldagi ichki narxlari mintaqa boʻyicha oʻrtacha qiymatdan past, bu esa ushbu resurslardan samarasiz foydalanishga olib kelmoqda va ishlab chiqaruvchilar moliyaviy holatiga sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda.

**ИНИ таркибида тартибга солинадиган нархлар
ва базавий инфляция ҳиссалари ўзгариши**
(фойзда, ИНИдаги ҳиссаси)



6.12-rasm. Manba: Davlat statistika qo`mitasi ma`lumotlari
asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

Bunday vaziyatda yoqilg'i- energetika mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlarining boshqa narxlarga nisbatan tezroq oshirilishi, ya`ni nisbiy narxlarning to`g`rilanishi ularga signal funktsiyasini bajarishga hamda energoresurslarning mavjudligi yoki cheklanganligining real holatini aks ettirishga imkon yaratadi.

Ikkinchidan, bu, yoqilg'i-energetika sohasidagi davlat korxonalarini isloh qilishning asosiy sharti hisoblanadi. Ishlab chiqarishga o`z-o`zini qoplashga yordam beradigan bozor tamoyillari asosida narxlar shakllanishiga o`tmadan turib ushbu korxonalarining asosiy fondlari yuqori darajada eskirganligi va buning natijasida ularning ishlab chiqarish unumdorligi pastligi bilan bog`liq muammolarni hal etish imkoniyati mavjud emas.

Uchinchidan, narxlarni liberallashtirish xususiy sub`ektlar, xususan, ichki va tashqi investorlar uchun ochiq bo`lgan raqobatbardosh bozor shakllantirilishida dastlabki shart-sharoitlarni yaratadi.

Ta`kidlash joizki, agar tartibga solinadigan narxlar umumiy narxlar darajasiga katta ta`sir ko`rsatadigan bo`lsa, Markaziy bankning inflyatsiyani jilovlash borasidagi samarali pul-kredit siyosatini

yuritishdagi imkoniyatlari cheklanib qoladi. INI tarkibida tartibga solinadigan narxlar ulushi qancha ko'p bo'lsa, pul-kredit siyosati transmission mexanizmining samaradorligi shuncha past bo'ladi, chunki bu narxlar Markaziy bankning xatti-harakatlari va bozor jarayonlaridan ta'sirlanmaydi. Hozirgi vaqtda INI savati tarkibida tartibga solinadigan narxlar ulushi 18 foizni tashkil etadi.

Bazaviy inflyatsiya

Bazaviy inflyatsiya iqtisodiyotdagi davomiy inflyatsion trendni yaqqolroq ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, qisqa muddatli, mavsumiy yoki doimiy tarzda o'zgarib turuvchi narxlar bilan bog'liq o'zgarishlarni (shoklarni) inobatga olmaydi. Markaziy bank bazaviy inflyatsiyani tartibga solinadigan narxlar hamda meva-sabzavot mahsulotlarining narxlarini iste'mol narxlari indeksi savatidan chiqarib tashlash yo'li bilan hisoblaydi. Ushbu yondashuv bilan pul-kredit siyosati choralari ta'sirchan narxlar dinamikasini kuzatib borish mumkin.

Bazaviy inflyatsiya ko'rsatkichi 2018 yilning mart oyida eng yuqori darajaga chiqib, keyingi oylarda sekinlashib, sentyabrda 15,5 foizni tashkil etdi (6-rasm). Bazaviy inflyatsiyaning sekinlashishi ayrim nooziq-ovqat tovarlari narxlarining o'sish tendentsiyalari pasayishi hisobiga vujudga keldi.



6.13-rasm. Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

Bundan tashqari, yillik bazaviy inflyatsiyaning yuqori darajasi iqtisodiyotda uzoq vaqt davomida sekin-asta kamayib boradigan turg'un inflyatsion jarayonlarning saqlanib qolayotganidan dalolat beradi. Bazaviy inflyatsiyaning sekin pasayishiga olib keladigan omillardan biri tartibga solinadigan narxlar oshirilishining ikkilamchi ta'siridir.

Shu bilan birga, 2017–2018 yillarda bazaviy inflyatsiyaning qiymati bir necha barobar ortishi bilan birga uning tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatildi (6-rasm).

Jumladan, 2017 yilning boshida bazaviy inflyatsiyaning 28 foizi oziq-ovqat mahsulotlari va 56 foizi nooziq-ovqat mahsulotlari narxлари oshishi evaziga shakllangan bo'lsa, 2018 yilning sentyabr' oyiga kelib oziq-ovqat mahsulotlari ulushi 51 foizga, nooziq-ovqat mahsulotlari ulushi 38 foizga teng bo'ldi. Ushbu davrda bazaviy inflyatsiyada oziq-ovqat tovarlaridan go'sht mahsulotlarining hisyasi katta bo'ldi. Xususan, 2018 yilning boshida mazkur guruhning hisyasi avvalgi yil boshiga nisbatan 6 barobarga oshib, 5 foiz bandni tashkil etdi va sentyabr' oyiga kelib 3 foiz bandgacha pasaydi. Nooziq-ovqat tovarlaridan kiyim-kechak va qurilish mollarining hissalari keskin oshdi. 2018 yilga kelib, kiyim-kechak va oyoq kiyimlar hisyasi 2 barobarga oshgan bo'lsa, qurilish mollarining bazaviy inflyatsiyadagi hisyasi 2017 yilning boshiga nisbatan 6 barobargacha oshdi.

6.5. Pul massasining o'sishini jilovlashga qaratilgan monetar siyosatni amalga oshirish

Hozirgi vaqtda inflyatsiya tabiatini o'rganishda iqtisodchi olimlar uning monetar sabablarini, ya'ni tovar masasiga nisbatan pul massasining xajmini o'zgarishini asosi qilib ko'rsatadilar. Inflyatsiya bilan olib boriladigan faoliyatda uning darajasini o'lash uchun dastak lozim bo'ladi. Ushbu dastak bo'lib baholar indeksi hisoblanadi. Baholar indeksi joriy umumiy iste'mol narxlarining bazis davridan narxlarga nisbatan o'sishi (pasayishi) bilan aniqlanadi. Ushbu indeksni aniqlashda mamlakat fuqorolarining iste'mol savatiga kiritilgan mahsulotlar va xizmatlarning chakana narxlaridan foydalanadilar. Ushbu formula quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{IPTS} = \frac{\text{PKt}}{\text{PKb}} \times 100 \%$$

Bu yerda: IPTS – iste`mol narxlarining indeksi;
 PKt - iste`mol savatining joriy narxi;
 Pkb - iste`mol savatining bazis narxi.

Inflyatsiya darajasining o`shishini bir bahosini o`shishi bilan aniqlash mumkin. Masalan 1 litr benzinning bazis davridagi narxi 500 so`m bo`lgan va uning joriy davrdagi narxi 585 so`mga teng. Demak, biz kuzatgan davr ichida 1 litr benzinning narxi 117 % ga ortgan.

Iqtisodiyotdagi narxlar darajasiga ta`sir ko`rsatuvchi asosiy omillardan biri inflyatsion kutilmalar hisoblanadi.

Inflyatsion kutilmalar aholi va tadbirkorlik sub`ektlarining kelgusidagi narxlar darajasi bo`yicha farazlari bo`lib, ular tomonidan iqtisodiy qarorlar qabul qilinishida muhim ahamiyat kasb etadi. Inflyatsion kutilmalar asosida ishlab chiqaruvchilar va iste`molchilar o`zlarining kelgusidagi moliyaviy rejalarini va narx-navo siyosatini shakllantiradilar.

Ishlab chiqaruvchilarning inflyatsion kutilmalari inflyatsiyaga taklif nuqtai nazaridan ta`sir ko`rsatadi. Kutilmalar oshgan holda, ishlab chiqaruvchilar kelajakda narxlarning oshishi hisobiga kutilayotgan qo`shimcha narxlarni o`z mahsulotlarining joriy narxlariga qo`shib qo`yadilar. Iste`molchilarning inflyatsion kutilmalari esa talab dinamikasiga ta`sir ko`rsatadi. Aholining inflyatsion kutilmalari oshgan sharoitda iste`molchilar kelgusida narxlar o`shishi tezlashib ketishidan xavfsirab, kelajak uchun tovarlarni ko`proq sotib ola boshlaydilar, bu esa talabni oshirib joriy narx-navoning o`shishiga olib keladi.


Bundan tashqari, inflyatsion kutilmalar iqtisodiyotdagi tadbirkorlik va investitsion faollikka, kreditlash va jamg`arish kayfiyatlariga, foiz stavkalariga va boshqa iqtisodiy jarayonlarga o`z ta`sirini ko`rsatadi.

SHu bois, inflyatsion kutilmalarni o`rganib borish va unga ta`sir ko`rsatish pul-kredit siyosatini samarali amalga oshirishda muhim rol o`ynaydi. SHuningdek, aholi va tadbirkorlik sub`ektlarining inflyatsion kutilmalari asossiz shakllanishining oldini olish maqsadida Markaziy bank kommunikatsiya kanallari orqali o`zi olib borayotgan

pul-kredit siyosati shaffofligiga va ochiqligiga, iqtisodiyotda ro`y berayotgan jarayonlar tahlilini yoritishga alohida e`tibor qaratmoqda.

Xususan, press-relizlar, sharhlar, axborot-tahliliy ma`lumotlar, prognozlar, interv`yu va bayonotlar orqali Markaziy bank qabul qilgan qarorlariga tushuntirishlar berib boradi hamda iqtisodiyotdagi holat va inflyatsion jarayonlarning rivojlanishiga o`z nuqtai nazarini bildiradi, bu esa aholi va korxonalarining kutilmalarini oydinlashtirishga yordam beradi.

SHu bilan birga, kommunikatsiya kanallarining inflyatsion kutilmalarga ta`sirchanligini oshirish – olib borilayotgan pul- kredit siyosatiga bo`lgan ishonchni izchillik bilan mustahkamlab borish hamda aholi va tadbirkorlik sub`ektlarining moliyaviy savodxonligini oshirib borishni taqozo etadi.




6.14-rasm. Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Iqtisodiyotdagi inflyatsion kutilmalarni baholash va ularga ta`sir qiluvchi omillarni aniqlash maqsadida 2018 yil boshidan boshlab Markaziy bank mamlakat bo`ylab aholi va tadbirkorlik sub`ektlari orasida muntazam so`rov o`tkazilishi amaliyotini joriy etdi. Ushbu so`rovlar davomida aholi va tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan

sezilayotgan inflyatsiya darajasiga, unga taʼsir qiluvchi omillar, kelgusi davr uchun inflyatsion kutilmalar va isteʼmol kayfiyatiga baho beriladi

2018 yil yanvar'-sentyabr' oylarida olib borilgan soʻrovlar natijalariga koʻra, ushbu davrda inflyatsion kutilmalarda sezilarli oʻzgarishlar kuzatildi. 2017 yil oxirida keskin jadallashgan inflyatsiya surʼatlari 2018 yil yanvaridan boshlab sekinlasha boshladi, bu esa joriy yilning birinchi choragida inflyatsion kutilmalarga ijobiy taʼsir koʻrsatdi.

Ikkinchi chorak davomida inflyatsion kutilmalar ayrim tartibga solinadigan narxlar oshishiga qaramasdan nisbatan past darajada saqlanib qoldi. Bunga meva-sabzavot narxlarining mavsumiy pasayishi borasidagi kutilmalar hamda ushbu davrda milliy valyuta almashuv kursining mustahkamlanishi sabab boʻldi (-rasm).



6.15-rasm. Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

Inflyatsion kutilmalar indeksi – kelgusida kutilayotgan inflyatsiya darajasini aniqlash boʻyicha berilgan savollarga respondentlar tomonidan belgilangan barcha javoblarning balanslashtirish usuli orqali umumlashtirilgan koʻrsatkichi. Indeks diapazoni 0 dan, barcha respondentlar narxlar pasayishini koʻrsatgan taqdirda, 1000 gacha, barcha respondentlar narxlar yuqori darajada oshishini kutayotganda.


2018 yil iyun oyidan boshlab aholi va tadbirkorlik sub`ektlarining inflyatsion kutilmalari oshishi kuzatildi. Bu qishloq xo`jalik mahsulotlari narxlarining mavsumiy o`shishi, ish haqi va kommunal to`lovlar tariflari oshishi bo`yicha kutilmalar bilan izohlanadi. Bundan tashqari, 2018 yil avgust oyidan boshlangan milliy valyuta kursining deval`vatsiyasi kutilmalarning oshishiga o`z hissasini qo`shdi. Umuman korxonalarining inflyatsion kutilmalari aholinikiga nisbatan ijobiyroq bo`ldi, ya`ni sentyabrdagi so`rovlar natijalariga ko`ra, ular jismoniy shaxslarga nisbatan narxlarining kamroq oshishini kutishgan. Xususan, yuridik shaxslarning 48 foizi narxlar o`shishi keyingi 12 oy ichida 13 foizdan oshmasligini ko`rsatgan bo`lsa, shunday kutilmalarga ega jismoniy shaxslarning ulushi 42 foizni tashkil etdi (-rasm).

Inflyatsion kutilmalar, o`z navbatida, iqtisodiy agentlarning narxlar darajasiga bo`lgan ishonchini aks ettirib, ularning iste`mol talabi shakllanishiga ta`sir etadi. SHu bilan birga, inflyatsion kutilmalarga asoslanib aholi o`z jamg`armalarini tasarruf qiladi. Jumladan, yuqori inflyatsion kutilmalar jamg`armalarni iste`molga sarflashga yoki jamg`arma o`rnini bosuvchi boshqa yuqori likvidli tovarlar xaridiga yo`naltirishga rag`bat uyg`otib, shu yo`l bilan iste`molga bo`lgan talabni orttiradi. SHuningdek, yuqori inflyatsion kutilmalar sharoitida aholi jamg`armalarini qadrsizlanishdan saqlash maqsadida ularni xorijiy valyutaga ayirboshlashi iqtisodiyotning dollarlashuv darajasining oshishiga olib keladi.

So`rov natijalariga ko`ra, hozirgi vaqtda respondentlarning yarmi o`zlarining jamg`armalarini tadbirkorlikka yo`naltirishga tayyorligini, boshqa qismi esa jamg`armalarini joriy iste`molga sarflashini bildirgan. Bu bilvosita respondentlarning inflyatsiyaning kelgusi dinamikasi borasida ikkilanayotganliklarini va iqtisodiyotda kelgusi narxlar darajasi bo`yicha noaniqliklar mavjudligini ko`rsatadi.

Bunda jamg`armalarning tadbirkorlik maqsadida ishlatilishi iqtisodiy faollikka ijobiy ta`sir ko`rsatib, kelgusida yalpi taklif oshishiga yordam beradi. Ushbu jarayon bilan bir vaqtda investitsion talabning kengayishi qisqa muddatli istiqbolda inflyatsiya o`shishiga olib kelishi mumkin, ammo uzoq muddatli istiqbolda unumdorlik va ishlab chiqarish hajmi oshishiga xizmat qiladi. SHu bilan birga, ta`kidlash joizki, o`z jamg`armalarini banklarda saqlashni ma`qul ko`ruvchi respondentlar ulushi tobora ko`payib bormoqda, bu esa

bank depozit foiz stavkalari jozibadorligi va aholining bank tizimiga ishonchi ortib borayotganini aks ettiradi.




6.16-rasm. Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

Bundan tashqari, inflyatsion kutilmalar kredit va depozit foiz stavkalari hamda kredit xizmatlari foydalanuvchilarining talabi shakllanishiga ta'sir o'tkazish orqali ularning iqtisodiyotdagi kreditlashga bo'lgan kayfiyatida ham namoyon bo'ladi. Xususan, inflyatsion kutilmalar oshishi kuzatilganda depozitlarning jozibadorligini saqlab qolish maqsadida ularning foiz stavkalari oshiriladi va bu o'z o'rnida kredit resurslari qimmatlashuviga hamda kredit foiz stavkalarining ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Kredit foiz stavkalarining o'sishi esa aholi va korxonalarining kelgusida kredit olish rejalariga ta'sir qiladi. SHuningdek, agar kredit stavkalari oshishi kreditga bo'lgan talab pasayishiga olib kelmasa, kelgusida bu holat iqtisodiyotda inflyatsion bosim oshishiga olib keladi.

Sentyabrdagi so'rovlar natijalariga ko'ra, kredit stavkalari oshishi bo'yicha aholining kutilmalari ortib bormoqda. Xususan, respondentlarning uchdan ikki qismi kelgusi 12 oy davomida yillik kredit foiz stavkalari 16–25 foiz darajasida bo'lishini kutishmoqda (-rasm). SHu bilan birga, respondentlarning yarmidan oshig'i qisqa muddatli istiqbolda bank kreditini (asosan avtokredit, iste'mol krediti va ipoteka) olish niyati borligini ta'kidlab o'tishgan. Bu esa aholining kredit resurslariga bo'lgan talabi yuqori darajadiligini ko'rsatadi.

Bunda aholini faol kreditlash iste`mol talabini rag`batlantirib, narxlar dinamikasiga oshiruvchi ta`sir ko`rsatadi.



6.17-rasm. Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

Aholining joriy kredit va jamg'arma kayfiyatlari keyingi yilda iqtisodiy faollik oshishini ko`rsatmoqda, bu esa inflyatsiyaga talab nuqtai nazaridan bosim saqlanib qolishini anglatadi. Ta`kidlash joizki, iqtisodiyotda yalpi talab va iqtisodiy faollik oshib borayotgan paytda importni cheklash siyosati olib borilishi kelgusi inflyatsion bosimning keskin oshishiga olib kelishi mumkin.

O`zbekiston iqtisodiyotida shakllangan mavjud inflyatsion kutilmalar sharoitida kelgusida ichki narxlar oshishini sekinlashtirish uchun qat`iy pul-kredit sharoitlarini saqlab qolish lozim bo`ladi. Markaziy bank o`rta muddatli istiqbolda pul-kredit siyosatini yuritishda ushbu shart-sharoitlarni inobatga oladi.

Nazorat uchun savollar

1. “Inflyatsiya” tushunchasining mazmunini, inflyatsiyaning turlarini, inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yoritib bering?
2. Inflyatsiyaga qarshi kurash va pulning barqarorligini ta`minlash yo`llarini, “Inflyatsiya” tushunchasining mazmunini tushuntirib bering?
3. Inflyatsiyani yuzaga keltiruvchi sabablarni ochib bering?
4. Inflyatsiyaning makroiqtisodiy o`shish sur`atlariga ta`sirini, inflyatsiyaning investitsion jarayonlarga ta`sirini ochib bering?

5. Pul massasining o`shirishini jilovlashga qaratilgan monetar siyosatni amalga oshirish masalalarini eritib bering?

6. Pullar taklifini tartibga solishni yoritib bering?

7- MODUL. PUL ISLOHOTLARI

1. Pul islohotlarini amalga oshirishning zarurligi. Pul islohotlarini amalga oshirish shart-sharoitlari.

2. Denominatsiya va uni amalga oshirish tartibi. Nullifikatsiya va uni amalga oshirish tartibi.

3. O`zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan pul islohotlari va ularning o`ziga xos xususiyatlari.

7.1. Pul islohotlarini amalga oshirishning zarurligi. Pul islohotlarini amalga oshirish shart-sharoitlari.

Pul islohotlari - milliy valyutani mustahkamlash, pul birligini barqarorlashtirish va pul muomalasini tartibga solish maqsadida davlat tomonidan mamlakat pul tizimini to`liq yoki qisman qayta tashkil etish. Pul islohotlari qog`oz pul belgilarining hammasi yoki bir qismi qadrsizlanganda va ularning hajmi ko`payib, yangisi (qog`oz yoki metall) bilan almashtirish lozim bo`lganda, pulning oltin qiymati yoki valyuta kursi o`zgarganda, pul tizimiga o`zgartirish kiritish zarur bo`lganda o`tkaziladi. Pul islohotlarimamlakatdagi iqtisodiy holatga, pulning qadrsizlanish darajasiga va davlatning siyosatiga bog`liq holda turli usullarda: ortiqcha qog`oz pullarni yo`q qilish bilan pul hajmini kamaytirish (deflyatsiya); eski pul belgilarini yo`q qilib, yangi qog`oz pul belgilarini zarur miqdorda chikarish (nullifikatsiya); eski pul belgilarini yirikroq yangi pul belgilariga almashtirish (denominatsiya); pul birligi yoki qog`oz pul birligi kursining metall qiymati va chet el valyutasiga nisbatan kursini pasaytirish (devalvatsiya); pul birligidagi metall qiymati yoki qog`oz pul kursini tashki davlatlar valyutasiga nisbatan oshirish (revalvatsiya) va boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

Hozirgi Markaziy Osiyo hududlarida muxim pul islohotlari Amir Temur hukmronlik qilgan davrdan boshlangan. Uning

tashabbusi bilan o`sha davrgacha muomalada bo`lgan mayda mis tangalar o`rniga sifat va hajm jihatdan bir necha marta ortiq bo`lgan, yirik qiymatga ega oltin va kumush tangalar zarb etila boshlagan. Amir Temur tasarrufida bir necha zarbxonalar bo`lganligi va ularda zarb etilgan tangalar Evropada ham mashhur bo`lganligi haqida ko`p ma`lumotlar bor. Birgina G`arbiy eron va Ozarbayjonda Amir Temurning nomi bitilgan 120 turdan ortiq oltin va kumush tangalar muomalaga kiritilgan. Mirzo Ulug`bek tomonidan 1428 y. amalga oshirilgan pul isloxotlarida ilgari zarb etilgan mis tangalarning muomalada bo`lishi taqiqlangan. Bir qator shaharlarda — Buxoro, Samarqand, Toshkent, SHohruxiya, Andijon, Qarshi va Termizda yangi tangalar zarb etila boshlagan. eski tangalarni yangi tangalarga almashtirish tugallangandan keyin, fakat Buxorodagi zarbxona faoliyati saklab qolinib, qolganlari yopilgan.

Shayboniylar davrida ham tangalar zarb kilishda yangilik kiritilgan. Oldingi xukmdorlar tomonidan zarb etilgan tangalardagi yozuvlar ustiga yangi tamg`alar zarb qilinib, muomalaga chiqarilgan. Bu davrda, asosan, dinor nomi bilan yuritilgan juda ko`p miqdordagi mis tangalar va vazni 3 g bo`lgan kumush tangalar muomalada bo`lgan.

19-asrning boshlaridan Buxoro amirligida vazni 4,5 g lik "tillo" nomi (oltin) bilan tangalar zarb etilgan. Kumushdan ishlangan tanga deb ataluvchi pul birliklari 1920 y.ga qadar muomalada yurgan. Buxoro amirligida 1918 y.dan boshlab muomalaga nominali 20, 60, 100, 200, 300, 500, 1000, 2000, 3000, 5000 va 10000 tangalik qog`oz pullar chiqarilgan. 1921 yillarda Buxoro Xalq banki muomalaga yangi, nominali rublda ko`rsatilgan qog`oz pullarni chiqara boshladi. Bu pullar 3000, 10000 va 20000 rubl nominaliga ega bo`lgan. 1922 y.da Buxoro Xalq banki tomonidan denominatsiya amalga oshirilib, pulning nominali yuzlab marta kamaytirilgan va 1, 5, 10, 25, 100 rubllik yangi pullar muomalaga chiqarildi. Ammo ko`p o`tmasdan, kuchli inflyatsiya natijasida past nominaldagi pul belgilari bozor ehtiyojlarini qondira olmadi va 1000, 2500, 5000 rubllik pullar bosib chiqarildi. 1920—21 yillarda Xorazm Sovet Xalq Respublikasi (XSXR) tomonidan muomalaga 250, 500, 750, 1000, 2000, 5000 va 10000 rubl nominalida ipakdan qo`lda to`qilgan maxsus pul belgilari chikarilgan. Ushbu pullar XSXR tugatilganga qadar, ya`ni 1924 yillargacha muomalada bo`lgan. YUqori inflyatsiya natijasida 1922 — 23 y.larda XSXR tomonidan denominatsiya amalga oshirilib, eski

pullarning ustiga ularning yangi nominalini ko'rsatuvchi tamgalar bosilgan. 1921—22 va undan keyingi yillarda pul isloxotni o'tkazishga qaratilgan qator tadbirlar Turkiston ASSRda amalga oshirildi. 1923—24 y.larda Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarining pul belgilari RSFSR pul belgilari (rubl chervon) bilan almashtiriddi. Fuqarolar urushi davrida Turkiston frontlar halqasi ichida qolganda Toshkentda Turkiston ASSRning puli — turkbonlar chiqarilgan. Keyinchalik 1921 yil 1 yanvardan boshlab Turkistonda 3 oy davomida Pul isloxotlari o'tkazilib, turkbon RSFSR pul birligiga 10:1 nisbatda almashtirildi. 1947 yilda sobiqSSSRda Pul isloxotlari o'tkazildi, mahsulotlarni taqsimlashda kartochka tizimi tugatildi va davlat kooperativ chakana savdosi nar-xida yagona tartib o'rnatildi. Muomaladagi hamma pul belgilari 10:1 nisbatda yangi pul belgilariga almashtirildi. 1950 yilga kelib oltin tovar zaxirasining ko'payishi, chet el valyutasiga nisbatan pul kursining oshishi, narxlar masshtabi o'zgarishi 1961 yilda muomaladagi pul belgilarini 10:1 nisbatda yangi pul belgilariga almashtirilishiga olib keldi.

O'zbekiston Davlat mustaqilligiga erishgach, Rossiya o'z milliy valyutasini chiqargunga qadar boshqa sobiq Ittifoq respublikalari singari vaqtincha rubl zonasida qoldi va mamlakatda amalda bo'lgan iqtisodiy shart-sharoitlarni hisobga olib, o'z milliy valyutasini muomalaga kiritishni ikki bosqichda amalga oshirdi. Birinchi bosqich: 1993 y.ning 15 noyabrdan ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqa va aholi daromadlarining o'z vaqtida to'lanishini, respublika ichki iste'mol bozorini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududida to'lov vositasi sifatida 1961—92 yillardagi rubl banknotlari va Rossiya bankining 1993 yildagi rubli bilan parallel ravishda 1:1 nisbatda oraliq valyuta sifatida "so'm kupon" muomalaga kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki muomalaga qiymati 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100, 200, 500, 1000, 5000, 10000 so'm kupon qog'oz pullarni chiqardi. Ikkinchi bosqich: 1994 y. 1 iyulidan boshlab O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi so'm 1 so'm = 1000 so'mkupon nisbati bilan muomalaga kiritildi. Markaziy bank muomalaga qiymati 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so'm bo'lgan bank qog'oz pullari (banknotlar) va 1, 3, 5, 10, 20, 50 tiyin bo'lgan metall tangalar chiqardi.

O'zbekiston Respublikasi o'z milliy valyutasini muomalaga kiritishi, ikki bosqichli bank tizimi va mustaqil pul tizimi tashkil etilishi pul-kredit siyosatini erkin yuritish imkonini berdi. Hisob-

kitoblarni engillashtirish maqsadida 1997 yildan boshlab muomalaga 200 so`mlik, 1999 yildan 500 so`mlik va 2001 y.dan 1000 so`mlik bank qog'oz pullari (banknotlar) muomalaga chiqarildi.

7.2. Pul islohotlarini amalga oshirish usullari.

Agar inflyatsiya sur'atlari yukori balsa, denominatsiya o`tkazish xech kanday samara bermasligi mumkin. Fakat pul isloxotini o`tkazish yuli bilan pul tizimini barkarorlashtirish mumkin bo`ladi.

Pul isloxotini o`tkazish quyidagi yo`llar bilan amalga oshirilishi lumkin:

- muomaladagi pul massasini kamaytirish maksadida, deflyatsiya kursi bo`yicha pullarni yangi pullarga almashtirish:

- axoli va korxonalarining banklardagi jamg'armalarini vaqtincha (to`lik yoki qisman) xarakatsiz ushlab turish (qotirib qo`yish):

- ikkala usulni birgalikda qo`llash yo`li orqali pul isloxotini o`tkazish: bu usul xalqaro amaliyotda "shok yuli" bilan davolash nomi bilan mashxurdir.

Bu usul 1948 yilda G'arbiy Germaniyada xarbiy davlat boshqaruvidan bozor iqtisodiga o`tishda qo`llanilgan. "SHok yo`li" bilan davolashda ish haqini to`lashni to`xtatib qo`yish, ishlab chikarishni qisqartirish, pul islohotini o`tkazish, ish o`rinlarini qisqartirish kabi qattiq choralar qo`llanilishi mumkin. Masalan, G'arbiy Germaniyada 1948 yilning iyun oyida o`tkazilgan pul islohatida axolining nakd pullari va jamg'armalari 6,5 yangi nemets markasiga 100 eski reyxs marka qilib almashtirildi. Aholining pul jamg'armalarini to`lash vaqtincha to`xtatilgan, keyinchalik faqat 30 foiz atrofida to`langan va xar bir kishiga 60 nemets markasi miqdorida nafaqa ajratilgan. Natijada davlatning reyxs markasidagi qarzi, mamlakatda bo`lgan disbalans tugatilgan va shu yo`l bilan inflyatsiyaning o`shish sur'atlari tuxtatilgan. "SHok yuli" bilan davolash YAponiyada 1949-50 yillarda o`tkazilgan va u "Dodj rejasi" degan nomini olgan. Bu rejaga asosan YAponiyada inflyatsiyaga qarshi juda qattiq chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Erkin baxoga o`tish bilan bir vaqtning o`zida er islohati o`tkazildi, byudjet kamomadini yo`kotish yo`llari ishlab chiqildi. Yaponiyada mavjud zarar bilan ishlovchi korxonalariga davlat tomonidan beriladigan subsidiya bekor qilindi, korxonalar, tashkilotlarga kredit berish shartlari mukammallashtirildi, axoli jamg'armalari ishlatilmasdan qotirib

qo'yildi. Iqtisodni "shok yuli" bilan davolash SHarqiy Evropa mamlakatlari -Yugoslaviya, Polsha kabi mamlakatlarda ham qo'llanilgan.

7.3. Denominatsiya va uni amalga oshirish tartibi. Nullifikatsiya va uni amalga oshirish tartibi.

Denominatsiya o'z mohiyatiga asosan milliy pul birligidagi ortiqcha nollarni olib tashlab muomalaga yangi pullarni chiqarishdan iborat. Denominatsiya usulida Rossiya (3 dona nolni olib tashladi) va Turtsiya (liradan 6 dona nolni olib tashladi) xukumatlari foydalanishdi.

Inflyatsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solib turish o'z mohiyatiga asosan mamlakatda mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narx-navolarni o'sib borishini cheklash va pul tizimini barqarorlashtirish maqsadida davlat tomonidan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat. Ushbu chora-tadbirlar ikki yo'nalishda olib boriladi:

1)Deinflyatsion siyosat. Ushbu siyosat mamlakatda pulga bo'lgan talabni pul-kredit va moliya mexanizmlari yordamida tartibga solib turiladi. Deinflyatsion siyosat davlat xarajatlarini qisqartirish, kreditlar uchun foiz stavkalarini oshirish, soliq yukini kuchaytirish (soliqlar soni va ularni foiz stavkalarini ko'tarish) va pul massasini cheklashni o'z ichiga oladi. SHuni ta'kidlash lozimki, deinflyatsion siyosat mamlakatdagi iqtisodiy o'sishni sekinlashuviga sabab bo'ladi;

2)Daromadlar siyosati. Ushbu siyosat olib borishda davlat tomonidan mahsulotlar, ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlarga bo'lgan narx-navo va ish haqi ustidan birdaniga nazorat etiladi hamda ularni o'sishini ma'lum chegarasi o'rnatiladi yoki butunlay «muzlatib» qo'yiladi. Daromadlar siyosati o'z mohiyatiga ko'ra qat'iy siyosat hisoblanadi va u aholi o'rtasida norozilikni kelib chiqarishi mumkin. Lekin inflyatsiya bilan kurashishda ayrim mamlakatlarda daromadlar siyosatidan foydalaniladi. Xalqaro amaliyotda rivojlanayotgan mamlakatlarda inflyatsiyaga qarshi karash olib borish tajribasida biz ta'kidlab o'tgan ikki yo'nalishdan oqilona birgalikda foydalanilgan. Iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o'tayotgan mamlakatlarda inflyatsiyaga qarshi kurashish va milliy pul tizimini mustaxkamlash uchun asosan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

-milliy iqtisodiyotni sog'lomlashtirish, investitsiya faoliyatining tushib ketishini bartaraf etish va iqtisodiy rivojlanishning oqilona darajasini ta'minlash;

- raqobatbardosh, yuqori texnologik ishlab chiqarishni tashkil etish va uni rivojlantirish maqsadida davlat strategiyasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish;

- xalq iste'mol tovarlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarish fondlarining tarkibini o'zgartirish va unda zamonaviy texnika hamda texnologiyalarni joriy etish;

-tijorat banklarining investitsiya va kredit faoliyatini rag'batlantirish;

- soliq tizimini takomillashtirish va ushbu yo'nalishda asosiy e'tiborni soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasiga qaratish;

- davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;

- mamlakat ichida mahsulotlar, valyuta, kredit er, ko'chmas mulk, mehnat va qimmatli qog'ozlarining yagona bozorini shakllantirish hamda uni rivojlantirish;

- pul-kredit siyosatini iqtisodiyotnign rivojlanishi holatiga asosan o'zgartirib turish;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va mahsulotlar, ishlar, xizmatlarni eksport qilishni rag'batlantirish;

- erkin bozor baholarini saqlagan holda daromadlar, xarajatlar va narx-navoni davlat tomonidan tartibga solish va uni nazorat qilish;

- davlat byudjet taqchilligini noinflyatsion yo'llar bilan qisqartirish;

- davlatning strategik oltin-valyuta zahiralarini chuqur tahlil etish va ulardan oqilona foydalanishdan iboratdir.

7.4. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan pul islohotlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekistondagi inflyatsiya bu mustakil O'zbekiston zaminida vujudga kelgan inflyatsiya emas. Tarixan bu inflyatsiya sobik SSSR da yuzaga kelgan. Bu inflyatsiyaning umumiy iktisodiy sababi davlat boshkaruvida iktisodga nisbatan siyosatga kup e'tibor berganidadir. Natijada ishlab chikarish sur'tlari tushib ketdi. Tovar kamyobligi yashirin jarayon bo'lib, tovarlarni ishlab chikarish uchun ko'p xarajat qilinsada (xom-ashyolarning narxi yuqoriligi tufayli) tovarlar past

baxoda sotilgan. Fark davlat byudjetidan qoplana borgan. 1992 yilning boshidan erkin baxolarga o'tish natijasida (ozik ovkat va yokilgi resurslardan tashkari) inflyatsiya yuzaga otilib chiqdi va tez sur'atlar bilan rivojlanib ketdi.

SHu tufayli O'zbekistondagi inflyatsiya sobik SSSR davrida yuzaga kelgan inflyatsiyaning qoldig'idir va uni davolash uzoq vaqtni talab qiladi. Sobiq SSSR da, jumladan O'zbekistonda 90 - yillardagi inflyatsiyasining asosiy sabablari:

- iktisodiy muvozanatning yo'kligi, ishlab chikarish sur'atlarining tushib ketishi natijasida rejali iktisodiyotdagi inkiroz;
- maxsulotlar sifatining, mexnat unumdorligining pastligi;
- ishlab chiqarishda xarajatlar salmg'ining oshib ketishi, bexuda sarflar, iktisod printsiplariga rioya qilmaslik va boshkalar xisoblanadi..

Undan tashqari rivojlangan bozor sharoitiga o'tmasdan turib baxolarning erkinlashuvi, tovar massasi ustidan ba'zi bo'limlarining yakka xukmronlik o'rnatishi, baxolarni xoxlagacha boshqarish, kredit, moliya siyosatlarining noto'g'ri olib borish, iktisodning "dollarlashuvi", "rubl' zona" sining emirilishi, valyuta tushumlari va milliy boylikning chetga oqib ketishi va boshqalar inflyatsiya jarayonining yana rivojlanishiga olib kelgan.

Inflyatsiya jamiyatning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakat iqtisodiy ahvolini tang holga olib keladi:

- ishlab chiqarish hajmi tushib ketadi va baholarning oshib borishi ishlab chiqarish istiqbollari to'g'anoq bo'ladi.

- kapitalning asosiy qismi ishlab chiqarishdan savdo (muomala) sohasiga, vositachilik sohasiga oqib o'tadi. CHunki ishlab chiqarishdan ko'ra, savdo sohasidagi kapital tezroq va ko'proq foyda keltiradi;


- baholarning o'zgarib turishi olibsotarlikni rivojlantiradi, arzon vaqtida olib, qimmat bo'lganda sotish jarayoni, tovar zaxiralarini yashirish jarayonlari avj oladi;

- kredit berish jarayonlari cheklangan bo'ladi. Qarz oluvchilar ko'payadiyu, qarz beruvchilar soni qisqaradi, chunki qarz bergan yutqazishi mumkin;

- davlatning moliya resurslari qadrsizlanadi va h.k.

Aholining kam daromad oluvchi qismining ijtimoiy ahvoli yomonlashadi. Ularning real daromadlari kamayadi. Nominal

daromadning baholar o`shidan tushishi natijasida aholining turmush darajasi pasayadi. Ayniqsa, nafaqa, davlat tashkilotlaridan maosh oluvchilarning ahvoli qiyinlashishi mumkin. Inflyatsiya aholi jamg'armalarining qadrsizlanishiga olib keladi. Inflyatsiya aholi ba`zi qatlamlarining (savdosotiq sohasida) boyishiga olib keladi.



7.1-rasm. Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

Davlat aholining daromadlar darajasini tenglashtirish maqsadida daromad va soliqlarni indeksatsiya qilib boradi.

2020–2021 yillarda tarkibiy islohotlardan ko`zlangan natijalar tobora ko`rinib borishi bilan iqtisodiyotdagi cheklovlar kamayib boradi, bu o`z o`rnida narxlarga taklif tomonidan keladigan bosimning pasayib borishiga imkon yaratadi. Bu, birinchi navbatda, davlat korxonalarini islohoti va iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqobat muhiti kuchayishi bilan bog`liq.

YUqorida qayd etilgan sharoitlarning ta`minlanishi hamda tashqi muhitning barqarorligi 2020 yil oxiriga yillik inflyatsiya darajasining 10–12 foiz oralig`ida bo`lishiga sharoit yaratadi.

Nazorat uchun savollar

1. Pul islohotlarini amalga oshirishning zarurligini, pul islohotlarini amalga oshirish shart-sharoitlarini ochib bering?
2. Pul islohotlarini amalga oshirish usullarini yoritib bering?

3. Denominatsiya va uni amalga oshirish tartibini, nullifikatsiya va uni amalga oshirish tartibini tushuntirib bering?

4. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan pul islohotlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering?

8-MODUL. KREDITNING ZARURLIGI, MOHIYATI VA FUNKSIYALARI.

8.1. Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida.

8.2. Kreditning mohiyati. Kreditning funksiyalari.

8.3. Kreditning printsiplari. Kreditning zarurligini belgilovchi omillar.

8.4. Kapitalning doiraviy aylanishi va aylanishi.

8.5. Aholining kreditga bo'lgan talabining paydo bo'lishi. Davlatning kredit resurslariga bo'lgan talabining paydo bo'lishi.

8.1. Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida.

Kredit - bu ssuda kapitalining harakati, bir korxonaning boshqa korxonadagi mablag'larini, birinchisiga qaytishi sharti bilan, bir sub'ektning boshqasiga qarz sifatida ishlatishi.

Iqtisodiyotda kredit paydo bo'lishining sababi tovar-pul munosabatlari bilan bog'liq. Bundan tashqari, kredit munosabatlarining o'ziga xos sabablari bor: takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash, turli mulk shaklidagi tashkilotlarda mablag'larning uzluksiz aylanishini ta'minlash zarurati. Kredit moddiy qadriyatlarni ishlab chiqarish bosqichida emas, balki mablag'larni almashtirish, taqsimlash jarayonida paydo bo'ladi.

Asosiy va aylanma mablag'larning muomalasi jarayonida bir tomondan u pul shaklida chiqariladi, boshqa tomondan ishlab chiqarish va ijtimoiy ehtiyojlar uchun qo'shimcha mablag'larga vaqtincha ehtiyoj paydo bo'ladi. Ushbu qarama-qarshilikni bartaraf etish uchun kredit ishlatiladi. Binobarin, uning iqtisodiy asosi, vujudga kelish sharti turli mulkchilik shakllari va faoliyat sohalari tashkilotlari kapitalining harakati hisoblanadi.

Tashkilotlarning asosiy va aylanma mablag'lari aylanmasi pul va natura shakllarining doimiy o'zgarishi bilan tavsiflanadi.

Harakat jarayonida tashkilotlar mablag'lari navbatma-navbat pul mablag'lari, ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar, jo'natilgan mahsulotlar va yana asl nusxalarini, ya'ni. pul, shakl. Pul mablag'larining tovar shaklini pul tashkilotlariga aylantirish natijasida daromad olinadi, u qoida tariqasida asta-sekin ishlatiladi va taqsimlanadi.

Olingan daromadning bir qismi byudjet va byudjetdan tashqari fondlar oldidagi majburiyatlarni qoplashga mo'ljallangan. To'lovlar byudjetga aniq, belgilangan muddatlarda o'tkaziladi, shuning uchun bir muncha vaqt ushbu manbalar tashkilotlarning bepul resurslari sifatida ishlaydi.

Daromadning yana bir qismi maqsadli jamg'armalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu mablag'larni yaratish va ulardan foydalanish, masalan, ish haqi, ijtimoiy rivojlanish uchun ham o'z vaqtida mos kelmaydi. Shu tarzda mablag'lar tashkilotlarning muomalasidan chiqariladi, ya'ni. vaqtincha bo'sh pul mablag'larini shakllantirish. Kapital aylanishi jarayonida erkin resurslarni yaratish bilan bir vaqtda mablag'larga vaqtincha ehtiyoj paydo bo'ladi. Bunga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

1) mahsulot ishlab chiqarish va sotishning mavsumiyligi. Bu birinchi navbatda qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlari uchun xosdir, ushbu sohada (ozuq-ovqat, engil sanoat) xom ashyoni qayta ishlash bilan shug'ullanadi. Bunday korxonalar va tashkilotlar etkazib beruvchilardan yil davomida tartibsiz, notekis ravishda xom ashyo va materiallarni oladilar. Mavsumiy xarakterga ega bo'lgan katta hajmdagi zaxiralarni shakllantirish uchun o'z mablag'lari etarli emas, shuning uchun qarz manbalariga, shu jumladan bank kreditiga ehtiyoj seziladi;

2) sotishdan, sotishdan tashqari faoliyatdan olingan daromadlarni olish va etkazib beruvchilarning hisob-kitob hujjatlarini to'lash, boshqa xarajatlarni amalga oshirish vaqtidagi nomuvofiqlik.

Tashkilotlarda asosiy kapitalning muomalasini rivojlantirish uchun uzoqroq muddatga mablag 'to'plash zarurati mavjud. Bu, asosan, kapital qo'yilmalar uchun mablag'larni to'plash va ularni ishlab chiqarish, qurish, rekonstruktsiya qilish, kengaytirish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun ishlatish o'rtasidagi vaqt farqiga bog'liq.

Kredit nafaqat yuridik shaxslar, balki jismoniy shaxslar uchun ham zarurdir. Shaxsiy qarz oluvchilar o'zlarining jamg'armalari qurilish, uy-joy, uzoq umr ko'rishga mo'ljallangan mollarni sotib olish, davolanish uchun to'lovlar, o'qitish uchun etarli bo'lmasa, kredit olish uchun bankka murojaat qilishadi.

Iqtisodiyot, ijtimoiy va madaniy sohani moliyalashtirish uchun byudjet daromadlari yetarli bo'lmagan hollarda davlatga vaqtincha bo'sh mablag'larni jalb qilish ham kerak bo'lishi mumkin. Shu maqsadda davlat byudjet kamomadini qoplash uchun turli xil yuridik va jismoniy shaxslar orasida joylashtirilgan qarz majburiyatlarini chiqaradi.

Zamonaviy iqtisodiyotda pulning katta qismi qarz bilan ta'minlangan, ammo pul va kredit nafaqat turli xil tushunchalar, balki turli xil munosabatlardir.

Kredit munosabatlarining pul munosabatlaridan birinchi farqi - ishtirokchilar tarkibidagi farq (birinchi holatda qarz beruvchi va qarz oluvchi, ikkinchi holda sotuvchi va xaridor). Pul munosabatlarida qiymat qarshi harakatni amalga oshiradi: tovarlar sotuvchidan xaridorga, pul xaridordan sotuvchiga. Kredit munosabatlarida qiymat o'zaro javob bermaydi: u qarz beruvchidan qarz oluvchiga o'tadi va ma'lum vaqtdan so'ng o'z egasiga qaytadi.

Kredit va pul o'rtasidagi ikkinchi farq ma'lum bir mahsulot uchun to'lovni kechiktirishda kuzatiladi. Bunday holda, kredit ham, pul ham to'lov vositasi funksiyasida ishtirok etadi, ammo agar pul o'z mohiyatini to'lovni to'lash vaqtida to'lash-to'lash aktida namoyon qilsa, u holda kredit operatsiyasida to'lov faqat element hisoblanadi qaytarish asosida qiymat harakatining. Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida o'z mohiyatini kechiktirilgandan keyingi to'lovda emas, balki kechiktirilgan to'lov haqiqatida namoyon qiladi.

Kredit va pul o'rtasidagi uchinchi farq ularning harakatida kuzatilishi mumkin. Kredit naqd pul shaklida ham, tovar shaklida ham berilishi mumkin. Umumiy tovar dunyosidan ajralib, universal ekvivalenti bo'lgan taqdirdagina tovar pulga aylanadi. Kredit bo'yicha majburiy emas universal ekvivalentga aylangan mahsulotni taqdim etish; vaqtincha foydalanish uchun qiymati va ishlatilish qiymati bo'lgan oddiy tovar taqdim etilishi mumkin.

Qarzga olingan mablag'lardan xo'jalik yurituvchi sub'ekt aylanmasida foydalanish ushbu mablag'larning saqlanishi va o'z

vaqtida qaytarilishi uchun moddiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Bu shuni anglatadiki, kredit operatsiyalari ishtirokchilari o'zlarida bo'lgan mulk egasi bo'lishi yoki unga egalik qilish va undan foydalanish huquqiga ega bo'lishi kerak (bu davlat korxonalariga tegishli). Ushbu shart zarur, chunki qarz oluvchi korxonasining mol-mulki qarzni to'lashning ikkilamchi manbai bo'lgan qarzni ta'minlashning o'ziga xos turi bo'lib xizmat qiladi.

Kredit yordamida kelajakda daromad yaratiladi. Bu o'tmishda shakllangan tejash mablag'lari kelgusi investitsiyalar uchun ishlatilishida ifodalanadi. Kredit kosmosdagi tejamkorlik, vaqtincha bo'sh mablag'lar va ularning ehtiyojmand sub'ektlari yo'nalishlarini birlashtirishga yordam beradi. Shunday qilib, kredit iqtisodiyotni tartibga solishga va tashkilotlarda kapital aylanishini tezlashtirishga yordam beradi.

Kredit –so`zi *lotincha* „**kredit**“ so`zidan olingan bo`lib ishonch degan ma`noni anglatadi. Kredit – bu pul va tovar shaklidagi resurslarni qaytarib berishlik, muddatlilik va foiz to`lashlik shartlari asosida berish natijasida yuzaga keladigan qiymatning harakatidir. Kredit munosabatlarining subekti bo`lib kreditor va kredit oluvchi hisoblanadi, kreditning obekti bo`lib pul va tovar hisoblanadi.

Bank kreditining obekti bo`lib pul mablag'lari hisoblanadi. Tijorat kreditining obekti tovarlardir. Hozirgi kunda kreditning sudxo`rlik shakli mavjud emas, bu shakl kredit munosabatlarining dastlabki shakllanish bosqichlarida mavjud edi. Kredit insoniyatning buyuk kashfiyoti hisoblanadi:

1)Kredit xo`jalik yurutuvchi sub`ektlar faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

2)Kredit mamlakatning eksportning salohiyatini yuksaltirish imkonini beradi.

3)Kredit iqtisodiyotdagi to`lovning uzluksizligini ta`minlash imkonini beradi.

4)Kredit davlatning o`z funktsiyalarini bajarilishini taminlashda muhim o`rin tutadi.

5)Kredit aholining turmush farovonligini ta`minlsh imkonini berdi.

Kredit o`zining aniq printsiplariga ega.

1)Qaytarib berishlilik printsiipi;

2)Muddatlilik printsiipi;

3) Foiz to'lashlilik printsipti;

4) Ta'minlanganlik printsipti.

Kreditlar odatda birinchi toifali garov ob'ektlari bilan ta'minlanadi. (er, oltin va boshqa metallar)

5) Maqsadlilik printsipti.

Kreditnin zarurligini belgilovchi omillar.

1) Kreditning zarurligini belgilovchi eng asosiy omil bu kapitalning doiraviy aylanishi va aylanishidir.

P-ishlab chiqarish vositalari.....

ishlab chiqarish jarayoni-T`-P`

bu jarayonnig takrorlanishi capital aulanmasi deyiladi

2) ayrim tarmoqlarda ishlab chiqarishning mavsumiy harakterga ega ekanligi.

3) davlat budjetining defitsitinig mavjudligi.

4) aholining turmush farovonligini ta'minlashning zarurligi.

Kreditning ob'ekti ikkitaga bo'linadi:

-pul mablag'lari;

-tovarlar.

Bank kreditlarni pul mablag'lari shaklida beriladi.

Ob'ekti tavar bo'lgan kredit tijorat krediti deyiladi. Bunda sotilgan tavarlarning puli kechiktirib to'lanadi ya'ni ma'lum muddat o'tgandan so'ng to'lanadi. Tijorat krediti odatda tijorat vekseli bilan rasmiylashtiriladi.

Hozirgi davrda bank kreditlarini berish tizimi tijorat kreditlari berish tizimiga qaraganda yuksak darajada rivojlangan. Buning asosiy sababi *pulning yuqori likvidli akti ekanligidir.*

Kreditning sub'ektlari bo'lib quydagilar hisoblanadi.

-Banklar;

-nobank kredit tashkilotlari, kredit uyushmalari, lombardlar, mikromoliyalash tashkilotlari, kredit korporativlari va boshqalar;

-korxonalar;

-jismoniy shaxslar;

-davlat;

-davlat organi;

-halqaro moliya kredit tashkilotlari.

Kredit-qiymatning harakati bo'lib pul va tavar ko'rinishidagi mablag'larni qaytarib berishlilik, muddatlilik va foiz to'lashlilik asosida berish natijasida yuzaga keladi.

Kredit orqali jamiyatimizda quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

birinchidan, fondlar aylanishi jarayonida chetga chiqib, bo`sh qolgan mablag`larning harakatsiz turib qolishining oldi olinadi;

ikkinchidan, takror ishlab chiqarishni keng doirada uzluksiz davom ettirishga imkoniyat yaratiladi.

Kreditning vujudga kelishi reallikka aylanishi uchun muayyan sharoitlar bo`lishi zarur. SHu masala bo`yicha ba`zi iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan fikrlarni tahlil qilib, iqtisodchilar tomonidan kredit yuzaga kelishining quyidagi shartlariga ko`proq e`tibor berilganini ko`rsatib o`tish mumkin. Kredit munosabati bo`lishi uchun:

birinchidan, kredit munosabati ishtirokchilari – qarz beruvchi va qarz oluvchi – huquqiy jihatdan mustaqil sub`ekt bo`lishi kerak. Mustaqil sub`ekt sifatida har ikkala tomon birbiri bilan o`zaro aloqalardan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarishini moddiy jihatdan kafolatlay olishi kerak. Majburiyatlarni bajara olish qobiliyatini hisobga olgan holda mustaqil huquqiy sub`ekt sifatida tomonlar iqtisodiy munosabatga kirishishlari kerak.

ikkinchidan, qarz beruvchi va qarz oluvchi manfaatlari birbiriga mos tushgan taqdirdagina kredit zaruriyatga aylanadi. Bu manfaatlar, avvalambor, ob`ektiv jarayonlar, o`zaro manfaatlarni taqozo etuvchi aniq vaziyat bilan bog`liq.

Kreditor(qarz beruvchi) tomonidan pul mablag`larini qarzga berish bo`yicha, qarz oluvchi tomonidan esa shu mablag`larni olish bo`yicha qiziqish tug`ilgan taqdirdagina kredit munosabatlari vujudga keladi.

Kreditning vujudga kelishi kredit munosabatlari ishtirokchilari manfaatlarining yo`nalishiga bog`liq. Tomonlar manfaatlarining mos kelishi kredit shartnomasi tuzilishini ta`minlaydi. Lekin kredit munosabatlari ishtirokchilari manfaati nafaqat vaqt va makon jihatdan, shuningdek, sifat jihatdan ham mos tushgan taqdirdagina bu munosabatlar reallikka aylanadi. SHu bilan birga, kreditning bu muhim sifatleri kredit munosabatlari sodir bo`lishining asosiy sababi bo`laolmaydi. Kredit vujudga kelishi uchun, yuqorida aytilgandek, aniq bir iqtisodiy asos fondlarning doiraviy aylanishi va shunga o`xshash boshqa aniq sharoitlar bo`lishi zarur. Faqatgina ana shu ta`sir etuvchi omillar bo`lgan taqdirdagina kreditning vujudga kelishi reallikka aylanadi.

Ba`zi iqtisodiy adabiyotlarda kreditning zarurligi xususida bir necha boshqa fikrlar ham uchraydi. Masalan, kredit korxonalar faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirish uchun zarur, deb ta`kidlanadi. Agar bu fikr to`g`ri deb qaraydigan bo`lsak, kreditning zarurligi faqat kreditor uchun tushunarli bo`ladi, chunki u qarz berish orqali qarz oluvchi faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Bunday sharoitda kreditning chegarasi ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishiga asoslangan ob`ektiv jarayonlarga emas, balki bankning kredit operatsiyalari orqali qarz oluvchining faoliyatini nazorat qilish istagiga bog`liq bo`lib qoladi.

Bu mulohazalardan kelib chiqqan holda xulosa qilib aytish mumkinki, kreditning ob`ektiv zarurligi takror ishlab chiqarish jarayonida fondlarning doiraviy aylanishi qonuniyatlariga asoslangandir.

Kreditga zarurat tug`ilganda quyidagi manbalardagi bo`sh mablag`lardan kredit resurslar sifatida foydalanish mumkin. Bu manbalar asosan quyidagilardir:

➤ asosiy fondlarni tiklash, kapital tamirlash uchun ajratiladigan amortizatsiya sifatidagi pul mablag`lari;

➤ tovarlarni sotish va yangi moddiy resurslarni sotib olish vaqtlarining biribiriga mos kelmaganligi tufayli yuzaga kelgan bo`sh pul mablag`lari;

➤ tovarlar realizatsiyasidan tushgan tushum bilan ish haqini to`lash vaqtlari orasida vaqtincha bo`sh turib qolgan pul mablag`lari;

➤ kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida yig`iladigan va kapitallashtirish uchun mo`ljallangan qo`shimcha mablag`lar;

shaxsiy sektor daromadlari, jamg`armalari va boshqa bo`sh pul mablag`lari

Kreditning zarurligini ifodalovchi omillar mohiyatini ochishda, ularning har birining ahamiyatini kredit shartnomasini tuzish darajasigacha olib kelish xato hisoblanadi. Alohida olingan bir omilning o`zi kredit berilishi uchun u yoki bu darajada etarli bo`lmasligi mumkin.

8.2. Kreditning mohiyati. Kreditning funksiyalari.

Mohiyat so`zi iqtisodiy yoki ijtimoiy hodisa yoki voqelikning ichki xususiyatini anglatadi. Kreditning mohiyati unung bir qator ichki xususiyatlarida namoyon bo`ldi, avvalo, kredit qiymatning harakati

bo`lib ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o`zida aks ettiradi, lekin kredit har qanday qiymatning harakati emas. U vaqtinchalik foydalanishga beriladigan pul va tovar shaklidagi mablag'larning harakatidir. Kreditning yana bir ichki xususiyati uning subektlar o`rtasidagi munosabatlarda nomoyon bo`ladi. Kreditnin sub`ekylari 2 ta:

- kreditor;
- kredit oluvchi.

Kreditning 3 muhim xususiatlari shundan iboratki kredit unga bo`lgan obektiv talab tufayli yuzaga keladi.

Ayri hollarda mijozlar kreditni qaytara olmaydi. Bu esa kreditni qaytarib berishlilik xususiatlarini inkor etmaydi.

Kreditning mohiyatan farqlanuvchi asosiy jihati ham uning qaytarib olinishidir. Taraqqiy etgan davlatlarda ssuda kapitali bozori yaxshi rivojlangan. Bu bozor ikki qisimdan iborat:

1)birinchi segment pul bozori deyiladi. Bu bozorda qisqa muddatli kreditlarning foiz stavkalari shakillanadi.

2)Ikkinchi segment capital bozori deyiladi. Bu bozorda o`rt va uzoq muddatli kreditlarnintg foiz stavkalar shakillanadi.

Libor+Spred=Libid

Bu erda:

Libor-kredit foiz stavkasi;

Spred-bank foydasi;

Libid-kreditning qiymati.

Marja-bank bilan mijoz o`rtasidagi munosabatlarni harakterlaydi.

Spred-bank bilan bank o`rtasidagi munosabatlarni harakterlaydi.

Kreditning mohiyatini anglashda kredit qonunlari muhim o`rinni egallaydi. Kreditning 3 ta qonuni bor:

1)qaytarilish qonuni;

2)qiymatning saqlanish qonuni;

3)muvozanat qonuni- berilayotgan kreditlar va ularning resurslar taminoti ortasida muvozanat bo`lishi kerak.

Kreditning mohiyatini yanada aniqlashtirish uchun uning tarkibini, harakat bosqichlarini, iqtisodiy tushuncha sifatidagi muhim belgilarini va ijtimoiy iqtisodiy xarakteristikasini ko`rib chiqamiz. Kreditning mohiyatini tushunish uchun, avvalambor, uning tarkibi nimadan iborat ekanligini tushunib olish zarur. Kredit munosabat

bo`lishi uchun uning zarur elementlari – kreditning ob`ekti va sub`ekti bo`lishi zarur.


Kredit munosabatlarida sub`ektlar ikki xil bo`ladi:

1. *Kreditor (qarz beruvchi)*

2. *Qarz oluvchi*

Bundan tashqari, kredit munosabatlari tarkibining elementi sifatida kreditning ob`ekti yuzaga keladi.

Kredit munosabatlari tarkibi



8.1-rasm. Kredit munosabatlari tarkibi¹

Kredit munosabatlarning ob`ektlari va sub`ektlari.

Kredit ob`ekti bu (kreditor) qarz beruvchidan qarz oluvchiga beriladigan va qarz oluvchidan kreditor (qarz beruvchi)ga qaytib beriladigan qiymatdir.

Bunda qarzga berilgan mablag' o`z qiymatini saqlab qolishi kreditning asosiy sifati hisoblanadi.

Kredit tarkibi uning elementlari birligini ifodalaydi.

Kreditning harakat bosqichlari ham uning muhim belgisi hisoblanadi. Qarzga beriluvchi qiymat harakatini quyidagi sxemada ifodalash mumkin:

$$B_k \quad O_{kz} \quad I_k \dots V_r \dots Q_k \quad F_{ks}$$

B_k – kreditning berilishi;

O_{kz} – kreditning qarz oluvchi tomonidan vaqtinchalik ehtiyojlarini qondirish uchun olinishi;

I_k – kreditning ishlatilishi qarz oluvchining kreditni nima maqsadda olganligi bilan uzviy bog`liq bo`ladi;

V_r – qarz oluvchining xo`jaligida qarzga olingan qiymat aylanmasi tugallanishini resurslarning aylanmadan chiqarilishini ifodalaydi;

¹Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar/ SH.Z. Abdullaeva . – 2000.: 115 bet

Q_k – kreditni qaytarish;

F_{ks} – vaqtinchalik berilgan qiymatni kreditor qo`liga qaytib kelishi (% bilan).

Kreditning mohiyatini malum vaqtdan keyin qaytarib berish va foiz bilan qaytarish sharti yanada kengroq ochib beradi. Bu har ikkala shartdan tashqari, kreditning iqtisodiy kategoriya sifatida harakat qilishini asoslash uchun iqtisodiy munosabatlarning chuqur ijtimoiy iqtisodiy belgilarini hisobga olish zarur.

Kredit mohiyatining tahlili uzluksiz jarayon. Tahlil jarayonida yangidan yangi belgilar, xususiyatlar yuzaga chiqishi mumkin.

Har qanday iqtisodiy kategoriya o`zining funktsiyalariga ega bo`lgani kabi kredit ham o`zining bir qator funktsiyalariga ega. Ijtimoiy iqtisodiy tizimda kreditning o`rni va ahamiyati bajarayotgan funktsiyalari bilan aniqlanadi. Kreditning funktsiyasi – bu kreditning iqtisodiyotdagi faoliyati konkret ravishda namoyon bo`lishidir.

Kreditni tahlil qilishda, funktsiya, uning mohiyati va ahamiyati o`rtasidagi oraliq bo`g`in sifatida ko`rib chiqiladi.

Kreditning funktsiyalari haqida olimlar o`rtasida yagona izchillik yo`q.

I. Lavrushinning fikricha, kreditning funktsiyalarini tahlil qilishda ikkita echilmagan muammo mavjud:

1. Funktsiyani tushunishning uslubiy asoslari.
2. Funktsiyalarning tarkibi va strukturasi.

Kreditning tarkibiy qismidan kelib chiqqan holda unga quyidagi munosabatlarga xos funktsiyalar taalluqli:

- a) kreditorning qarz oluvchi va qarzga beriluvchi qiymat bilan munosabati orqali;
- b) qarz oluvchining kreditor va qarzga beriluvchi qiymat bilan munosabati orqali;
- v) qarzga beriluvchi qiymat bilan kreditor va qarz oluvchining munosabati orqali.

8.3. Kreditning printsiplari. Kreditning zarurligini belgilovchi omillar.

Kredit munosabatlari iqtisodiyotda mavjud anik uslubiy asoslarga tayanadi. Uning asosiy elementlari bo`lgan ssuda kapitali bozori operatsiyalari ma`lum tamoyillar asosida olib boriladi. Bu tamoyillar kredit rivojlanishining birinchi boskichida ko`zga tashlangan edi.

Keyinchalik esa ular umumdavlat va xalkaro kredit konunchiligida yakkol uz aksini topdi. Iktisodiy kategoriya sifatida kredit bir necha tamoyillarga ega. Bular kreditning qaytarib berishliligi, kreditning muddatliligi, kreditning ta`minlanganligi, maqsadliligi va to`lovlilik tamoyillaridir.

Kreditning qaytarib berishlilik tamoyili.

Bu tamoyil kreditning mustakil iktisodiy kategoriya ekanligi shartidir, kaytib berishlik kreditning umumiy belgisi hisoblanadi, kaytib berishlilik o`z-o`zidan vujudga kelmaydi: u moddiy jarayonlarga, qiymatning aylanishini tugashiga asoslanadi. Ammo doiraviy aylanishning tugashi – bu qaytarib berishi emas, fakat qaytarib berish uchun zamin tayyorlashdir. Kreditni qaytarish aylanishdan chikkan mablag`lar qarz oluvchiga pul mablag`larining qaytarish imkoniyatini bergan taqdirda qaytariladi, qaytarib berishlilik ikki yoklama jarayonni ifoda etadi, u kreditor uchun xam, qarz oluvchi uchun xam bir xil darajada muximdir.

Qiymatni qaytaruvchi xarakatida xukukiy tomoni xam muximdir. Muayyan bir muddatga beriladigan kiymatga egalik xukuki kreditoridan qarz oluvchiga o`tmaydi.

Qarzga beriladigan kiymat fakat muayyan bir muddatgina o`z egasi qo`lidan uzoqlashadi, lekin egasini o`zgartirmaydi.

Bo`sh turgan resurslarni akkumulyatsiya qiluvchi banklar bu resurslardan o`z resurslari sifatida foydalana olmaydi. Bank qarzga beruvchi mablag`ning egasi bo`lib korxonalar, tashkilot, alohida shaxslar xisoblanadi.

Qaytarib berishlilik muayyan shartnomada o`zining o`rnini topadi.

Qaytarib berishlilik ob`ektiv belgi xisoblanadi. Kreditni qaytarib berishlilik tomoni uni boshqa iqtisodiy kategoriyalardan, shu jumladan, moliyadan farq qilish imkonini beradi.

Kreditdan samarali foydalanish asosidagi qaytarib berishlilik – butun bank faoliyatining markaziy punkti hisoblanadi. Kreditning bu tamoyili amaliyotda kredit va undan foydalanganlik uchun foiz summasini kredit bergan muassasa hisobiga ko`chirish yo`li bilan to`lanadi. SHu yo`l bilan banklar kredit resurslarining qayta tiklanishini ta`minlaydilar. Sobiq ittifok davrida markazlashgan rejali iktisodiyot sharoitida kreditlashning «qaytarilmagan ssuda» deb ataladigan norasmiy tushunchasi bor edi. Kreditlashning bu shakli

xalq xo`jaligining ko`p tarmoklarida ayniksa qishloq xo`jaligi soxasida keng tarqalgan edi. Kredit davlat banki tomonidan qarz oluvchining moliyaviy ahvolini hisobga olmagan holda berilar edi. O`zining iqtisodiy mohiyatiga ko`ra qaytarilmaydigan ssudalar byudjet subsidiyalarini qo`shimcha shakli sifatida namoyon bo`ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida «qaytarilmas kredit» tushunchasi bozor iqtisodiyoti tamoyillariga yot bo`lib bunday kreditning amaliyotda bo`lishi iqtisodiyot uchun juda xavfli hisoblanadi.

Kreditning muddatliligi.

Bu tamoyil kredit beruvchidan olingan kreditni o`z vaqtida qaytarib berish muddatini, ya`ni kreditning qanday muddatga berilganligi bilan xarakterlanadi. Bunda shu muddatlilik tamoyiliga ko`ra uzoq va qisqa muddatli kreditlarga bo`linadi.

Kreditning muddatlilik tamoyili qarzdor uchun qulay bo`lgan har qanday vaqtda emas, balki kredit bitimida ko`rsatilgan ma`lum muddatda kreditni qaytarilishi zarur ekanligini bildiradi. Kreditning muddatliligi har ikkala tomon, kreditor va qarz oluvchi uchun muhimdir. Agar kreditor foizni bilan o`z vaqtida qaytarib olsa, uni egasiga qaytarish yoki yana kreditga berish imkoniyatiga ega bo`ladi. Qarz oluvchi kreditni samarali ishlatib, uni o`z vaqtida kreditorga qaytarish va shu bilan shartnomadagi jazo choralaridan qutulishidan manfaatdor. Kreditning muddati bo`yicha kredit shartnomada ko`rsatilgan shartlarning buzilishi natijasida qarz beruvchi qarz oluvchiga iqtisodiy choralar (jarimalar shaklida, kredit bo`yicha foiz darajasini oshirish, kreditni muddatini qisqartirish va boshqa) ni qo`llash mumkin.

Kreditning ta`minlanganligi.

Bu ta`moyil yordamida xalk xo`jaligining rivojlanishida qiymat va moddiy ishlab chiqarish o`rtasida bo`lishi zarur bo`lgan proporsiyalarning bir meyorda bo`lishi ta`minlanadi. Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundaki, bunda xo`jalik aylanishida ishtirok etuvchi bank mablag`larining xar bir so`miga muayyan boyliklarning bir so`mi qarama-qarshi turishi kerak. Banklar tomonidan xalq xo`jaligi tarmoqlariga berilgan kreditlar to`liq tovar moddiy boyliklari va ma`lum xarajatlar bilan ta`minlangan bo`lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, kreditning ta`minlanganlik ta`moyili qarz oluvchi o`ziga olgan majburiyatlarni buzish sharoitida qarz beruvchining mulkdorlik manfaatlarini ximoya qilishni ta`minlaydi va

o`zining amaliy aksini kreditni biror garov yoki moliyaviy kafolat asosida berishda topadi. Bu umumiktisodiyot barqarorlikka erishish davrida ayniqsa muhimdir.

4. To`lovlilik tamoyili.

Bu tamoyil aylanma fondlarning doiraviy aylanishini, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini ta`minlovchi to`lov resurslari summasini avanslashtirish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Bu tamoyilga asosan korxonalar foydalanilgan qarz mablag`lari uchun kreditorga foiz shaklida to`lovni o`tkazadilar. Kreditning to`lovligi uni to`liq summada o`z egasiga qaytarilishinigina emas, shu bilan kredit uchun foiz shaklidagi to`lov bilan qaytarilishini ifodalaydi. Demak, kreditor o`z mablag`larini xech vaqt o`z xajmida qaytarib olish sharti bilan bermaydi, bunda u mablag`ni qarzga berganligi uchun muayyan to`lov talab kiladi. (foizsiz imtiyozli kreditlar bundan mustasno).

Kreditning to`lovliligi nafakat banklar faoliyatining maqsadiga, balki korxonalarning bevosita foydasiga bog`lik bo`ladi va ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Kredit uchun xaq to`lashning iqtisodiy mohiyati qarz beruvchi va qarz oluvchi o`rtasidagi qo`shimcha olingan foydaning taqsimlanishini qayd qilishda namoyon bo`ladi.

5. Kreditning maqsadliligi.

Bu tamoyilning mohiyati shundaki, qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar anik bir maqsadni amalga oshirishga yo`naltirilgan bo`lishi zarur. Kreditning qaysi maqsadga yo`naltirilganligi, masalan, tovar moddiy boyliklar sotib olishga yoki biror ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga va xakozo anik biror ob`ektga maqsadli yunaltirilganligi korxonalar bilan bank o`rtasida tuziladigan kredit shartnomada ko`rsatilgan bo`ladi. Korxonalar olgan kreditini faqatgina kredit shartnomada ko`rsatilgan ishni bajarishga sarflashi kerak.

Bunda kredit muayyan, anik ob`ektga: ishlab chiqarish xarajatlariga, ishlab chiqarish zaxiralariga, tayyor maxsulotga, jo`natilgan tovarlarga, xisob-kitob xujjatlariga va xakozolarga beriladi.

YUqorida keltirilgan tamoyillar kreditning iqtisodiy kategoriya sifatida mavjud bo`lishi va xarakat qilishining muxim tomonlarini o`zida ifodalaydi.

Kreditning samaradorligini ta'minlash maqsadida g'arb mamlakatlari amaliyotida kreditlashning biz uchun yangi qoidasi qo'llaniladi. Bu qoida kreditlashda «5 «S» lar qoidasi» deb yuritiladi.

8.4.Kapitalning doiraviy aylanishi va aylanishi.

Kredit-qiymatning harakati bo'lib pul va tavar ko'rinishidagi mablag'larni qaytarib berishlilik, muddatlilik va foiz to'lashlilik asosida berish natijasida yuzaga keladi.

Kredit orqali jamiyatimizda quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

birinchidan, fondlar aylanishi jarayonida chetga chiqib, bo'sh qolgan mablag'larning harakatsiz turib qolishining oldi olinadi;

ikkinchidan, takror ishlab chiqarishni keng doirada uzluksiz davom ettirishga imkoniyat yaratiladi.

Kreditning vujudga kelishi reallikka aylanishi uchun muayyan sharoitlar bo'lishi zarur. SHu masala bo'yicha ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan fikrlarni tahlil qilib, iqtisodchilar tomonidan kredit yuzaga kelishining quyidagi shartlariga ko'proq e'tibor berilganini ko'rsatib o'tish mumkin. Kredit munosabati bo'lishi uchun:

birinchidan, kredit munosabati ishtirokchilari – qarz beruvchi va qarz oluvchi – huquqiy jihatdan mustaqil sub'ekt bo'lishi kerak. Mustaqil sub'ekt sifatida har ikkala tomon birbiri bilan o'zaro aloqalardan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarishini moddiy jihatdan kafolatlay olishi kerak. Majburiyatlarni bajara olish qobiliyatini hisobga olgan holda mustaqil huquqiy sub'ekt sifatida tomonlar iqtisodiy munosabatga kirishishlari kerak.

ikkinchidan, qarz beruvchi va qarz oluvchi manfaatlari birbiriga mos tushgan taqdirdagina kredit zaruriyatga aylanadi. Bu manfaatlar, avvalambor, ob'ektiv jarayonlar, o'zaro manfaatlarni taqozo etuvchi aniq vaziyat bilan bog'liq.

Kreditor(qarz beruvchi) tomonidan pul mablag'larini qarzga berish bo'yicha, qarz oluvchi tomonidan esa shu mablag'larni olish bo'yicha qiziqish tug'ilgan taqdirdagina kredit munosabatlari vujudga keladi.

Kreditning vujudga kelishi kredit munosabatlari ishtirokchilari manfaatlarining yo'nalishiga bog'liq. Tomonlar manfaatlarining mos kelishi kredit shartnomasi tuzilishini ta'minlaydi. Lekin kredit

munosabatlari ishtirokchilari manfaati nafaqat vaqt va makon jihatdan, shuningdek, sifat jihatdan ham mos tushgan taqdirdagina bu munosabatlar reallikka aylanadi. SHu bilan birga, kreditning bu muhim sifatlari kredit munosabatlari sodir bo`lishining asosiy sababi bo`lolmaydi. Kredit vujudga kelishi uchun, yuqorida aytilgandek, aniq bir iqtisodiy asos fondlarning doiraviy aylanishi va shunga o`xshash boshqa aniq sharoitlar bo`lishi zarur. Faqatgina ana shu ta`sir etuvchi omillar bo`lgan taqdirdagina kreditning vujudga kelishi reallikka aylanadi.

Ba`zi iqtisodiy adabiyotlarda kreditning zarurligi xususida bir necha boshqa fikrlar ham uchraydi. Masalan, kredit korxonalar faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirish uchun zarur, deb ta`kidlanadi. Agar bu fikr to`g`ri deb qaraydigan bo`lsak, kreditning zarurligi faqat kreditor uchun tushunarli bo`ladi, chunki u qarz berish orqali qarz oluvchi faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Bunday sharoitda kreditning chegarasi ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishiga asoslangan ob`ektiv jarayonlarga emas, balki bankning kredit operatsiyalari orqali qarz oluvchining faoliyatini nazorat qilish istagiga bog`liq bo`lib qoladi.

Bu mulohazalardan kelib chiqqan holda xulosa qilib aytish mumkinki, kreditning ob`ektiv zarurligi takror ishlab chiqarish jarayonida fondlarning doiraviy aylanishi qonuniyatlariga asoslangandir.

Kreditga zarurat tug`ilganda quyidagi manbalardagi bo`sh mablag`lardan kredit resurslar sifatida foydalanish mumkin. Bu manbalar asosan quyidagilardir:

➤ asosiy fondlarni tiklash, kapital ta`mirlash uchun ajratiladigan amortizatsiya sifatidagi pul mablag`lari;

➤ tovarlarni sotish va yangi moddiy resurslarni sotib olish vaqtlarining birbiriga mos kelmaganligi tufayli yuzaga kelgan bo`sh pul mablag`lari;

➤ tovarlar realizatsiyasidan tushgan tushum bilan ish haqini to`lash vaqtlari orasida vaqtincha bo`sh turib qolgan pul mablag`lari;

➤ kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida yig`iladigan va kapitallashtirish uchun mo`ljallangan qo`shimcha mablag`lar;

shaxsiy sektor daromadlari, jamg`armalari va boshqa bo`sh pul mablag`lari

8.5. Aholining kreditga bo`lgan talabining paydo bo`lishi.

Davlatning kredit resurslariga bo`lgan talabining paydo bo`lishi.

Kreditning shakllari.

Kreditning vujudga kelishi reallikka aylanishi uchun muayyan sharoitlar bo`lishi zarur. SHu masala bo`yicha ba`zi iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan fikrlarni taxlil qilib, iqtisodchilar tomonidan kreditning yuzaga kelishining quyidagi shartlariga kuprok e`tibor berilganini ko`rsatib o`tish mumkin. Kredit munosabat bo`lishi uchun:

birinchidan, kredit munosabat ishtirokchilari - qarz beruvchi va qarz oluvchi - xuquqiy jixatdan mustaqil sub`ekt bo`lishi kerak. Mustakil sub`ekt sifatida xar ikkala tomon bir-biri bilan o`za`ro aloqalardan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarishini moddiy jixatdan kafolatlay olishi kerak. Majburiyatlarni bajara olish qobiliyatini xisobga olgan xolda mustaqil xukukiy sub`ekt sifatida tomonlar iqtisodiy munosabatga kirishishlari kerak.

ikkinchidan, qarz beruvchi va qarz oluvchi manfaatlari bir-biriga mos tushgan taqdirdagina kredit zaruriyatga aylanadi. Bu manfaatlar avvalambor, ob`ektiv jarayonlar, o`za`ro manfaatlarni taqozo etuvchi aniq vaziyat bilan bog`liq.

Kreditor (qarz beruvchi) tomonidan pul mablag`larini qarzga berish bo`yicha, qarz oluvchi tomonidan esa shu mablag`larni olish bo`yicha kizikish tug`ilgan taqdirdagina kredit yuunosabatlari vujudga keladi.

Kreditning vujudga kelishi kredit munosabatlari ishtirokchilari manfaatlarining yo`nalishiga bog`lik tomonlar manfaatlarining mos kelishi kredit shartnomasi tuzilishini ta`minlaydi. Lekin, kredit munosabatlari ishtirokchilari manfaati nafaqat vakt va fazo jixatdan, shuningdek sifat jixatdan xam mos tushgan taqdirdagina bu munosabatlar reallikka aylanadi. SHu bilan birga kreditning bu muxim sifatleri kredit munosabatlari sodir bo`lishining asosiy sababi bo`laolmaydi. Kredit vujudga kelishi uchun, yukorida aytilgandek anik bir kktisodiy asos -fondlarning doiraviy aylanishi va shunta uxshash boshka anik sharoitlar bo`lishi zarur. Fakatgina ana shu ta`sir etuvchi omillar bo`lgan taqdirdagina kreditning vujudga kelishi reallikka aylanadi.

Ba`zi iqtisodiy adabiyotlarda kreditning zarurligi xususida bir necha boshqa fikrlar xam uchraydi. Masalan, kredit korxonalar faoliyatini nazorat qilpshni amalga oshirish uchun zarur deb ta`kidlanadi. Agar bu fikr to`g`ri deb qaraydigan bo`lsak kreditning

zarurligi faqat kreditor uchun tushunarli bo`ladi, chunki u qarz berish orkali qarz oluvchi faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Nakd pulsiz shaklidagi xisob kitoblarning bank orkali utishida ishlatiladigan mablag`lar kam ssuda kapitali shakllanishining yangi manbai bo`lib, bu mablag`lar aylanma mablag`larning doiraviy aylanish jarayokida yuzaga keladi. Korxonalarda moliyaviy resurslarning vaqtincha bush bo`lib qolishining quyidagi asosiy sabablarini ko`rsatib o`utish mumkin:

-ishlab chiqarilgan maxsulotlarni sotish vaqti bilan olingan xom ashyo, materiallar, ishchilarga ish xaqi va boshka to`lovlarni amalga oshirish vaqtining mos kelmasligi;

-asosiy fondlarning eskirishini qoplash uchun mo`ljallangan pul ajratmasi, ya`ni amartizatsiya fondining shakllantirilishi.

Kreditning ikkita asosiy shakli mavjud:

1. Bank krediti

2. Tijorat krediti

Tijorat krediti tovarlar sotish jarayonini tezlashtirishda va korxonalarining aylanma mablag`larini xo`jalik faoliyatidan tezroq bo`shashini ta`minlashda katta ahamiyatga ega.

Iste`mol krediti. Iste`mol krediti o`zining maqsadi bilan kreditning boshqa shakllaridan farq qiladi. Uning farqli belgisi - jismoniy shaxslarni kredit xisoblanadi. Kreditning bu shaklida kredit beruvchi sifatida maxsus kredit muassasalari bilan birga tovar va xizmatlarni sotishni amalga oshiradigan jismoniy shaxslar xam bo`lishi mumkin.

Iste`mol krediti ikki shaklda: pul shaklida yoki tovar shaklida berilishi mumkin. Jismoniy shaxslarga ko`chmas mulkka egalik qilish uchun, qimmat bo`lgan davolanishni to`lash, xar-xil tovarlar va uy-jixozlari sotib olish va boshqa extiyojlarni qondirish uchun iste`mol kreditlari berilishi mumkin.

Ipoteka krediti kuchmas mulk (er, bino, uy-joy kabilarni) garovga qo`yib olinadigan kredit. Odatda, ipoteka kreditidan qishloq xo`jaligida asosiy fondlarni yangilash, yirik kapital qo`yilmalarini qoplash uchun foydalaniladi.

Davlat krediti. Kreditning bu shaklining asosiy xususiyati kredit munosabatlarida davlatning qatnashuvidir. Davlat kreditida davlat bir tomondan qarz beruvchi va ikkinchi tomondan qarz oluvchi sifatida ishtirok qilishi mumkin. Qarz beruvchi vazifasini bajara turib, davlat,

davlat kredit institutlari, jumladan Markaziy bank orqali iqtisodning xar xil soxalarini kreditni o`z zimmasiga oladi. Davlat tomonidan:

- iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini kredit;
- moliyaviy resurslarga extiyoj sezayotgan davlat axamiyatiga ega bo`lgan aniq tarmoq yoki mintaqalarga, agar byudjetdan moliyalashtirish imkoniyati tugagan bo`lsa, vaqtincha foydalanishga mablag' ajratishi mumkin.

Davlatning qarzlari kupaygan xollarda davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirish maqsadida, davlat qarz oluvchi sifatida, davlat qarzlari joylashtirish jarayonini amalga oshiradi.

Davlat kreditining xarakterli xususiyati shundaki, davlat tomonidan olingan qarz mablag'lari ishlab chiqarish fondlari aylanishida yoki moddiy boyliklar yaratishda ishtirok qilmaydi. Bu mablag'lar davlat qarzlari qoplash uchun ishlatiladi.

Davlat davlat xazina majburiyatlari chiqarish, moliya bozorlarida davlat qimmatbaxo qogozlarini joylashtirish, davlat zaemlarini chiqarish va sotish yuli bilan banklarning axolining va boshqa moliya-kredit institutlarining pul mablag'larini yig'adi va ularni davlat qarzi va byudjet kamomadini qoplashga (moliyalashtirishga) sarflaydi.

Xalqaro kredit. Kredit munosabatlari xalqaro miqyosda (davlatlar o`rtasida) amalga oshirilishi xalqaro kreditning yuzaga kelishiga olib keladi. Kreditning bu shaklining bevosita ishtirokchilari millatlararo moliya-kredit institutlari, tegishli davlat xokimiyati, kredit tashkilotlari va aloxida yuridik shaxslar bo`lishi mumkin.

Xalqaro kredit bir davlat, shu davlat banki, yuridik shaxs tomonidan ikkinchi bir davlatga, uning banklariga, boshqa yuridik shaxslariga muddatlilik va to`lovlilik asosida beriladigan kredit xisoblanadi.

Xalqaro kredit davlat va xalqaro institutlar ishtirok etgan munosabatlarda pul (valyuta) shaklida, tashqi savdo faoliyatida esa tovar shaklida bo`lishi mumkin.

Xalqaro kredit quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

- qarz oluvchi va qarz beruvchi sifatida davlat, tashkilot va muassasalar, yuridik shaxslar (banklar, kompaniyalar), xalqaro valyuta kredit tashkilotlari qatnashadilar;
- qarzga olingan mablag'lar qarz oluvchi mamlakat tomonidan daromad keltiruvchi kapital sifatida ishlatiladi;

- qarz beruvchi mamlakatga tulanadigan ssuda foizining manbasi qarz oluvchi mamlakat tomonidan yaratilgan milliy daromad xisoblanadi.

Xalqaro kredit maxalliy kredit bilan bir qatorda fondlar aylanishining barcha bosqichlarida katnashadi.

Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- mamlakatlar o`rtasida kapitalning qayta taqsimlanishini ta`minlaydi;

- kapitalning konsentratsiyalashuviga va markazlashuviga sharoit yaratadi va bu jarayonni tezlashtiradi;

- xar xil valyutalarda xalqaro xisob-kitoblarni olib borishda muomila xarajatlarini qisqartiradi .

Xalqaro kreditlar:

- *xarakteri bo`yicha* - davlatlararo, xususiy, firma kreditlariga;

- *shakli bo`yicha* - davlat, bank, tijorat;

- *tashqi savdo tizimida tutgan o`rni bo`yicha* - eksportni kredit, importni kreditga;

- *muddati bo`yicha* - qisqa muddatli-1 yilgacha, uzoq muddatli -5 yildan ortiq muddatga;

- *ob`ekti bo`yicha* - tovar va valyuta;

- *ta`minlanganligi bo`yicha* - tovar-moddiy boyliklar bilan yoki xujjatlar bilan ta`minlangan kreditlarga bo`linadi. eksportni kreditda davlat tomonidan subsidiya ajratilganligi uchun firma kreditlari bo`yicha foiz stavkalari odatda foiz stavkalarining bozor baxosidan past bo`ladi.

Xalqaro bank kreditlarining bank eksport kreditlari (xorijiy importyorlarga xususiy tijorat banklari, maxsus tashqi savdo banklari tomonidan beriladigan kredit), evrokredit (yirik tijorat banklari tomonidan evrovalyuta bozori resurslari xisobidan evrovalyutada, 2 yildan 10 yilgacha bo`lgan muddatga, o`zgaruvchan foiz stavkada kreditlar berish) kabi turlari mavjud.

8.6. Kredit qonunlarining zarurligi va ob`ektivligi.

Kreditning zarurligini ifodalovchi omillar mohiyatini ochishda, ularning har birining ahamiyatini kredit shartnomasini tuzish darajasigacha olib kelish xato hisoblanadi. Alohida olingan bir

omilning o'zi kredit berilishi uchun u yoki bu darajada etarli bo'lmashligi mumkin.

Masalan, aytaylik korxonalarda ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishi jarayonida ularda kreditga ehtiyoj tug'iladi. SHunga asosan kredit takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash zarurligidan kelib chiqadi, degan shartga asoslangan holda kredit berilishi kerak. Ammo bunda qo'shimcha resurslarga muhtojlik o'z o'zidan avtomatik tarzda kredit berilishi kerakligini ifodalamaydi. Buning uchun kreditning zarurligini ifodalovchi boshqa sharoitlar ham mavjud bo'lishi kerak.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri kredit munosabatlarini rivojlantirishda banklar kredit uchun xarakterli muhim shartlar va qonunlarga asoslangan holda kreditlash jarayonini amalga oshirishlari zarur.

Tijorat kreditida kreditor va qarzdorlar bo'lib faoliyat kursatuvchilar (ishlab chikaruvchilar) xisoblanadilar.

Tijorat kreditining cheklanishlari mavjud bo'lib ular:

- faoliyat ko'rsatuvchilarning zaxira kapitalari xajmi bilan cheklanganligi, ya'ni unga xozirgi davrda oborot (muomala) uchun zarur bo'lmagan kapital bilan cheklanganligi;

- yo'nalishiga ko'ra, uni ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlar ishlab chiqarish vositalarini iste'mol qiluvchilarga berishi mumkin, ammo teskarisi bo'lishi mumkin emas.

Tijorat kreditidan farkli ularoq bank krediti nafaqat tovarlar muomalasiga xizmat kursatadi, balki yanada kengrok muxitda faoliyat ko'rsatadi.

Bank krediti - pul egalari, banklar va boshka kredit institutlari tomonida ishlab chikaruvchilarga, xamda boshka qarz oluvchilarga pul shaklida beriladigan ssudalardir.

Bank kreditining ob'ekti- pul kapitalidir.

Bank kreditida ishlab chikaruvchi shaxslar (faoliyat kursatuvchilar) faqat qarz oluvchi sifatida ishtirok etadilar, kreditorlar bo'lib esa ssuda kapitali egalari xisoblanadilar.

Bank krediti jamiyat barcha sinflarini pul daromadlari va jamg'armalarini kapitalga aylantirib kapitalni jamg'arilishiga sababchi bo'ladi.

Tijorat krediti veksel' bilan xujjatlashtiriladi. Tijorat kreditining foizi, tovarlar pagonasiga va veksel' summasiga qo'shiladi va u bank

krediti foizidan past bo`ladi. Bank kredit foizining maksadi ssudalar xisobiga daromad (foyda) olishdir.

8.7.Kreditning xarakterli va xususiyatli belgilari

Ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini moddiy va mexnat omillari ta`minlaydi. Ishlab chiqarishning bu omillar bilan bir tekisda ta`minlanishi muammodir.

Kredit orqali jamiyatimizda quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

birinchidan, fondlar aylanishi jarayonida chetga chikib, bush kolgan mabalglarning xarakatsiz turib kolishining oldin olinadi;

ikkinchidan, takror ishlab chiqarishki keng doirada uzluksiz davom ettirishga imkoniyat yaratiladi.

Kreditning vujudga kelishi reallikka aylanishi uchun muayyan sharoitlar bo`lishi zarur. SHu masala bo`yicha ba`zi iktisodiy adabiyotlarda keltirilgan fikrlarni tahlil qilib, iktisodchilar tomonidan kreditning yuzaga kelishining quyidagi shartlariga ko`prok e`tibor berilganini ko`rsatib o`tish mumkin. Kredit munosabat bo`lishi uchun:

birinchidan, kredit munosabat ishtirokchilari - qarz beruvchi va qarz oluvchi - xuquqiy jixatdan mustakil sub`ekt bo`lishi kerak Mustaqil sub`ekt sifatida xar ikkala tomon bir-biri bilan o`za`ro aloqalardan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarishini moddiy jihatdan kafolatlay olishi kerak Majburiyatlarni bajara olish qobiliyatini xisobga olgan xolda mustakil xuquqiy sub`ekt sifatida tomonlar iqtisodiy munosabatga kirishishlari kerak

ikkinchidan, qarz beruvchi va qarz oluvchi manfaatlari bir-biriga mos tushgan taqdirdagina kredit zaruriyatga aylanadi. Bu manfaatlar avvalambor, ob`ektiv jarayonlar, o`za`ro manfaatlarni taqozo etuvchi aniq vaziyat bilan bog`liq.

Kreditor (qarz beruvchi) tomonidan pul mablag`larini qarzga berish bo`yicha, qarz oluvchi tomonidan esa shu mablag`larni olish bo`yicha qizikish tug`ilgan taqdirdagina kredit yunosabatlari vujudga keladi.

Kreditning vujudga kelishi kredit munosabatlari ishtirokchilari manfaatlarining yo`nalishiga bog`lik tomonlar manfaatlarining mos kelishi kredit shartnomasi tuzilishini ta`minlaydi. Lekin, kredit munosabatlari ishtirokchilari manfaati nafaqat vaqt va fazo jixatdan, shuningdek sifat jixatdan xam mos tushgan taqdirdagina bu munosabatlar reallikka aylanadi. SHu bilan birga kreditning bu muxim

sifatlari kredit munosabatlari sodir bo'lishining asosiy sababi bo'laolmaydi. Kredit vujudga kelishi uchun, yuqorida aytilgandek aniq bir iqtisodiy asos -fondlarning doiraviy aylanishi va shunga o'xshash boshqa aniq sharoitlar bo'lishi zarur. Faqatgina ana shu ta'sir etuvchi omillar bo'lgan taqdirdagina kreditning vujudga kelishi reallikka aylanadi.

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari ichida kredit jarayoni asosiy o'rinni egallaydi. U quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- kredit olish uchun berilgan mijozning ariza talabnomasini ko'rib chiqish;
- qarz oluvchining to'lovga va kreditga layoqatliligini bank tomonidan o'rganib chiqilishi;
- kredit qo'mitasining qarori;
- kredit bitimini rasmiylashtirish;
- kredit berilishi;
- ssuda va u bo'yicha foiz tulashni bank tomonidan nazorat qilinishi.

Kredit asosan ishlab chiqarish, hizmat ko'rsatish, savdo va boshqa iqtisodiy munosatlarni rag'batlantiradi. Chunki kreditning iqtisodiy asosi faqat tomonlarni manfaatiga xizmat qiladi. Shuning uchun kredit operatsiyalari nafaqat tomonlarni balki xam mikro ham makro darajadagi ahamiyati tomonlari ham beqiyos. Bu mamlakatning yalpi ichki maxsulotini o'sishiga va nihoyat mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy o'sishiga olib boradi. Mazkur o'sishga kreditning ta'siri ahamiyatli xisoblanib, bunda uning xarakterli tomonlarini ochib berish maqsadga muvofiqdir. Bu quyidagilardan iborat:

-kredit chetda turib qolgan bo'sh pul mablag'larini xarakatga keltiradi:

-kredit kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini doimiy pul mablag'lari bilan ta'minlaydi:

-kredit asosiy ishlab chiqarishni doimiy rag'batlantirib boradi.

Kredit va uni to'lash jarayoni kredit shartnomasida ko'rsatilgan bo'lib, kredit va qarz oluvchi o'rtasidagi majburiyat va xuquqlarni belgilab beradi. Unda kreditning maqsadi va ob'ekti, kredit miqdori, ssudani berish va uni to'lash muddati, kredit ta'minotining turlari, kredit uchun foiz stavkasi va boshqalar ko'rsatiladi. Ssuda to'lashni nazorat qilish bankning kredit portfelini muntazam tahlil qilish asosida olib boriladi va kreditlarning sifat darajasi aniqlanadi.

Tijorat banklari tomonidan beriladigan barcha kreditlar uning kredit portfelida o'z ifodasini topadi.

Moliyalashtirish manbalariga va qarz oluvchining mintaqaviy o'zni va manziliga qarab tijorat banklarining kredit portfelini tasniflash mumkin. Tijorat banklari tasniflashni asosan milliy valyutada olib boradilar va ba'zi xollarda qayta moliyalashtirish va o'z mablag'lari xisobidan beriladigan kreditlar bugungi kunda tijorat banklari kredit portfelining ma'lum bir qismini muammoli kreditlar tashkil etadi. Ajratilgan kreditlar bo'yicha extimoliy yo'qotishlarning oldini olish maqsadida, tijorat bankining kredit portfeli doimiy ravishda tasniflanib boradi. Kreditlarni o'z navbatida 5 ta turga, ya'ni yaxshi, standart, substandart, shubxali va umidsiz kredit turlariga tasniflash mumkin. SHubxali va umidsiz kredit deb tasniflangan kreditlar muammoli kreditlar deb qaraladi. Muammoli kreditlar tijorat banklari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Banklarning asosiy vazifasi, kredit berish o'rniga kreditlarning o'z muddatida qaytaruvchanligini ta'minlashdangina iborat bo'lib qolmoqda. CHunki, muammoli kreditlar tijorat bankining foyda olib keladigan aktivlarini kamaytiradi, bu esa o'z navbatida, bankning istiqbol rejasi ko'rsatkichlariga erisha olmasligidan dalolat beradi.

Xozirgi vaqtda markazlashtirilgan kreditlar xukumatimizning chiqargan qarorlariga asosan, ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish uchun milliy valyutada beriladi. Qayta moliyalashtirish va bankning o'z mablag'lari xisobidan beriladigan kreditlar mijoz kreditga layoqatli bo'lganda miliy valyutada yoki xorijiy davlat valyutasidi berilishi mumkin.

Tijorat banklari faoliyatida turli xil risklar uchrab turadi. Lekin ularning faoliyatida ko'proq kredit riski, likvidlilik riski va foiz stavkasi ta'sir qiladi. Tijorat banklar faoliyatining asosiy qismi kreditlar berish va shu asosda foyda olishga yunaltirilgan bo'lganligi uchun ular faoliyatida bu risklarning salmog'i xam yuqori bo'ladi.

Ssuda kapitali kapital bozorida muxim o'rin tutib milliy iktisodiyot extiyojlarini qondiradi. Ssuda kapitalining o'ziga xos xususiyatlari, uning kreditordan qarz oluvchiga bo'lgan xarakatida va aksincha bo'lgan jarayonida ko'proq ko'rinadi. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Ssuda kapitali kapital sifatida - bu mulk uning egasi qarz oluvchiga kapitalini doimiy egalikka emas, balki vaqtincha foydalanish uchun beradi. Bu xolda kapitalga bo'lgan egalik kapital xarakatidan ajraladi. Kapital korxonalarining ishlab chiqarish

faoliyatini tashkil qilishning boshidan oxirigacha qatnashib, uning xajmi ortib borsada, belgilangan kapital miqdori oxir oqibatda o'z egasi - kreditorga kaytib to'lanishi lozim.

2. Ssuda kapitalining o'ziga xos xususiyati, uning tovar sifatida ekanligidir. Kreditor tomonidan pul mablag'lari qarzdor korxonaga "sotiladi", Korxonalar bu kapital xisobidan chiqarish vositalari va ish kuchini sotib oladilar. Ssuda kapitalining tovar sifatidagi iste'mol qiymati - qarz oluvchi tomonidan uning samarali ishlatilishi natijasida qarzdor oladigan foyda xisoblanadi. Ssuda kapitalining iste'mol qiymati oddiy tovarning iste'mol qiymatidan farq qiladi. Ssuda kapitali bo'yicha olingan foidaning bir kismi ssuda foizini tulash uchun ishlatiladi.

3. Ssuda kapitalining yana bir xususiyati, kreditor va qarz oluvchi o'rtasidagi munosabatning uzok davom qilishidir. Ssuda kapitalining kreditordan qarz oluvchiga o'tish jarayoni davrlar bo'yicha tarkatilgan to'lov mexanizmining bosqichlarida ifodalanadi. Masalan, oddiy savdo sotik jarayonida sotilgan tovarning narxi shu zaxotiyok to'lanadi. Kredit resurslari va ulardan foydalanganlik uchun to'lovlar odatda ma'lum vaqt o'tgandan keyin to'lanadi.

4. Ssuda kapitali xarakatining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, ssuda kapitali xarakati sanoat va savdo kapitali xarakatidan farq qilib, "sotuvchi" (kreditor) va "xaridor" (qarz oluvchi) o'rtasidagi munosabat, ya'ni kapital xarakati, pul (P-T) ko'rinishida bo'ladi.

8.8. Kreditning qayta taqsimlash va muomala vositalarini yaratish funksiyasi.

Kredit takror ishlab chiqarish jarayonining barcha fazalariga ishlab chiqarish, taqsimlash, muomala va iste'molga xizmat ko'rsatadi.

Takror ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq holda kredit, ishlab chiqarish, taqsimlash yoki iste'mol jarayonida kechadigan funktsiyalardan farqli o'laroq qayta taqsimlash funktsiyasini bajaradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ssuda kapitali bozori vaqtincha bo'sh moliyaviy resurslarni bir faoliyat jabhasidan boshqasiga yo'naltiruvchi va natijada yuqori foydani ta'minlovchi o'ziga xos dastak sifatida namoyon bo'ladi.

Qayta taqsimlash funktsiyasi yordamida korxonalar, tashkilotlar, davlat va shaxsiy sektorning bo'sh pul mablag'lari va daromadlari ssuda kapitaliga aylantiriladi va vaqtincha foydalanishga, muayyan to'lov asosida beriladi. Bu funktsiya yordamida ishlab chiqarishdagi proporsiyalar va pul kapitali harakati boshqarilib turiladi.

O'zining turli tarmoqlar va mintaqalarda tabaqalanish darajasiga tayanib, kredit iqtisodning stixiyali makroboshqaruvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Ba'zi hollarda bu funktsiyaning amalga oshirilishi bozor tizimida nomutanosiblikning chuqurlashuviga olib kelishi mumkin. SHuning uchun kredit tizimini davlat tomonidan boshqarishning muhim vazifalaridan biri bu iqtisodiy ustunlikni oqilona tavsiflash va kredit resurslarini u yoki bu tarmoqqa jalb qilishni rag'batlantirishdan iboratdir.

Muomalaga to'lov vositalarini chiqarish funktsiyasi. Bu funktsiyaning amalga oshishi jarayonida kredit faqatgina tovar emas, balki pul muomalasining jadallashuviga, undan naqd pullarni siqib chiqarib, to'lovlar aylanishining tezlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kredit tufayli pul muomalasi doirasiga veksel', chek, kredit kartochkalari kabi vositalar kiritilib, naqd pulli hisobkitoblarni naqdsiz operatsiyalar bilan almashtiradi. Bu esa ichki va xalqaro bozordagi iqtisodiy munosabatlar mexanizmini osonlashtiradi va tezlashtiradi. Bu masalani hal etishda tijorat krediti zamonaviy tovar almashinuvining kerakli elementi sifatida muhim o'rin tutadi.

Nazorat uchun savollar

1. Kredit iqtisodiy kategoriyasini, kreditning zarurligini belgilovchi omillarni yoritib bering?

2. Kreditning mohiyatini, kreditning funktsiyalarini, "Kredit" tushunchasining mazmunini ochib bering?

3. Kreditning printsiplarini, kreditning zarurligini belgilovchi omillarni tushuntirib bering?

4. Kapitalning doiraviy aylanishi va aylanishini izohlab bering?

5. Aholining kreditga bo'lgan talabining paydo bo'lishini, davlatning kredit resurslariga bo'lgan talabining paydo bo'lishi va kreditning shakllarini yoritib bering?

6. Kredit qonunlarining zarurligi va ob'ektivligini tushuntirib bering?

7. Kreditning xarakterli va xususiyatli belgilarini ochib bering?
8. Kreditning qayta taqsimlash va muomala vositalarini yaratish funksiyasini yoriting?

9-MODUL. KREDIT MUNOSABATLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.

9.1. Kredit munosabatlarining yuzaga kelish sabablari. Kredit munosabatlarining rivojlanish bosqichlari.

9.2. Sudxo`rlik kreditining yuzaga kelishi. Tijorat krediti va bank kreditining paydo bo`lishi.

9.3. Kredit munosabatlarining yuzaga kelish sabablari va shart-sharoitlari.

9.1. Kredit munosabatlarining yuzaga kelish sabablari. Kredit munosabatlarining rivojlanish bosqichlari.

Korxonalarda asosiy va aylanma fondlarining doiraviy aylanishi jarayonida ularda kreditga ehtiyoj tug`iladi. SHunga asosan kredit takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta`minlash zarurligidan kelib chiqadi, degan shartga asoslangan holda kredit berilishi kerak. Ammo bunda qo`shimcha resurslarga muhtojlik o`zo`zidan avtomatik tarzda kredit berilishi kerakligini ifodalamaydi. Buning uchun kreditning zarurligini ifodalovchi boshqa sharoitlar ham mavjud bo`lishi kerak.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim yo`nalishlaridan biri kredit munosabatlarini rivojlantirishda banklar kredit uchun xarakterli muhim shartlar va qonunlarga asoslangan holda kreditlash jarayonini amalga oshirishlari zarur.

Kredit bu vaqtincha bo`sh turgan pul mablag`larini pul egasi yoki boshqalar tomonidan ma`lum muddatga, haq to`lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig`indisidir.

Kredit yordamida tovarmoddiy boyliklari, turli mashina va mexanizmlar sotib olinadi, iste`molchilar mablag`lari etarli bo`lmagan

sharoitda to'lovni kechiktirib, tovarlar sotib olishlari va boshqa har xil to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kredit iqtisodiy kategoriya bo'lib, ijtimoiy munosabatlarning aniq bir ko'rinishi sifatida yuzaga chiqadi.

Kredit har qanday ijtimoiy munosabat emas, balki ijtimoiy ishlab chiqarish mahsuli, qiymatning harakati, qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyadir.

Kreditning mohiyati uning ichki belgilarini ochib berishga qaratilgan. Kreditning mohiyatini ochish – bu uning sifatlarini, muhim tomonlarini, iqtisodiy munosabatlar tizimining bir elementi sifatida ko'rsatuvchi asoslarini bilish demakdir.

Iqtisodiy kategoriya sifatida kreditning mohiyati ko'pgina iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilib chiqilgan va ular tomonidan kreditning mohiyati bo'yicha turlicha fikr bildirilgan.

Kreditning vujudga kelishi reallikka aylanishi uchun muayyan sharoitlar bo'lishi zarur. SHu masala bo'yicha ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan fikrlarni taxlil qilib, iqtisodchilar tomonidan kreditning yuzaga kelishining quyidagi shartlariga ko'proq e'tibor berilganini ko'rsatib o'tish mumkin. Kredit munosabat bo'lishi uchun:

birinchidan, kredit munosabat ishtirokchilari - qarz beruvchi va qarz oluvchi - xuquqiy jixatdan mustaqil sub'ekt bo'lishi kerak. Mustakil sub'ekt sifatida xar ikkala tomon bir-biri bilan o'zaro alokalardan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarishini moddiy jixatdan kafolatlay olishi kerak. Majburiyatlarni bajara olish qobiliyatini xisobga olgan xolda mustaqil xuquqiy sub'ekt sifatida tomonlar itisodiy munosabatga kirishishlari kerak.

ikkinchidan, qarz beruvchi va qarz oluvchi manfaatlari bir-biriga mos tushgan taqdirdagina kredit zaruriyatga aylanadi. Bu manfaatlar avvalambor, ob'ektiv jarayonlar, o'zaro manfaatlarni taqozo etuvchi anik vaziyat bilan bog'liq.

O'zining tarixiy rivojlanishida kredit bir necha bosqichlarni bosib o'tgan.

Ilk shakllanishi bosqichining asosiy belgisi ssuda kapitali bozorida maxsus vositachilarning yo'qligi edi. Kredit munosabatlari, bo'sh pul mablag'larning egasi va qarz oluvchi o'rtasida bevosita amalga oshirilardi. Bu erda kredit sudxo'rlik kapitali sifatida namoyon bo'lardi. Uning o'ziga xos belgilari sifatida quyidagilarni belgilab o'tish mumkin:

1. qarz beruvchi va qarz oluvchi o`rtasidagi, to`g`ridan to`g`ri kelishuvga asoslangan qarz munosabatlarining to`liq markazlashmaganligi;

2. mablag`larni taqsimlashning cheklanganligi;

3. qarz mablag`laridan foydalanganligi uchun juda yuqori foiz me`yorlarining belgilanganligi va boshqalar.

Bu bosqichning tugallanishi ishlab chiqarish maqsadlari uchun moliyaviy qarz resurslariga bo`lgan ehtiyojning keskin oshishiga olib kelgan kapitalistik ishlab chiqarish usuli bilan bog`liq. Alohida olingan sudxo`rlarning individual kapitallari ko`rsatilgan talablarni qondirish uchun etarli emas edi. Bu esa ba`zi mulkdorlar tomonidan boshqa mulqdorlar pul mablag`larini jalb qilish hisobidan o`z faoliyatini olib borishga majbur qilardi.

Tarkibiy jihatdan rivojlanish. Kredit rivojlanishining bu bosqichi ssuda kapitali bozorida kreditmoliya tashkilotlari ko`rinishidagi maxsus vositachilarining paydo bo`lishi bilan xarakterlanadi.

Katta sudxo`rlik va sarroflik idoralari zaminida vujudga kelgan dastlabki banklar o`z zimmasiga ko`pchilik kredit institutlariga keyinchalik an`anaviy bo`lib qolgan, eng kerakli funksiyalarni oldi. Bular:

– bo`sh moliyaviy mablag`larni foiz bilan vaktida to`lash majburiyati asosida qarz oluvchiga berishiga asoslanib jamg`arish;

– yuridik va jismoniy shaxslar uchun har xil to`lov va hisobkitoblar bo`yicha xizmat ko`rsatishi (keyinchalik davlat uchun ham);

– qator maxsus moliyaviy operatsiyalarni o`tkazish (masalan, veksel munosabati mexanizmi bo`yicha xizmat ko`rsatish va boshqalar).

Maxsus vositachilarga ssuda kapitali bozorida bo`lgan talab, shuningdek, foydaning yuqori me`yori bank tizimining boshqa faoliyat sohalaridan keladigan kapital oqimi hisobiga rivojlanishini aniqlab beradi (yangi vujudga kelayotgan kredit tashkilotlarining tuzuvchilari sudxo`r va sarroflar bo`lmay, balki sanoat va savdo kapitalistlari edi). Rivojlanish bosqichida ssuda kapitali bozoridagi munosabatlar ma`lum darajada shakliy tus ola boshladi, kreditlashning malum bir turdagi jarayonlari o`rnatildi, ssuda kapitalining o`rtacha mintaqaviy va milliy me`yorlari o`rnatildi va h.k. Biroq kredit

tashkilotlarining faoliyati haligacha markazlashmagan edi. Bu esa ssuda kapitali bozorining rivojlanishiga to'sqinlik qilardi va iqtisodiyotning davriy rivojlanish sharoitlarida moliyaviy bozorning boshqa bo'g'larida nomotanosibliklarni keltirib chiqardi.

Hozirgi ahvoli. Bu bosqichning asosiy belgisi iqtisodiyotda kredit munosabatlarini davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarilishidir. Davlat miqyosida kredit munosabatlarining markazlashuvi har bir davlatning Markaziy banki yordamida amalga oshiriladi. Dastlabki umummilliy davlat kredit institutlarining paydo bo'lishi naqd pulsiz hisob kitoblarni olib borish uchun qo'l keldi hamda tijorat banklarining operatsiyalari va xizmat ko'rsatish ko'lamining kengayishiga olib keldi, masalan, fond bozoriga xizmat ko'rsatish bo'yicha. Keyinchalik Markaziy banklar faoliyati bozor iqtisodiyotini barqarorlashtirishning samarali omili bo'lgan kredit dastklarini ishlatish bo'yicha yo'naltirildi. Bu esa davlatniki bo'lmagan kredit tashkilotlarini nazorat qilishni kuchaytirishni talab qildi. SHuningdek, iqtisodiyotda informatsion texnologiyaning rivojlanishi, global bank tarmoqlarining kompyuter kommunikatsiyalari va ma'lumotlar bazalarining shakllanishi kredit munosabatlarini yangi sifatli darajaga, ya'ni mijozga xizmat ko'rsatish bilan birga ularning moliyaviy faoliyatining hamma jabhalariga, shuningdek, xalqaro bozorga ham tarqalishiga olib keldi.

Jamiyat faoliyatining o'ta muhim jihati – bu ishlab chiqarishdir. Ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy resurslar ishlatiladi, mahsulotlar va xizmatlardan iborat hayotiy ne'matlar yaratiladi.

Ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini moddiy va mehnat omillari ta'minlaydi. Ishlab chiqarishning bu omillar bilan bir tekisda ta'minlanishi muammodir.

Bu muammo o'z echimini kredit orqali topadi.

Kredit tovar pul munosabatlari mavjud sharoitdagi takror ishlab chiqarish jarayonining ajralmas bir qismi bo'lib, tovar ishlab chiqarish kredit munosabatlari vujudga kelishining tabiiy asosi hisoblanadi. Kreditning vujudga kelishini nafaqat ichki iste'mol uchun tovar ishlab chiqarish doirasidan emas, balki asosan yuridik jihatdan mustaqil, birbiriga mulkdor sifatida qaramaqarshi turuvchi va iqtisodiy munosabatlarga kirishishga tayyor tovar egalari faoliyat ko'rsatayotgan muomala doirasidan qidirish kerak.

9.2. Sudxo`rlik kreditining yuzaga kelishi. Tijorat krediti va bank kreditining paydo bo`lishi.

Kreditning o`ziga xos shakli. Xorijda bu tarixan keng tarqalgan kredit bo`lib xisoblanadi. Amalda sudxurlik krediti Markaziy bank tomonidan tegishli litsenziyaga ega bo`lmagan jismoniy shaxslar, shuningdek xo`jalik yurituvchi sub`ektlar tomonidan mablag'larni vaqtincha foydalanishga berish yo`li bilan amalga oshiriladi.

Kreditning rolini kreditni intensivlashtirish dastagi va rag`batlantiruvchisi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda bajaradigan funktsiyalarining natijasi sifatida aniklashtirish mumkin.

Kredit takror ishlab chiqarish jarayonini tezlashtiradi va ijtimoiy ishlab chiqarishning uzluksizligini ta`minlaydi.

Korxonalariga beriladigan kredit ularni vaktinchalik moliyaviy resurslarga bulgan extiyojini kondiradi va takror ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz davom etishini ta`minlaydi.

Pul mablag'lariga extiyoj ishlab chiqarishning nafakat mavsumiy, shuningdek boshka sabablariga xam bog`lik. Barcha xollarda kreditni jalb etish asosiy va aylanma fondlarining uzluksiz doiraviy aylanishini, ishlab chiqarish jarayoni va tovarlar muomalasini tezlashtirishni ta`minlaydi.

Boshka iktisodiy kategoriyalar singari kredit maxsulot ishlab chiqarish va muomala soxasini ragbatlantiradi. SHuningdek kredit ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishga, iqtisodiy vazifalarni bajarishiga muxim ta`sir ko`rsatadi.

Kredit shunday ishlab chiqarish vositalari sotib olish va kiritishga ishlatilishi kerakki, bunda bu vositalar asosida mexnat unumdorligini va mexnatni fond bilan qurollanish darajalari oshsin.

Kreditning muxim roli sof daromadni ishlatish sharoitlarini to`lashligini ta`minlashdan iborat. Sof daromadni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish maqsadlarida ishlatish uchun avval uni ishlab chiqarishni kengaytirish talab qiladigan darajada pul ko`rinishida jamg`arish kerak.

Kredit davlatning iqtisodiy dastaglaridan biri sifatida butun iktisodiyotning rivojlanishiga va aloxida korxonalar faoliyatiga rag`batlantiruvchi ta`sir ko`rsatadi.

Kredit ishlab chiqarishga ijtimoiy xarajatlarni iktisod kilish yuli bilan ta`sir etadi.

Ammo, kredit tovar-moddiy boyliklardagi jonli yoki buyumlashgan mexnatni bevosita iktisod kila olmaydi, chunki uning uzi ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etmaydi.

Iktisodiyotda kredit munosabatlarining vujudga kelishining birinchi shakllaridan bo`lib, veksel' muomalasini vujudga keltirgan va nakd pulsiz xisob kitoblarining rivojlanishiga yordam bergan. Tijorat kreditining sub'ektlari sifatida turli shaxslar: mol etkazib beruvchi va mol sotib oluvchi korxonalar, kryoditning ob'ekta sifatida sotilayotgan tovar ishtirok kiladi. Tijorat krediti uzining amaliy kurinishini xuquqiy shaxslar o`rtasida tovar va xizmatlarning to`lov muddatini cho`zish orkali sotish shaklidagi moliya xo`jalik munosabatlarida topadi. Bu kredit shaklining asosiy maksadi tovarlarni sotishni tezlashtirish va shu orkali foyda olishdan iborat.

Tijorat kreditning an`nanaviy vositasi bo`lib, qarz oluvchining qarz beruvchiga nisbatan moliyaviy majburiyatlarini aks ettiruvchi veksel' xisoblanadi. Veksel bu qarz majburiyati bo`lib, qarz oluvchi o`z zimmasiga qarzni ko`rsatilgan summada, ko`rsatilgan joyda, belgilangan muddatda to`lash majburiyatini oladi.

Amaliyotda vekselning ikki turi kullaniladi. **Oddiy** va **o`tkazma** veksel. Oddiy vekselni qarz oluvchi korxonaga qarz beruvchi korxonaga beradi va tovarlar va ko`rsatilgan xizmatlar uchun unga to`lash majburiyatini o`z zimmasiga oladi.

O`tkazma vekselde kreditor tomonidan belgilangan tovar va xizmatlar summasi uning topshirigiga asosan uchinchi shaxsga yoki vekselni ko`rsatuvchiga o`tkazilishi zarur. Kreditorning vekselde ko`rsatilgan summani uchinchi shaxsga to`lash to`g`risidagi buyro`g`ini ifodalovchi xujjat amaliyotda tratta deb xam yuritiladi.

Tijorat krediti bank kreditidan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1. Kreditor (qarz beruvchi) rovida maxsus kredit-moliya tashkilotlari emas, balki tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish xamda sotish bilan shug`ullanuvchi turli xuquqiy shaxslar ishtirok qiladi;

2. Tijorat krediti fakatgina tovar shaklida beriladi;

3. Tijorat kreditida ssuda kapitali, sanoat va savdo kapitali bilan integratsiyalashgan xolda xarakat qiladi. Bu bozor iktisodiyoti sharoitda turli ixtisosdagi va faoliyat yo`nalishdagi korxonalarni o`z ichiga oluvchi xolding, moliyaviy kompaniyalarning vujudga kelishida o`z amaliy aksini topadi;

4. Berilgan vaqt oralig'ida tijorat kreditining o`rtacha qiymati bank foizining o`rtacha stavkasidan doimo kichik bo`ladi;

5. Qarz beruvchi va qarz oluvchi o`rtasidagi shartnoma rasmiylashtirilganda tijorat krediti bo`yicha tulov (foiz stavkasi) aloxida aniqlanmaydi. Foiz to`lovi tovar baxosiga qo`shilgan xolda rasmiylashtiriladi.

Iktisodiyotda keng tarqalgan kredit munosabatlarining shakllaridan biridir. Uning ob`ekti pul mablag`larini bevosita ssudaga berish jarayoni xisoblanadi. Bank kreditini beruvchi kredit muassasalari kreditlash jarayonini amalga oshirish uchun Markaziy bankdan maxsus litsenziya (ruxsatnoma) olgan bo`lishlari zarur. Qarz oluvchi sifatida xuquqiy shaxslar, axoli, davlat, xorijiy davlat mijozlari ishtirok kilishlari mumkin. Kredit munosabatlarining vositasi bo`lib, kredit shartnoma yoki kredit kelishuvi xisoblanadi. Bu kredit turi bo`yicha olinadigan daromad yoki stavka tomonlar bilan kelishiladi va bank foizi yoki ssuda foizi kurinishida bo`ladi.

Jahon amaliyotida bank kreditidan foydalanishda uning turli xil xususiyatlari xisobga olinadi.

Qisqa muddatli bank kreditlari qarz oluvchi korxonaning xo`jalik faoliyatida aylanma mablag`lar etishmovchiligini to`ldirish uchun qo`llaniladi. Bozor iktisodiyoti tamoyillariga mos keluvchi bunday jarayonning bo`lishi ssuda kapitali bozorida mustakil segment pul bozorining yuzaga kelishiga olib keladi. Qisqa muddatli kreditlar fond bozorida, savdo va xizmatlar ko`rsatishda, banklararo kreditlash rejimida ko`proq qo`llaniladi.

Xozirgi sharoitda qisqa muddatli kreditlar quyidagi ko`rsatkichlar bilan xarakterlanadi:

- kreditlarning juda qisqa muddatlarga (ba`zida bir oygacha muddatga) berilishi;
- kreditning muddati va foiz stavkasining bir biriga teskari proporsional (kreditning muddati juda qisqa bo`lsada, foiz stavkasi juda yukori) bo`lishi;
- ishlab chiqarish soasidan ko`proq muomala soxasiga xizmat ko`rsatish;

9.3. Kredit munosabatlarining yuzaga kelish sabablari va shart-sharoitlari.

Hozirgi davrda bank kreditlarini berish tizimi tijorat kreditlari berish tizimiga qaraganda yuksak darajada rivojlangan. Buning asosiy sababi *pulning yuqori likvidli akti ekanligidir.*

Kreditning sub`ektlari bo`lib quydagilar hisoblanadi.

- Banklar;
- nobank kredit tashkilotlari, kredit uyushmalari, lombardlar, mikromoliyalash tashkilotlari, kredit korporativlari va boshqalar;
- korxonalar;
- jismoniy shaxslar;
- davlat;
- davlat organi;
- halqaro moliya kredit tashkilotlari.

Kredit-qiymatning harakati bo`lib pul va tavar ko`rinishidagi mablag'larni qaytarib berishlilik, muddatlilik va foiz to`lashlilik asosida berish natijasida yuzaga keladi.

Kredit orqali jamiyatimizda quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

birinchidan, fondlar aylanishi jarayonida chetga chiqib, bo`sh qolgan mablag'larning harakatsiz turib qolishining oldi olinadi;

ikkinchidan, takror ishlab chiqarishni keng doirada uzluksiz davom ettirishga imkoniyat yaratiladi.

Kreditning vujudga kelishi reallikka aylanishi uchun muayyan sharoitlar bo`lishi zarur. SHu masala bo`yicha ba`zi iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan fikrlarni tahlil qilib, iqtisodchilar tomonidan kredit yuzaga kelishining quyidagi shartlariga ko`proq e`tibor berilganini ko`rsatib o`tish mumkin. Ba`zi iqtisodiy adabiyotlarda kreditning zarurligi xususida bir necha boshqa fikrlar ham uchraydi. Masalan, kredit korxonalar faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirish uchun zarur, deb ta`kidlanadi. Agar bu fikr to`g`ri deb qaraydigan bo`lsak, kreditning zarurligi faqat kreditor uchun tushunarli bo`ladi, chunki u qarz berish orqali qarz oluvchi faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Bunday sharoitda kreditning chegarasi ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishiga asoslangan ob`ektiv jarayonlarga emas, balki bankning kredit operatsiyalari orqali qarz oluvchining faoliyatini nazorat qilish istagiga bog`liq bo`lib qoladi.

Bu mulohazalardan kelib chiqqan holda xulosa qilib aytish mumkinki, kreditning ob`ektiv zarurligi takror ishlab chiqarish jarayonida fondlarning doiraviy aylanishi qonuniyatlariga asoslangandir.

Kreditga zarurat tug`ilganda quyidagi manbalardagi bo`sh mablag`lardan kredit resurslar sifatida foydalanish mumkin. Bu manbalar asosan quyidagilardir:

➤ asosiy fondlarni tiklash, kapital tamirlash uchun ajratiladigan amortizatsiya sifatidagi pul mablag`lari;

➤ tovarlarni sotish va yangi moddiy resurslarni sotib olish vaqtlarining birbiriga mos kelmaganligi tufayli yuzaga kelgan bo`sh pul mablag`lari;

➤ tovarlar realizatsiyasidan tushgan tushum bilan ish haqini to`lash vaqtlari orasida vaqtincha bo`sh turib qolgan pul mablag`lari;

➤ kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida yig`iladigan va kapitallashtirish uchun mo`ljallangan qo`shimcha mablag`lar;

shaxsiy sektor daromadlari, jamg`armalari va boshqa bo`sh pul mablag`lari

Kreditning zarurligini ifodalovchi omillar mohiyatini ochishda, ularning har birining ahamiyatini kredit shartnomasini tuzish darajasigacha olib kelish xato hisoblanadi. Alohida olingan bir omilning o`zi kredit berilishi uchun u yoki bu darajada etarli bo`lmasligi mumkin.

Nazorat uchun savollar

1.Kredit munosabatlarining yuzaga kelish sabablari, kredit munosabatlarining rivojlanish bosqichlarini tushuntirib bering?.

2. Sudxo`rlik kreditining yuzaga kelishi, tjorat krediti va bank kreditining paydo bo`lishini yoritib bering?

3.Kredit munosabatlarining yuzaga kelish sabablari va shart-sharoitlarini yoritib bering?

4.Tijorat kreditining yuzaga kelish shart-sharoitlarini, bank kreditining paydo bo`lishi va uning o`ziga xos xususiyatlarini ochib bering?

10-MODUL. KREDIT TURLARI VA SHAKLLARI

10.1. Kreditning turlari. Kreditning shakllari. Kreditning tarmoq yo`nalishiga ko`ra turlari.

10.2. Kreditning takror qayta ishlab chiqarish jarayoni bosqichlariga xizmat ko`rsatishiga ko`ra turlari. Kreditning kreditlash ob`ektlariga ko`ra turlari.

10.3. Kreditning ta`minlanganligiga ko`ra turlari. Kreditning muddatiga ko`ra turlari. Kreditning to`lovliligiga ko`ra turlari.

10.1. Kreditning turlari. Kreditning shakllari. Kreditning tarmoq yo`nalishiga ko`ra turlari.

Kredit o`zining bir qancha belgilariga ko`ra turlanadi:

I) muddatiga ko`ra kredit 3 turga bo`linadi:

- a) qisqa muddatli kreditlar
- b) o`rta muddatli kreditlar
- c) uzoq muddatli kreditlar

Dunyoning ko`plab mamlakatlarida qisqa muddatli kreditlar deganda 1 yilgacha muddatga berilgan kreditlar tushuniladi. O`rta muddatli kreditlar deganda 1-3 yilgacha muddatda, uzoq muddatli kredit 3 yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar tushuniladi. Lekin ayrim mamlakatlarda kreditlarning muddatlariga ko`ra farqlanish mavjud. Masalan, AQSHda 1-8 yilgacha berilgan kreditlar o`rta muddatli kreditlar hisoblanadi. Xalqaro moliy institutlarida 1-5 yilgacha muddatda berilgan kreditlar o`rta muddatli kreditlar hisoblanadi.

O`zbekistonda o`rta muddatli kreditlar 2004-yilda bekor qilingan. 1yilgacha muddatga berilgan kreditlar qisqa, 1 yildan ortiq muddatga berilgan kredit uzoq muddatli kredit hisoblanadi.

II) ta`minlanganligiga ko`ra 3 turga bo`linadi:

a) to`liq ta`minlangan kreditlar, bunda kreditning ta`minoti kreditning asosiy qarz summasi va uning foizini qoplashga etadi;

O`zbekiston Respublikasining Markaziy banki talabi bo`yicha ta`minot miqdori kredit summasiga nisbatan 125 foiz ni tashkil etishi kerak.

b) qisman ta`minlangan kreditlar, bunda kreditlarning ta`minoti kreditning asosiy summasi va foizini qoplashga etmaydi;

c) ta`minlanmagan kreditlar, bu kreditlar ishonchli yoki blankli kreditlar deyiladi. Bu kreditlar yuqori darajada to`lov qobiliyatiga ega bo`lgan ishonchli mijozlarga beriladi.

III) kredit bahosiga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi:

a) arzon kreditlar, bu kreditlarning foiz stavkasi ssuda kapitali bozorida shakllanadigan foiz stavkasidan past bo`ladi;

b) qimmat kreditlar, bu kreditlarning foiz stavkasi ssuda kapitali bozorida shakllangan foiz stavkasidan yuqori bo`ladi;

Risk darajasi qancha yuqori bo`lsa, kreditning foizi ham shuncha yuqori bo`ladi.

c) tekin kreditlar, bu kreditlarning foizi yo`q.

VI) tarmoq xususiyatiga ko`ra kreditlarning quyidagi turlari mavjud:

1) sanoat krediti;

2) savdo krediti;

3) qishloq xo`jaligi krediti va boshqalar.

V) takror ishlab chiqarish jarayonlarining bosqichlariga xizmat etishiga ko`ra kreditning turlari mavjud:

1) kredit ishlab chiqarish uzluksizligini ta`minlash maqsadida xomashyo va materiallar hamda ishlab chiqarish vositalarini sotib olish uchun beriladi;

2) kredit mahsulotni sotish jarayonini moliyalashtirish uchun beriladi;

3) kredit iste`mol jarayonida ham ishtirok etadi.

VII) kreditlash obektiga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi:

1) xomashyo va materiallar sotib olish uchun beriladigan kreditlar;

2) ishlab chiqarish vositalarini sotib olish maqsadida beriladigan kreditlar;

3) ishlab chiqarish xarajatlari uchun beriladigan kreditlar. Masalan, qishloq xo`jaligida paxta, g`alla, sholi kabi ekinlarni etishtirish uzoq davr va katta xarajat talab qiladi. Kreditlar ana shu xarajatlarni moliyalashtirish uchun beriladi.

4) to`lov aylanmasidagi uzluksizlikni qoplash uchun beriladigan kreditlar.

Masalan, korxonalarining joriy hisobraqamlariga mablag'lar kelib tushish vaqti bilan to'lovni amalga oshirish vaqti o'rtasidagi nomuvofiqlik yuzaga kelsa to'lov aylanmasida uzilish sodir bo'ladi. Yana shuni ham ta'kidlab o'tishimiz joizki davlat budjeti ijrosi paytida ham uzilishlar yuzaga kelishi mumkin.

VIII) davlat budjeti defitsitini qoplash maqsadida beriladigan kreditlar.

Uzoq davrlardan buyon kreditning quyidagi turlari qo'llanilib kelinmoqda.

1. Qisqa muddatli kreditlash;
2. Uzoq muddatli kreditlash.

Qisqa muddatli kreditlashda kreditlar bir necha oylardan bir yilgacha bo'lgan muddatga beriladi. Bu turdagi kreditlar ishlab chiqarish aylanma fondlari va muomala fondlarining doiraviy aylanishining uzluksizligini ta'minlaydi. Bizga malumki, aylanma fondlarning doiraviy aylanishi deyarli barcha ishlab chiqarish sohalarida bir yil va undan kamroq vaqt davom qiladi. Bir yil fondlar aylanishining tabiiy o'lchovi sifatida xizmat qiladi. SHuning uchun ham, bir yil qisqa va uzoq muddatli kreditlashning chegarasi bo'lib xizmat qiladi.

Kreditning quyidagi mustaqil shakllari bor:

- I) Bank krediti
- II) Tijorat krediti
- III) Davlat krediti
- IV) Ipoteka krediti
- V) Iste'mol krediti
- VI) Sindinsiyali kredit
- VII) Xalqaro kredit

I. Bank krediti banklar tomonidan pul shaklida beriladigan kredit bo'lib ssuda deyiladi.

Pulning yuqori likvidli aktiv ekanligi va bank tizimining uzoq muddatli rivojlanish bosqichini bosib o'tganligi bank kreditini asosiy kredit shakliga aylantirishga muhim omil bo'ldi. Tijorat banklari kreditining bahosi ssuda kapitali bozorida shakllanadi.

Kreditning bahosi qanchalik yuqori bo'lsa, unga bo'lgan talab shunchalik kam bo'ladi. SHu sababli Markaziy banklar va hukumatlar iqtisodiyotda yo'naltirilayotgan kreditlar hajmini oshirish maqsadida

kreditlarning past va barqaror foiz stavkasini saqlab qolishga harakat qiladilar. Lekin masalaning ikkinchi tomoni ham bor, kreditlarning foiz stavkasi qanchalik past bo`lsa, unga bo`lgan talabning oshishiga olib keladi natijada muomaladagi pul miqdori oshishiga sabab bo`ladi va oqibatda bu inflatsiya darajasining oshiradi.

Bank krediti rivojlanishini belgilovchi keyingi omil banklarning resurs ta`minotidir. Banklarning etarli darajada resurs bazasiga ega bo`lishi kreditlarga bo`lgan talabni qondirishga imkon beradi. Bir so`z bilan aytganda banklarning etarli darajada resurs bazasiga ega bo`lishi ular mijozlarining moliyaviy darajasiga bog`liq.

Bank tomonidan beriladigan kreditlarni o`z vaqtida qaytmasligi oyki kreditlarning qaytish darajasining yuqori ekanligi bank krediti rivojlanishining 3-omili hisoblanadi. 4-omil banklarning kreditlash faoliyatini davlat tomonidan tartibga solib va nazorat qilish tizimining rivojlanganligi bo`lsa, 5-omil makroiqtisodiy vaziyat va uning o`zgarishi hisoblanadi.

Kredit tarixini o`rganishga bag`ishlangan tarqiqotlarning natijalari ko`rsatdiki., tijorat krediti bank kreditidan oldin paydo bo`lgan.

Tijorat krediti deganda, hozirgi davrda tovarlarni to`lov muddatini kechiktirish asosida soitylishiga aytiladi.

Tijorat kreditining obekti tovar hisoblanadi.

Lekin tijorat krediti dastlab paydo mbo`lgan davrda tovarlarni kreditga sotishdan tashqari mulkni ijaraga berish ham tijorat krediti hisoblangan. Tijorat kreditining ma`lum qismi veksel bilan rasmiylashtiriladi.

Tijorat krediti bank krediti kabi ommalashmagan bo`lsa ham u hamon kredit mustaqil shakli sifatida saqlanib qolgan. Bu esa quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

1) Tijorat kreditining foizi ko`pincha bank krediti foizidan past bo`ladi;

2) Har qanday xo`jalik yurituvchi subekt ham bank krediti ololmaydi. Bu toifa mijozlar uchun tijorat kreditidan foydalanish zaruriyat bo`lib qoladi;

3) Tijorat veksellari moliyaviy instrument sifatida amaliyotda keng qo`llaniladi. Ularni bankka topshirib kredit olish mumkin.

Davlat krediti. Bir guruh iqtisodchi olimlarning fikriga ko`ra davlat kreditida davlat faqat qarzdor bo`lib qatnashadi. Masalan,

davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarib aholiga, banklarga va korxonalariga sotadi. SHu yo'l bilan ular ular oldida qarzdor bo'lib qoladi. Bundan tashqari davlat tijorat banklaridan, Markaziy bankdan, Xalqaro moliya institutlaridan kredit oladi. Ikkinchi guruh olimlarining fikriga ko'ra, davlat kreditida davlat kredit beruvchi bo'lib ishtirok etadi. Masalan, davlat banklar orqali ma'lum bir tarmoqlarni kreditlaydi. Ular hukumat tomonidan qimmatli qog'ozlarni sotib jalb qilingan mablag'lari hisobidan. Ularni davlat zayomlari deyishimiz ham mumkin.

Iste'mol krediti – iste'mol maqsadida beriladigan kreditlar iste'mol kreditlari deyiladi. Ular asosan iste'mol tovalari ko'rinishida bo'ladi. Taraqqiy etgan mamalakatlarda ippoteka kreditlari ham iste'mol krediti tarkibiga kiritiladi. Lekin O'zbekistonda ipoteka kredit mustaqil shakl hisoblanadi. Iste'mol krediti tovar va pul ko'rinishida beriladi.

Ipoteka krediti – qo'zg'almas mulkni garovga olish yo'li bilan beriladigan kredit. Ipoteka so'zi grekcha so'zidan olingan. Ipoteka kreditini yuridik va jismoniy shaxslar oladi. Yuridik shaxslar o'ziga tegishli qo'zg'almas mulkni garovga qo'yib, ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish uchun kredit oladi.

Sinditsiyali kredit – bu lobektni yoki loyihani moliyalashtirish uchun 2 yoki undan ortiq banklar tomonidan beriladigan kreditdir. Sinditsiyali kreditni tashkil qiluvchi bank bosh yoki etakchi bank deyiladi. Qolgan banklar ishtirokchi banklar deb ataladi. Oldin banklar o'rtasida bosh bitim imzolandi. Bu bitimga ko'ra bank sindikati tashkil etiladi. Keyin kredit oluvchi va sindikat o'rtasida kredit shartnomasi imzolandi. Ishtirokchi banklar etakchi bankka sindikatdagi ulushiga ko'ra resurslarini beradi.

Xalqaro kredit – bu ssuda kapitalining davlatlararo harakati bo'lib, bu harakat tovar va valuta ko'rinishidagi mablag'larni qaytarib berishlik, muddatlilik va foiz to'lashlilik asosida berish natijasida yuzaga keladi.

Tijorat banklari faoliyatida kreditlashning quyidagi shakllari mavjud:

1) mijozni alohida ssuda hisobraqamidan 1 marotabali kreditlash shakli. Bunda kredit 1 marotabali to'lov shaklida bankdan chiqariladi.

2) mijozni kredit liniyasi ochish yo'li bilan kreditlash. Bunda mijoz uchun kreditlash limiti o'rnatiladi. Uning bu limitdan

foydalanish uchun davr belgilanadi. Bu shaklning afzalliklari quyidagilardan iborat:

a) mijoz har safar kredit so`rab bankka murojaat qilish majburiyatidan holos bo`ladi;

b) mijoz kredit liniyasining faqat ishlatilgan qismi uchun foiz to`laydi;

c) bank berilgan kredit ustidan ya`ni shartnomaviy shartlari bajarilishi ustidan nazorat o`rnatish imkoniga ega bo`ladi. Agar mijoz kredit shartnomasi shartlarini buza boshlasa bank kredit liniyasini yopib qo`yadi.

3) kreditlashning overdraft shakli, ingliz tilida so`zlasuvchi mamlakatlar bank amaliyotida keng qo`llaniladi.

Overdraft krediti mijozning joriy hisobraqamining debetli qoldig`iga beriladi. Mijozlarning banklarda ochilgan joriy hisobraqamlarida faqat bir marta debetli qoldiq bo`lishiga ruxsat etiladi. U ham bo`lsa, bank va mijoz o`rtasida overdraft krediti olish bo`yicha kelishuv bo`lsa.

Overdraft kreditiga ssuda scheti ochilmaydi va bu kredit ta`minotsiz kredit hisoblanadi.

4) kreditlashning kontokorrent shakli. Bu shakl nemis tilida so`zlashuvchi mamlakatlarnig bank amaliyotida qo`llaniladi. Kontokorrent kreditida mijozning joriy hisobraqami yopiladi va kontokorrent hisobraqam ochiladi. Mijozning barcha faoliyatidan keladigan pul tushumlari kontokorrent hisobraqamining kreditida aks etadi. Mijozning barcha to`lovlari kontokorrent hisobraqamining debetida aks etadi. Kontokorrent krediti kontokorrent hisobraqamining debetli qoldig`iga beriladi. Kontokorrent hisobraqamining kreditli qoldig`i uchun bank mijozga foiz to`laydi, debetli qoldig`i uchun esa mijoz bankka foiz to`laydi.

5) kreditlashning faktoring shakli. Faktoring – bu mol etkazib beruvchini kreditlash shakli bo`lib, bunda bank tovar hujjatlarini o`zining diskont stavkasi bo`yicha regress huquqi bilan yoki regress huquqisiz sotib oladi.

6) Kreditlashning forfeiting shakli. Forfeiting – bu fransuzcha “a forfe” so`zidan olingan bo`lib ulgurji degan ma`noni anglatadi.

Forfeiting mol etkazib beruvchini kreditlash shakli bo`lib, bunda bank trattani o`zining diskont stavkasi bo`yicha regress huquqi bilan sotib oladi

1. Kreditning shakllari va turlari, ularning tavsifi. Kreditning boshqa turlari va uning tavsifi.

Kreditga boʻlgan talab qaysi usulda va muddatda, kim tomondan qondirilishiga va qarz oluvchilarga taklif qilinishiga qarab, kredit bir necha tur va shakllarga boʻlinadi.

Bank kreditining maqsadliliigi. Jahon amaliyotida umumiy biror ehtiyojni qoplash uchun ishlatiladigan kreditlar mavjud. Bunda bank tomonidan beriladigan kreditlar qarz oluvchining moliyaviy resurslarga boʻlgan turli ehtiyojlarini qondirish uchun oʻz ixtiyori boʻyicha ishlatiladi. Hozirgi sharoitda ular qisqa muddatli kreditlash sohasida cheklangan tarzda qoʻllaniladi, oʻrta va uzoq muddatli kreditlashda umuman qoʻllanilmaydi. Bizning amaliyotimizda banklar tomonidan biror maqsadni amalga oshirish uchungina kreditlar beriladi.

Kreditning qaysi maqsad uchun berilayotganligi kredit shartnomasida koʻrsatiladi va bank tomonidan berilgan resurslar qarz oluvchi tomonidan faqatgina shartnomada koʻrsatilgan masalani hal etish uchun ishlatiladi. (masalan, olinayotgan tovarlar boʻyicha hisoblashish, ish haqi toʻlash va h.k. uchun) Qarz oluvchi tomonidan koʻrsatilgan majburiyatlarning buzilishida bitimda koʻrsatilgan jarimalar qoʻllaniladi.

Qarz oluvchilarning kategoriyalari. Oʻzining faoliyat doirasiga qarab, qarz oluvchi korxonalar va tashkilotlar bir necha guruhlariga boʻlinishi mumkin. Masalan, agrar sohada kredit oluvchilar. Bu sohaning boʻlishi – maxsus kredit muasasalari – agrobanklarning, keyinchalik qishloq xoʻjaligi sohalariga xizmat koʻrsatuvchi boshqa banklar Paxtabank, Gʻallabank va boshqa shu turdagi banklarning tashkil topishini belgilab beruvchi asos hisoblanadi. Bu banklar faoliyatining oʻziga xos xususiyati qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishi bilan bogʻliq boʻlgan mavsumiylikni eʼtiborga olgan holda kreditlash hisoblanadi.

Banklararo kreditlar – bank kreditining keng tarqalgan shakllardan biri. Banklararo kreditning joriy stavkasi maʼlum bir tijorat bankning boshqa turlardagi ssudalar berish siyosatini aniqlab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Bu meʼyorning aniq miqdori (hisob stavkasi) Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Tijorat krediti. Iqtisodiyotda kredit munosabatlarining vujudga kelishining birinchi shakllaridan boʻlib, veksel muomalasini vujudga

keltirgan va naqd pulsiz hisob kitoblarning rivojlanishiga yordam bergan. Tijorat kreditining sub`ektlari sifatida yuridik shaxslar: mol etkazib beruvchi va mol sotib oluvchi korxonalar, kreditning ob`ekti sifatida sotilayotgan tovar ishtirok qiladi. Tijorat krediti o`zining amaliy ko`rinishini huquqiy shaxslar o`rtasida tovar va xizmatlarning to`lov muddatini cho`zish orqali sotish shaklidagi moliya xo`jalik munosabatlarida topadi. Bu kredit shaklining asosiy maqsadi tovarlarni sotishni tezlashtirish va shu orqali foyda olishdan iborat.

Amaliyotda vekselning ikki turi qo`llaniladi. Oddiy va o`tkazma veksel. Oddiy vekselni qarz oluvchi korxonaga qarz beruvchi korxonaga beradi va tovarlar hamda ko`rsatilgan xizmatlar uchun unga to`lash majburiyatini o`z zimmasiga oladi.

Tijorat krediti bank kreditidan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1. Kreditor (qarz beruvchi) roliga maxsus kreditmoliya tashkilotlari emas, balki tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda sotish bilan shug`ullanuvchi turli yuridik shaxslar ishtirok qiladi.

2. Tijorat krediti faqatgina tovar shaklida beriladi.

3. Tijorat kreditida ssuda kapitali, sanoat va savdo kapitali bilan integratsiyalashgan holda harakat qiladi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida turli ixtisosdagi va faoliyat yo`nalishdagi korxonalarni o`z ichiga oluvchi xolding, moliyaviy kompaniyalarning vujudga kelishida o`z aksini topadi.

4. Berilgan vaqt oralig`ida tijorat kreditining o`rtacha qiymati doimo bank foizining o`rtacha stavkasidan kichik bo`ladi.

5. Qarz beruvchi va qarz oluvchi o`rtasidagi shartnoma huquqiy rasmiylashtirilganda tijorat krediti bo`yicha to`lov (foiz stavkasi) alohida aniqlanmaydi. Foiz to`lovi tovar bahosiga qo`shilgan holda rasmiylashtiriladi.

Hozirgi sharoitda jahon amaliyotida tijorat kreditning, asosan 3 turi qo`llaniladi:

* qayd qilingan to`lov muddati bo`yicha kredit;

* tovarlarni sotgandan keyingina qarzni to`lash bo`yicha kredit;

* ochiq hisobvaraqa bo`yicha kreditlash.

Bunda tijorat krediti shartlari bo`yicha, keyingi tovar partiyasini jo`natish, oldingi jo`natilgan tovarlar bo`yicha qarzlarni to`lash muddatigacha amalga oshirilishi zarur.

Tijorat krediti tovarlar sotish jarayonini tezlashtirishda va korxonalarining aylanma mablag'larini xo'jalik faoliyatidan tezroq bo'shashini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Iste'mol krediti. Iste'mol krediti o'zining maqsadi bilan kreditning boshqa shakllaridan farq qiladi. Uning farqli belgisi jismoniy shaxslarni kreditlash hisoblanadi. Kreditning bu shaklida kredit beruvchi sifatida maxsus kredit muassasalari bilan birga tovar va xizmatlarni sotishni amalga oshiradigan jismoniy shaxslar ham bo'lishi mumkin.

Iste'mol krediti ikki shaklda: pul shaklida yoki tovar shaklida berilishi mumkin. Jismoniy shaxslarga ko'chmas mulkka egalik qilish uchun, qimmat bo'lgan davolanishni to'lash, har xil tovarlar va uy jihozlari sotib olish va boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun iste'mol kreditlari berilishi mumkin. Pul shaklida iste'mol krediti banklar tomonidan, tovar shaklida esa tovarlar chakana savdosi jarayonida to'lov muddatini cho'zish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekistonda hozirgi kunlarda uyjoy sotib olish, uyjoy qurish uchun pul shaklidagi, uzoq muddatli iste'mol krediti va tovar shaklida avtomobil kredit berilmoqda.

Davlat krediti. Kreditning bu shaklining asosiy xususiyati kredit munosabatlarida davlatning qatnashuvidir. Davlat kreditida davlat bir tomondan qarz beruvchi va ikkinchi tomondan qarz oluvchi sifatida ishtirok qilishi mumkin. Qarz beruvchi vazifasini bajara turib, davlat, davlat kredit institutlari, jumladan, Markaziy bank orqali iqtisodiyotning har xil sohalarini kreditlashni o'z zimmasiga oladi. Davlat tomonidan:

- iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini kreditlash;
- moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezayotgan davlat ahamiyatiga ega bo'lgan aniq tarmoq yoki mintaqalarga, agar byudjetdan moliyalashtirish imkoniyati tugagan bo'lsa, vaqtincha foydalanishga mablag' ajratilishi mumkin.

Undan tashqari, tijorat banklariga banklararo kreditlar bozorida kredit resurslarni kim oshdi savdosi yo'li bilan yoki to'g'ridanto'g'ri sotish jarayonida davlat tomonidan mablag'lar vaqtincha foydalanishga berilishi mumkin.

Davlatning qarzlari ko'paygan hollarda davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirish maqsadida, davlat qarz oluvchi sifatida, davlat qarzlarni joylashtirish jarayonini amalga oshiradi.

Davlat kreditining xarakterli xususiyati shundaki, davlat tomonidan olin

Xalqaro kredit. Kredit munosabatlarining xalqaro miqyosda (davlatlar o`rtasida) amalga oshirilishi xalqaro kreditning yuzaga kelishiga olib keladi. Xalqaro kreditga xalqaro miqyosda xarakat qiluvchi kredit munosabatlari to`plashi sifatida qarash zarur. Kreditning bu shaklini bevosita ishtirokchilari millatlararo moliyakredit institutlari, tegishli davlat hokimiyati, kredit tashkilotlari va alohida yuridik shaxslar bo`lishi mumkin.

Xalqaro kredit bir davlat, shu davlat banki, yuridik shaxsi tomonidan ikkinchi bir davlatga, uning banklariga, boshqa yuridik shaxslariga muddatlilik va to`lovlilik asosida beriladigan kredit hisoblanadi.

Xalqaro kredit davlat va xalqaro institutlar ishtirok etgan munosabatlarda pul (valyuta) shaklida, tashqi savdo faoliyatida esa tovar shaklida bo`lishi mumkin.

Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- * mamlakatlar o`rtasida kapitalning qayta taqsimlanishini ta`minlaydi;

- * kapitalning konsentratsiyalashuviga va markazlashuviga sharoit yaratadi va bu jarayonni tezlashtiradi;

- * har xil valyutalarda xalqaro hisobkitoblarni olib borishda muomala xarajatlarini qisqartiradi.

Xalqaro kreditlar xakteri bo`yicha – davlatlararo, xususiy, firma kreditlariga;

- shakli bo`yicha – davlat, bank, tijorat;

- tashqi savdo tizimida tutgan o`rni bo`yicha – eksportni kreditlash, importni kreditlashga;

- muddati bo`yicha – qisqa muddatli 1 yilgacha, uzoq muddatli 5 yildan ortiq muddatga;

- ob`ekti bo`yicha – tovar va valyuta;

- ta`minlanganligi bo`yicha – tovarmoddiy boyliklar bilan yoki hujjatlar bilan ta`minlangan kreditlarga bo`linadi.

Kredit xar kandy ijtimoiy munosabat emas, balki ijtimoiy ishlab chikarit maxsuli, kiymatning xarakati, qarz beruvchi va qarz oluvchi o`rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyadir. Kreditning moxiyati uning ichki belgilarini ochib

berishga karatilgan. Kreditning mohiyatini ochish - bu uning sifatlarini, kreditning muxim tomonlarini, uni iqtisodiy munosabatlar tizimining bir elementi sifatida ko`rsatuvchi asoslarini bilish demakdir.

YUqoridagi fikrlarga asoslangan xolda kreditning ba`zi muxim tomonlari aniqlanadi:

birinchidan, uning ijtimoiy maxsulot yaratish, milliy daromad va pul resurslarini qayta taqimlashga bog`likligi;

ikkinchidan, kreditning xarakat shakliga (tovar yoki pul tarzida) ega ekanligi;

uchinchidan, takror ishlab. chiqarishdagi xarakatning asosiy xal etuvchi belgisi (qarz) ekanligi va x. k

Berilgan kredit kaytarib berishlilik xarakteriga ega. U xuddi shu sifati bilan moliyadan farq qiladi.

Ssuda kapitali manbalarining taxlili kreditning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyatini aniklashga asos bulib xizmat kildi.

Bir kator iktisodchilarning fikricha, **kredit** jamiyatdagi vaktincha bo`sh pul mablaglarini yigish va ularni taksimlash shaklidir.

Kreditning mohiyatini yanada aniqlashtirish uchun uning tarkibini, xarakat bosqichlarini, iqtisodiy kategoriya sifatidagi muxim belgilarini ijtimoiy - iqtisodiy xarakteristikasini ko`rib chikamiz.

Xar qanday iqtisodiy kategoriya o`zining funktsiyalariga ega bo`lgani kabi kredit xam o`zining bir kator funktsiyalariga ega. Ijtimoiy iqtisodiy tizimda kreditning o`rni va roli u bajarayotgan funktsiyalari bilan aniqlanadi.

Kreditning funktsiyasi - bu kreditning iktisodiyotda faoliyatining konkret ravishda namoyon bulishidir.

Kreditni taxlil qilishda, funktsiya, uning mohiyati va roli o`rtasidagi oralik zveno sifatida ko`rib chiqiladi.

Respublikamizning ko`zga kuringan olimalaridan biri SH. Abdullaeva o`zining "Pul, kredit va banklar"¹ nomli kitobidan kredit munosabatlarida sub`ektlari ikki xil bo`lishini ko`rsatib o`tadi:

kredit (qarz beruvchi)

qarzdor

¹ Абдуллаева Ш.З.. "Пул кредит банклар". Тош.: "Молия" -2000 й. 121 бет.

Bundan tashqari, kredit kredit munosabatlari tarkibining elementi sifatida kreditning ob`ekti yuzaga keladi.

Bunda qarzga berilgan mablag o`z qiymatini saqlab qolishi kreditning asosiy xususiyati xisoblanadi. Kredit tarkibi uning elementlari birligini ifodalaydi.

Kreditning xarakat bosqichlari xam uni muxim belgisi xisoblanadi. Qarzga beriluvchi qiymat xarakatini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$B_k - O_{kz} - I_k - V_r - +_k - F_{ks}$$

B_k - kreditning berilishi;

O_{kz} - kreditni qarz oluvchi tomonidan uning vaqtinchalik extiyojini qondirish uchun olinishi;

I_k - kreditni ishlatilishi qarz oluvchining kreditni nima maqsadda olinganligi bilan uzviy bog`lik bo`ladi;

V_r - qarz oluvchining xo`jaligida qarzga olingan qiymatning aylanishi tugallanishini resurslarning aylanishdan chikarilishini ifodalaydi;

Q_k - kreditni qaytarish;

F_{ks} - vaqtinchalik berilgan qiymatni kreditor qo`liga qaytib kelishi (foiz bilan).

Kredit moxiyatining taxlili uzluksiz jarayon. Bunda taxlil jarayonida yangidan yangi beligilar, xususiyatlar yuzaga chiqishi mumkin.

Kredit mexanizmini tashkiliy iqtisodiy elementlaridan biri kredit ob`ektlaridir. Kredit ob`ektlari deyilganda kredit beriladigan aniq maqsad yoki uning nimaga mo`ljallanganligi tushuniladi. Xo`jaliklarga beriladigan kreditlarni ishlab chiqarish fondlarining aylanishi bilan uzviy bog`liqligi korxon va tashkilotlarni kredit berish jaryonini 2 sferaga ajratishni taqazo etadi:

1. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatini kredit berish.

2. Kapital xarajatlar va quyilmalarni kredit berish.

Kredit berish bu tarzda 2 sferaga ajratish aylanma va asosiy fondlarning aylanishlaridagi xususiyatlar bilan belgilanadi. Ma`lumki, aylanma mablag`lar o`zlarining harakatchanligi aylanish tezligining kattaligi va ularni tashkil etishga beriladigan kreditlarning muddatini qisqaligi bilan ajralib turadi.

10.2. Kreditning ta`minlanganligiga ko`ra turlari. Kreditning muddatiga ko`ra turlari. Kreditning to`lovliligiga ko`ra turlari.

Kreditning muddatliligi ikki tomonlama xarakterga ega. Birinchidan, kreditning mohiyati vaqtincha foydalanishga berilgan mablag'larning qaytarilishinigina bildirib qolmay, balki bu qaytarilishni aniq muddatlarini belgilashni ham taqozo etadi. Kreditning muddati, bir tomondan foydalanishga berilayotgan kredit resurslarining bo`sh turish muddati bilan belgilansa, ikkinchi tomondan qarz oluvchining mablag'larga bo`lgan vaqtinchalik ehtiyojlarining muddatiga bog`liq. Kredit muddatliligining bu ikki tomonlama xakteri inobatga olinganda vaqtinchalik foydalanishga berilgan mablag'larni to`liq va belgilangan muddatda qaytarilishini ta`minlash mumkin. Kreditning muddatliligiga rioya qilish banklar uchun ham, kredit oluvchilar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Buning hisobiga bank kredit resurslarining aylanishini jadallashtirsalar va ulardan oqilona foydalanishga erishsalar, xo`jaliklar o`z daromadlarini ko`paytirish, o`z va qarz mablag'laridan foydalanish samarasini oshirishlari mumkin. Kredit muddatini uzaytirish aksariyat hollarda bankning ruxsati bilan amalga oshiriladi. Kredit muddati qarz olingan mablag'larni qaysi davrgacha foydalanishini hisobga olgan holda belgilanadi

Kreditning qaytarishlilikda bank tomonidan mijozlarga beriladigan har bir so`m pul mablag'lari yana bankka qaytarilishi lozim. Qaytarib berishni iqtisodiy asosi sifatida mablag'larning uzluksiz doiraviy aylanishi hisoblanadi. Qaytarish tamoyilining shunday muhim xususiyati borki, kreditni boshqa tovar - pul munosabatlarining iqtisodiy kotegoriyalaridan farqi bo`lgan iqtisodiy kategoriya sifatida ajratib turadi. Qaytarilish kreditning ajralmas atributi hisoblanadi. Kredit iqtisodiy munosabatlarni belgilangan tizimi sifatida boshqa pul munosabatlaridan farq qiladi, ya`ni pulning xarajati qaytarib berish sharti bilan amalga oshiriladi.

Kreditning **ta`minlanganligida** ssudaning ta`minlanganligi kredit berilishiga asosan qarz oluvchining mulki, moddiy boyliklar zahiralari, ko`chmas mulki yoki ishlab chiqarish xarajatlari summasiga mos kelishi bilan belgilanadi. Bu o`z navbatida kreditni o`z muddatida qaytarilishiga kafolat berilishini tasdiqlaydi. Olingan kredit mablag'lari korxonada ishlab chiqarish zaxirasi, tugallanmagan ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot hamda mavjud moddiy

boyliklarni ta`minlash uchun beriladi. Bu tamoyil asosan korxonalariga berilgan ssudalar yoki tomonlar majburiyatlari bilan real ta`minlanadi. O`zbekiston Respublikasida banklar faoliyatining xalqaro bank amaliyotiga yaqinlashib borayotgan sharoitda kreditning ta`minlanganligi sifatida tovar - moddiy boylik va xarajatlardan tashqari garov, kafolat va kafillik kabi shakllari ham amaliyotda keng qo`llanilmoqda. Bu holat bank risklarini kamaytirgan holda kreditlarning bankka o`z vaqtida qaytishini ta`minlaydi. Ssudaning o`z vaqtida qaytarilishini ta`minlash uchun kredit shartnomasiga ko`ra qarz oluvchi garovga ma`lum qiymatga ega bo`lgan mol - mulkni qo`yib rasmiylashtiradi. Agar kredit oluvchi kreditni o`z vaqtida qaytara olmasa, u holda garovni sotish choralari ko`riladi. Kredit miqdori garovga qo`yilgan mulk qiymatining 50 foizidan 80 foizigacha miqdorida beriladi.

Kreditning to`lovlilikida olingan kredit uchun haq to`lash yoki foizidir. Bunda shartnomaga ko`ra kredit oluvchi korxonaga o`z ehtiyoji uchun kreditga olgan pul mablag`laridan vaqtincha foydalanganligi uchun bankka belgilangan haqni to`lashi lozim. Amaliyotda bu tamoyil bankning foiz mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Bankning foiz stavkasi bu kreditning "narxidir". Kredit uchun haq to`lash korxonalarini xo`jalik hisobiga shu jumladan resurslarni ko`payishiga hamda jalb qilingan mablag`lardan foydalanishga ta`sir etadi. Bank muassasalari kredit foizi hisobidan o`z xarajatlarini qoplaydi. Kredit uchun haq to`lash tamoyili qarzga olingan mablag`lardan unumli foydalanish va kreditni qaytarish muddatini tezlashtirish maqsadida korxonaga iqtisodiy ta`sir ko`rsatish vositasidir. Bank foizi kredit turlariga qarab turlicha belgilanadi. Qaytarilish muddati o`tib ketgan kreditlar uchun oshirilgan miqdorda foiz olinadi, bu esa qaytarish muddati shartlariga qat`iy ravishda rioya qilishga yordam beradi.

O`zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit to`lovi miqdorini belgilashda ahamiyat beradigan quyidagi asosiy tamoyillar mavjud. Bular:

- O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklariga beriladigan ssudalar bo`yicha o`rnatilgan qayta moliyalash foiz stavkasi;
- banklararo kredit bo`yicha o`rtacha foiz stavkasi, ya`ni aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun boshqa banklardan sotib olingan resurslar bo`yicha;

- turli depozit hisobvaraqlar bo'yicha mijozlarga bank tomonidan to'lanadigan o'rtacha foiz stavkasi;
- bankning kredit resurslarining tarkibi (jalb qilingan mablag'lar hissasi yuqori bo'lganda kredit narxi ham yuqori bo'ladi);
 - kreditga bo'lgan talab;
 - talab qilinayotgan kredit muddati va kredit turi, ya'ni uning ta'minlanganligiga bog'liq ravishda risk darajasi;
 - mamlakatdagi pul aylanishini muvozanati (inflyatsiya sur'ati yuqori bo'lsa kredit shunchalik qimmat bo'ladi, chunki pul qadrsizlanishi tufayli bankning o'z resurslarini yo'qotish riski ortadi) va boshqalardir;

10.3. Kreditning shakllari.

Kredit ob'ektlarining iqtisodiy mohiyatiga qarab:

tovar moddiy boyliklari uchun beriladigan kreditlar;

ishlab chiqarish xarajatlari (maxsulotning yangi turini o'zlashtirish, mavsumiy xarajatlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni) uchun beriladigan kreditlar;

xisob-kitoblarni amalga oshirish uchun beriladigan kreditlar (akkreditiv ochilganda, tayyor maxsulotni junatganda va boshqa xollarda).

Qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar aniq bir maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Kreditning qaysi maqsadga yo'naltirilganligi, masalan, tovar moddiy boyliklar sotib olishga yoki biror ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga va xakozo aniq biror ob'ektga maqsadli yo'naltirilganligi korxonalar bilan bank o'rtasida tuziladigan kredit shartnomada ko'rsatilgan bo'ladi. Korxonalar olgan kreditini faqatgina kredit shartnomada ko'rsatilgan ishni bajarishga sarflashi kerak.

Bunda kredit muayyan, aniq ob'ektga: ishlab chiqarish xarajatlariga, ishlab chiqarish zaxiralariga, tayyor maxsulotga, junatilgan tovarlarga, xisob-kitob xujjatlariga va xakozolarga beriladi. Shunda kapitali xarakatining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, ssuda kapitali xarakati sanoat va savdo kapitali xarakatidan farq qilib, "sotuvchi" (kreditor) va "xaridor" (qarz oluvchi) o'rtasidagi munosabat, ya'ni kapital xarakati, pul (P-T) ko'rinishida bo'ladi.

Nazorat uchun savollar

1. Kreditning turlari va shakllarini, kreditning tarmoq yo`nalishiga ko`ra turlarini yoritib bering?
2. Kreditning takror qayta ishlab chiqarish jarayoni bosqichlariga xizmat ko`rsatishi va kreditlash ob`ektlariga ko`ra turlarini tavsiflar bering?
3. Kreditning ta`minlanganligi, muddati va to`lovliligiga ko`ra turlarini tavsiflab bering?
4. Kreditning shakllari: pul shaklidagi kreditlar; tovar shaklidagi kreditlar; aralash shakldagi kreditlarini iqtisodiy mohiyatini ochib bering?

11-MODUL. KREDITNING BAHOSI VA UNGA TA`SIR QILUVCHI OMILLAR

11.1. Kreditning bahosi tushunchasi. Oddiy foizlar va ularni hisoblash tartibi. Murakkab foizlar va ularni hisoblash tartibi.

11.2. Ssuda kapitallari bozori va uning segmentlari. Qisqa muddatli pul bozorida kreditlar bahosining shakllanishi.

11.3. Kapital bozorida o`rta va o`zoq muddatli kreditlar bahosining shakllanishi.

11.4. Kreditning bahosiga ta`sir qiluvchi omillar.

11.1. Kreditning bahosi tushunchasi. Oddiy foizlar va ularni hisoblash tartibi. Murakkab foizlar va ularni hisoblash tartibi.

Korxonalar foydalanilgan qarz mablag`lari uchun kreditorga foiz shaklida to`lovni o`tkazadilar. Kreditning to`lash uni to`liq summada o`z egasiga qaytarilishinigina emas, shu bilan kredit uchun foiz shaklidagi to`lov bilan qaytarilishini ifodalaydi. Demak, kreditor o`z mablag`larini hech vaqt o`z hajmida qaytarib olish sharti bilan bermaydi, bunda u mablag`ni qarzga berganligi uchun muayyan to`lov talab qiladi (foizsiz imtiyozli kreditlar bundan mustasno).

Kreditning to`lovi nafaqat banklar xo`jalik hisobi maqomiga, shu bilan birga, korxonalarni bevosita foydasi bilan bog`liq xo`jalik hisobiga rag`batlantiruvchi ta`sir ko`rsatadi.

Kredit uchun haq to'lashning iqtisodiy mohiyati qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi qo'shimcha olingan foydaning taqsimlanishini qayd qilishda namoyon bo'ladi. Ko'rib chiqilayotgan tamoyilning amaliyotda uchta asosiy funktsiyasini bajaruvchi bank foizi me'yorini o'rnatish jarayonida namoyon bo'ladi.

Tijorat banklarining foiz siyosati depozitlar va kreditlarning okilona foiz stavkalarini shakllantirish va foiz riskini boshkarish bilan bogliq tadbirlar majmuasidir.

Tijorat banklarining foiz siyosatining asosiy jixatlari kuyidagilardan iborat:

1. Foiz siyosatining asosiy maksad va vazifalari: foiz siyosatining asosiy maksadi foiz siyosatida anik belgilab kuyilgan bo'lishi lozim. Ayrim banklarda foiz siyosatining asosiy maksadi sifatida foiz risklarini boshkarish tizimini takomillashtirish belgilab kuyiladi, boshkalarida esa sof foizli daromad darajasini oshirish kursatiladi.

2. Foiz riskini yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan xolatlar: bunday xolatlar odatda kredit kuyilmalarining xajmini keskin oshirilishi natijasida yoki kreditlarning bozor stavkalarini sezilarli darajada oshishi natijasida yuzaga kelishi mumkin.

3. Foiz riskini boshkarish usullari: odatda bank amaliyotida foiz riskini asosiy boshkarish usullari sifatida foizli svoplardan keng foydalanadilar, kichik banklarda esa ko'proq kredit riskiga limitlar o'rnatish uslubidan foydalanadilar.

4. Foiz stavkalarini o'stirmaslik makomini belgilash tartibini joriy qilish.

Tijorat banklarining daromad olish soxasi faoliyati uning foiz siyosati orkali amalga oshiriladi. Bank kredit bera turib mijozning foyda olishi uchun shart-sharoit yaratar ekan, demak, o'zining manfaatini xam amalga oshirgan bo'ladi. Banklar foiz siyosatini amalga oshirishda omonatlar bo'yicha to'lanadigan foizni ularning o'zlari takdim etadigan ssudalar uchun oladigan ssuda foizidan pastroq qilib belgilaydi. Olingan va to'langan foizlarning summalari urtasidagi farq banklarning foydasini tashkil etadi.

Tijorat banklari xar bir aniq kelishuvlarida foiz me'yorini xisoblaganda quyidagilar e'tiborga olinadi:

- ta'minlangan ssudalar bo'yicha eng kreditga layokatli mijozlar uchun aniq muddatga beriladigan bazaviy foiz stavkasining darajasini;

- xar bir aloxida kelishuvning shartlarini inobatga olgan xolda tavakkalchilik uchun qo`shimcha to`lov.

Foiz stavkasi- jalb qilgan mablag`lar bo`yicha kelishilgan daromadlilik stavkasidir. Amalda mablag`larni jalb qilish turlari qancha ko`p bo`lsa ularni foiz stavkasi turlari ham ham shuncha ko`p bo`ladi. Misol, qarz oluvchi uy sotib olish maqsadida berib turilgan qarz pul uchun mazkur zayom bo`yicha foiz stavkasi to`laydi, bu o`z navbatida qo`yilgan mablag`(nakd, mulk va boshqalar) bo`yicha foiz stavkasi deb yuritiladi; a bankni firmadan ushlayotgan stavkasi esa tijorat krediti bo`yicha foiz stvkasi deyiladi.

Foizlarni hisoblashda tartib bo`yicha diskret(diskret foizlari) usulida; bunda ham hisoblash davrlari oy, chorak va yil sifatida qabul qilinadi. Arim hollar da har kunlik hisoblash qo`llanilib, (misol, uzoq muddatli investitsiyalarni analiz qilish uchun)mijozlarga ma`qul kelishi uchun ayrim hollar da foizni o`zluksiz hisoblash usuli qo`llaniladi.

Foiz stavkani son jihatdan moliyaviy tahlil etishda nafaqat qarz summasini ko`payish quroli ko`rinishda, balki kengroq ma`noda bevosita mablag`larni bir egasidan boshqasiga oqib o`tish va ko`payish orqali tijorat va moliyaviy faoliyatdan keladigan daromadlilik darajasini o`lchash uchun joriy etiladi.

Foiz stavkalar avvalgi u yoki bu boshlang`ich summasiga yoki avalgi davlar uchun hisoblangan foiz summasiga ssudani mazkur muddatni barcha davlari(oddiy foiz stavka)ga qo`llaniladi. SHunga o`xshash hisob stavkalari ham qo`llaniladi. Mos holda, asosiy foiz stavka 4 turi bir biridan tubdan farq qiladi: oddiy va murakkab foiz stavkalari, oddiy va murakkab hisob stavkalari.

Amaliyotda fiksirlangan stavkadan tashqari *so`zib yuruvchi* yoki *o`zgaruvchan* stavkalari mavjud. Ayrim holatlarda shartnomalarda ayrim bazaviy stavkalari(pul bozoridagi stavkani vaktlar bo`yicha o`zgarishidan, misol uchun London banki tomonidan o`rnatilgan «LIBOR»stavkasi)ga fiksirlangan qo`shimcha daromad-marja qo`shiladi. SHunday qilib, umuman stavka qaysiki, foiz hisoblanayotgan stavka bazani o`zgarishi hisobiga o`zgarib turadi. SHartnomalardagi marjani hajmi vaqtlar bo`yicha o`zgarishi orqali ko`rsatilishi mumkin.¹

1 Игошин Н.В. Инвестиции. Организация управления и финансирование: Учебник для вузов. - М.: Финансы, ЮНИТИ, 2007. - 413 с

Mavzuda keltirilgan formulani quyidagi belgilari qabul qilingan.

i - ssudani barcha muddati uchun foizlar.

K - yilni kunlardan iborat davomiyligi (vaqtinchalik baza)

R - ssudani avvalgi summasi.

S - ssudani qaytarishni ohirgi muddatidagi summa.

i - foiz stavka.

d - oddi hisob stavka.

p - ssudani yillardan iborat davomiligi.

d - ssudani foydalangan kunlar soni.

Moliyaviy aktivlarni asosiy formalariga qarzli majburiyatnoma, aktsiya va xosilaviy qimmatli qog'ozlar kiradi. Qarzli majburiyatnomalarni muomalaga pul bilan shug'ullanuvchi davlat, korxonalar va boshqa xujaliklar (uy-xujaliklar) chiqaradi. SHunday qarzli majburiyatnomalar bozorida shunday davlat va korporativ obligatsiyalari va uy-joy va tijoratli avanslar; shuningdek, iste'mol zayomlarga o'xshash aktivlar sotiladi. Qarzli majburiyatnomalar fiksirlangan daromadli instrumentlar deyilib, kelgusida fiksirlangan summani to'lashga va'da beradi yoki qat'iy belgilangan foizli qimmatli qog'ozlar deyiladi.

Qarzli majburiyatnomalar uni qaytarish muddatiga qarab quyidagi shakllarga bo'linadi:

-qisqa muddatli qarzli majburiyatnomalar bozori-(qaytarish muddati 1 yilgacha) pul bozori deyiladi

-o'zoq muddatli qarzli majburiyatnomalar va aktsiya bozori-(qaytarish muddati 1 yildan yuqori) kapital bozori deyiladi

Pul bozorida davlat yoki ishonchi bo'lgan xususiy sektor egasi tomonidan chiqarilgan foizli qimmatli qog'ozga o'xshash afzallikka ega instrumentlar (kaznachey veksellar, katta korxonalarni tijorat vekseliga o'xshash veksellar)muomalada yuradi. Zamonaviy pul bozori integratsiyani globalashuvi va likvidlilik bilan harakterlanadi. Aktivlarni likvidlilik darajasi uning pulini konvertatsiya qilish jarayonini tezligi va kam harajatliligi hamda oddiyligiga bogliq holda aniqlanadi.

Qo'shimcha bo'lib esa taraflar kelishuvining predmeti hisoblanmish qat'iy belgilangan miqdor hisoblanadi va ushbu miqdor kredit shartnomasi muddati davrida odatda o'zgarmaydi. Ushbu qat'iy belgilangan qo'shimchani miqdori shartnoma shartlari va tavakkalchilik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Nominal foiz stavkasi deganda e`lon qilingan foiz stavkasi tushuniladi. Real foiz stavkasi deganda nominal foiz stavkasini pulning qadrsizlanish darajasiga muvofiqlashtirilgan darajasi tushuniladi. Foizning nominal stavkasi (i) va real stavkasi (r) deb belgilansa:

$$r = i + x,$$

bu erda, x – inflyatsiyaning kutilayotgan darajasi.

Rivojlangan davlatlar pul-kredit tizimida foiz stavkalarining turli-tumanligi mavjud. Foiz stavkalarining birinchi darajasi – markaziy bank tomonidan tijorat bankiga taqdim etiladigan kreditlar bo`yicha belgilanadigan rasmiy foiz stavkasidir. Mazkur foiz stavkasi hisob yuritish yoki qayta moliyalashtirish foiz stavkasi deb ataladi.

Foiz stavkalarining navbatdagi darajasi kredit resurslarining banklararo bozoridagi taklif stavkalaridan iboratdir. Etakchi banklar birinchi darajali banklar evrovalyutalarida ushbu banklarda depozit hisobvaraqlarini ochish orqali kreditlashni taklif stavkalari bo`yicha amalga oshiradi. Misol sifatida LIBOR (LIBOR – London Inter Bank Offered Rate) London banklararo taklif stavkasini keltirish mumkin. Ushbu stavka rasmiy asosda belgilanmaydi, balki har bir tijorat banki mazkur stavkani har bir ish kunining birinchi yarmi, ya`ni soat 11.00 holatiga pul-kredit bozorining kon`yunkturasidan kelib chiqqan holda aniqlaydi. LIBOR stavkasi deganda ushbu banklar bo`yicha o`rtacha arifmetik miqdor sifatida hisoblangan o`rtacha stavka tushuniladi.

$$FV = 1000 \text{ dollar} \times 1,10 = 1100 \text{ dollar}.$$

Agarda Siz 1100 dollarni hisob raqamida yana bir yilga qoldirsangiz, unda ikkinchi yil yakunida pulingiz qancha bo`ladi? Ikkinchi yil davomida Siz 1100 dollarli summaga yillik 10% hajmida daromad olasiz va hisoblangan foizlarning summasi $0,10 \times 1100 = 110$ dolarga teng bo`ladi. Demak ikkinchi yilning oxiriga kelib Siz 1210 dollarning egasi bo`lasiz.

Murakkab foizlarning tabiati to`g`risida aniq bir tasavvurga ega bo`lish uchun biz istiqboldagi qiymatni (1210 dollar) uch tarkibiy qismga bo`lamiz. Birinchi qism – bu dastlabki 1000 dollar. Ikkinchi qism bo`lib esa mazkur 1000 dollarga birinchi yil uchun 100 dollar va ikkinchi yil uchun 100 dollar hajmida hisoblangan foizlar hisoblanadi. Omonatning asosiy summasiga hisoblangan foizlar **oddiy foizlar** (simple interest) deb ataladi

Endi, yana 10 dollar hajmidagi foizlar mavjud, ular ikkinchi yili olingan bo`lib, birinchi yil uchun foizlar sifatida olingan 100 dollarlik summaga hisoblangan. To`langan foizlarga hisoblangan foizlar **murakkab foizlar** (compound interest) deb ataladi. Foizlarning umumiy hisoblangan summasi (210 dollar) oddiy foizlar (200 dollar) va murakkab foizlar (10 dollar)dan iborat.

$$FV = 1000 \text{ dollar} \times 1,1 \times 1,1 = 1000 \text{ dollar} \times 1,1^2 = 1210 \text{ dollar.}$$

Uch yildan so`ng ushbu summa

$$FV = 1000 \text{ dollar} \times 1,1 \times 1,1 \times 1,1 = 1000 \text{ dollar} \times 1,1^3 = 1331 \text{ dollar.}$$

11.2. Ssuda kapitallari bozori va uning segmentlari.

Kredit resursovleri bozori bu – turli to`lov vositalariga talab va taklif mavjud bo`lgan bozorlarning umumiy belgilanishidir. Kredit bitimlari qoidaga ko`ra, pul qarz oladigan va qarz beradigan kredit institutlari (banklar va b.) yoki qimmatli qog`ozlar bozorida sotiladigan va sotib olinadigan turli qarz majburiyatlari harakati vositasida ifodalanadi.

Demak, kredit resurslari bozori korxonalar tasarrufiga investitsiyalar uchun mablag`lar taqdim etadi va aynan shu erda iqtisodiyotning pul mablag`lari ortiqcha bo`lgan sektorlaridan ularning etishmovchiligi his etilayotgan sektorlarga pul mablag`lari ko`chib o`tishi ro`y beradi. Kredit bozorida korxonalar o`z investitsiyalarini moliyalashtirish uchun pul qarz oladi; ba`zida korxonalar pulni qarz beradi, lekin qoidaga ko`ra, ishlab chiqarish sektori berishdan ko`ra ko`proq oladi.

SHu sababli aytish mumkinki, kredit resurslari bozorining asosiy vazifalaridan biri – aholining jamg`armalari va bo`sh mablag`larini vositachi shaxslarga investitsiyaga yo`naltirish hisoblanadi.

Kredit bozorining institutsional strukturasi

Kredit bozorining mohiyati unda qanday kapital: o`zining yoki o`zgalarning kapitali foydalanilishiga bog`liq emas, ya`ni bankir faqat o`z kapitali yordamida ish olib boradimi yoki undan deponentlangan kapital yordamidami – buning ahamiyati yo`q.

Kredit bozorining rivojlanish qonuniyatlari, foydalanish xarakteri va mazmuni ishlab chiqarishning kapitalistie usuli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari bilan belgilanadi. O`z navbatida, ushbu

bozorning mohiyati u davlat-monopolistik kapitalizmi zamonaviy mexanizmida bajaradigan muayyan rolni belgilab beradi.

Kredit bozori ishlab chiqarish va tovaraylanmasining o`shishiga, mamlakat ichkarisida kapital harakatiga, pul jamg`armalarining kapital qo`yilmalarga aylanishiga, ilmiy-texnika inqilobini amalga oshirishga, asosiy kapitalni yangilashga xizmat qiladi. Bu ma`noda bozor turli ishlab chiqarish bosqichlarini bilvosita ifodalaydi, u erdan qo`shimcha pul resurslarini oladigan moddiy ishlab chiqarish sohasining o`ziga xos tayanchini bilvosita ifodalaydi.

Banklar orasidagi resurslarni jalb qilish uchun raqobatli kurashda muhim vosita bo`lib turlicha foiz siyosati hisoblanadi, chunki qo`yilgan mablag`larga daromad olish mijozlarning qo`yilma qo`yishga undovchi muhim omil hisoblanadi. Depozit foiz stavkalari darajasini har bir tijorat banki O`zbekiston Respublikasi Markaziy Banki hisob stavkasi, pul bozori holati va o`zining depozit siyosatidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilaydi. Depozit schetlarining alohida ko`rinishlari bo`yicha daromad hajmi qo`yilma muddati, summasi, hisobvarag`ini amal qilish xususiyati, xizmatlar hajmi va xarakteri va, nihoyat, mijozning qo`yilma shartnomasi shartlariga amal qilishiga bog`liq.

Talab qilingungacha bo`lgan depozitlar bo`yicha hisobvaraqaalari egalari tomonidan joriy operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatiladi va ular qoldiqning nomuntazamligi bilan xarakterlanadi. SHuning uchun bunday schetlar guruhi daromadlik darajasi bilan ajralib turadi. YUridik shaxslarga ochilgan talab qilinguncha hisobvaraqaalaridagi mablag`lar qoldig`i bo`yicha foizlar umuman to`lanmasligi mumkin. Bunday foyda, odatda, mijozlarni hisob kassa xizmatlari uchun to`lov mablag`larini talab qilinguncha hisobvaraqaalarda mablag`larni minimallashtirish va ortiqcha summalarni qo`yilmalarning daromadliroq shakllariga joylashtirishga undaydi.

Jismoniy shaxslar uchun ochilgan talab qilinguncha varaqaalar bo`yicha foizlar deyarli majburiy tartibda o`rnatiladi, ammo u bo`yicha daromad hamisha muddatli qo`yilmalarga qaraganda pastroq bo`ladi. Muddatli qo`yilmalar bo`yicha foiz stavkasi hajmini o`rnatishdagi muhim omil bo`lib, mablag`lar joylashtirilgan muddat hisoblanadi.

Markaziy bank emissiya markazi sifatida makroiqtisodiy darajadagi pul aylanishi hamda bank tizimining likvidligi nuqtai nazaridan tijorat banklarining ular tomonidan jalb qilingan mablag'lardan foydalanish imkoniyatlarini doimiy ravishda tartibga solib turadi.

Nazariy jihatdan zamonaviy bank tizimida naqd pulsiz aylanishlarning rivojlanishi natijasida dastlabki shakllantirilgan depozitlarni (dastlabki yoki real depozitlar Markaziy bank tomonidan chiqarilgan naqd pullar asosida shakllanganlikni taqozo qiladi) cheklanmagan tarzda bir bankdan ikkinchi bankka o'tkazish, shu bilan birga, tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarni cheksiz oshirish imkoniyati mavjud. Xorijiy nazariyada bu jarayon depozit mul'tiplikasi (ya'ni mablag'larning bir bankdan boshqasiga zanjirsimon shaklda o'tkazilishi) va kredit ekspansiyasi deb nom olgan.

Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan majburiy zaxira talablari bank tizimida depozit va kreditlarni oshirishning bevosita cheklovchisi bo'lib xizmat qiladi.

11.3. Kapital bozorida o'rta va o'zoq muddatli kreditlar bahosining shakllanishi.

Kredit bozorining funktsiyalari uning mohiyati va kapitalistik xo'jalikda bajaradigan roli, shuningdek, kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarini takror ishlab chiqarish bo'yicha vazifalar bilan belgilanadi.

Kredit bozorining beshta asosiy funktsiyasini ajratib ko'rsatish lozim:

- kredit orqali tovar muomalasiga xizmat ko'rsatish;
- korxonalar, aholi, davlat, shuningdek, xorijiy mijozlarning pul jamg'armalarini jamg'arish va to'plash;
- pul fondlarini bevosita ssuda kapitaliga aylantirish va undan ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish uchun kapital qo'yilmalar ko'rinishida foydalanish;
- davlat va iste'mol xarajatlarini qoplash uchun kapital manbalari sifatida davlat va aholiga xizmat ko'rsatish;
- kapital markazlashuvini jadallashtirishi, kuchli moliya-sanoat guruhlarini shakllanishiga ko'maklashish.

Kredit bozorining aytib o`tilgan funksiyalari ishlab chiqarishning kapitalistik usulini qo`llab-quvvatlash, davlat-monopolistik kapitalizmi iqtisodiy tizimining faoliyatini ta`minlashga yo`naltiriladi.

Pul kapitali jamg`arilishi va harakatini aks ettirar ekan, kredit bozori uning pul shaklidagi qiymati harakati, kredit resurslari va qimmatli qog`ozlar ko`rinishida turli pul fondlari hosil bo`lishi va foydalanilishi bilan uyg`unlikda bog`langan bo`ladi. Bozor vositasida kapitalistik ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishiga, uning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ta`siriga sarflanadigan pul fondlari harakati, hajmi va yo`nalishini aniqlash va o`lchash mumkin.

Kimoshdi savdolari turli usullar bilan: amerikacha va gollandcha tizim, shuningdek, qat`iy belgilangan foiz stavkasi bilan o`tkazilishi mumkin. Kimoshdi savdosi o`tkazishning amerikacha usulida talabnoma banklar tomonidan taklif etiladigan foiz stavkalari bo`yicha qondiriladi. Rossiya Federatsiyasida bank talabnomalarida taklif etilayotgan foiz stavkasi Markaziy bank tomonidan taklif etilgan minimal stavkadan past bo`lishi mumkin emas. Bunda foiz stavkasi minimal stavkaga teng bo`lgan talabnoma sotilmagan kreditlar qoldig`iga proporsional ravishda qondiriladi. Gollandcha usulda barcha talabnomalar qondirilgan talabnomalar ro`yxatiga (otsechenie???) stavkasi bo`yicha) kiritiladigan oxirgi foiz stavkasi bo`yicha qondiriladi. Qat`iy belgilangan foiz stavkali kimoshdi savdosida barcha talabnomalar qondiriladi. Biroq, bunday stavkada talabnomalar umumiy miqdori kimoshdi savdosiga taklif etilgan kredit hajmidan oshib ketganida talabnomalar qisman qondiriladi. Qondirilgan talabnomalar darajasi kimoshdi savdosi krediti umumiy hajmining talabnomalar miqdoriga nisbatiga mos keladi.

O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan 1996 yil 20 apreldagi 41-sonli Kredit resurslari kimoshdi savdosini o`tkazish Tartibiga muvofiq O`zbekiston Respublikasi valyuta birjasida (O`zRVB) moliyaviy vositalarni so`mda va xorijiy valyutada joylashtirish bo`yicha kimoshdi savdolari o`tkazish tartibi belgilangan.

Kimoshdi savdolarida quyidagi turda operatsiyalar amalga oshiriladi:

- O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining (bundan keyin - Markaziy bank) kreditlarini kimoshdi savdosida joylashtirish;

- depozit omonatlarini kimoshdi savdosida joylashtirish;
- banklararo kreditlarni kimoshdi savdosida joylashtirish.

Kredit resurslari kimoshdi savdosini amalga oshirishdan asosiy maqsad ichki moliya bozorini sog'lomlashtirish va mustahkamlash hisoblanadi.

11.4.Kreditning bahosiga ta`sir qiluvchi omillar.

Bankning foiz siyosati kredit siyosatining asosiy bo`limi hisoblanadi. Bu siyosat turli kreditlar va qarzdorlar bo`yicha belgilanuvchi foiz stavkalarini aniqlashda foydalaniladigan quyidagi 3 omillarni o`z ichiga oladi:

1. O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi;

2. kredit resurslari (o`z va jalb qilingan mablag`lari) manbalari;

3. kreditlash, qarzdorlar turlari va yo`nalishlari

Kreditlarni bahosiga quyidagi omillar ta`sir etadi.

Bank tomonidan berilgan kreditlarning iqtisodiyotning tarmoqlari o`rtasida joy lashtirilganlik holati.

- Ushbu yo`nalishning ahamiyati shundaki, tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiya qilishning asosiy mezonlaridan biri kreditlarni mijozlarning tarmoq xususiyatiga ko`ra joylashtirilganligi hisoblanadi. SHu jixatdan olganda, ushbu yo`nalish kredit siyosatining samaradorligini belgilashda hisobga olinadigan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

II. Tijorat banki tomonidan berilayotgan qisqa va o`zoq muddatli kreditlarning o`zaro nisbati.

Tijorat banklari faoliyatining mazmuniga ko`ra, avvvalo, qisqa muddatli kreditlash institutlari hisoblanadi. Ular xo`jalik sub`ektlarining aylnma mablag`larga bo`lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim rol` o`ynaydi. Ko`pchilik rivojlanayotgan davlatlarda inflyatsiya darajasining nisbatan yuqori va nobarqaror ekanligi tijorat banklarining kredit portfelida qisqa muddatli kreditlarning salmog`ining yanada oshishiga sabab bo`ladi.

Inflyatsiya darajasi nisbatan yuqori bo`lmagan va barqaror bo`lgan sharoitda o`zoq muddatli kreditlar xajmini oshirish tijorat banki daromad bazasini mustaxkamlashning sinalgan usullaridan biri hisoblanadi.

III. Tijorat banklari tomonidan berilgan jami kreditlar hajmida muddati o'tgan kreditlar salmog'ining o'zgarishi.

Tijorat banklari tomonidan berilgan jami kreditlar hajmida muddati o'tgan kreditlar salmog'ining o'zgarishi kredit siyosatining samaradorligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda bank amaliyotida, xususan, G'arbiy Evropa davlatlarining bank amaliyotida muddati o'tgan kreditlar jami kredit qo'yilmalari hajmidagi salmog'ini 3 foizdan oshmasligi normal xolat hisoblanadi. Bu ko'rsatkichning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chegaraviy miqdori 5 foizni tashkil qiladi.

IV. Kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlar hajmidagi salmog'ining barqarorligini ta'minlash.

Tijorat bankining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning birlamchi omillaridan biri kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlar hajmidagi yuqori va barqaror darajasini ta'minlash hisoblanadi. Buning boisi shundaki, kreditlash tijorat banklari faoliyatining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. SHuning uchun banklar yalpi daromadining asosiy qismini kreditlash faoliyatidan olishlari lozim.

V. Kreditlash shakllaridan foydalanish darajasi.

Kreditlash shakllaridan to'laqonli tarzida foydalanish kredit siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kreditlash shakllari bankning kreditlash imkoniyatini oshirishga bevosita ta'sir qiladi. Hozirgi vaqtda, respublikamiz bank amaliyotida kreditlashning asosan ikki shaklidan foydalanilmoqda. Bo'lar mijozni alohida ssuda hisobraqamidan kredit liniyasi ochmasdan turib kreditlash shakli va faktoring shaklidir. Respublikamiz tijorat banklari tomonidan kreditlashning overdraft, kontokorrent, kredit liniyasi ochish yo'li bilan kreditlash, forfeyting shakllaridan foydalanilmayotganligi ularning kredit siyosatining samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi.

VI. Foizlarni o'stirmaslik maqomiga ega bo'lgan kreditlar va ularga hisoblangan foizlar miqdoining o'zgarishi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 dekabrda "Tijorat banklarining kreditlari bo'yicha foizlarni o'stirmaslik siyosati to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, banklar quyidagi hollarda kreditlarga foiz hisoblashni to'xtatadilar:

a) Bir yilgacha muddatga berilgan kreditlar uchun kreditning asosiy summasini va foizlarni to`lash 90 kun va undan ortiq muddatga kechiktirilgan holda, yaxshi ta`minlangan va tiklash jarayonidagi kreditlar bundan mustasno;

b) Bir yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar uchun kreditning asosiy summasini va unga hisoblangan foizlarni to`lash 90 kun va undan ortiq muddatga kechiktirilgan holda, yaxshi ta`minlangan va tiklash jarayonidagi kreditlar bundan mustasno;

v) Berilgan kreditning asosiy summasi yoki unga hisoblangan foizlarni qaytarilish muddati necha kunga kechiktirilganligidan qat`iy nazar banklarda shubxa uyg`otgan xolda.

Foiz hisoblash to`xtatilgan kundan boshlab hisoblangan foizlar summasi tegishli foizli daromadlar hisobraqamidan chegirib tashlanishi lozim. Bunda tegishli foizli daromadlar hisobraqami debetlanadi, 16309-“Hisoblangan, lekin undirilmagan foizlar” hisobraqami kreditlanadi.

VII. Banklarning kreditlash faoliyatida garov ob`ektlaridan foydalanish samaradorligi.

Respublikamiz tijorat banklarining faoliyatida kreditlarni garov asosida berish kredit siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biri hisoblanadi. SHu sababli, garov ob`ektlaridan unumli foydalanish masalasini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asosiy e`tibor garov ob`ektlarini sotish evaziga kreditlarning asosiy qarz summasi va ularga hisoblangan foizlarni undirishga qaratiladi.

VIII. Tijorat banklarining etarli darajada barqaror resurs manbalariga ega ekanligi.

Tijorat banklarining samarali kredit siyosatini amalga oshirish imkoniyati bevosita ularni etarli darajada kredit resurslari bilan ta`minlanganligiga bog`liq.

Hozirgi kunda kredit siyosatini to`zishda har bir tijorat banki mustaqil bo`lib, ular kredit siyosatining mohiyati, maqsadi va tarkibini takomillashtirib bormoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning faoliyatida xo`jalik sub`ektlarini kreditlash funktsiyasi birinchi darajali ahamiyatga ega bo`lganligi uchun banklar faoliyatining samaradorligi va likvidligini ta`minlash uchun avvalambor, banklarning kredit siyosatini turli ishlab chiqishga e`tibor berish zarur. Banklar oladigan daromadlar uning aktiv operatsiyalari natijasida, asosan kredit operatsiyalar tufayli

vujudga kelishi banklar tomonidan kredit siyosatini oqilona tanlash va o`tkazishni taqazo qiladi.

11.5. Markaziy bankning hisob (diskont) stavkasi. Markaziy bankning lombard stavkasi.

Markaziy bankning hisob (diskont) siyosatining mohiyati shundaki, u tijorat banklardan veksellarni sotib oladi. Aytaylik mol sotib oluvchi korxonaning etkazib berilgan mol (tovar va xizmatlar va x.k)ning kakini to`lash uchun mablag`i etarli bo`lmasa, u tovar uchun tulovni ma`lum vavk 5tgandan keyin amalga oshirishi tugrisida veksels berotpi mumkin. Mol sotuvchi korxonaga pul mablag`lari zarur bo`lgan vaktida u vekselni tijorat bankiga sotishi mumkin. Tijorat banki vekselni sotib olganda unda ko`rsatilgan summadan kam summaga (ma`lum foiz ushlab uolgan xolda) sotib oladi. Zarur bo`lganda tijorat banki vekselni Markaziy bankda hisobga qo`yishi mumkin. Bu xolda Markaziy bank ham o`z foydasiga ma`lum foiz - hisob stavkasini ushlab qolishi mumkin. Markaziy bankning hisob stavkasi alohida olingan davlatlarda zkar xil - 5% dan 15 % gacha bo`lishi mumkin-Tijorat banklari veksellarni sotib olishda Markaziy bankning hisob stavkasiga tayanadilar. Markaziy bankning hisob stavkasi tijorat banklari o`rnatadigan hisob stavkaning eng past chegarasi hisoblanadi. Odatda tijorat banklarining hisob stavkasi markaziy bankning hisob stavkasidan yukori (0,5dan - 2%gacha) bo`ladi.

Tijorat banklarining qaytamoliyalashtirish siyosati -bu to`g`ridan-to`g`ri kreditlash, veksellarni hisobga olish, kimmatbaxo vrgozlarni garovga olgan xolda kreditlar berish va kredit auksionlarni utkazish yuli bilan amalga oshiriladi. Bundan kelib chikkan xolda markaziy bankning qaytamoliyalashtirish operatsiyasi kuyidagi usullarda olib borilishi mumkin:

- tijorat banklarining ixtiyoridagi veksellarni hisobga olish yo`li bilan kreditlash,

- tijorat banklari ixtiyoridagi kimmatbaxo qog`ozlarni garovga olish yo`li bilan kreditlar berish. Bunday kreditlar lombard kreditlar deyiladi.

O`zbekistan respublikasida Markaziy bank o`rnatilgan qoidalarga asosan, kuyidagi aktivlarni garovga olgan xolda 3 oygacha bo`lgan muddatda kreditlar berishi mumkin:

- oltin, chet el valyutasi, xalqaro rezervlar toifasiga kiruvchi valyuta boyliklari va boshqa boyliklar,

- davlatning karz majburiyatlari va davlat tomonidan kafolatlangan. boshqa karz vositalari,

- Markaziy bankda depozitga o`tkazilgan va uning depozitariysi uchun makbo`l bo`lgan, xarid kilinishi va sotiltishiga ruxsat berilgan va Markaziy bank ular bilan ushbu konun doirasida boshqa xil operatsiyalar o`tkazishi mumkin bo`lgan aktivlar,

- to`lanishiga banklar kafolat bergan tijorat veksellari asosida kreditlar berilishi mumkin.

Lombard kreditini berish, qaytarish va ulardan foydalanganlik uchun foizlar to`lash tartibi umumiy asoslarda amalga oshiriladi va u alohida qarz hisobvarag`i bo`yicha kredit tartibiga o`xshashdir.

Asosiy faoliyat bilan bog`liq tovar moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar va ko`rsatilgan xizmatlar haqini to`lash maqsadida to`zilgan pul hisob - kitob hujjatlari pulini to`lash uchun qabo`l qilinadi. Qarz oluvchi bankka garovga qo`ygan qimmatli qog`ozlar bo`yicha olinadigan daromadlarga foizlar qo`shilmaydi.

Qimmatli qog`ozlarni garovga olib kredit shartnomasi tuzilgandan keyin bank qimmatli qog`ozlar emitentiga uning qimmatli qog`ozlarini garovga qo`yish bitimi to`zilganligini hamda qimmatli qog`ozlar bo`yicha daromadlar kiritilishi lozim bo`lgan depozit hisobvarag`i nomerini ma`lum qiladi. Lombard krediti beriladigan hollarda garovga qo`yilgan qimmatli qog`ozlar bo`yicha olinadigan daromadlar qarz oluvchining muddatsiz depozit hisobvarag`iga qo`yiladi (depozit shartnomasini rasmiylashtirmasdan) va, birinchi navbatda, ularni saqlash xarajatlarini qoplashga, shuningdek, kreditdan foydalanish uchun foizlarni to`lashga yo`naltiriladi.

Kredit jarayonida bank garovga qo`yilgan qimmatli qog`ozlar kotirovkasi birja kursidagi o`zgarishlar to`g`risida teleks, komp`yuter aloqasi va aloqaning boshqa turlari yordamida axborot to`plab boriladi.

Kredit davomida fond birjasida o`tkazilgan savdo natijalariga ko`ra, garovga qo`yilgan qimmatli qog`ozlar qiymati pasaygan bo`lsa, u holda kredit qo`mitasining qaroriga muvofiq qarz oluvchiga shu summada qo`shimcha ta`minot berish talabi bildirilishi yoki kredit miqdori qaytariladi.

Tovar (mol) garovi ostidagi lombard krediti. Lombard krediti uchun garov ko`rinishida faqatgina nisbatan baholi tovarlar, qaysiki ularning savdosi birjada yuritilishi, tovar partiyasini miqdori va sifatini belgilash bilan bir vaqtda bahosini ham aniqlash imkonini berishi shartidir.

Qimmatbaho metall garovi ostidagi kredit. Bu lombard kreditining eski usullaridan bo`lib, hozirda u juda kam ishlatiladi. Garovni baholashdagi qiymati bu asosan oltin tangalar, slitkalar, kumush, platina va boshqalar qariyb 95% foiz qimmatbaho metall narxiga mos keladi.

Lombard krediti - kreditlashning bu usuli asosan likvid mol mulk hisoblangan tillo taqinchoqlar garov asosida kredit berishga asoslanadi. Bu kredit kredit muassasi uchun deyarli risk darajasi past xisoblanadi. Chunki tillo buyumlar eskitdan yuqorilikvidli tovar sifatida tarixga ega. Biz kreditlashning bu usuli orqali pul mablag`lariga muxtoj bo`lgan ishlab chiqarish va savdo majmualarini moliyaviy qo`llab quvvatlab boriladi.

SHu tarzda Markaziy banklar bozorlarning o`rtacha foiz stavkalarini belgilaydi. Bu mazkur sharoitda barcha bozorlar xususan kredit va kapital bozorlari uchun bazaviy foiz stavkalari qabo`l qilinadi.

Bank kredit siyosati bank resurslari, ularning joylashtirilish bilan chambarchas bog`liq. Bank resurslarining asosiy qismini jalb qilingan mablag`lar, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarning depozitlaridan tashkil topadi. SHuningdek, hozirgi kunda jalb qilingan resurslar ichida banklararo kredit xam alohida o`rin egallaydi. Depozitlar bo`yicha belgilangan foiz stavkalari, hamda boshqa bankdan olingan kredit uchun foiz stavkalari bank tomonidan beriladigan kreditning foiz stavkalari bilan bog`liq bo`ladi. Kredit siyosatining aniq va mukammal tayyorlanish va izohlanish xar bir bank uchun kreditlash jarayonini ijobiy tashkil etish uchun asos bo`ladi. Bank tomonidan to`plangan resurslarni to`g`ri va oqilona joylashtirish bankning kredit siyosatining sifatiga bog`liq bo`ladi. Kredit siyosati sifatiga va xolatiga qarab bank jalb qilgan resurslarini to`g`ri joylashtirish va oldindan ko`zlangan daromad olish imkoniyati yaratiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Kreditning bahosi tushunchasini, nominal va real foiz stavkasini, oddiy va murakkab foizlar, ularni hisoblash tartibini tushuntirib bering?.

2. Ssuda kapitallari bozori va uning segmentlarini, qisqa muddatli pul bozorida kreditlar bahosining shakllanishini yoritib bering?

3. Kapital bozorida o`rta va o`zoq muddatli kreditlar bahosining shakllanishini ochib bering?

4. Kreditning bahosiga ta`sir qiluvchi omillarni mohiyatini yoritib bering?

5. Markaziy bankning hisob (diskont) stavkasini, markaziy bankning lombard stavkasini iqtisodiy mohiyatini ochib bering?

12-MODUL. BANKLARNING KELIB CHIQISHI VA BANK TIZIMI

12.1. Banklarning paydo bo`lishiga sabab bo`lgan tarixiy shart-sharoitlar.

12.2. Banklarning turlari va ular faoliyatining o`ziga xos xususiyatlari. Bank tizimi va uning elementlari.

12.3. O`zbekiston Respublikasining bank tizimi.

12.4. Pul va kredit xo`jaliklarining barqaror shakllarining yuzaga kelishi. Markaziy banklarning yuzaga kelish sabablari va shart-sharoitlari.

12.1. Banklarning paydo bo`lishiga sabab bo`lgan tarixiy shart-sharoitlar.

Banklar paydo bo`lishining asosi bo`lib tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi xisoblanadi. Tovarpul munosabatlarining bo`lishi va ularning rivojlanib borishi barcha ijtimoiy-iqtisodiy to`zumlarda banklarning xam bo`lishini takozo kiladi.

Banklar o`rta asrlarda puldorlar tomonidan pulni qabul qilish va boshqda davlat, shaxar puliga almashtirib berish asosida kelib chiqqan. Keyinchalik puldorlar o`z bo`sh turgan mablag`laridan

foйда olish maksadida ularni vaktincha foydalanishga mablag' zarur bo'lgan korxonalarга ssudalar berishgan. Bu pul almashtiruvchi puldorlarning bankirlarga aylanishiga olib kelgan.

Bank so'zi ital'yanча "banca" so'zidan olingan bo'lib "stol", banknota "pullik stol" degan ma'noni anglatadi. Urta asrlarda italiyalik puldorlar xamyonlaridagi, idishlardagi monetalarni stol ustida kuyib xisob-kitob qilganlar.

XII asrlarda Genuyada pul almashtiruvchilarni "bancherii" deb atashgan. Agar puldorlardan birortasi ishonchni oklamasa va ishiga ma'suliyatsizlik kilsa, u utirgan stol sindirib tashlangan va uni "Vapso rotto", ya'ni bankrot deb atashgan. YA'ni, bizga ma'lum bo'lgan "bankrot" so'zi xam "banca" so'zidan olingan.

Banklar paydo bo'lishining boshlangich nuktasi bo'lib XVI asrda Florentsiya va Venetsiyada tashkil tsilingan kichik jirobanklar xisoblanadi.

Bu banklar asosan o'z mijozlari-savdogarlarga xizmat qilgan, ular urtasida nakd pulsiz xisob-kitoblarni olib borgan. Bu banklar o'z mijozlarini monetalar tarkibi buzulishidan zarar ko'rishdan ximoya qilishgan. Ular xxisoblarni ma'lum summadagi Kimmatbaxo metallni ifodalovchi maxsus pul birligida olib borishgan o'zlarining bo'sh pul mablag'larini jirobanklar davlatga karzga, shaxarlarga, chet el savdogarlariga ssuda bergan. Angliya bank tizimi (XVI asr) yuzaga kelgan va rivojlangan birinchi davlat xisoblanadi. Angliya bankirlari oltin (oltinni saqlab berish) bilan shug'ullanuvchilar (masalan, biz Londonda bank ishini ilk bor rivojlantirgan CHayl'd nomli puldorni aytish mumkin) va savdogarlardan kelib chiqqan.

Qadimgi Gretsiyada pul almashtiruvchi odamlarni "trapezida" (grekcha-stol), Qadimgi rimda "mensarilar" (lotincha-stol) deb atashgan.

Dastlabki banklar valyuta ayirboshlash operatsiyalaridan tashqari, odamlarning pul boyliklarini saqlash va omonatchilarga hisob-kitob xizmatlari ko'rsatish bilan ham shug'ullanganlar. Keyinchalik bankerlar shu narsani tushindiki , bankda harakasiz yotgan pullarni ma'lum foiz evaziga berib daromad olish mumkin. SHu tariqa banklarning kredit operatsialari paydo bo'lgan.

Banklarning kelib chikishi va rivojlanish ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar va talablarning oshishi, savdo kapitali aylanishining tezlashuvi bilan bog'liq bo'lgan. Natural xujalik munosabatlarining

tugashi savdo-sotik munosabatlarining rivojlanishi pullik xisob-kitoblar olib borishga, kreditning rivojlanishiga yo'l ochdi. Ishlab chiqarishni rivojlantirish yollanma mexnatni jalb qilishga olib kelgan. YOllanma mexnat uchun xaqning pul shaklida to'lanishi, doimiy pul aylanishini yuzaga keltirdi. Pul aylanishini esa bank tomonidan boshkarish zarur edi. SHunday kilib, banklar faoliyat ko'rsata boshladi va ular mablag'larni yig'ish va taqsimlash orqali ssuda kapitali xarakatini boshqara boshladi. Ssuda kapitalistidan farqli o'laroq bankir tadbirkor sifatida ish olib borgan.

Agar sanoat sohasidagi puldor o'z kapitalini sanoatga, savdogar o'z mablag'ini savdoga qo'ysa, bankir o'z kapitalini bank ishiga qo'yadi. Ssuda kapitalisti asosan o'zining bo'sh kapitalini qarzga bersa, bankirlar asosan chetdan jalb qilingan mablag'larga tayanadi. Ssudaga mablag' beruvchi puldorning daromadi ssuda foizi bo'lsa, bankirning daromadi bank foydasi hisoblanadi. Banklar korxonalar, tashkilot, davlat muassasalari, aholi bo'sh pullarini jalb qilish orqali katta hajmdagi kapitalni o'z qo'llarida jamlaydilar va daromad keltiruvchi kapital harakatini boshqarib boradilar. Banklarning yiriklashuvi va ular faoliyatining takomillashuvi ularning maxsus korxonalar – kredit muassasalariga aylanishiga olib keladi.

SHunday qilib, bank faoliyati xalq xo'jaligi mavjud bo'lgan bo'sh mablag'larni jalb qilish va ssuda kapitalini taqsimlashni o'z ichiga oladi. Bank o'z faoliyati davomida ma'lum daromadga ega bo'ladi. Bu daromad bank jalb qilgan resurslarga yo'naltirilgan foiz va joylashtirgan resurslar bo'yicha oladigan foiz o'rtasidagi farqdan iborat bo'ladi.

Banklar faoliyati rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- Davlat va aholi tomonidan banklarga bo'lgan ishonchning ortishi ularning ixtiyoridagi vaqtincha bo'sh pul mablag'larni bankka jalb qilish imkonini beradi. Keyinchalik ishlab chiqaruvchi korxonalar ham o'z pul mablag'larini depozit sifatida banklarga joylashtira boshladi

- XVI asrda Amerikadan Evropaga juda katta miqdorda oltin va kumushning kirib kelishi Italiya va Gollandiya banklarining monopoliyasiga barham berdi. Natijada Evropada banklararo raqobat shakllandi.

- Banklar faoliyati rivojlanib borishi bilan ular endigna qimmatli qog'ozlar bzorida paydo bo'lgan. SHu tariqa banklarning yangi operatsiyalari paydo bo'ldi.

- Banklar o'zining spitsifik ya'ni "o'ziga xos" xususiyatiga ko'ra milliy to'lov tizimining tayanchiga aylantirildi. endi iqtisodiyotdagi barcha to'lovlar banklar orqali o'tadigan bo'ldi. Bu banklarning iqtisodiyotdagi mavqeini keskin oshirdi.

Birinchi Markaziy bank 1650-yilda SHvetsitaning *Riks banki*;

1694-yilda Angliya Markaziy banki;

1800-yilda Fransiya Markaziy bani;

1893-yilda Italiya Markaziy banki ;

1913-yilda AQSH federal zaxira tizimi tashkil etildi.

12.2. Banklarning turlari va ular faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. Bank tizimi va uning elementlari.

Kredit tizimi deb kredit munosabatlar majmuasi va kredit munosabatlarni tashkil kiluvchi va amalga oshiruvchi kredit institutlar yigindisiga aytiladi. Kredit tizimi orkali xukukiy va jismoniy shaxslaryaing vaktincha bo'sh mablag'lari yig'iladi va korxonalar, tashkilotlarga, davlatga vaktincha foydalanishga beriladi. Kredit tizimi bir necha bo'g'inlardan iborat bo'lishi mumkin. Mablatlarni jalb kilishi va taqsimlanishiga qarab kredit tizimi bo'g'inlari o'z xususiyatlariga ega kiladi. Jahon amaliyotida kredit tizimi o'zining tashkil qilinish turiga qarab quyidagi guruxlarga bo'linadi.

- Markaziy bank
- Tijorat banklar
- maxsus-kredit institutlar

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ikki pog'onali kredit bank tizimi ko'p mamlakatlar iqtisodining asosi hisoblanadi. Bu Markaziy bank, bank institutlari va nobank kredit muassasalaridir.

Bank institutlariga quyidagi banklar kiradi:

- tijorat banklar;
- investitsiya banklari;
- jamg'armalar jalb qiluvchi banklar (O'zbekistonda Xalq banki);
- ipoteka banki;
- savdo banklari;

- tashqi iqtisodiy aloqalar bo`yicha banklar;
- tarmoqlar bo`yicha ixtisoslashgan banklar va boshqalar.

Nobank kredit tashkilotlarga:

- investitsiya kompaniyalari;
- sug`urta kompaniyalari;
- nafaqa va boshqa fondlar kiradi.

O`zbekiston Respublikasi konunlariga asosan bank - tijorat muassasasi bo`lib, jismoniy va xukukiy shaxslarning bo`sh turgan pul mablag`larini jalb kilish va ularni o`z nomidan, tulovlilik, muddatlilik, kaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshka bank operatsiyalarini bajaradi.

Banklar - tovar-pul xujaligining ajralmas atributidir. Tarixan bular yonma-yon rivojlanib keldilar. SHuning uchun kiymatning pul shaklining muomalasining boshlanishi bank ishining boshlanishi deb hisoblash, xamda bank faoliyatining rivojlanishidagi etukligi doimo iqtisodiyotdagi tovar-pul alokalarining rivojlanish darajasiga mos kelgan.

Banklar-moliyaviy bozorning tashkiliy tuzilishining bir qismi bo`lgan kredit tashkiloti bo`lib, jismoniy va yuridik shaxslarning vaktinchalik bo`sh turgan pul mablag`larini jamg`rish, yig`ish, jamlangan (akkumultsiya kilingan) mablag`larni o`z nomidan kaytarib berishlilik, muddatlilik asosida berish xamda mijozlarning topshirig`iga ko`ra, to`lovlarni amalga oshirish vazifalarini amalga oshiradilar.

Bu «bankning ilk» belgilari bo`lib, ular aslida tarixan banklarning shakllanishidagi 3 asosiy yo`nalishni o`zida aks ettiradi. Ma`lum bir shartlar asosida ushbu yo`nalishlarga cherkovlarning o`zlariga topshirilgan pul mablag`larini saqlab berishni ta`minlash faoliyatini, sudxurlik kreditlarini, keyinchalik ularning tijorat kreditiga aylanishini, almashtiruv (menyali) «stollarining» idoralarining «xisob-kitob» va valyuta bilan faoliyatlarini mumkin. Xaqiqatda esa oxirgi yo`nalish bu tashkilotlarga nom berish uchun asos bo`lib xizmat kildi.

Banklar ma`lum belgilariga qarab quyidagi turlarga bo`linadi.

- mulk shakliga qarab: aktsioner, noaktsioner, kooperativ, kommunal, davlat, aralash, xalkaro banklarga bo`linadi;
- kredit beruvchi banklarga;
- milliy mavkei bo`yicha: milliy va xorijiy banklarga;

- faoliyat ko`rsatishi va bajaradigan funksiyalariga qarab: depozit, universal, ixtisoslashgan banklarga bo`linadi.

Aktsioner banklar aktsioner kompaniyalar sifatida yuzaga kelgan banklar bo`lib aktsiyalar chiqarish xisobidan ular kapitalining asosiy qismi yuzaga keltiriladi. Ko`pgina rivojlangan mamlakatlarda bank tizimining asosiy qismini aktsioner banklar tashkil qiladi.

Noaktsioner banklar paychilar mablag`lari xisobidan tashkil kilingan banklar bo`lib, ular bir yoki bir necha shaxs ixtiyorida bo`lishi mumkin.

Mayda ishlab chikaruvchilar, xunarmandlarning faoliyatini qo`llab-quvvatlash maqsadida kooperativ banklar tashkil kilinadi. Bu banklarning mablag`lari ishtirokchilarning mablag`lari xisobidan vujudga keltiriladi va mijozlarga ularning faoliyatini rivojlantirish uchun engil sharoitda kredit beriladi. Kommunal banklar ixtisoslashgan kredit tashkilotlar bo`lib, kommunal xujalik va uy-joy qurilishini kreditlash va moliyalashtirish bilan shug`ullanadi.

Davlat banklari davlat ixtiyorida bo`lgan kredit muassasa bo`lib, o`zining birinchi kurtaklari kadimiy Rimda, Egiptda, keyinchilik XVI-XVII asrlarda Evropada vujudga kelgan.

Ixtisoslashtirilgan banklarning turdagi sifatida investitsiya, jamg`arma, rivojlanish va taraqqiyot banklarini keltirish mumkin. Kredit tizimining yana bir kismi nobank kredit muassasalari bo`lib, davlat va korxonalarni moliyashtirishi, uzoq muddatli kreditlash bilan shug`ullanadi.

12.3. O`zbekiston Respublikasining bank tizimi.

Kredit - bank tizimining shakllanishi va rivojlanishi - iqtisodiy isloxlarni amalga oshirilishining ajralmas belgilaridan (xususiyatlaridan) biridir. Bu shu bilan ta`kidlanadiki, bank tizimi xar qanday turdagi iqtisodiyotning markaziy tizimini tashkil qiluvchi unsurlaridan hisoblanadi. Bank tizimi vaktinchalik bo`sh turgan pul mablag`larini akkumulyatsiya qilish funksiyasini amalga oshiradi. Bank tizimining muvoffakiyatli ishidan iqtisodiyotni samarali faoliyat ko`rsatishi, umuman olganda mamlakatdagi iqtisodiy o`sinh bog`liq bo`ladi. Bank deb pul mablag`larini yig`uvchi, saklab beruvchi, kredit-xisob va boshqa xar-xil vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasalarga aytiladi.

Agar mamlakatda etarli darajadi bank faoliyatini ko`rsatayotgan banklar, kredit tashkilotlar xamda iqtisodiy tashkilotlar mavjud bo`lsa u xolda bank tizimi mavjudligi to`g`risida gap yuritsa bo`ladi. Ushbu sharoitda banklar va kredit tashkilotlari turli shakllarida xamda doimo o`z mijozlari- iqtisodiyot sub`ektlari, Markaziy bank, boshka organlar, davlat xokimiyatlari va davlat boshkaruv organlari, o`zaro yoki yordamchi tashkilotlar bilan mulokotda (munosabatda) bo`lib turadilar.

Bank tizimi - tashkiliy to`zilma sifatida yirik tizim bo`lib - mamlakatning iqtisodiy tizimiga kiradi. Bu shuni bildiradiki, banklarning faoliyati va rivojlanishini moddiy va nomoddiy ne`matlarni ishlab chiqarish, muomala va iste`mol qilish bilan bog`liq xolda ko`rib chiqish zarurdir. O`zining amaliy faoliyatida banklar xo`jalik xayotini tartibga solish mexanizmi bilan o`zviy ravishda bog`liq.

Tijorat banklarini belgilariga qarab quyidagi turlarga bo`lish mumkin. Mulkchilik shakliga qarab banklar: davlat bankiga, aktsiyador banklarga, kooperativ, xususiy, mintakaviy, aralash mulkchilikka asoslangan bankka bo`linadi. Aktsiyador banklar aktsiyador jamiyat kabi ochik turdagi yoki yopiq turdagi aktsiyador banklar bo`lishi mumkin. Aktsiyadorlar safiga kirish aktsiyalarni sotib olish yuli bilan amalga oshiriladi. Hukukiy va jismoniy shaxslar banklarning aktsiyalarini sotib olishi va aktsiyadorlar bo`lishi mumkin.

Ba`zi tijorat banklari paylar (badallar) xisobidan tashkil qilinishi mumkin. Bu turdagi banklarning qatnashchilari xam xuquqiy va jismoniy shaxslar bo`lishi mumkin.

Xususiy banklar - jismoniy shaxsning pul mablag`lari xisobidan tashkil qilingan banklar xisoblanadi.

Joylashish belgisiga qarab tijorat banklar: xalkaro, respublika, mintakaviy, viloyat banklariga bo`linishi mumkin.

Bajaradigan operatsiyalariga qarab tijorat banklar - universal va maxsus banklarga bo`linadi.

Universal banklar xilma-xil operatsiyalar bajarish, xar xil xizmatlar amalga oshirish xususiyatiga ega bo`ladi. Maxsus banklar ma`lum yo`nalishlarga xizmat ko`rsatib, o`z faoliyatini shu yo`nalishlarda yutuklarga, samaradorlikka erishishga bag`ishlaydi. Bunday banklarga tarmoqlarga xizmat ko`rsatuvchi banklar, eksport-

import operatsiyalarini olib boruvchi banklar, investitsiya banklari, ipoteka-zamin banklari kirishi mumkin.

Segmentlangan bank to'zilmesi tijorat va nobank kredit tashkilotlariga faoliyat muxitini (operatsiyalarini) qat'iy qonuniy tomonidan chegaralab ko'yilishini bildiradi. Bunday xolat hozirda AKSH, Yaponiya, Kanada kabi davlatlarda mavjud bo'lib ularda korporativ mijozlarning qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish operatsiyalari bilan shug'ullanishlari taqiqlanadi. Biroq, bugungi kunda AKSH 1933 yilda qabul qilingan Glass-Steagal qonuni bekor qilinishi kutilmoqda. Ammo, rivojlangan mamlakatlarga bir yoki ikki pog'onali bank tizimi xosdir. Bir pog'onali bank tizimi varianti mamlakatda yagona markaziy bank xali mavjud bo'lmasa yoki bitta markaziy bankdan iborat bo'lsagina real (xaqiqatda) mavjud bo'lishi mumkin.

Ammo tsivilizatsiya darajasidagi bozor iqtisodiyoti sharoitiga ikki pog'onali bank tizimi xos. Bunda birinchi pog'ona banklari-bu Markaziy bank, ikkinchi quyi pog'ona esa-tijorat banklari va kredit tashkilotlaridir. Markaziy bank-bank tizimi mavjud bo'lgan barcha davlatlar pul-kredit tizimining asosini tashkil kiladi. Markaziy bankning moliya bozoridagi o'rnini mamlakatda bozor munosabatlarining rivojlanish darajasiga va xususiyatiga bog'liq.

Bu esa o'z navbatida ikki pog'onali bank tizimini shakllanishiga asosiy omil bo'lib xisoblanadi. Chunki buning tepasida Markaziy bank bo'ladi. Ikki pog'onali bank tizimining zarurli bozor munosabatlarining qarama-qarshiliklaridan kelib chiqadi. Bir tomondan, bu xususiy moliya mablag'laridan erkin foydalanish xuquqini talab qiladi. Bu quyi pog'ona banklar-tijorat banklari orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi tomondan, bu munosabatlarni ma'lum miqdorda tartibga solish nazorat kilish maksadli yo'naltirish zarur. Bunday maxsus institut sifatida Markaziy bank yuzaga chiqadi.

Bank faoliyatini maxsus litsenziya asosida amalga oshiriladigan faoliyatdir. Biz aytganimizdagi O'zbekiston Respublikasi Tijorat banklari Markaziy bank tomonidan beriladigan litsenziya asosida faoliyat olib boradilar. Ularga qo'shimcha litsenziya zarur emas (fakat valyuta operatsiyalaridan tashqari). Bozor iqtisodiyoti va jaxon xo'jaligi rivojlanishi bilan bank tizimi xam rivojlana bordi. Xozirgi sharoitda banklar tobora ko'proq faqat sof bank operatsiyalarini bajaradigan emas.

Tijorat banklari quyidagi operatsiyalarni bajaradi:

- passiv operatsiyalar;
- aktiv ssuda operatsiyalari;
- bank xizmatlari va vositachilik operatsiyalari;
- bankning o'z mablag'lari xisobidan amalga oshiradigan operatsiyalar va boshqalar.

Shu bilan birga banklar moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan moliyaviy muassasalarga aylanmokeda, bu bank balansida aks ettirilmaydi, lekin juda katta daromad keltiradi. Masalan: banklar valyuta operatsiyalarini bajarganda sarroflar-brokerlar sifatida maydonga chiqadilar va katta miqdorda vositachilik xaqi oladilar. Lekin bu operatsiyalar bank balansida aks ettirilmaydi. Xozirgi paytda yirik tijorat banklari qariyb 350 turdagi moliyaviy xizmat ko'rsatmokeda.

O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunda tijorat banklarining quyidagi operatsiyalari qayd qilingan:

1. Mijozlarning xisob varaqalarini olib borish:
2. Mijozlarga kassa xizmati ko'rsatish:
3. Mijozning topshirig'iga binoan nakd pulsiz xisob-kitoblarni bajarish:
4. Qisqa yoki uzok muddatli kreditlar berish:
5. SHartnoma yoki pullik asosida buyurtmachining topshirig'iga binoan kapital quyilmalarni mablag' bilan ta'minlash:
6. Bo'sh pul mablag'lari-depozitlarini muomalaga jalb qilish:
7. Axolidan omonatlarni kabul qilish:
8. Faktoring operatsiyalarini amalga oshirish:
9. Lizing operatsiyalarini amalga oshirish:
10. Tijorat banki davlatning xamda boshkalarining kimmatli kogozlarini xarid qilish va sotish:
11. Xorijiy valyuta va kimmatli metallarni xarid qilish va sotish:
12. O'z mijozlari uchun kafolat va majburiyatlar berish:
13. Byudjetning kassa ijrosini bajarish:
14. Bank operatsiyalari bo'yicha maslaxatlar berish va boshqa operatsiyalar.

Ular orasida eng ko'p tarkalgani veksellarni xisobga olish usulidir. Bank vekselsaklovchidan nakd xisob-kitob qilish yo'li bilan

veksel sotib oladi. Unda qayd etilgan summadan xisobga olish foizini - ko`rsatilgan xizmat uchun xaq ushlab qoladi. Veksel bo`yicha tulov muddati kelganida bank uni vekselni sotgan veksel' saklovchiga emas, balki vekselni bergan shaxsga takdim etadi.

Qimmatli qog'oz garovga olinib, beriladigan ssudalar, shuningdek mana shunday qog'ozlarni xarid qilish bo`yicha operatsiyalar fond operatsiyalari deb yuritiladi.

Tovar evasiga beriladigan ssudalar omborlar yo`ldagi va savdo aylanmasidagi bo`lgan tovarlarni garovga olib takdim etildi. Ssudalar o`z muddati to`lanmagan hamma xollarda garovga qo`yilgan qimmatli qog'ozlar va tovar moddiy boyliklari bank ixtieriga mulk bo`lib o`tadi. To`lov qobiliyatiga shubxa yo`q yirik mijozlarga bank xech kanday ta`minotsiz ssudalar eki bank kreditlari deb ataladigan qarzlari beradi.

12.4. Markaziy banklarning yuzaga kelish sabablari va shart-sharoitlari.

Kredit moliya-tizimining barqarorligining ta`minlash, uning aloxida bo`g`inlarining birinchi navbatda tijorat banklari faoliyatini barqarorligini ta`minlash mamlakat markaziy bankning asosiy vazifasi xisoblanadi. Markaziy bankning yana bir asosiy vazifalaridan kredit organlarini (tizimini) faoliyatini tartibga solish va umumlashtirishdan iboratdir.

Uzok yillar mobaynida tijorat banklari va emission banklarining bajaradigan funktsiyalari qo`shilib ketdi. Bular qatoriga banknotlarni emissiya qilishning markazlashuvi bir qo`lda yoki bir necha banklarning qo`lida ya`ni davlatning maxsus qonuniy dalolatnomalari bilan qo`llab-quvvatlanadigan banklar qo`lida ushlab turishi, keyinchalik esa ular orasidan yiriklarini ajratib so`ng emissiya chiqarish xuquqini berilishini, yoki aloxida markaziy emission banklar deb nomlanuvchi banklarning paydo bo`lish jarayonlarini misol qilib keltirish mumkin.

Zamonaviy ikki pog'onali bank tizimi ko`p sonli tijorat banklari va yagona Markaziy bankga asoslangan bank tizimi shu yo`l bilan vujudga keldi. Odatda Markaziy bank - bu davlat balki, masalan, Angliya banki, Frantsiya banki, Bundes bank, YAponiya banki, SHvetsariya milliy banki, Finlyandiya banki va xakozo yagona banklardan tashkil topadi. Birok AKSH Markaziy bank 12 xududiy Federal banklardan, ya`ni federal zaxira tizimi (FZT) boshkaruv

kengash tomonidan boshkariladigan bo`limlardan iboratdir. Markaziy bank kapitaliga bo`lgan mulk shakliga ko`ra ular Davlat (kapital davlatga tegishli) aksioner va aralash kapitalli turlariga bo`linadi.

Ba`zi Markaziy banklar Davlat banklari ko`rinishlarida shakllanadilar. Ularga Nemis Federal Banki (Germaniya Bundes banki). 1957 yilda Rexs bankning davomchisi (1975 yilda paydo bo`lgan) sifatida shakllandi. Ba`zi Markaziy banklar- oldin xususiy bank masalan, Angliya banki (1694), Frantsiya banklari (1800y.) sifatida keyinchalik esa milliylashtirilib davlat bankiga aylantirilgan. Aksioner turidagi Markaziy bank qatoriga AKSH FRT (Federal Rezerv tizimi) kiritish mumkin. FRS 1913 yildagi Federal Rezerv asosida paydo bo`lgan aralash turdagi Markaziy banklar jumlasiga kapitalida davlat, aksioner va xususiy va kapital ishtirok etgan banklar kiradi. Bu guruxlar katoriga kiruvchi YAponiya banklar (1882y.) misol qilinib keltirilishi mumkin. Konun buyicha 1942yilda 55% ustav kapitali davlatga tegishlidir. Deyarli barcha mamlakatlarda Markaziy bank xuquqiy me`yorlarini tartibga soluvchi, aniklovchi (belgilovchi) qonunlar mavjuddir. Turli mamlakatlarda Markaziy banklarga turli funktsiyalarni belgilab berilishi mumkin. Lekin Markaziy bank doimo Davlat va bank belgilarini o`zida mujassamlashtirilgan o`zida Davlatning tartibga soluvchi organi bo`lib qoladi. Mamlakatning Markaziy Banki - shu davlat bank tizimining asosiy qismi bo`lib xisoblanadi. Markaziy bank- birinchi urinda davlat va iqtisodiyot o`rtasida vositachi bo`lib xizmat kiladi. Ammo Markaziy bank o`z oldiga foyda olishni maqsad qilib ko`ymaydi.

Markaziy banklarning paydo bo`lishi quyidagi sabablar bilan belgilanadi:

1. Naqd pullarni emissiya qilishning bitta markazda to`planishining zarurligi

2. Tijorat banklarining inqiroz paytida naqd pul emissiyasi bo`yicha majburiyatlarini taminlay olmasdi. Bunga misol qilib , 1907-yilda AQSHdagi inqirozni aytish mumkin.

3. Davlatni moliyaviy tang, og`ir ahvoldan qutqarish. Angliya Markaziy bankinging monarz Karl II ni davlat moliya majburiyatlarini bajarish uchun tashkil etilgan.

4. Xususiy tijorat banklarining o`zi ham pul emissiya qilishdan bezib qolishdi. (*Senvoraj*-naqd pul emissiyasidan olinadigan daromad)

Lekin, umuman olganda Markaziy banklar tomonidan bajariladigan operatsiyalar quyidagi turt guruxga (turga) bo`linadi:

1. Banknotlarning monopol emissiyasini amalga oshirish;
2. Markaziy bank- banklar banki hisoblanadi;
3. Markaziy bank- xukumat bankiri hisoblanadi;
4. Markaziy bank pul- kreditni tartibga soladi va bank nazoratini amalga oshiradi.

Markaziy banklarga davlat vakili sifatida qonuniy tarzda banknotlarni monopol ravishda emissiya qilish birlashtirilgan, ya`ni umummilliy kredit pullarini bosib chiqarish yuklatilgan. Ta`kidlash kerakki, sanoati rivojlangan mamlakatlarda banknotalar pul massasining sezilarsiz qismini tashkil etadi, shuning uchun Markaziy bankning monopol emissiya funksiyasi birmuncha pasaytirilgan. Biroq, banknotalarni chiqarish funksiyasi mamlakatdagi pul zaxiralarini tashkil qiluvchi, chakana pul muomalasini nakd banknotalar bilan ta`minlash va kredit tizimini likvidligini ta`minlash vositasi hisoblanadi. Bu funksiyalar nakd pul muomalasi ulushi sezilarli bo`lgan mamlakatlarda katta ahamiyatga egadir.

Markaziy bank bevosita tadbirkorlar va aholi bilan hech qanday faoliyat olib bormaydi. Uning asosiy mijozlari bo`lib tijorat banklari hisoblanadi. Tijorat banklari iqtisodiyot va Markaziy bank orasida (o`rtasida) vositachi sifatida faoliyat ko`rsatadilar. Markaziy banklar banki sifatida tijorat banklarining zaxiralarini saqlaydi, jumladan, majburiy zaxira talablari shaklidagi pul mablag`larini saqlaydi, ularning kreditorlari sifatida ishtirok etadi, tijorat banklarining Markaziy bankda ochadigan xisob varaqlari orqali (O`zbekiston Respublikasi- xisob-kassa markazi) mamlakat miqyosida naqkd pulsiz xisob-kitoblarni amalga oshiradilar; banklar va boshqa kredit institutlari ustidan nazoratni olib boradilar.

Kapitalidagi mulk shaklidan qat`iy nazar Markaziy bank davlat bilan o`zviy bog`liqdir. Xukumat bankiri sifatida- Markaziy bank hukumat g`azinachisi o`rnida va kreditori sifatida, vakili (agenti), Moliyaviy maslahatchisi sifatida faoliyat olib boradi.(ishtirok etadi). Bu o`rinda Markaziy bank hukumat tashkilotlarining va korxonalarining xisob raqamlarini yuritadi, soliqlarni va boshqa tushumlarni yig`adi, to`lovlarni amalga oshiradi. Markaziy bank, qoidaga binoan, davlat byudjetining kassa ijrosini amalga oshiradi. Davlatga soliqlar va zayomlardan (obligatsiyalardan) tushgan

daromadlar xukumat xarajatlarini qoplovchi Markaziy bankdagi kaznacheyliklikning foizsiz raqamiga o`tkaziladi. (Moliya vazirligi).

Xukumatning kreditori sifatida, Markaziy bank davlat zayomlarini yangilarini muomalaga chiqarish, joylashtirish, o`zining portfelini to`ldirish uchun davlat qog`ozlarini sotib olish, davlatga (xukumatga) tugri gazna kreditlarini berish bilan shugullanadi.

Davlat byudjetining defitsiti sharoitida ko`pgina mamlakatlarda Markaziy bankning xukumatni kreditlash va davlat qarzini boshqarish funktsiyalari kuchayadi. Markaziy bank davlat qarzini boshqarish uchun usullardan foydalanadi. Masalan, davlat majburiyatlarining kurslariga ta`sir ko`rsatish maqsadida ularni sotadi va sotib oladi, sotish shartlarini o`zgartiradi, turli yo`llar bilan xususiy investorlar uchun ularni jozibadorligini oshiradi.

Davlatning vakili (agenti) funktsiyasida, Markaziy bank mamlakatning oltin-valyuta zaxiralaridan foydalanadi, milliy pul birligi kursini ushlab turish uchun valyuta bozorlarida valyuta intervitsiyasi kabi vositalardan foydalanadi. Markaziy bank xalqaro valyuta-kredit tashkilotlarda o`z mamlakati nomidan qatnashadi.

Nazorat uchun savollar

1. Banklarning paydo bo`lishiga sabab bo`lgan tarixiy shart-sharoitlarini yoritib bering?

2. Banklarning turlari va ular faoliyatining o`ziga xos xususiyatlarini, bank tizimi va uning elementlarini aytib bering?

3. O`zbekiston Respublikasining bank tizimini, pul xo`jaligining yuzaga kelishi va pullarni saqlash uchun maxsus muassasalarning zarurligini, pul xo`jaligining nomarkazlashuvi va uning shakllarini kengayishi bo`yicha nimalarni bilasiz?

4. Pul va kredit xo`jaliklarining barqaror shakllarining yuzaga kelishi, markaziy banklarning yuzaga kelish sabablari va shart-sharoitlari bo`yicha nimalarni bilasiz?

13-MODUL. MARKAZIY BANK VA UNING FUNKSIYALARI

13.1. Markaziy bankning tashkiliy tuzilishi.

**13.2. Markaziy bank faoliyatining maqsadi va vazifalari.
Markaziy bankning tashkiliy to`zilishi.**

**13.3. Markaziy bankning funksiyalari: emission funktsiya;
“banklarning banki” funktsiyasi.**

**13.4. Markaziy bankning “davlatning banki” funktsiyasi;
rasmiy oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish funktsiyasi.**

13.1. Markaziy bankning tashkiliy tuzilishi.

Odatda Markaziy bank - bu davlat banki, masalan, Angliya banki, Frantsiya banki, Buides bank, Yaponiya banki, SHvetsariya milliy banki, Finlyandiya banki va boshqa yagona banklardan tashkil topadi. Biroq, AKSH Markaziy bank 12 xududiy Federal banklardan, ya`ni federal zaxira tizimi (FRS) boshqaruv kengash tomonidan boshqariladigan bulimlardan iboratdir.

Markaziy bank kapitaliga bo`lgan mulk shakliga ko`ra ular Davlat (kapital davlatga tegishli) aksioner va aralash kapitalli turlariga bo`linadi.

Ba`zi Markaziy banklar Davlat banklari ko`rinishlarida shakllanadilar. Ularga Nemis Federal Banki (Germaniya Bundes banki). 1957 yilda Rexs bankning davomchisi (1975 yilda paydo bo`lgan) sifatida shakllandi. Ba`zi Markaziy banklar- oldin xususiy bank masalan, Angliya banki (1694), Frantsiya banklari (1800y.) sifatida keyinchalik esa milliyashtirilib davlat bankiga aylantirilgan.

Aksioner turidagi Markaziy bank qatoriga AKSH FRT (Federal Rezerv tizimi) kiritish mumkin. FRS 1913 yildagi Federal Rezerv asosida paydo bo`lgan aralash turdagi Markaziy banklar jumlasiga kapitalida davlat, aksioner va xususiy va kapital ishtirok etgan banklar kiradi. Bu guruxlar qatoriga kiruvchi Yaponiya banklar (1882y.) misol kilinib keltirilishi mumkin. Qonun buyicha 1942yilda 55% ustav kapitali davlatga tegishlidir. Deyarli barcha mamlakatlarda Markaziy bank xukukiy me`yorlarini tartibga soluvchi, aniklovchi

(belgilovchi) qonunlar mavjuddir. Turli mamlakatlarda Markaziy banklarga turli funktsiyalarni belgilab berilishi mumkin. Lekin Markaziy bank doimo Davlat va bank belgilarini o`zida mujassamlashtirilgan o`zida Davlatning tartibga soluvchi organi bo`lib qoladi.

Mamlakatning Markaziy Banki - shu davlat bank tizimining asosiy qismi bo`lib xisoblanadi. Markaziy bank- birinchi o`rinda davlat va iktisodiyot urtasida vositachi bo`lib xizmat kiladi. Ammo Markaziy bank o`z oldiga foyda olishni maqsad qilib ko`ymaydi.

Markaziy bankning asosiy maqsadi bo`lib milliy valyuta kursini barqaror holatda saqlash va shu orqali mamlakat hududida baholar barqarorligini ta`minlash hisoblanadi.¹

Bugungi kunda har qanday davlatning moliya-kredit tizimida eng asosiy va muhim o`rinni rasmiy pul-kredit siyosatini yurgizuvchi - Markaziy bank egallaydi. O`znavbatida pul-kredit siyosati byudjet siyosati bilan birgalikda iqtisodiyotni butun mamlakat miqyosida tartibga solishning asosi bo`lib hisoblanadi.

Banklar paydo bulishining boshlangich davrlarida ular markaziy emissiya yoki tijorat banklari tariqasida yuzaga kelgan emas, ya`ni ular o`rtasida xozirgidek bo`linish bulmagan. Bank ishi ivojlanishining birinchi bosqichlarida rivojlantan mamlakatlarda ijorat banklari kapitallarni yig`ish maksadida muomalaga banknotalar chiqarganlar. Banklarning yiriklashuvi, bank ishining rivojlanishi natijasida banknotalarni muomalaga chikarish yirik tijorat banklar qo`liga o`ta borgan va keyinchalik biror yirik bank ixtiyoriga berilgan. Bu bank milliy yoki emission bank keyinchalik Markaziy bank deb atalgan. Markaziy bank ya`ni kredit tizimini boshqarib turuvchi, barcha banklar faoliyatini nazorat qilib turuvchi kredit instituta sifatida namoyon bo`ladi.

Jaxon amaliyotida Markaziy banklar vujudga kelishining ikki asosiy yo`li mavjud.

Birinchi yo`l - bu uzok davr davomida tijorat banklarining rivojlanishi natijasida, ularni milliylashtirish yo`li bilan Markaziy banklarning tatkil tsilinishi. Bunga misol kilib Angliya bankini 1844yil, Frantsiya bankini 1848 yil, Ispaniya banki 1874 yil,

¹ Ўзбекистон Республикаси Марказий банки тўғрисидаги Қонун. Тошкент, 1995 йил, 21 декабрь.

Germaniya Reyxsbanki - 1875 yil, Italiyada 1893 yilda, Ispaniyada 1874 yilda mavjud banklarning emission markaz sifatida faoliyat ko`rsatishga moslashganligini keltirish mumkin.

Ikkinchi yo`l - tashkil kilingadayok Markaziy bank -emission markaz sifatida kabul qilingan banklar. Bunday banklarga AKSHning Federal banklari, 1913 yillarda kuggina Lotin Amerika mamlakatlarda tashkil kilingan banklar, Avstriya banki va boshqalarni misol keltirish mumkin.

AKSHda Markaziy bank funktsiyasimn 12 federal rezerv bankdan iborat Federal Rezerv tizimi bajaradi. Federal rezerv banklar aksioner banklar bo`lib, bu banklarning aksionerlari sifatida milliy tijorat banklari faoliyat ko`rsatadi. Tijorat banklar aksioner sifatida dividend olishadi. Dividend miqdori 6% dan oshmasligi kerak

Markaziy banklar ijrochi tashkilotlar ta`sirisiz, o`z faoliyatini olib borishlari kerak

Jaxonda o`z faoliyatini olib borishda eng mustakil bo`lgan banklardan biri bu Nemis Federal banki - Bundes bank zxisoblanadi. Ba`zi bir davlatlarda Markaziy bank parlamentga xisobot beradi- Ko`pgina hollarda Markaziy banklar o`z faoliyatida mustaqil bo`lsada, shu bilan birga davlat banki xisoblanadi:

13.2. Markaziy bank faoliyatining maqsadi va vazifalari.

Markaziy bank quyidagi asosiy funktsiyalarni bajaradi:

- banknotalar (nakd pullar) emissiyasi,
- davlatning oltin - valyuta zaxiralarini saklash,
- pul-kredit siyosati instrumentlari yordamida iqtisodni muvofiqlashtirish,
- kredit institutlari faoliyatini muvofiqlashtirish,
- davlat banki sifatida faoliyat ko`rsatish,
- to`lov-xisob munosabatlarini tashkil qilishni belgilab berish,
- valyuta kursini muvofiqlashtirish.

Jahonning barcha mamlakatlarida banknotalarni muomalaga chiqarish funktsiyasi Markaziy banklarning asosiy funktsiyalaridan biri xisoblanadi va u bu soxada monopol xuquqga ega. Kredit pullar Markaziy bank tomonidan qonunda belgilangan ravishda chiqariladi va Markaziy bank muomalaga chiqarilgan pullarning qaytib bankga kelib tushishi choralarni ishlab chiqishlari zarur.

Davlatning oltin - valyuta rezervlarini boshqarish funksiyasi. Markaziy Bank davlatning oltin, kimmatbaxr metal va kamyob toshlarni valyuta zaxiralarini boshqaradi. Davlatning rasmiy oltin-valyuta zaxiralari xalkaro xisob-kitoblarda aktivlar rezervi, xisob-kitoblar bo'yicha davlatning kafolatli sug'urta fondi sifatida namoyon bo'ladi. Odatda mamlakat oltin zaxiralarining asosiy qismi Markaziy bank ixtiyoriga berilgan bo'ladi. Ba'zi davlatlarda oltin zaxiralar moliya ministrligi ixtiyorida bo'lib, markaziy bank oltin bilan operatsiyalarni olib boradi.

Markaziy banklar mamlakat valyuta rezervlarini o'zida yig'adi va burezervlar xaltaro xisob-kitoblarni amalga oshirish, to'lov balansi defitsitini koplash va mamlakat uilliy valyutasi kursining barqarorligini ta'minlash uchun ishlatiladi.

Markaziy bank orkali davlatning iqtisodiy siyosati, yanada anikrogi davlatning pul-kredit siyosati olib boriladi. Markaziy bankning pul-kredit siyosati davlatning shugisodni boshkarish siyosatining bir qismi bo'lib, muomaladagi pul massasi, kredit xajmi, foiz stavkalari darajasini va boshqa pul muomalasi va ssuda kapitali bozori ko'rsatkichlarini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar yig'indisidan tashkil topadi.

Pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi milliy valyuta barkarorligini ta'minlash, valyuta kursi va foiz stavkalarini oqilona o'rnatish asosida inflyatsiya sur'atlarini kamaytirish, kreditdan foydalanishning samaradoryaigini oshirish va iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashdan iborat.

Pul-kredit siyosati ikki yo'nalishda olib borilishi mumkin. Birinchi yo'nalish - kredit ekspantsiyasi bo'lib, bu siyosat pul-kredit emissiyasini rag'batlantirish yo'li bilan olib boriladi, ya'ni ishlab chikarish sur'atlari tushib ketgan holda, kon'yunkturada rivojlanishga erishish mumkin. Ikkinchi yo'nalish - kredit restriksiya siyosati bo'lib, u iqtisodiy o'sish davrida pul-kredit emissiyasining qiskarishiga asoslanadi.

Markaziy bank "tor" va "keng" ma'noda pul -kredat siyosatini olib borishi mumkin. "Tor" siyosatda valyuta bozorida investitsiya, xisob stavkasi va qisqa muddatli kreditlar buyicha foiz stavkalariga ta'sir qiluvchi boshqa instrumentlar yordamida valyuta kursini maqbulliliga erishish tushuniladi. "Keng" siyosatda muomaladagi pul massasiga ta'sir qilish orqali inflyatsiyaga qarshi ko'rash olib borish

tushiniladi. Pul-kredit siyosatining xalqaro jixatlari valyuta kursi, valyuta rezervlari va to'lov balansi kabi masalalarning echimiga karatilgan bo'ladi. Markaziy bank ruxsat etilgan instrumentlar yordamida pul muomalasini boshqarib boradi. Markaziy bankning pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlari bo'lib quyidagilar xisoblanadi:

- minimal majburiy rezerv normalarini o'rnatish,
- foiz (diskont) siyosati ,
- tijorat banklarini qayta moliyalashtirish,
- ochiq bozor siyosati,
- targetlash va boshqalar.

Xorijiy mamlakatlar davlat banklari tomonidan iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun turli xil ta'sir doiralari, xususan; turli hil davlat instrumentlaridan foydalanib bormoqdalar.¹

13.3. Markaziy bankning funktsiyalari: emission funktsiya; “banklarning banki” funktsiyasi.

Markaziy bank banknotalarni muomalaga chiqarish bo'yicha monopol mavqeiga ega. Bu «banknota yakka hokimligi», deb ham ataladi. Banknotalar mamlakat hududidagi hisob-kitoblarda cheklanmagan miqdorda qabul qilinuvchi yagona to'lov vositasidir. Markaziy bankning naqd pullarni berish jarayonidagi monopol mavqei, uning barcha pul massasining hajmini, shu jumladan, tijorat banklarining hisob-raqamlaridagi pul mablag'larini ham nazorat qilishiga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki xaqidagi qonunning 34-38- chi moddalarida Markaziy bank mamlakatda muomalaga pul chiqarish huquqiga ega bo'lgan monopol bank ekanligi qayd etilgan. SHu nuqtai nazardan, u muomaladagi pul massasining barqaror ravishda aylanishiga javobgardir.

Markaziy bank uchun banknotalarning xarid qobiliyatini barqaror darajada saqlab turish muhim ahamiyatga ega. Bu esa, eng avvalo, muomaladagi banknotalar miqdorining o'zgarishiga bog'liq. Bu holatni hisobga olgan bir qator markaziy banklar, xususan, Germaniya Markaziy banki rahbariyati muomaladagi naqd pul massasini tartibga solishni, kreditlash hajmini nazorat qilish bilan bir

¹ Faure A.P. Central banking & Monetary Policy; An Introduction./Essence of central banking .2013.

qatorida, milliy valyutaning barqarorligini ta`minlashning muhim sharti, deb hisoblaydi.

«Banklarning banki» funksiyasi.

Markaziy bankning «banklarning banki» sifatidagi funksiyasi, bizning fikrimizcha, asosan, quyidagi to`rt yo`nalishda namoyon bo`ladi:

Barcha tijorat banklari o`z mablag`larining ma`lum qismini Markaziy bankdagi foizsiz hisob-raqamlarida minimal rezervlar sifatida saqlashga majburlar.

Xususan, Germaniya Federativ respublikasida 1984 yildan boshlab, asosan, barcha tijorat banklari bilan bir qatorda uzoq muddatli qo`yilmalar bilan shug`ullanuvchi kredit institutlari va qurilish jamg`arma kassalari ham minimal rezervlarini Markaziy bankda saqlashga majbur bo`ldilar.¹¹

Bank mijozlari o`z jamg`armalarining yoki kreditlarining ma`lum qismini Markaziy bank biletlarida, ya`ni naqd pullarda oladilar. Mijozlarning bu talabini tijorat banklari Markaziy bankdagi muddatsiz jamg`armalarining istalgan paytda naqd pulga almashtiriladigan qismi hisobidan qondiradilar. Markaziy bank ana shunday yo`l bilan butun bank tizimining to`lovga qobilligiga ta`sir qiladi. Ammo, bundan har bir tijorat banki o`zining naqd pullarga bo`lgan talabini faqatgina ikki muhim vazifani hal qilish imkoniyatiga ega bo`lib turibdi. Birinchidan, minimal emission bank mablag`lari hisobidagina qondira oladi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Ayrim banklarda banknotalarning ortiqcha zaxirasi mavjud bo`ladi va ular boshqa banklarga bu pullarni kreditga berishi mumkin. Pul bozori rivojlangan mamlakatlarda bu jarayon texnik jihatdan juda silliq ko`chadi. SHunisi xarakterliki, tijorat banklaridagi ortiqcha naqd pullar miqdori emission bank yaratgan pullar miqoriga tengdir. Demak, tijorat banklarining banknotalarni kreditga berish imkoniyati cheklangan. Bu esa, ularning banknota emissiyasi sohasida Markaziy bankka bog`liqligini saqlab qoladi.

SHunday qilib, Markaziy bank rezervlar tizimi orqali bank tizimining to`lovga qobilligini ta`minlayotgan bo`lsa, ikkinchidan, pul bozorida naqd pullarga bo`lgan talabni boshqarish orqali tijorat

¹ Немецкий Федеральнйй банк. Специальное издания Немецкого Федерального банка, №7, 1993 г., стр. 64.

banklarining pul va kredit ekspansiyasini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo`layapti.

2. Markaziy bank barcha tijorat banklari va boshqa kredit institutlari uchun «so`nggi kreditor»dir.

Tijorat banklari vaqtinchalik likvidli kredit oladilar. Bu kreditlar, albatta, tijorat veksellari bilan, davlatning qimmatbaho qog'ozlari bilan yoki bankning boshqa qarz majburiyatlari bilan ta`minlangan bo`lishi kerak.

Markaziy bankning tijorat banklarini qayta moliyalashtirish bo`yicha amalga oshiradigan doimiy operatsiyalari tufayli pul bozorining mu`stabil faoliyati ta`minlanadi. Bu esa, o`znavbatida, tijorat banklariga mijozlarga qulay bo`lgan foiz stavkalarida kreditlar berish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Ayni vaqtda, Markaziy bank, tijorat banklariga bergan kreditlari uchun belgilaydigan foiz stavkalarini qzgartirish yo`li bilan kredit resurslariga bo`lgan talabni tartibga solish imkoniyatiga ega bo`ladi.

3. Markaziy bankning ushbu funktsiyasi doirasidagi uchinchi yo`nalish, asosan, ikki holatda namoyon bo`ladi. Markaziy bank mamlakat hududida amalga oshiriladigan hisob-kitoblar shakllarini, ularni qo`llash tartibini va muddatini belgilab beradi. Xususan, Nemis Federal banki to`g`risidagi qonunda Bundesbankning «hisob-kitoblar tizimining banklar tomonidan mamlakatda va xorij bilan bo`lgan aloqalarda ijro etilishi to`g`risida g`amxo`rlik qilishi» belgilab qo`yilgan.

Haddan ziyod katta miqdordagi zaxiralarni tijorat banklari tomonidan saqlab turilishi xazina va tijorat veksellari kabi pul bozori vositalariga bo`lgan talabni qisqarishiga olib keladi. SHu bilan birga, tqlovning kechikishi yuqori inflyatsiya sharoitida kelib tushadigan pul mablag`lari real qiymatining pasayishiga, davlat va korxonalar tomonidan kreditga bo`lgan talabning kuchayishiga olib keladi. Bunday sharoitda restriksiyaviy pul-kredit siyosatining amalga oshirilishi, shubhasiz, mablag`lar etishmovchiligi natijasida ijro etilmagan to`lov topshiriqnomalarining to`planib qolishiga va korxonalarining o`zaro qarzdorlik summalarining sezilarli darajada o`shishiga olib keladi.

4. Mamlakat bank tizimining mu`stabil faoliyat ko`rsatishida Markaziy bankning qanday usullar yordamida va qay darajada tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishi muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunga kelib banklar faoliyatini nazorat qilish rivojlangan xorijiy davlatlarda markaziy banklarning muhim faoliyatiga aylandi. Faqat Buyuk Britaniya Markaziy bankigina nisbatan kech, ya`ni 1979 yilda rasman, qonuniy asosda banklar faoliyatini nazorat qilish huquqiga ega bo`ldi.

Bundesbankning bu sohadagi o`ziga xos xususiyati shundan iboratki, u bevosita banklar faoliyatini nazorat qilish bilan shug`ullanmaydi. Balki nazoratni Federal nazorat mahkamasi amalga oshiradi. Ammo Bundesbank nazorat mahkamasiga yaqindan ko`maklashadi. Xususan, ushbu mahkamaning joylarda bo`linmalari mavjud emas va u to`liq Federal bankning joylardagi muassasalaridan foydalanadi. Bundan tashqari, qarorlar qabul qilishda nazorat mahkamasi bir qator masalalar bo`yicha Markaziy bankning roziligini olishi kerak. Masalan, banklarning o`z kapitali va to`lovga layoqatliligi xususida qaror qabul qilinishi uchun albatta, Bundesbankning roziligi bo`lishi shart.

Markaziy bankning banklar faoliyatini nazorat qilishining eng asosiy sababi mamlakatda bank tizimiga bo`lgan yuksak ishonchni ta`minlash. Bu ishonch tijorat banklarining o`zmijozlari - huquqiy va jismoniy shaxslar oldidagi majburiyatlarini to`liq va o`z vaqtida bajara olishi orqali ta`minlanadi.

SHuning bilan birga hozirgi kunda iqtisodiyotni tartibga solishni yangi mexanizmlari ishlab chiqilmoqda¹.

Markaziy bank, davlat banki sifatida, Davlat byudjetining kassali bajarilishini amalga oshiradi, davlat organlarining naqd pulsiz operatsiyalarini ma`lum qismini amalga oshiradi, xukumatning tashqi qarzlarni to`lashga xizmat qiladi, byudjet defitsitining ma`lum qismini qoplashga va boshqa davlat muassasalarining xarajatlarini moliyalashtirish maqsadlariga qisqa muddatli kreditlar beradi. Hamda xukumatga pul-kredit va valyuta masalalari bo`yicha maslahatlar beradi.

Masalan, Bundesbank davlat banki sifatida Federatsiyaga, ma`muriy-hududiy bo`linmalarga hamda Federatsiyaning parabyudjet fondlariga kreditlar berish huquqiga ega. Bu kreditlar hajmi cheklangan bo`lib, qisqa muddatli xarakterga egadir.

¹ Faure A.P. Central banking & Monetary Policy; An Introduction./Essence of central banking .2013.

Davlat banki sifatida Bundesbank, xukumat nomidan uning obligatsiyalarini, moliyaviy veksellarini sotadi va ularni sotish uchun e`lon qiladi. U federal zayomlar kursini barqaror darajada saqlanishi uchun javobgar hisoblanadi.

Markaziy bank davlatning asosiy bankiri va xukumatning moliyaviy maslahatchisi bo`lib hisoblanadi. Bu borada:

- xukumat miqyosidagi tashkilotlarning hisob raqamlarini yuritadi;

- davlat zayomlarini chiqarish, saqlash va ular bilan tegishli operatsiyalarni amalga oshiradi;

- xukumatga kredit beradi;

- davlatning oltin-valyuta va qimmatbaho toshlardan iborat rezervini o`zida saqlaydi va boshqaradi;

- mamlakat miqyosida valyuta kursini o`rnatadi, foiz siyosatini yurgizadi va davlatning boshqa davlatlar oldidagi majburiyatlariga javob beradi. Ular bilan korrespondentlik munosabatlarini o`rnatadi va olib boradi.

Markaziy bankning davlat banki sifatidagi funksiyasining muhim kqrinishlaridan biri xukumatning tashqi qarzlarini tqlash jarayonida namoyon bo`ladi.

Oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish funksiyasi.

Rivojlangan davlatlarda xukumatning odatda, chet el valyutalarida hisob-raqamlari bo`lmaydi. Mamlakatning oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish Markaziy bank zimmasida bo`lib, ularning summasi Markaziy bank balansida aks etadi. Xukumatning esa, chet el valyutalarida tashqi qarzlar mavjud bo`ladi. qarzni tqlash muddati kelishi bilan xukumat Markaziy bankka tqlov topshiriqnomasi yozadi. Bank qzining valyuta zaxiralari hisobidan xukumatning tashqi qarzini to`laydi va to`langan summaning milliy valyutadagi ekvivalentini xukumatning hisob raqamlaridan chegirib oladi.

Rivojlangan industrial davlatlarda Markaziy bank bajaradigan an`anaviy funktsiyalardan biri - valyuta zaxiralarini boshqarishda Markaziy bankning monopol mavqeiga ega ekanligidir. Xususan, Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH kabi davlatlarning markaziy banklari mamlakat valyuta zaxiralarini boshqarishda ana shunday huquqqa egadirlar.

Markaziy banklarning maslahatlar berish va ma`lumotlar bilan ta`minlash funksiyasini uning davlat banki sifatidagi funksiyasiga kiritish mumkin.

Markaziy bankning ma`lumotlar talab qilish huquqi to`g`risida tijorat banklari uchun hisobotlar shaklini va topshirish muddatini belgilab berishligini Markaziy bankning ma`lumot - tadqiqot funksiyasining bir ko`rinishi sifatida ko`rsatadi.

Shuni alohida ta`kidlash lozimki, Markaziy bankning funksiyalari qo`yilgan maqsadlarga erishishni ta`minlash uchun xizmat qiladi. Shu sababli asosiy maqsadga erishish yqlida belgilangan u yoki bu vazifani hal etish Markaziy bank funksiyalarining ayrimlarini boshqalariga nisbatan faolroq jalb qilinishini talab etadi.

Yuqorida qayd etib qtilgan Markaziy bankning asosiy an`anaviy funksiyalari xalqaro bank tizimida an`anaviy ko`rinish sifatida keng tarqalgan, ya`ni har bir rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar Markaziy banklarining funksiyalari bir-biriga o`xshab ketadi.

Nazorat uchun savollar

1. Markaziy bank faoliyatining maqsadi, uning tashkiliy to`zilishi va funksiyalarini yoriting?
2. Markaziy bank faoliyatining maqsadi, vazifalari va uning tashkiliy to`zilishini ochib bering?
3. Markaziy bankning funksiyalari: emission funktsiya; “banklarning banki” funksiyasini yoritib bering?
4. Markaziy bankning “davlatning banki” funktsiyasi; rasmiy oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish funktsiyasini tushuntirib bering?

14-MODUL. MARKAZIY BANKNING AKTIV VA PASSIV OPERATSIYALARI

14.1. Markaziy bankning aktiv operatsiyalari.

14.2. Markaziy bankning passiv operatsiyalari.

14.1. Markaziy bankning aktiv operatsiyalari.

O`zbekiston banklari milliy iqtisodiyotga ta`sir etuvchi qudratli tuzilmaga aylanish uchun rivojlanishning uzoq evolyutsion, ya`ni tadrijiy yo`lini bosib o`tishiga, anchagina mashaqqatlarni bartaraf etishiga to`g`ri keldi.

1991 yilda qator banklar shakllana boshladi. Ular O`zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining o`zgaruvchan sharoitlarida faoliyat yuritib, zamonaviy ish uslublarini o`zlashtirgan holda tobora yangi qirralarga ega bo`la bordi. 1991-1992 yillar banklar faoliyatiga doir qarashlarda chinakam burilish yillari bo`ldi. O`zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to`g`risida"gi Qonunining qabul qilinishi ikki darajali bank tizimining tarkib topishi va mamlakat Markaziy banki zimmasiga yangi vazifalar yuklanishi uchun asos bo`lib xizmat qildi. Uning oldiga pul muomalasini tartibga solish, tijorat banklari tizimi hamda to`lov tizimini shakllantirish vazifalari qo`yildi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtirish endi tashkil etiladigan, zamonaviy tamoyil va talablar asosida faoliyat yurituvchi ixtisoslashgan tijorat banklari tomonidan amalga oshirilishi lozim edi.

1993–1994 yillarda bank tizimidagi islohotlar davom etdi. 1994 yilning 1 iyulidan e`tiboran milliy valyuta — so`mning muomalaga kiritilgani mustaqil bank tizimining, umuman, O`zbekiston iqtisodiyotining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu Markaziy bank o`z faoliyatida to`liq mustaqil bo`lganini, kelgusida bozor instrumentlari orqali milliy pul tizimini tartibga solish samarali tashkil etilishiga yordam berishi mumkin ekanini anglatar edi. Aynan shu vaqtdan boshlab Markaziy bankning pul-kredit siyosatini yuritish, valyutaga oid ishlarni tartibga solish, bank faoliyatini boshqarish va keyinchalik samarali to`lov tizimini yaratish bo`yicha faoliyati to`laqonli ravishda milliy valyutaning barqarorligini ta`minlashga qaratildi.

1995 yil bank qonunchiligini takomillashtirish davri bo`lgani bilan ajralib turadi. Tarixiy muhim hujjat — "O`zbekiston Respublikasining Markaziy banki to`g`risida"gi Qonun nafaqat bank tizimining huquqiy asosini boyitdi, balki O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yangi, alohida maqomi va vakolatlarini, asosiy maqsad-vazifalarini aniq-ravshan belgilab berdi. SHu bilan bir qatorda mazkur yilda aholiga xizmat ko`rsatish sifatini yaxshilash,

shuningdek, kredit va depozit bozorlarida raqobat muhitini shakllantirish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Banklarning kapital hajmiga jalb etiladigan aholi jamg'armalari miqdorini cheklovchi qoida bekor qilingach, bank muassasalarining imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi va raqobat kuchaydi. Buning samarasi darhol namoyon bo'ldi. Agar 1994 yil boshida aholi jamg'armalarining 98,5 foizi Jamg'arma banki (hozirgi Xalq banki), 1,5 foizi esa boshqa banklar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, o'sha yil oxirida boshqa tijorat banklarining hissasi ham ko'payib, bu boradagi ko'rsatkich 12,8 foizga etdi. Bugungi kunga kelib, bu boradagi ko'rsatkich 83,2 foizni tashkil etmoqda.

1996 yil. Ushbu yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonuni ikkinchi darajali bank tizimi — tijorat banklari faoliyatining huquqiy asosini aniqlashtirdi.

Bank tizimiga taalluqli ikki asosiy hujjat — “O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi hamda “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarining ishlab chiqilishida rivojlangan moliya tizimiga ega mamlakatlar tajribasi inobatga olinganini alohida ta'kidlash joiz. Mazkur qonunlar, shuningdek, “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonun nodavlat banklarning xususiy va aktsiyadorlik-tijorat shaklida tashkil etilishiga qulay huquqiy sharoit yaratdi. Bu davrda bank tizimi rivojiga alohida ta'sir etgan ikki omilni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchisi, olib borilgan islohotlar natijasida 1996 yilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar boshqaruv va bank nazoratining to'la huquqli organi bo'ldi. Ikkinchisi, O'zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonuni ikkinchi darajali bank tizimi – tijorat banklari faoliyatining huquqiy asosini aniq-puxta belgilab berdi. Unda bank aktivlarini diversifikatsiyalash va xorijiy kapital jalb qilish asosida universal tijorat banklarini shakllantirish printsiplari mustahkamlangan.

Bu davrda iqtisodiyotning alohida tarmoqlariga xizmat ko'rsatuvchi kredit-moliya tashkilotlari tashkil etildi. Bunday ixtisoslashuv qishloq xo'jaligi, avtomobil sanoati, aviasozlik kabi xalq xo'jaligining muayyan soha va tarmoqlarini moliyalashtirish zarurati bilan bog'liq edi. Kelgusida ixtisoslashgan banklar o'z operatsiyalari

va mijozlari doirasini mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining yangi darajasi va biznes-muhit talablariga ko`ra kengaytira boradi.

Mazkur davrda O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank sektorini boshqaruvchi va nazorat qiluvchi organ sifatida shakllanish jarayonlari davom etdi. Bank tizimiga taalluqli qonunchilik bazasi sifat jihatidan yangilanib, xalqaro bank amaliyoti bilan muvofiqlashtirildi.

1997 yil. Ushbu yilda islohotlarning strategik yo`nalishlaridan biri bank sektorida xususiy kapital oqimini rag`batlantirishdan iborat bo`ldi.

Mazkur jarayon 1997 yilda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy tijorat banklarini tashkil qilishni rag`batlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoni e`lon qilinganidan so`ng jadallashdi. Unda jismoniy shaxslarning 50 foizdan kam bo`lmagan ulushi bilan banklar ochish uchun imtiyozlar taqdim etish ko`zda tutilgan edi. 1997 yil bank tizimining rivojlanish tarixida bank faoliyatida axborot tizimlarini joriy etish boshlangani bilan ahamiyatlidir. Ma`lumki, o`sha vaqtgacha respublika hududida amaldagi barcha hisob-kitoblar kun bo`yi olib borilar edi. 1997 yilning mart oyidan yangi dasturiy ta`minot joriy etilib, barcha hisob-kitoblar avtomatik rejimda amalga oshirila boshlandi. Bu esa to`lovlarni respublika tashqarisida 15 daqiqa mobaynida, Toshkentdan chekka joylarda atigi 3 daqiqada amalga oshirish imkonini berdi.

Aynan o`sha vaqtda hisob-kitoblar mexanizmi ishlab chiqildi va banklararo elektron to`lovlarning zamonaviy tizimi joriy etildi. Banklarga o`sha vaqtdagi noyob imkoniyat — kompyuter va telekommunikatsiya uskunalari xarid qilish va departamentlarni ular bilan jihozlash imkoniyati berildi. Ular mablag`larni o`z faoliyati uchun zarur uskuna-anjomlarni modernizatsiya qilishga yo`naltirishi hisobga olinib, qator soliq to`lovlaridan ozod qilindi.

SHu tariqa, moliyaviy va iqtisodiy axborotning sifat jihatidan yangi iste`molchilari – mahalliy va xorijiy investorlar paydo bo`ldi.

1998 yil. Ushbu yilda respublika banklari Bazel tavsiyalariga muvofiq holda faoliyat ko`rsatish uchun zarur tadbirlar amalga oshirildi.

Bank nazorati va xalqaro amaliyoti bo`yicha Bazel qo`mitasining tavsiyalaridan kelib chiqib, tijorat banklari faoliyatini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari doirasida tartibga soluvchi

kompleks me`yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Bunda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta`minlash maqsadida ular balansida mavjud muammolarni oldindan aniqlash hamda bank likvidligi pasayishi va kapital tugashi yuzaga kelishidan oldin ogohlantiruv choralari ko`rish tamoyillaridan foydalanildi.

1999–2000 yillar. Ushbu yillarda valyuta siyosati yanada liberallashtirilgan holda, birjadan tashqari valyuta bozorida xorijiy valyutalar savdosi mexanizmi amalga kiritildi.

Mazkur mexanizm vakolatli banklarning xorijiy valyutada talab va taklifdan kelib chiqib, o`z mijozlaridan shartnoma asosida erkin kurs bo`yicha valyutalarni sotib olishini ko`zda tutadi.

2000-2010 yillar. Mazkur davr O`zbekiston bank tizimini mustahkamlashda salmoqli yutuqlarga erishilgani bilan ahamiyatlidir. Aynan shu yillarda zamonaviy infratuzilmaga ega samarali bank tizimini tashkil etish bilan bog`liq ishlar amalga oshirildi.

Bank tizimi oldiga uning rivojlanish istiqbollarini belgilab beruvchi strategik vazifalar qo`yildi. Vazifalarning birinchisi banklar moliyaviy barqarorligini oshirish va ichki bozorda moliyaviy xizmatlar doirasini kengaytirishdan iborat bo`lsa, ikkinchisi — O`zbekiston banklarining xalqaro kapital bozorida faolligini ta`minlashdir.

Mazkur davrda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mamlakatimiz moliya-bank tizimini rivojlantirish, uning faoliyatini mustahkamlash va sifat jihatidan yaxshilash masalalariga yanada ko`proq e`tibor qaratdi. SHu munosabat bilan qator etakchi banklar (“O`zsanoatqurilishbank”, “Asaka” banki va boshqalar)ning kapitallashuv darajasini oshirish bo`yicha muhim qarorlar qabul qilindi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mikrokreditbank” ustav fondini ko`paytirish to`g`risida”gi Farmoni mazkur bankni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish bo`yicha asosiy kredit markazlaridan biriga aylantirgan holda uning faoliyatini sifat jihatidan yanada yaxshiladi.

Ushbu davrdagi har bir yil mamlakat bank-moliya tizimining izchil rivojlanishida yangi bosqich sifatida qayd etiladi.

2001 yil. Ushbu yilning 1 iyulidan e`tiboran kichik biznes korxonalari o`zlari ishlab chiqargan eksport tovarlar (ish va xizmatlar)ni bank muassasalari kassalari orqali belgilangan tartibda valyuta ulushini o`z hisobiga o`tkazish yo`li bilan naqd xorijiy

valyutada amalga oshirish imkoniyatiga ega bo`ldi. Respublikamiz hukumati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag`batlantirishni hamda uning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish borasida muhim qadam qo`ydi. Aynan shu yili erkin ayirboshlovchi valyutadagi Birlashgan barqarorlashgan jamg`arma tashkil etildi. Bu o`z navbatida, O`zbekistonda birjadan tashqari valyuta bozorini yanada rivojlantirishning muhim vositasi bo`lib xizmat qildi.

Bu vaqtda bank tizimi bilan xususiy sektor o`rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada rivojlandi. Mazkur hamkorlik rivojiga turtki bergan muhim omillar sifatida banklar tomonidan xizmat ko`rsatish sifatining tobora yaxshilanishi, banklarda raqobatchilik muhitining yuzaga kelishi, mamlakatimizda tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash bilan bog`liq jarayonlarni ko`rsatish mumkin. Aynan shu davrda banklar kreditlash siyosati kuchayganini, mijozlar so`rovlarini sinchkovlik bilan o`rgana boshlaganini va bank xodimlarida mijozlarning talab-ehtiyojlariga javoban tez harakat qilish qobiliyati shakllanganini yaqqol kuzatish mumkin.

14.2. Markaziy bankning passiv operatsiyalari.

Jamg`arma kanali. Milliy valyuta jozibadorligini oshirish va iqtisodiyotda dollarlashuv darajasini pasaytirishga qaratilgan pul-kredit siyosatining yuritilishi transmission mexanizmning jamg`arma kanali ta`sirchanligini kuchaytirib bordi.


Xususan, 2018 yilning yanvar'-oktyabr' oylari davomida pul massasi tarkibida jami milliy valyutadagi jamg`arma va muddatli depozitlar qoldig`i 4,5 trln. so`mga yoki 55 foizga, xorijiy valyutadagi jamg`arma va muddatli depozitlar qoldig`i esa 613 mlrd. so`mga yoki 11 foizga oshdi (14.1-rasm).

Bunda jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi muddatli hamda jamg`arma depozitlari qoldig`i 31 foizga, yuridik shaxslarniki esa 81 foizga o`sdi.

SHuni ta`kidlash joizki, jismoniy shaxslarning chet el valyutasidagi depozitlari qoldig`ining kamayishini asosan ularning jamg`arma depozitlari qoldig`ining 448 mlrd. so`mga yoki 63 foizga qisqarishi bilan izohlash mumkin. SHuningdek, 2018 yilning 10 oyi yakunlari bo`yicha milliy valyutadagi muddatli va jamg`arma dipozitlarning umumiy pul massasidagi ulushi yil boshiga nisbatan 4

foiz bandga ko'paydi. Jismoniy shaxslar uchun milliy valyutadagi muddatli hamda jamg'arma depozitlarining jozibadorligi ortishi, ma'lum ma'noda, aholi o'zining xorijiy valyutadagi omonatlarini milliy valyutaga o'tkazishini rag'batlantirdi.

Muddatli va jamg'arma depozitlari qoldiqlari,



14.1-rasm. Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

Depozitlar tarkibida kuzatilgan o'zgarishlarni 2018 yildagi majburiy zaxiralash tartibi va normativlarining takomillash-tirilishi hamda qayta moliyalash stavkasi oshirilishining depozitlar foiz stavkalariga ta'siri bilan izohlash mumkin.

2018 yilning ikkinchi choragida banklar tomonidan jalb qilingan muddatli va jamg'arma depozitlar hajmining o'sish sur'atini ma'lum bir darajada milliy valyuta almashuv kursi mustahkamlanishi bilan ham izohlash mumkin. 2019 yilning ikkinchi yarim yilligi boshida bank tizimida likvidlilik darajasi o'sishi bilan pul bozorida foiz stavkalarining qayta moliyalash stavkasidan uzoqlasha boshlashi, shuningdek, milliy valyuta kursi pasayishi natijasida mazkur depozitlar hajmining o'sish sur'atlari to'xtadi va hatto avgust oyida iyul' oyiga nisbatan biroz pasayish kuzatildi (-rasm).

Biroq sentyabr' oyida Markaziy bank tomonidan qayta moliyalash stavkasining oshirilishi hamda majburiy zaxiralash bo'yicha yangi normativlarning kiritilishi milliy valyutadagi depozitlar bo'yicha foiz

stavkalari o`shishiga hamda aholining jamg`arishga bo`lgan xohishi kuchayishiga turtki bo`ldi. Ta`kidlash joizki, 2018 yilning o`tgan o`n oyida milliy valyutadagi muddatli va jamg`arma depozitlar tarkibida yuridik shaxslar depozitlari ulushi ortib bordi. Bunda foiz stavkalari hamda yuridik shaxslarning muddatli depozitlari hajmi orasida ijobiy bog`liqlik (korrelyatsiya koeffitsienti – 0,7) mavjudligi kuzatilmoqda. ekonometrik tahlillarga ko`ra, depozitlar bo`yicha foiz stavkasining 1 foiz bandga oshishi (boshqa omillar o`zgarmas bo`lganda) yuridik shaxslarning muddatli depozitlari hajmi 100 mlrd. so`mga ko`payishiga olib keladi.

Kommunikatsion kanal. 2018 yildan boshlab Markaziy bank pul-kredit siyosatini yuritishda kommunikatsion kanalni rivojlantirishga ham alohida ahamiyat qaratmoqda. Joriy yilning dastlabki davrida Markaziy bank tuzulmasi tarkibida Xalqaro aloqalar va kommunikatsiyalar departamenti tashkil etildi.

Kommunikatsion siyosatni yuritishda asosiy e`tibor pul-kredit siyosati sohasida qabul qilinayotgan qarorlarni aholi, tadbirkorlik sub`ektlari va davlat boshqaruv organlariga o`z vaqtida, oddiy va tushunarli tilda etkazish orqali ularning kelgusidagi pul-kredit siyosati sharoitlari to`g`risidagi ko`nikmalarini shakllantirishga qaratilmoqda.

Joriy yilning yanvar`-oktyabr` oylarida Markaziy bank tomonidan muloqotning samarali vositalaridan foydalanish orqali nashrlar sifati va muntazamligi oshirib borildi.

Pul-kredit siyosatining maqsadlari boshqa makroiqtisodiy siyosatlar bilan uzviy bog`liqligi kommunikatsion siyosatning yana bir muhim kanalini rivojlantirishda, ya`ni Markaziy bank tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning asl mohiyati va kutilayotgan natijalarini makroiqtisodiy kompleksga kiruvchi boshqa vazirlik hamda idoralarga samarali etkazish va tushuntirib borishda muhim ahamiyatga ega.

Bank tizimi faoliyatining institutsional asoslari takomillashtirildi. Bank sektorini liberallashtirish va isloh qilishni ko`zda tutib qabul qilingan dasturiy hujjatlar uning samaradorligini oshirishni oldindan belgilab berdi. Mazkur hujjatlar zamirida bank faoliyatini liberallashtirish jarayonining tizimli va bosqichma-bosqichlik tamoyillari yotadi. Ushbu tamoyillarga amal qilish aholining mamlakat banklariga nisbatan ishonchini yanada mustahkamlash

imkonini berdi. Bunday yondashuv, shubhasiz, barqaror va ishonchli bank tizimini tashkil qilish jarayonida ulkan yutuqdir.

2003–2004 yillar. Mamlakatimizda liberallashtirish va islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonida bank tizimini rivojlantirish davri.

Bu davrda aholining bank tizimiga ishonchini mustahkamlash, banklarni respublikamizdagi yangilanishlarning moliyaviy tayanchiga aylantirish maqsadi qo`yildi. Uning muvaffaqiyati banklarning kelgusi rivojida dolzarb ahamiyat kasb etishi lozim edi. Korxonalarni aktsiyadorlashtirish va ularning mulkchilik shaklini o`zgartirish jarayonlari jadallashdi. Banklar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichi talablaridan kelib chiqib, o`z rivojlanish kontseptsiyasiga rioya etgan holda strategiyasini takomillashtirib bordi. Ularning resurs bazasini kengaytirish va kapitallashuv darajasini oshirish o`z faoliyatini diversifikatsiyalash, yangi aktsiyadorlarning mablag`larini jalb etish, IT-texnologiyalar asosida yangi bank mahsulotlari va instrumentlarini ishlab chiqish hisobiga amalga oshirildi.

Valyuta bozorini liberallashtirishni davom ettirish va joriy xalqaro operatsiyalar bo`yicha so`m konvertatsiyasini ta`minlash uchun zarur shart-sharoit yaratish bilan bog`liq bo`lgan omillar ham banklar faoliyatiga bevosita ta`sir ko`rsatdi. CHunonchi, 2003 yilning 15 oktyabridan O`zbekiston Respublikasi Xalqaro Valyuta jamg`armasi Bitimining VIII moddasidagi majburiyatni qabul qildi. Natijada korxonalar joriy operatsiyalar bo`yicha konvertatsiyani amalga oshirish imkoniyatiga ega bo`ldi. Bu masala yuzasidan O`zbekistonning tashqi mablag`larni jalb etmay, amalda o`z resurslariga tayanib maqsadga erishgani yuksak e`tirofga sazovor. Mazkur choralar milliy valyuta konvertatsiyasidan foydalangan mahalliy tadbirkorlar faoliyatini kengaytirishga yaqindan yordam berdi.

Bu haqiqatan ham boy va sermahsul faoliyatning qiziqarli davri edi. Markaziy bankning valyuta siyosati inflyatsiya darajasini ushlab turish va milliy valyuta kursi keskin tebranishining oldini olish barobarida eksportni rag`batlantirish hamda valyuta resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan edi. O`zbekistonning asosiy esport tovarlariga nisbatan dunyo bozorlarida qulay narx kon`yunkturasi, shuningdek, eksportga yo`naltirilgan valyuta siyosatining olib borilishi

eksport va oltin-valyuta zaxiralari hajmining oshishiga imkon berdi. Bank tizimini isloh qilishga qaratilgan ishlar davom ettirildi. Uning asosiy yo`nalishlari sifatida banklar boshqaruvida aktsiyadorlarning rolini oshirish orqali korporativ boshqaruv tizimini mustahkamlash, banklar moliyaviy barqarorligini ularning aktivlari, jumladan, valyuta aktivlari sifatini yaxshilash evaziga kuchaytirish, bank ishini yanada takomillashtirish va banklar tomonidan ko`rsatiladigan xizmat turlarini tobora kengaytirish, tijorat banklarining investitsion jarayonlardagi rolini oshirish va mulkchilikning barcha shaklidagi tadbirkorlik tuzilmalarining kredit resurslaridan (jumladan, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning liniyalari bo`yicha ham) foydalanish mexanizmi takomillashtirilganini qayd etish joiz.

2005–2006 yillar. Mamlakatimiz banklari kapitallashuv darajasining oshishi va ularning investitsiya jarayonlarida hamda iqtisodiy-tuzilmaviy o`zgarishlarda ishtiroki yanada faollashgan davri. O`sha kezlarda mamlakat hukumati banklarning foyda (daromad) solig`idan ozod qilinishiga banklar faolligi oshuvining yana bir zahirasi sifatida qaradi. Boz ustiga, tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq, tijorat banklarining mini-banklar tashkil etish bilan bog`liq xarajatlari ham soliq undirish bazasidan chiqarildi.

Shu tariqa, asosiy e`tibor pul muomalasini mustahkamlash va milliy valyuta, uning ayirboshlash kursi barqarorligini oshirish bo`yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratildi. Bu esa fuqarolarda katta rag`bat uyg`otib, ularning banklarga nisbatan ishonchini yanada orttirdi. Aholining banklarda depozit hisobraqamlar ochishga kirishishi bilan bog`liq ijobiy holatlar ko`paydi. Banklarning depozit bazasi hajmi oshdi, bank xizmatlari bozori shakllana boshladi. e`tiborlisi, bank mahsulotlari qatoridan yangi xizmat turlari, masalan, lizing xizmatlari joy ola boshladi.

Shu o`rinda ta`kidlash joizki, mamlakatimizda chakana xizmatlar rivoji xalqaro bank va moliya kapitalini keng jalb qilgan holda qo`shma banklarning tashkil etilishiga ta`sir ko`rsatdi. Respublikamiz bank bozori 100 foizli xususiy kapital asosidagi yangi banklarning vujudga kelishi natijasida tubdan o`zgardi. Xususiy banklarning xizmatlar bozoridagi raqobatni kuchaytirib yuborgani mamlakat bank tizimi rivojida eng muhim bosqichlardan biri bo`ldi. Mamlakatimiz hukumati va Markaziy banki soliq imtiyozlari va kadrlarni tayyorlash jarayonida texnikaviy ko`mak taqdim etgan holda

ularning rivojlanishini muntazam rag'batlantirib bormoqda. Ayni paytda xususiy banklar soni tijorat banklari umumiy sonining qariyb yarmini tashkil etadi.

Respublikamizda xususiy banklar rivojlanishini izchil rag'batlantirish raqobatni kuchaytirishga, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yaxshilashga va moliyaviy resurslarning samarali taqsimotiga turtki berdi. Bu esa, o'z navbatida, xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish va rivojlantirish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2006–2007 yillar. Ipotekaviy kreditlashning rivojlanish davri. Bank xizmatlarining mazkur yangi shakli mahalliy aholi tomonidan darhol ijobiy baholandi. Aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa, yoshlarni ijtimoiy himoyalashni ko'zda tutuvchi ushbu manba O'zbekiston Respublikasi "Iste'mol krediti to'g'risida"gi va "Ipoteka to'g'risida"gi Qonunlari orqali mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasining "Iste'mol krediti to'g'risida"gi Qonuni iste'molchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Mazkur qonun turar-joy va maishiy sharoitlarni yaxshilash borasida aholining imkoniyatlarini yanada kengaytirishga, binobarin, banklarda iste'mol kreditlash hajmining sezilarli darajada oshishiga xizmat qiladi.

2006 yilning oktyabr oyida esa O'zbekiston Respublikasi "Ipoteka to'g'risida"gi qonuni kuchga kirdi. Ko'chmas mulkni xarid qilish uchun kreditlar ajratishning huquqiy mexanizmini o'zida mustahkamlagan ushbu qonun hujjati bank ipotekaviy kreditlash rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Undan ko'zlangan asosiy maqsad ko'chmas mulkka garov qo'yishda yuzaga keluvchi munosabatlarni tartibga solishdan iborat edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 16 fevraldagi "Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori doirasida uy-joylar qurilishini uzoq muddatli ipotekaviy kreditlash tizimida bir qator mexanizmlar joriy etildi.

Bu davrda, shuningdek, banklarning strategiyalari naqd pul muomalasini mustahkamlashga, har bir filialda naqd pul zahiralarini shakllantirishga va o'z faoliyatida samaradorlikni oshirishga qaratildi.

"2005–2007 yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish va rivojlantirish dasturi"da belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi banklar kapitallashuv darajasi va ko'rsatkichlarining

barqaror o`shirishni ta`minlagan holda, bank tizimini yanada isloh qilish va liberallashtirishda muhim omil bo`ldi. Bu borada pul muomalasini mustahkamlash va milliy valyuta, uning ayirboshlash kursi barqarorligini oshirish, banklarda aholi omonatlarini ko`paytirishni rag`batlantirishga ustuvor yo`nalishlar sifatida e`tibor qaratildi. Rivojlanish sari doimiy ravishda intilayotgan tijorat banklariga mamlakatimiz hukumati tomonidan o`z vaqtida taqdim etilgan imtiyozlar kredit muassasalari o`z yangi instrumentlarini ishlab chiqadigan va taklif qiladigan bank-moliya bozorining shakllanishini oldindan belgilab berdi.

2008–2009 yillar. Ushbu yillarda aholi va tadbirkorlik sub`ektlari uchun bank chakana mahsulotlarini rivojlantirish bank faoliyatining muhim yo`nalishiga aylandi.

Mazkur yo`nalishda banklar o`z faoliyatini dunyoviy amaliyotning “oltin” printsiptan kelib chiqqan holda olib bordilar. YA`ni, aholiga ko`rsatiladigan xizmatlarning jozibadorligi tadbirkorlarning kreditlardan foydalanish keng imkoniyati bilan mutanosib holda rivojlantirildi. Davom ettirilgan islohotlar bank faoliyatini aholining turmush darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi, ilgari qabul qilingan “Iste`mol krediti to`g`risida”gi va “Ipoteka to`g`risida”gi qonunlar doirasidagi faolligini yanada kuchaytirdi.

O`zbekiston tijorat banklari respublikamizdagi va jahon bank hamjamiyatidagi yangi voqelikka javoban o`zlari taklif etayotgan xizmatlari to`plamini kengaytirdi, bozorga yangi bank mahsulotlarini chiqardi va ayni paytda moliya institutlari faoliyatining xalqaro standartlarini faol joriy etishga kirishdi. Xorijiy va mahalliy ekspertlarning qayd etishicha, so`nggi yillar davomida respublikada asosiy tamoyil — ixtisoslashuvdan uzoqlashish va bank faoliyatida universallashtirishni chuqurlashtirish kuzatilmoqda. Bu esa bank operatsiyalari mazmuni va kredit munosabatlari mohiyatini oldindan belgilab beradi.

Nazorat uchun savollar

1. Markaziy bankning aktiv operatsiyalari: tijorat banklariga kredit berish; hukumatga kredit berish; xorijiy banklarga depozitlar joylashtirish; mamlakatning xalqaro valyutadagi rezerv pozitsiyasini shakllantirish; hukumatning tashqi qarzini to`lash; oltin-valyuta

zaxiralarini shakllantirish; asosiy vositalar sotib olish operatsiyalarini yoritib bering?

2. Markaziy bankning passiv operatsiyalari: naqd pullarni emissiya qilish; majburiy zaxira ajratmalarini shakllantirish; depozit operatsiyalari; bank qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish operatsiyalarini iqtisodiy mohiyatini ochib bering?

15-MODUL. MARKAZIY BANKNING MUSTAQILLIGI.

15.1. Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligi va uni baholash tartibi. Markaziy bankning siyosiy mustaqilligi va uni baholash tartibi.

15.2. Markaziy banklarning mustaqillik shkalasi. AQSH Federal zaxira tizimining mustaqillik darajasi.

15.3. Evropa Markaziy bankining mustaqillik darajasi. Yaponiya Markaziy bankining mustaqillik darajasi. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari Markaziy banklarining mustaqillik darajasi.

15.4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mustaqillik darajasi.

15.1. Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligi va uni baholash tartibi. Markaziy bankning siyosiy mustaqilligi va uni baholash tartibi.

Markaziy bankning iqtisodiyotdagi o'rnini va ahamiyati hamda uni mamlakat hududida bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishdagi roli haqida munozarali bahslar bir necha marotaba o'zining rivojlanish yo'nalishlarini o'zgartirdi va buning oqibatida iqtisodiyotdagi bank tizimining birinchi pog'onasida real o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'ldi, bu esa birinchi navbatda davlat boshqaruv organlariga bo'lgan munosabatlarda namoyon bo'ldi.

Bu muammoni tahlil etishda asosiy jihat - mamlakat Markaziy bank siyosatining davlat iqtisodiy siyosati yo'nalishiga tobeligi, ya'ni aniqrog'i bu tobelikning darajasiga bog'liq. qachonki, mamlakat Markaziy banki siyosati davlatning iqtisodiyotni tartibga solish

siyosati bilan chambarchas bog'liq bo'lsa, bunday bog'liqlikni samarali, deb hisoblash mumkin. Lekin, shu narsa katta ahamiyatga egaki, bu ittifoq Markaziy bank tomonidan qanchalik ixtiyoriy ravishda tuzilgan va u kimga hisobdor va bank tizimida pul-kredit siyosatini tartibga solishdagi usullarni va yo'nalishlarni tanlashda hamda qonun bqyicha Markaziy bank mustaqilligi darajasi va bunga haqiqatda erishilganligiga ahamiyat berish lozim.

Markaziy bankning mustaqilligi va iqtisodiyotni tartibga solishdagi o'rnini ko'p hollarda milliy urf-odatlardan va bank tizimining milliy xususiyatlaridan kelib chiqadi. Lekin, umumiy yo'nalish (tendentsiya)larni ham asosiy iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga taqqoslagan holda ko'rib chiqish mumkin. 70-yillar o'rtalaridan 80-yillar o'rtalarigacha bo'lgan davr mobaynida davlatning iqtisodiyotga amaliy aralashuvi natijasida jahonning ko'pgina etakchi mamlakatlarida markaziy banklarning "qudratlilik" nazariyasi tasdiqlandi, markaziy banklarning obro'-e'tibori, nufuzi qsd va bu ma'muriy boshqaruv usullarining kengayishida namoyon bo'ldi.

Shular orqali, tahlil qilingan besh omil ichidan uch asosiy (aniqrog'i: 2,4,5) va ikki qo'shimcha (1 va 3) omilni ajratish mumkin. Markaziy bankning xukumat boshqaruv organlaridan mustaqilligini belgilovchi asosiy ob'ektiv omillarga:

- bank rahbarini saylash va ishdan ozod qilish tartibi;
- pul-kredit siyosatiga davlatning aralashishi huquqi;
- xukumatni Markaziy bank tomonidan kreditlash chegaralanganligining mavjudligi va qat'iyligini ajratib ko'rsatish mumkin.

Markaziy bank kapitalida davlat ulushini va qonunchilikda Markaziy bankning maqsadi va vazifalarini aniq belgilanganligi yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, u Markaziy bank mustaqilligi darajasini belgilashda hal qiluvchi rol' o'ynamaydi va ular ikkilamchi omillar bo'lib hisoblanadilar.

15.2. Markaziy banklarning mustaqillik shkalasi. AQSH Federal zaxira tizimining mustaqillik darajasi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar Markaziy banklari mustaqilligining ob'ektiv omillariga baho berishda quyidagi mezonlarni kiritish mumkin:

– Markaziy bank kapitalida va foydani taqsimlashda davlatning ishtiroki;

– bank rahbarlarini tayinlash (saylash) dagi tartib va ularning faoliyat ko`rsatishi muddati hamda davlat tomonidan milliy bankning faoliyatini nazorat qilish shakli;

– Markaziy bank vazifalarini aniqlashning qonunchilikda yoritilish darajasi;

– Markaziy bank rahbariyati qarorini davlat organlari qaratilgan qonun bilan taqsimlashini yoki davlatning umumiy iqtisodiy yo`nalishi bilan Markaziy bankning pul-kredit doirasidagi tadbirlarni tartibga solishning mavjudligi;

– mamlakat Markaziy bankining davlat xarajatlarini to`g`ri va egri moliyalashtirishini tartibga soluvchi qoidaning mavjudligi va uning shakllari.

Markaziy bankning kapitalida va foydasini taqsimlashda davlatning ishtiroki omili Markaziy bank iqtisodiy mustaqilligining qanchalik darajadiligini ko`rsatadi. Lekin bu qaramlik ikkilamchi rol o`ynaydi, chunki Markaziy bankning kapitali to`g`ridan-to`g`ri davlatga tegishli bo`lmasa ham, qonunchilikda ma`lum sharh (izoh) mavjud bo`ladi. Agar mavjud bo`lmasa, davlat egri usullardan foydalanadi.

Misol qilib, Avstriya Milliy banki haqidagi qonunni olaylik. Bu bank xuddi hissador jamiyati shaklida tuzilgan va faoliyat ko`rsatmoqda (Markaziy bankning 50 foiz kapitali Federatsiyaga, qolgan 50 foizi kapitali avstriyalik huquqiy va jismoniy shaxslarga tegishli). Markaziy bank kapitaliga faqat Moliya vazirligidan ruxsat olgan huquqiy va jismoniy shaxslargina ulush qo`shish huquqiga egadirlar.

Pay (ulush) meros (vorislik) orqali o`tishi yoki Moliya Vazirligi ruxsati bilan sotilishi mumkin. SHu orqali davlat bilvosita nazoratni amalga oshirishi mumkin.

Bundan tashqari, Markaziy bankning funktsiya va vazifalari qonunda ko`rsatilgan. SHu sababli ulush egalari yig`ilishi chegaralangan masalalarnigina echa oladi. Albatta, bu masalalar bankning iqtisodiy siyosati bilan to`g`ridan-to`g`ri bog`liq bo`lmaydi.

SHunday qilib, mamlakat Markaziy bankining kapitalida 100 foizi davlatning ishtiroki - ko`proq Markaziy bank salohiyatiga va an`analariga hamda ulush egalari ham bog`liq. Misol tariqasida

AQSHning Federal Rezerv Tizimini va Germaniyaning Federal bankini ko`rsatish mumkin. Ikkala Markaziy bank jahonda eng mustaqil markaziy banklar sifatida tan olingan. SHunday bo`lsa-da, Nemis Federal bankining 100 foiz kapitali Federatsiyaga, Federal Rezerv Tizimi kapitali esa, 100 foiz a`zo-banklarning to`liq mulkiga tegishli. Va aksincha, banklar va sug`urta kompaniyalarining mulkiga tegishli bo`lgan Italiya Markaziy banki davlat boshqaruv organlariga qaramdir.

Bu omilning tahlilidan kqrinadiki, markaziy banklar kapitali egalarining tarkibidan qat`iy nazar, ular uning pul-kredit siyosatidagi mustaqilligiga ahamiyatli ta`sir ko`rsata olmaydi.

Markaziy bankning mustaqilligi darajasini belgilovchi keyingi omil, bank rahbarining saylanish tartibi hisoblanadi.

Bu omil Markaziy bankning davlat organlari boshqaruvidan qanchalik darajada siyosiy mustaqilligini belgilashda muhim omil bo`lib hisoblanadi. Birinchi qarashda, mamlakatlar o`rtasidagi farq faqat Markaziy bankning boshqaruv lavozimiga nomzodlarni kim tavsiya etishida namoyon bo`ladi. Ko`pgina rivojlangan davlatlarda YAponiya, AQSH, Avstriya) bank rahbariyatiga xukumat tavsiya etgan nomzodlar saylanadi yoki tayinlanadi.

Markaziy banklarning raislari va boshqaruv a`zolarini qonun bo`yicha ishdan olish tartibi ham qiziqarli holatda rasmiylashtirilgan. Ko`pgina sanoati rivojlangan mamlakatlar (Germaniya, Buyuk Britaniya, YAponiya, AQSH, Daniya, Avstriya, SHveytsariya va Gollandiya)ning markaziy banklar raislarini, boshqaruv a`zolarini saylangan muddatlaridan ilgari ishdan bqshatib bo`lmaydi. Xukumatga yuqoridagi davlatlarga nisbatan qaramroq bo`lgan markaziy banklar bunga kirmaydi (Italiya, Frantsiya).

Markaziy bankning siyosiy mustaqilligini ko`rsatuvchi uchinchi omil, uning qonunda ko`rsatilgan faoliyati darajasi va maqsadlari hisoblanadi. Bu omil bir tomondan, Markaziy bank faoliyatini erkinligiga chegara qqysa, boshqa tomondan, uning qonunda ko`rsatilgan vakolatlarini aniqlaydi.

Bir qator mamlakatlarda, masalan, AQSH, SHvetsiya, Buyuk Britaniya va Italiyada Markaziy bank vazifalarining ta`rifi qonunda qayd etilmagan yoki umumiy holda ko`rsatilgan, xolos. SHunday bo`lsa ham, ikkala guruhda juda mustaqil va shu bilan birga qaramroq bo`lgan markaziy banklar bordir.

SHunday qilib, bu omilning ta`sirini faqat Markaziy bankning tashkil topishi sharoiti va urf-odatlar tahlili bilangina kqirish mumkin. Markaziy bankning vazifa va maqsadlari qonunda aniqlanish omili shu sababli ikkinchi darajali rol' qynaydi.

Markaziy bank mustaqilligining belgilovchi omillardan biri, uning pul-kredit siyosatiga davlat organlarining aralashishini qonun bo`yicha qanchalik darajada qrnatil-ganligidadir. Bu omil birinchi galda Markaziy bankning siyosiy mustaqilligiga ta`sir ko`rsatadi.

Mustaqillik darajasi nisbatan past bo`lgan markaziy banklarga Frantsiya va Italiya markaziy banklarini misol qilib ko`rsatish mumkin.

Bu davlatlarda pul-kredit siyosati yo`nalishini xukumat belgilashi qonun bilan mustahkamlangan. Markaziy bank esa, xukumat ko`rsatmalarini bajaradi va unga maslahatchi vazifasini o`taydi.

Ikkinchi jahon urushi davridan boshlab Frantsiya banki Moliya Vazirligi qaramog'idadir. Pul bozoridagi interventsianing tashabbuskori ham, nemis markasiga nisbatan frantsuz franki kursini ushlab masalasi hamda Evropa Hamjamiyati bozorining tashkil topishida valyuta operatsiyalarini tartibga solishda ham xukumat ishtirok etmoqda.

Albatta, Frantsiya Markaziy banki tomonidan xukumatning pul-kredit siyosatini tartibga solishdagi harakatini qoralab chiqishlar bo`ldi. Masalan, 1982 yilda Markaziy bank Moliya Vazirligi talabiga binoan xukumatning kreditlayotgan summa miqdorini oshirishdan bosh tortdi. Biroq, Raisga qarshi tazyiq (siquv)lar bo`ldi va Frantsiya banki odatdagidek, Moliya Vazirligi ko`rsatmasiga bo`ysinishga majbur bo`ldi.

AQSHning Federal Rezerv Tizimidan farqli ravishda Nemis Federal banki parlamentga hisobot bermaydi, u o`zfaoliyati vakolatini "Nemis Federal banki haqida"gi qonunga muvofiq amalga oshiradi.

SHveytsariya, Italiya, SHvetsiya va Daniyada xukumatni kreditlash hajmini chegaralash rasman mavjud emasligi, ular markaziy banklarining bu mezon bo`yicha davlatga qattiq qaramliklarini ko`rsatadi.

SHular orqali, tahlil qilingan besh omil ichidan uch asosiy (aniqrog'i: 2,4,5) va ikki qo`shimcha (1 va 3) omilni ajratish mumkin. Markaziy bankning xukumat boshqaruv organlaridan mustaqilligini belgilovchi asosiy ob`ektiv omillarga:

- bank rahbarini saylash va ishdan ozod qilish tartibi;

- pul-kredit siyosatiga davlatning aralashishi huquqi;
- xukumatni Markaziy bank tomonidan kreditlash chegaralanganligining mavjudligi va qat'iyligini ajratib ko'rsatish mumkin.

Markaziy bank kapitalida davlat ulushini va qonunchilikda Markaziy bankning maqsadi va vazifalarini aniq belgilanganligi yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, u Markaziy bank mustaqilligi darajasini belgilashda hal qiluvchi rol' o'ynamaydi va ular ikkilamchi omillar bo'lib hisoblanadilar.

YUqorida qayd etilganlar asosida xulosa qilish mumkinki, rivojlangan mamlakatlar markaziy banklari o'zlarini mustaqil ta'sir o'tkaza oladigan institut sifatida ko'rsatishlari zarur. Bu bir tomondan, ularga qonun asosida ruxsat etilgan vositalar yordamida iqtisodiyotni tartibga solishni amalga oshirish huquqini beradi, boshqa tomondan esa, Milliy bank va pul tizimi manfaatlarining ximoyachisi sifatida maydonga chiqadi.

SHu munosabat bilan Markaziy bankning iqtisodiyotni tartibga solish jarayonidagi va umuman iqtisodiyotdagi mavqeini, shuningdek, mamlakat xukumati bilan o'zaro munosabatlarini tahlil qilar ekanmiz, uning pul-kredit tizimi va xukumat organlari o'rtasida oddiy vositachi emasligini, balki ma'lumot, tadqiqot, tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi markaz ekanligini alohida ta'kidlashni istardik.

Biroq, mamlakat pul-kredit sohasidagi Markaziy bankning mustaqillik darajasi masalasi hanuzgacha munozarali bo'lib qolmoqda. Milliy pul birligi qadrini oshirish bilan bog'liq chora-tadbirlar faqatgina pul-kredit sohasiga tegishli emas, balki u yaxlit butun iqtisodiyotga ta'sir qtkazadi, bu esa har qanday darajadagi iqtisodiy siyosat bilan kelishishni va davlatning barqarorlashtirish dasturi doirasidan chetga chiqmaslikni taqozo etadi. Bundan tashqari, Markaziy bankning mustaqillik darajasi ko'pgina makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga faqat bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

15.3. Evropa Markaziy bankining mustaqillik darajasi. YAponiya Markaziy bankining mustaqillik darajasi. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari Markaziy banklarining mustaqillik darajasi.

Ko'rilayotgan davrda markaziy banklar darajasida xalqaro aloqalar muvaffaqiyatli rivojlandi. Bunga yaqqol misol qilib, Evropa

Valyuta Tizimini tashkil topishi va Evropa Markaziy bankini tuzish rejasini ko`rsatish mumkin.

Biroq, 80-yillarning o`rtalaridan, milliylik xususiyatlarining yo`qotilishi va markazlashmagan siyosatlarining boshlanishi bilan markaziy banklarning “qudratli”ligi nazariyasi tarafdorlari chet el ilmiy doiralarda sezilarli darajada kamaydi. SHunday qilib, 80-yillarning oxirlarida g`arbiy Evropada markaziy banklarning pul-kredit siyosatidagi roli hamda valyuta bozoridagi operatsiyalar ustidan bo`lgan nazoratining pasayishi yuz berdi.

SHundan kelib chiqib, Markaziy bankni tartibga solish mexanizmining xarakterli xususiyatlari bilan xuddi shu davrda amal qilayotgan iqtisodiy nazariyalar yo`nalishlari o`rtasida etarli darajada o`xshashliklarni misol qilib keltirish mumkin. Davlat aralashuvi kuchaygan davrda (keynschilar tarafdorlari nazariyasi bqyicha) Markaziy banklarning roli ham kuchayadi, tartibga solishning ma`muriy metodlarini qllash kengayadi, va aksincha, monetaristlar nazariyasining ta`siri kuchayishi va davlatning iqtisodiyotga aralashuvining kamayishi oqibatida markaziy banklarning iqtisodiyotni tartibga solishda bozor mexanizmlaridan foydalanishga majbur bo`ladilar. SHunday vaziyatlarda Markaziy bank vakolati-ning bir qismini ichki pul-kredit va valyuta siyosatidagi muammolarni echish uchun Moliya Vazirligiga beradi.

Biroq, g`arb iqtisodchilari nuqtai-nazarlarining tahlili shuni ko`rsatadiki, Markaziy bankning iqtisodiyotdagi qrnini o`zgarishiga sub`ektiv omillar ham katta ta`sir ko`rsatishi mumkin, shu jumladan, hatto bank rahbarining shaxsiy sifatlarini ajratib ko`rsatish mumkin.

Misol uchun, g`arbiy Evropadagi mamlakatlar Markaziy banklarining roli o`zgarishini o`rganishga bag`ishlangan tadqiqotlarda bir qator iqtisodchilar 70-yillarda Markaziy banklarning kuchayishini shu milliy bank tizimining boshqaruvida ko`zga kqringan xukumat va xalqaro doiralarda obrq-e`tibori yuqori bo`lgan moliya arboblari boshqarganligini ta`kidlaydilar. Buning oqibatida qsha davrdagi milliy valyuta raqobatbardoshligiga xavf soluvchi xukumatning iqtisodiy chora-tadbirlariga qarama-qarshi “qattiq siyosat” qllash mumkin bo`lgan edi.

U yoki bu Markaziy bankning o`zfaoliyatidagi mustaqillik darajasini aniqlash uchun ularning mustaqillik mezoni (belgisi)ga xolis baho berish kerak. Xorijiy adabiyotlarda markaziy banklar mustaqilligini aniqlashning bir necha usullari qayd etilgan. Asosan

markaziy banklarning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligi ajralib (farqlanib) turadi.

Markaziy bankning mustaqilligi darajasini aniqlashda uning pul-kredit siyosatini tanlash va qtkazishda davlat boshqaruv organlariga ko`proq yoki kamroq qaramligiga e`tibor beriladi.

Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligi - bu uning o`z instrumentlaridan o`zi xohlagan yo`nalishda va chegaralanmagan miqdorda foydalana olishiga aytiladi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar markaziy bank-larining turkumlanishi pul-kredit siyosati masalalarini hal etishdagi mustaqilligi xorijiy adabiyotlarda turli mezonlarga qarab amalga oshiriladi.

Umuman olganda markaziy banklar mustaqilligining ustunligini qrganish tadqiqotlarida yo sub`ektiv, yoki ob`ektiv omillarga baho berib, ajratish mumkin. Masalan, sub`ektiv omillar sifatiga mamlakat Markaziy banki bilan xukumat o`rtasidagi o`zaro rasmiy munosabatlarni hamda Markaziy bank rahbarlarining xukumat doirasi bilan bo`lishi mumkin bo`lgan norasmiy aloqalarni tanlab ko`rsatishgan. CHet el mualliflarining tadqiqotlarida mustaqillikning 4 ballik tizimi tanlangan: 1-balga - markaziy banklarning davlat boshqaruvidan past darajada mustaqilligi, ya`ni tqla qaramligi; 4-ballga - mustaqillik darajasi juda yuqori bo`lgan markaziy banklar kiradi.

Markaziy bankning mustaqilligi darajasini belgilovchi keyingi omil, bank rahbarining saylanish tartibi hisoblanadi.

Bu omil Markaziy bankning davlat organlari boshqaruvidan qanchalik darajada siyosiy mustaqilligini belgilashda muhim omil bo`lib hisoblanadi. Birinchi qarashda, mamlakatlar o`rtasidagi farq faqat Markaziy bankning boshqaruv lavozimiga nomzodlarni kim tavsiya etishida namoyon bo`ladi. Ko`pgina rivojlangan davlatlarda (Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Daniya, SHveytsariya, Avstriya) bank rahbariyatiga xukumat tavsiya etgan nomzodlar saylanadi yoki tayinlanadi.

Bunday sharoitda mamlakat Markaziy bank rahbariyati boshqaruvida etakchi lavozimdagi shaxs katta rol` qynaydi. Masalan, Nemis Federal banki rahbarligiga Frantsiya banki rahbarlariga qarama-qarshi ravishda yuqori tashkilot hisoblangan Moliya Vazirligidan chiqqan xizmatchilar saylanmaydilar. Frantsiya banki

raisi va uning birinchi 2-ta yordamchisi Respublika Prezidenti tomonidan maxsus dekret asosida tayinlanadi. Bu dekret Vazirlar Kengashida tasdiqlanadi. Avstriya milliy bankining umumiy yig'ilishida bosh kengashga 6 a'zoni ta'sischi saylaydilar; prezidentni, 2-ta vitse prezidentni va kengashning qolgan 5 a'zosini Moliya Vazirligi tayinlaydi. Bunda, saylanayotgan shaxs ishlashga rozilik bildirmasa yoki boshqa shaxsning nomzodini ko'rsatsa, saylovlar tayin qilinadi, agar saylangan shaxs vafot etsa, u holda yangi nomzodlikni Moliya Vazirligi tayinlaydi. Kengashning 6 a'zosi saylanish davrida aktsionerlardan etarli ovoz ololmasalar, ularni ham Moliya Vazirligi o'zi tayinlashi mumkin.

Kqrilayotgan davlatlardan faqatgina Italiya va Gollandiyada Markaziy bankning boshqaruviga saylash uning o'znomzodlaridan kelib chiqadi. Biroq, bu holda ham saylanish davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Markaziy banklarning raislari va boshqaruv a'zolarini qonun bo'yicha ishdan olish tartibi ham qiziqarli holatda rasmiylashtirilgan. Ko'pgina sanoati rivojlangan mamlakatlar (Germaniya, Buyuk Britaniya, Avstriya, SHveytsariya)ning markaziy banklar raislarini, boshqaruv a'zolarini saylangan muddatlaridan ilgari ishdan bo'shatib bo'lmaydi. Xukumatga yuqoridagi davlatlarga nisbatan qaramroq bo'lgan markaziy banklar bunga kirmaydi (Italiya, Frantsiya)

Ko'pgina iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar (Germaniya, SHveytsariya, Frantsiya, YAponiya, Daniya, Avstriya)da Markaziy bankning faoliyat doirasi va asosiy maqsadlari Konstitutsiyada va Markaziy bank haqidagi qonun hamda shu kabi boshqa banklar faoliyati haqidagi qonunchilikda o'z aksini topadi.

Nemis Federal bankining asosiy maqsadi va vazifalari doirasi mamlakat Konstitutsiyasida aniq belgilab qo'yilgan. Bu milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash kafolatidir.

Nemis Federal banki haqidagi qonunda bosh bank tizimi oldiga uch asosiy vazifa:

- pul muomalasini tartibga solish;
- iqtisodiyotni kredit bilan ta'minlashni tartibga solish;
- to'lov aylanmasini amalga oshirish qoyilgan.

Nemis Federal bankining vazifalari, maqsadlari va yo'nalishiga yaqinroq bo'lgan Avstriya Milliy bankini misol tariqasida keltirish

mumkin. Markaziy bankning vazifasi qonunda umumlashgan holda aks etgan va ayni vaqtda uning ruxsat etilgan operatsiyalari aniq ko`rsatilgandir.

Avstriya bank qonunchiligining o`ziga xos xususiyati, uning Markaziy bank qonunchiligida qatnashish huquqiga ega ekanligi hisoblanadi.

Pul-kredit sohasiga tegishli qonun loyihalarining hammasi Markaziy bankka ko`rib chiqish uchun ma`lum vaqtga beriladi va uning roziligidan so`nggina tasdiqlanadi.

Bu borada Angliya Markaziy banki mavqei o`zgachadir.¹ Uning asosiy vazifalari qonuniy tartibda ham qayd qilinmagan, shu bilan birga Moliya Vazirligiga ham bqysinmaydi. Angliya Markaziy bankining vazifalari bu sohada milliy urf-odatlariga tayanadi, bu esa o`znavbatida Angliya bankining tashkil topishdagi tarixiy hujjatlariga asoslanadi. Mustaqillik darajasi nisbatan past bo`lgan markaziy banklarga Frantsiya va Italiya markaziy banklarini misol qilib ko`rsatish mumkin. Bu davlatlarda pul-kredit siyosati yo`nalishini xukumat belgilashi qonun bilan mustahkamlangan. Markaziy bank esa, xukumat ko`rsatmalarini bajaradi va unga maslahatchi vazifasini qtaydi.

Ikkinchi jahon urushi davridan boshlab Frantsiya banki Moliya Vazirligi qaramog`idadir. Pul bozoridagi interventsianing tashabbuskori ham, nemis markasiga nisbatan frantsuz franki kursini ushlab masalasi hamda Evropa Hamjamiyati bozorining tashkil topishida valyuta operatsiyalarini tartibga solishda ham xukumat ishtirok etmoqda. Davlatning pul-kredit siyosatiga aralashuvi qonunda ko`rsatilganligi va uning darajasi kengligi omiliga keyingi mamlakatlar guruhini Buyuk Britaniya, Gollandiya, SHvetsiya va YAponiya mamlakatlari egallaydi. Bu mamlakatlarda davlat organlarining Markaziy bank siyosatiga aralashuvi, unga yql-yqriq ko`rsatishi, uning qarorini bekor qilishi va shu kabilar qonunda aniq belgilangan.

Angliya Markaziy banki tashkil topishida o`zining haqiqiy mustaqilligini yo`qotgan. Davlat bilan Markaziy bank o`rtasidagi munosabatlar 1946 yilda qabul qilingan "Angliya banki haqidagi qonun"ning 1-bo`lim 4-bandi bilan tartibga solinadi. SHu qonunga

¹ Cavyn D., Financial times, Tuesday April 1, 2007, pg 20: Freedom balanced by scrutiny.

muvofig, Moliya Vazirligi Markaziy bank ustidan sezilarli ta'sir qtkazish uchun rasmiy huquqga ega hisoblanadi. SHu sababli, Angliya banki vazifalarni bajarishdagi mustaqilligini yqqotdi va u xukumat siyosatiga jiddiy qarshilik qila olmaydi.

Angliya banki ma'muriyatining fikrlari Moliya Vazirligi tomonidan tinglanadi va pul-kredit siyosati masalalarini echishda e'tiborga olinadi, biroq, Angliya bankining pul-kredit siyosati Moliya Vazirligining oddiy qarorini o'zida aks etadi. Faqatgina Angliya banki ma'muriyati a'zolarining professionalliklari, biznes aloqalari va obro'e'tiborlari ularning xukumat siyosatiga nisbatan bo'lgan mustaqilliklarini o'zida namoyon qiladi.

Angliya banki faoliyat ko'rsatishga nisbatan ko'proq ta'sir ko'rsatishga ega. Daniya va Avstriya Markaziy banklari esa pul-kredit siyosati yuritishda xukumatning aralashuvidan mustaqillik darajasi bo'yicha oldingi o'rinlarda turadilar. Bu davlatlarning qonunchiligi xukumat Markaziy bankining pul-kredit siyosatiga aralashuviga rasmiy ravishda yo'l qo'ymaydi, biroq, markaziy banklarni xukumatning iqtisodiy siyosatiga moslab siyosat yuritishlarini o'zaro moslashishi talab qilinadi.

Avstriya Milliy banki faoliyati ustidan Moliya Vazirligi nazorat olib boradi. Moliya vaziri bank faoliyatining qonuniyligi bo'yicha qonun oldida javobgardir. U davlat komissari va uning o'rinbosarlarini tayinlaydi, ular Bosh Kengashning yig'ilishlarida o'zovozlari bilan ishtirok etishlari hamda dalolatnoma va tushuntirish xatlarini talab qilishlari mumkin. Davlat komissari Markaziy bank Bosh Kengashining qarorini orqaga surishga huquqi bor, bunda albatta qaror komissarning fikricha, amal qilayotgan qonunchilikka zid kelishi kerak. Biroq, Markaziy bank qonunda ko'rsatilgan faoliyatni va operatsiyalarni amalga oshirsa, davlat komissari ham Moliya vaziri ham aralashishga huquqi yo'q. SHu orqali bir tomondan, Avstriya Milliy banki mustaqilligi qonun bilan mustahkamlangan, boshqa tomondan esa, davlat organlari Markaziy bank siyosatiga bevosita rahbar saylab va nazorat o'rnatib, ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Oxirgi to'rtinchi guruh mamlakatlarga Germaniya va SHveytsariyani ko'rsatish mumkinki, bu davlatlarning markaziy banklari eng mustaqil hisoblanadi. Bu mamlakatlar qonunchiligida davlat Markaziy bankining pul-kredit siyosatiga aralashuvi ko'rsatilmagan. SHveytsariya Markaziy bankini xukumat iqtisodiy

siyosatiga moslashishi xususida qonunchilikda qayd qilinmagan. Germaniyada Markaziy bank siyosati mamlakat xukumatidan qonun bo'yicha mustaqil qilib belgilab qoyilgan. 1924 yilda Germaniyada bo'lgan inflyatsion inqiroz davrida aniq bo'ldiki, Markaziy bank faoliyatini xukumat ta'siridan chegaralash kerak. Germaniya Federativ Respublikasi emissiya bankining to'liq mustaqilligi 1948 yilda qayta tiklandi.

Bank bilan Federal xukumat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar "Nemis Federal banki haqida"gi qonunda quyidagicha ta'riflangan: "Nemis Federal banki o'z vazifalariga muvofiq tarzda xukumatning umumiy siyosatini qo'llab-quvvatlashga majbur. qonunda belgilanishicha, u o'z majburiyatlarini bajarishda xukumatga bo'ysinmaydi".¹

50-yillarning o'rtalaridan boshlab, Nemis Federal banki o'z siyosati oldiga bosh maqsad qilib "nemis markasining barqarorligini ximoyalash va inflyatsiyaga qarshi kurashish" deb belgiladi. Bu maqsad, 1957 yilgi "Nemis Federal banki haqida"gi qonunda o'z ifodasini topgan va mustaqilligi poydevorining asosiy qismini tashkil etadi. Nemis Federal banki va xukumat o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasining boshqa tomoni ham qiziqarlidir. Aniqrog'i, Nemis Federal Xukumati Markaziy bankning yuqori darajadagi mustaqilligini qanday baholaydi? Konrad Adenauer xukumatning Markaziy bank mustaqilligiga munosabati nuqtai nazarini ta'riflab, - "Markaziy bankning mustaqilligi doimo ma'qul emas, lekin bu juda xotirjam qiladi", deb aytgan.² Biroq, bunday hamjihatlik tabiiyki, doimo amalga oshmaydi. Ko'pgina markaziy banklardan, shu jumladan, xukumatdan mustaqilligi bilan nom chiqargan milliy banklardan farqli ravishda Nemis Federal banki amaliyotida o'zining alohida mavqeiga ega ekanligini bir necha bor isbotladi.

Misol tariqasida "qo'shilish" munosabatining birinchi kundan boshlab, Nemis Federal banki tomonidan kalendar yilga pul massasining chegarasini qattiq belgilashini va unga amal qilishini, g'arbiy va SHarqiy Germaniyaning qo'shilishidan so'ng yangi federal erlarni rivojlantirish uchun moliyalashtirish bo'yicha sabab bo'lgan

¹ "Закон о Немецком Федеральном банке в новой редакции от 22 октября 1992 года". Спец. изд. Немецкого Федерального банка №7, 1993 г.

² Наумченко О. "Роль Центрального банка в денежно-кредитном регулировании экономики".: Москва, 1995 г.

munozaralarga imtiyozli yondoshilmagan holda siyosat yurgizganligini keltirish mumkin. Nemis Federal bankining o`sha vaqtdagi prezidenti Karl Otto Pel' bank islohotining boshidan boshlab uning hamma mexanizmlari yagona bank tizimining rivojlanishi yo`nalishiga istisno va engilliklarsiz amalga oshishi uchun qat`iy turdi.

Markaziy bank mustaqilligining beshinchi omiliga xukumatning kreditlashni chegaralanganligi qonunda ko`rsatilganligida namoyon bo`ladi. Xukumatning kreditlashni chegaralashi Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligiga ham, siyosiy mustaqilligiga ham ta`sir ko`rsatadi. Biroq, bu omil faqatgina Markaziy bank tomonidan xukumatni bevosita moliyalashtirish tizimining mavjud ekanligida ahamiyatlidir. Bunday tizim dunyoning ko`pgina rivojlangan mamlakatlarida tarqalgan. Istisno tariqasida AQSH va Buyuk Britaniyani ko`rsatish mumkin. Chunki, bu mamlakatlarda davlat zayomlarining taqsimlanishi ochiq bozorda amalga oshiriladi.

Bu belgi bo`yicha ko`proq Germaniya, Avstriya va Gollandiya markaziy banklari mustaqilroqdirlar. Federatsiya xukumatining va erlar (hududiy bo`linmalar)ni boshqaruv organlarini bevosita moliyalashtirish imkoniyatlari masalan, Avstriya Milliy banki uchun qonun bo`yicha chegaralangan. Bu guruhning boshqa mamlakatlari singari istisno tariqasida davlatning qimmatbaho qog`ozlarini chiqarish orqali qisqa muddatli kreditlar beriladi.

Bu belgi bo`yicha mustaqillik darajasining ikkinchi guruhiga Yaponiya va Frantsiya Markaziy banklarini kiritish mumkin. Bu davlatlarda xukumatni kreditlash mamlakat parlamenti tomonidan tasdiqlanadi hamda qonun bo`yicha qat`iy mustahkamlangandir.

Shveysariya, Italiya, SHvetsiya va Daniyada xukumatni kreditlash hajmini chegaralash rasman mavjud emasligi, ular markaziy banklarining bu mezon bo`yicha davlatga qattiq qaramliklarini ko`rsatadi.

15.4. O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mustaqillik darajasi.

Mamlakat Markaziy bankining kapitalida 100 foizi davlatning ishtiroki - ko`proq Markaziy bank salohiyatiga va an`analariga hamda ulush egalariga ham bog`liq. Misol tariqasida AQning Federal Rezerv Tizimini va Germaniyaning Federal bankini ko`rsatish mumkin. Ikkala Markaziy bank jahonda eng mustaqil markaziy banklar sifatida

tan olingan. SHunday bo`lsa-da, Nemis Federal bankining 100 foiz kapitali Federatsiyaga, Federal Rezerv Tizimi kapitali esa, 100 foiz a`zo-banklarning to`liq mulkiga tegishli. Va aksincha, banklar va sug`urta kompaniyalarining mulkiga tegishli bo`lgan Italiya Markaziy banki davlat boshqaruv organlariga qaramdir.

Bu omilning tahlilidan ko`rinadiki, markaziy banklar kapitali egalarining tarkibidan qat`iy nazar, ular uning pul-kredit siyosatidagi mustaqilligiga ahamiyatli ta`sir ko`rsata olmaydi.

O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankini ham Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Gollandiya, Daniya va Rossiya kabi davlatlarning markaziy banklari guruhlariga qatoriga kiritish mumkin, chunki bu guruhlar kapitalining 100 foizi ham davlat mulki hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining iqtisodiyotdagi qonunini ham uning mamlakat xukumati bilan bo`ladigan munosabatidan bilish mumkin. Barcha mamlakatlarda Markaziy banklarning faoliyati Markaziy bank to`g`risidagi qonun bilan tartibga solinadi. qonunda Markaziy bank faoliyatining barcha jihatlari o`zaksini topgan bo`lishi kerak. CHunki, Markaziy bank uchun xukumatning boshqa qonun hujjatlari “Markaziy bank faoliyati to`g`risida”gi qonun oldida ustuvor emas.

Markaziy banklarning raislari va boshqaruv a`zolarini qonun bo`yicha ishdan olish tartibi ham qiziqarli holatda rasmiylashtirilgan. Ko`pgina sanoati rivojlangan mamlakatlar (Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, AQSH, Daniya, Avstriya, SHveytsariya va Gollandiya)ning markaziy banklar raislarini, boshqaruv a`zolarini saylangan muddatlaridan ilgari ishdan bo`shatib bo`lmaydi. Xukumatga yuqoridagi davlatlarga nisbatan qaramroq bo`lgan markaziy banklar bunga kirmaydi (Italiya, Frantsiya).

O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki raisi haqida “Markaziy bank faoliyati to`g`risida”gi qonunning 20, 21 - moddalarida to`xtalib o`tilgan. O`zbekiston Respubli-kasi Markaziy banki raisi 5 yil muddatga saylanadi. qonunning 22-moddasida “Markaziy bank Raisining birinchi o`rinbosari va o`rinbosarlari Markaziy bank Raisining taqdimiga ko`ra Oliy Majlis Kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi”, deyilgan.

SHunday qilib, Markaziy bank boshqaruvining saylovi va ishdan bo`shatish tartibi mamlakat Markaziy bankining davlat boshqaruv organlariga nisbatan bo`lgan mustaqilligini namoyon etadi.

O`zbekiston Respublikasining “Markaziy bank haqida”gi qonunida Markaziy bankka quyidagi vazifalar yuklatilgan. Bular:

- pul muomalasini tartibga solish;
- so`mning qadrini oshirishni ta`minlash;
- pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- tijorat banklari va boshqa kredit muassasalari faoliyati ustidan nazorat qrnatish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha operatsiyalarni amalga oshirish;
- davlatning tashqi qarzini to`lash va oltin-valyuta rezervlarini boshqarish.

Qonun O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga pul-kredit siyosati mexanizmlarini tanlashda keng mustaqillik berilgan. Misol tariqasida, kreditlarning foiz stavkasini, banklarga qrnatilgan iqtisodiy me`yorlarni, qimmatbaho qog`ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni, majburiy rezervlar miqdorini aniqlash va shu kabilarni keltirish mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankini ham kiritish mumkin. qonunning 48-moddasida bu haqda quyidagilar bayon etilgan:

“Kreditlar hukumatga Oliy Majlis tasdiqlagan miqdorda, erkin muomalada bo`ladigan va olti oylik muddat ichida qiymati to`lanadigan qarz majburiyatlari ko`rinishida, tasdiqlangan davlat qimmatli qog`ozlari garovga qo`yilishi sharti bilan beriladi. Bunday qimmatli qog`ozlar Moliya Vazirligi tomonidan chiqariladi, bozor stavkasi bo`yicha to`lanadigan daromad manbaiga ega bo`ladi va Markaziy bankka topshiriladi. Kredit muddatlari erkin muomaladagi qarz majburiyatlarini to`lash muddatlariga muvofiq kelishi lozim.

Kredit berish xukumat va Markaziy bank o`rtasida alohida kredit shartnomasi tuzish bilan rasmiylashtiriladi, unda kreditning miqdori, qaytarilish muddatlari, to`lanadigan foizlar normasi va ssudani uzish tartibi kelishib olinadi.

Markaziy bank xukumatga obuna bo`yicha badallar uchun yoki respublikaning u yoki bu xalqaro tashkilotga a`zolidan kelib

chiquvchi boshqa to'lovlar uchun ancha uzoq muddatli kreditlar berishga haqli.

Markaziy bank xukumatga ushbu moddada nazarda tutilganlardan tashqari hollarda moliyaviy yordam berishga haqli emas".¹

Biroq, iqtisodiy inqiroz, ishlab chiqarish hajmining pasayishi hamda inflyatsiyaning o'sish tendentsiyasi davom etayotgan davrda Markaziy bankning byudjetni engilliklar bilan moliyalashtirishi kuzatilmoqda.

Xukumat bilan Markaziy bank o'rtasidagi kreditlash borasidagi o'zaro munosabatlarni jahon mezonlariga moslash uchun 1 yilgacha beriladigan kreditlardan tashqari hamma zayomlarni Davlat qarz obligatsiyalari sifatida qayd etish lozim.

SHu holatda O'zbekiston banki ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazib, davlatning ichki qarzini investorlarga foydaliroq shartlarda qayta taqsimlashi mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. Markaziy bankning iqtisodiy, siyosiy mustaqilligi va uni baholash tartibini tushuntirib bering?

2. Markaziy banklarning mustaqillik shkalasi va AQSH Federal zaxira tizimining mustaqillik darajasini iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering?

3. Evropa Markaziy banki, YAponiya Markaziy bankining mustaqillik darajasini hamda o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari Markaziy banklarining mustaqillik darajasini yoritib bering?

4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mustaqillik darajasini ahamiyatini tushuntiring?

¹ Ўзбекистон Республикаси Марказий банки тўғрисидаги Қонун., Тошкент, 1995 й.

16-MODUL. TIJORAT BANKLARI VA ULARNING FUNKSIYALARI

16.1. Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish asoslari. Tijorat banklarining tashqiliy tuzilishi.

16.2. Tijorat banklarining funksiyalari. Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.

16.3. Tijorat banklari faoliyatini litsenziyalash. Tijorat banklarining tashqiliy tuzilishi.

16.4. Jamiyatda vaqtinchalik bo`sh pul mablag`larining yuzaga kelishi. Pul mablag`larini tijorat banklarida to`planishi.

16.1. Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish asoslari. Tijorat banklarining tashqiliy tuzilishi.

Taniqli iqtisodchi olimlar, jumladan Lavrushin “tijorat banki → bu tashkilot emas balki korxonalar deb hisoblaydi. Ularning fikriga ko`ra tijorat banklari ham mahsulot yaratadi. Tijorat banklari nomoddiy shaklga ega bo`lgan mahsulotlarni yaratadi. Misol: **depozit** va **kredit**. Lekin amaliyotda tijorat banklarini kredit muassasasi va kredit tashkiloti deb atash keng tarqalgan. Tijorat banklarining yuridik shaxs sifatidagi o`ziga xos maqomni quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo`ladi.

Tijorat banklari butun iqtisodiyotda subektlari hamda aholini kreditlaydigan qudratli moliya institutlari hisoblanadi. Bugungi kunda ularning kreditlarisiz biror bir mamlakatda iqtisodiy o`shni ta`minlash va uy-joy muammosini hal qilish mumkin emas.

Tijorat banklari aholiga va xo`jalik yurituvchi subekt, hisob-kitob kassa xizmat ko`rsatadigan moliyaviy institut hisoblanadi.

Tijorat banklari faoliyati davlat tomonidan qattiq nazorat qiladigan moliya institutidir. Davlat odatda tijorat banklari faoliyatini Markaziy bank orqali nazorat qiladi. Bunday qattiq nazoratning asosiy sababi banklarga depozitlar va omonatlar berish huquqini berilganligidir.

Tijorat banklari shartnoma asosida mijozlarga moliyaviy xizmatlar ko`rsatadigan kredit institutlari hisoblanadi.

Bu moliyaviy xizmatlarning bahosi bank va mijoz o`rtasidagi kelishuvga asoslandi. Hech qaysi davlat organi bank xizmatlari bahosini shakllanish jarayonida aralashishiga haqqi yo`q.

Tijorat banklari mijozlarning bankka jalb etilgan mablag`larini sir tutishi ni kafoltlaydigan moliya institute hisoblanadi. Bu kafolatlar bank siri to`g`risidagi qonunda o`z ifodasini topadi.

Tijorat banklari ishlab chiqarish, sug`urta va savdo faoliyati bilan shug`ullanish man etilgan instituti.

Tijorat banklarining jalb qilingan mablag`lar doirasida kredit resurslarini tashkil qilish va ishlash tamoyili bank faoliyatining poydevori hisoblanib, uning depozit va omonatlar jalb qilishga bo`lgan qiziqishlarini oshiradi, passivlarni jalb qilish bo`yicha raqobat muhitining yuzaga kelishiga asos bo`ladi. Undan tashqari chetdan jalb qilingan va qo`yilgan mablag`lar mutanosibligi banklarda depozitlarni jalb etishga qiziqishni kuchaytiradi va bu mablag`lardan unumli foydalanishga asos yaratadi.

Tijorat bankning ikkinchi va asosiy tamoyillaridan biri bu **haqiqatda mavjud bo`lgan mablag`lar chegarasida xizmat ko`rsatish**dir. Tijorat banki boshqa bank vakillik hisob raqamiga naqd pulsiz to`lovni amalga oshirish, boshqalarga kredit xizmatini ko`rsatish va vakillik hisob varag`ida qolgan qoldiq chegarasida naqd pullik operatsiyalarni bajarishi mumkin. Tijorat banklarining haqiqatda mavjud mablag`lar chegarasida faoliyat ko`rsatishi deganda, bankning nafaqat o`z resurs va kredit qo`yilmalarining mutanosibligi, balki bankning aktivlari bilan uning jalb qilingan mablag`lari o`rtasidagi mutanosibligini ta`minlashi tushuniladi. Bunda avvalambor, passivlar va aktivlar muddatlarining bir xilligi inobatga olinishi lozim. Binobarin, agar bank mablag`larni qisqa muddatga jalb etgan bo`lsa va bu mablag`larni o`zoq muddatli ssudalarga joylashtirsa, bankning majburiyatlari bo`yicha to`lovlarni o`z vaqtda amalga oshira olishi bir muncha muammolar bilan bog`liq bo`lishi, bu esa o`z navbatida bankning moliyaviy holatiga salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin.

Bank aktivida risk darajasi yuqori bo`lgan ssudalar miqdorining ko`payishi, bankning resurslari hajmida o`z mablag`lar hissasining oshirilishini taqozo qiladi. SHunga ko`ra, bank faoliyatini tartibga soluvchi iqtisodiy normativlarni aniqlashda bank aktivlarining passivlarga mutanosib bo`lishini inobatga olish lozim.

Bank qonun doirasida o`z resurslaridan mustaqil ravishda foydalanishi mumkin, lekin uning aktiv operatsiyalari hajmini ma`muriy taqiqlov usullari bilan chegaralash mumkin emas.

Ma`muriy cheklovlar bir martalik va favqulodli hollarda qo`llanilishi mumkin. Bu cheklovlarni doimiy tarzda qo`llash bankning tijorat asoslarining bo`zilishiga olib keladi. SHunga ko`ra, banklar faoliyatini tartibga solish uchun iqtisodiy me`yorlardan keng foydalaniladi. Tijorat banklarining jalb qilingan mablag`lar doirasida kredit resurslarini tashkil qilish va ishlash tamoyili bank faoliyatining poydevori hisoblanib, uning depozitlar jalb qilishga bo`lgan qiziqishini oshiradi, passivlarni jalb qilish bo`yicha raqobat muhiti yuzaga kelishiga asos bo`ladi.

Undan tashqari jalb etilgan va qo`yilgan mablag`larning mutanosibliigi tamoyili banklarda depozitlarni jalb etishga qiziqishini kuchaytirish va bu mablag`lardan unumliroq foydalanishga qaratilgan. Bu tamoyil asosida ishlash tijorat banklarni likvidligini oshirishga yordam beradi.

Uchinchi tamoyil bu **bankning to`la iqtisodiy mustaqilligidir**. Bu tamoyilga asosan bank o`z va jalb etilgan mablag`lardan mustaqil foydalanishi, mijozlar va omonatchilarni o`zi mustaqil ravishda tanlashi, kredit siyosatini mustaqil to`zishi va amalga oshirishi, foiz stavkalarini mustaqil o`rnatishi va o`zgartirishi, daromadlarni mustaqil ravishda taqsimlashi va boshqa faoliyat turlarini mustaqil bajarishi mumkinligi ko`zda tutiladi. Banklar faoliyati to`g`risidagi amaldagi huquqiy-me`yorlarga asosan barcha tijorat banklari o`z fond va daromadlaridan iqtisodiy jihatdan mustaqil foydalanishlari mumkin.

Tijorat banking soliq to`lagandan keyingi qolgan foydasi aksionerlarning umumiy yig`ilishi qaroriga muvofiq taqsimlanadi. Aksionerlarning umumiy yig`ilishi bankning har turligi fondlarga ajratmalarining norma va miqdorini, aktsiyalarga to`g`ri keluvchi dividend summasini belgilaydi.

Majburiyatlari bo`yicha tijorat banki o`z mablag`lari va mulki bilan javob beradi. Tijorat banki o`tkazadigan operatsiyalarning riskini o`z zimmasiga oladi.

Uchinchi tamoyil asosida tijorat bank va mijoz munosabatlari yotadi, ya`ni bank ssuda berayotgan bozor mezonlaridan daromad, risk va likvidlik darajalaridan kelib chiqqan holda beradi.

Tijorat bank faoliyatini olib borishning to'rtinchi tamoyili **bank faoliyatining tijoratlashuvi** bo'lib, bunda banklarning tijorat ob'ekti vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'lari hisoblanadi. Bu pul mablag'lari bankka tegishli bo'lmagan bo'lsada, faoliyati davomida bank ularni o'z nomidan joylashtiradi.

Bank tijorati kam investitsiya qilib ko'proq daromad olish tamoyiliga asoslangani uchun, uning majburiyatlarining passivlaridagi ulushi kam bo'lishi kerak.

Tijorat banki kredit berish va investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonida iloji boricha ko'p daromad olishni mo'ljallaydi.

Undan tashqari bank faoliyatining xavfsizligi ham bank tijoratining asosidan biri hisoblanadi. Bank har doim risk bilan bog'liq faoliyat ko'rsatadi. Bank faoliyatida risk darajasi qancha kam bo'lsa va xavfsizligi yuqori bo'lsa, bankning daromadi ham shuncha ko'p bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar faoliyatining yana bir muhim tamoyili shundaki, bank iqtisodiy tashkilot sifatida o'zining kapitali, daromadi bilan risk qilishi mumkin, lekin u mijozning daromadi yoki kapitali bilan risk qilishi mumkin emas. O'isqacha qilib aytganda, bank faoliyati "**hamma narsa mijoz uchun**" degan tamoyilga asoslangan bo'lishi kerak. Bu tamoyil bank mijoz uchun to'laligicha javob berish zarurligini bildiradi, uning daromadini ta'minlaydi.

Mijozlar tomonidan qaraganda bank har doim sherik tashkilot hisoblanadi. SHERIKLIK munosabatlari ikki tomonning o'zaro qiziqishlariga va roziliklariga asoslangan holda amalga oshirilishi lozimligi tufayli bank mijozlar manfaatini ta'minlashni birinchi o'ringa qo'yishi lozim.

Tijorat banklari faoliyatining keyingi tamoyili bu banklar ko'rsatadigan xizmatlar va operatsiyalarning **universallashuvi** va **diversifikatsiyasi** bo'lib, banklar faoliyatining turli tarmoq va sohalarni qamrab olishini kam risklilik asosida yuqori daromad olishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Banklar qaysi mulk shakliga asoslanganligidan qat'iy nazar ularning faoliyati yuqoridagi tamoyillarga asoslanadi.

Oldingi paragrafda ta'kidlanganidek banklar aktsiyador jamiyat kabi ochiq turdagi yoki yopiq turdagi aktsiyador banklar bo'lishi mumkin. Aktsiyadorlar safiga kirish aktsiyalarni sotib olish yo'li bilan

amalga oshiriladi. Huquqiy va jismoniy shaxslar banklarning aksiyadorlarini sotib olishi va aksiyadorlar bo`lishi mumkin.

Ba`zi tijorat banklari paylar (badallar) hisobidan tashkil qilinishi mumkin. Bu turdagi banklarning qatnashchilari ham huquqiy va jismoniy shaxslar bo`lishi mumkin.

Xususiy banklar-jismoniy shaxslarning pul mablag`lari hisobidan tashkil qilingan banklar hisoblanadi.

Bajaradigan operatsiyalariga qarab tijorat banklari universal va maxsus banklarga bo`linadi.

Universal banklar xilma-xil operatsiyalar bajarish, xar xil xizmatlar amalga oshirish xususiyatiga ega bo`ladi. Maxsus banklar ma`lum yo`nalishlarga xizmat ko`rsatib, o`z faoliyatini shu yo`nalishlarda yutuqlarga, samaradorlikka erishishga bag`ishlaydi. Bunday banklarga tarmoqlarga xizmat ko`rsatuvchi banklar, eksport-import operatsiyalarini olib boruvchi banklar, investitsiya banklari, ipoteka-zamin banklarini kiritish mumkin.

Joylashish belgisiga qarab tijorat banklar: xalqaro, respublika, mintaqaviy, viloyat banklariga bo`linishi mumkin.

Tarmoqlarga xizmat ko`rsatishga qarab: sanoat, qurilish, qishloq xo`jalik, savdo va boshqa banklarga bo`linishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning roli, ularning iqtisodiyotga ta`siri o`sib bormoqda. Kredit muassislari, aholi, korxonalar, tashkilotlar, kompaniyalarning bo`sh pul mablag`larini yig`ish va joylashtirishdan tashqari, korxonalarining xo`jalik faoliyatini takomillashtirishga yordam beradi va korxonalar faoliyatini ko`zatib borishi mumkin.

Banklar va uning krediti yordamida mavjud kapital tarmoqlar o`rtasida, ishlab chiqarish va muomala sohasi o`rtasida taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

Sanoat, transport, qishloq xo`jaligi sohasida qo`shimcha investitsiyaga bo`lgan talablarni moliyalashtirib, banklar xalq xo`jaligida progressiv yutuqlarga erishishni ta`minlashi mumkin.

Tijorat banklarining iqtisodiy roli uning faoliyat doirasining keng bo`lishiga olib keladi. Bu sababli tijorat banklari quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

-vaqtincha bo`sh turgan pul mablag`larni yig`ish va ularni kapitalga aylantirish;

-korxonalar, tashkilotlar va aholini kreditlash;

- iqtisodiyotda hisob-kitoblar va to'lovlarni amalga oshirish;
- moliya-valyuta bozorida faoliyat ko'rsatish;
- iqtisodiy-moliyaviy axborotlar berish va maslahat xizmatlarini ko'rsatish va boshqalar.

16.2. Tijorat banklarining funksiyalari. Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.

Tijorat banklarining iqtisodiy mavqei faoliyat doirasining keng bo'lishiga olib keladi.

Tijorat banklari quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi.

1. Vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larni yig'ish va ularni kapitalga aylantirish.
2. Korxonalar, tashkilotlar, davlat va aholini kreditlash;
3. muomalaga kredit pullar (muomalaning kredit vositalari) ni chiqarish.
4. Iqtisodiyotda hisob-kitoblar va to'lovlarni amalga oshirish.
5. Moliya - valyuta bozorida faoliyat ko'rsatish.
6. Iqtisodiy-moliyaviy axborotlar berish va konsultatsiya xizmatlarini ko'rsatish.

Banklar bo'sh pul mablag'larini yig'ish va ularni kapitalga aylantirish funksiyasini bajara turib, mavjud bo'sh pul daromadlari va jamg'armalarni yig'adi. Jamg'aruvchi (bo'sh pul mablag'i egasi) o'z mablag'larini bankka ishonib topshirgani uchun va bank bu mablag'lardan foydalangani uchun ma'lum foiz hisobida daromad oladilar. Bo'sh pul mablag'lari hisobidan ssuda kapitali fondi vujudga keladi va bu fond xalq xo'jaligi tarmoqlarini kreditlash uchun ishlatiladi.

Tijorat banklar faoliyatida asosiy o'rinni korxonalar, tashkilotlarni, aholini, davlatni kreditlash egallaydi. Kreditlash jarayoni tashkil qilishda bank moliyaviy vositachi rolini o'ynaydi. U bo'sh turgan mablag'larni jalb qiladi va o'z nomidan mijozlarga vaqtincha foydalanishga beradi. Bank krediti hisobidan xalq xo'jaligining muhim tarmoqlari – sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va boshqalar moliyalashtiriladi va ishlab chiqarishni kengaytirishga asos bo'ladi.

Muomalaga kredit pullarni chiqarish funksiyasi tijorat banklarini boshqa moliya institutlaridan ajratib turadi. Tijorat banklari depozit-kredit emissiya qilganida, ssudalar berganida, pul massasi oshadi va ssuda bankka qaytarilganda, muomaladagi pul massasi kamayadi.

Tijorat banklari kredit pullarni yaratishning emitenti hisoblanadi. Tijorat bank tomonidan mijozga berilgan kredit uning hisob raqamiga o'tkaziladi va bankning qarz majburiyati ortadi. Mijoz bu mablag'ning ma'lum qismini naqd pul shaklida hisob raqamidan olishi mumkin. Bu holda muomaladagi pul massasining miqdori oshadi. SHuning uchun ham, Markaziy bank tijorat banklarining faoliyati ustidan nazorat olib boradi.

Tijorat banklarining muhim funksiyalaridan biri hisob-kitoblarni olib borishdir. Hisob-kitoblarni olib borishda bank mijozlar o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qiladi.

Tijorat banklari qimmatbaho qog'ozlar chiqarish va joylash-tirish bilan ham shug'ullanishi mumkin.

Tijorat banklari iqtisodiy ahvolni nazorat qilish jarayonida mijozlarga har xil axborotlar, maslahatlar berishi mumkin.

Tijorat banklarining yuridik shaxs sifatida faoliyati omonatchilar, kreditorlar, umuman, davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy daxldor bo'lganligi tufayli uning tashkil topishi o'zoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. SHu vaqt ichida bo'lg'usi ta'sischi o'rtasida o'zaro munosabatlar o'rnatiladi, bank ustav kapitali uchun zarur bo'lgan mablag'lar tayyorlanadi, rahbar shaxslar zarur hujjatlar tayyorlaydi, tegishli tekshiruvdan o'tkaziladi va hokazolar.

Tijorat banklarini tashkil etish va tugatishning huquqiy asoslari "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunda ifodalangan. SHu qonunning 2-bobi "Banklarni tashkil etish va ular faoliyatini tugatish tartibi" deb nomlanib o'z ichiga 13 modda(7-19 moddalar)ni oladi .

Banklar respublika hududida o'z faoliyatlarini Markaziy bank tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradilar.

Banklarga litsenziya berish O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida", "AktSIONERLIK jamiyatlari va aktsiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlar va boshqa qonunlari hamda bankka me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi.

Tijorat banklarini tashkil qilish 11 fevral 1999 yilda qabul qilingan "Banklarni ro'yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi to'g'risida"gi 630-sonli Nizom asosida olib boriladi. Ushbu nizomda O'zbekiston Respublikasi hududida banklarni ro'yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi hamda shartlari belgilab qo'yilgan

bo`lib, tijorat banklari ochiq yoki yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlari shaklida tashkil etilishi mumkin.

Ssuda kapitalisti o`z bo`sh kapitalini karzga bersa, bankirlar asosan chetdan jalb qilingan mablag'larga tayanadi. Ssuda kapitalistining daromadi ssuda foizi bulsa, bankirning daromadi - bank foydasi xisoblanadi. Banklar korxonalar, tashkilot, davlat muassasalari, axoli bo`sh pullarini jalb qilish orkali katta xajmdagi kapitalni o`z kullarida jamlaydilar va daromad keltiruvchi kapital xarakatini boshkarib boradilar. Banklarning yiriklashuvi va ular faoliyatining takomillashuvi ularning maxsus korxonalar - kredit muassasalariga aylanishiga olib keladi.

SHunday qilib, bank faoliyati xalq xo`jaligi mavjud bo`lgan bo`sh mablag'larni jalb qilish va ssuda kapitalini taqsimlashni uy ichiga oladi. Bank o`z faoliyati davomida ma`lum daromadga ega bo`ladi. Bu daromad bank jalb qilgan resurslarga yo`llaydigan foiz bilan joylashtirgan resurslari bo`yicha oladigan foiz urtasidagi farqdan iborat bo`ladi.

Bank tashkil etish jarayoni bir necha bosqichlarga bo`linishi mumkin.

1. Tayyorgarlik bosqichi.

Bu davrda bank muassislari o`rtasida bank tashkil etishga kelishiladi, tashabbus guruhi tuziladi, har bir muassisning ustav kapitaliga qo`shilgan ulush miqdori belgilab olinadi, bankning ta`sis hujjatlari majmui tayyorlanadi, bankning nomi aniqlanadi, ta`sischilar o`rtasidagi kelishuvlar dastlabki shartnoma tarzida rasmiylashtiriladi, uning asosida ta`sis shartnomasi tuziladi (FKning 43-moddasi, O`zbekiston Respublikasi «Xo`jalik jamiyatlari va shirkatlari haqida»gi Qonunning 3-moddasi) aktsiyadorlik tijorat banklarining muassislari bank davlat ro`yxatiga olinguniga qadar yuzaga kelgan majburiyatlar yuzasidan birgalikda javobgar bo`ladilar.

2. Bankni davlat ro`yxatidan o`tkazish bosqichi.

Bu bosqich uch davrni o`z ichiga oladi:

Bank ochish haqidagi ariza bilan O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga murojat qilish. Bunda arizaga quyidagi xujjatlar ilova qilinishi kerak:

-yangi tashkil etilayotgan bankni ta`sis etish bo`yicha xujjat;

-muassislar tomonidan imzolangan va ularning muhrlari bilan hamda notarial tartibda tasdiqlangan ta`sis shartnomasi. Ta`sis etuvchilar jismoniy shaxs bo`lganlarida ularning imzolari notarial tasdiqlanadi;

-muassis aksiyadorlar yig`ilishi tomonidan tasdiqlangan va muassislar tomonidan uch nusxada imzolangan bank ustavi;

-bank tashkil etish haqidagi qaror, ustav kapitalining miqdori va ustavni tasdiqlash, bank kengashi, taftish komissiyasi va boshqaruvini saylash haqidagi qarorlarni o`z ichiga olgan bank kengashi raisi tomonidan tasdiqlangan ta`sis yig`ilishining bayonnomasi.

O`ayd etib o`tilgan hujjatlarning loyihalari Markaziy bankning banklarni litsenziyalash departamenti ma`qullaganidan keyingina imzolanadi va tasdiqlanadi.

Bo`lardan tashqari, Markaziy bankka muassislar to`g`risidagi ma`lumotlar: bank kengashi a`zolari ro`yxati (kengash raisi, uning birinchi o`rinbosari) ko`rsatilgan holda ushbu shaxslarning Markaziy bank talablariga muvofiq kelishlarini tasdiqlovchi ma`lumotlar, yangi tashkil etilayotgan bankning tashqiliy to`zilishi, ichki audit to`g`risidagi Nizomi, kredit siyosati to`g`risidagi Nizomi, biznes rejasi, ariza topshiruvchining muassislar nomidan ariza topshirish vakolatini tasdiqlovchi hujjat, tashkil etilayotgan joydagi Markaziy bank bosh boshqarmasining bank tashkil etishning maqsadga muvofiqligi haqidagi xulosasi, muayyan hududida bank tashkil etish mo`ljallanayotganligi haqida mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlariga berilgan bildirishning nusxasi ham topshirilishi lozim.

Tijorat banki filialini tashkil etish paytida ham ushbu hujjatlar (ta`sis hujjatlaridan tashqari) taqdim etilishi kerak bo`ladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi tijorat banki tashkil etilayotganda yuqorida ko`rsatib o`tilgan hujjatlarga qo`shimcha ravishda yana quyidagilar taqdim etilishi talab etiladi:

-tegishli xorijiy muassisning bank tashkil etishda ishtirok qilishi haqidagi qarori;

-narezident bankning O`zbekiston Respublikasining chet eldagi konsullik muassasasi tomonidan tasdiqlangan ustavi;

-bank joylashgan mamlakat bank nazorat organi tomonidan muassis bank faoliyatini yuritish uchun litsenziyaga egaligi va xususan, qaytarib berish sharti bilan o`z mamlakatida pul depozitlari va boshqa boyliklarni qabul qilish huquqiga egaligini tasdiqlovchi xat;

-bank nazorati organining muassis bankning o`zi joylashgan va ro`yxatdan o`tkazilgan joyda nazorat ostida ekanligi haqidagi yozma tasdiqnoma;

-muassis bankning oxirgi uch moliya yili uchun to`zilgan, auditorlik firmasi tasdiqlagan yillik hisobotlari, shu jumladan, foyda va zararlar haqidagi konsolidatsiyalangan balansi va hisoboti;

-bank nazorati organi muassis bank tashkil etayotgan bankning ustav kapitalida ishtirok etishi uchun bergan yozma ruxsatnomasi yoki bunday ruxsatnoma muassis bank mansub bo`lgan davlatning qonun hujjatlariga muvofiq talab etilmasligining yozma tasdig`i.

Faoliyat yuritib turgan banklar ustav kapitalidagi hissa xorijiy shaxslar tomonidan sotib olinayotganda ham ushbu hujjat xorijiy shaxs tomonidan Markaziy bankka taqdim etilishi lozim bo`ladi.

Bo`lardan tashqari, xorijiy muassislar O`zbekiston Respublikasida yangi tashkil etilayotgan yoki faoliyat yuritayotgan banklarning ustav kapitalida ishtirok etgan taqdirda;

-xorijiy norezidentning to`lovga qobiliyatligi to`g`risida unga xizmat ko`rsatuvchi bank tomonidan berilgan tasdiqnoma;

-O`zbekiston Respublikasi hududida bank tashkil etilishida ishtirok etish uchun mazkur mamlakat nazorat organining roziligi;

-muassis mansub mamlakatning savdo reestridan ko`chirma yoki yuridik maqomini tasdiqlovchi boshqa muqobil hujjat.

Xorijiy kapital ishtirokidagi banklarda bank kengashining kamida bitta a`zosi O`zbekiston Respublikasining fuqarosi bo`lishi lozim. O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank tashkil etish uchun zarur bo`lgan barcha zarur hujjatlarni talab qilishga haqli bo`ladi. Taqdim etilgan hujjatlar Markaziy bank tomonidan ikki oy muddat ichida ko`rib chiqilishi kerak.

Markaziy bank bank faoliyati bilan shug`ullanishi uchun dastlabki ruxsatnoma berish masalasini hal etish jarayonida tashkil etilayotgan bank muassislarining moliyaviy imkoniyatlari va nufuziga, bank rahbarligiga taklif etilayotgan shaxslarning kasbiy mahoratiga, biznes va moliyaviy reja ko`rsatkichlariga, tashkil etilayotgan bankning binolar va uskunalar bilan ta`minlanganlik darajasiga ham e`tibor qaratadi.

16.3. Tijorat banklari faoliyatini litsenziyalash. Tijorat banklarining tashqiliy tuzilishi.

Markaziy bank tijorat banklari faoliyatini nazorat kkkish funksiyasini amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- bank faoliyatini olib borishga litsenziyalar berish
- banklar xisobotlarini tekshirish ,joylarda tekshirishlar utkazish,
- bank operatsiyalarini bajarishda normalarga rioya qilishni nazorat qilish.

Bank faoliyatini olib borishga litsenziya (ruxsat) berish orkali markaziy bank tashkil qilinayotgan kredit institutining bank faoliyatini olib borish imkoniyatlarini aniklaydi.

Markaziy bank tijorat banklari amalga oshiradigan operatsiyalarni tekshirish, ichki audit xolatiga baxo berish xuquqiga ega. Bunda avvolom bor tijorat banklarining aktivlari: kreditlar va kimmatbaxo qog'ozlar holati, banklarning likvidliligi va barqarorligi tekshiriladi. Tekshirish utkazishdan asosiy maksad:

- bankning moliyaviy xolatiga obektiv *baxo* berish,
- bankni boshkarish sifatiga va uning raxbari faoliyatiga baxo berish,
- bankning moliyaviy axvolini va uning bagkaradigan operatsiyalarining samaradorligini ta`minlash bo`yicha choralar ishlab chikish,
- bank faoliyatining mavjud konunlar va normativ xujjatlarga muvofik olib borilishini ta`minlash va boshkalardan iborat. Markaziy bank yana tijorat banklarining olib boradigan operatsiyalarining norma bo`yicha bajarilishini nazorat qilib boradi

Tijorat banklarining yuridik shaxs sifatida faoliyati omonatchilar, kreditorlar, umuman, davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy daxldor bo`lganligi tufayli uning tashkil topishi o`zoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. SHu vaqt ichida bo`lg`usi ta`sischilar o`rtasida o`zaro munosabatlar o`rnatiladi, bank ustav kapitali uchun zarur bo`lgan mablag`lar tayyorlanadi, rahbar shaxslar zarur hujjatlar tayyorlaydi, tegishli tekshiruvdan o`tkaziladi va hokazolar.

Tijorat banklarini tashkil etish va tugatishning huquqiy asoslari "Banklar va bank faoliyati to`g`risida"gi Qonunda ifodalangan. SHu qonunning 2-bobi "Banklarni tashkil etish va ular faoliyatini tugatish tartibi" deb nomlanib o`z ichiga 13 modda(7-19 moddalar)ni oladi .

Banklar respublika hududida o`z faoliyatlarini Markaziy bank tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradilar.

Banklarga litsenziya berish O`zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to`g`risida”, “O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki to`g`risida”, “Aksionerlik jamiyatlari va aktsiyadorlar huquqini himoya qilish to`g`risida”gi Qonunlar va boshqa qonunlari hamda bankka me`yoriy hujjatlarda belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi.

Tijorat banklarini tashkil qilish 11 fevral 1999 yilda qabul qilingan “Banklarni ro`yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi to`g`risida”gi 630-sonli Nizom asosida olib boriladi.

Ushbu nizomda O`zbekiston Respublikasi hududida banklarni ro`yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi hamda shartlari belgilab qo`yilgan bo`lib, tijorat banklari ochiq yoki yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlari shaklida tashkil etilishi mumkin.

Bank operatsiyalarini litsenziyalashga bo`lgan zarurat bankni mamlakat iqtisodiy to`lov qobiliyatiga ta`sir etishi bilan bog`liq. Bank operatsiyalarini o`tkazuvni amalga oshirishi va ro`yxatga olinishi lozim. Tijorat bankini tashkil etilishida unga litsenziya berilgandan keyin u litsenziya asosida bank operatsiyalarini o`tkazish huquqiga ega bo`ladi. Agar, bank O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan bank operatsiyalarini litsenziya olish uchun ro`yxatdan o`tmay faoliyat ko`rsatsa, bu operatsiyalar qonunga xilof deb topiladi va javobgarlikka tortiladi.

Tijorat banki O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankida davlat ro`yxatidan o`tgandagina tashkil etilgan deb hisoblanadi va yuridik shaxs statusini oladi.

Yuridik va jismoniy shaxslar tijorat bankini ta`sis etuvchilari hisoblanadi va ular bank hamda uning ustav kapitalini shakllantirishda ishtirok etadilar. O`zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to`g`risida”gi Qonunga asosan bank ustav kapitalini shakllantirishga davlat hokimiyat organlari, jamoa birlashmalari, jamoa fondlar mablag`lari, shuningdek kreditga olingan mablag`lar va garovga olingan mablag`lardan foydalanish man etiladi.

Bank ta`sischilari o`z zimmasiga tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, ustav kapitalini shakllantirish, material-texnik bazani yaratish, mijozlar ko`lamini aniqlash, o`tkaziladigan bank

operatsiyalar turini aniqlash va boshqa qator masalalarni hal etishlari lozim.

Ta`sischilar ta`sis shartnomasi yoki aktsioner jamiyatni to`zish shartnomasini rasmiylashtiradilar. Bu shartnomada bank boshqaruv shakli, ustav kapitalining taxminiy miqdori va ta`sischilarning ustav kapitalidagi hissalar ulushi aniqlanadi. SHartnomada tomonlar majburiyati, huquqlari va boshqalar aks ettiriladi.

Bankni O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ro`yxatga olish va litsenziyalash tegishli talablar amalga oshirilgandan keyin bir oy muddat ichida hal etiladi.

Banklarni mulkchilikning har qanday shakli asosida aktsiyadorlik jamiyati tarzida tashkil etish mumkin. Har qanday yuridik va jismoniy shaxslar bank muassislari sifatida ishtirok eta oladilar. Har bir aktsiyadorning ustav kapitalidagi ulushi "Banklarni ro`yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi to`g`risida"gi Nizomda ko`rsatilishicha 2000 yilning 1 yanvaridan boshlab ustav kapitali umumiy miqdorining 20 %, 2001 yilning 1 yanvaridan boshlab 13% , 2002 yilning 1 yanvaridan boshlab 7% dan oshmasligi belgilangan. SHuningdek banklarning boshqa banklar ustav kapitalida ishtirokiga ruxsat etilmaydi (ammo sho`ba banklar tashkil etish bundan mustasno).

Banklarning aktsiyalarini olish qonun hujjatlarida alohida ko`rsatiladi. Bank muassislarining muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, bank aktsiyadorlari tarkibidan u ro`yxatga olingan kundan boshlab bir yil mobaynida chiqib ketish huquqiga ega emaslar.

Har qanday yuridik shaxs singari banklar ustaviga ega bo`lishlari va o`z ustavlari asosida faoliyat ko`rsatishlari kerak. Bank ustavida quyidagi moddalar o`z aksini topgan bo`lishi kerak:

- bankning (to`la va qisqartirilgan) nomi va joylashgan (pochta) manzili;

- bank ko`rsatadigan operatsiyalari ro`yxati;

- ustav kapitalining miqdori, muassislar ro`yxati va ularning ustav kapitalidagi ulushlarining taqsimlanishi;

- bankning boshqaruv organlari, ularni tashkil etish tartibi, ularning vakolatlari hamda vazifalari haqidagi ma`lumotlar;

- bank auditi tartibi, shuningdek, buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga muvofiq belgilangan hisobotlar va auditorlik dasturlarining maqsadlari ko`rsatmalari.

Bo`lardan tashqari bank ustavida boshqa qonun xujjatlarida nazarda tutilgan ma`lumotlar ham bo`lishi kerak.

Qonunda ko`rsatilishicha, kreditga va garovga olingan mablag`lardan va soliqqa jalb etilgan mablag`lardan bankning ustav kapitalini shakllantirish mumkin emas. Ammo alohida olingan xollarda, qonunlarda ko`rsatilgan bo`lsa, byudjet mablag`laridan foydalanishga ruxsat berish mumkin.

Markaziy bank tomonidan bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyani bekor qilish uchun mavjud litsenziyani shunday holatga keltirish ancha murakkab huquqiy tadbir bo`lib, tijorat banklari faoliyatining to`xtashi va tugatishida muhim asosdir.

Bank faoliyatini to`xtatish va banklarni tugatish “Banklar va bank faoliyati to`g`risida”gi Qonunda hamda Markaziy bankning 240-sonli “Banklarni tugatish tartibi to`g`risida”gi Nizomda ko`rsatib o`tilgan. Jumladan bank quyidagi hollarda o`z faoliyatini to`xtatadi: aksiyadorlar yig`ilishining qaroriga ko`ra, Markaziy bank litsenziyani qaytarib olganda, bankrot deb e`lon qilinganda o`z faoliyatini to`xtatgan bank Markaziy bank tomonidan banklarni Davlat ro`yxatiga olish daftaridan chiqariladi. Uni faoliyati to`xtatilganligi matbuotda e`lon qilinadi. Faoliyatni to`xtatish va uni tugatish tartibi nizomda belgilab berilgan.

Qonunda ko`rsatilishicha, kreditga va garovga olingan mablag`lardan va soliqqa jalb etilgan mablag`lardan bankning ustav kapitalini shakllantirish mumkin emas. Ammo alohida olingan xollarda, qonunlarda ko`rsatilgan bo`lsa, byudjet mablag`laridan foydalanishga ruxsat berish mumkin.

Bank tashkil etilganiga qadar, ya`ni u davlat ro`yxatidan o`tkazilgunicha uning nomidan amalga oshirilgan bank operatsiyalari haqiqiy hisoblanmaydi.

Bank ro`yxatidan o`tkazilganidan keyin o`n kunlik muddat ichida soliq tortishni tashkil etish uchun moliya-soliq organiga zarur hujjatlarni taqdim qilish zarur.

Bank ustaviga qo`shimcha va o`zgartishlar kiritish uchun bank aksiyadorlar yig`ilishi yoki muassislarning qaroriga muvofiq belgilangan tartibda O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga murojaat qilinadi va quyidagi xujjatlar:

- ustavga o`zgarishlar kiritish haqida bank kengashi raisi imzolagan iltimosnoma;

- bank aktsiyadorlarining ustaviga o`zgarish va qo`shimcha kiritish haqidagi majlisi bayoni (3- nusxada);
- bank kengashi raisi imzolagan ustaviga kiritilgan o`zgarish va qo`shimchalar ro`yxati (3 nusxada) taqdim etiladi.

16.4. Jamiyatda vaqtinchalik bo`sh pul mablag`larining yuzaga kelishi. Pul mablag`larini tijorat banklarida to`planishi.

Ssuda kapitalisti o`z bo`sh kapitalini karzga bersa, bankirlar asosan chetdan jalb qilingan mablag`larga tayanadi. Ssuda kapitalistining daromadi ssuda foizi bulsa, bankirning daromadi - bank foydasi xisoblanadi. Banklar korxonalar, tashkilot, davlat muassasalari, axoli bo`sh pullarini jalb qilish orkali katta xajmdagi kapitalni o`z kullarida jamlaydilar va daromad keltiruvchi kapital xarakatini boshkarib boradilar. Banklarning yiriklashuvi va ular faoliyatining takomillashuvi ularning maxsus korxonalar - kredit muassasalariga aylanishiga olib keladi.

SHunday qilib, bank faoliyati xalk xujaligi mavjud bo`lgan bo`sh mablag`larni jalb qilish va ssuda kapitalini taqsimlashni uy ichiga oladi. Bank o`z faoliyati davomida ma`lum daromadga ega bo`ladi. Bu daromad bank jalb kilgan resurslarga yo`llaydigan foiz bilan joylashtirgan resurslari bo`yicha oladigan foiz urtasidagi farvdan iborat bo`ladi.

Banklar bajaradigan funktsiyalar ularning bajaradigan vazifalariga karab turli xil bulishi mumkin- Bu mavzuda biz banklarga taalukli bo`lgan umumiy funktsiyalar tutrisida gapirib utmokchimiz. Keyingi mavzularda biz aloxida-aloxida olingan xolda birinchi va ikkinchi **zveno** banklarining funktsiyalari tugrisida fikr yuritamiz.

SHunday qilib, bank tizimi mikyosida olib karaydigan bulsak banklar kuyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- vaktincha bo`sh turgan mablag`larni yirish va kapitalga aylantirish;
- kredit munosabatlarida vositachilik qilish;
- tulov jarayonlarida vositachilik qilish;
- muomalaga kredit vositalarini chikarish.

Xalk xujaligidagi vaktincha bo`sh turgan mablag`larni yigish va ularni kapitalga aylantirish - banklarning ilk funktsiyalaridan biri xisoblanadi. Bu funktsiyaning amalga oshirilishi natijasida bir tomondan, xuquqiy va jismoniy shaxslar jalb qilingan mablag`lari

bo'yicha ma'lum miqdorda daromadga ega bo'ladilar, ikkinchi tomonidan bu mablag'lar banklarning kreditlash kudratini tashkil qiladi va bu resurslarga asoslangan *xolda*. banklar ssuda operatsiyalarini olib boradi. Vaktincha bo'sh mablag'lar banklar ishtirokisiz bir korxonona (tarmok) tomonidan ikkinchi korxonona (tarmok)ga vaktincha foydalanishga beriladigan bulsa, bu munosabatlarni tashkil qilishda ma'lum kiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin:

birinchidan, kreditga suralayotgan summa bilan kreditga berilishi mumkin bo'lgan summa urtasida nomutannosiblik bulishi mumkin;

ikkinchidan, ortikcha bo'sh mablag'ga ega bo'lgan korxonaning mablag'larni vaktincha foydalanishga beradigan muddati mablag' zarur bo'lgan korxonani kontougirmasligi mumkin;

uchinchidan, banklar ishtirokisiz korxonalarni tugridan tugri kreditlashda karz beruvchi karz oluvchi korxonaning moliyaviy axvolini tulik urgana olmasligi mumkin. Karz oluvchining tulovga layokatsiz bulishi kreditor korxonaning xam moliyavy axvolining yomonlashuviga va boshka salbiy xollarga olib kelishi mumkin.

Xalk xujaligidagi barcha bo'sh mablag'larning bank tomonidan yigilishi natijasida vujudga keladigan kredit resurslar xisobidan karz oluvchi korxonaga zarur bo'lgan summada, zarur bo'lgan muddatda kredit berishga imkoniyat yaratadi.

Tijorat banklarining to'lov operatsiyalari orqali pul aylanmasining tartibga solinishi.

Iktisodiy rivojlanishining usishi bank kreditining tsullanilish kulamini kengaytirib boradi. Kredit fakatgina xar kunlik faoliyat bilan boglik ishlab chikarish va muomala jarayonining kika muddatli extiyojlari uchun emas, balki uzoq muddatga kapitalga bo'lgan extiyojni koplashga yo'naltiriladi. 60-yillardan boshlab banklar yirik mijozlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslasha bordi. Bu maksadni amalga oshirish uchun banklar mablag'larni jalb vuglish mikyosini, iste'mol uchun kreditlar berish kulamini kengaytirdi.

Tulovlarda vositachilik funktsiyasida banklar o'z mijozlarining topshirigiga asosan tulov jarayonlarini amalga oshiradi, xisob varaklariga mablag'larni kabul qiladi, pul tushumlarining xisobini olib boradi, mijozlarga pul mablag'larini beradi.

Xisob-kitoblarning bank orkali olib borilishi muomala xarajatlarining kamayishiga olib keladi. Mijoz mamlakat ichida va boshka. mamlakat bilan kiyinchiliksiz o`z mablag`larini bank orkali o`z xisob varakasidan boshka korxonaga xisob varaqasiga yoki boshka mamlakat bankiga o`tkazishi mumkin.

Muomalaga kredit vositalarini chiqarish. Bank kreditining manbai fakat vaktincha bo`sh mablag`lar va kapital bo`lib -kolmasdan, kredit asosida chek-depozit emissiyasi xam amalga oshiriladi. Bank tomonidan beriladigan kredit mikdori mavjud jamg`armalardan ko`p bo`lsa, bank chek-depozit emissiyasini amalga oshirishi mumkin.

Undan tashkari, kredit yordamida muomalaga naqd pullar banknotalar chikariladi.

Bank kredit pullar chikarish depozitlar yaratish yo`li bilan to`laqonli pullar o`rnini bosuvchi kredit vositalarini vujudga keltiradi

Nazorat uchun savollar

1. Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish asoslari va ularning tashkiliy tuzilishini yoritib bering?

2. Tijorat banklarining funktsiyalari hamda ular faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy va huquqiy asoslarini tushuntirib bering?

3. Tijorat banklari faoliyatini litsenziyalash va ularning tashkiliy tuzilishini ochib bering?

4. Jamiyatda vaqtinchalik bo`sh pul mablag`larining yuzaga kelishi va pul mablag`larini tijorat banklarida to`planishi iqtisodiy ahamiyatini yoritib bering?

17-MODUL. TIJORAT BANKLARINING AKTIV VA PASSIV OPERATSIYALARI

17.1. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari va ularni amalga oshirish asoslari.

17.2. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari. Tijorat banklari passivlarining barqarorligi.

17.3. Tijorat banklarining kredit operatsiyalari.

17.4. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalari.

17.5. Tijorat banklarining komission vositachilik operatsiyalari.

17.6. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan emission operatsiyalari. Banklarning ssuda kapitallari bozoridan resurslar jalb etishi.

17.1. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari va ularni amalga oshirish asoslari.

Banklar o`rta asrlarda puldorlar tomonidan pulni qabo`l qilish va boshqa davlat, shaxar puliga almashtirib berish asosida kelib chiqqan. Keyinchalik puldorlar o`z bo`sh turgan mablag`laridan foyda olish maksadida ularni vaqtincha foydalanishga mablag` zarur bo`lgan korxonalariga ssudalar berishgan.

Mobilizatsiyalashgan pul mablag`lari banklar mijozlarini kreditlash uchun va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni qo`llabquvvatlash uchun foydalanadi. Daromad olish maqsadida bank resurslarini joylashtirish bilan bog`liq bo`lgan operatsiyalar banklarning aktiv operatsiyalari deyiladi.

Veksel operatsiyalari veksellarni qayd yoki hisobga olish bo`yicha operatsiyalar va veksellar bo`yicha ssudalar berish operatsiyalariga bo`linadi.

Markaziy bankning xududiy boshqarmalarida berilgan veksellarni qayta hisobdan o`tkazishi mumkin. Vekselni hisobga olib bank uning vaqtinchalik egasi bo`ladi va vekselni emitent qilgan yoki uni hisobga olish uchun taqdim qilgan shaxsga ma`lum miqdorda pul to`laydi. Bu operatsiya uchun bank mijozdan qayd etish foizi yoki diskont deb

ataluvchi ma`lum foiz undiradi. Diskont – bu vekselda ko`rsatilgan summa bilan veksels egasiga to`lanadigan summa o`rtasidagi farqdir.

Bozor iqtisodiyoti va jaxon xo`jaligi rivojlanishi bilan bank tizimi xam rivojlana bordi. Xozirgi sharoitda banklar tobora ko`proq fakat sof bank operatsiyalarini bajaradigan emas.

Tijorat banklari quyidagi aktiv operatsiyalarni bajaradi:

aktiv ssuda operatsiyalari;

bank xizmatlari va vositachilik operatsiyalari;

bankning o`z mablag`lari xisobidan amalga oshiradigan operatsiyalar va boshkalar.

SHu bilan birga banklar moliyaviy xizmatlar ko`rsatadigan moliyaviy muassasalarga aylanmokda, bu bank balansida aks ettirilmaydi, lekin juda katta daromad keltiradi. Masalan: banklar valyuta operatsiyalarini bajarganda sarroflar brokerlar sifatida maydonga chiqadilar va katta miqdorda vositachilik xaqi oladilar.

Tijorat banklarning samarali faoliyatini ta`minlash maqsadida bank nazorati va monitorngini amalga oshirish, tijorat banklari faoliyatini boshqarish usullarini takomillashtirish va xalkaro talablarga moslash, yangi schetlar tizimiga o`tish, chet el banklarining shu`balarini ochish, to`lov tizimini takomillashtirish, tijorat banklarning qimmatbaxo qog`ozlar bilan operatsiyalarini rivojlantirish, pul va valyuta bozorida banklarning aktiv faoliyatini ta`minlash kabi dolzarb masalalar hozirgi kunda mustakil bank tizimining rivojlanishi tufayli o`z echimini topmokda.

Xalk xo`jaligidagi vaktincha bo`sh turgan mablag`larni yig`ish va ularni kapitalga aylantirish banklarning ilk funktsiyalaridan biri xisoblanadi. Bu funktsiyaning amalga oshirilishi natijasida bir tomondan, xukukiy va jismoniy shaxslar jalb kilingan mablag`lari buyicha ma`lum miqdorda daromadga ega bo`ladilar, ikkinchi tomonidan bu mablag`lar banklarning kreditlash kudratini tashkil kiladi va bu resurslarga asoslangan *xolda*. banklar ssuda operatsiyalarini olib boradi. Vaktincha bo`sh mablag`lar banklar ishtirokisiz bir korxon (tarmok) tomonidan ikkinchi korxon (tarmok)ga vaktincha foydalanishga beriladigan bo`lsa, bu munosabatlarni tashkil qilishda ma`lum kiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin:

birinchidan, kreditga so`ralayotgan summa bilan kreditga berilishi mumkin bo`lgan summa o`rtasida nomutannosiblik bo`lishi mumkin;

ikkinchidan, ortikcha bo`sh mablag`ga ega bo`lgan korxonaning mablag`larni vaktincha foydalanishga beradigan muddati mablag` zarur bo`lgan korxonani koniqgirmasligi mumkin;

uchinchidan, banklar ishtirokisiz korxonalarni to`g`ridan to`g`ri kreditlashda karz beruvchi qarz oluvchi korxonaning moliyaviy axvolini to`lik o`rgana olmasligi mumkin. Karz oluvchining to`lovga layokatsiz bo`lishi kreditor korxonaning xam moliyaviy axvolining yomonlashuviga va boshka salbiy xollarga olib kelishi mumkin.

Xalq xo`jaligidagi barcha bo`sh mablag`larning bank tomonidan yigilishi natijasida vujudga keladigan kredit resurslar hisobidan karz oluvchi korxonaga zarur bo`lgan summada, zarur bo`lgan muddatda kredit berishga imkoniyat yaratadi. Undan tashqari bank korxonalarning to`lovga layokatligini xar tomonlama tahlil qilishi, ularning moliyaviy ahvolini baxolab bera olishi mumkin.

Iqtisodiy rivojlanishining o`ssishi bank kreditining tsullanilish kulamini kengaytirib boradi. Kredit fakatgina xar kunlik faoliyat bilan boglik ishlab chikarish va muomala jarayonining kika muddatli extiyojlari uchun emas, balki o`zok muddatga kapitalga bo`lgan extiyojni koplashga yo`naltiriladi. 60-yillardan boshlab banklar yirik mijozlarga xizmat ko`rsatishga ixtisoslasha bordi. Bu maksadni amalga oshirish uchun banklar mablag`larni jalb vuglish mikyosini, iste`mol uchun kreditlar berish ko`lamini kengaytirdi.

To`lovlarda vositachilik funktsiyasida banklar o`z mijozlarining topshirigiga asosan to`lov jarayonlarini amalga oshiradi, xisob varaklariga mablag`larni qabo`l kiladi, pul tushumlarining xisobini olib boradi, mijozlarga pul mablag`larini beradi.

Xisobkitoblarning bank orkali olib borilishi muomala xarajatlarining kamayishiga olib keladi. Mijoz mamlakat ichida va boshqa mamlakat bilan qiyinchiliksiz o`z mablag`larini bank orkali o`z xisob varaqasidan boshqa korxonaga xisob varakasiga yoki boshqa mamlakat bankiga o`tkazishi mumkin.

Muomalaga kredit vositalarini chiqarish. Bank kreditining manbai fakat vaktincha bo`sh mablag`lar va kapital bo`lib kolmasdan, kredit asosida chekdepozit emissiyasi xam amalga oshiriladi. Bank

tomonidan beriladigan kredit miqdori mavjud jamg'armalardan ko'p bo'lsa, bank chekdepozit emissiyasini amalga oshirishi mumkin.

Undan tashkari, kredit yordamida muomalaga naqd pullar banknotalar chikariladi.

Bank kredit pullar chikarish depozitlar yaratish yo'li bilan to'laqonli pullar o'rnini bosuvchi kredit vositalarini vujudga keltiradi.

Banklar o'rta asrlarda puldorlar tomonidan pulni qabool qilish va boshqa davlat, shaxar puliga almashtirib berish asosida kelib chiqqan. Keyinchalik puldorlar o'z bo'sh turgan mablag'laridan foyda olish maqsadida ularni vaqtincha foydalanishga mablag' zarur bo'lgan korxonalariga ssudalar berishgan. Bu pul almashtiruvchi puldorlarning bankirlarga aylanishiga olib kelgan.

Oxirgi yillarda Respublikaning ko'pgina tijorat banklari yuqori foyda olish maqsadida, davlatning xazina majburiyatlarini ko'p miqdorda sotib olishdi. Chunki qimmatli qog'ozlarning bu turi bankka kafolatlangan daromad keltiradi. Hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarning ta'minoti sifatida ko'chmas mulk, boshqa bank yoki sug'o'rta tashkilotining sug'urta kafolati ham qabool qilinishi mumkin. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari ichida kreditlash jarayoni asosiy o'rinni egallaydi.

Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining yana bir turi fond operatsiyalaridir.

Turli qimmatli qog'ozlar uning ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. Banklarning qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalarining 2 turi ko'proq qo'llaniladi. Bo'lar qimmatli qog'ozlarni kreditning ta'minlanganligi uchun qabool qilish yo'li bilan ssudalar berish va ularni bank tomonidan o'z hisobiga sotib olish yo'li bilan operatsiyalar o'tkazish.

Qimmatli qog'ozlar ta'minoti bo'yicha ssudalar ularning to'liq bozor kursi qiymati bo'yicha emas, balki ularning ma'lum bir qismi (60-80%) bo'yicha beriladi.

Qimmatli qog'ozlar soxta kapitalni ifodalasada, ular bo'yicha ssudalar haqiqiy tovar ishlab chiqarish bilan bog'langan jarayonga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlardagi bank investitsiyalari ham mavjud bo'lib, bu holda bank turli emitentlardan qimmatli qog'ozlarni sotib oladi va bank qimmatli qog'ozlar portfeli vujudga keladi.

Bank tomonidan qimmatli qog'ozlarning xarid qilinishidan maqsad – bu qimmatli qog'ozlarni keyinchalik qayta sotish yoki kapitalning o'zoq muddatga qo'yilishi yo'li bilan foyda olishdan iborat.

17.2. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari. Tijorat banklari passivlarining barqarorligi.

Passiv operatsiyalar bu bank resurslarini shakllantirilishi bilan bog'lik operatsiyalardir. Passiv operatsiyalar aylanmadagi bo'lgan, yangi resurslar jalb qilish (orqali) natijasida banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishga imkoniyat yaratiladi.

Tijorat bank faoliyatini tashkil qilishning ilk bosqichi, ular passiv operatsiyalarini amalga oshirish hisobiga resurclarini shakllantirishdan iborat. Tijorat banki mustaqil faoliyat yurituvchi sub`ekt sifatida o'z faoliyatini boshlashi uchun zarur bo'lgan talablardan biri, bu bankning talab darajasidagi o'z potentsiallariga ega bo'lishidir. SHu bois banklar faoliyatini olib borish avvalo etarli miqdordagi bank resurslarining mavjud bo'lishini taqozo etadi. Har qanday tijorat banklarning passiv operatsiyalarining samarali boshqarib borilishi bank resurslarining mukammal tashkil qilinishi va tejamli ishlatilishiga zamin yaratadi. Hosil qilingan resurslar tijorat banklarning tijorat va xo`jalik faoliyatini ta`minlash uchun ishlatiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining passiv operatsiyalari, uning tarkibi va hajmini oshirishda uni samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish nafaqat yangi mijozlarni jalb etish, balki resurslar manbalari to`zilmasini doimiy ravishda o`zgartirib turishni ham o'z ichiga olgan holda, bank aktivlari va passivlaridan oqilona foydalanishning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tijorat bank passivlaridan samarali foydalanish passiv operatsiyalarini asosini tashkil qiluvchi, xususan, kapitalini oshirish, depozit siyosatining oqilona yuritish, asosiy strategik va taktik yo`nalishlarini belgilashdan iborat bo`ladi.

Tijorat bank resurslari bizga ma`lumki passiv operatsiyalarni natijasida shakllanadi. Bankning passiv operatsiyalari – bankning o'z va jalb qilingan mablag'larini ustida amalga oshirilgan amaliyotlarda yuzaga keladi. Moliyakredit lug'atlarda berilishicha, banklarning passiv operatsiyalari bu – «Banklar kredit va boshqa aktiv

amaliyotlarni bajarish uchun o'z resurslarini shakllantirish operatsiyalari»¹ dir.

Xalqaro bank amaliyotida passiv operatsiyalarning quyidagi to'rtta shaklidan keng foydalaniladi:


а) banklarning foydasidan fondlarni shakllantirish va ularni ko'paytirishga ajratmalar;

б) depozit operatsiyalar;

в) yuridik shaxslardan olingan kredit resurslar;

г) qimmatli qog'ozlar, pul biletlar va tangalarni muomalaga chiqarish (emissiya).

д) Tijorat banklarining passiv operatsiyalari deganda, ularni resurs bazasini shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalari tushuniladi.



7-rasm. Tijorat banklari passiv operatsiyalari tarkibi ²

Bank tizimi faoliyati davlatning iqtisodiy xolati bilan o'zviy xolda bog'lik va unga o'ziga yarasha ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa hozirgi bozor iqtisodiga o'tish sharoitida, mamlakatdagi moliya – kredit tizimining tashkil etilganligi, iqtisodiy tsikllarning barqarorligini bank faoliyati ko'rsatkichlari orqali ko'rishimiz mumkin. Banklarning iqtisodiy faoliyatidan kelib chiqadigan bo'lsak bank faoliyatida xam

¹ Гарбузов В.Ф., Финансово-кредитный словарь. 391 бет.

² Муаллиф томонидан мустақил ишлаб чиқилган

o`ziga yarasha extiyojlar va talablar mavjud. Bank passivlarini ikkita katta guruxga bo`lib o`rganadi:¹

Bank o`z kapitali va unga tenglashtirilgan moddalarni tashkil etish bilan bog`liq operatsiyalar;

Jalb qilingan mablag`lar, depozit va nodepozit operatsiyalar.

Tijorat banklarning o`z mablag`lari tarkibiga ularni passiv operatsiyalari orqali quyidagilar kiritilgan:

- 1) Aktsiyadorlik kapitali (Oddiy, Imtiyozli)
- 2) Qo`shimcha kapital,
- 3) Zaxira kapitali (Zaxiralar va maxsus fondlar, deval`vatsiya)
- 4) Taqsimlanmagan foyda
- 5) Qayta baxolash ortiqchasidan iborat.

YUqorida aytib o`tganimizdek, o`z mablag`lari ustav kapital, rezerv kapital, maxsus fondlar, o`tgan yillardagi taqsimlanmagan foydalar, rezervlar, qayta baxolash natijalaridan iborat.

SHundan, tijorat banklar ustav kapitali ular tomonidan chiqargan aktsiyalarning nominal qiymatiga teng bo`lib, bankning boshlangich ish faoliyatida bank faoliyatini yuritishi uchun kerakli darajada mablag`ga ega bo`lish maqsadida o`zi uchun etarli bo`lgan miqdorda joylashtiriladi. SHuningdek, rivojlangan mamlakatlarda fond bozorlariga joylashtirilgan aktsiyalarning nominalidan yuqori bo`lgan bozor narxlari qo`shimcha ravishda nominalidan ortiqcha qismi qo`shimcha kapitalda xisobga olinadi.

Mamlakatimiz tijorat banklarining passiv operatsiyalarini tarkibida ularni depozit mablag`larini shakllantirish manbasi tijorat banklarini aktiv operatsiyalarini tashkil etishda muhim va hal qiluvchi o`ringa ega. CHunki passiv operatsiyalarni ichida ularning depozit mablag`lari tijorat banklari o`z aktivlarini oshirish hisobiga o`z likvidliligi va rentabelligini oshirish imkoniga ega bo`ladi.

Depozit operatsiyalar – banklarning depozitorlar bilan tuzgan shartnomalari asosida depozit maqsadlariga ko`ra muayyan muddatga jalb etish hamda saqlashga doir operatsiyalardir.

Pul qo`yuvchilar toifasidan kelib chiqqan holda, depozitlar quyidagilarga bo`linadi:

1. yuridik shaxslar (korxonalar, tashkilotlar);
2. jismoniy shaxslar;

¹ Усоскин В.М, Современный коммерческий банк, 1994 йил, 91 бет

Mablag'larni olish shakliga ko'ra depozitlar quyidagilarga bo'linadi:

3. muddatli depozit mablag'lar;
4. talab qilib olingunga qadar depozit mablag'lar;
5. aholining jamg'arma qo'yilmalari.

O'z navbatida bu guruhlarning har biri turli belgilariga qarab tasniflanadi. Muddatli depozit mablag'lar ularning muddatidan kelib chiqib tasniflanadi;

6. 3 oy muddatgacha depozitlar;
7. 3 oydan 6 oygacha depozitlar;
8. 6 oydan 9 oygacha depozitlar;
9. 9 oydan 12 oygacha depozitlar;
10. 12 oydan yuqori bo'lgan depozit mablag'lar.

Muddatli depozitlar bu banklar tomonidan ma'lum muddatga jalb qilinadigan depozitlardir. Bu turdagi depozitlarlar qo'yilgan muddatda o'zgaras bo'lishi lozim va ular joriy to'lovlar uchun ishlatilmaydi.

17.3. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari.

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari ichida kreditlash jarayoni asosiy o'rinni egallaydi. U quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- kredit olish uchun berilgan mijozning ariza talabnomasini ko'rib chiqish;
- qarz oluvchining to'lovga va kreditga layoqatliligini bank tomonidan o'rganib chiqilishi;
- kredit qo'mitasining qarori;
- kredit bitimini rasmiylashtirish;
- kredit berilishi;
- ssuda va u bo'yicha foiz to'lashning bank tomonidan nazorat qilinishi.

Kredit va uni to'lash jarayoni kredit shartnomasida ko'rsatilgan bo'lib, kredit va qarz oluvchi o'rtasidagi majburiyat va huquqlarni belgilab beradi. Unda kreditlashning maqsadi va ob'ekti, kredit miqdori, ssudani berish va uni to'lash muddati, kredit ta'minotining turlari, kredit uchun foiz stavkasi va boshqalar ko'rsatiladi. Ssudani to'lashni nazorat qilish bankning kredit portfelini muntazam tahlil qilish asosida olib boriladi va kreditlarning sifat darajasi aniqlanadi.

Tijorat banklari o`zining xalk xo`jaligida tutgan urni va o`ziga xos faoliyati bilan bozor iktisodiyotining ajralmas kismi sifatida yuzaga keldi. Tijorat bank larining bugungi kundagi faoliyatiga e`tibor beradigan bo`lsak, xalk xo`jaligining xech bir sub`ekti yukki, u bugun bank xizmatidan foydalanilmayotgan bo`lsin.

Bundan tashkari banklar o`z mijozlariga moliyaviy broker sifatida xam xizmat ko`rsatmokda. Banklarning bunday funktsiyani bajarishlari korxonalar tashkilotlarning kimmatli kogoslar bozori operatsiyalarida katnashishlari uchun kulay sharoit yaratmokda.

Aktivlarni boshkarishning asosiy maksadi tavakkal qilishning eng past darajasi sharoitida daromad foiz tushumlari va xarajatlar orasidagi farkni mumkin kadar oshirish eki uni juda bo`lmaganda barkaror darajada saklab turishdan iborat ekanligi ma`lum.

Kiska muddatli kreditlarga kuyidagilar kiradi:

1. Lombard.
2. Kontakorrent.
3. Overdraft.

Umuman Bankda kredit berish jarayoni karz oluvchilar sonini ancha kupaytirishga, mijozlarni moliyaviy axvolini xar tomonlama va chukur taxlil qilish, ishonchli mijozlarni tanlash asosida, kredit soxasida uchraydigan tavakallarni kamaytirish, kreditdan maksadga muvofik ravishda foydalanish, kredit olishga karatilgan takliflarni shu yunalishda taksimlash va qabo`l qilish, kreditning kaytarilishini ta`minlaydigan kushimcha shakllardan foydalanish tomonga yunaltirilgan. Mijozlar kredit olish uchun bankka kredit summasi, muddati, foiz stavkasi, maksadi, ta`minot turi ko`rsatilgan ariza, ta`sis xujjatlaridan nusxa, suralayotgan loyixa buyicha biznesreja, sunggi xisobot sanasiga to`zilgan va tasdiklangan balans xisobotlari takdim etishlari lozim.

Biznes-rejada loyixani amalga oshiruvchi buyicha tulik ma`lumotlar, kreditning maksadi va uning axamiyati, loyixa buyicha bozorning urganish natijalari, boshkaruv tizimi, mexnat resurslari, ishlab chikarishni tashkil etilishi va rejalashtirilishi, ishlab chikarish va boshka xarajatlar, ma`muriy boshkaruv xarajatlari, olinadigan daromad va foyda, loyixaga ta`sir etuvchi risk faktorlari, pul okimlari prognozi, kreditning kaytarish jadvali ko`rsatilishiga katta axamiyat beriladi.

Berilgan arizalar Universal Bank bo`limlari tomonidan 3 ish kuni mobaynida kurib chikiladi. Agar suralغان kredit mikdori bank bo`limlari uchun belgilangan chegaradan ortik bo`lsa, arizani kurib chikish uchun bosh bankka takdim etiladi.

Universal Bank bo`limlari uchun xududiy chegaralanish mavjud bo`lib, kuyi bo`limlar o`z joylashgan joylaridan 50 km radiusga kadar bo`lan xo`jalik yurituvchi sub`ektlarga kredit ajratishi mumkin. Ba`zi xollarda Bank Boshkaruvi ruxsati bilan ushbu chegara o`zgartirilishi mumkin. 2006 yil 1 fevraldan boshlab Universal Bank tomonidan chakana savdoni amalga oshirish maksadida beriladigan kreditlarning maksimal muddati 3 oy etib belgilangan.

2. Lizing operatsiyalari.

Lizing operatsiyalarining kichik va o`rta biznes sub`ektlari uchun kulay tomoni, ta`minot talab etilmaydi. SHuningdek, O`zbekistonning amaldagi Konunchiligiga asosan, lizingga olingan molmulklar uchun molmulk soligi lizing davri uchun tulanmaydi.

SHu bilan birgalikda, lizing operatsiyalarini amalga oshirish chogida, lizing ob`ekti texnologik uskuna bo`lib, import kilinadigan bo`lsa, bojxona tshlovi va KKS tshlashdan ozod etiladi.

3. Faktoring operatsiyalari

Koidalarda kredit berishning kuyidagi yangi shakllari ko`zda tutilgan:

- "kredit liniyasini ochmasdan" va "kredit liniyasini ochib" aloxida ssuda xisobvaragidan kredit berish;
- kontokorentkredit;
- overdraft;
- kimmatli kogozlarni garovga kuyib kredit olish (garovxona krediti);
- veksel' krediti.

Qisqa muddatli kreditlar quyidagi 3 ta asosiy ob`ektni kreditlashga yo`naltiriladi:

1. Tovar moddiy boyliklar.
2. Ishlab chiqarish xarajatlari.
3. Hisob kitoblar uchun zarur bo`lgan mablag'lar.

Qurilish uchun "oraliq" kreditlari bino va inshootlar, offislar, savdo markazlari va shu kabilarni qurish uchun beriladi. Aniqrog'i kredit, bino va inshootlarni qurishda kerak bo`ladigan qurilish

materiallari, qurish jihozlarini sotib olishga, quruvchi ishchilarni yollashga beriladi. Bu kabi kreditlar kredit oluvchining boshqa bir o`zoq muddatli ta`minoti ostida beriladi.

Qimmatli qog'ozlar dilerlariga kreditlar, davlat qimmatli qog'ozlari va xususiy qimmatli qog'ozlar dilerlari ba`zi vaqtlarda qisqa muddatlarda yangi qimmatli qog'ozlar sotib olish uchun mablag'ga ehtiyoj sezadilar. Bu kabi kreditlarni ko`pgina banklar "jon" deb taqdim etadilar. Sababi, bu kreditlar davlat qimmatli qog'ozlari bilan ta`minlangan bo`ladi. Bundan tashqari, bu kreditlar juda qisqa muddatlarga beriladi.(bir kundan bir necha kungacha).

CHakana tovaroborotga kreditlar. Banklar avtomobillar, elektrmaishiy jihozlar, mebellar va boshqa o`zoq muddat ishlatiladigan tovarlarni qarzga sotib olishni, dilerlar qarzga sotish shartnomasini imzolaganidan so`ng paydo bo`ladigan debitorlik qarzini moliyalashtirish orqali kredit beradi. Bu kabi kreditlashni debitorlik qarzini sotib olish deb ham izohlash mumkin.

Tijorat banklari tomonidan beriladigan barcha kreditlar uning kredit portfelida o`z ifodasini topadi.

Moliyalashtirish manbalariga va qarz oluvchining mintaqaviy o`rni va manziliga qarab tijorat banklarining kredit portfelini tasniflash mumkin. Tijorat banklari tasniflashni asosan milliy valyutada olib boradilar va ba`zi hollarda qayta moliyalashtirish va xususiy mablag'lari hisobidan beriladigan kreditlar, masalan, Milliy bank va shunga o`xshash banklarda qattiq valyutada ham ifodalanishi mumkin.

Hozirgi vaqtda markazlashtirilgan kreditlar davlatning qarorlariga asosan ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish uchun milliy valyutada beriladi. Qayta moliyalashtirish va bankning o`z mablag'lari hisobidan beriladigan kreditlar mijoz kreditga layoqatli bo`lganda milliy valyutada yoki xorijiy davlat valyutasida berilishi mumkin.

O`zoq muddatli kreditlar quyidagi kreditlash ob`ektlariga yo`naltirilishi mumkin:

- ishlab chiqarish ob`ektlarini qurish uchun;
- ishlab chiqarish ob`ektlarini qayta ta`mirlash, texnik qurollantirish va kengaytirish uchun;
- texnikalar, asbob uskunalar va transport vositalarini sotib olish uchun;

- yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish uchun;
- noishlab chiqarish sohasidagi ob`ektlarni qurish va hokazo.

17.4. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalari.

Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining yana bir turi fond operatsiyalaridir.

Turli qimmatli qog'ozlar uning ob`ekti bo`lib xizmat qiladi. Banklarning qimmatli qog'ozlar bo`yicha operatsiyalarining ikki turi ko`proq qo`llaniladi. Bo`lar qimmatli qog'ozlarni kreditning ta`minlanganligi uchun qabo`l qilish yo`li bilan ssudalar berish va ularni bank tomonidan o`z hisobiga sotib olish yo`li bilan operatsiyalar o`tkazish.

Qimmatli qog'ozlar ta`minoti bo`yicha ssudalar ularning to`liq bozor kursi qiymati bo`yicha emas, balki ularning ma`lum bir qismi (60-80%) bo`yicha beriladi.

Qimmatli qog'ozlar soxta kapitalni ifodalasada, ular bo`yicha ssudalar haqiqiy tovar ishlab chiqarish bilan bog`langan jarayonga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlardagi bank investitsiyalari ham mavjud bo`lib, bu holda bank turli emitentlardan qimmatli qog'ozlarni sotib oladi va bank qimmatli qog'ozlar portfeli vujudga keladi.

Bank tomonidan qimmatli qog'ozlarning xarid qilinishidan maqsad – bu qimmatli qog'ozlarni keyinchalik qayta sotish yoki kapitalning o`zoq muddatga qo`yilishi yo`li bilan foyda olishdan iborat.

Oxirgi yillarda Respublikaning ko`pgina tijorat banklari yuqori foyda olish maqsadida, davlatning xazina majburiyatlarini ko`p miqdorda sotib olishdi. Chunki qimmatli qog'ozlarning bu turi bankka kafolatlangan daromad keltiradi. Hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarning ta`minoti sifatida ko`chmas mulk, boshqa bank yoki sug'o`rta tashkilotining sug'o`rta kafolati ham qabo`l qilinishi mumkin. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari ichida kreditlash jarayoni asosiy o`rinni egallaydi. U quyidagi asosiy bosqichlarni o`z ichiga oladi:

- kredit olish uchun berilgan mijozning ariza talabnomasini ko`rib chiqish;
- qarz oluvchining to`lovga va kreditga layoqatliligini bank tomonidan o`rganib chiqilishi;
- kredit qo`mitasining qarori;
- kredit bitimini rasmiylashtirish;
- kredit berilishi;
- ssuda va u bo`yicha foiz to`lashning bank tomonidan nazorat qilinishi.

Kredit va uni to`lash jarayoni kredit shartnomasida ko`rsatilgan bo`lib, kredit va qarz oluvchi o`rtasidagi majburiyat va huquqlarni belgilab beradi. Unda kreditlashning maqsadi va ob`ekti, kredit miqdori, ssudani berish va uni to`lash muddati, kredit ta`minotining turlari, kredit uchun foiz stavkasi va boshqalar ko`rsatiladi. Ssudani to`lashni nazorat qilish bankning kredit portfelini muntazam tahlil qilish asosida olib boriladi va kreditlarning sifat darajasi aniqlanadi

Tijorat banklari o`z faoliyati davomida turli xil xizmatlar ko`rsatadilar. Tijorat banklarining bu xizmatlari ular uchun ma`lum daromad olib keladi. Bu daromadlar komission mukofot, o`tkazmalar va yig`imlar shaklida bo`lishi mumkin. Keyingi yillarda bank xizmatlarining turlari va miqdori o`sib, bu soha bank faoliyatining sezilarli yo`nalishiga, ularning daromadining manbalaridan biriga aylanib bormoqda. O`zbekistonda tijorat banklar faoliyatining tahlili shuni ko`rsatadiki, ba`zi banklar daromadlari tarkibida asosiy o`rinni har xil xizmatlardan keladigan tushumlar tashkil qiladi.

Keyingi yillarda tijorat banklari faoliyatida ijara yoki lizing (Leasing – ingl. «ijara») operatsiyalarini moliyalashtirish bilan bog`liq faoliyat turlari keng rivojlanmoqda. Bu operatsiyalarning mohiyati shundaki, banklar mashinauskuna, jihozlar, transport vositalarini sanoat korxonalariga o`zoq muddatli ijaraga beradi va ular bilan lizing shartnomalarini to`zadi. Bu holda bank vositalarni sotib olish uchun sanoat korxonalariga ssuda berish o`rniga ularni o`zi sotib oladi va iste`molchilarga ijaraga bergan holda egalik huquqini o`zida saqlab qoladi. Bunda bank ssuda foizini emas, balki ijara haqini (lizing to`lovini) oladi. Korxonalar uchun esa lizing investitsiyalarni moliyalashtirishning maxsus usullaridan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari o`z faoliyati davomida turli xil xizmatlar ko`rsatadilar. Tijorat banklarining bu xizmatlari ular uchun ma`lum

daromad olib keladi. Bu daromadlar komission mukofot, o`tkazmalar va yig`imlar shaklida bo`lishi mumkin. Keyingi yillarda bank xizmatlarining turlari va miqdori o`sib, bu soha bank faoliyatining sezilarli yo`nalishiga, ularning daromadining manbalaridan biriga aylanib bormoqda. O`zbekistonda tijorat banklar faoliyatining tahlili shuni ko`rsatadiki, ba`zi banklar daromadlari tarkibida asosiy o`rinni har xil xizmatlardan keladigan tushumlar tashkil qiladi.

Keyingi yillarda tijorat banklari faoliyatida ijara yoki lizing (Leasing – ingl. «ijara») operatsiyalarini moliyalashtirish bilan bog`liq faoliyat turlari keng rivojlanmoqda. Bu operatsiyalarning mohiyati shundaki, banklar mashinauskuna, jihozlar, transport vositalarini sanoat korxonalariga o`zoq muddatli ijaraga beradi va ular bilan lizing shartnomalarini to`zadi. Bu holda bank vositalarni sotib olish uchun sanoat korxonalariga ssuda berish o`rniga ularni o`zi sotib oladi va iste`molchilarga ijaraga bergan holda egalik huquqini o`zida saqlab qoladi. Bunda bank ssuda foizini emas, balki ijara haqini (lizing to`lovini) oladi. Korxonalar uchun esa lizing investitsiyalarni moliyalashtirishning maxsus usullaridan biri hisoblanadi.

Lizing operatsiyalarida uch sub`ekt – ijaraga beruvchi, ijaraga oluvchi va mol etkazib beruvchi ishtirok qiladi.

Ijaraga beruvchi bu – moliyaviy xarakterdagi vazifani bajaruvchi, ixtisoslashgan moliyaviy (lizing) korxonadir. Lizing, eng avvalo, moliyaviy investitsiyalarning vositasi va ishonchli moliyaviy manbalarni talab qilgani uchun jahon amaliyotida lizing kompaniyalari banklar tomonidan nazorat qilinadi yoki ularning sho`ba korxonalari bo`ladi.

Ijaraga oluvchi – ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun vositalarni ijaraga oluvchi ishlab chiqarish yoki savdo korxonasidir.

Mol etkazib beruvchi tomon lizing shartnomasi ob`ektini ishlab chiqaruvchi korxonalar yoki tashkilot bo`lib, u ishlab chiqarish yoki savdo korxonasi sifatida bo`lishi mumkin.

Odatda, mol etkazib beruvchi va ijaraga oluvchi tijorat shartnomasining asosiy shartlarini ishlab chiqadi. SHu bilan bir qatorda, ijaraga beruvchi (bank) moliyalashtirish shartlarini o`rganib chiqadi va ijaraga oluvchi bilan ijara shartnomasini imzolaydi.

Moliyalashtirish masalasini hal qilishda bank mijozning daromad darajasini o`rganib chiqadi. Lizing ob`ektidan to`g`ri va samarali foydalanish imkoniyatlarini ba`zida mutaxassislar ko`rib

chiqishi va qo`shimcha kafolatlar talab etilishi mumkin. SHartnomada lizing operatsiyalari bo`yicha ijara muddati, miqdori, valyutasini, ijara haqini to`lash muddati va shartlari, ijaraga olinuvchining vositaning (asbob-uskunaning) tarkibi, ishga yaroqligi bo`yicha majburiyatlari va boshqa ko`rsatkichlar o`z ifodasini topishi lozim.

Amaliyotda lizingning bir necha turlari qo`llaniladi. Bo`lar operativ yoki ishlab chiqarish lizingi, moliyaviy lizing va boshqalardir.

Operativ lizing ko`proq ishlab chiqarish davri bilan bog`liq bo`lib; ob`ekt qisqa davrga, ya`ni uning hayotiy yaroqlilik davridan qisqaroq vaqtga ijaraga beriladi. Bu holda ob`ektning amortizatsiyasi (eskirishi) to`liq amalga oshmaydi, ya`ni ob`ektni yana bir necha marta ijaraga berish imkoniyati saqlanib qolinadi.

Tijorat banklari va ularning lizing kompaniyalari tomonidan, odatda, ko`proq moliya lizing operatsiyalari o`tkaziladi. Lizingning bu turi eng ko`p tarqalgan lizing shakllaridandir. U shartnomaning o`rta va o`zoq muddatligi bilan tavsiflanadi. Bunda amortizatsiya to`liq bo`lishi yoki ijara ob`ekti qoldiq bahoda qaytarib berilishi mumkin. Bu haqda ijaraga oluvchi ijara muddati tugashidan oldin e`lon qiladi.

Moliyaviy lizing haqiqatda ijara ob`ektini o`zoq muddatli kreditlash bo`lib, oddiy savdosotiqdan (egalik huquqi xarid vaqtida iste`molchiga o`tadi) farq qiladi. Lizing kompaniya asosiy vositalarni ijaraga oluvchi korxonaning ko`rsatmasiga binoan sotib oladi. Uni shu korxonaga o`zoq yoki o`rta muddatga (3, 5, 7 yilga) ijara shartnomasiga asosan sotishi va lizing muddati tugagandan keyin qoldiq bahoda sotib olish huquqi bilan ijara shartnomasini tuzishi mumkin.

Tijorat banklarining moliyaviy operatsiyalarining yana bir turi bu faktoring operatsiyalari hisoblanadi. Bu operatsiyalar butun xo`jalik ko`lamida to`lovlar aylanishini amalga oshirish bilan bog`liqdir. Faktoring (ingl. Factor – vositachi) – hisob-kitoblarni tashkil etish sohasidagi yangi xizmat turlaridan bo`lib, mijozning aylanma kapitalini kreditlash bilan muvofiqlashadi. Bunday operatsiyalarni chet ellarda, odatda, maxsus faktoring kompaniyalari amalga oshiradilar. Ular banklar bilan bog`liq yoki ularning ixtisoslashgan sho`bbalari va kompaniyalari hisoblanadi.

Moliyaviy aktivlar miqdorining o`sishi bilan rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining ishonch (trast ing. Trust“ishonch”)

operatsiyalarining hajmining oshishiga olib kelmoqda. Bankning bu xizmatlari bank bilan mijoz o`rtasida ishonchlilik munosabatlarining o`rnatilishi bilan bog`liq. Tijorat banklarining trast bo`limlari, mijozlar topshirig`i bo`yicha uning nomidan asosan mulk egaligi bilan bog`liq va boshqa xizmatlarni bajaradi. Banklar trast operatsiyalarini xususiy korxonalar va firmalar, shaxslar va boshqa tashkilotlar uchun amalga oshiradi. Trast operatsiyalarini uch turga bo`lish mumkin: dalolatnoma, g`amxo`rlik bilan bog`liq operatsiyalar va vositachilik xizmatlari bo`yicha ko`rsatiladigan operatsiyalardir.

Merosni boshqarish bilan bog`liq trast operatsiyalari xususiy shaxslar dalolatnomasi bo`yicha amalga oshirilib, bankning trast bo`limi qator majburiyatlarni o`z zimmasiga oladi. Ularning asosiylariga: merosxo`rning merosini sud qarori yoki meros xati asosida to`plash, boshqaruv ma`muriy xarajatlarini to`lash, merosxo`rlar o`rtasida merosni bo`lishi va shu oila a`zolariga xususiy xizmatlarni ko`rsatish kiradi.

Bank kreditlashga oid yana bir usul, qimmatli qog`ozlarni qayta sotib olish sharti bilan oldisotdi operatsiyasi yoki qisqacha "repo" operatsiyasidir. Ushbu operatsiyalar odatda qisqa muddatli kreditlashda qo`llaniladi. Agar korxonalar yaqin kelgusida erkin pul mablag`larini kiritayotgan va o`sha qimmatli qog`ozlarga investitsiya qilishni rejalashtirayotgan bo`lsa, ushbu vaqt ichida bahzibir xarajatlarni qayta moliyalashtirish yoki agar qimmatli qog`ozlarni korxonalar sotishni istamasa va foiz stavkalarini bozorda pasayishini kutib, ushbu qog`ozlarni kredit evaziga foiz to`lashdan ko`ra, kattaroq daromad olishi kutilayotgan bo`lsa, u holda, yuqorida aytilganidek, qisqa muddatli kreditlash amalga oshiriladi.

Operatsiya mazmuni, bank korxonalarini o`sha vaqtda bozordagi narxdan arzonroq narx bilan sotib oladi va sotish narxidan xam yuqoriroq narxda sotadi, shunda narxlar o`rtasidagi tafovut bankka qisqa muddatli kreditlash stavkasidan xam pastroq daromadni tahminlaydi. Buning bank uchun foydali jixati, bank qimmatli qog`ozlarni bozor narxidan arzonroq sotib olib, foiz stavkalarida bo`ladigan to`lovga muqobilligi yuzaga kelganda, bank qog`ozlarni qaytib sotib oladi.

Hozirgi banklar aktsiyador tijorat banklari sifatida tashkil qilinib, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlashga moslashgan va ular ixtisoslashgan banklar bo`lsada, boshqa tarmoqlardagi mijozlarga ham

kredit va hisobkitoblar bo'yicha xizmat ko'rsatishlari mumkin. Banklar faoliyatining universallasuvi ular o'rtasida raqobatning yuzaga kelishiga, bu esa ularning bozor iqtisodiyotiga barqaror kirib borishini ta'minlaydi.

- Bank aktsiyadorlarini moddiy jihatdan manfaatdorligini oshirish va ularning bank Boshqaruvidagi ishtirokini faollashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar.

a) Bank aktsiyadorlarining moddiy manfaatdorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan muammo) Bank aktsiyadorlarining bank boshqaruvidagi ishtirokini faollashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammo

1998 yil 2 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aktsiyadorlik-tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq:

ustav kapitalida davlatga tegishli aktsiyalar paketi 25 foizdan ortiq bo'lgan tijorat banklarining bank kengashi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan ishonchli vakil kiritiladi, uning zimmasiga mazkur aktsiyalar paketini boshqarish vazifasi yuklatiladi;

aktsiyadorlik-tijorat banki Kengashi bank filiallarining Boshqaruvi va rahbarlar bilan birgalikda bankni samarali boshqarishni tashkil etish, kreditlar berilishi va ularning o'z vaqtida qaytarilishi uchun javobgar hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari va ularni amalga oshirish asoslarini yoritib bering?

2. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari va ularning barqarorligini iqtisodiy mohiyatini tushuntiring?.

3. Tijorat banklarining kredit operatsiyalarini tushuntirib bering?

4. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalarini tushuntirib bering?

5. Tijorat banklarining komission-vositachilik operatsiyalarini ochib bering?

6. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan emission operatsiyalarini, banklarning ssuda kapitallari bozorida resurslar jalb etish operatsiyalarini yoritib bering?

18-MODUL. NOBANK KREDIT TASHKILOTLARI VA ULARNING TURLARI

18.1. Nobank kredit tashkilotlari va ularning zarurligi. Nobank kredit tashkilotlarining aktiv va passiv operatsiyalari.

18.2. O`zbekistonda nobank kredit tashkilotlari. Nobank kredit tashkilotlarining turlari va ular faoliyatining zarurligi. Nobank kredit tashkilotlarining resurs bazasini shakllanishi.

18.3. Nobank kredit tashkilotlari ustav kapitalining eng kam miqdoriga qo`yiladigan talablar. Nobank kredit tashkilotlarining aktiv operatsiyalari.

18.4. Nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish tizimi. O`zbekistonda nobank kredit tashkilotlari va ular faoliyatining yo`nalishlari.

18.1. Nobank kredit tashkilotlari va ularning zarurligi. Nobank kredit tashkilotlarining aktiv va passiv operatsiyalari.

Nobank kredit tashkilotlari deganda tor doirada ixtisoslashgan va alohida bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqi bo`lgan kredit tashkiloti tushuniladi.

Biroq, nobank kredit tashkilotlari har qanday bank operatsiyasini amalga oshira olmaydi. Masalan: ular tijorat banklari amalga oshiradigan quyidagi muhim operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega emas:

1. Yuridik va jismoniy shaxslarga hisob –raqam ochish va yuritish
2. Yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag`larini depozit hisob-raqamlariga jalb etish
3. Mazkur pul mablag`larini o`z nomiga joylashtirish

Har qanday mamlakatning kredit tizimining asosiy bo`g`ini bo`lib tijorat banklari hisoblanadi. Ammo tijorat banklari harqanday operatsiyani yuksak darajada bajara olmaydi. SHu sababli alohida bank operatsiyalarini bajarishga ixtisoslashgan kredit tashkilotlari paydo bo`ldi .

Xalqaro amalyotda nobank kredit tashkilotlariga quyidaglar kiradi:

1. Kredit uyushmalari. Ular faqat o'z-o'zlariga depozit qabul qiladi va o'z-o'zlariga kredit beradi.

2. Mikrokredit tashkilotlari. Mikrokredit tashkilotlar aholining iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan aktiv ammo kam ta'minlangan qatlamlariga kredit beradi. Ular depozit va omonatlar qabul qilish huquqiga emas.

3. Lombardlar oltin va tilla taqinchoqlarni garovga olish yo'li bilan kredit beradi.

4. Lizing kompaniyalari

5. Faktoring kompaniyalari.

Lizing kompaniyalari bahosi yuqori va muddatli foydalaniladigan tovarlarni to'la qiymatda sotib olib ularni lizingga beradi.

a) Moliyaviy lizing

b) Operativ lizing

Faktoring kompaniyalari tovarlar bilan bog'liq hujjatlarni sotib olish, ularni rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobida yuritish bilan shug'ullanadi.

Kliring muassasalari. Kliring palatalari banklar o'rtasida to'lov instrumtlari bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

- Kredit koperativlari ma'lum bir sohada faoliyat yuritayotgan subektlarni kreditlash maqsadida tashkil etilgan.

- Pensiya fondi

- Inkossatsiya tashkilotlari. Bu tashkilotlar naqd pullardan va to'lov hujjatlarini inkossatsiya qilish bilan shug'ullanadi. Lekin O'zbekistonda bunday tashkilotlar yo'q. Respublikamizda naqd pullarni inkassatsiya "Respublikamiz inkassatsiya birlashmalari" tomonidan amalga oshiradi.

- Sug'urta kompaniyalari.

Nobank kredit tashkilotlari faoliyatidagi quyidagi xususiyatlariga ega: Nobank kredit tashkilotlari faqat alohida olingan bank operatsiyalarini amalga oshirdi. Nobank kredit tashkilotlari faoliyati tor doirada ixtisoslashgan bo'ladi. Bu ularni raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatini beradi. Chunki nobank kredit tashkilotlari bitta sohada sifatli va arzon bitta mahsulot yarata oladi. Nobank kredit tashkilotlari faoliyati past riskli hisoblanadi. Nobank kredit tashkilotlari faoliyati Markaziy Bank tomonidan Tijorat banklari faoliyati kabi qattiq nazorat qilinmaydi

Nobank kredit tashkilotlarining resurs bazasi quyidagi manbalardan tashkil topadi:

- a)Ustav kapitali
- b)Boshqa tashkilotlarga berilgan moliyaviy yordam
- c)O`zining a`zolaridan jalb qilingan pul mablag`lari
- d)Tijorat banklarining kreditlari
- e)Sof foyda
- f)Foyda hisobidan shakllantirilgan zaxiralar
- g)O`tgan yillarning taqsimlanmagan goydasi

Nobank kredit tashkilotlarining aktiv operatsiyalari ularning faoliyati yo`nalishlariga mos ravishda shakllanadi. Masalan: Kredit uyushmalari o`zlariga a`zo bo`lgan subektlarni kreditlash maqsadida tashkil etiladi. SHu sababli kredit uyushmalari bitta aktiv operatsiyaga ega. U ham bo`lsa kredit operatsiyasidir.

Mikrokredit tashkilotlari aholining iqtisodiy lekin kambag`al qatlamlariga kredit beradi. Mikrokredit tashkilotlarining asosiy aktiv operatsiyasi bu kichik summada, past foiz stavkasida kredit berish operatsiyasidir.

Faktoring kompaniyasi jo`natilgan tovarlar va ko`rsatilgan xizmatlar bo`yicha debitor qarzdorlarini inkassatsiya qilish bilan shug`ullanadi. Ular Tovar hujjatlarini 2 ta shart asosida regress huquqi bilan va regress huquqsiz sotib oladi .

Tovar hujjatlari regress huquqi bilan sotib olingan to`lovchi to`lovga noqobil bo`lib qolganda faktoring kompaniyasiga to`lovni mol etkazib beruvchiga undirish huquqi saqlanib qoladi.

Agar tovar hujatlari regress huquqsiz sotib olinsa , to`lov riski to`liq ya`ni 100 % faktoring kompaniyasining zimmsida qoladi. CHunki to`lovchi to`lovga noqobil bo`lib qolganda factoring kompaniyasi to`lovni undirish bo`yicha mol etkazib beruvchiga murojat qila olmaydi.

O`zbekiston Respublikasida faktoring kompanyalari mavjud emas. Faktoring operatsiyalarini tijorat banklari bajaradi. Ammo ular tovar hujjatlarini regress huquqi bilan sotib olish mumkin emas. Bundan tashqari, O`zbekiston bankalari faktoring operatsiyalarini amalga oshirilayotganda bu operatsiyalarning buxgalteriya hisobini yuritmaydi. Xolbuki taraqqiy etgan mamlakatlarda factoring kompaniyalari faktoring operatsiyalarining buxgalteriya hisobini ham yuritadi.

Lizing kompaniyalari uzoq muddatli kreditlar bozorida tijorat banklari bilan raqobat qila oladi . Ular bahosi yuqori va uzoq muddat faydalaniladigan tovarlarni uzoq muddatli ijaraga beradi. Lizing shartnomalarining o`rtacha muddati 3-5 yilni tashkil qiladi. Ammo lizing kompaniyalarining zaif jihati bor , ya`ni lizing kompaniyalarida resurslar etishmaydi. Ular faoliyatini asosan o`z mablag`lari hisobidan moliyalashtirishga majbur. SHu sababli ular tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlarini keng ko`lamda jalb qiladilar.

O`zbekiston Respublikasida lizing operatsiyasi bilan tijorat banklari va lizing kompaniyalari shug`illanadi. Asosiy muommo shundaki, to lizing obekti lizing-oluvchi tomonidan qabul qilib olinmagunga qadar tijorat banklari lizing kreditiga foiz hisoblay olmaydi.

Kliring uylari (palatalari) nobank kredit tashkiloti hisoblanadi va ular chek va hosilaviy qimmatli qog`ozlar bo`yicha o`zaro hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

Kliring palatasi har bir ishtirokchi bankka schyotlar ochadi. Bu schyotlar mazmuniga ko`ra aktiv-passiv schyotlar hisoblanadi, ya`ni bu schyotlar debitli qoldiqqa ham ega bo`lishi mumkin, kreditli qoldiqqa ham ega bo`lishi mumkin. Kliring palatasi bir ish kuni mbaynida barcha hisob-kitoblarni amalga oshiradi va ish kuni so`ngida har bir bankka uning hisob-raqamidan ko`chirma beradi. Agar bank ko`chirmani debitli qoldiq bilan olgan bo`lsa , demak unga to`la berishadi.

Ko`pchilik mamlakatlarda nobank kredit tashkilotlari faoliyati markaziy bank Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Ammo Angliya, Germaniya, Lyuksenburg kabi mamlakarlarda nazorat funktsiyasiga ega emas. SHu sababli ushbu mamlakatlarda nobank kredit tashkilotlarining faoliyati moliya bozorining rugulyatori tomonidan nazorat qilinadi. Nazorat jarayonida nobank kredit tashkilotlarining ustav kapitalining minimal miqdoriga nisbatan talablar qo`yiladi.

O`zbekiston Respublikasida Lombard ochish uchun minimal ish haqining 40 baravarining miqdorida pul mablag`lari kerak. Mikrokredit tashkiloti uchun 100 ming evro ekvivalenti miqdorida pul mablag`lari kerak. Iqtisodiy adabiyotlarda olimlarnig bir guruhi “Mikrokredit tashkilotlarining faoliyati nazorat qilinmasligi kerak” degan fikrni ilgari surishadi. Kredit uyushmalari taraqqiy etgan

mamlakatlarda tijorat banklari bilan raqobat qila oladigan darajada shakllangan kredit muassasalari hisoblanadi. Ular o'z a'zolaridan depozitlar qabul qilish huquqiga ega. SHu sababli ularning faoliyati nazorat organlari tomonidan qattiq nazorat qilinadi.

18.2. Nobank kredit tashkilotlarining resurs bazasini shakllanishi.

Ilk marotaba kredit kooperativini tashkil etish kontseptsiyasi 1850 yilda Germaniyada, aholining kam ta'minlangan qatlamlarining moliyaviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida paydo bo'lgan. Tegirmonchi va novvoylarning dastlabki kooperativ kredit jamiyatini tuzgan German SHultse-Delich va kredit uyushmalari faoliyatining asosiy qoidalarini birinchi bo'lib bayon etgan hamda keyinroq kredit uyushmalari federatsiyasi (assotsiatsiyasi)ni shakllantirishga ko'mak bergan Frederik Rayfayzen kooperativ harakatiga asos solganlar. Frederik Rayfayzen bu inson birinchi bo'lib kredit uyushmalar uchun faoliyat printsiplarini yozadi va keyinchalik KREDIT UYUSHMALARI ASSOTSIATSIYASINI tashkil etadi. Bu assotsiatsiyani tashkil etib, yangi ochilgan kredit uyushmalarni qonun, mijozlar bilan ta'minlash bilan shug'ullangan.

Kredit uyushmalari – kooperativ moliya tashkiloti bo'lib, u uyushma a'zolariga tegishli va ularga demokratik printsiplar asosida xizmat ko'rsatadi. Kredit uyushmasining maqsadi jamg'armalarni jalb qilish, umumiy mablag'lardan a'zolarga kreditlar berishda foydalanish va uyushma a'zolarining moliyaviy ahvolini yaxshilovchi boshqa moliya xizmatlarini ko'rsatishdan iborat.

Kredit uyushmalarni ro'yxatdan o'tkazish va litsenziya berishni amalga oshiruvchi organ bo'lib “Markaziy bank tug'risida”gi qonunga binoan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki amalga oshiradi. YUkorida aytilganidek, kredit uyushmalarining asosiy maksadi bo'lib o'zining a'zolariga yuqori sifatli va tezkor xizmatlar ko'rsatishdan iboratdir.

Markaziy bank to'g'risidagi qonunga, “Kredit uyushmalari to'g'risida”gi qonunga ko'ra kredit uyushmalari faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tartibga soladi. U kredit uyushmalari uchun majburiy bo'lgan moliya operatsiyalarini o'tkazish, buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish qoidalarini belgilaydi.

Quyidagi xujjatlar kredit uyushmalari faoliyatini tartibga soladi:

- O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi;
- O`zbekiston Respublikasi “Kredit uyushmalari tug`risida”gi qonuni;
- O`zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining me`yoriy hujjatlari.

Kredit uyushmasining ta`sis hujjati bo`lib uning ustavi hisoblanadi. Ustav kredit uyushmasi muassislarining umumiy yig`ilishida qabul qilinishi kerak. Kredit uyushmasi a`zosi, auditor, istalgan manfaatdor shaxsning talabiga ko`ra kredit uyushmasi unga ustav bilan tanishish imkoniyatini berishi shart.

Bozor ehtiyojlaridan kelib chiqib faoliyat yuritadigan kredit uyushmasi o`z ishtirokchilariga moliyaviy mahsulot va xizmatlar taqdim etadi – ya`ni, u siyosat yoki hukumatga emas, balki ishtirokchilarga mo`ljallangan. Kredit uyushmasining faoliyati moliyaviy subsidiyalarga bog`liq emas. Kreditlash uchun mo`ljallangan mablag`larning asosiy manbai jamg`arma depozitlari hisoblanadi. Ushbu mablag`larning o`shishi jamg`armalarni safarbar qilishning o`shishiga, kredit uyushmasining ichida esa – kapitallashtirish (taqsimlanmagan foyda) orqali o`shishga bog`liqdir.

Kredit uyushmasi (KU) kooperativ bo`lib, unga a`zo bo`lgan har bir kishi uning sherik egasiga aylanadi. Sizning uyushmadagi pay hisob varag`ingiz sizning “ulushingiz”ni bildiradi. Biroq pay badallari birjadagi kursi o`shishi yoki tushib ketishi mumkin bo`lgan aksiyalardan farq qiladi. Pay badallari hisob varaqlari bo`yicha dividendlar to`lanadi. Kredit uyushmasi kooperativ bo`lganligi sababli u amalda ishlab topilgan ortiqcha foydanigina taqsimlay oladi.

18.3. Nobank kredit tashkilotlarining aktiv operatsiyalari.

Ixtisoslashtirilgan banklarning turdagi sifatida investitsiya, jamg`arma, rivojlanish va tarakkiyot banklarini keltirish mumkin. Kredit tizimining yana bir kismi nobank kredit muassasalari bo`lib, davlat va korxonalarini moliyashtirishi, uzok muddatli kreditlash bilan shug`ullanadi. Uzbekistonda 1997 yilda nobank kredit tashkilotlari to`g`risida qonun loyixasi ko`rib chiqildi. Sug`urta kompaniyalari, nafaka fondlari va boshqa fondlarning mablag`laridan oqilona foydalanish va bu mablag`larning samaradorligini ta`minlash

masalasi qo'yilgan. Xar bir mamlakatning kredit tizimi o'z xususiyatiga ega bo'lib, rivojlangan yirik universal banklar tarmoklarining ko'pligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Germaniya bank tizimi eng yukori darajada rivojlangan davlat xisoblanadi. Quyidagi sxemadagi Germaniya bank tizimi keltiriladi. **Germaniyaning** kredit tizimi boshida Bundesbank turadi.

Markaziy bank - kredit tizimining bosh banki bo'lib, mamlakatda pul-kredit siyosatini, emissiya jarayonlarini olib boradi.

Birinchi Markaziy banklar bundan qariyb uch yuz yil oldin tijorat banklarining rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Bular 1668 yilda tashkil qilingan SHved Riks banki, 1694 yilda tashkil qilingan Angliya banklaridir.

Evropa mamlakatlarida Markaziy banklar ancha kechroq asosan 18 asrning ikkinchi yarmidan boshlab faoliyat ko'rsata boshlagan.

Banklar paydo bo'lishining boshlang'ich davrlarida ular markaziy emissiya yoki tijorat banklari tariqasida yuzaga kelgan emas, ya'ni shular o'rtasida xozirgidek bo'linish bo'lmagan. Bank ishi ivojlanishining birinchi bosqichlarida rivojlantirgan mamlakatlarda ijorat banklari kapitallarni yigish maksadida muomalaga banknotalar chikarganlar. Banklarning yiriklashuvi, bank ishining rivojlanishi natijasida banknotalarni muomalaga chikarish yirik tijorat banklar qo'lga o'ta borgan va keyinchalik biror yirik bank ixtiyoriga berilgan. Bu bank milliy yoki emission bank keyinchalik Markaziy bank deb atalgan. Markaziy bank ya'ni kredit tizimini boshqarib turuvchi, barcha banklar faoliyatini nazorat qilib turuvchi kredit instituti sifatida namoyon bo'ladi.

18.4. Nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish tizimi.

Kredit uyushmasi a'zolarining umumiy yig'ilishi:

- ustavga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritadi, ustav fondini ko'paytirish yoki kamaytirishga doir o'zgartirishlar bundan mustasno;
- daromadning bir qismini kredit uyushmasining a'zolariga to'lash tartibini tasdiqlaydi;
- kredit uyushmasi a'zolari orasidan kengash, kredit qo'mitasi, taftish komissiyasi a'zolarini saylaydi, ularning vakolatlarini bekor qiladi;

- yillik moliyaviy hisobotni, kengash, ijroiya organi, kredit qo`mitasi va taftish komissiyasining hisobotlarini tasdiqlaydi;
- auditorlik tashkilotini va u bilan shartnoma tuzish shartlarini belgilaydi;
- kredit uyushmasini tugatish va qayta tashkil etish to`g`risida qaror qabul qiladi.

Hozirgi kunga kelib Resbulika hududida 30dan ortiq kredit uyushmalari faoliyat ko`rsatishmoqda, undan tashqari davlat va kredit uyushmalari orasidagi aloqani yanada yaqinroq va tezroq amalga oshirish maqsadida “O`zbekiston Respublikasi Kredit Uyumalari Assotsiatsiyasi” tashkil etilgan.

Xavfsiz va moliyaviy barqaror institut bo`lishi uchun omonat kredit uyushmasi ishtirokchilarning jamg`armalarini himoya qilish maqsadida operatsiyalarni amalga oshirayotganda har tomonni o`ylab ish tutishi kerak. Butun dunyoda faoliyat ko`rsatayotgan kredit uyushmalarini takomillashtirish kredit uyushmalari faoliyatining samaradorligini ta`minlaydigan moliyaviy boshqaruv hamda ichki nazorat tizimini barpo etish yo`li bilan amalga oshirilib, institutning xavfsizligi va barqarorligiga qaratilgan va shunga asosiy e`tiborni beradi.

Kredit uyushmasi ishlab chiqarish, sug`urta, savdo-vositachilik hamda ushbu Qonunda nazarda tutilmagan boshqa faoliyat bilan bevosita shug`ullanishga haqli emas” deb aytilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Nobank kredit tashkilotlari va ularning zarurligi va ularning aktiv va passiv operatsiyalarini tushuntirib bering?
2. O`zbekistonda nobank kredit tashkilotlari, ularning turlari, zarurligi va resurs bazasini shakllanishini yoritib bering?
3. Nobank kredit tashkilotlari ustav kapitalining eng kam miqdoriga qo`yiladigan talablar hamda ularning aktiv operatsiyalarini yoritib bering?
4. Nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish hamda O`zbekistonda nobank kredit tashkilotlarining yo`nalishlarini izohlab bering?

19-MAVZU. KREDIT TIZIMI VA UNING BARQARORLIGIGA TA`SIR QILUVCHI OMILLAR

19.1. Kredit tizimining mazmuni va tarkibi. Kredit tizimining elementlari. Kredit tizimining turlari.

19.2. Kredit tizimining barqarorligiga ta`sir qiluvchi omillar. “Kredit tizimi” tushunchasining mazmuni. Kredit tizimining tarkibi. Kredit tizimining elementlari.

19.3. Kreditlashni tashkil qilish printsiplari. Kredit tizimining turlari: markazlashgan kredit tizimi; bozor kredit tizimi; o`tish davri kredit tizimi.

19.4. Kredit tizimining holatini tavsiflovchi ko`rsatkichlar. Kredit tizimini tartibga solish va nazorat qilish. Kredit tizimining barqarorligiga ta`sir etuvchi omillar.

19.1. Kredit tizimining mazmuni va tarkibi. Kredit tizimining elementlari. Kredit tizimining turlari.

Hozirgi kunda farqlarning yo`qolishi va banklar tomonidan funktsional va yuridik xususiyatlarni bekor bo`lishi asosan yirik tijorat banklarida sezilarli amalga oshmoqda. SHu qayd qilish lozimki yirik banklarning universallasuvi va global yo`nalishlarining olib borilishi kichik banklarning, maxsus kredit tashkilotlariga ya`ni ma`lum turdagi operatsiyalarga moslashgan tashkilotlarga aylanishiga sabab bo`lmokda. Bu esa ko`pgina mamlakatlarda faoliyot ko`rsatayotgan ko`p boskichli bank tizimiga xos xususiyatdir.

Bugungi kunda banklarning ko`p pog'onali bo`lishi ularning tashkiliy tuzilishiga bog`liq.

Ammo, rivojlangan mamlakatlarga bir yoki ikki pog'onali bank tizimi xosdir.

Bir pog'onali bank tizimi varianti mamlakatda yagona markaziy bank xali mavjud bulmasa yoki bitta markaziy bankdan iborat bo`lsagina rsal (xaqiqatda) mavjud bo`lishi mumkin.

Ammo tsivilizatsiya darajasidagi bozor iqtisodiyoti sharoitiga ikki pog'onali bank tizimi xos. Bunda birinchi pog'ona banklari-bu Markaziy bank, ikkinchi quyi pog'ona esa-tijorat banklari va kredit tashkilotlaridir.

Markaziy bank-bank tizimi mavjud bo`lgan barcha davlatlar pul-kredit tizimining asosini tashkil qiladi. Markaziy bankning moliya bozoridagi o`rni mamlakatda bozor munosabatlarining rivojlanish darajasiga va xususiyatiga bog`liq.

Bu esa o`z navbatida ikki pog`onali bank tizimini shakllanishiga asosiy omil bo`lib hisoblanadi. Chunki buning tepasida Markaziy bank bo`ladi.

Ikki pog`onali bank tizimining zarurli bozor munosabatlarining qarama-qarshiliklaridan kelib chiqadi. Bir tomondan, bu xususiy moliya mablag`laridan erkin foydalanish huquqini talab qiladi. Bu kuyi pog`ona banklar-tijorat banklari orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi tomondan, bu munosabatlarni ma`lum miqdorda tartibga solish nazorat qilish maqsadli yo`naltirish zarur. Bunday maxsus institut sifatida Markaziy bank yuzaga chikadi.

Kredit tizimi bu kreditning barcha xususiyatlarini o`z ichida ichida nomoyon etadigan va kreditning mohiyatini belgilashga xizmat qiladigan elementlarining yig`indisidir.

Kreditning qaytarib berishlik, muddatlilik, foiz to`lashlilik xususiyatlari hamda kredit munosabatlarini kredit beruvchi va kredit oluvchi o`rtasida ixtiyoriy yuzaga kelishi kabi xususiyatlar amaliyotda o`z aksini topgan bo`lishi kerak.

Kredit tizimi tarkibiy jihatdan 3 qisimdan iborat:

1. Bank tizimi
2. Nobank kredit tashkilotlari
3. Maxsus iqtisodlashgan kredit muassasalari

Maxsus iqtisodlashgan kredit muassasalariga Faktoring kompaniyalari, Forfeyting kompaniyalari, lizing va trast kompaniyalaridir. Bu muassasa moliya bozorining ma`lum segmentida faoliyat ko`rsatadi va tijorat banklari bilan raqobat qiladi. Masalan, Faktoring kompaniyalari Faktoring xizmatlari bozorida, Lizing kompaniyalari lizing bozorida tijorat banklari bilan raqobat qiladi. Lekin har qanday mamlakatda kredit tizimining yadrosini bank tizimi tashkil qiladi. Bu esa quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

1. Markaziy bank kredit tizimini tartibga solish va nazorat qilish vakolatiga ega ekanligi;

2. Tijorat banklarini depozit qabul qilish va hilm xil moliyaviy xizmatlar ko`rsatish vakolatiga ega ekanligi;

3. Tijorat banklari qudratli moliyaviy institutlar ekanligi.

Kredit tizimi quyidagi elementlardan iborat:

1. Kredit
2. Kreditning printsiplari
3. Kredit munosabatlarining ishtirokchilari
4. Kreditning qonunlari

5. Kreditning chegaralari. Berilayotgan kreditlarning yuqori va quyi miqdorlariga nisbatan o`rnatiladigan cheklovlardir. Kredit chegaralari iqtisodiyot tarmoqlari bo`yicha, mijozlar guruhi bo`yicha, kreditlash shakllari bo`yicha va kreditning turlari va shakllari bo`yicha belgilanadi. Masalan, tijorat banklari tomonidan kredit portfelining diversifikatsiya darajasini ta`minlash uchun bitta tarmoqqa beriladigan kreditlar bo`yicha 25% li cheklov o`rnatiladi. Bu cheklov tijorat banklarining kredit siyosatida aks ettiriladi. Bundan tashqari tijorat banklarida kreditlarning tarmoq limitlari qo`llaniladi. Masalan, O`zbekistonda tijorat banklari bitta mijozga yoki o`zaro bog`liq mijozlar guruhiga o`zini birinchi darajali kapitalining 5% igacha ta`minlanmagan kreditlar bera oladi. Overdraft krediti bo`yicha kreditning eng yuqori chegarasi mijozning joriy hisobraqamining debetli qoldig`i summasi bilan belgilanadi. Kreditning turlari bo`yicha kreditning chegaralari aniq belgilanadi. Masalan, aylanma mablag`larni to`ldirish uchun beriladigan qisqa muddatli kreditlarning chegarasi korxonaning o`z mablag`lari manbalarining etishmagan summasi bilan belgilanadi. YOki ipoteka kreditlarining chegarasi uy-joy qiymatining 75% igacha bo`lgan qismi bilan belgilanadi.

Kreditlash mexonizmi. Bu mexanizm kreditni berishdan to uni qaytarishgacha bo`lgan jarayonlarni amalga oshirish tartibini belgilaydi. Xususan, kredit shartnomasi, kredit mexanizmida asosiy o`rinni egallaydi.

Kredit infratuzilmasi 2 qismdan iborat:

- a) huquqiy infratuzilma
- b) instituttsional infratuzilam

Huquqiy infratuzilma kredit tizimi faoliyatining qonunchilik asoslaridan iborat. Masalan, o`zbekistonda fuqarolik kodeksi, O`zbekiston Respublikasi Markaziy bank to`g`risidagi qonun, banklar va bank faoliyati to`g`risidagi, mikromoliyalash to`g`risidagi, mikrokredit tashkilotlari to`g`risidagi qonun, Lizing, Ipoteka to`g`risidagi qonun va garov to`g`risidagi qonun kredit tizimining birlamchi huquqiy infratuzilmasi hisoblanadi.

Institutsional infratuzilmaga kredit munosabatlariga xizmat ko`rsatuvchi tashkilotlar va muassasalar kiradi.

Kollektor tashkilotlari unmagan kreditlarni undirib beradi.

Kredit tizimini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi organlar. Odatda dunyoning ko`plab mamlakatlarida bu vazifani Markaziy banklar bajaradi. Markaziy bankda nazorat funksiyasi bo`lmagan mamlakatlarda kredit tizimi ``moliya bozori regulyatori`` tashkiloti tomonidan nazorat qilinadi.

Kredit tizimiga ta`sir qiluvchi omillar ko`p sonli bo`lib, ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko`rsatish mumkin:

1. sog'lom raqobat muhitining mavjudligi

2. kredit muassasalari mijozlarining moliyaviy holatining o`zgarishi. Banklarning va boshqa kredit muassasalarining iqtisodiy qudrati va moliyaviy salohiyati bevosita mijozlarning moliyaviy holatiga bog`liq.

3. kredit muassasalarining likvidliligi va kapitallashish darajasining o`zgarishi. Odatda kredit muassasalari aktivlarining sifatini yomonlashishi kredit muassasalarining likvidliligi va to`lovga qobilligini yomonlashishiga olib keladi.

4. makroiqtisodiy barqarorlik.

5. siyosiy barqarorlik. Bu mamlakatda siyosiy vaziyatning yomonlashishi natijasida siyosiy riskning chuqurlashishi bilan bog`liq.

6. Markaziy bankning monitar siyosatini o`zgarishi.

7. Kredit muassasalari faoliyatidagi risklarni boshqarish tizimining samarali ishlashi.

- kredit tizimining barqarorligini ta`minlashda eng asosiy omil kredit tizimiga bo`lgan ishonch hisoblanadi.

- kredit muassasalarining likvidliligi va to`lovga qobilligini ta`minlash uchun zarur shart sharoitlarni ta`minlash.

- makroiqtisodiy barqarorlikni ta`minlash usuli. Bunda ayniqsa inflyatsiya va devalvatsiya darajasi kredit muassasalari faoliyatiga kuchli ta`sir ko`rsatadi.

- kredit muassasalari faoliyatidagi risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish.

- kredit muassasalari faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy qo`llab-quvvatlash usuli. Bunda ayniqsa soliq imtiyozlari berish, Markaziy bank tomonidan markazlashgan kreditlar berish davlat tomonidan muammoli aktivlarni sotib olish usullaridan keng foydalaniladi.

Banklar yangi operatsiyalar bajarishga buning uchun maxsus tayyorlangan kadrlarga ega bo`lmasdan kirishishi oqibatida ham to`lovga layoqatsizlik kelib chiqishi mumkin.

Bir shaxsdan yirik miqdorda depozitlar qabul qilish, ularning moliyaviy holati birdan yomonlashgan hollarda ham tijorat banklarida to`lovlar bo`yicha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. SHuning uchun ham, bir omonatchi(kreditor)ga to`g`ri keladigan maksimal xatar hajmi belgilab qo`yilgan.

Har bir tijorat banki o`z nizom kapitalini har choraklik ajratmalar asosida (yillik ko`zda tutilgan o`shishga nisbatan 25%) to`ldirishlari lozim.

YUqoridagilardan tashqari, hisobni to`g`ri yo`lga qo`yish, boshqarishdagi xato va kamchiliklarni tugatish, kadrlar malakasini oshirish ham banklarning to`lovga layoqatliligini ta`minlashga ta`sir ko`rsatadi.

Biror mamlakat iqtisodiyotida yuz berayotgan tangliklar, nomutunosibliklarning bir uchi bank tizimi holati va tijorat banklarning faoliyatiga borib taqaladi. Ayniqsa, o`tish davrini boshdan kechirayotgan davlatlarda yuz bergan va yuz berayotgan inqirozlarning bosh omillari sifatida banklarning sinishi va bankrotligi sanaladi. Rossiyada 1995 yil va 1998 yilda sodir bo`lgan inqirozlarning tahlili shuni ko`rsatadiki, aholining banklarga ishonchining yo`qolishi, siyosiy omillar va moliyaviy piramidalarning tushkunligi holatlari banklarning to`lovga qobiliyatini yo`qqa chiqaradi. SHunday ekan, tijorat banklarning likvidligi va to`lovga qobiliyatini tahlil etish davomida bunga ta`sir etuvchi omillarni aniqlash lozim. CHunki likvidlik va to`lovga qobiliyatlilik murakkab iqtisodiy tushunchalar sanaladi va yuzaki baholaganda tahlil samarasi past bo`lish mumkin.

Banklar faoliyatiga ta`sir qiluvchi omillar turlicha tasniflanadi. Odatda, ular ichki va tashqi omillarga ajratilib o`rganiladi. Tijorat banklarning likvidligi va to`lov qobiliyatini belgilaydigan ichki omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

- bankning mustahkam kapital bazasi;
- aktivlar sifati;
- depozitlar sifati;
- tashqi manbalarga qaramlik darajasi;
- aktivlar va passivlarning muddatlari bo`yicha mutanosibli;

- malakali menejment;
- bankning imidji.

Bankning mustahkam kapital bazasi xususiy kapitalining mutlaq qiymatini ifoda etib, aktivlar bo'yicha tavakkalchiliklarning himoya manbasi hamda omonatchilar va depozitchilar mablag'larining kafolati hamdir. Bankning xususiy kapitali nizom fondi va boshqa maqsadli fondlardan iborat bo'lib, moliyaviy barqarorlik uchun ham asosdir. SHunday qilib, bankning xususiy kapitali qancha katta bo'lsa, likvidlilik ham shuncha yuqori bo'ladi.

19.2. Kredit tizimining barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillar. “Kredit tizimi” tushunchasining mazmuni. Kredit tizimining tarkibi. Kredit tizimining elementlari.

Bankning likvidlilik va to'lovga qobiliyatlilik holati bank faoliyatidan tashqarida bo'lgan bir qator tashqi omillarga ham bog'liq. Bular qatoriga quyidagilar kiritiladi:

- mamlakatdagi umumiy siyosiy va iqtisodiy vaziyat;
- qimmatli qog'ozlar va banklararo kredit bozorlarining rivojlanish darajasi;
- qayta moliyalashtirish tizimi;
- Markaziy bank nazorat funktsiyasining samaradorligi.

Mamlakatdagi umumiy siyosiy va iqtisodiy vaziyat bank operatsiyalari rivojiga turtki beradi, bank faoliyati iqtisodiy asoslarini mustahkamligini ta'minlaydi, mamlakatdagi va xorijiy investorlarni banklarga ishonchini mustahkamlaydi. Ko'rsatib o'tilgan shartlarsiz banklar puxta depozit bazasini hosil qila olmaydi, operatsiyalarning rentabelligini ta'minlash, aktivlar sifatini oshirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish kabilarni uddalash qiyin kechadi. Tijorat banklari bank tizimining bir qismi sifatida mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi, o'z navbatida, tijorat banklarning holati mamlakatdagi umumiy ahvolni belgilaydi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanganligi likvid mablag'lar foydaliligini yo'qotmagan holda aktivlarni pul shakliga aylantirishni eng tez va optimal variantini qo'llash imkoniyatini beradi. Bunday holat fond bozori rivojlangan davlatlar uchun, ayniqsa, xarakterlidir. CHunki aktivlarni qimmatli qog'ozlarga joylashtirish vositasida bank bir vaqtning o'zida ham likvidlilikni ta'minlaydi, ham kerakli daromadga ega bo'ladi. Banklararo kredit bozorining rivojlanganligi

banklar o`rtasida vaqtincha bo`sh resurslarni tezda qayta taqsimlash imkonini beradi. Banklararo bozordan likvidlikni ta`minlash uchun turli muddatlarga mablag'larni jalb qilish mumkin, shu jumladan, bir kunga ham. Bu bozordan mablag'larni olish operativligi umumiy moliyaviy kon`yunktura, banklararo bozorning tashkiliy shakli va albatta bankning obro`siga bog`liq.

Ko`rib o`tganimizdek, bankning likvidlik va to`lovga qobiliyatlik holati bank faoliyatidan tashqarida bo`lgan bir qator tashqi omillarga ham bog`liq. Bular qatoriga quyidagilar kiritiladi:

- mamlakatdagi umumiy siyosiy va iqtisodiy vaziyat;
- qimmatli qog'ozlar va banklararo kredit bozorlarining rivojlanish darajasi;
- qayta moliyalashtirish tizimi;
- Markaziy bank nazorat funksiyasining samaradorligi.

Mamlakatdagi umumiy siyosiy va iqtisodiy vaziyat bank operatsiyalari rivojiga turtki beradi, bank faoliyati iqtisodiy asoslarini mustahkamligini ta`minlaydi, mamlakatdagi va xorijiy investorlarni banklarga ishonchini mustahkamlaydi. Ko`rsatib o`tilgan shartlarsiz banklar puxta depozit bazasini hosil qila olmaydi, operatsiyalarning rentabelligini ta`minlash, aktivlar sifatini oshirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish kabilarni uddalash qiyin kechadi. Tijorat banklari bank tizimining bir qismi sifatida mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy o`zgarishlarni o`zida aks ettiradi, o`z navbatida, tijorat banklarning holati mamlakatdagi umumiy ahvolni belgilaydi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanganligi likvid mablag'lar foydaliligini yo`qotmagan holda aktivlarni pul shakliga aylantirishni eng tez va optimal variantini qo`llash imkoniyatini beradi. Bunday holat fond bozori rivojlangan davlatlar uchun, ayniqsa, xarakterlidir. Chunki aktivlarni qimmatli qog'ozlarga joylashtirish vositasida bank bir vaqtning o`zida ham likvidlikni ta`minlaydi, ham kerakli daromadga ega bo`ladi. Banklararo kredit bozorining rivojlanganligi banklar o`rtasida vaqtincha bo`sh resurslarni tezda qayta taqsimlash imkonini beradi. Banklararo bozordan likvidlikni ta`minlash uchun turli muddatlarga mablag'larni jalb qilish mumkin, shu jumladan, bir kunga ham. Bu bozordan mablag'larni olish operativligi umumiy moliyaviy kon`yunktura, banklararo bozorning tashkiliy shakli va albatta bankning obro`siga bog`liq.

Yuqoridagi omil bilan birga qayta moliyalashtirish tizimining likvidlikka ta`siri o`zaro chambarchas bog`liq.

Banklar faoliyatiga ta`sir qiluvchi omillar

Qayta moliyalashtirish tizimi Markaziy bankning tijorat banklarini kreditlash jarayonidir. Likvid mablag'larga ehtiyoj tug'ilganda tijorat banklari Markaziy bankdan qayta moliyalashtirish stavkasida kredit olishi mumkin bo'ladi. Bu omilning bevosita ta`siri shundan iboratki, qayta moliyalash stavkasi ortganda likvidlikni ta`minlash uchun kreditlar omili qimmatlashib qoladi yoki aksincha.

19.3. Kreditlashni tashkil qilish printsiplari. Kredit tizimining turlari: markazlashgan kredit tizimi; bozor kredit tizimi; o'tish davri kredit tizimi.

Biror mamlakat iqtisodiyotida yuz berayotgan tangliklar, no-mutonosibliklarning bir uchi bank tizimi holati va tijorat banklarning faoliyatiga borib taqaladi. Ayniqsa, o'tish davrini boshdan kechirayotgan davlatlarda yuz bergan va yuz berayotgan inqirozlarning bosh omillari sifatida banklarning sinishi va bankrotligi sanaladi. Rossiyada 1995 yil va 1998 yilda sodir bo'lgan inqirozlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, aholining banklarga ishonchining yo'qolishi, siyosiy omillar va moliyaviy piramidalarning tushkunligi holatlari banklarning to'lovga qobiliyatini yo'qqa chiqaradi. SHunday ekan, tijorat banklarning likvidligi va to'lovga qobiliyatini tahlil etish davomida bunga ta`sir etuvchi omillarni aniqlash lozim. CHunki likvidlik va to'lovga qobiliyatlik murakkab iqtisodiy tushunchalar sanaladi va yuzaki baholaganda tahlil samarasi past bo'lish mumkin.

Banklar faoliyatiga ta`sir qiluvchi omillar turlicha tasniflanadi. Odatda, ular ichki va tashqi omillarga ajratilib o'rganiladi. Tijorat banklarning likvidligi va to'lov qobiliyatini belgilaydigan ichki omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

- bankning mustahkam kapital bazasi;
- aktivlar sifati;
- depozitlar sifati;
- tashqi manbalarga qaramlik darajasi;
- aktivlar va passivlarning muddatlari bo'yicha mutanosibli;
- malakali menejment;
- bankning imidji.

Bankning mustahkam kapital bazasi xususiy kapitalining mutlaq qiymatini ifoda etib, aktivlar bo'yicha tavakkalchiliklarning himoya manbasi hamda omonatchilar va depozitchilar mablag'larining

kafolati hamdir. Bankning xususiyl kapitali nizom fondi va boshqa maqsadli fondlardan iborat bo`lib, moliyaviyl barqarorlik uchun ham asosdir. SHunday qilib, bankning xususiyl kapitali qancha katta bo`lsa, likvidlilik ham shuncha yuqori bo`ladi.

Aktivlar sifati asosan to`rt xil mezon asosida aniqlanadi: likvidlilik, tavakkalchilik darajasi, daromadlilik va diversifikatsiya bo`yicha. Aktivlarning likvidligi shu aktivlarning pul shakliga o`tish layoqatidir. Likvidlik xizmatidan aktivlar bir necha guruhlarga ajraladi. Birinchi guruhga yuqori likvidli aktivlar – kassa va vakillik hisobvarag`idagi mablag`lar hamda davlatning qimmatli qog`ozlarini kiritish mumkin. Ikkinchi guruhga qisqa muddatli ssudalar, banklararo kreditlar, faktoring operatsiyalari va aksionerlik jamiyatlarning tijoriyl qimmatli qog`ozlari tashkil etadi. Uzoq muddatli investitsiyalar, qo`yilmalar va lizing operatsiyalari uchinchi guruh likvid aktivlarni tashkil etadi. Nihoyat, to`rtinchi guruh likvid aktivlar muddati uzaytirilgan ssudalar, bino va inshootlardan iborat. Tavakkalchilik darajasi bo`yicha ham aktivlar to`rt guruxga ajratiladi va mos holda 0,20, 50, 100% lik tavakkalchilik darajasiga ega aktivlardan iborat.

SHuni ta`kidlash lozimki, tavakkalchilik darajasi qanchalik yuqori bo`lsa, likvidlik shunchalik past bo`ladi. Aktivlarning daromadlilikgi aktivlarning ishchanligi va samaradorligini namoyon etadi. Daromadlilik bo`yicha aktivlar daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo`linadi. Daromadlar qanchalik ko`p bo`lsa, bankda kapital bazani mustahkamlash imkoniyati paydo bo`ladi. Lekin ko`rko`rona daromadlilikka intilishi aktivlarning yo`qotilishiga va likvidlilikning pasayishga olib keladi. Aktivlar sifatinil ko`rsatadigan mezonlardan yana biri ularning diversifikatsiyasidir. Aktivlarning diversifikatsiyasi ko`rsatkichlari bo`lib, bank aktivlarining asosiy yo`nalishlari bo`yicha tarkibi, kredit qo`-yilmalarining ob`ektlari va sub`ektlari tarkibi, qimmatli qog`ozlar portfeli tartibi, valyutalar strukturasi (valyuta ope-ratsiyalari bo`yicha), hamkor banklar tartibi hisoblanadi. Aktivlar diversifikatsiyasi qanchalik yuqori bo`lsa, likvidlilik shuncha yuqori bo`ladi. Bank aktivlarining sifati likvidlilik va to`lovga qobiliyatlilikni belgilashda katta o`rin tutadi. Aktivlar tarkibi shunday optimal tanlanishi kerakki, bir vaqtning o`zida ham likvidlilik, ham to`lovga qobiliyatlilik va bank uchun keraklisi foydalilik ta`minlanishi lozim.

Likvidlilikka ta`sir etuvchi muhim omillar sirasiga bankning depozit bazasining sifati ham kiritiladi. Depozit joriyl hisoblarda,

muddatli depozit va omonat jamg'armalari ko`rinishda yig'ilgan yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'lari tashkil qiladi. Depozitlar (talab qilib olguncha, muddatli va jamg'arma) sifati mezoni bo`lib, ularning barqarorligi hisoblanadi. Depozitlarning barqaror qismi qancha yuqori bo`lsa, likvidlilik shuncha yuqori ta`minlangan bo`ladi, ularning ulushining ortishi bankning likvid aktivlarga ehtiyojini kamaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, talab qilib olguncha bo`lgan depozitlar ularning foiz stavkasiga bog`liq emasligi nuqtai nazaridan barqarorligi bilan ajralib tursa muddatli va jamg'arma depozitlarning qoldiqlari qat`iy muddatga ega ekanligi bilan barqarordir. Lekin ularning foiz stavkasiga bog`langanligi foizlar o`zgarishi bilan bunday depozitlar migratsiyasini vujudga keltirishi mumkin.

Banklarning likvidlili va to`lovga qobiliyatligi tashqi manbalarga qaramlik darajasiga, ya`ni banklararo kreditlarning ulushiga ham bog`liq. Ma`lum bir chegaradagi banklararo kredit likvidligiga hech qanday xavf tug`dirmaydi, aksincha, u likvid mablag'larga bo`lgan qisqa muddatli ehtiyojni bartaraf ham etadi. Agar banklararo kredit jalb qilingan resurslar tarkibida salmoqli o`rinni egallasa, banklararo kredit bozorida noqulay kon`yunktura vujudga kelganda bank tanazzulga yuz tutish mumkin. Tashqi manbalarga karatligi yuqori bo`lgan rivojlanish istiqboliga ega bo`lmaydi va resurs bazasining beqarorligi evaziga katta tavakkalchilik ostida bo`ladi.

Aktiv va passivlarning muddatlari summolari o`rtasidagi nomutanosiblik likvidlilikka jiddiy ta`sir o`tkazadi. Bankning mijoz oldidagi majburiyatlarini bajarish uchun mijozdan olingan mablag'larni qaytarish muddati shu mablag'lar hisobiga qo`yilgan kredit (investitsiyalar)ni qaytish muddati bilan mos bo`lmog`i lozim. To`g`ri, majburiyat boshqa manba hisobiga qoplanishi mumkin, lekin amalda aktiv va passivlarning asosiy qismi muddat va summada munosib bo`lishi bank barqarorligining garovi hisoblanadi.

Menejment, ya`ni bank faoliyatini boshqarish likvidlilikka jiddiy ta`sir o`tkazuvchi omillardandir. Bankning boshqarish sifati oqilona bank siyosati, bank tashkiliy strukturasi, aktiv va passivlarni samarali boshqarish mexanizmda namoyon bo`ladi. YUqori darajadagi menejment malakali kadrlarni talab etadi, shuningdek, zaruriy axborot bazasi tezkor choralarni amalga oshirishda qo`l keladi.

Kerakli likvidlilik darajasi menejment bilan birga bankning imidjiga ham bog'liq. Ijobiy bankka resurslar jalb qilishda va likvid mablag'lar kamomadini to'ldirishda baho raqobatchi banklarga nisbatan ustunlik yaratadi. Yaxshi reputatsiyasiga ega bo'lgan bank barqaror depozit bazasini hosil qila oladi, chunki u moliyaviy barqaror mijozlar bilan aloqa qilishda katta imkoniyatga ega bo'ladi. Ijobiy imidjga ega bo'lish o'ta murakkab jarayon, u yillar davomida natijalar evaziga shakllanadi va rivojlanish strategiyasini to'g'ri tanlash, mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasini oshirish, marketing tadqiqotlarini chuqurlashtirish, ishonchli va ommabop reklama, faoliyat natijalarini jamoatchilik uchun ochiqligi kabilarga asoslanadi.

Yuqorida ko'rilgan omillar bankning xususiyatlariga bog'liq ravishda turlicha ahamiyatga ega bo'lish mumkin. Ba'zi hollarda likvidlilik muammosini resurs bazasi sifati va tarkibi tug'dirsa, ba'zida aktivlar sifati bunga sabab bo'ladi. Asosan esa likvidlilik va to'lovga qobiliyatlilik muammolar kompleks omillar uyg'unligida paydo bo'ladi. Likvidlilik muammo-sini ko'p omilli kategoriya ekanligini tan olgan xolda, har bir bank o'zining og'riqli nuqtalarini belgilab olishi kerak, ya'ni bank likvidligini belgilaydigan omillar to'g'ri talqin etilgandagina bu muammo oqilona hal etiladi.

19.3. Kredit tizimining holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Kredit tizimining barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar.

Turli tarmoklardagi darajasiga ko'ra, kredit iqtisodiy stixiyali makroboshqaruvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Ba'zi xollarda bu funktsiyaning amalga oshirilishi bozor tizimiga nomutanosiblikni chukurlashuviga olib kelishi mumkin. Xuddi shunday xolat MDX davlatlarida bozor iqtisodiga o'tish boskichida namoyon bo'lmokda shuning uchun kredit tizimini davlat tomonidan boshkarishning muxim vazifalaridan biri bu iqtisodiy ustunlikni okilona tavsiflash va kredit resurslarini u yoki bu tarmokka jalb kilishni rag'batlantirishdan iborat.

Markaziy bank-bank tizimi mavjud bulgan barcha davlatlar pul-kredit tizimining asosini tashkil kiladi. Markaziy bankning moliya bozoridagi o'rni mamlakatda bozor munosabatlarining rivojlanish darajasiga va xususiyatiga boglik. Bu esa uz navbatida ikki pog'onali bank tizimini shakllanishiga asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Chunki buning tepasida Markaziy bank bo'ladi. Ikki pog'onali bank

tizimining zarurli bozor munosabatlarining qarama-qarshiliklaridan kelib chiqadi. Bir tomondan, bu xususiy moliya mablag'laridan erkin foydalanish huquqini talab qiladi. Bu quyi pog'ona banklar-tijorat banklari orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi tomondan, bu munosabatlarni ma'lum miqdorda tartibga solish nazorat qilish maksadli yo'naltirish zarur. Bunday maxsus institut sifatida Markaziy bank yuzaga chikadi.

Tijorat bankining faoliyatini olib borishning asosida, eng avvalo, uning likvidligi yotadi. Likvidligi bo'lmagan bank to'lovga layoqatli bo'la olmaydi. Amalda aynan nolikvidlik banklarning to'lovga layoqatsizligi, ularni bankrotlikka va bank tizimining beqarorligiga olib keladi.

“Likvidlik” atamasi (lotincha liquidus - oquvchan, suyuqlik) sotish, aktivlarni pul mablag'lariga aylantirishning amalga oshirilishini, ya'ni bankning Markaziy bank yoki vakil banklardagi naqd pul mablag'laridan oqilona foydalanish, likvid aktivlarni sotish imkoniyati va h.k.larni anglatadi.

Tijorat bankining likvidligi uning balans tuzilmasi bo'yicha belgilanib, unda aktivlar passivga doir muddatli majburiyatlarni qoplash uchun o'z qiymatini tushirmagan holda yo'qotishlarsiz pul mablag'lariga aylantirilishi lozim. Bank o'z likvidligini tahlil qilish masalasi bank nazorati bo'yicha Bazel bitimida, ayniqsa, chuqur ko'rib chiqilgan. Ushbu bitimga muvofiq “likvidlikni tahlil qilish bankning o'z majburiyatlarini muddatida va zarar ko'rmagan holda bajarish layoqatini aniqlash zaruratini ko'zda tutadi. Aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi banklarning o'z majburiyatlarini benuqson bajarishiga bog'liq. Demak, banklarning likvidligi hamda to'lovga layoqatliligi banklarning umumiy moliyaviy barqarorligini ta'minlash lozim bo'lgan bank nazorati organlarini ko'proq o'ylantiradigan soha hisoblanadi. Mijoz har safar o'z hisobvarag'idan pul olmoqchi bo'lganda bankning o'z majburiyatini bajarish zarurati yuzaga keladi. Majburiyat bajarilmagan taqdirda bank o'z obro'sini yo'qotadi va bu ham bankni bankrotlikka olib kelishi mumkin. Likvidlikni ta'minlashning eng oddiy usuli bankning bir qism aktivlarini likvid shaklida, masalan naqd pul, Markaziy bank va boshqa banklardagi vakillik hisobvarag'idagi qoldiqlar, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO) shaklida saqlash hisoblanadi. Banklar likvidligining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda likvid

aktivlarining zarur miqdorini belgilab olishlari lozim. Mazkur omillarga quyidagilar kiradi:

– omonatlarning ko`payishi yoki kamayishiga ko`ra mablag'larga ega bo`lish yoki ularni yo`qotish; bank jalb qilingan mablag'lar bo`yicha majburiyatlarni yaqin muddatlarda bajarishi lozim, bu omonatlar va boshqa passivlarning muddatlari bilan bog`liq hamda bankda qoladigan depozitlar miqdorini (asosiy depozitlar) hisobvaraqdan olinadigan yoki darhol to`lanadigan depozitlar va boshqa passivlar (“Uchuvchan mablag'lar”) bilan qiyoslagan holda tahlil qilishni ko`zda tutadi;

– omonatlar summasining o`shishi yoki qisqarishiga muvofiq majburiy zaxiralar me`yoriy miqdorining ko`payishi yoki kamayishi ham likvidlikka bevosita ta`sir ko`rsatadi, chunki majburiy zaxiralar me`yorini bajarishga yo`naltirilgan mablag'lar likvid aktivlarning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi;

– ssudalar va investitsiyalar summasining oshishi yoki kamayishiga ko`ra mablag'lar oqib kelishining ko`payishi yoki kamayishi; ushbu omilning ta`siri shundan iboratki, ssudalar va investitsiyalar miqdorining oshishi likvid aktivlar ulushini kamaytiradi, chunki investitsiyalar aksariyat hollarda uzoq muddatga jalb qilinadi.

Daromadlilik oshayotgan bir paytda likvidlikning maqbul darajasini ta`minlash uchun bank jalb etilgan omonatlar muddatlari va ularga doir xarajatlarni tahlil qilib chiqib, kredit qo`yilmalari va investitsiyalar muddatlari hamda rejalashtiriladigan daromadlar bilan taqqoslash lozim. Bunday taqqoslash joylashtirilgan va jalb etilgan mablag'larni muddatlari bo`yicha solishtirish asosida bank likvidligi holatini aniqlash, shuningdek, likvidlikning zarur darajada eng ko`p foydaga erishish uchun qisqa, o`rta va uzoq muddatli kreditlarning optimal nisbati bilan kredit siyosatini olib borish imkoniyatini beradi.

“To`lovga layoqatlilik” “likvidlik”ka nisbatan kengroq tushuncha bo`lib, bank zarur muddatlarda kreditlar-omonatchilar, banklar davlat oldidagi majburiyatlarini to`la summada bajara olish layoqatini bildiradi. Lekin u faqat balans likvidligiga bog`liq bo`lib qolmasdan, balki boshqa bir qator faktorlarga ham bog`liqdir. Ular qatoriga quyidagilar kiradi: mintaqa yoki respublikadagi siyosiy va iqtisodiy holat, pul bozorining holati, Markaziy bankning qayta moliyalashtirish imkoniyati, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanganligi, bank qonunchiligining mavjudligi va zamonaviyligi, bankning o`z kapitali

bilan ta`minlanganligi, mijozlar va partner-banklarning ishonchliligi, bankdagi menejment darajasi, mazkur kredit muassasasi bank xizmatlarining maxsuslashtirilganligi hamda xilma xilligi va boshqa omillar kiradi. SHu bilan bir vaqtda ko`rsatilgan omillar to`g`ridan-to`g`ri yoki bilvosita bank balansi likvidligiga ta`sir ko`rsatadi, shuningdek, bir-biri bilan ma`lum darajada aloqada bo`ladi. (Aytilganlarni chizma tarzida ko`rsatish mumkin).

Bankning to`lovga layoqatliligi va likvidliligiga ta`sir qiluvchi omillar

Tijorat banklarining balansi ikki qismdan iborat bo`ladi: aktiv va passiv. Bank passivlari tarkibiy jihatdan va iqtisodiy mazmuniga ko`ra, bankning o`z mablag`lari va uning majburiyatlaridan tashkil topadi. O`z navbatida bank majburiyatlari iqtisodiy mazmuniga ko`ra jalb qilingan va qarz mablag`larga bo`linadi. Demak, bank passivlari:

1. Bank kapitali– bankning xususiy mablag`lari
2. Jalb qilingan mablag`lar.
3. Qarz mablag`laridan iborat.


Bank aktivlarini iqtisodiy mazmuni tarkibiga ko`ra bir necha qismlarga ajratish mumkin. Bunda aktivlarning muddatiga ko`ra yoki likvidligiga ko`ra ma`lum tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Aktivlarni likvidligiga ko`ra quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1. YUqori likvidlikka ega bo`lgan aktivlar.
2. O`rtacha likvidlikka ega bo`lgan aktivlar.
3. Likvidligi past bo`lgan aktivlar.

Tijorat bankining balansi shu bank resurslarining ahvolini, bularni shakllantirish manbalarini, shuningdek, hisobot davrining boshidan oxirigacha bo`lgan bank faoliyatining moliyaviy natijalarini pul bilan ifodalab, ta`riflab beradi. Balansdagi ma`lumotlarni tahlil qilib chiqish yo`li bilan banklarning ma`lum davr ichidagi faoliyatini har tomonlama bilib olsa bo`ladi. Balansning tahlili bankning o`ziga tegishli mablag`lari qay tariqa o`zgarib borayotganligini, bank aktivlarining tarkibi va ularning qaysi tomonga qarab o`zgarayotganini, bankning likvidlilik va to`lovga layoqatlilik ko`rsatkichlari darajalarini bilish imkonini beradi.

Bank likvidligi va uni ta`minlash yo`llari

Tijorat banklari likvidligini tahlili jarayonida ularning likvidlik ko`rsatkichlari bo`yicha belgilangan me`yorlarga amal qilayotganligini tekshiramiz.



8-rasm. Tijorat banklarning likvidlik ko'rsatkichlari bo'yicha belgilangan me'yorlar¹

¹ Lavrushina O.I. Dengi.Kredit.Banki./. – 2005.356 bet.

Faqat tijorat banki ta`sis hujjatlariga kiritilgan o`zgarishlarni ro`yxatdan o`tkazish uchun o`z vaqtida taqdim etgan hollarda nizom sarmoyasining Markaziy bankda ro`yxatga olinganidan ortiq to`langan qismini sarmoya hisob-kitobiga qo`shishga ruxsat etiladi.

Tijorat banki aktivlari tavakkalchilik darajalariga qarab 4 ta guruhga bo`linadi. Tavakkalchilik darajasi bo`yicha birinchi guruhga minimal tavakkalchilikli aktivlar, ikkinchi va uchinchi guruhga katta tavakkalchilikli aktivlar, to`rtinchi guruhga maksimal darajada tavakkalchilikli aktivlar kiradi. Bir qarz oluvchiga katta hajmda kreditlar berilishi tijorat banki uchun juda tavakkalchilikli ekanligi munosabati bilan «bir qarz oluvchiga to`g`ri keladigan tavakkalchilikning maksimal hajmi» me`yoriga rioya etilishi, ayniqsa, qattiq nazorat qilinmog`i kerak:

$$\frac{Kt}{K}$$

Bunda: Kt - bir qarz oluvchiga to`g`ri keladigan bank tavakkalchiligining umumiy summasi qo`shuv bank mazkur qarz oluvchiga nisbatan bergan balansdan tashqari majburiyatlarning 75%i ayiruv depozitlar bilan ta`minlangan majburiyatlar.

K – bank sarmoyasi (xususiy mablag`lari)

Ushbu me`yor kreditlarning hukumat kafolati bilan ta`minlangan qismiga, jumladan xalqaro qarzlar bo`yicha takror moliyalanadigan kreditlarga taalluqli emas. Boshqa kreditlar uchun qarz oluvchi majburiyatlarining umumiy summasidan O`zbekiston Respublikasi davlat qimmatli qog`ozlarini garovga qo`yib olingan qarzlar garov summasining 90% hajmida chegirib tashlanadi.

Bu ko`rsatkichi 0,25 dan oshmasligi kerak.

Bir qarz oluvchiga berilgan qarzlar bo`yicha jami qarzdorlik hamda balansdan tashqari majburiyatlarning 75%i birgalikda bank kapitalining 15% idan ortiq bo`lsa, bunday kreditlar yirik kreditlar deb ataladi. “Yirik” kreditlarni bank boshqaruvi alohida nazorat qilishi kerak va ular tijorat banki kengashi yangi qaror qabul qilgandagina berilishi mumkin. Bank kengashining shunday kreditlar berish to`g`risida qarorlar qabul qilish vakolati Boshqaruvga topshirilishi mumkin emas.

Qisqa muddatli likvidlik ko`rsatkichi deganda bankning so`ndirish muddati 30 kundan 1 yilgacha bo`lgan aktivlari bilan 30

kundan 1 yilgacha qabul qilingan depozitlar va resurslarga nisbati tushuniladi.

Yana quyidagi likvidlik koeffitsientlari mavjud:

Likvid aktivlar /jami aktivlar; Doimiy bo`lmagan majburiyatlar/
/jami aktivlar;

Likvid aktivlar /Doimiy bo`lmagan majburiyatlar;

Kreditlar/Depozitlar;

Garovga qo`yilgan qimmatli qog`ozlar/jami qimmatli
qog`ozlar.

Bank rahbariyati likvidlik ko`rsatkichlarini mustaqil ishlab chiqishi va ulardan tanlab foydalanishi mumkin, faqat joriy likvidlik ko`rsatkichi bundan mustasno. Kapitalning etarliligi koeffitsientlaridan tashqari tijorat banklari leveraj koeffi-tsientini aniqlashlari lozim. Bu ko`rsatkich quyidagicha hisoblanadi.

I darajali kapital

$$K1 = \frac{\text{Umumiy aktivlar} - \text{nomoddiy aktivlar} - \text{gudvil}}{\text{Umumiy aktivlar} - \text{nomoddiy aktivlar} - \text{gudvil}}$$

Leveraj koeffitsientining minimal miqdori 0,06 yoki 6% bo`lmog`i lozim.

YUqoridagi koeffitsientlar asosida tipovoy banklarning mo-liyaviy ahvoliga to`liq baho berish mumkin.

Banklarda to`lovga layoqatlilik va likvidlik muammosining mu-vaffaqiyatli hal etilishi aktiv va passiv operatsiyalarning bir paytda samarali boshqarilishiga bog`liq. Banklar aktiv operatsiyalarni o`tkazish uchun pul resurslariga ehtiyoj sezadilar. Ularni passiv operatsiyalarni amalga oshirish orqali jalb etish mumkin va shundan so`ng bank belgilangan muddatlarda o`zining qarz majburiyatlarini qoplab borishi lozim. Qarz majburiyatlarini qoplash uchun banklar foyda olib faoliyat yuritishlari va bunda to`lovga layoqatlilikning maqbul darajasini saqlashlari hamda likvidlikni ta`minlashlari kerak.

Aktiv va passiv operatsiyalarni, shuningdek, likvidlikni kompleks va o`zaro bog`lab boshqarish zarurati shunday izohlanadi.

YUqorida qayd etilganidek, banklar likvid mablag`larga bo`lgan zaruratni qondirish uchun kerakli miqdorda omonatlar va depozitlarni safarbar etadilar. Bunda banklar depozitlar miqdorining o`shishini kredit portfelining o`shishi bilan taqqoslaydilar hamda depozit

bazasining barqarorligini avvalo muddatli jamg'arma depozitlari va talab qilib olinuvchi depozitlar hisobidan ta'minlash lozim.

Tijorat banklari to'lovga layoqatliligini mustahkamlash, majburiyatlari bajarilishi uzluksizligini ta'minlash maqsadida bosh-qa kredit institutlaridan kredit olinadi.

To'lovga layoqatsizlikning yana bir sababi garovni baholashdagi xatolikka yo'l qo'yishdir. Garovni to'g'ri baholash va ularning bahosi o'zgarishi ustidan doimiy nazorat olib borish to'lovlarda qiyinchiliklar kelib chiqishining oldini oladi.

Balans likvidligining buzilishi va to'lovga layoqatsizlik mijozlar moliyaviy holatini yomonligidan ham kelib chiqadi. Qarz oluvchining kreditga layoqatliligini to'g'ri baholash va ular ustidan doimiy nazoratning mavjudligi kredit xatarini o'z vaqtida bilish va to'lovga layoqatlik bo'yicha zarur choralarni o'z vaqtida ko'rishni ta'minlaydi.

Banklar yangi operatsiyalar bajarishga buning uchun maxsus tayyorlangan kadrlarga ega bo'lmasdan kirishishi oqibatida ham to'lovga layoqatsizlik kelib chiqishi mumkin.

Bir shaxsdan yirik miqdorda depozitlar qabul qilish, ularning moliyaviy holati birdan yomonlashgan hollarda ham tijorat banklarida to'lovlar bo'yicha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. SHuning uchun ham, bir omonatchi(kreditor)ga to'g'ri keladigan maksimal xatar hajmi belgilab qo'yilgan.

Tijorat banklari nizom kapitalining minimal miqdori ham Markaziy bank tomonidan belgilab qo'yilgan. Uni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

Har bir tijorat banki o'z nizom kapitalini har choraklik ajratmalar asosida (yillik ko'zda tutilgan o'sishga nisbatan 25%) to'ldirishlari lozim.

YUqoridagilardan tashqari, hisobni to'g'ri yo'lga qo'yish, bosh-qarishdagi xato va kamchiliklarni tugatish, kadrlar malakasini oshirish ham banklarning to'lovga layoqatliligini ta'minlashga ta'sir ko'rsatadi.

Nazorat uchun savollar

1. Kredit tizimining iqtisodiy mohiyati, tarkibi, uning elementlari va turlarini yoritib bering?

2. Kredit tizimining barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillarni yoritib?

3. Kreditlashni tashkil qilish printsiplarini, kredit tizimining turlari: markazlashgan kredit tizimi; bozor kredit tizimi; o`tish davri kredit tizimini yoritib bering?

4. Kredit tizimining holatini tavsiflovchi ko`rsatkichlar, Kredit tizimini tartibga solish va nazorat qilish hamda uning barqarorligiga ta`sir etuvchi omillarni iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering?

20-MODUL. XALQARO VALYUTA MUNOSABATLARI VA ULARNI TARTIBGA SOLISH MASALALARI

20.1. Xalqaro valyuta munosabatlari va ularni yuzaga kelish asoslari. Milliy valyuta tizimi va uning elementlari.

20.2. Jahon valyuta tizimi va uning elementlari. Valyuta munosabatlarini tartibga solish tizimi.

20.3. Valyuta munosabatlari tushunchasining mazmuni. erkin almashinadigan valyutalar. Xalqaro zaxira valyutalar.

20.4. Valyuta kursi rejimlari. Milliy valyuta tizimi va uning elementlari. Jahon valyuta tizimi va uning elementlari.

20.1. Xalqaro valyuta munosabatlari va ularni yuzaga kelish asoslari. Milliy valyuta tizimi va uning elementlari.

Xalqaro valyuta munosabatlari-bu valyutalarning davlatlararo harakatlanishi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlardir. Valyuta davlatlararo harakatlanishi uchun u xalqaro to`lov vositasi vazifasini bajara olishi va xalqaro valyuta bozorlarida oldi-sotdi qilinishi kerak. Xalqaro valyuta operatsiyalarining asosiy qismi (80 % dan ortiq)xalqaro rezerv valyuta maqomiga ega bo`lgan etakchi valyutalar orqali amalga oshiriladi. Bu maqomni Xalqaro Valyuta Fondi(XVF) beradi. Hozirgacha 5 ta valyuta rezerv maqomga ega.

XVF valyutaga Xalqaro rezerv maqomni berish uchun 4 ta omilni hisobga oladi:

1. Bu valyuta XVF da emitent davlat katta rezerv pozitsiyasiga ega bo`lishi kerak.

2. Bu valyuta xalqaro bozorlarda kotirovka(oldi-sotdi) qilinishi kerak.

3. Dunyo mamlakatlarining xorijiy valyutalardagi zahiralarning bir qismi mana shu valyutada shakillantirilishi kerak.

4. XVF bu valyutada kreditlar berishi kerak.

Xalqaro valyuta munosabatlarining asosi bo'lib quydagilar hisoblanadi:

1. eksport-import operatsiyalarining mavjudligi.

2. Investitsiyalarning davlatlararo oqimining mavjudligi. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar- bunda xorijiy investitsiyalar yangi ob'ektlarni qurish yoki texnikalarni sotib olish uchun jalb qilinadi. Portfelli investitsiyalar-bunda xorijiy investitsiyalar qimmatli qog'ozlarni sotish yo'li bilan jalb qilinadi.

3. Xalqaro kreditlarning mavjudligi.

4. Davlatlararo pul o'tkazmalarining mavjudligi.

5. Davlatlararo siyosiy va madaniy aloqalarning mavjudligi.

Milliy valyuta tizimi bu mamlakatda valyuta munosabatlarini tashkil qilishning davlat-huquqiy shaklidir. Milliy valyuta tizimi quydagi elementlardan tashkil topgan:

1. Milly valyuta nomi (USD, UZS, eURO)

2. Milly valyuta almashuv kursining rejimi. Amalyotda 3 xil kurs rejimi mavjud: 1) erkin suzish rejimi-bunda milly valyutaning kursi xorijiy valyutaga bo'lgan talab va taklifga qarab erkin shakillanadi. Markaziy Bank milly valyuta kursining ma'lum darajada tebranishi uchun javob bermaydi. 2) Qat'iy belgilangan kurs rejimi-bunda milly valyuta kursi xorijiy valyutaga yoki valyuta savatiga nisbatan ma'lum nisbatlarda belgilab qo'yiladi. Markaziy Bank ana shu kursni ushlab turishi uchun javobgar hisoblanadi. 3) Boshqariladigan suzish rejimi-bu mamlakatlar valyuta qonunchiligida erkin suzish rejimi yozilgan bo'ladi lekin Markaziy Bank milliy valyuta kursiga ta'sir qilish uchun tez-tez valyuta intervensiyasini o'tkazadi. Valyuta intervensiyasi-bu milly valyuta kursining kutilmaganda yuzaga keladigan tebranishlariga barham berish uchun Markaziy Bank tomonidan xorijiy valyutaning sotilishi yoki sotib olinishi.

3. Mamlakat valyutaviy cheklashlarining mavjudligi yoki yo'qligi. O'zbekiston 08.10.2003 da XVF nizomining 8-moddasi bo'yicha majburiyatlarni qabul qildi. SHu tariqa joriy valyuta

operatsiyalari bo'yicha cheklovlar bekor qilindi. Lekin, O'zbekiston kapitallar va kreditlarning harakati bo'yicha valyutaviy cheklovlar mavjud.

4. Milly valyuta kursi

5. Milly valyuta pariteti. Bu milliy valyuta qiymating xorijiy valyuta qiymatiga nisbatidir. Valyuta pariteti milly va xorijiy valyutaning harid qobilyatini taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi.

6. Mamlakatning xalqaro valyutaviy to'lovga qobilligi. 1) Agar mamlakat 3 oylik importni to'lashga etadigan oltin zahiralariga ega bo'lsa u xalqaro valyutaviy to'lovga qobil hisoblanadi. 2) oltin zahiralar + xorijiy valyutadagi zahiralar / 1yillik tovar importi X 100%. Agar bu 50% va undan yuqori bo'lsa mamlakat xalqaro valyutaviy to'lovga qobil bo'ladi.

7. Milly valyuta bozorining mavjudligi.

8. Milliy oltin bozorining rejimi.

9. Mamlakat xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi.

10. Valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi davlat organlari. O'zbekistonda Markaziy Bank Valyutani tartibga soluvchi organ hisoblanadi. 4ta valyutani nazorat qiluvchi organ mavjud:

1. Markaziy Bank

2. Moliya Vazirligi

3. Davlat Bojhona Qo'mitasi

4. Davlat Soliq Q'omitsi

Davlatlararo valyuta munosabatlarini XVF tartibga soladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad xalqaro valyuta tizimida uzluksiz faoliyat ko'rsatishni ta'minlash orqali xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishiga ko'maklashish hisoblanadi.

Valyuta munosabatlarining ba'zi bir elementlari qadimiy Rimda veksellar asosida va bir mamlakat savdogarining pulini ikkinchi bir mamlakat savdogariga almashtirib berish zaminida vujudga kelgan. Valyuta munosabatlarining rivojlanishining keyingi bosqichi qadimiy London va boshqa G'arbiy evropa mamlakatlarida o'tkaziladigan tratta operatsiyalarining rivojlanishi hisoblanadi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, jahon bozorining barpo bo'lishi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va jahon xo'jalik tizimining rivojlanishi xalqaro valyuta munosabatlari rivojlanishining asosidir. Valyuta munosabatlari xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir

bo`lagi hisoblanib, uning holati milliy va jahon iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga, siyosiy ahvolga, mamlakatning iqtisodiy potentsialiga, uning jahondagi o`rniga va boshqa omillarga bog`liq bo`ladi.

Valyuta tizimi davlatlararo bitim yoki milliy qonunlarga muvofiq valyuta munosabatlarini tashkil qilish va boshqarish shakllarini o`z ichiga oladi. Valyuta tizimining quyidagi turlari mavjud. Bular – milliy, jahon va xalqaro (mintaqaviy) valyuta tizimlaridir.

Sanoati rivojlangan davlatlar iqtisodiyotlari o`rtasidagi integratsiyaning chuqurlashuvi sharoitida valyuta tizimi jahon xo`jalik aloqalarida muhim va mustaqil o`rin tuta boshlayapti. Valyuta tizimi mamlakatning iqtisodiy holatiga bevosita ta`sir etadi (ya`ni ishlab chiqarish omillari, sur`atlariga, narxga, ish haqiga va boshqalarga).

Milliy, jahon va xalqaro (mintaqaviy) valyuta tizimlari tushunchalari birbiridan farqlanadi.

20.2. Jahon valyuta tizimi va uning elementlari. Valyuta munosabatlarini tartibga solish tizimi.

Valyuta tizimi ahamiyatining o`sishi rivojlangan mamlakatlarning milliy va mahalliy doirada valyuta sohasida davlat monopolistik boshqaruvining yangi usuli va vositalarini izlashga majbur etmoqda.

Jahon valyuta tizimi (JVT) va uning evolyutsiyasi

Rivojlangan davlatlarning valyuta tizimi nafaqat ular o`rtasidagi pul hisobkitob munosabatlarini, balki ichki pul muomalasining katta qismini ham o`z ichiga oladi. JVT oltin standartga asoslangan tizimdan asta sekin maqsadli boshqariladigan, qog`ozkredit pullariga asoslanadigan tizimga aylandi. SHu bilan birga, uning rivojlanishi (o`n yilliklar farqi bilan) milliy pul tizimining rivojlanish bosqichlarini takrorlaydi. Ichki iqtisodiyotda pul tizimi oltin tanga standartidan oltin quyma va oltindeviz, undan kredit, qog`oz pul muomalasiga o`tdi va oxirgi bosqichda ko`proq e`tibor kredit vositalariga qaratiladigan bo`ldi.

Jahon miqyosida bu holat keyinroq maxsus shakllarda namoyon bo`ldi. Bunda oltintanga standarti mutlaqo bo`lmagan, oltin quyma standarti asrlar davomida mavjud bo`lgan; oltin bilan bir qatorda yordamchi kredit pullari veksel, chek va boshqa ko`rinishida

rivojlangan. Ammo XX asr boshiga kelib, bu tizim xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yangi shakliga javob bermay qoldi. Bu davrning eng asosiy belgilaridan biri kapitalni eksport qilish – JVT ning yangi oltin standart shakllari bilan qaramaqarshilikka uchradi. Bundan tashqari, oltin zaxiralari tez rivojlanib borayotgan davlatlar xazinasida to`plana bordi. SHuning uchun ham, davlatlar o`rtasida yangi boshqariladigan valyuta tizimi zarur edi. 30yillarining ikkinchi yarmida oltin standart shakllari o`rniga qog'ozkredit pul muomalasi keldi. U davlatga emissiya mexanizmidan iqtisodiyotni boshqarish vositasi sifatida foydalanish imkonini berardi.

Jahon valyuta tizimi rivojlanishining muhim bosqichi Ikkinchi Jahon urushidan keyin boshlandi.

Ikkinchi Jahon urushi oltin zaxiralarining yangi taqsimotiga olib keldi:

-barcha davlatlarning deyarli 4/5 oltin zaxiralari AQSHda to`plandi. Dollarning JVTda etakchi o`rindaligi, oltindeviz standartining oltin dollar shaklini olganligidan dalolat berardi.

Bu holat rasmiy ravishda 1944 yil iyulda Brettonvudsdagi(AQSH)BMT Konferentsiyasida tasdiqlangandi. Unda urushdan keyingi Jahon valyuta tizimiga asos solindi.

JVT ining tashkiliy va faoliyat tamoyillari quyidagilar qilib belgilandi:

- oltin JVTining asosi sifatida tan olindi;
- dollar va funtsterlingga xalqaro hisobkitoblarda va chet el valyuta zaxiralarida asosiy o`rin berildi va ularni oltin o`rniga taqdim etilishi mumkinligi tasdiqlandi;
- dollarga nisbatan barcha mamlakat valyutalarining qat`iy pariteti o`rnatildi, dollar orqali esa – oltinning va chet el valyutalarining birbiriga nisbatan bahosi aniqlanadigan bo`ldi;
- valyuta kursining dollar paritetiga nisbatan tebranishi = 1 % darajasida belgilandi;
- JVTni boshqarish maqsadida Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) va Xalqaro rivojlanish va taraqqiyot banki (XRTB) tashkil etildi;
- valyuta cheklovi tizimi bekor qilinib, milliy valyuta konvertatsiyasi tiklandi.

Bu shaklda tuzilgan, II- Jahon urushidan keyingi JVT xalqaro valyuta moliya munosabatlaridagi tartibsizlikni yo`qotishga imkon berdi.

Ammo Brettonvuds tizimining qarama qarshiligi – tartibsiz bozor (oltinstandart) va boshqariladigan dollar tizimi bo'yicha ish yuritish quyidagilarga olib keldi:

– o'zgarmas oltin narxi va narxi o'suvchi tovar va xizmatlar orasida farq yuzaga kelishiga;

AQSHdan ko'p miqdordagi kapitalning boshqa davlatlarga oqib ketishiga (1957-1971 yillarda 54,2 mlrd. dollar miqdorida to'g'ri investitsiyalar tarzida AQSHdan boshqa davlatlarga oqib o'tgan);

– chet ellardagi katta harbiy xarajatlarga;

– AQSHning to'lov balansi taqchil bo'lishiga (uning miqdori 1953-1972 yillarda – 69 mlrd. dollarni tashkil qilgan);

– dollarning real kursi va uning oltin pariteti orasida uzulishning bo'lishiga va boshqalar.

Bundan tashqari, 60 yillarning ikkinchi yarmida G'arbiy evropa va Yaponiya AQSHdan o'z oltin zaxiralari va eksport hajmi bo'yicha ikki baravar oshib ketdi. Natijada, hatto oltindeviz standarti tayanadigan umumiqtisodiy asos o'z umrini tugatdi. Oltindollar standartining buzilishi valyuta bozorlarida dollarning «tushishi» va «valyuta isitmasi» degan iboralar tarzida o'z aksini topdi.

SHuning uchun, 1970 yilda XVFchegarasida maxsus hisob va to'lov birligi (SDR) kiritildi va u a'zo davlatlarning valyuta zaxiralarini to'ldirish uchun mo'ljallangandi. SDR jahon pulining bir qator funktsiyalarini bajaradigan bo'ldi. U XVF a'zolarining kvotalariga proporsional tarzda taqsimlanadi, shuning uchun uning asosiy qismi (2/3 dan 3/4 gacha) rivojlangan davlatlarga, 1/4 qismi rivojlanayotganlariga to'g'ri keladi. SDR ning boshlang'ich kursi AQSH dollarining rasmiy oltin miqdoriga tenglashtirilgan.

Keyinchalik uning qobiliyati 16 valyuta savati bo'yicha, hozirda esa 5 asosiy milliy valyutalar bo'yicha aniqlanadi. SDR JVTning asosiy zaxira vositasiga aylanmokda.

Bu sharoitda AQSH ikki marta dollar devalvatsiyasini o'tkazdi (1971 va 1973 yillarda). Natijada oltinning rasmiy kursi troya untsiyasi 42,22 dollargacha qilib belgilab berildi. Bu davrda ko'pchilik rivojlangan davlatlar o'z valyuta kursini ma'lum darajada ushlab turish (dollarga nisbatan) majburiyatlaridan voz kechibdi. 1973 yildan oltin maxsus oltin va tovar birjalaridagi narx asosida sotiladigan va sotib olinadigan bo'ldi. Oltin narxi JVTga bevosita ta'sir o'tkazmaydigan bo'ldi.

Bu sharoitda xalqaro valyuta munosabatlarini qayta tashkil qilish muammosi vujudga keldi. 1976 yil yanvarda XVFnning Vaqqli Qo`mitasi XVFNizomiga bir qator o`zgarishlarni kiritdi. Bu o`zgarishlar XVTi faoliyatini rasmiy ravishda qayta taqsimlashni bildirardi(Yamayka kelishuvi, 1976-1978 yy.). Valyuta munosabatlari mexanizmidagi o`zgarishlar 1978 yil 1 apreldan kuchga kirdi va u quyidagilardan tarkib topgandi:

– oltinning rasmiy narxi bekor qilindi (XVFnning mavjud oltin zaxirasi 33 foizining 1/6 qismini ochiq auktsionlarda sotib va yana 1/6 qismini a`zo davlatlarga tarqatish yo`li bilan hisobdan chiqarishgandi);

SDR JVTning asosiy zaxira aktiviga rasmiy ravishda aylantirildi.

Valyuta kurslarining «suzuvchi» tizimi qonunlashtirildi. A`zo davlatlar o`z valyuta paritetini SDR yoki boshqa chet el valyutasida ifodalay olishi mumkin edi (ammo oltinda emas).

Xalqaro valyuta boshqarish sohasi kengaytirildi. Buning uchun XVFN qoshida iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish bo`yicha a`zo davlatlar vazirlari darajasida qo`mita tashkil etildi.

Tashkil topgan valyuta tizimi ko`p jihatdan XX asrning 70 yillaridagi jahon xo`jaligining o`zgargan sharoitlariga javob berardi.

G`arbiy evropa valyuta integratsiyasining chuqurlashuvi evropa valyuta tizimining (EVT) vujudga kelishiga olib keldi. Bu valyuta tizimi mintaqaviy valyuta tizimi (MVT) bo`lib, u JVTning elementlaridan biridir.

EVT 1979 yili tashkil etildi. Bu MVTning asosiy belgisi eKYU mexanizmidir. eKYU maxsus evropa hisob birligi bo`lib, GFR (1/3 qismi) markasi boshchiligidagi G`arbiy evropaning 10 mamlakati valyutasining «savati»ga asoslangandir. SDRdan farqli ravishda eKYU bank va firmalarning xususiy operatsiyalarida qo`llaniladi. Milliy valyutalar kvotasi eKYUning tashkil etuvchilari mamlakatning iqtisodiy potentsiali bilan aniqlanadi va har 5 yilida qayta ko`rib chiqiladi. «Savat»ni qayta ko`rib chiqishda hamma aktiv va passivlar yangi kurs bo`yicha qayta baholanadi. Oxirgi marta eKYU 1989 yilda belgilangan bo`lib, valyutalar ulushi (% larda):

GFR markasi – 30,1

Frantsiya franki – 19,0

Golland guldeni – 9,4

Belgiya franki – 7,6

Ispaniya pesetasi – 5,3
va boshqalar – 5,45 ni tashkil qilgan.

EI chegarasida yagona pul birligiga o`tilishi eKYUni asosiy valyutaga aylantiradi.

Yamayka valyuta tizimidan farqli ravishda, eVT oltindan eKYUning ta`minoti sifatida kisman foydalanadi va a`zo mamlakatlarning rasmiy oltin dollar zaxiralarining 20 foizini birlashtiradi.

Valyuta kurslari rejimi valyutalarning belgilangan chegarada suzishiga asoslangan (asosiy kursdan = 2,25 %, Italiyada beqarorlik tufayli 6 %).

EVT mamlakatlararo mintaqaviy valyuta boshqarishini evropa valyuta hamkorligi fondi (EVXF) orqali amalga oshiradi. U Markaziy banklarga qisqa va o`rta muddatli kreditlarni valyuta intervensiyasi bilan bog`liq to`lov balansi taqchilligini qoplash uchun beradi.

Valyuta sohasida yagona pul asosi jahon puli mavjud emas.

Erkin konvertatsiya qilish va kapital oqib o`tishi sharoitida mamlakatlarda ichki pul muomalasi va xalqaro to`lov aylanmasi o`rtasidagi chegaralar yo`qolmoqda:

Milliy va xalqaro pulkredit bozorining birgalashishi tendentsiyasi milliy pul-kredit bozorlarining o`ziga xosligi, ixtisosligini saqlagan holda rivojlanmoqda.

Hatto AQSH, GFR, Angliya, SHveytsariya va boshqa bozorlarda operatsiyalarni erkinlashtirgan davlatlarda ham xalqaro va milliy kapital bozorlari farq qilmoqda. Masalan, AQSHning evrodollar va milliy kapital bozorlarini olaylik. AQSHda sotuvga qo`yilgan rezident va rezident bo`lmaganlarning obligatsiyalari ro`yxatdan o`tishi lozim. Bunday holat xalqaro bozorda mavjud emas.

Bundan tashqari, xalqaro bozorda chiqarilganiga bir oy bo`lmagan qimmatli qog`ozlar AQSHning investorlarga taqdim etilishi mumkin emas. Boshqa ko`pchilik davlatlarda bunday holatlar erkinroq namoyon bo`ladi (Frantsiya, Belgiya, Italiya, Yaponiya va boshqalar).

Valyuta sohasining xalqaro ayirboshlash munosabatlaridagi mavqeining oshish tendentsiyasi JVT rivojining hamma bosqichlarida (oltin standartdan boshlab) kuzatiladi. Milliy xo`jalik jahon xo`jalik aloqalariga qanchalik ko`p jalb etilgan bo`lsa, mahalliy qo`mitalar iqtisodiyotni tashqi nomaqbul ta`sirlardan holi etishga harakat qiladi.

Bu ziddiyat har bir davlatning oltin standartdan boshlab, to hozirgi kungacha bo'lgan evolyutsiyasini belgilab berdi. Masalan, oltin standart davridagi oltinning tartibsiz oqimi (davlatlar o'rtasida) oxiroqibatda ularning ishlab chiqaruvchi kuchlariga salbiy ta'sir etdi. 1929-1933 yilgi iqtisodiy krizis valyuta mexanizmining oltin standart davridagi holatiga putur etkazdi: erkin valyuta almashinuvi qattiq valyuta cheklovlari bilan almashdi, valyuta bloklari va zonolari tashkil topdi, baynalmilallashuv jarayoni to'xtatildi. Bretton-vudsdan tuzilgan xalqaro hisobkitoblar modeli valyuta mexanizmini tiklashga qaratilgan qadam bo'ldi. U aniq belgilangan tamoyillar asosida ish yuritadi, uning ustidan nazoratni XVF o'z bo'yniga olgandi.

Bretton-Vudsdan valyuta mexanizmi XX asrning 70 yillari boshlarigacha faoliyat yuritdi, u milliy manfaatlarni xalqaro majburiyatlar bilan birlashtirdi: davlatlarning nisbiy mustaqilligi (ichki iqtisodiy siyosatni o'tkazish sohasida) xalqaro kredit tizimi ishtiroki bilan ta'minlanardi. U o'z ichiga XVF krediti, zayomlar to'g'risida bosh kelishuv (1961 yil), Markaziy banklar o'rtasidagi svop kreditlari va boshqalarni olardi.

O'tgan asrning 70 yillari boshida rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti shunday chegaraga yaqinlashdiki, bunda keyingi iqtisodiy o'sish butun bazasini yangilash, valyuta ta'minotining samaradorligini oshirishni talab etardi. SHuning uchun 1971-1973 yillardagi «suzuvchi» valyuta kurslarining kiritilishi JVTning evolyutsiyasining qonuniy bosqichi edi. Hozirgi suzuvchi valyuta kurslari tizimi asosida xalqaro hisobkitob tizimida chuqur tarkibiy o'zgarishlar bo'lishiga olib keladi. Ular nafaqat moliyaviy operatsiyalar hajmining o'sishida (ular savdo operatsiyalari bilan 10:1 nisbatni tashkil etishdi), balki moliyaviy oqimlar harakatining davlat byudjeti, soliq va kredit siyosatidagi farqlarda o'z aksini topadi. Va shu munosabat bilan mamlakatlar o'z milliy valyutasi kursini mustaqil belgilash imkonini oldilar.

SHunday qilib, hozirgi valyuta tizimida, xalqaro va baynanminallik o'rtasidagi nisbat milliy omillar tomoniga xal bo'ldi.

20.3. Valyuta munosabatlari tushunchasining mazmuni.

Xalqaro valyuta munosabatlari-bu valyutalarning davlatlararo harakatlanishi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlardir.

Valyuta davlatlararo harakatlanishi uchun u xalqaro to'lov vositasi vazifasini bajara olishi va xalqaro valyuta bozorlarida oldi-sotdi qilinishi kerak. Xalqaro valyuta operatsiyalarining asosiy qismi (80 % dan ortiq) xalqaro rezerv valyuta maqomiga ega bo'lgan etakchi valyutalar orqali amalga oshiriladi.

Jaxonda o'z faoliyatini olib borishda eng mustakil bo'lgan banklardan biri bu Nemis Federal banki - Bundes bank xisoblanadi. Ba'zi bir davlatlarda Markaziy bank parlamentga xisobot beradi. Ko'pgina hollarda Markaziy banklar o'z faoliyatida mustakil bo'lsada, shu bilan birga davlat banki xisoblanadi:

Markaziy bank quyidagi asosiy funktsiyalarni bajaradi:

- banknotalar (nakd pullar) emissiyasi,
- davlatning oltin - valyuta zaxiralarini saklash,
- pul-kredit siyosati instrumentlari yordamida iqtisodni muvofiqlashtirish,

Davlatning oltin-valyuta rezervlarini boshqarish funktsiyasi. Markaziy Bank davlatning oltin, kimmatbaxr metal va kamyob toshlarni valyuta zaxiralarini boshkaradi. Davlatning rasmiy oltin-valyuta zaxiralari xalqaro xisob-kitoblarda aktivlar rezervi, xisob-kitoblar bo'yicha davlatning kafolatli sug'urta fondi sifatida namoyon bo'ladi. Odatda mamlakat oltin zaxiralarining asosiy kismi Markaziy bank ixtiyoriga berilgan bo'ladi. Ba'zi davlatlarda oltin zaxiralar moliya ministrligi ixtiyorida bo'lib, markaziy bank oltin bilan bog'liq operatsiyalarni olib boradi.

Markaziy banklar mamlakat valyuta rezervlarini o'zida yig'adi va bu rezervlar xalqaro xisob-kitoblarni amalga oshirish, to'lov balansi defitsitini qoplash va mamlakat milliy valyutasi kursining barqarorligini ta'minlash uchun ishlatiladi.

Markaziy bank orqali davlatning iqtisodiy siyosati, yanada aniqrog'i davlatning pul-kredit siyosati olib boriladi. Markaziy bankning pul-kredit siyosati davlatning iqtisodini boshkarish siyosatining bir kismi bo'lib, muomaladagi pul massasi, kredit xajmi, foiz stavkalarini darajasini va boshqa pul muomalasi va ssuda kapitali bozori ko'rsatkichlarini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar yig'indisidan tashkil topadi.

Pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi milliy valyuta barqarorligini ta'minlash, valyuta kursi va foiz stavkalarini oqilona o'rnatish asosida inflyatsiya sur'atlarini kamaytirish, kreditdan

foydalanishning samaradorligini oshirish va iqtisodiyotning barkaror o`shirishini ta`minlashdan iborat.

20.4. Valyuta kursi rejimlari.

Valyuta kursining kelib chiqishi mamlakatlar iqtisodiy faoliyatining muhim va ajralmas tarkibiy qismi bo`lgan xalqaro savdoni rivojlantirish bilan bog`liq. Valyuta kursi xalqaro savdoni rivojlanishiga ta`sir ko`rsatish bilan ichki iqtisodiyotga ham ta`sir ko`rsatadi. Bunga sabab valyuta kursi holati bilan mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalarining holati o`rtasidagi o`zaro bog`liqlikdir.

Valyuta kursi, asosan, kapital va kredit harakatida, tovar va xizmatlar savdosida valyutalarni o`zaro ayirboshlash kabi jarayonlarni amalga oshiradi. Masalan, eksport qiluvchi chet el valyutasidan olgan tushumini o`z milliy valyutasiga aylantiradi, chunki boshqa davlatning valyutasi uning o`z davlatida qonuniy ravishda xarid qilish va to`lash vositasi sifatida amal qila olmaydi. Import qiluvchi chetdan sotib olgan tovarlarni to`lovni amalga oshirish uchun milliy valyutada olgan tushumini chet valyutasiga almashtiradi. Jahon bozori va milliy bozor narxlarini hamda turli mamlakatlarning milliy va chet el valyutasida ifodalangan qiymat ko`rsatkichlarini taqqoslaydi.

SHuningdek, firma va banklarning chet el valyutasida mavjud bo`lgan davriy qayta baholash va boshqa jarayonlar uchun. Valyuta kursi – bu bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birliklarida yoki xalqaro pul birliklarida (SDR, eKYU) ifodalangan bahosidir. Tashqi jihatdan valyuta kursi jahon bozoridagi talab va taklif asosida aniqlangan bir valyutani boshqa bir valyutaga nisbatan hisoblab chiqilgan koefitsenti sifatida namoyon bo`ladi. Ammo valyuta kursining qiymat asosi valyutani xarid qilish qobiliyati hisoblanadi. Bu iqtisodiy tushuncha tovar ishlab chiqarishda ishtirok etadi va tovar ishlab chiqaruvchilar bilan jahon bozori o`rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi. Qiymat tovar ishlab chiqarish iqtisodiy sharoitlarining barcha jihatlarini ifodalaydi. Bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligiga taqqoslanishi ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonida yuzaga keladigan qiymat munosabatlariga asoslanadi. Ishlab chiqaruvchilar va xaridorlar valyuta kursi yordamida tovar va xizmatlarning milliy narxlarini boshqa davlatlar narxlarini bilan solishtiradi. Bunday solishtirish

natijasida ishlab chiqarishni mamlakat ichkarisida rivojlantirish yoki chet elga investitsiya qilishni rivojlantirishga asoslangan foydalilik darajasi yuzaga keladi.

Valyuta kursi boshqa iqtisodiy tushunchalar bilan uzviy bog'liqdir. Valyuta kursining o'zgarishiga bir qancha omillar ta'sir etadi. Bu omillar iqtisodiy, siyosiy, struktura, huquqiy yoki psixologik xarakterga ega bo'lib, valyuta kursiga to'g'ri yoki teskari ta'sir ko'rsatadi. Valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Valyuta kursining dinamikasini bevosita aniqlovchi yoki xalqaro iqtisodiy ayirboshlash jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan omillar:

- xalqaro ayirboshlashda qatnashuvchi mamlakatlarning yalpi milliy mahsulotining (YAMM) to'lov balansi;
- pulning ichki va tashqi taklifi;
- foiz stavkalari.

Bu ko'rsatilgan omillarni sabab (uyushgan) sifatida ko'rsatish mumkin.

2.(Uyushgan) sababomillarning o'zgarishiga ta'sir etuvchi va valyuta kursini o'rnatish mexanizmida boshqaruvchi sifatida ta'sir etuvchi omillar.

3.Iqtisodiy tizimni dinamik tizim tengligidan chiqib ketishi natijasida yuzaga keladigan omillar:

- iqtisodiy tanglikning namoyon bo'lishi;
- davlat byudjeti taqchilligi
- nazoratsiz emissiya;
- inflyatsiya;
- ichki va tashqi baholar o'rtasidagi farq.
- monopol ishlab chiqarish;
- pullarning xorijiy valyuta funktsiyasini bajarishi.

a) To'liq hajmda to'lov vositasi;

b) jamg'arish vositasi;

v) Kapitalning chetga oqib ketishi;

- investitsiyani qisqartirish;
- ishlab chiqarish hajmining pasayishi.
- resurslar aylanmasida qatnashmaslik;
- iste'molchilar foydalarining pasayishi;
- valyuta birjasidagi o'yin;

– tovarlarning «yuvilishi»;
– demping baholaridan foydalanish orqali ayrim firmalarning olib borayotgan tashqi savdo faoliyati.

4. Siyosiy omillar;

– mamlakat pul tizimiga bevosita o`zgarish kirituvchi siyosiy qarorlar;

– boshqaruv tuzilmasining barqarorlik darajasi;

– iqtisodiy tizimni boshqarishda ishonchlilik darajasi;

– iqtisodiy va siyosiy struktura vakillarini birbirini tushuna olish darajasi;

– qonunlarni bajarilish darajasi;

– iqtisodiyotda davlat ulushining miqdori;

– mamlakatdagi siyosiy kuchlar o`rtasidagi kelishmovchiliklar darajasi;

– iqtisodiyotni ko`tarish bo`yicha aniq ishlangan dasturning yo`qligi;

– aholining boshqaruv strukturasi ishonchlilik darajasi;

– xususiy kapitalning himoyalanganlik darajasi.

Qonuniy me`yorlarga va amaliyotga mos holda birjada chet el valyutasining kursini, qimmatli qog`ozlar kursini yoxud tovarlar bahosining o`rnatilishi, qisqacha qilib aytganda, valyuta kursini o`rnatish kotirovkalash deb ataladi. Jahon amaliyotida kotirovkalashning 2 xil usuli mavjud;

• To`g`ri kotirovka. Agar xorijiy valyuta birligining bahosi milliy valyutada ko`rsatilsa, ya`ni milliy valyutada xorijiy valyutaning bir birligiga to`g`ri keladigan miqdorda ko`rsatilsa, to`g`ri kotirovka deb ataladi. Masalan, 2006 yilning 30 sentyabrida 1 AQSH dollariga nisbatan o`zbek so`mining kursi 1250.00 so`mni, 1 Rossiya rubliga nisbatan 47.00 so`mni tashkil etdi. Bunday kotirovka hozirgi vaqtda jahondagi ko`pchilik mamlakatlarda qo`llanilib kelinmoqda.

• Egri (teskari) kotirovka. Bunda bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutalardagi miqdori o`rnatiladi, ya`ni bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutadagi bahosi ko`rsatiladi, masalan;

$$1 \text{ so`m} = \frac{1}{1250.00} \text{ AQSH dollari yoki } 1 \text{ AQSH dollari } 1250.00 \text{ so`m}$$

$$1 \text{ so`m} = \frac{1}{47.00} \text{ Rossiya rubli yoki } 1 \text{ Rossiya rubli} = 47.00 \text{ so`m}$$

Buyuk Britaniyada funt sterling, Avstraliya dollari va eKYUning kursi teskari kotirovkalash yordamida o`rnatiladi. Agarda ikki valyuta o`rtasidagi nisbat qandaydir uchinchi valyutaga nisbatan olingan kurslarida aniqlansa, bunday nisbatni «krosskurs» deb ataladi.

Masalan: 1 AQSH dollari = 30.00 Rossiya rubli

1 AQSH dollari = 5.00 Ukraina grivna

1 Ukraina grivnasi = 6.00 Rossiya rubli

Ko`rinib turibdiki, (krosskurs) yuqorida keltirilgan nisbat Ukraina grivnasining Rossiya rubliga nisbatan aniqlangan krosskursidir. Ushbu misolda AQSH dollari uchinchi valyuta sifatida gavdalanadi. Jahon amaliyotida asosan uchinchi valyuta sifatida AQSH dollari qo`llaniladi, ya`ni barcha valyutalar jahon ayirboshlashida aynan shu valyutaga nisbatan kotirovka qilinadi.

Krosskursdan foydalanish ancha og`ir va tavakkaldir. Ammo ularni qo`llash quyidagi 2 holatda zarur va foydalidir;

– sizning talabingizdagi valyutaga ega bo`lgan sotuvchilarda sizning valyutangizga talab mavjud emas. (Masalan, so`mni YAponiya ienasiga almashtirish kerak. Bu erda uchinchi valyuta AQSH dollari bo`lsin. YAponiya ienasi sotayotganlar ichida sizning valyutangizni sotib olishni xohlaydiganlar yo`q).

Oldi sotdi bitimlarini amalga oshirishda valyuta bozorida quyidagi valyuta kurslarining ko`rinishlaridan foydalaniladi;

«Spotkurs» bu naqd (kassa) bitimlarning kursidir. Spotkurs bu bir mamlakat pul birligining shartnoma tuzilgan vaqtda o`rnatilgan baho bo`yicha boshqa mamlakatlarda pul birliklarida ifodalangan bahosidir. Bunda valyutani valyuta bitimi tuzilgan kundan boshlab 2 ish kunida almashtirib berish shart hisoblanadi. «Forvard» kurs–bu muddatli valyuta bitimlarining kursidir.

Forvard kursi valyutani kelajakda aniq bir kunga etkazib berish sharti bilan sotilish va xarid qilish bahosini o`zida ifoda etadi.

Forvard bitimlari, odatda, valyuta kurslarining o`zgarishi natijasida yuzaga keladigan xavfxatarlarni bartaraf qilish maqsadida ishlatiladi. Bitim tuzilayotgan paytda forvard kursda aniqlanadi va ana

shu kurs bo'yicha valyuta sotiladi yoki sotib olinadi. Agar shartnoma muddati tugagan kunda kurs shartnoma kursidan farq qilsa, unda bir tomon foyda ko'radi ikkinchi tomon esa zarar ko'radi. Masalan, siz 2003 yil 1 yanvarda 1\$=965 so'm kursida sotib olish bitimini tuzdingiz. Ammo 2003 yil 1iyun kuni 1\$=970 so'mni tashkil etdi, natijada siz har bir dollarga 5 so'm miqdorida qo'shimcha foyda ko'rdingiz.

Agar 1iyun kuni 1\$=963 so'mni tashkil etsa, unda har bir dollardan 2 so'mdan zarar ko'rasiz.

Muddatli bitimlar bo'yicha valyuta kurslari (report) ustama yoki dastxat metodi bo'yicha kotirovka qilinadi va «autrayt» kurslari, deb ataladi.

Forward kurs + Spot kurs + Ustama Forward kurs + Spot kurs
Diskont.

Misol.

Bitim summasi 1 mln

Bitim muddati 90 kun

Bitim valyutasidagi kreditning % stavkasi (USD) 3,5 %

Baholovchi valyutadagi depozitlarga to'lanadigan % stavkasi (DEM)

5,5 % Cpot kurs 1 = 1,52101,5220 DEM

SK x FSF x BM

Ust/Disk = $(360 \times 100) = (BVFS \times BM) 1,5210 \times (5,53,5) \times 90$
273,78 = 0,0075

$(360 \times 100) + (3,5 \times 90) 36315$

Forward kurs = 1,5210 + 0,0075 = 1,5285 (ustama).

Ustama yoki diskont ekanligi foiz stavkalari o'rtasidagi farqdan bilish mumkin. Agar valyuta bitimi bo'yicha foiz stavkasi baholovchi valyutaning foiz stavkasidan past bo'lsa, bu valyuta yuqori kursda kotirovka qilinadi va chiqqan ko'rsatkich ustama sifatida sotiladi. Agar valyuta bitimining foiz stavkasi yuqori bo'lsa, bu ko'rsatkich diskont bo'ladi. Agar milliy valyutadagi depozitlarning % stavkasi bitim valyutasidagi kreditlarning foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, olingan natija diskont hisoblanadi aksincha bo'lsa ustama hisoblanadi.

Banklar valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda valyutani sotish va sotib olish kursini o'rnatadi. Bu kurslar sotuvchining va xaridorning kursi deb ataladi.

Sotuvchi kursi – bankning valyutani sotish kursi.

Xaridor kursi – bankning valyutani sotib olish kursi.

Bu kurslar o`rtasidagi farq marja deb ataladi va u xizmat xarajatlarini qoplashga va ma`lum darajada foyda olishga sarflanadi.

Valyutaning eng muhim xarakteristikasi uning konvertirlanganligidir.

Konvertirlanganlik darajasiga ko`ra valyuta kursi 3 ga bo`linadi.

- erkin «suzib» yuruvchi;
- cheklangan darajada «suzib» yuruvchi;
- qayd etilgan valyuta kurslari.

Valyuta kursi tovar bahosi kabi shu guruhlarga bo`linadi.


Erkin «suzib» yuruvchi valyuta kursi ma`lum valyutaga bo`lgan bozor talabi va taklifi ta`sirida o`zgarib turishi mumkin. Masalan, AQSH dollari, Yaponiya ienasi, Angliya funt sterlingi. SHu bois, bu valyutalar jahon valyuta ayirboshlashida keng ishtirok etadi.

CHEklangan darajada «suzib» yuruvchi valyuta kurslarining o`zgarishi ayrim valyutalar yoki bir guruh valyutalar (valyuta savati) kursi o`zgarishiga bog`liq. Misol uchun «Uchinchi dunyo»ning ko`pchilik mamlakatlari o`z valyutalarini AQSH dollariga, evropa mamlakatlarining eKYU ga va boshqa xorijiy valyutalarga bog`laydilar. CHEklangan darajada “suzib” yuruvchi valyuta kurslari kiritilgan mamlakatlar o`z valyutalarining tebranish chegarasini o`zlari hamkorlik qilayotgan mamlakatlar bilan kelishib oladilar.

Qayd etilgan valyuta kursi – bu xorijiy valyutada ifodalangan milliy pul birligining davlat tomonidan rasmiy o`rnatilgan bahosi bo`lib, unga valyuta bozorlaridagi talab va taklifning o`zgarishi ta`sir qilmaydi. Hozirgi vaqtda qayd etilgan valyuta kursi kam rivojlangan mamlakatlarda yoki iqtisodiy tashqi bozorga etarli darajada kirib bormagan mamlakatlarda ularning moliya tizimini va milliy ishlab chiqarishini kuchli xorijiy raqobatchilaridan himoya qilish va quvvatlash maqsadida qo`llaniladi. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro moliya bozorlaridagi holat hamda nufuzli markaziy banklar tomonidan olib borilayotgan pul- kredit siyosatidagi noaniqliklar rivojlanayotgan davlatlarda samarali soliq-byudjet va pul-kredit siyosatini yuritishni murakkablashtirmoqda.

SHuningdek, dunyoning etakchi import va eksport qiluvchi mamlakatlari tashqi savdo aloqalaridagi keskinliklar hamda Rossiya va dunyoning bir qator neft` eksport qiluvchi davlatlarga AQSH

hukumati tomonidan qoʻllanilgan iqtisodiy sanksiyalar rivojlanayotgan mamlakatlarga xalqaro investitsiya oqimlarining kechikishiga va pirovardida ular milliy valyutalarining qadrsizlanishiga olib kelmoqda. Jumladan, joriy yil boshidan davom etib kelayotgan AQSH va Xitoy savdo munosabatlarning keskinlashuvi hamda 2018 yilning oʻzida AQSH Federal rezerv tizimi tomonidan qayta moliyalash stavkasining uch marotaba oshirilishi¹ dunyoning boshqa markaziy banklarini oʻz pul-kredit siyosati yoʻnalishini qaytadan koʻrib chiqishga undamoqda va bu ushbu markaziy banklar tomonidan neytral ahamiyatdagi pul-kredit siyosati olib borilishini qiyinlashtirmoqda. 2018 yilning 10 oyi yakunlari boʻyicha AQSH dollar indeksi 5,4 foiz bandga koʻtarildi va aksariyat valyutalarga nisbatan qadri oshdi (-rasm).



20.1-rasm. Manba: Markaziy bank.

Jumladan, dollarning qiymati Buyuk Britaniya funtiga nisbatan 5,9 foizga, Xitoy yuaniga nisbatan 7,5 foizga, Rossiya rubliga nisbatan 16,2 foizga, Janubiy Afrika randisiga nisbatan 19,1

¹ Маълумот учун ФРТ жорий йилнинг 22 март, 14 июнь ва 27 сентябрь кунлари қайта молиялаш ставкаси (fed fund rates) 1,5 фоиздан 2,25 фоизгача оширган бўлса, Англия банки 2018 йил 2 августда ставкани 0,75 (0,25 базавий бандга) фоизга кўтарди.

foizga va Argentina pesosiga nisbatan 96 foizga o'sdi. Buni AQSHda investitsion faollikning tiklanishi va FRT tomonidan pul-kredit siyosatining normallashtirilishi hisobiga joriy yil yakunlari bo'yicha so'nggi 10 yil mobaynida kuzatilgan eng yuqori o'sish ko'rsatkichi bo'lishi to'g'risidagi kutilmalar bilan izohlash mumkin. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston moliya bozori xalqaro moliya bozorlariga kuchli integratsiya qilinmagan bo'lsa-da, tashqi savdo hamkor mamlakatlar milliy valyutalari kurslari orqali dollar indeksining o'zgarishi milliy valyuta – so'mning almashuv kursiga ma'lum muddat kechikish bilan ta'sir ko'rsatadi.

Milliy valyuta almashuv kursi dinamikasi va uning transmission xususiyati


Joriy yilning 10 oyida valyuta almashuv kursi dinamikasi iqtisodiyotning fundamental faktorlari va tashqi omillar, jumladan, iqtisodiy agentlarning inflyatsion va deval'vatsion kutilmalari, to'lov balansi joriy hisoblar hisobvarag'ining holati va xorijiy valyutadagi kreditlarga bo'lgan talabning oshishi ta'sirida vujudga kelgan talab va taklif holatidan kelib chiqqan holda shakllanib, o'zining o'rtacha qiymatidan deyarli uzoqlashmadi.

Mazkur davrda dunyoning aksariyat rezerv valyutalari hamda mamlakatimizning savdo hamkorlari milliy valyutalari kurslari AQSH dollariga nisbatan qadrsizlanishiga qaramasdan, milliy valyuta almashuv kursi oldingi yillarda kuzatilgan doimiy deval'vatsiya tendentsiyasidan farqli ravishda turli xil yo'nalishdagi dinamikaga ega bo'ldi (-rasm). 2018 yilning yanvar'-iyul' oylarida valyuta kursi dinamikasi asosan mavsumiy omillar ta'sirida shakllandi. Bunda yanvar' oyida eksport tushumlari va xalqaro pul o'tkazmalari hajmining nisbatan kam bo'lganligi sharoitida milliy valyuta almashuv kursi 8139 so'm/dollardan 8247 so'm/dollargacha pasaydi.

SHu bilan birga, mart-iyul' oylarida eksport va xalqaro pul o'tkazmalaridan valyuta tushumlarining oshishi natijasida so'mning almashuv kursi teskari dinamikaga ega bo'lib, birinchi avgust holatiga 7781 so'm/dollargacha qadri oshdi.

Bundan tashqari, chet el valyutasidagi kreditlar hajmining tez sur'atlarda o'sishi va dollarlashuv darajasining pasayishi ichki

valyuta bozoridagi xorijiy valyutaga boʻlgan talabning qisman qondirilishiga xizmat qildi. SHuningdek, milliy valyutadagi muddatli va jamgʻarma depozitlar hajmining oshishi ham soʻm almashuv kursining shakllanishiga taʼsir koʻrsatdi.



20.2-rasm. Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

Joriy yilning avgust oyidan boshlab tashqi omillarning almashuv kursi dinamikasiga taʼsiri kuchaydi. Hisob-kitoblarga koʻra, asosiy savdo hamkor davlatlar valyutalari kurslarining keskin oʻzgarishi soʻm almashuv kursiga **bir oydan uch oygacha boʻlgan** muddatdan soʻng oʻz taʼsirini koʻrsatadi. YUqorida keltirilgan omillar taʼsirida 2018 yilning avgust oyidan boshlab soʻm almashuv kursining ichki valyuta bozoridagi sharoitlarga javoban oʻzgarishi kuzatilib, joriy yilning 1 oktyabrʼ va 1 noyabrʼ holatlariga mos ravishda 8184 va 8247 soʻm/dollarni¹ tashkil etdi (yil boshida – 8139 soʻm/dollar).

Milliy valyutaning qadrsizlanishi ichki narxlar shakllanishiga maʼlum darajada taʼsir koʻrsatadi. Markaziy bank hisob-kitoblariga koʻra, soʻm almashuv kursining bir foizga qadrsizlanishi yillik inflyatsiya surʼatining oʻrtacha 0,2 foiz

¹ 2018 йил 1 октябрь ва 1 ноябрь кунларидаги валюта биржасининг банклараро савдо сессияси якунлари бўйича.

bandga tezlashishiga olib keladi.

2018 yilning sentyabr' oyidan boshlab O'zbekistonning asosiy savdo hamkor mamlakatlari moliya bozorlaridagi holatning mo'tadillashuvini inobatga olsak, ichki omillar ta'sirida joriy yil oxirigacha so'm almashuv kursining yil boshidagi darajasiga nisbatan keskin o'zgarishi kutilmayapti.

Milliy valyuta almashuv kursining mavsumiy omillar ta'sirida shakllangan ortiqcha baholanish tendentsiyasi (currency overvaluation) makroiqtisodiy disbalansni yaratadi. Joriy hisob- kitoblar uchun ochiq iqtisodiyot sharoitida foiz stavkalarining qoplanmagan pariteti (uncovered interest rate parity, UIP) buzilishi va foiz stavkasi tafovutlari ortishi ma'lum bir muddatdan keyin ichki valyuta bozoriga bosimni vujudga keltirishi mumkin.

Milliy valyutaning real almashuv kursi dinamikasi


2018 yildan boshlab milliy valyutamiz real effektiv almashuv kursi eng yirik savdo hamkorlarimiz bo'lgan 20 dan ortiq davlatlar milliy valyutalaridan tuzilgan ko'p valyutali savatchaga nisbatan o'sish tendentsiyasini namoyon etdi. Xususan, joriy yilning mart oyi boshidan kuzatilgan milliy valyuta effektiv almashuv kursining mamlakat savdo hamkorlari valyutalariga nisbatan real o'sishi avgust oyiga kelib yil boshiga nisbatan 19,2 foizni, sentyabr' oyida esa 14,9 foizni tashkil qildi.

Bunda so'mning real almashuv kursi qadri yil boshidan Xitoy yuaniga nisbatan 12,6 foizga, Qozog'iston tengesiga nisbatan 14,9 foizga, Rossiya rubliga nisbatan 20,7 foizga va Turkiya lirasiga nisbatan 45,8 foizga oshdi.

Mamlakatimizdagi yuqori investitsion faollik sharoitida real effektiv almashuv kursining o'sishi mahalliy mahsulotlarning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini pasaytirib, import hajmining ortishi va tashqi savdo balansining manfiyligiga ma'lum darajada ta'sir o'tkazadi (-rasm).

Jumladan, joriy yilning yanvar' oyida tashqi savdo balansi sal'dosi ijobiy 270 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lsa, avgust oyi yakunlariga ko'ra sof eksport -996 mln. AQSH dollarigacha qisqardi. Import hajmining oshishida asosiy drayverlar sifatida bir tarafdin investitsion tovarlar (mashina, uskuna va transport vositalari) va ikkinchi tarafdin, chegaradosh hududlar bilan tashqi savdo aloqalarining liberallashuvi natijasida ayrim turdagi oziq-ovqat, tekstil'

mahsulotlari va ko'p yil ishlatishga mo'ljallangan maishiy tovarlarning kirib kelishini keltirish mumkin.



20.3-rasm. *2017 yilning sentyabr' oyi boshidan milliy valyuta almashuv kursi 4210 so'm 35 tiyindan 8100 so'mga deval'vatsiya qilingan.

Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

Shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro pul o'tkazmalarining asosiy qismi to'g'ri keladigan davlatlar valyutalari nominal qiymatining AQSH dollariga va real qiymatining so'mga nisbatan qadrsizlanishi ushbu davlatlardan mamlakatimizga yuboriladigan pul o'tkazmalari hajmining kamayishiga olib keldi. Yanvar'-sentyabr' oylarida kuzatilgan nominal va real almashuv kurslari dinamikasi chetdan import qilishni rag'batlantirgan holda xorijiy valyutaga qo'shimcha talabni keltirib chiqardi. Mamlakatimiz uchun valyuta almashuv kursi o'tkazish davriyligi yirik savdo hamkorlarimizga nisbatan 2–4 oyni tashkil qiladi. Agar yil boshidan AQSH dollarining mustahkamlanayotgani va aprel' oyidan Rossiya hukumatiga qarshi qo'llanilgan iqtisodiy sanksiyalar natijasida rublning keskin qadrsizlanganini inobatga olsak, sentyabr' oyida kuzatilgan so'mning deval'vatsion dinamikasini tabiiy muvozanatlashuv jarayoni sifatida baholash mumkin. O'z navbatida, so'm nominal almashuv kursi deval'vatsion dinamikasi tashqi omillar

ta'sirini yumshatib, iqtisodiyotimizning o'zgaruvchan tashqi sharoitlarga moslashishiga yordam beradi. Xususan, xalqaro pul o'tkazmalari va eksportdan tushadigan tushumlarning kamayishi sababli yuzaga keladigan yo'qotishlar almashuv kursi pasayishi natijasida uning so'mdagi ekvivalenti oshishi hisobiga ma'lum darajada qoplanadi. Bunda so'm real almashuv kursining 2018 yil 9 oyi yakunlari bo'yicha holati va yil oxirigacha kutilayotgan darajasidan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, so'm nominal almashuv kursining amaldagi sur'atlarda qadrsizlanishi milliy iqtisodiyotni qo'llab- quvvatlash uchun etarli bo'lmasligi mumkin.


Ichki valyuta bozori tahlili

2018 yilning o'tgan davrida mamlakatimiz ichki valyuta bozorida talab va taklif muvozanatining shakllanishiga mavsumiy omillar, to'lov balansi holati, valyuta almashuv kursi bo'yicha kutilmalar, foiz stavkalari o'rtasidagi tafovutlar, AQSH dollarining ichki va jahon moliya bozorlaridagi kon'yunkturasi hamda boshqa bir martalik omillar ta'sir ko'rsatdi.

2018 yilning 9 oyi davomida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan ichki valyuta bozorida sotib olingan xorijiy valyutalar miqdori 7,1 mlrd. AQSH dollari (jami importning 52 foizi, jami eksportning 75 foizi)ni tashkil etdi. Mazkur talabning 28 foizi (2 mlrd. AQSH dollari) Markaziy bankning ichki valyuta bozoriga intervensiyalari hisobiga qo'plandi.

Markaziy bank tomonidan ichki valyuta bozorida intervensiyalar almashuv kursining fundamental trendiga ta'sir etmagan holda, uning keskin tebranishlari oldini olish maqsadida amalga oshirib borildi. Bunda oltin-valyuta rezervlari hajmini oshirish yoki ulardan valyuta almashuv kursini ma'lum darajada ushlab turish uchun foydalanish maqsadlari ko'zlanmadi. SHuningdek, intervensiyalar hajmida ichki valyuta bozoriga kelib tushadigan xorijiy valyuta tushumlarining mavsumiyligi ta'sirida oylar orasida o'zgarishlar kuzatildi.

Xususan, 2018 yilning birinchi choragida Markaziy bank tomonidan ichki valyuta bozoriga 600 mln. AQSH dollari (maqsadli sotish miqdoriga yaqin ko'rsatkich) miqdorida intervensiya qilingan bo'lsa, ikkinchi choragi davomida intervensiyalar hajmi birinchi chorakdagi ko'rsatkichning teng yarmini tashkil etdi.



20.4-Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

SHuningdek, ichki valyuta bozorida xorijiy valyutaga boʻlgan talab va taklif orasida katta salbiy farq vujudga kelgan sentyabr' va oktyabr' oylarida esa Markaziy bank intervensiyalari hajmining oʻtgan 8 oydagi oʻrtacha sof intervensiyalar hajmiga (oʻrtacha oylik 158 mln. AQSH dollari) nisbatan mos ravishda 615 va 318 mln. AQSH dollariga oshishi keskin tebranishlarni yumshatuvchi omil boʻldi. Natijada oktyabr' oyi oxiriga kelib soʻm devalʼvatsiyasi joriy yil boshiga nisbatan 1,3 foizni tashkil qildi (-rasm).

Nazorat uchun savollar

1. Xalqaro valyuta munosabatlari va ularni yuzaga kelish asoslari hamda milliy valyuta tizimining elementlarini yoritib bering?
2. Jahon valyuta tizimi va uning elementlari va valyuta munosabatlarini tartibga solish tizimini tushuntirib bering?
3. Valyuta munosabatlari tushunchasining mazmunini, erkin almashinadigan valyutalar hamda halqaro zaxira valyutalar boʻyicha tushunchalaringizni ayting?
4. Valyuta kursi rejimlari, milliy valyuta tizimi va uning elementlarini hamda jahon valyuta tizimi va uning elementlarini yoritib bering?

21-MODUL. XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI VA ULARNING TURLARI

21.1. Xalqaro moliya institutlarining zarurligi va turlari.

21.2. Mintaqaviy rivojlanish banklari.

21.3. Jahon banki guruhiga kiruvchi tashkilotlar: tashkil topishi, maqsadi, boshqaruv tizimi, resurslari va aktiv operatsiyalari. Mintaqaviy rivojlanish banklari.

21.4. Evropa ta`mirlash va taraqqiyot banki: tashkil topishi, maqsadi, boshqaruv tizimi, resurslari va aktiv operatsiyalari. Osiyo taraqqiyot banki: tashkil topishi, maqsadi, boshqaruv tizimi, resurslari va aktiv operatsiyalari. Islom taraqqiyot banki: tashkil topishi, maqsadi, boshqaruv tizimi, resurslari va aktiv operatsiyalari.

Tayanch iboralar: xalqaro moliya institut, Evropa ta`mirlash va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, XMK, JB, XVF.

21.1. Xalqaro moliya institutlarining zarurligi va turlari.

Xalqaro moliya institutlari nafaqat jahon iqtisodiyoti balki milliy iqtisodiyotni rivojiga, jahon iqtisodiyotini iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlarini oshirishga, xududlarni ijtimoiy – iqtisodiy muammolarini barataraf etishda muhim rol o`ynaydi. Chunki xalqaro moliya institutlari o`z faoliyati ko`lamini milliy iqtisodiyot tarmoqlarini, xususan iqtisodiyotni etakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash, texnik qayta qurollantirishda tez sur`atlarda rivojlanishida moliyaviy mablag`lar bilan doimiy ta`minlab borishda xalq qiluvchi rol o`ynaydi, shuningdek, ular chet el kapitali xarakatini qayta taqsimlash orqali o`zini faoliyat ko`lamini oshirib bormoqda. Bu shu xududni iqtisodiy ishlab chiqarish korxonalarini rivojiga ijobiy ta`sir etsa, ikkinchidan aholini ish bilan bandlik darajasini, turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mintaqaviy rivojlanish banki
Iqtisodiy geografik xududlar doirasida cheklangan xalqaro moliya institutlar
Xususiyatli belgilar
1)Mintaqaviy rivojlanish banki tegishli iqtisodiy xududlarda faoliyat

olib boradilar va ushbu mamlakatning rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqadigan maqsadlarni belgilaydilar:

2)Mintaqaviy banklar iqtisodiyot milliy iqtisodiy mustaqil mamlakatlarga nisbatan ularni iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko`ra tabaqalashgan kredit siyosatini olib boradilar;

3)Mintaqaviy banklar o`rtasida eng katta yirik ETTB hisoblanadi:

ETTB iga 56 ta mamlakat a`zo:

ETTB faoliyati a`zo mamlakatlarda ko`ppariyaviylik,plyuralizm va bozor islohotlarini mavjudligini nazarda tutuvchi siyosiy jixalariga ega:

4)Osiyo , Afrika va Lotin Amerikasining yirik mintaqaviy banklari Amerikalararo taraqqiyot banki, Afrika taraqqiyot banki Osiyo taraqqiyot bankilardan iborat.

-Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida yirik xalqaro banklarning tashkil etilishi mustamlaka tizimning tanazzulga yuz tutishi va ushbu xududlarga xos iqtisodiy muammolarni xal etish

21.8- rasm.Mintaqaviy rivojlanish banki¹

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotini rivojlantirishda mintaqaviy rivojlanish tashkilotlari ham muhim rol o`ynaydi. Mintaqaviy rivojlanish banklari o`z mintaqalariga boshqa xalqaro tashkilotlarga nisbatan imtiyozli kreditlar ajratish orqali uni rivojlantirishni nazarda tutadi. Bunday rivojlanish tashkilotlariga Evropa tiklani va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Amerikaaro taraqqiyot banki, Afrika taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banklarini kiritishimiz mumkin.

Evropa tiklanish va taraqqiyot banki ETTB — 1991 yilda tashkil topgan va unga 56 ta mamlakat a`zo. ETTB Markaziy va SHarkiy Evropa mamlakatlariga bozor iktisodiyotiga o`tish bo`yicha isloxotlarni o`tkazishda ko`maklashish maqsadida tuzilgan.

ETTBning asosiy faoliyat doirasi quyidagilardan iborat:

- infratuzilmani rivojlantirish;

-turli xususiy va xususiylashtirilgan korxonalarining loyihalarini moliyalashtirish va kreditlash. Bunda resurslarning 60% i xususiy sektorga, 40% i davlat sektoriga mo`ljallangan;

- xususiy kapital qo`yilmalarga kafolatlar berish;

¹ Муаллиф томонидан мустақил ишлаб чиқилган

- iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini qayta qurish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

- aniq loyihalarga maslahat-texnik yordam berish.

Bank uchun xususiy sektor rivojlanishi, xususiylashtirish jarayoni, to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish, moliya muassasalari hamda sanoat sektorini tashkil etish va mustahkamlash, kichik biznesni rivojlanishini qo`llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor loyiha va dasturlar bo`lib hisoblanadi. Bank xususiy va xususiylashtirilgan korxonalar taklifi homiylar salohiyati yuqori bo`lishi va biznes reja- larining ishonchli bo`lishini talab qiladi.

Boshka rivojlanish banklaridan farqli ravishda ETTB siyosiy tuzilmalarni kreditlashda ishtirok etmaydi va xususiy sektorni qo`llab-quvvatlash va loyihaviy moliyalashga ixtisoslashgan.

Bank takdim etadigan kreditning eng kam miqdori 5 mln. evroni tashkil etadi. Foiz stavkalari asosiy bozor stavkasi (odatda, LIBOR) va marjadan tashkil topadi. Kreditlar bo`yicha foiz suzib yuruvchi (svop operatsiyalarini qo`llagan xolda) yoki kat`iy stavkalarda belgilanadi. Marja miqdori kredit shartlaridan kelib chikadi.

ETTB tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar soni 200-2013 yillarda 265 tadan 302 tagacha ortgan. 2013 yilda ETTB tomonidan amalga oshirilgan loyihalarning umumiy qiymati 12,9 mlrd.evroni tashkil etgan.

2013 yilda ETTB tomonidan ajratilgan mablaglarning 38% i moliya sektoriga, 27% i korporativ sektorga, 17% i infratuzilma soxdsiga va 18% i energetika sohasiga yo`naltirilgan.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) — 1966 yilda tashkil topgan va unga 57 tamamlakat (41 ta hududiy va 16 ta hududdan tashqari mamlakatlar) a`zo. OTB ga a`zolik BMTning Osiyo va Tinch okeani bo`yicha iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo`iicha komissiyasidagi barcha mamlakatlar va Osiyo mintaqasidagi boshqa mamlakatlari (agar ular BMT yoki uning ixtisoslashgan agentliklariga a`zo bo`lsalar) uchun ochiq. A`zolikda mavjud bunday keng imkoniyatlar OTBda Osiyo mintaqasidan tashqari mamlakatlar ulushining ortishiga olib keldi, ularga bank aktsiyalarining qariyb 37% i va ovozlarning 35% i to`g`ri keladi.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB, ing. International Bank for Reconstruction and Development) - Jahon bankining asosiy kredit tashkiloti bo`lib keng miqyosda Jahon banki nomi bilan

tanilgan. Ushbu bankga a`zo bo`lish uchun ariza taqdim etgan mamlakat avvalo XVFGa a`zolikka kirgan bo`lishi lozim. Bankning barcha qarzlari a`zo davlatlar hukumatlari tomonidan kafolatlanishi kerak. Qarzar bo`yicha har olti oyda o`zgaruvchi foiz stavkasi belgilanadi. Hozirgi vaqtda mazkur stavka 6-7%ga teng. Qarzar asosan 15-20 yil muddatga, asosiy qarz summasi bo`yicha to`lovlarni 3-5 yilga uzaytirish tartibida beriladi. Qarz berish davlat xukumatining kafolati olingandan so`ng amalga oshiriladi¹.

XTTB – 1944 yilda Bretton-Vudsdagi (AQSHning N`yu-Xempshir shtatidagi shaharcha) Xalqaro valyuta – moliyaviy konferentsiyada XVF bilan bir vaqtda tuzilgan davlatlararo investitsiya institutidir. Bir vaqtning o`zida bankning nizomi ham bo`lib qolgan XTTB haqidagi Bitim 1945 yilda rasmiy jihatdan kuchga kirgan, bank o`zining faoliyatini 1946 yildan boshlagan. XTTBning shtab-kvartirasi – AQSHning Vashington shahrida joylashgan.

XTTB 2013 moliya yilida 20,6 mlrd.AQSH dollari hajmidagi kredit resurslarini zahira qildi, ushbu ko`rsatkich 2009 moliya yiliga nisbatan 52,8% oshgan.

XTTBning asosiy maqsadi – a`zo mamlakatlarga uzoq muddatli kredit va qarzar berish hamda xususiy investitsiyalarni kafolatlash orqali ularning iqtisodiyotini rivojlantirishga ko`maklashish hisoblanadi.

21.2. Mintaqaviy rivojlanish banklari.

Bankning resurslari shakllanishining manbasi bo`lib, Amerika bozorlarida obligatsiya qarzlarini chiqarish va ularni sotishdan olingan mablag`lar hisoblanadi. XTTB kreditlarni, odatda 20 yil muddatga a`zo mamlakatda ishlab chiqarish ob`ektlarini kengaytirish uchun xukumat kafolati ostida beradi. SHuningdek XTTB boshqa banklarning uzoq muddatli kreditlari bo`yicha kafolat ham beradi. U ham XVF singari, qarzdor mamlakatning moliyaviy holati, kreditlanuvchi ob`ektlar va ushbu ob`ekt bo`yicha bank missiyasi tomonidan o`rganilgan axborotlarni talab qiladi.

XTTB quyidagi dasturlar doirasida faoliyat yuritadi:

- iqtisodiy boshqaruv va kambag`allik bilan kurashish;
- ekologiya va ijtimoiy rivojlanish;

¹www.mfino.ru маълумотлар асосида муаллиф томонидан келтирилган.

- infratuzilma, xususiy sektor va moliya;
- inson salohiyatini rivojlantirish.

Keyingi yillarda XTTB rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzlarni tartibga solish bilan shug'ullanmoqda: kredilarining 1/3 qismini qo'shma moliyalashtirish deb ataladigan shaklda beradi. Bank to'lov balansi holatini yaxshilashga shuningdek, iqtisodiyot tuzilmalarini tartibga solishga strukturali kreditlarni ajratadi.

Hozirgi paytda XTTB faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- turli xildagi investitsiya loyihalarini uzoq va o'rta muddatli kreditlash;
- loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy va texnik asoslarini tayyorlash;
- rivojlanayotgan mamlakatlarda tuzilmaviy qayta qurish dasturlarini moliyalashtirish.

XTTBning asosiy mablag'lari hozirgi kunda o'rta va uzoq muddatli qarz majburiyatlarini emissiya qilish orqali xalqaro moliya bozorlaridagi operatsiyalar hisobidan shakllanadi. XTTB qimmatli qog'ozlari yuqori kredit reytingiga (AAA) ega bo'lib, dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlariga joylashtiriladi. XTTBning kreditlari qarz oluvchi davlat milliy valyutasida emas, balki devizlarda, ya'ni xalqaro darajada to'lov vositasi sifatida tan olingan valyutalarda ajratiladi.

XTTBning eng yirik qarzdorlari bo'lib, Indoneziya, Braziliya, Ruminiya, Meksika, Xitoy, Turkiya, Qozog'iston, Pol'sha, Fillipin hamda Morokko mamlakatlari hisoblanadi.

Keyingi yillarda XTTB jahon moliya bozorida yirik qarzdor rovida chiqmoqda. Bank tomonidan chiqarilayotgan obligatsiya qarzlari summasi davlatlararo investitsiya banklari o'rtasida eng katta solishtirma og'irlikka egadir.

Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA) – Jahon banki guruhiga kiruvchi xalqaro tashkilot bo'lib, u 1960 yilda tashkil etilgan. XRA Kelishuvlar moddasining 1-moddasiga muvofiq, uning maqsadi iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish, samaradorlikni oshirish va shuning asosida, sust rivojlangan a'zo mamlakatlarda aholi turmush tarzini oshirish, shuningdek, ana'naviy kreditlarga nisbatan og'ir bo'lmagan qulay shartlarda moliyaviy ko'mak berish hisoblanadi. Mazkur qarzdorlar ichida eng yiriklari Indoneziya va Braziliya hisoblanadi.

21.3. Jahon banki guruhiga kiruvchi tashkilotlar: tashkil topishi, maqsadi, boshqaruv tizimi, resurslari va aktiv operatsiyalari. Mintaqaviy rivojlanish banklari.

XMKga a`zolikka kirishda quyidagi shartlarga amal qilinadi:

- XTTBa`zoligi;
- XMK kelishuv moddasini imzolash.

XMK turli xil tarmoqlardagi loyihalarni moliyalashtiradi, ularga, qishloq xo`jaligi, tog` sanoati, ishlab chiqarish, turizm va boshqalarni kiritish mumkin. Ammo birinchi navbatdagi yo`nalish, xususiy sektor bo`lib hisoblanadi. XMK faoliyatining to`rtta asosiy yo`nalishini ajratib ko`rsatish mumkin:

- xususiy sektor loyihalarini moliyalashtirish;
- rivojlanayotgan mamlakatlardagi tashkilotlarga xalqaro moliya bozorlaridan kapital jalb qilishda yordamlashish;
- ta`lim, sog`liqni saqlash va infratuzilmani rivojlantirishga yo`naltirilgan xususiy investitsiyalar yo`lidagi to`siqlarni bartaraf etish, shuningdek, innovatsion moliyaviy mahsulotlardan foydalanish va salohiyatni oshirish orqali ichki moliya bozorlarini rivojlantirish;
- xukumatlarga maslahat va texnik yordam ko`rsatish.

XMKning xususiyati shundaki, uning mablag`laridan investitsiya olish uchun korxonalar va tashkilotlarga kredit berilganda, JTTB va XRA talab qilgandek a`zo mamlakatlarga hukumat kafolatlari talab qilinmaydi. Bu xususiy kompaniyalar uchun ular faoliyati ustidan davlat nazoratidan saqlaydi, va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilish manfaatlariga xizmat qiladi.

Demak, xalqaro moliya institutlari jahon iqtisodiyotini barcha jabxalarini iqtisodiy oshirish, ijtimiy va iqtisodiy muammolarni xalqaro etishda ularni mablag`lari hal qiluvchi rol o`ynaydi.

Hozirgi kunda Respublikamizda Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (XMK), Xalqaro Valyuta Fondi (XVF), Xalqaro tiklanish va Taraqqiyot banki (XTTB), Evropa Tiklanish va Taraqqiyot banki (ETTB), Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Islom taraqqiyot banki (IsTB), Germaniya tiklanish va taraqqiyot banki KfW Development Bank (KfW) singari chet el banklari va boshqalar tomonidan ochilgan hamda respublika iqtisodiyoti uchun muhim bo`lgan milliy iqtisodiyotdagi tuzilmaviy o`zgarishlarni ta`minlaydigan investitsiya loyihalarini kreditlashga mo`ljallangan kredit yo`nalishlari xizmat qilmoqda.

21.4. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki.

ETTB ning asosiy maqsadi-Evropa mamlakatlaridagi oldingi sobiq sotsialistik davlatlarning iqtisodiyotini ko`tarishga va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan. ETTB asosiy kreditlash ob`ektlari qilib xususiy firmalarni yoki davlat korxonalarini xususiylashtirish va qayta shakllangan kompaniyalar, qo`shma korxonalarini olgan.

CHet el banklari bilan boshlangan dastlabki hamkorlik 1991 yil ETTB xamda TIF Milliy bank o`rtasidagi shartnoma bilan izohlanadi. O`zbekistonda xalqaro moliya-kredit muassasalari ishtirokidagi xalqaro moliya institutlari kredit resurslari ulushi kattadir. O`zbekiston ETTB a`zolari orasida 2493 aktsiyaga egalik qilib 69-o`rinni egallaydi. O`zbekistonda ETTB har bir sohani moliyalashtirishda ishtirok etmoqda. ETTBning bosh maqsadi Markaziy va SHarqiy Evropa, Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlariga rejali iqtisodiyotdan – bozor iqtisodiyotiga o`tishda, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda yordam berish, iqtisodiyot tarmoqlarida iqtisodiy islohotlarni o`tkazishga ko`maklashish, monopoliya va markazlashuvga qarshi kurashishda, mamlakatlarning tezroq integratsiyalashuvida ularga moliyaviy jihatdan ko`maklashishdan iborat.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) Birlashgan millatlar tashkiloti(BMT)ning Osiyo va Tinch Okeani bo`yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasiga a`zo davlatlarning tashabbusi bilan 1966 yilda asos solinib, Osiyo va Tinch Okeani hududida joylashgan davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko`maklashishni nazarda tutadi. 1966 yil Manilada o`tkazilgan Osiyo iqtisodiy hamkorligi bo`yicha Konferentsiyada, Osiyo taraqqiyot bankiga asos soluvchi Bitim qabul qilindi va u 1966 yil dekabr oyidan kuchga kirdi. Bank OTBga a`zo mamlakatlarga iqtisodiy rivojlanish bo`yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishda moliyaviy va texnik yordam ko`rsatadi. O`zbekiston 1995 yil 31 avgustda OTBning to`liq a`zosi bo`ldi. OTB O`zbekiston Respublikasida o`z faoliyatini ravnaqini quyidagi yo`nalishlarda ko`rmoqda:

- Iqtisodiy islohotlarga, shu jumladan, moliya institutlarining institutsional o`zgarishlariga yordam ko`rsatish;

- Sarmoyani iqtisodiyotga yo`naltirish;

- Kambag'allikni kamaytirish va atrof muhitni qo`riqlash.

Osiyo taraqqiyot banki bilan faol, rejali moliyaviy va texnik

jihatdan hamkorlikni tashkil etish hamda OTB liniyasi bo'yicha moliyalashtirish uchun taklif etilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida O'zR Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 16 yanvar 27-f-sonli farmoyishiga asosan OTB bilan hamkorlik qiladigan muassasalararo komissiya tuzilgan. Mazkur farmoyishda belgilanganidek, OTB faoliyati O'zbekistonda asosan qishloq xo'jaligi, infratuzilmani qayta qurish (temir yo'llar, avtomagistral), tog'-kon sanoati, gaz quvurlarini o'tkazish, turizmni rivojlantirish, sog'likni saqlash va ekologiya, iste'mol mollari ishlab chiqarish va bank tizimini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida, shuningdek, iqtisodiyotga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiya va kreditlar ichida Xalqaro tiklanish va Taraqqiyot banki (XTTB) alohida ahamiyat kasb etmoqda. XTTB 1944 yilda BMTning konferentsiyasida tashkil etilgan va 1946 yil iyundan boshlab faoliyat yurita boshlagan. U Xalqaro Rivojlanish Assotsiatsiyasi (XRA), Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (XMK), Xalqaro Investitsiyalarni kafolatlash Agentligi kabilarni bilan hamkorlik qiladi.

O'zbekiston Jahon banki va XRAga 1992 yil sentyabrda a'zo bo'lgan. Jahon banki mamlakatimizda hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarni hamda boshqa moliyaviy va texnik yordamlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda bank tizimi sohasidagi hamkorlik samarasi yanada oshib bormoqda. Mamlakatimiz hukumati va tijorat banklari dunyoning eng mashhur hamda moliyaviy jihatdan barqaror rivojlangan chet el banklari bilan hamkorlik o'rnatmoqdalar.

Misol uchun, 2003 yil sentyabr oyida O'zbekiston Islom Taraqqiyot Banki (IsTB) ga a'zo bo'ldi. Bugungi kunda hukumatimizning «Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga muvofiq amaliy ishlar olib borilmoqda.

IsTB davlatlararo kredit tashkiloti sifatida tashkil etilgan bo'lib, unga musulmon davlatlari a'zo hisoblanadi. Ushbu bank fors ko'rfazi mamlakatlarning neft daromadlari hisobiga tashkil etilgan ilk moliyaviy institutdir. 1973 yil dekabrda musulmon davlatlari Moliya vazirlari Konferentsiyasida IsTB bo'yicha kelishuv imzolandi va 1975 yil oktabrda bank o'z faoliyatini boshladi. Bankning asosiy maqsadi qilib a'zo mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qilish belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, keyingi yillarda mamlakatimizning eng yirik va rivojlangan banklari chet el banklari va boshqa xalqaro moliya-kredit tashkilotlari kredit yo`nalishlari orqali loyihalarni moliyalashtirishda jonbozlik ko`rsatmoqdalar jumladan, xalqaro moliyaviy institutlar mablag`lari hisobiga kichik va xususiy tadbirkorlik investitsiya loyihalari, shuningdek, kichik va xususiy tadbirkorlik sub`ektlariga xizmat ko`rsatuvchi infratuzilmalarni zamonaviylashtirish va tashkil etish loyihalarini moliyalashtirish orqali mamlakatda haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirishga, kichik va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarni yanada rivojlanishini ta`minlashga erishilmoqda va natijada milliy iqtisodiyot rivojlanishi tezlashishiga ma`lum ma`noda erishish imkoniyati yaratilmoqda.

Nazorat uchun savollar

1. Xalqaro moliya institutlarining zarurligi va turlari, Xalqaro valyuta fondi va Jahon banki guruhi ularni maqsadi vazifalarini yoritib bering?

2. Mintaqaviy rivojlanish banklarini, Xalqaro moliya institutlarining zarurligini, Xalqaro moliya institutlarining turlarini, Xalqaro valyuta fondi: tashkil topishi, maqsadi, boshqaruv tizimi, resurslari va aktiv operatsiyalarini tushuntirib bering?

3. Jahon banki guruhiga kiruvchi tashkilotlar: tashkil topishi, maqsadi, boshqaruv tizimi, resurslari va aktiv operatsiyalari. Mintaqaviy rivojlanish banklarini vazifalari va aktiv operatsiyalarini yoritib bering?

4. Evropa ta`mirlash va taraqqiyot banki: tashkil topishi, maqsadi, boshqaruv tizimi, resurslari va aktiv operatsiyalari hamda Osiyo taraqqiyot banki: tashkil topishi, maqsadi, boshqaruv tizimi, resurslari va aktiv operatsiyalarini, Islom taraqqiyot banki: tashkil topishi, maqsadi, boshqaruv tizimi, resurslari va aktiv operatsiyalarini yoritib bering?

O`Z-O`ZINI SINASH TESTLARI

1. Pul - bu universal ekvivalent:

- a) xarajat;
- b) qiymatdan foydalanish;
- v) narxlar;
- d) almashinuv qiymati.

2. Iqtisodiy kategoriya sifatida pulning mohiyati ularning:

- a) funktsiyalarida;
- b) tashqi ko`rinish;
- v) narx;
- d) tarqalishi.

3. eng katta likvidlik quyidagilarga ega:

- a) naqd pul;
- b) oziq-ovqat mahsulotlari; v) oltin taqinchoqlar; d) qimmatli qog'ozlar.

4. Bir tovarni boshqasiga almashtirishning asosiy shakli bu edi:

- a) sistematik almashinuv;
- b) tasodifiy almashinuv;
- v) tovar-pul birjasi; d) teng almashinuv.

5. Mahsulotning insonning har qanday ehtiyojini qondirish qobiliyati:

- a) xarajat;
- b) ayirboshlash qiymati;
- c) qiymatdan foydalanish; d) qiymat.

6. Pulning qiymat o`lchovi vazifasi quyidagicha amalga oshiriladi:

- a) har xil tovarlarning qiymatlarini taqqoslash

jarayonida; b) tovar ayirboshlashda vositachi rolida; v) qarzni to`lash paytida; d) xazinalarni shakllantirishda.

7. Pulning to`lov vositasi vazifasi pulning quyidagicha harakat qilishida namoyon bo`ladi.

- a) tovar ayirboshlashda vositachi;
- b) universal ekvivalent;
- v) qarz majburiyatlari bo`yicha to`lov vositalari; d) to`plash vositalari.

8. Pulning to`lov vositasi sifatida ishlashi uchun qaysi formula xosdir:

- a) Pul - tovarlar - pul; b) tovarlar - pul - tovarlar;
- v) tovarlar - pul - qarz; d) tovarlar - qarz - pul.

9. Faqat pul xazina bo`lishi mumkin:

- a) naqd pulsiz; b) metall; v) xorijiy; d) naqd pul.

10. Pulning jamg`arish vositasi vazifasi pulning quyidagida namoyon bo`lishida namoyon bo`ladi:

- a) tovar ayirboshlashda vositachi;
- b) qarz uchun to`lov vositasi;
- v) tovarlarning bozordagi qiymatini o`lchash; d) qiymatlar ombori.

11. Qog'oz pullarning mohiyati shundaki, ular:

- a) to`liq qiymatga ega va ichki

qiymatga ega;
 b) nuqsonli va ichki qiymatga ega bo'lmagan;
 v) naqd pul;
 d) oltinga almashtiriladi.

12. Oltinni pul metalining roldan mahrum qilish bu: a) tezaurus;
 b) demonetizatsiya; c) nominal;
 d) devalvatsiya.

13. Pulga bo'lgan ehtiyoj quyidagilar bilan bog'liq:
 a) jamg'arishga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishi;
 b) ko'payish jarayonini muntazam yangilab turish zarurati; v) ijtimoiy mehnat taqsimotini chuqurlashtirish;
 d) davlatning paydo bo'lishi.

14. Boshqa barcha tovarlarning qiymati ko'rsatilgan ekvivalent quyidagilar: a) veksel;
 b) aktsiyalar;
 v) banknota; d) pul.

15. Mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan va unda mujassam bo'lgan ijtimoiy zaruriy mehnat:
 a) qiymatdan foydalanish; b) ayirboshlash qiymati;
 v) narx;
 d) narxlar ko'lami.

16. Tovarni boshqa tovarlarga ma'lum nisbatlarda almashtirish qobiliyati:
 a) ayirboshlash qiymati;
 b) qiymatdan foydalanish; v) narx;
 d) valyuta kursi.

17. Tovar birjasi quyidagilar paydo bo'lishi bilan tovar-pul muomalasiga aylanadi:
 a) tijorat banklari; b) qiymat belgilari;
 v) veksellar;
 d) qimmatbaho metallardan olingan pul.

18. Pulning qiymat o'lchovi vazifasi pulning quyidagilarga xizmat qilishida namoyon bo'ladi: a) tovar ayirboshlashda vositachi;
 b) tejash va to'plash vositasi; c) universal ekvivalent; d) dunyo pullari.

19. Pulning to'lov vositasi vazifasi: a) tovar ayirboshlashda vositachi sifatida;
 b) qarzni to'lashda;
 v) har xil tovarlarning qiymatlarini taqqoslash jarayonida; d) xazinalarni shakllantirishda.

20. Pul muomalada bo'lish vositasi sifatida pulning quyidagicha harakat qilishida namoyon bo'ladi.
 a) tovar ayirboshlashda vositachi;
 b) qarz majburiyatlari bo'yicha to'lov vositalari; v) to'plash vositalari;
 d) universal ekvivalent.

21. Xalqaro iqtisodiy aylanmaning pullari quyidagi funktsiyani bajaradi: a) qiymat o'lchovlari; b) dunyo pullari; c)

xazinalar;

d) muomala vositalari.

22. YAxshi pul bu:

a) metall pul o`rnini bosadiganlar;

b) majburiy nominatsiyali banknotalar;

v) nominal qiymati ular ishlab chiqarilgan qimmatbaho metall qiymatiga mos keladigan pul; d) chet el valyutasi.

23. Oltinni demonetizatsiya qilish sabablari:

a) narxlar miqyosining harakati; b) oltinning tovar tabiati; v) oltin narxlarining ko`tarilishi;

d) ayirboshlash vositasi funksiyalarini bajarish uchun oltin etishmasligi.

24. Qanday pulning pul massasining ortiqcha qismi xazinaga tushgan? a) qog'oz; v) metall;

b) kredit; d) naqd pul.

25. Pul aylanmasi nima?

a) pulning to`lov vositasi sifatida ishlashi

b) mamlakatda ishlatiladigan turli xil to`lov vositalarining harakatlanish jarayoni v) banknotalarning doimiy ravishda harakatlanishi jarayoni

d) ma'lum bir davr uchun naqd va naqdsiz shaklda barcha to`lovlarning yig'indisi

26. Qaysi veksel asosiy veksel turlari qatoriga kiradi? a) moliyaviy hisob-kitob b) bank

vekseli c) soliq hisobi d) aralash veksel

27. SHaxsiy tekshirish uchun qaysi so`z to`g'ri keladi? a) oluvchi ko`rsatilmagan

b) boshqa shaxsga o`tkazish huquqisiz ma'lum bir shaxsga berilgan c) boshqa shaxsga o`tish huquqi bilan ma'lum bir shaxsga berilgan d) ko`rsatilgan summa chek ko`rsatuvchiga to`lanishi kerak.

28. Quyidagilardan qaysi biri chekning asosiy funksiyalariga taalluqli emas? a) joriy bank hisobvarag'idan pul olish vositasi b) naqd pulsiz hisob-kitob vositasi v) to`plash vositasi d) yig'ish va to`lash vositalari

29. Oltin bilan almashtirib bo`lmaydigan banknotalar ishlashi sharoitida pulga bo`lgan talab nimani belgilaydi?

a) narx darajasi

b) aholining pul daromadlari darajasi c) davlat byudjeti taqchilligi d) bank tizimining rivojlanish darajasi

30. Oltin bilan almashtirib bo`lmaydigan banknotalar ishlashi sharoitida pul ta'minoti nimaga bog'liq?

a) qarz mablag'larining mavjudligi

b) aholining pul daromadlari darajasi c) depozitlar bo'yicha foiz stavkasi

d) narx darajasi

31. M0 pul agregati nimani o`z ichiga oladi?

- a) moliya va moliya tashkilotlari va jismoniy shaxslarning muomaladagi naqd pul miqdori va talab bo`yicha hisob-kitob, joriy yoki boshqa hisobvaraqlardagi qoldiqlari
- b) pul muomalasi, shu jumladan M1 yig`indisi va muddatli depozitlar va boshqa qarz mablag`lari
- v) muomaladagi naqd pul
- d) muomaladagi naqd plyus va pul massasi

32. M1 pul massasi nimani o`z ichiga oladi?

- a) moliya va moliya tashkilotlari va jismoniy shaxslarning muomaladagi naqd pul miqdori va talab bo`yicha hisob-kitob, joriy yoki boshqa hisobvaraqlardagi qoldiqlari
- b) muomaladagi naqd plyus va pul massasi
- v) pul muomalasi, shu jumladan M1 agregati, shuningdek muddatli depozitlar va boshqa qarz mablag`lari
- d) muomaladagi naqd pul

33. M2 pul massasi nimani o`z ichiga oladi? a) muomaladagi naqd pul

- b) muomaladagi naqd pul miqdori va moliyaviy bo`lmagan moliya tashkilotlari va jismoniy shaxslarning hisob-kitob, joriy yoki boshqa hisobvaraqlar bo`yicha qoldiqlari
- v)

muomaladagi naqd plyus va pul massasi d) pul muomalasi, shu jumladan M1 yig`indisi va muddatli depozitlar va boshqa qarz mablag`lari

34. Pul muomalasi darajasi qanday aniqlanadi?

- a) YAIMning M2 yig`indisiga nisbati
- b) yalpi ichki mahsulotning M2 yig`indisiga nisbati
- c) YAIMning M1 yig`indisiga nisbati
- d) YAIMning M0 yig`indisiga nisbati

35. Naqd pulsiz hisob-kitob shakliga nima tegishli emas?

- a) to`lov topshirig`i
- b) akkreditiv
- v) chek
- d) yig`ish buyurtmasi

36. Qaysi variantda shoshilinch to`lovni amalga oshirish mumkin?

- a) avans to`lovi
- b) akkreditiv bo`yicha hisob-kitob
- v) chek orqali hisob-kitob qilish
- d) to`lov topshirig`i

37. Korporativ korporativ karta egasi kim?

- a) tashkilot xodimi
- b) yuridik shaxs
- c) jismoniy shaxs
- d) tashkilot

38. Mamlakatda ishlatiladigan turli xil to`lov vositalarining harakatlanish jarayoni:

- a) to'lov aylanmasi
 b) pul muomalasi
 c) pul muomalasi
39. To'lov aylanmasining ikkinchi qismi:
 a) pul aylanmasi deb nomlandi
 b) to'lovlar aylanmasi
 v) pul aylanmasi
40. Naqd va naqdsiz operatsiyalar shakli:
 a) indossament
 b) pul muomalasi
 v) mamlakatning yagona pul aylanmasi
41. Veksellarning necha asosiy turi mavjud?
 a) 5
 b) 4
 6 da
42. ... naqd pul bilan kredit operatsiyalarini tuzishda veksellari ishlatiladi:
 a) moliyaviy
 b) o'tkaziladigan
 v) tijorat
43. Naqd pulsiz muomaladagi naqd va pullarning umumiy hajmi:
 a) pul massasi
 b) pul agregatlari c) pul bazasi
44. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning necha asosiy shakli mavjud?
 a) 7
 b) 6
 v) 12
45. Hisob-kitob egasining (to'lovchining) unga xizmat ko'rsatadigan bankka hisob-kitob

hujjati bilan tuzilgan, ma'lum miqdordagi pulni u yoki boshqa bankda ochilgan pul mablag'larini oluvchining hisob raqamiga o'tkazish to'g'risidagi buyrug'i:

a) to'lov talabnomasi b) to'lov topshirig'i c) inkasso topshirig'i

46. Erta va kechiktirilgan to'lovlar shartnomaviy munosabatlar doirasida qanday qo'llaniladi?

a) tomonlarning moliyaviy holatiga zarar etkazmasdan; b) tomonlarning moliyaviy ahvoriga zarar etkazish bilan v) rejalashtirilgan to'lovlar tartibida

47. To'lovni hisob-kitob qilish tartibi ... bosqichlardan iborat:

a) 8
 b) 15
 v) 10

48. Pul tizimi bu ...

a) bu milliy qonunchilikda mustahkamlangan mamlakatdagi pul muomalasini tashkil etish shaklidir

b) bu asosan kredit bank kupyuralari va savdo bitimi c) bu muomalaga pul chiqarish va ularni muomaladan chiqarish tartibi

d) bu pul muomalasi va milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash uchun pulni tartibga solishning turli xil vositalari

49. Rossiya pul tizimining shakllanishi jarayonida pul

hisobining qaysi tizimi yaratildi?

- a) ikkilik
- b) kasr
- v) uchlik
- d) to`qqiz baravar

50. Mamlakatda banknotalarni himoya qilish tartibi qanday o`rnatilgan?

- a) mahalliy hokimiyat organlari
- b) mahalliy aholi tomonidan ovoz berish natijasida
- v) mamlakat qonunchiligi
- d) ijro etuvchi hokimiyat organlari

51. Pulni tartibga solish mexanizmi bu ...

- a) bu universal ekvivalentning roli qonuniy ravishda ikkita metalga - oltin va kumushga berilgan pul tizimi
- b) bu bitta metall universal ekvivalent bo`lgan pul tizimi
- v) bu pulning barcha funktsiyalarini oltin bilan bajarishdir
- d) bu pul muomalasi va milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash uchun pulni tartibga solishning turli xil vositalari

52. Quyidagilardan qaysi biri pul tizimlari turlariga taalluqlidir?

- a) emissiya mexanizmi
- b) bimetalizm
- v) maqsadli yo'nalish
- d) inflyatsiya

53. Ikkilangan valyuta tizimi pul tizimining qaysi turiga kiradi?

- a) monometalizm

b) qog'oz-kredit muomalasi tizimlari

- c) bimetalizm
- d) inflyatsiya

54. Evropada bimetalizm qaysi davrda keng tarqalgan?

- a) XVI-XVIII asrlarda.
- b) V-VI asrlarda.
- v) 1905-1960 yillarda.
- d) IV-V asrlarda.

55. Qaysi asrda kumushning qadrsizlanishi uning ishlab chiqarilishi arzonlashganligi sababli sodir bo`lgan?

- a) VII asrda.
- b) X asrda.
- v) II asrda.
- d) XIX asr.

56. Lotin Valyuta Ittifoqiga a'zo davlatlar qaysi yilda kumush tangalarni erkin zarb qilishni to`xtatishdi va natijada bimetalizm asta-sekin o`z o`rnini monometalizmga berdi?

- a) 1941 yilda.
- b) 1878 yilda.
- v) 911 yilda.
- d) 1990 yilda.

57. Monometalizm bu ...

a) bu pul massasi hajmining o`zgarishi uchun yuqori va pastki chegaralarni belgilashdir

b) bu milliy qonunchilikda mustahkamlangan pul muomalasini tashkil etish shaklidir

c) bu bitta metallning universal ekvivalenti bo`lib xizmat qiladigan pul tizimi

d) bu universal ekvivalentning roli qonuniy ravishda ikkita metalga - oltin va kumushga

yuklangan pul tizimi

58. Rossiya imperiyasida oltin monometalizm qaysi yilda joriy qilingan? a) 1340 yilda.

b) 2000 yilda. v) 1265 yilda. d) 1897 yilda.

59. Oltin monometalizmning necha turi mavjud edi? a) ikki

b) uchta

v) to`rtta) besh

60. Oltin zaxirasiga ega bo`lgan qaysi mamlakatlarda oltin quyma standarti mavjud edi?

a) Rossiya imperiyasida, Xitoyda

b) YAponiyada, Gretsiyada, Hindistonda

v) Angliya, Frantsiya, YAponiyada d) Italiya, Misr, Frantsiyada

61. Oltin monometalizmning barcha shakllari mavjudligining parchalanishiga nima sabab bo`ldi? a) iqtisodiy tiklanish

b) jahon iqtisodiy inqirozi c) urush

d) NTP

62. Dunyo mamlakatlarining zamonaviy pul tizimlarining o`ziga xos xususiyati nimada?

a) urushlar b) ochlik

v) inflyatsiya

d) pul muomalasini davlat tomonidan tartibga solishning zaiflashishi

63. Maqsadlar ...

a) bu pul massasi hajmining o`zgarishi uchun yuqori va pastki chegaralarni belgilash

(to`g`ridan-to`g`ri cheklovlarni joriy etish)

b) bu bitta metall universal ekvivalent bo`lgan pul tizimi

v) bu oltin va kumush o`rtasidagi nisbat o`z-o`zidan ushbu metallarning bozor narxiga mos ravishda o`rnatiladigan tizim.

d) bu universal ekvivalentning roli qonuniy ravishda ikkita metalga - oltin va kumushga yuklangan pul tizimi

64. Inflyatsiya bu:

a) milliy valyutani konsolidatsiya qilish jarayoni yoki narxlar miqyosidagi o`zgarishlar

b) pulning qadrsizlanishi, narxlarning ko`tarilishi, tovar tanqisligi va tovar va xizmatlar sifatining pasayishi natijasida ularning sotib olish qobiliyatining pasayishi

v) milliy valyuta kursining chet el valyutalariga nisbatan uzoq muddatli o`shish jarayoni

d) pulning sotib olish qobiliyatining oshishi, narxlar darajasining barqarorlashuvi va tovarlar va xizmatlar sifatining yaxshilanishi bilan tavsiflangan jarayon.

65. Devalvatsiya quyidagilarni o`z ichiga oladi:

a) pul birligining oltin tarkibidagi pasayishi yoki uning rasmiy kursi

b) pul birligining oltin tarkibidagi o`shish yoki uning rasmiy kursi

v) mamlakatda amaldagi narxlar

ko`lamini kengaytirish

d) juda qadrsizlangan pul birligining bekor qilinishi va yangi valyutaning kiritilishi.

66. Kuchli inflyatsiya narxlarning o`rtacha yillik o`shish sur'ati ...% bilan tavsiflanadi.

a) 100 dan yuqori c) 10 dan 50 gacha

b) 50 dan 100 g gacha) 5 dan 10 gacha

67. G'ayratli inflyatsiya va giperinflyatsiya nimalarga xosdir?

a) rivojlanayotgan mamlakatlar va o`zlarining iqtisodiy tizimini tiklaydigan mamlakatlar

b) rivojlangan mamlakatlar c) barcha mamlakatlar

d) iqtisodiyotning davlat sektori yuqori bo`lgan mamlakatlar

68. Pul islohotining maqsadi:

a) muomaladagi banknotalarni kosmetik ravishda almashtirish, ularga qulayroq format va rang berish, himoya darajasini oshirish

b) pul muomalasini

barqarorlashtirish yoki uning ishlashi uchun sharoitlarni soddalashtirish

v) milliy valyuta kursini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish

d) mamlakatda amaldagi narxlar miqyosidagi o`zgarishlar

69. Qayta baholash quyidagilarni o`z ichiga oladi:

a) pul birligining oltin tarkibidagi o`shish yoki uning rasmiy kursi

b) pul birligi tarkibidagi oltin tarkibining yoki uning rasmiy kursining pasayishi

v) mamlakatda amaldagi narxlar miqyosini birlashtirish

d) juda qadrsizlangan pul birligining bekor qilinishi va yangi valyutaning kiritilishi

70. Inflyatsiyani o`lchash uchun

a) Dou Jons indeksidan foydalaning

b) O`zbekiston savdo tizimining ko`rsatkichi c) narx ko`rsatkichi

d) mamlakatda o`rtacha ish haqi

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR, JURNALLAR VA INTERNET TARMOG'IDAN OLINGAN TARQATMA MATERIALLAR

1. Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007 yil, 348 bet..
2. A.A.Omonov, T.M.Qoraliev. "Pul, kredit va banklar". *Darslik. TMI.* Toshkent – 2012. 489 bet
3. Golodova J.G. Finansi i kredit. Uchebnoe posobie. M-INFRA.M -2012 g. 448 st. (RUDN).
4. Lomakin V.K. Mirovaya ekonomika. Uchebnik dlya studentov vuzov.— M.. YUNITI-DANA. 2012. 671 st.
5. Mishkin F. The Economics of Money, Banking and Financial Markets (Global edition 11th Edition) (Den'gi, kredit i banki). Pearson. United Kingdom, 2015
6. S.R. Moisev. Denejno- kreditnaya politika. Teoriya i praktika. Uchebnoe posobie. 2-oe izdanie.- M. Moskovskaya finansovo-promishlennogo akademiya.- 2011 g. 784 st.
7. Rudakov O.S. Bankovskie elektronnie uslugi. Uchebnoe posobie.. Moskva. VUZOVSKIY UCHEBNIK. INFRA- M. 2012 yil.
8. Money Market: An introduction. Prof. Dr AP Faure. 1 st edition. 2013 Quoin institute (PTY) Limited & Bookboon/com.
9. Prof. Dr AP Faure. Sentral banking & Monetaty Polisy: An introduction. 1 st edition. 2013 Quoin institute (PTY) Limited & Bookboon/com.
10. Journal of Money, Credit and Banking. www. [http:// onlinelibrary.wiley. com/ journal /10.1111/](http://onlinelibrary.wiley.com/journal/10.1111/)
11. International banking/Types of Banks _ History of Banking.htm/
12. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Ilmiy-elektron jurnal. www.iqtisodiyot.uz
13. ekonomicheskoe obozrenie. www.cer.uz
14. [www.cbu. uz](http://www.cbu.uz)
15. <http://www.co-operativebank.co.uk/onlinebanking>
16. <http://www.trade2win.com/>
17. <https://yandex.ru>.
18. <https://www.youtube.com>.
19. <https://www.youtube.com>.
20. <http://www.federalreserve.gov/bankinforeg>.
21. <https://www.youtube.com>.
22. <https://www.youtube.com>.

**ABDULLAEV A.J, QAYIMOVA Z.A, BOLTAEV SH.SH,
NARZIEVA D.M**

PUL VA BANKLAR

O'quv qo'llanma

<i>Muharrir:</i>	<i>A. Qalandarov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G. Samiyeva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>Sh. Qahhorov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M. Ortiqova</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 24.04.2021. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog'oz. Bosma tobog'i 22,5. Adadi 100. Buyurtma №104.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45